


SH. TASHMATOV

90
yıl
TDIU

IQTISODIY TALIMOTLAR TARIXI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SH.X. TASHMATOV

**IQTISODIY
TA'LIMOTLAR TARIXI**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 330.101.541(072)

KBK 65.012.2ya7

T 56

Sh.X.Tashmatov. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.

Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish

nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 504 b.

ISBN 978-9943-7663-9-6

Ushbu darslik mamlakatimizda oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy yo‘nalish bakalavrilar tayyorlash davlat andazasi talablari asosida taylorlangan. Darslik mantiqan bog‘langan bobdan iborat. Undagi boblar iqtisodni tarixiy davrlash usuli asosida berilgan bo‘lib, har bir davrda yashab ijod qilgan mutafakkirlar g‘oyalari, qarashlari va ular tomonidan yaratilgan nazariya, konsepsiylar mantiqan bir-biriga bog‘langan holda berilgan. Darslikda shuningdek, har bir bob bo‘yicha mustahkamlash uchun savollar, testlar berilgan bo‘lib, ular talabalarning mazkur mavzu bo‘yicha yanada bilimlarini kengaytirish imkonini beradi.

Mazkur darslik oliy o‘quv yurtlari talabalariga, shuningdek, iqtisodiy fan bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 330.101.541(072)

KBK 65.012.2ya7

ISBN 978-9943-7663-9-6

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021,

© Sh.X. Tashmatov, 2021.

MUNDARIJA

Kirish.....	9
1-bob “IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI” FANIGA KIRISH. FANINING PREDMETI VA O’RGANISH USULLARI.....	12
1.1. G‘oyalari kuchi va fikrlar tarixini o‘qitish.....	12
1.2. Ta’limotlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonlar.....	15
1.3. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanining boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan chambarchas bog‘liqligi.....	18
1.4. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi faning predmeti va o‘rganish usullari.....	20
1.5. Iqtisodiy fikrlar tarixida biografuk va kontekst elementlari... 1-bob bo‘yicha hulosalar	22
Nazorat savollari.....	29
Nazorat savollari.....	29
2-bob QADIMGI DUNYO IQTISODIY TA’LIMOTLAR.....	31
2.1. Ilk iqtisodiy fikrlar. Qadimgi Bobil davlatining g‘oyalari....	31
2.2. Qadimgi Sharqdagi iqtisodiy fikrlar.....	35
2.3. Zardo‘shtiylik (Avesto)dagi iqtisodiy g‘oyalari.....	41
2.4. Qadimgi Gretsiyadagi iqtisodiy fikrlar.....	45
2.5. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy qarashlar.....	51
2-bob bo‘yicha hulosalar	55
Nazorat savollari.....	56
3-bob FEODAL JAMIYATI VA UNING EMIRILISHI DAVRIDAGI IQTISODIY TA’LIMOTLAR.....	58
3.1. Feodalizm davrining o‘ziga xos xususiyatlari.....	58
3.2. «Buyuk ipak yo‘li»ning Markaziy Osiyoda iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi o‘rni.....	59
3.3. Islom ta’limotida iqtisodiy qarashlar.....	63
3.4. Ibn Xoldunning iqtisodiy qarashlari.....	69
3.5. O‘rta asr G‘arbiy Yevropa va Rossiyadagi iqtisodiy g‘oyalari	71
3.6. O‘rta asr utopiyalari: Tomas Mor va Tommazo Kampanella.	77
3-bob bo‘yicha hulosalar	80
Nazorat savollari.....	82
4-bob O‘RTA OSIYODAGI TEMURIYLAR DAVRIGACHA BO‘L-GAN IQTISODIY G‘OYALAR.....	83

4.1. Marg‘inoniy “Hidoya” asarida iqtisodiy fikrlar.....	83
4.2. Forobiy asarlarida ehtiyoj, mehnat, mehnat taqsimoti, inson omilining yoritilishi.....	87
4.3. Beruniyning asarlarida kishilik ehtiyoji, mehnat va xunar masalalari.....	91
4.4. Ibn Sino asarlarida iqtisodiyotga oid fikrlar.....	95
4.5. Nizomulkning “Siyosatnoma” asaridagi iqtisodiy fikrlar.....	98
4.6. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari, undagi iqtisodiy fikrlar.....	103
4-bob bo‘yicha hulosalar	106
Nazorat savollari.....	107
5-bob AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY G‘OYALAR VA IQTISODIY SIYOSAT....	108
5.1. A.Temurning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar.....	108
5.2. Mirzo Ulug‘bek davridagi iqtisodiy islohotlar.....	116
5.3. Alisher Navoiy iqtisodiy ta’limoti.....	120
5.4. Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar davri.....	123
5-bob bo‘yicha hulosalar	128
Nazorat savollari.....	128
6-bob MERKANTELIZM IQTISODIY TA’LIMOTINING MOHIYA-TI VA AHAMIYATI.....	130
6.1. Merkantilizm tushunchasi uning mohiyati va mazmuni.....	130
6.2. Dastlabki va keyingi merkantilizmning o‘ziga xosligi.....	133
6.3. Turli mamlakatlarda merkantilizm ta’limotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	138
6.4. Merkantilizimning zamonaviy tahlillari.....	142
6.5. Merkantilizmning tarixiy ahamiyati.....	144
6-bob bo‘yicha hulosalar	145
Nazorat savollari.....	146
7-bob ANGLIYA VA FRANSIYADA KLASSIK (MUMTOZ) MAKTABNING SHAKLLANISHI.....	148
7.1. Klassik iqtisodiy maktabning paydo bo‘lishining tarixiy shart-sharoitlari va uning tavsifi.....	148
7.2. U.Pettining iqtisodiy ta’limoti.....	152
7.3. P.Buagilberning iqtisodiy ta’limoti.....	156
7.4. Fiziokratlar.....	159

7-bob bo‘yicha hulosalar	171
Nazorat savollari.....	173
8-bob KЛАSSIK IQTISODIY MAKTABNING TO‘LA SHAKLLA-NISHI. ADAM SMIT VA DAVID RIKARDO IQTISODIY TA’LIMOTLARI.....	174
8.1. Adam Smitning iqtisodiy qarashlari.....	174
8.2. D.Rikardonning iqtisodiy ta’limoti.....	188
8-bob bo‘yicha hulosalar	198
Nazorat savollari.....	199
9-bob KЛАSSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL G‘OYALARNING MOHIYATI.....	201
9.1. Tomas Maltusning “Nufuz nazariyasi”.....	201
9.2. J.S Mill iqtisodiy qarashlari.....	205
9.3. F.Bastia va G.Ch.Keri iqtisodiy qarashlari.....	215
9.4. J.B.Seyning iqtisodiy ta’limoti.....	220
9.5. S.Sismondining iqtisodiy qarashlari.....	225
9.6. Germaniya tarixiy maktabi.....	229
9.7. P.J.Prudonning iqtisodiy konsepsiysi.....	235
9.8. K.Rodbertusning iqtisodiy g‘oyalari.....	240
9.9. Iqtisodiyotda ilk matematik uslublar.....	242
9.10. Karl Marks va uning “Kapital” asari.....	244
9-bob bo‘yicha hulosalar	259
Nazorat savollari.....	262
10-bob MARJINALIZM TA’LIMOTI VA NEOKЛАSSIK IQTISODIY MAKTABLAR.....	263
10.1. Iqtisodiy ta’limotlarda marjinalizm va neoklassik yo‘nalishning shakllanishi va umumiylar ta’rifi.....	263
10.2. Avstriya maktabi: K.Menger, F.Vizer va E.Byom-Baverk....	269
10.3. Lozan maktabi vakillari.....	273
10.4. Marjinalizmning anglo-Amerika maktabi.....	276
10-bob bo‘yicha hulosalar	286
Nazorat savollari.....	287
11-bob INSTITUTIONALIZMNING YO‘NALISHI MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	289

11.1. Institutsionalizmning kelib chiqishi va undagi yangi rahnamolar.....	289
11.2. Urushdan keyingi institutsionalizm (XX a. 40–70-y.).....	294
11-bob bo‘yicha hulosalar	301
Nazorat savollari.....	302
12-bob DJON MEYNARD KEYNS TA’LIMOTI VA KEYINSCHILIK.....	303
12.1. Keyns makroiqtisodiyoti.....	303
12.2. Samarali talab.....	307
12.3. Insonning psixologik moyilligi.....	309
12.4. Jamg‘armalarning investitsiyalarga aylanishi muammosi va investitsiyalarga ta’sir etuvchi boshqa omillar.....	311
12.5. Multiplikator.....	313
12.6. Likvidlik ustunligi, pul massasi va foiz stavkasi nazariyalari..	314
12.7. Yangi keynschilik nazariyasi va makroiqtisodiy muvofiq- lashtirish muammolari.....	317
12-bob bo‘yicha hulosalar	322
Nazorat savollari.....	323
13-bob NEOLIBERALIZM G‘OYALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI. NOMUKAMMAL RAQOBAT BOZORI NAZARIYALARI.....	324
13.1. Neoliberalizm konseptsiyasi.....	324
13.2. F.Xaek va uning ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalari.....	326
13.3. V.Oyken “iqtisodiy tizim” tiplari to‘g‘risida.....	328
13.4. L.Exardning iqtisodiy islohotlari.....	329
13.5. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi konsepsiyasi.....	331
13.6. Monetarizm konsepsiyasi va uning asosiy qoidalari.....	335
13.7. IS-LM modeli.....	337
13.8. Ayrboshlash tenglamasi.....	339
13.9. Pul massasi va iqtisodiy siklar.....	342
13.10. Monopoliyalarning shakllanishi.....	344
13-bob bo‘yicha hulosalar	350
Nazorat savollari.....	350
14-bob HOZIRGI ZAMON IQTISODIY TA’LIMOTLARI EVOLYUT-SIYASI.....	351

14.1. Ishsizlik, inflyatsiya va inqiroz muammolarini iqtisodiy g‘oyalarda aks ettirilishi.....	351
14.2. Inflyatsiya va ishsizlik o‘rtasidagi bog‘liklik. Fillips egri chizig‘i.....	353
14.3. P.Samuelson iqtisodiy g‘oyalari va “neoklassik sintez” konsepsiysi. “Ekonomiks” asari.....	355
14.4. Zamonaviy institutsionalizm.....	358
14.5. Iqtisodiy taraqqiyotning to‘rt g‘ildiragi.....	361
14-bob bo‘yicha hulosalar	363
Nazorat savollari.....	364
15-bob IQTISODIYOT BO‘YICHA NOBEL MUKOFOTI LAURIYATLARINING G‘OYALARI.....	365
15.1. Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotining ta’sis etilishi.....	365
15.2. Nobel mukofotining birinchi lauriyatları: Ragnar Frish va Yan Tinbergen, Pol A.Samuelson, Simon Kuznets.....	372
15.3. Assimetrik axborot nazariyasi haqida Dj.Akerlof, M.Spens va Dj.Stiglets.....	375
15.4. D.Kanemanning iqtisodiyotda psixologik tadqiqot usullari haqida.....	378
15.5. O‘yinlar nazariyasi tadqiqotchisi.....	380
15.6. Nobel mukofotiga sazovor makroiqtisodiy nazariyalar.....	384
15.7. Pol Krugmannning megaiqtisodiyot bilan bog‘liq modeli.....	392
15.8. Iqtisodiyotni psixologiya bilan uyg‘unlashtirish.....	394
Nazorat savollari.....	396
16-bob JAHON XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDAGI IQTISODIY G‘OYALAR.....	397
16.1. Mutlaq ustunlik nazariyasi.....	397
16.2. Qiyoqlik ustunlik nazariyasi.....	399
16.3. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi.....	400
16.4. Mahsulotning hayotiy sikli.....	403
16.5. Xalqaro mehnat taqsimotini tadqiq etishning tanqidiy yo‘nalishi.....	405
16.6. Raqobat ustunligi nazariyasi.....	408
16.7. Valuta kursi nazariyaları.....	415
16.8. BMTning inson rivojlanish konsepsiysi va ming yillik deklaratsiyasi.....	421
16-bob bo‘yicha hulosalar	427

Nazorat savollari.....	429
17-bob O‘TISH DAVRINING MOHIYATI VA AHAMIYATI....	430
17.1. O‘tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari.....	430
17.2. O‘tish davri iqtisodiyoti: xususiyatlari, ko‘rinishlpri va funksiyasi.....	434
17.3. Shok terapiyasi bilan bozor iqtisodiyotiga o‘tish.....	437
17.4. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning evolyutsion yo‘l tavsifi.....	442
17.5. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning rivojlangan davlatlar tajribasi.....	443
17-bob bo‘yicha hulosalar	449
Nazorat savollari.....	451
18-bob O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MA’MURIY BUYRUQ-BOZLIK TIZIMIDAN BOZOR MUNOSA-BATLARIGA O‘TISH DAVRI KONSEPSIYASI.....	452
18.1. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tamoyillari va xususiyatlari.....	452
18.2. O‘zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo‘nalishlari.....	455
18.3. O‘zbekistonda milliy taraqqiyot bosqichlarining mazmuni, vazifalari va ahamiyati.....	459
Mamlakatni jadal islohoti va modernizatsiyalashning	
18.4. mohiyati, tamoyillari va asosiy yo‘nalishlari.....	464
18-bob bo‘yicha hulosalar	470
Nazorat savollari.....	470
19-bob ZAMONAVIY IQTISODIY TAFAKKUR YO‘LBOSH-CHILARI.....	472
19.1. Sh.Mirziyoyev iqtisodiy islohotlari va uni insonlar tafakkurida aks etishi.....	472
19.2. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning O‘zbekistondagi iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi xissalari.....	477
Nazorat savollari.....	496
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	497

KIRISH

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” iqtisodiyot yo‘nalishlaridagi universitet, institut, fakultet, ayrim guruhlarda asosiy fan sifatida o‘qitiladi. Bu fan iqtisodiyotning metodologik asoslarini ta’minlovchi va yaratuvchi fan sifatida ahamiyatlidir. Shu sababli bu fan iqtisodiyot fanining ajralmas va tarkibiy qismidir.

Bo‘lajak mutaxassislar bu fan yordamida avlod-ajdodlarimizning boy merosini o‘rganish va uni amaliyotda qo‘llash yo‘llarini ishlab chiqish imkoniga ega bo‘ladilar. Shuningdek, Yevropaning taniqli olimlari yaratgan asarlar, ular qoldirgan boy tarixiy meros, o‘tmishdagi iqtisodiy qarashlar va g‘oyalar hamda olib borilgan iqtisodiy siyosat yuzasidan xolis xulosa chiqarishlari ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Milliy ma’naviy merosimizda jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy xizmat qilgan ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalar bo‘lganligi tarixdan ma’lum. Shu g‘oyalarning tarixiy xizmati shundan iboratki, ular taraqqiyotimizning yangi davri mustaqilligimizning keyingi yillarda ham xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tarixiy fanlarga alohida e’tibor berib shunday degan edi: “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolari-mizning bebahos, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftihor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”.

Iqtisodiy tafakkur shakllanishi qadim zamonlardan boshlanib, kishilar yashashi uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalarni qidirib topish, ov qilish va nihoyat ishlab chiqarish uchun hayot sirlarini bilish, shu yo‘ldagi faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash asosida yuz berdi.

Oxirgi bir necha asrlar davomida iqtisodiy tafakkurning shakllanishini ilmiy asoslash muammosi ham nazariy, ham amaliy yondashuvlar asosida kechdi. Zamonaviy iqtisodiy tafakkur hozirgi asl holatiga kelgunicha bir qator bosqichlarni bosib o‘tgan. Birinchi bosqich xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moddiy boylikka nisbatan munosabatida aks topgan. Bu bosqichda iqtisodiy tafakkur faqat istak, intilish, xohish tarzida yuzaga kelib, bunda subyekt faqatgina moddiy boyliklarga ega bo‘lish jarayonining ishtirokchisigina bo‘lib qoldi.

Ikkinchi bosqich iqtisodiy tafakkurning amaliyotda aks etishi bo‘lib, u yuqorida yechilmagan masala, ya’ni bir xo‘jalik

yurituvchining xohishini qondirilishida bir subyektning ikki subyekt bilan munosabatga kirishishi asosida kechdi. Bu jarayonda asosiyo‘rinni iqtisodiy munosabatlar tashkil qilib, ular turli sohalar, alohida korxonalar o‘rtasida resurslarning (mehnat, moddiy ne’mat, moliyaviy, intellektual) tovar va xizmatlar ishlab chiqarishdagi taqsimoti jarayoni sifatida yuz berdi. Bunda yuqorida qayd qilingan iqtisodiy tafakkur, istak, intilish, xohish yaxlit tizimni tashkil qilmasdan uzluksiz davom etadigan doiraviy aylanish xarakterini oldi. Ikkinci bosqichni yaxlit holatda doiraviy aylanish qonuni deb ham aytish mumkin.

Iqtisodiy tafakkurning uchinchi bosqichi iqtisodiyotda doiraviy aylanishlar asosida yuzaga kelgan insonlar o‘rtasidagi munosabatlar murakkablashishi bilan bog‘liq. Uchinchi darajada xo‘jalik yurituvchi subyektlar tovar va xizmatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar asosida ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash va iste’mol jarayonini tashkil qilish orqali aholi va korxona daromadlarining ko‘payishiga xizmat qildi.

Yuqoridagi uch tarkibiy bosqich tafakkur jarayonida yuz berishi lozim bo‘lgan aniqlikni namoyon qildi. Masalan, kapitalni oladigan bo‘lsak, birinchi bosqichda u iqtisodiyot subyektining motivatsiya vositasi sifatida chiqqan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda u ishlab chiqarish moddiy ashyosi, uchinchi bosqichda esa o‘z-o‘zidan daromad keltiruvchi qiymat ko‘rinishini oladi. Demak, iqtisodiyot olamida tarixiy jarayon tufayli yuzaga kelgan kategoriya yoki qonunlar iqtisodiy tafakkur asosida vujudga kelgan iqtisodiy faoliyat natijalaridir.

To‘rtinchi bosqichda iqtisodiy tafakkur odatiy holatdan iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajadagi rivojlanish jarayoniga o‘tishi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy qaror qabul qilishda muhim o‘rin tutadigan rejalashtirish va bashoratlash darajasiga o‘tdi. Sobiq ittifoq davrida birinchi, ikkinchi bosqichdagi tafakkur ustunlikka ega bo‘lgan, natijada iqtisodiy resurslar samarasiz, oqibatini o‘ylamagan holda ishlatilgan. Xususan Orol fojiasi ekologik muammolarga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lishning yaqqol misoli¹ sifatida vujudga kelgan. Bozor

¹ O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh assambleyasining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisdagi nutqi. Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari. – T.: “O‘zbekiston”, NMU/ 2010. 7-b.

iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida iqtisodiy tafakkur uchinchi va to‘rtinchi bosqichga ko‘tarildi. Buyruqbozlik iqtisodiyoti davrida xo‘jalik yurituvchi subyekt buyruqni bajaruvchi sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tganda u zamonaviy iqtisodiy tafakkurga ega bo‘lgan, amalga oshirayotgan ishining samarasini, kelajagini ham o‘ylaydigan xo‘jalik yurituvchi subyektga aylandi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida har tomonlama o‘ylangan oqilona hamda izchil iqtisodiy siyosat nafaqat jamiyat, balki insonlar munosabatlari va xatti-harakatlarida o‘z natijalarini bermoqda. Ular qatorida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash hamda diversifikatsiyalash jarayonlari, davlatning makroiqtisodiy va moliyaviy mustahkamlash choralarini inson faoliyatida iqtisodiy mustahkamlik, barqarorlikni yuzaga keltirmoqda. Bu o‘rinda iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur darslik O‘zbekistonda insonparvar demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, iqtisodiyotni innovatsion talablar bo‘yicha taraqqiy etishida davlatda kechayotgan o‘zgarishlarni o‘rganishga xizmat qiladi.

Shuni qayd qilish lozimki, O‘zbekistonda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan bir qator farmonlar, qarorlar va dasturlar ishlab chiqishga katta ahamiyat berilmoqda. Ular qatorida 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” PQ-4947-sonli farmoni belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma’lum darajada xizmat qiladi. Darslikning maqsadi ham aynan shu yo‘ldagi faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilishga qaratilgan.


1-bob. “IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI” FANIGA KIRISH. FANINING PREDMETI VA O‘RGANISH USULLARI

1.1. G‘OYALAR KUCHI VA FIKRLAR TARIXINI O‘QITISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng islohotlar negizini to‘g‘ri talqin qilish, ular asosida qarorlar amalga oshirish yoki xulosalar berish uchun insoniyat iqtisodiy tafakkurini chuqur o‘rganishni talab qiladi. Bu, eng avvalo, iqtisodiy qonun va kategoriyalarni yuzaga keltirgan tarixiy ildizni, ya’ni iqtisodiyot fani tarixiga nazar tashlashni taqozo etadi. Demak, har qanday g‘oya va qarashlarni keltirib chiqargan tarixni o‘rganish, avvalo hozirgi kun va kelajak uchun ahamiyatlidir. Taniqli yozuvchi va adibimiz Abdulla Qodiriy aytganidek: «*Moziyga qarab ish tutish xayrlidir*»². Shu sababli iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Fransuz yozuvchisi, iqtisodchi olim Antuan de Monkrettenning “Siyosiy iqtisod haqida” (1615-yil) nomli mashhur risolasi tufayli jahon iqtisodiyoti 2015-yilda jahon iqtisodiy fanining 400 yilligini nishonladi. 1615-yili merkantelist oqim vakili Monkreten, o‘zi bilmagan holatda kelajakda insonlarning rizqi, boyligi va rivojini belgilab bergan siyosiy iqtisodiyot faniga asos soldi. To‘g‘ri “siyosiy iqtisodiy fikrlar” atamasi uning risolasi paydo bo‘lganga qadar ham mavjud bo‘lgan, lekin davlatning siyosiy-iqtisodiy xatti-harakati, bozor munosabatlaridagi hukmron g‘oyalari fan sifatida yuzaga chiqmagan edi. Tarix – bu o‘rinda iqtisodiy ilm-fanning ajralmas qismi, davlati, jamiyati, shaxslarni hayot farovonligini ta’minalash sohasi. Albatta, 400 yil mobaynida iqtisodiyot fani tubdan o‘zgardi. U o‘z yo‘lini siyosiy iqtisoddan to hozirgi zamonaviy mikro, makro, mezo va megoiqtisodiyotgacha bosib o‘tdi, bu yo‘lda davlatning ichki va tashqi iqtisodiy xatti-harakatni ko‘plab inqilobiy o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamrab oldi.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani esa iqtisodiyot nazariyasiga qaraganda atigi uch yuz yilni bosib o‘tdi. Iqtisodiy ta’limotlar bo‘yicha birinchi ishlar XIX asr ikkinchi yarmida ingliz iqtisodchisi



Tomas Robert Maltus

² Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. –T.: “Iqtisod va moliya”, 2007. 19-b.

Tomas Robert Maltusning (1766–1834) “Siyosiy iqtisod qonuniyatları”(1827.) va fransuz iqtisodchisi Jerom Adolf Blank (1798–1854)ning “Yevropaning siyosiy iqtisod tarixi” (1839.) asarlarida aks etgan. Shu davrda iqtisodiy ta’limotlarni tarixiy nuqtayi nazardan birinchi marta tahlil qilishga urinilgan. Fanning faol rivoji esa XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to‘g‘ri kelib, unda turli xo‘jalik yuritish faoliyatini va nazariy tajribalar bir qator olimlar tomonidan izohlanadi. Ular ichida nemis olimi Vilgelm Rosher (1817–1894), AQSHdan Richard Eli (1858–1943), Sharl Jid (1847–1932) va fransiyalik Sharl Rist (1874–1955)dir. Ularning ishlarida iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanning predmeti, uning vazifalari, ilmiy davrlash tamoyillari, g‘oyalari shakllanishi bo‘yicha fikrlar berib o‘tilgan³.

Demak, iqtisodiyotga oid fikr, g‘oya, qarash, nazariya va ta’limotlar atigi uch asrlik tarixga ega. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanida ayrim olimlar, davlat arboblari tomonidan ilgari surilgan g‘oya, qarash, nazariya, qonun, ta’limot, konsepsiylar, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi tarixiy rivojlanish qonuniyatları asosida taqiq etiladi.

Bugun har qanday bilim o‘z tarixiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Insoniyat doimo izlanishda bo‘lib, o‘z iqtisodiy qarashlarini sekinsta g‘oyalarga, qonuniyatlarga aylantirgan. Ibtidoiy jamoada inson ovchilik, dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, quldarlik davrida mulkka egalik, feodal davrida yerga egalik, kapitalistik davrda kapital egasi sifatida turli mulkchilikni tashkil qilish bilan bog‘liq g‘oyalalar va nihoyat sotsializm va demokratik jamiyatda eng haqiqiy iqtisodiy g‘oyalalar davlatni boshqargan. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanini o‘rganishda biz bir qator ibora va tushunchalarni ishlatamiz. Ularning ta’rifini berib o‘tamiz.

Iqtisodiy qarashlar tizimi – bu inson real xo‘jalik yuritish jarayonida yuzaga keladigan o‘zaro bog‘liq iqtisodiy fikrlar tizimi bo‘lib, u iqtisodiy holatlarni ta’riflash orqali yuzaga keladi. Iqtisodiy qarashlar qonunlar, tamoyillar, model va formulalar birlashmasidan iborat. Ular amaliy tajribalar asosida nazariyalarga aylantirilgan.

Nazariya – bu iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ularning real omillari evaziga ilmiy asoslangan holati. Ba’zi hollarda nazariya konsepsiyaiga aylanishi mumkin.


Konsepsiya – qarashlar, fikr yuritish, dunyonи anglash usuli.

³ История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. – СПб.: Питер, 2008. С.12-13.

Doktorinna – bu oldindan ishlab chiqilgan tamoyillar asosida, qattiq asosga ega bo‘lgan konsepsiadir.

Iqtisodiy fikrlash – olinadigan natijani taqqoslash ma’lum bir qolipga solish asosida yuzaga kelgan ratsional ong faoliyati.

Oqim – bu iqtisodchi olimlarning hodisa va jarayonlarning birlamchi va ikkilamchi ko‘rinishida isbotlagan o‘zaro bog‘liq iqtisodiy qarashlar yig‘indisi.



1-rasm. Iqtisodiyotning turli yo‘nalishlari va maktablari⁴

Ilmiy maktab – bu o‘zaro bog‘liq nazariy qarashlar va tadqiqot uslubiyotiga ega olimlar guruhi⁵.

⁴ Razzoqov A., Tashmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. – T.: “Iqtisod va moliya”, 2007, 5 b.

⁵ История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой.– СПб.: Питер, 2008.
14 стр

Bu fan tarixi shuni aniq isbotlamoqdaki, ko‘pgina iqtisodiy g‘oyalar obyektiv xo‘jalik amaliyoti bilan chambarchas bog‘liq. Ko‘pgina olimlar avvallari (hozir ham uchrab turadi) o‘z qarashlarini mutloq universal bekami-ko‘st deb ko‘rsatishga uringanlar. Albatta, «abadiy» qonuniyatlar ham mavjud bo‘lib, ularni istalgan tizimda kuzatish mumkin, ammo ko‘p hollarda olimlar bugungi haqiqatning tarixiyligini ilg‘ab olishga har doim qodir emas.

Quyida (1-rasm) biz shu davrgacha yuzaga kelgan iqtisodiyotning turli yo‘nalishlari va maktablari bilan tanishamiz.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixida bir muhim masala ustida to‘xtab o‘tish kerakki, avval yuzaga kelgan iqtisodiy g‘oyalarga shu kungi o‘lchovlar bilan baho beriladi va odatda ilgarigi g‘oyadagi «xato» va «kamchilik»lar aniqlanib, yangi g‘oyaning undan afzalligi «isbotlanadi».

Bunda dialektik mantiq bor albatta, lekin yuqorida ta’kidlanganidek, avvalgi g‘oyalar tufayli odatda yangi g‘oyalar yuzaga keladi, shuning uchun bu g‘oya «yaxshi», unisi «yomon» kabi baholash adolatdan bo‘lmaydi. A.Smitning mashhur asarida o‘zidan avvalgi davrda yuzaga kelgan antik dunyo, merkantilizm, fiziokratizm ta’limotlarini tahlil qilgan, Yevropaning iqtisodiy tarixi sinchiklab o‘rganilgan va yangi g‘oya vujudga keltirgan.

1.2. TA’LIMOTLARNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI JARAYONLARI

Iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganishda ma’lum davrlash tizimidan foydalaniladi. Taniqli iqtisodchi olim J.K.Gelbreyt: «Amalda iqtisodiy g‘oyalar o‘z davri va vujudga kelish joyining mahsuli bo‘lib, ular bilan chambarchas bog‘langandir; bu g‘oyalar ular tushuntirib berayotgan dunyodan mustaqil ravishda ajratib qarash mumkin emas; dunyo esa doimo o‘zgarishda bo‘ladi, agar bu g‘oyalar o‘z maqsadlariga to‘la javob berishni ko‘zlasalar, doimo shunga mos ravishda o‘zgarib turishlari kerak» deb yozgan edi.

Qadimdan to hozirgi davrgacha minglab turli-tuman iqtisodiy g‘oya, qarash, konsepsiya, nazariya, ta’limotlar vujudga kelganligi aniq. Ularning barchasini to‘la o‘rganish alohida bob, maxsus muammo. Shu maqsadda yangi-yangi tadqiqotlar olib borish, tahlil

etish va umumlashtirib e'lon qilish zarur, bu yaqin kelajak vazifasi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ammo hozirgi davrgacha jamlangan barcha iqtisodiy g'oyalarni ma'lum tizimga solish va shu asosda o'rganish maqbuldir. O'tgan davr hodisalari va g'oyalarini hozirgi zamon qarashlari «qolipi»ga zo'rmazo'raki kelishtirish, moslashtirish mumkin emas. Bu tarixni yuzaki zamonaviylashtirishga, o'rganilayotgan davrning xususiyatlarini inkor etishga olib keladi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fan sifatida tarixning rivojlanish turkumlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- alohida mamlakat va hududlarning iqtisodiy rivojlanish davrlari;
- jahon iqtisodiyotining bozor iqtisodiyotigacha bo'lgan davri;
- bozor munosabatlari rivojlanayotgan davr;
- ijtimoiy yo'naltirilgan va nazorat qilinadigan jahon iqtisodiyoti davri;
- zamonaviy davr.

Xo'jalik rivojlanishining davriy tarixi B.Gildebrand bo'yicha quyidagicha:

- natural xo'jalik davri (m.a. XII asr yarmi). Savdo hali rivojlanmagan, xo'jalik yurituvchilar o'rtasida barter munosabatlari davri;
- pul xo'jaligi (milodiy XII-XVIII asrlar). Tovar almashinushi murakkablashgan davr;
- kredit xo'jaligi (XIX asr o'rtalarida to hozirgacha) tovar almashinushi geografik chegaralanmagan, savdo va kredit nihoyatda faol davr.

K.Marksning formatsion rivojlanish nazariyasi bo'yicha iqtisodiy tarix davrlari:

- ibtidoyi jamoa davri (m.a.VI asr);
- quldorlik davri (m.a.V asr va milodiy VI asr)
- feodal davr (VI – XVIII asrlar);
- kapitalistik davr (XIX asrdan XX asrgacha);
- kommunistik davr (XX asr).

Tarixiy xronologik nazariya bo'yicha:

- eski zamon (m.a. 223-8 asrlar) insonlar ko'chmanchilik, ovchilik va terimchilik mehnati bilan shug'ullanishi;

- antik davr (m.a. V asrdan to milodiy VIII asrlar) quldorlik rivojlanishi va yerkorda xo‘jalik, savdo rivojlanishi;
- o‘rta asr (milodiy V va XVI asrlar) davlat va iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi;
- renessans davri (XVI-XVIII asrlar) buyuk ixtiolar davri;
- buyuk ochilishlar davri (XVIII asrning 1-choragi va o‘rtalari) dunyoda yangi davlatlar ochilishi;
- erkin raqobat davri (XVII asrning ikkinchi yarmi XIX asr oxirlari) bozor mexanizmlarining faollashuvi, ishlab chiqarish revolyutsiyasi bilan bog‘liq;
- monopolik raqobat davri (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning o‘rtalari) ishlab chiqarishning murakkablashuvi va kapitalning kengayishi;
- ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot (XX asr yarmidan hozirgacha) har bir shaxsning iqtisodiy shakllanishi davri.

Ibtidoiy jamoa davri quyidagi davrlarga bo‘linadi:

- poleolit (m.a. 400-40 asrlar) jamiyat to‘da bo‘lib yashashi, yig‘im terim va ovchilik bilan shug‘ullanishi;
- mezolit (m.a. 40-14 asrlar) ovchilik anjomlarining rivojlanishi, junlarni qayta ishslash, baliq ovlash, to‘da o‘rniga ibtidoiy jamoa shakllanishi;
- neolit davri (m.a. 14-10 asrlar) dehqonchilik rivojlanishi, uy hayvonlarini vujudga kelishi, hunarmandchilik va ijodiyotning rivojlanishi, o‘troq hayot kechirishi;
- ilk temir davri (m.a. 10-5 asrlar) mehnat qurollari, dehqonchilik, barter rivojlanishi.

Bu davrdagi asosiy o‘zgarishlar:

- o‘troq hayot kechirishni tanlash;
- qishloq xo‘jaligining vujudga kelishi;
- aholining ko‘payishi;
- birinchi shaharlar vujudga kelishi.

Jahon iqtisodiyotning rivojlanish davrlarini esa quyidagi davrlar bilan bog‘liq:

- genezis (1880–1940-yillar) xo‘jalik munosabatlari inqirozli davri;

- shakllanish (1950–1970) kolonial tizimning buzilishi va rivojlangan mamlakatlarning vujudga kelishi (dunyo kapitalizm va sotsializmga bo‘linishi)
- rivojlanish (1980–1990) mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar keng tarmoq olishi davri.

Shuningdek, barcha mamlakatlar ishlab chiqarishi rivojlangan, o‘tish davri va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo‘linadi.

1.3. IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI FANINING BOSHQA IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR BILAN CHAMBARCHAS BOG‘LIQLIGI

Bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani insonlarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish, iqtisodiy fikr, g‘oya, nazariyalarning kelib chiqish tarixini, ularning mohiyatini, iqtisodiy maktablar, hozirgi zamon iqtisodiy yo‘nalishlari, ularning asosiy qoidalarini yaxshi bilish, har bir nazariyaning o‘ziga xosligi bilan, uning asosiy tomonlarini, nazariya bilan amaliyotni bir-biriga bog‘lab o‘rganish zarurligi, har qanday iqtisodiy xulosa, yakun universal bo‘lmasligi, shu bois ularning amal qilish xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan chuqur iqtisodiy bilimga, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy fikrlash ko‘nikmalariga, iqtisodiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, to‘g‘ri xulosa chiqarishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyot tarixi (xalq xo‘jaligi tarixi) va iqtisodiy ta’limotlar tarixi iqtisodiyot fanining tarix va metodologik asoslarini ta’minlovchi asos sifatida ahamiyatlidir. Shu sababli u iqtisodiyot fanining ajralmas va tarkibiy qismidir. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani iqtisodiy fanlar tizimida alohida o‘rin tutadi. U mustaqil fan sifatida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda, ularning iqtisodiy bilim, malakasini oshirishda katta rol o‘ynaydi.


Bugun “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani mustaqil fan sifatida, iqtisodiy fanlar qatoridan joy olgan. Iqtisodiyotning amaliy va ilmiy yutuqlarini shaklanish darajalarini birlashtirib, ularni yanada kengroq o‘rganishga sababchi bo‘lmoqda.

Iqtisodiyotning zamonaviy qonuniyatları ulug‘ iqtisodchi olimlarning ko‘p asrlik ishlari tufayli yuzaga kelgan. Ularni

o‘rganmasdan iqtisodiyotni anglash qiyin. Shu sababli “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” bu – zamonaviy iqtisodiyotga kirishdir.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani iqtisodiy fanlar turkumidagi barcha fanlar bilan bog‘liq. Jumladan, “Iqtisodiyot nazariyasi” fani doirasidagi iqtisodiy qarashlar, tushunchalar va qonuniyatlar tarixiy rivojlanish xarakteriga ega bo‘lib, ularni shakllanishi iqtisodiy ta’limotlar tarixining asosiy obyektini tashkil etadi. “Iqtisodiyot nazariyasi”da, asosan, eng muhim iqtisodiy kategoriyalarning so‘nggi davr uchun tahlili beriladi. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ilgari surilgan iqtisodiy qarash, g‘oya, nazariya va ta’limotlarni, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini va umumiylarini tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq etadi. Shu nuqtayi nazardan ushbu fan “Makroiqtisodiyot”, “Mikroiqtisodiyot” va “Milliy iqtisodiyot” kabi iqtisodiy fanlar bilan ham bog‘liq deb ko‘rsatishimiz mumkin.

Fanlarning otasi bo‘lgan “Falsafa” iqtisodiy fanlar rivojlanishiga sababchi bo‘lgani kabi iqtisodiy qarash va fikrlarning rivojlanishiga ham turtki bo‘lgan. Iqtisodiy ta’limotlar tarixiga, balki boshqa fanlarga ham xos bo‘lgan falsafiy xususiyat shuki, iqtisodiy g‘oyalar doimo dialektik rivojlanishda bo‘lib, ularning tahliliga so‘nggi nuqta qo‘yish qiyin. Bundan bir necha yuz yil avval yuzaga kelgan fikr va g‘oyalarning ma’nosini ustida tortishuv va bahslar hali ham davom etib kelmoqda.



Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanining boshqa fanlardan farqli muhim xususiyati shuki, har bir g‘oya, unda ta’limot uni yaratgan bir yoki bir guruh insonlar, olimlar, davlat rahbarlarining faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda beriladi.

1.4. IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI FANINING PREDMETI VA O'RGANISH USULLARI

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanning predmeti – bu shakllanish, rivojlanish jarayoni, iqtisodiyot, fan, texnika va ijtimoiy sohada insoniyat rivojlanishining turli bosqichlarda iqtisodiy qarashlarning kurashi va almashinuvidir.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixiy rivojlanish jarayoniga muvofiq tarzda o’rganiladi. Shu bilan birga, bir narsani qayd qilib o’tish kerakki, iqtisodiy ta’limotlar tarixi zamonaviylikka yo’naltirilgan. Bu ko’rib chiqilayotgan muammolarning hozirgi kundagi dolzarbligi bilan ifodalanadi. O’tgan davr iqtisodiy ta’limotlari tahlili ehtiyojlarni to’la qondira olmaydi, qolaversa, bunday tahlillar faqat tarixiy jarayonlarni o’rganish uchun amalga oshirilmaydi. Albatta, bugungi kunning dolzarb muammolarini to’la hal etishda o’tgan davr iqtisodchilaridan tayyor javob topish qiyin, ammo o’tgan donishmandlarning fikr-mulohazalari hozirda va kelajak to‘g’risida to‘g’ri xulosa chiqarish va yangi g’oyalarni yaratish uchun imkon beradi. Zero, tarixiy tajriba shunisi bilan ham qimmatlidir. Tarixiy o’tmishni bilish hozirgi davr ibtidosini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanini o’rgangach, iqtisodchi mutaxassislar, eng avvalo, jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyot rivojlanishining obyektiv qonunlarining mohiyatini ochib berish, muqobil xo’jalik qarorlarini asoslab berish va keyinchalik ularni amalga oshirishda ijobjiy yondashish uchun zarur bo’lgan o’zlarining tadqiqot mahoratlarini oshiradilar.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanining o’rganish predmeti – iqtisodiy jarayonlarga bo’lgan iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi, iqtisodiy g’oya va nazariyalarning shakllanish, rivojlanish qonuniyatları va ularning almashinuvining tarixiy jarayoni hisoblanadi. Iqtisodiy ta’limotlarning vujudga kelishi va rivojlanishi tahlili yozuv ixtiro qilingan quzdorlik davridan boshlab ijtimoiy taraqqiyotning barcha tarixiy jarayonlarini, barcha tarixiy davrlarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani bir qator maqsadlarga tayanadi:

- iqtisodiy nazariyasining qonuniyatları va xususiyatlarini anglash;
- shu fan yuzasidan bilimlarni kengaytirish;
- turli davrlarda yashab ijod etgan iqtisodchilar va ularni qarashlari bilan tanishish;

– jahon va milliy iqtisodiyotning rivojlanishi asosida yuzaga kelgan qonuniyatlar bo‘yicha bilimlarning amalda qo‘llanish jarayonini o‘rganish;

– iqtisodiy madaniyatni oshirish.

Hozirgi paytda dunyodagi ilg‘or g‘oyalarni o‘rganish davomida hur fikrlilikka (plyurnalizmga) keng o‘rin berish, har qanday fikrni atroflicha tahlil etish kerakligi aniq bo‘lib qoldi. Shu sababli fanni tadqiq etish usullariga turli tomondan yondashamiz.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanining uslublari turli adabiyotlarda turlicha yondashilgan holda ko‘rsatib berilmoqda. Rossiya olimlari tomonidan yaratilgan darsliklarda u ikki usulda ko‘rsatiladi⁶. Bular:

1. Tarixiy tahlil uslubi. Iqtisodiy konsepsiyalarning shakllanish va rivojlanish jarayonini anglash asosida, ularning kelib chiqishini tahlil qilishdir. Konsepsiyanı tahlili asosida uning qaysi davrda vujudga kelganini anglash uni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2. Turli nisbatlar uslubi. Iqtisodiyot nazariyasini o‘rganishda iqtisodiy kategoriylar nisbatini va o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Iqtisodiy konsepsiyanı o‘rganish iqtisodiy fanlarning ichki xossalarini aniqlash, ularni o‘zaro bog‘liqligi va nisbatlarini ko‘rib chiqishni zaruriyatini tug‘diradi. Ana shunda tarixiy rivojlanishni o‘rganish qo‘l keladi.

G.M. Gukasyan va G. Ninseva⁷ quyidagi usullar “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanini kengroq ochib berishga xizmat qiladi deb hisoblagan, ya’ni:


– kumulyativ usul (unga ko‘ra keyinchalik vujudga kelgan iqtisodiy qonuniyatlar ilgari yaratilgan g‘oyalarning tekislanishi oqibatida vujudga kelgan deb hisoblanadi);

– evolyutsion usul (tarixiy hodisa va jarayonlarga tayanilgan holatda o‘rganishga asoslanadi);

– tajriba, induksiya va deduksiya usullarining birga qo‘llanilishi.

⁶ История экономической мысли. Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. – СПб.: Питер, 2008. С.15-16.

⁷ Гукасъян Г.М., Нинцева Г.В. История экономической мысли.– СПб.:Питер, 2008. 6-7 стр.



2-rasm. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi uslublari

O‘zbekistonlik olimlar “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”ni o‘rganish usullari sifatida quyidagi bir qator progressiv uslublarni ajratadi:

- *har qanday tadqiqotning asosi uslubi sifatidagi dialektika, induksiya va deduksiya, analiz va sintez;*
- *o’tmishdagi iqtisodiy qarashlarni o‘rganishda abstrakt va konkretlikni ajratish;*
- *iqtisodiy nazariya va amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning tahlili, iqtisodiy ta’limotlardagi umumiylilik, yagona va alohidalikni aniqlash.*

Iqtisodiy ta’limotlar tarixini o‘rganishda umumiylilik, yagona va alohidalik uslubini tovar tahlili misolida ko‘rish mumkin:

umumiylilik – tovar iste’mol qiymat va almashuv qiymatga ega ekanligi;

yagona – tovar konkret foydalikka ega ekanligi;

alohidalik – tovar ne’matlarning maxsus ko‘rinishi ekanligi.

Demak, yuqoridagilarni jamlaydigan bo‘lsak, Iqtisodiy ta’limotlar tarixi bir qator progressiv iqtisodiy tahlil uslublarini qo‘llaydi⁸.

1.5. IQTISODIY FIKRLAR TARIXIDA BIOGRAFIK VA KONTEKST ELEMENTLARI

XXI asr insoniyatni hozirga qadar boshdan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan jarayonlar zamiriga tortdi. Mazkur asr intellektual avlod, globallashuv, axborot-kommunikatsion texnolo-

⁸Djumanov D., Allaberganov Z., Husanov D., Mamadiyorov O., Ruziyev B. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma’ruzalar matni). –Toshkent: 2016. 10-b.

giyalar davri deb ta'kidlanmoqdaki, buning sababi biz albatta, tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan o'ta shiddatli va murakkab texnikaviy islohotlar bilan birga shaxs tafakkurida kechayotgan o'zgarishlarda deb aytamiz. Albatta, bunday o'zgarishlar ko'lami intellektual saviyani yanada samaraliroq sohalarga yo'naltirishga undamoqda, jamiyat a'zolarini esa bunday sohalardagi o'zgarishlarni tezda ilg'ab oladigan, voqealarga befarq bo'lmaydigan iqtisodiy tafakkurga ega qilib tarbiyalamoqda.

Insonni bilish faoliyati voqelikni, narsa va hodisalarni sezish hamdaidrok qilishdan boshlanadi, so'ngra asta-sekin tafakkurga, fikr yuritishning aqliy yo'l bilan aks ettirishga o'tadi. Fiziologik jihatdan qaraydigan bo'lsak, tafakkur sezgi, idrok, tasavvur yordamida atrof-muhit bilan bevosita bog'lanadi, so'ngra voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning belgi va sifatlarini bosh miya yarim sharlarida aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur aks ettirishning adekvatligi (to'g'riliqi) insonning amaliy faoliyatida, tabiatni o'rganish va jamiyatni rivojlantirish holatida tekshirib boriladi, ong va aql idrok yordamida uzlusiz ravishda nazorat qilib turiladi.

Albatta aytish lozimki, iqtisodiyot – odamlarning xo'jalik yuritish munosabatlarini o'rganadigan ilmiy bilim sohasi bo'lib, uni amalga oshirish darjasи esa iqtisodiy tafakkurga tayanilgan holat va jarayondir. Iqtisodiy munosabatlarda asosiy omil bo'lib, inson qatnashgani uchun ham, uning xatti-harakati tafakkur hosilasidir.

Iqtisodiy tafakkurni o'rganishdan asosiy maqsad bo'lib, iqtisodiy tafakkurni shu jamiyatdagi taraqqiyoti, rivojlanishi va moddiy turmush darjasи ko'tarilishida aniq nazariy asos yaratilishi va jamiyatning demokratik nuqtayi nazardan yangilanishi bilan bog'liq. Iqtisodiy tafakkur iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi, teran fikr yuritish, vaziyatga ko'ra iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilib, to'g'ri qarorni chiqarishga asos bo'ladi.

Jahon iqtisodiy fani va amaliyotida "iqtisodiy tafakkur" tushunchasiga nazariy yondashuvlar, iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga oid umumiy masalalar yoki uning ayrim jihatlarini bir qator olimlar⁹ qarashlarida uchratish mumkin.

⁹Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории: Пер. с англ. / Сост. и науч. ред. Р.И. Капельошников; Предисл. М.И. Левина. М.: ГУВШЭ, 2003. Абалкин Л.И. Рост потребления и фактор разнообразия. Новейшие исследования

L.I.Abalkin, G.N.Sokolova, L.S.Blyaxman¹⁰ iqtisodiy tafakkurni aniq jamoaviy vaziyatlarda iqtisodiy ong mahsuli sifatida qarab, u uy xo‘jalik faoliyatini boshqarishda bevosita vaziyatni baholash va qaror chiqarish usullari sifatida gavdalangan nuqtayi nazar deb qaraydilar. Ularning ta’kidlashi bo‘yicha doimiy gavdalangan nuqtayi nazarlar, tahlillar, qarorlar tufayli vujudga kelgan iqtisodiy qarash empirik bosqichni hosil qiladi yoki kundalik hayotda boshqariladi, lekin har doim ham nazariy xulosalar bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Shunday qilib, iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkur bir turga xos bo‘lsa ham turli darajada qo‘llaniladi.

Belorus olimi G.N.Sokolova¹¹ iqtisodiy tafakkurni jamoaviy vaziyatlarda vujudga kelgan iqtisodiy ong mahsuli sifatida qaraydi.

P.Xeyne “iqtisodiy tafakkur shakli”ga tayyor xulosalar yoki “tafakkur texnikasi” ko‘rinishida emas, balki iqtisodiy tafakkurni yo‘nalish sifatida qabul qildi. Bunday yo‘nalish individlarning o‘z manfaatiga ko‘ra faoliyat olib borishga intilishida aks etadi, deb bilgan. Iqtisodiy tafakkur mavjud vaziyatning tahlili va uni baholanishi asosida kishilarning o‘z foyda va daromadlari ularning muqobil tanlovi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bunday tanlov ikki yoki bir necha muqobil faoliyat yo‘llari sifatida ifodalanadi¹².

Iqtisodiy tafakkurga berilgan bir qator ta’riflarda iqtisodiy kategoriya va qonunlarning ong orqali anglash jarayoni, shuningdek, faoliyat boshqaruving shakli deb ta’kidlangan. Biroq, aytish lozimki, iqtisodiy tafakkur iqtisodiy faoliyat, kategoriya va qonunlarga hamda ularning qo‘llanishiga bog‘liqdir. Iqtisodiy tafakkurning “mustaqil manbasi” sifatida nafaqat qonun va kategoriylar, balki subyektning iqtisodiy faoliyat sohasida vujudga keladigan ehtiyoj va qiziqishlari ham chiqadi. Xuddi shuning uchun ham bir qator mualliflar iqtisodiy tafakkurni obyektiv-subyektiv jarayonlarning muhim darajasi sifatida

западных и российских эволюционистов. М.: 2004 Соколова Г.Н. Рыночные отношения в Беларуси: от эволюции к инновациям // Социологические исследования. 2007. № 2. 118. Улыбин К.А. Социалистическая собственность без иллюзий и догм. –М.: 1990 П.Хейне "Экономический образ мышления" –М.: Новости, 2001.

¹⁰Абалкин Л.И. Рост потребления и фактор разнообразия Новейшие исследования западных и российских эволюционистов. М., 2004 Соколова Г.Н. Рыночные отношения в Беларуси: от эволюции к инновациям // Социологические исследования. 2007. № 2. 118. Бляхман Л.С.Перестройка экономического мышления. - М., Политиздат, 1990

¹¹Соколова Г.Н. Рыночные отношения в Беларуси: от эволюции к инновациям//Социологические исследования. 2007. № 2. 51-57 с.

¹² П.Хейне "Экономический образ мышления" –М.: Новости, 2001. С.34

chiqishini, unda ongli ravishda obyektiv iqtisodiy qonunlar va mexanizmlar o‘zaro aloqadorlikda ishlatalishini ta’kidlaydilar¹³ (L.I. Abalkin, P. Xeyne).

Bundan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy tafakkur tushunchasini ta’riflashda ikki asosiy tamoyilga asoslanadi, bir tomondan, iqtisodiy munosabatlar amal qilishi asosida vujudga kelgan tushuncha va xulosalar aksi sifatida, ikkinchi tomondan, qonun, kategoriyalarning amaliyotda qo‘llanish jarayoni sifatida chiqadi.

Bir qator olimlar (A.P.Sudelskiy, L.S.Blyaxman¹⁴ va b.) iqtisodiy tafakkur hamma faoliyatning ichki mexanizm sifatida bog‘liqlikda chiqishini ta’kidlashadi. Ularning fikricha, iqtisodiyotda kishilar faoliyatining tarkibiy qismi sifatidagi yondashuv, iqtisodiy va psixologik tafakkurning integratsiyasini belgilaydi.

Adabiyotlarda, shuningdek, “zamonaviy iqtisodiy tafakkur” degan ibora vaqtiga – vaqt bilan uchrab turibdiki, u iqtisodiy taraqqiyotni yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarilishining bosh omiliga aylanib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiy tafakkur tushunchasiga turli iqtisodchilar turli xil ta’rif berib o‘tishgan. Jumladan, iqtisodiy lug‘atda: “Zamonaviy iqtisodiy tafakkur – bu hozirgi zamon rivojlanish bosqichida fan va jamoa ishlab chiqarish jarayonidagi erishilgan yutuqlarga iqtisodiy qarash va tasavvurlar majmuasidan iborat”¹⁵ deb qayd qilinadi. A.Yu.Arkipov esa mazkur tushunchaga: “zamonaviy iqtisodiy tafakkur bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida infratuzilmaning yangilanishi, davlat tasarrufidan chiqarish, ya’ni xususiylashtirish bosqichida individlar tafakkurida kechgan o‘zgarish” deb qaraydi. E.F.Borisov fikriga ko‘ra: “Iqtisodiy tafakkur ikki turga ajraladi, ular odatiy hayotning iqtisodiy tafakkuri va ilmiy asoslangan iqtisodiy tafakkur. Yangicha iqtisodiy tafakkur obyektiv borliqning nazariy asosini tashkil qilib, xo‘jalik yuritish faoliyatini chuqr

¹³ Абалкин Л.И. Рост потребления и фактор разнообразия Новейшие исследования западных и российских эволюционистов. –М., 2004 Соколова Г.Н. Рыночные отношения в Беларуси: от эволюции к инновациям // Социологические исследования. 2007. № 2. 118., П.Хейне "Экономический образ мышления" –М.: Новости, 2001. С.35

¹⁴ Судельский А.П. Формирование у школьников экономической культуры. Ж.Педагогика. – М.: 1987., Бляхман Л.С.Перестройка экономического мышления. – М.: Политиздат, 1990

¹⁵ <http://www.ekoslovar.ru/493.html>

o‘rganishga qaratilgan ilmiy asoslangan iqtisodiy qarashdir”¹⁶ deb qaraladi.

Jahon amaliyotida iqtisodiy tafakkur sohalarida anchagina yutuqlarga erishgan Nobel mukofoti bilan taqdirlanganlar misolida ham ko‘rish mumkin¹⁷. Ular orasida 1992-yil Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan Geri Bekker o‘zining iqtisodiy yondashuvlari bilan alohida ajralib turadi.

G.Bekkerning ishlari zamonaviy iqtisodiy fan sohasida keng e’tirof etilgan, ayni vaqtda ularda bir qarashda bir-biriga bog‘lanmagan muqobil vaziyatlarning iqtisodiy tahlili umumiy tamoyil asosida bog‘langan. Bekker o‘tkazgan tadqiqotlari natijasida xulosaga keladiki, inson jamoaviy va hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda, o‘zi anglamagan holatda ko‘p hollarda “iqtisodiy zehn”ga tayanadi¹⁸.

Yuqoridagilarni jamlagan holda, zamonaviy iqtisodiy tafakkur:

- insonlar farovonligini ta’minlaydigan taraqqiyotining zamonaviy darajasi;
- “o‘z manfaati yo‘lida hamkorlik” hamda ishonch;
- “iqtisodiy zehn”dir deb ayta olamiz.

Mamlakatimizda “iqtisodiy tafakkur” tushunchasiga bir guruh olimlar¹⁹ ham o‘z yondashuvlarini bayon qiladi: “Iqtisodiy hodisaning mohiyatini, iqtisodiy rivojlanishning qonun-qoidalarini, o‘ziga xos tomonlarini tushunib yashash, bu iqtisodiy nazariyalarni bilish va ulardan samarali foydalanish qobiliyati iqtisodiy tafakkurni vujudga

¹⁶ Е.Ф.Борисов. Экономическая теория. Курс лекций для студентов высших учебных заведений. СП.: 2008,34 б.

¹⁷ XXI asrda erishgan yutuqlar sifatida biz Djordj Akerlof, Maykl Spens, Djozef Stiglitsning “Axborotlar asimmetriyasi asosida bozor tahlili uchun” (2001-yil), Deniel Kaneman, Vernon Smitning “Alternativ bozor mexanizmi va qarorlar yechimini topish sohasidagi tadqiqoti uchun” (2002-yil), Robert Inglning “Geteroskedastichnost avtoregressiv sharoitida matematik model asosida iqtisodiy modelning ba’zi tahlil usulini ishlab chiqqanligi uchun” (2003-yil), Edvard Preskott “Ishbilarmo sikllar asosida harakatlanuvchi kuch tadqiqoti va shu kabilarning mazkur mukofot bilan taqdirlangani iqtisodiy siyosatga vaqt omilini ta’sirini o‘rganilgani uchun” (2004) va boshqalar iqtisodiy tafakkurning qanchalik yuksak cho‘qqilarini zabt etganini anglatadi.

¹⁸ Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории: Пер. с англ. / Сост. и науч. ред. Р.И. Капельошников; Предисл. М.И. Левина. М.: ГУ-ВШЭ, 2003, 32 б.

¹⁹ T.Ergashev, R.Ismatov. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. –Т.: Sharq. 2001., Do’sxodjayev T., Mirhamidov –М., Hasanov S. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. –Т.: “Moliya iqtisod” 2004, Qodirova Z.R. Yangicha iqtisodiy tafakkur va xalqaro munosabatlar//Xalqaro munosabatlar// 2004, №2, 84 б., D.Tojiboyeva, N.Xo‘jayev, G.Avalova. Iqtisodiy pedagogika. O‘quv qo’llanma. Т., “Fan va texnologiya”, 2008

keltiradi”²⁰. Mazkur ta’rifda iqtisodiy tafakkurning mohiyati va xususiyatlariga qarab, uning uchta turini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- oddiy kuzatish va anglash tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tafakkur, ya’ni empirik tafakkur ko‘rinishida chiqadi;
- chuqur bilimlar va g‘oyalarga asoslangan iqtisodiy tafakkur. U abstrakt tafakkur sifatida chiqadi;
- murakkab jarayonlar tahlili bilan bog‘liq iqtisodiy tafakkur²¹. U ijtimoiy tafakkur sifatida chiqadi.

Iqtisodiy tafakkur – shaxsnинг iqtisodiy voqelik va jarayonlarga munosabatini ifodalaydigan iqtisodiy g‘oyalar, qarashlar va tasavvurlar majmuidir²². Ular (T.Yergashev, R.Ismatov) ushbu ta’rif orqali iqtisodiy tafakkurni iqtisodiy g‘oya, qarash va tasavvurda deb bilib, ularni yoshlikdan ta’lim orqali anglatish lozimligini uqtirishadi.

Xuddi shunga o‘xhash fikrlar “Iqtisodiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasida ham ifodalangan: “Iqtisodiy tafakkur – bu iqtisodiy fikrlash, bilimning natijasidir. Iqtisodiy tafakkur chegarani his qilish, me’yorni bilish, hisob-kitob qilish orqali xohish, istak bilan imkoniyatni taqqoslab qaror qabul qilishda ifodalanadi. Iqtisodiy tafakkur 1) iqtisodiy bilim, qarashlar, g‘oyalar, ma’naviy yaxlitligi sifatida; 2) iqtisodiy qarashlar g‘oyalarning asosi; 3) odamlar tomonidan o‘rganilgan iqtisodiy bilimlarga emas, balki iqtisodiy munosabatlar, aloqalarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy tafakkurning shakllanishi dastlab, shaxsiy tajribalar, og‘ir jismoniy mehnatni yengillashtirishga, cheklangan resurslardan samaraliroq foydalanishga, turmush darajasini ko‘tarishga bo‘lgan intilishlar bilan bog‘liq bo‘lsa, keyinchalik u falsafiy, so‘ngra diniy qarashlar bilan bog‘liq holda rivojlanadi”²³. Mazkur iqtisodiy tafakkurga berilgan ta’riflar iqtisodiy bilimlarning iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo‘lishi, uning natijasi deb qaralgan.

Ta’riflardagi asosiy kamchiliklar deb quyidagilarni keltirish mumkin: birinchisi – ular iqtisodiy tafakkurni bilim, qarash va g‘oyalar

²⁰ Do‘sxdjayev T., Mirhamidov M., Hasanov S. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. –T.: “Moliya iqtisod”, 2004, 216 b.

²¹ Do‘sxdjayev T., Mirhamidov M., Hasanov S. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. –T.: “Moliya iqtisod”, 2004, 216 b.

²² T.Ergashev, R.Ismatov. Iqtisodiy savodhonlik asoslari. –T.: Sharq. 2001. 11 b.

²³ D.Tojiboyeva, N.Xo‘jayev, G.Avalova. Iqtisodiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Fan va texnologiya”, 2008, 126 6.

majmui, ularning natijasi ekanligiga ko‘p e’tibor qaratishgan. Jumladan, T. Do’sxodjayev va boshqalarda berilgan ta’rifda iqtisodiy voqelik va jarayonlar natijasi bo‘lgan iqtisodiy qarash, g‘oya va tasavvur deb ta’riflangan. Bu bilan ular iqtisodiy tafakkur allaqachon shu g‘oya, qarash va tasavvurda shakllanib bo‘lgan natija deb qaralgan. Ikkinchilik – bu inson iqtisodiy jarayonlarning va munosabatlarning doimiy ishtirokchisi ekanligi inobatga olinmagan. Xuddi shunday fikr D.Tojiboyeva va boshqalar tomonidan berilgan ta’riflarda ham ko‘ringan. Aslida esa iqtisodiy tafakkur to‘xtamas, doimo rivojlanib, boyib boradigan iqtisodiy kategoriyadir.

Mamlakatimiz olimlaridan biri X.P.Abulqosimov iqtisodiy tafakkur kishilarda shakllangan o‘z iqtisodiy salohiyatining maqsadi, vazifalarini bozor qonunlari talablariga muvofiq asoslash bilan bir qatorda ularni amalga oshirish vositalari va usullarini o‘zining hamda hamkorlarning manfaatlarini hisobga olgan holda aniqlashga, tanlashga qaratilgan fikrlash tarzini ifodalaydi²⁴ deb ta’rif beradi. Albatta bu yerda iqtisodiy tafakkurda inson omilining roliga ko‘proq e’tibor berilgan. Ammo jamiyat nafaqat bir insonning manfaatida yotadi, balkim bir qator davrlarda shakllanib kelgan qonuniyatlar asosida kechadi. Ta’rifda shu jihatga ahamiyat berilmagan.

Tadqiqotchilarimizda yangicha iqtisodiy tafakkur tushunchasiga ham ta’riflar uchrab turadi. Yangicha iqtisodiy tafakkur bir tadqiqotchi olim (Z.R.Qodirova) tomonidan quyidagicha ta’riflanadi: “Yangicha iqtisodiy tafakkur, bizning nazarimizga ko‘ra, uchta asosga ega, birinchidan, insonning bozor sharoitida muhim bo‘lgan shaxsiy fazilatlari. Ikkinchidan, texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi, xususan moddiy ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari nisbati. Uchinchidan, davrimizga xos ijtimoiy jarayonlarning har mamlakat ijtimoiy madaniy xususiyatlarini o‘ziga xos nisbati va ijtimoiy turmushning globallashuvi bilan tavsiflanadi”²⁵. Bu ta’rif ancha mukammal, chunki unda zamonaviy iqtisodiy tafakkurga xos uch belgi keltirilgan.

Yuqoridagi ta’riflarni umumiylashtirsak, iqtisodiy tafakkur:

²⁴ Abulqosimov X.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo‘llari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T., 2005, 37–38-betlar.

²⁵ Qodirova Z.P. Yangicha iqtisodiy tafakkur va xalqaro iqtisodiy munosabatlar//Ж. Xalqaro munosabatlar// 2004, №2, 84-6.

- xususiy ehtiyoj va manfaatlarning to‘qnashuvi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy bilim, qarash va g‘oyalar;
- iqtisodiy kategoriya va qonunlarni ong orqali anglash jarayoni;
- iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish tamoyillari;
- qonun, kategoriyalarning amaliyotda qo‘llanilish jarayonidir.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida biz “iqtisodiy tafakkur” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berdik. Iqtisodiy tafakkur – bu xususiy (jamiyat) ehtiyoj va manfaatlarining o‘zaro ta’siri jarayoni natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy tushuncha, xulosa va qarorlar hamda ular asosida shakllangan iqtisodiy xatti-harakatlardir.

Tayanch so‘z va iboralar: iqtisodiy fikr, g‘oya, qarash, ta’limot, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy fanlar, iqtisodiy ta’limotlar tarixi, iqtisodiyot nazariyasi

1-BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Iqtisodiyot fanlarini o‘rganish, iqtisodiy qonunlar va kategoriylarning tub mohiyatini tushunish ko‘p jihatdan nazariy bilimlar bilan birga tarixiy bilimlarga ham ega bo‘lishini talab qiladi. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” iqtisodiy fanlar tizimida o‘z tarixiy yondashuvi, o‘rganish manbalari bilan alohida o‘rinni egallaydi. U mustaqil fan sifatida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda, ularning iqtisodiy bilim, tafakkurini oshirishda katta rol o‘ynab qolmay, balki boshqa iqtisodiy fanlarni o‘rganishda tayanch tarixiy tahliliy vazifani bajaradi. Mazkur bob iqtisodiy fanlarning asosi bo‘lgan fikr, qarash, ta’limot, ilmiy davrlash tamoyillarini o‘rganish bilan boshlanadi. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan bog‘liqligi, uning predmeti, uslubi turli manbalar asosida tahlil qilindi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fanining o‘rni nimadan iborat?
2. Iqtisodiyot nazariyasi va iqtisodiy ta’limotlar tarixining tarixiy asoschilari kimlar?
3. Bu fanni o‘rganish uslubi qanday?
4. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanini o‘rganishda qanday usullardan foydalanish mumkin?
5. Ushbu fanning ilmiy davrlash uslublari nimadan iborat?

6. Bu fanni o‘rganishning asosiy vazifasi va ahamiyatini izohlab bering.
7. Fanning asosiy manbalarini ta’riflab bering.
8. Mazkur fanning predmeti nima?
9. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanini o‘rganishdan maqsad nima?
10. Hozirgi iqtisodiy fanlar qatorida iqtisodiy ta’limotlar tarixi qanday o‘rinni egallaydi?

2-bob. QADIMGI DUNYO IQTISODIY G‘OYALARI

2.1. ILK IQTISODIY FIKRLAR. QADIMGI BOBIL DAVLATINING G‘OYALARI

Ilk iqtisodiy qarashlar respublikamiz²⁶ iqtisodchi olimlar tomonidan “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanidan o‘quv qo‘llanma, darslik va ma‘ruzalar matnlarida batafsil yoritilgan. Kishilik jamiyatining dastlabki davrlaridan boshlab, xo‘jalik yuritish to‘g‘risida u yoki bu ko‘rinishdagi iqtisodiy fikrlar amal qilib kelgan. Lekin o‘sha paytdagi iqtisodiy fikrlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bizning davrimizga yetib kelmagan. Chunki ularni avlodlardan-avlodlarga, asrlardan-asrlarga olib o‘tuvchi vosita – yozuv bo‘lmagan. Demak, iqtisodiy fikrlarning paydo bo‘lishi va shakllanishi yozuv bilan bevosita bog‘liq. Yozuv qachon paydo bo‘lgan? Yozuv bundan olti ming yil avval, miloddan to‘rt ming yil oldin o‘sha davrning madaniyat o‘chog‘i hisoblangan Mesopotamiyada ijod qilindi. Qadimgi grek tarixchilari hozirgi Iroqdagi Dajla va Frot daryolarning oralig‘idagi joylarni «Mesopotamiya» deb atagan. Bu grekcha so‘z bo‘lib, «ikki daryo oralig‘i» ma’nosini bildiradi. Dajla va Frot daryolari hozirgi Turkiya chegarasidan boshlanib, Sharq tomon oqib Fors ko‘rfaziga quyiladi. Bu ikki daryo atrofidagi joylarning tuprog‘i unumdar, suvi ko‘p bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga juda qo‘l kelardi. Ayni zamonda ikki daryo vodiysining janubiy qismidagi asosiy mahalliy xalq Shumerlar bo‘lib, eng dastlabki yozuvni o‘shalar yaratgan. Dastlabki yozuv ijod qilingandan keyin, Misr va Qadimgi Sharqdagi xalqlar tarix tiliga kira boshladi. Demak, Qadimgi Dunyo – quzdorlik davridan boshlab dastlabki iqtisodiy fikrlar shakllana boshladi.

²⁶ Egamov E., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Ma‘ruzalar matni. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010; Asatullayev X., Djumonov D., Allaberganov Z., Xusanov D., Mamadiyorov O. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma‘ruzalar matni). –Toshkent 2014; Djumanov D., Husanov D., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma‘ruzalar matni). –Toshkent, 2015.

Ko‘xna Bobil iqtisodiy fikrlari.

Qadimgi Sharqda ancha rivojlangan davlatlardan biri Bobil bo‘lgan. Unda xususiy mulkchilik va tovar-pul munosabatlari nisbatan tez rivojlna boshladi. Jamiyatdagi kishilar borgan sari ko‘proq tovar ayrboshlashga jalb qilingan. Ularning ba’zilari sudxo‘rlar to‘riga ilinib, xonavayron bo‘ldi va nullarga aylandi. To‘la huquqli bo‘limgan (qaram) kishilar qatlaming ancha ko‘chayib borishi vujudga kela boshladi. Harbiylar va soliq to‘lovchilardan ajralib qolishga olib keluvchi bunday jarayon davlatni zaiflashtirgan.



Qadimgi Sharq fikrlarni ajratib turuvchi xususiyat bu:

- tovar-pul munosabatlarining ilk ko‘rinishlari;
- xususiy mulk paydo bo‘lishi;
- davlat tomonidan huquqiy tartibotlar, jumladan, mulkni himoya qilinishi;
- narxlarning shakllanishi;
- sudxo‘rlik qoralanishi;
- yillik foiz me’yori kumushda 20 % va donda 33 % ni tashkil etilishi.

Jamiyatdagi erkin kishilarni sudxo‘rlardan himoya qilish maqsadida (ularning mulkini himoya qilish, savdo, ijara va boshqa shartlarini qonuniy ravishda rasmiylashtirish) xususiy, huquqiy munosabatlarning davlat tomonidan tartibga solinishi zaruriyati kuchaydi. Davlat bu vazifalarni qonunchilik yo‘li bilan hal qilishga uringan. Bu borada iqtisodiy fikrlar nuqtayi nazardan Eshnun Podshohi qonunlari (m.o. XX asr) va Xammurapi qonunlari (m.o. XVIII asr) ancha diqqatga sazovor.

Eshnunn qonunlari matni asosiy mahsulotlarga qat’iy baho o‘rnatishdan boshlanadi: “1 gur (o‘lchov birligi, ba’zi ma’lumotlarda 300, ba’zilarda esa – 252,6 l. teng) arpa (sotilishi kerak) 1 sikl (8,4 g) kumushga … 3 ka (1 ka 0,84 l. teng) birinchi sortli yog‘ (sotilishi kerak) 1 sikl kumushga, 1 sut (5 l., ba’zi ma’lumotlarda – 8,4 l.) va 2 ka kunjut yog‘i (sotilishi kerak) 1 sikl kumushga …” va boshqalar

ko'rsatilgan. Birinchi paragrafda arpa, yog‘, teri, tuz, mis va boshqalarning kumushdagi narxi o‘rnatilgan (mahsulotlar shunday miqdorda olinishi kerakki, ularning qiymati 1 siklga teng bo‘lsin); ikkinchi paragrafda har xil turdagи yog‘ning arpadagi narxi ko'rsatilgan. Demak, asosiy umumekvivalent sifatida arpa bo‘lgan. Buning ustiga, ushbu ekvivalentlar o‘rtasida qat’iy muvofiqlik o‘rnatilgan. Birinchi navbatda arpaning kumushda ifodalangan narxining ko'rsatilishi tasodifiy emas. Qat’iy narxning o‘rnatilishi qonun tuzuvchilarga yollanma va ijara haqi darajasini, jarima miqdorini, foiz me’yorini tartiblash uchun to‘lov va boshqalarni aniqlash imkonini beradi. Yillik foiz me’yori kumushda 20 % va donda 33 % ni tashkil etgan. Shu narsani qayd qilib o‘tish kerakki, Qadimgi Misrda hatto keyingi davrlarda (X–VIII asr m.o.) sudxo‘rlik foiz me’yori tez-tez 100 % gacha ko‘tarilib turgan. Eski Bobildagi uncha ko‘p bo‘Imagan foiz me’yori davlatning nafaqat mamlakat xo‘jaligi hayotiga aralashuvidan dalolat beradi, balki tovar-pul munosabatlarining ancha rivojlanganligini ham aks ettiradi. Qadimgi Misr iqtisodiyoti Yaqin Sharqdagiga nisbatan ancha natural bo‘lgan. Demak, podsho qonunlari tovar-pul munosabatlarining rivojlanishida ijobiy rol o‘ynagan.

Qadimgi Bobilda **Xammurapi** (m.o. 1792–1750-yy.) podsholik qilgan davrda tayyorlangan qonunlar to‘plami ancha obro‘ qozongan. Unga nafaqat bir qator qadimgi huquq me’yorlarini qayta ishlab chiqqan, balki miloddan avvalgi XVIII asrga qadar Qadimgi Mesopatamiyada tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham tartibga solishga harakat qilgan. Qonun matni kirish qismidan, hozirgi tasniflash bo‘yicha 282 moddani o‘z ichiga olgan asosiy qism va xulosadan iborat. Unda xo‘jalik hayotiga oid iqtisodiy fikrlar ham aks ettirilgan. Shu narsa diqqatga sazovorki, bir guruh moddalarda Bobil fuqarolarining mulkini himoya qilish, ijara, sudxo‘rlik va ishga yollash masalalari ko‘rilgan.

Qonundagi asosiy narsa Bobil fuqarolarining mulkini himoya qilish yoki shunday sharoit yaratishdan iboratki, unda “*kuchlilar kuchsizlarni surib chiqarmasınlar*”. Bunda asosiy e’tibor saroy, ibodatxona mulkini hamda bobillik fuqarolar va davlat xizmatchilarining, birinchi navbatda, harbiylarning mulkini himoya qilishga qaratilgan. Xammurapi qonunlarida ularning ulushi (yerlari)

sotilishi man etiladi. “*Sipoh yoki soliq to‘lovchiga tegishli bo‘lgan dala, uy, bog*”, – deyiladi qonunda, – *kumushga sotilishi mumkin emas*”. Bundan tashqari, qonunda o‘z mamlakati tashqarisida qul sifatida sotib olingen bobillik fuqarolar o‘z vataniga qaytgach, erkinlikka erishishi zikr etilgan. Qonunda sudxo‘rlar zo‘ravonligiga qarshi qaratilgan moddalar ham mavjud. Hosil kam bo‘lgan paytlarda qarzlarni to‘lash muddatini bir yilga cho‘zishga ruxsat berilgan (qo‘shimcha foiz to‘lovisiz). Xammurapi qonunlarida sudxo‘rlar o‘z holicha, qarzdorlarning ruxsatisiz qarz evaziga ularning hosilini tortib olishi man etilgan. Ular qat’iy ravishda puldagi (20%) va natural shakldagi (33%) foiz me’yorini aniq belgilab bergen.

Xammurapi kodeksida tutqunlarga nisbatan yomon munosabatda bo‘lgani uchun sudxo‘rlarni hatto jazolash (shu jumladan, qonuniy yo‘l bilan ham) ko‘zda tutilgan. Sudxo‘rlikning keng rivojlanishiga to‘sinqilik qiluvchi asosiy omillardan biri qarzdorlik uchun qullik muhlatining uch yil bilan cheklanishidir (to‘rtinchi yili unga erkinlik berilishi lozim bo‘lgan). Biroq sudxo‘rlikka qarshi qonunchilikda izchillik bo‘lmagan. Xususan, qarzdorni ozod etishda uni ishlab chiqarish yoki yashash vositalari bilan ta’minalash nazarda tutilmagan. Hech qanday vositasi bo‘limgach, ozod etilgan qarzdor yana qaytib sudxo‘rga murojaat qilishga majbur bo‘lgan.

Xammurapi qonunlarida yollanma munosabatlarni tartibga solishga katta e’tibor berilgan. Uning juda ko‘p turdagи shakllari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, hatto yollanma mehnat uchun to‘lov miqdori ham aniq qilib ko‘rsatib berilgan.

Asosiy maqsad ishlab chiqarishni, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, mehnatsiz daromad topishga qarshi kurashish bo‘lgan. Umuman, xususiy mulkchilik, shu jumladan, yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik tan olingan. Birovning xususiy mulkiga ko‘z olaytirgan, unga zarar yetkazganlar iqtisodiy jihatdan jazolangan.

Shunday qilib, eski Bobil podsholigi qonunlarida davlat tartiblashining va aholi iqtisodiy faoliyatini nazorat qilishning turli shakllari ko‘zda tutilgan. Ular real iqtisodiy jarayonlarga, tovar-pul munosabatlari rivojlanishiga, fuqarolar mulkini himoya qilishga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Shu bilan birga bu qonunlar

Osiyodagi boshqa mamlakatlarda iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida katta rol o‘ynadi.

Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi xo‘jalik faoliyatida nisbatan erkin aholi ishtirok etgan. Masalan, dehqonchilik, hunarmandchilik, qurilish sohasida qullar mehnatidan foydalanimagan. Antik dunyo (G‘arbiy Yevropa)dagi ayrim regionlarda xalqaro savdoni olib borish bilan bog‘liq ravishda tovar-pul munosabatlari ham anchagina rivojlangan (masalan, Gretsianing ayrim shaharlari). Shu asosda qulchilikka asoslangan xususiy mulkchilik rivoj topdi. O‘z mahsulotini sotishga mo‘ljallab ishlab chiqargan qulchilik xo‘jaliklari ekspluatatsiyani kuchaytirishni talab etgan. Oqibatda klassik yoki antik qulchilik yuzaga keldi (Gretsiya va Italiya).

2.2. QADIMGI SHARQDAGI IQTISODIY FIKRLAR

Arablar ko‘p fanlarga o‘zlarining muhim ulushlarini qo‘shganliklari hozirda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Arab-islom yozuvchilarining iqtisodiy qarashlari bugungi kundagi iqtisodiyotdan tubdan farq qiladigan doirada yozilgan. Zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy faoliyat inson hayotidan ajratilgan, mazkur holat yigirma birinchi asrda iqtisodiy faoliyat o‘ta muhim hisoblangan mamlakatlarning iqtisodiyotini tahlil qilishda asosga ega bo‘lishi mumkin. Lekin arab-islom mutafakkirlari inson faoliyatining barcha jihatlarini hisobga olganlar, xususan, iqtisodiy faoliyatning oqibatlarini chuqur o‘rganganlar. Hozirgidek alohida rasman iqtisodiy tahlil bo‘limgan bo‘lsada, o‘rta asr islom olimlari iqtisodiy masalalarni o‘zlarining diniy qarashlarini kengroq yoritgan holda o‘rganganlar.

Inson faoliyatining barcha jabhalari bir-biri bilan bog‘langan va xudoning irodasi bilan amalga oshirilgan deb hisoblanganligi sababli tahliliy iqtisodiyot asosini so‘zda ifodalash qiyin bo‘lgan. Iqtisodiyotni tushunishda dastlabki harakatlar faqat olimlar iqtisodiy faoliyat yo‘lida ko‘plab cheklovlar mavjud bo‘lganligi sababli emas, balki o‘zlarining amalda islom dunyosini o‘rganishga qaror qilganlarida edi. Arab-islom iqtisodiy faoliyatida asosiy g‘oya, jumladan soliqqa tortish hisoblangan.

Taxminiy hisoblarga ko‘ra, o‘ttizga yaqin arab-islom mutafakkirlari o‘rta asrlar davrida iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida bat afsil asarlar yozganlar. Bu mutafakkirlarning qo‘sghan ulushlari bo‘yicha tadqiqotlar taxminan ellik yil oldin boshlanib, G‘arb dunyosiga nisbatan yangi bo‘lganligi uchun, ularning qo‘sghan ulushlarining muhim xarakterlari to‘g‘risida tushunchamiz taxminiy va to‘liq emas.

Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi qo‘lyozmada (Qadimgi Misr, eramizdan avvalgi XXII asr) noib va aholi o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bu davrda sinfiy ajralish to‘la shakllanmagan bo‘lib, boshqaruv ishiga ishbilarmonlarni taklif etish (yuqori tabaqali yoki oddiy aholidan bo‘lishidan qat’i nazar) kerak deyilgan.

Qadimgi Misr — Afrikaning shimoliy-sharqida, Nil daryosining quyi oqimida joylashgan qadimiyligi davlat. Miloddan avvalgi 10—6 mingyillikda Nil atrofidagi savannalarda tarqoq yashagan qabilalar terimchilik, ovchilik, keyinroq esa baliq ovlash bilan shug‘ullanishgan. Ular orasida qadimiyligi som xalqlariga mansub qabilalar, barbarlar va kushitlar bo‘lib, ularning aralashuvidan miloddan avvalgi IV ming yillikda Misr xalqi vujudga kelgan. Aholi nufusining ortishi chorvachilik va dehqonchilikka o‘tishni tezlashtirgan, bu esa hududiy jamoalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Dehqonchilik qilish uchun kanallar, to‘g‘onlar qurish zaruriyati tug‘ilgan, buning uchun esa o‘zaro urushlarda asir tushgan qullar mehnatidan foydalanilgan. Natijada jamoada ijtimoiy tabaqalanish ro‘y berib, urug‘ zodagonlari ajralib chiqqan, qabila sardorlari podshohchalarga aylangan. Bir qancha mayda quldorlik davlatlar vujudga kelgan. Keyinchalik ular o‘rtasidagi kurash natijasida, shimolda Quyi Misr, janubda Yuqori Misr podsholiklari tuzilgan. Miloddan avvalgi taxminan III mingyillikda ikkala podsholik birlashib, yagona davlat barpo bo‘lgan. Misrning keyingi tarixi 4 asosiy davrga bo‘linadi: Ilk podsholik (miloddan avvalgi taxminan 3000—2800), Qadimgi podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2800—2250), O‘rta podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2050—1700), Yangi podsholik (miloddan avvalgi 1580—1070), So‘nggi (Liviya-Sais va Yeron) davr (miloddan avvalgi taxminan 1070—332).

«Artxashastra» ta’limoti. Qadimgi Hindiston xo‘jaligi, ijtimoiy tuzumi va iqtisodiy fikrlarini o‘rganishning asosiy manbayi «Artxashastra» asari hisoblanadi (m.o. IV asr oxiri). Uni podsho

Chandraguptianing maslahatchisi **Kautiliya** yozgan deb taxmin qilinadi. Bu mashhur asar 15 kitobdan iborat bo‘lib, «artxa» so‘zi – foyda, moddiy manfaat, «shastra» – ilm, ilmiy asar ma’nosini bildiradi.



Birinchi kitobda podshoning turmush tarzi to‘g‘risida ko‘rsatmalar berilgan, ikkinchisi turli davlat idoralarining rahbarlari faoliyatiga bag‘ishlangan, uchinchi va to‘rtinchisida sud va jinoyatchilarni jazolash savollari ko‘rib chiqilgan, so‘ngra tashqi siyosat usullari to‘g‘risida, maxfiy xizmat to‘g‘risida, harbiylar faoliyatini tashkil qilish va shu kabilar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

«Artxashastra»ning eng boshidayoq podsho to‘rtta «ilmni» bilishi zarurligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Ulardan biri iqtisodiyot hisoblanadi. «Iqtisodiyot» (ekonomika) dehqonchilik, chorvachilik va savdo sifatida ko‘riladi. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi, eng avvalo dehqonchilik asosiy soha hisoblangan. «Artxashastra»da aytishicha, davlat yangi mintaqalarni tashkil etish va odamlarni u yerlarga o‘rnashtirish ishlarini amalga oshirishi kerak. Yangi ko‘chib kelganlarga yer soliq to‘lash sharti bilan shaxsiy foydalanishga berilgan. Dehqon, hunarmand mehnati va savdo faoliyati davlat uchun boylik yaratadi. Shuning uchun davlatning siyosati yerni emas, balki odamlarni himoya qilishi kerak. *«Davlatning kuchi, – deyiladi asarda, – odamlardan tashkil topgan. Odam yashamaydigan yer esa, naslsiz sigirga o‘xshaydi – undan na sut sog‘ib olib bo‘ladi».*

«Artxashastra»da davlatning manfaatini ko‘zlagan holda, xo‘jalikni yaxshi tashkil qilishga alohida e’tibor beriladi. Kim o‘z yerini ishlatmasa yoki yomon ishlasa, uning yerini tortib olish va yaxshi ishlaydigan xo‘jaynlarga berish tavsiya etiladi.

Davlat bozor bahosini tartibga solib turishning chora-tadbirlarini ko‘rib chiqishi lozim. Bahoning mavsumga qarab tebranib turishini bartaraf etish uchun, davlatning kerak paytda muomalaga chiqaradigan tovar zaxirasi bo‘lishi kerak. Bu bilan tovarlar bahosi barqarorligini ta’minlashga erishiladi.

«Artxashastra»da irrigatsiya ishlarini yaxshilash ham nazarda tutilgan. *«Sug‘orish tizimlarini qurish, – deyiladi unda, – hosilning*

manbayi hisoblanadi...» Sug‘orish tizimiga yetkazilgan har qanday zarar uchun og‘ir jazo, hatto o‘limga mahkum etish tavsiya etiladi.

«Artxashastra»da davlatning moliya muammolarini yechishga katta ahamiyat beriladi. Davlatning daromadlari davlat xo‘jaliklari foydasidan, har turli soliq va boj to‘lovlaridan tashkil topgan. Xarajatlar qismiga kelsak, davlat sanoatni, savdoni rivojlantirishga, jamoa ishlariga mablag‘ ajratib kelgan. Davlat xo‘jaligi va soliq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan moliya idoralarining to‘g‘ri ishlashi uchun, «Artxashastra»da aytishicha, daromad va xarajatlarning qat’iy hisobkitob hujjatlari olib borilishi zarur. Podsho xazinani o‘g‘irlovchi amaldorlarni bartaraf etishi kerak. Ammo bu yerdagi o‘g‘irlikni aniqlash juda qiyin bo‘lgan. «Artxashastra» xazina mulkini o‘g‘irlashning 40 xil usulini ko‘rsatib beradi va ayyor amaldorning hiylasini bilishdan ko‘ra, osmondagи qushning yo‘lini aniqlash osonligini qayd qilib o‘tadi. «Suvda suzib yurgan baliq, o‘sha suvdan

ichayaptimi, yo‘qmi bilib bo‘lmanidek, ishga biriktirilgan amaldor mulkni o‘zlashtirayaptimi, yo‘qmi aniqlab bo‘lmaydi», – deyiladi asarda. Shu bois suiste’mol qilishning har xil usullarini o‘rganib olmasdan avval, amaldorlarni tez-tez o‘zgartirib turish tavsiya etiladi.



Iqtisodiy siyosat sohasida «Artxashastra», podshoni ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga, narx-navoni tartiblashga, davlat budgeti aktiv balansini saqlashga – «daromadlarni ko‘paytirish va

xarajatlarni kamaytirishga» da‘vat etadi. Qadimgi Hindistonning bu atoqli asari nafaqat ijtimoiy rivojlanishning ancha yuqori darajasini, balki Qadimgi Hindiston iqtisodiy fikrlarining xarakterli belgilarini ham ko‘rsatib berdi.



Konfutsiy
(m.av. 551 – 479 y.)

Qadimgi Xitoy iqtisodiy g‘oyalari.

Qadimgi Xitoy mutafakkirlari ichida **Konfutsiy** (m.av. 551 – 479-yy.) alohida o‘rin tutadi. Konfutsiyning fikrlari uning shogirdlari yozib qoldirgan «**Lun Yuy**» («**Suhbat va mulohaza**») to‘plamida aks ettirilgan²⁷. Uning fikricha, mehnat ham kishilarning, ham davlatning boyligini ko‘paytiradi. Konfutsiy «buyuk jamoa mulki» (dehqonlar jamoasi mulki) va xususiy egalik (quldarlar mulki)ni farqlaydi, ikkinchisini ko‘proq qo‘llaydi. Bu yerda u xususiy mulkni xo‘jalik yuritishda ustun

qo‘yadi. Konfutsiy aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat farqini ko‘rsatib, aqliy mehnat bilan «yuqori» tabaqali kishilar, jismoniy mehnat bilan esa, asosiy qismi qullandidan iborat bo‘lgan «oddiy» kishilar shug‘ullanadi, deb qayd qilib o‘tadi.

Konfutsiy ta’limotiga ko‘ra, bilimdon hukmdor – u «*xalqning otasi*», «*to‘g‘ri amal qilishning*» va *boylikni ancha tekis taqsimlashning kafolati*. Uning tasdiqlashicha, Alloh va tabiat tomonidan jamiyat toifalarga ajratilgan, shu bilan birga u har bir odamni ma’naviy yuksalishga da’vat etgan, kattalarga bo‘lgan hurmat qoidalari to‘g‘risida, farzandlik burchi to‘g‘risida, aka-ukalar o‘rtasidagi do‘stlik to‘g‘risida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Konfutsiy ta’limotidan shu narsani ko‘rish mumkinki, agar reglamentlashtirilgan patriarxal munosabatlarda ustalik bilan xo‘jalik yuritsa, «*xalqda hamma narsa muhayyo bo‘ladi*».

Xitoya miloddan oldingi IV–III asrlarda xitoylik mualliflar birgalikda yozgan asar «**Guan-szi**» g‘oyalari keng tarqalgan. Bu asarda ilgari surilgan ba’zi masalalar, garchi ular ziddiyatli bo‘lsada, bugungi kunda ham diqqatga sazovor. Masalan, asarda oltin marvarid



Guan szi

²⁷ Razzoqov A., Tashmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 15-6.

alohida boylik sifatida ko‘rilmaydi; bunday boylik deb, eng avvalo, moddiy ne’matlar (tovar) e’tirof etiladi. Asarda ko‘rsatilishicha, bir tomondan, «oltin davlat resurslarini hisoblash o‘lchovi hisoblanadi», ikkinchi tomondan, u «xalq ommasi uchun muomala vositasi bo‘lib xizmat qiladi». Asarda barqaror iqtisodiy rivojlanishning zarurligi to‘g‘risida aniq fikr yuritiladi va qayerda nonning narxi tartiblanib turilsa, o‘sha yerda tinchlik, osoyishtalik bo‘ladi, deb qayd etiladi. Iqtisodiyotni tartibga solib turish uchun, asar mualliflari davlatning don zaxiralarini tashkil etishni, yer egalariga imtiyozli kredit berishni, temir va tuzga bo‘lgan to‘g‘ri soliqlarni egri soliqlar bilan almashtirish, ya’ni ulardan foydalanib ishlab chiqariladigan tovarlarga bo‘lgan soliqni kengaytirishni tavsiya etadilar. «Guyan-szi» mualliflari «davlatni boy, xalqni mamnun» holda ko‘rishni xohlaganlar. Asarda yer va suvlarni davlat ixtiyoriga o‘tkazish, ulardan daromad olish yo‘lida foydalanish, baholarni tartibga solish va boshqa hozirgi kunda ham e’tiborga molik iqtisodiy g‘oyalar ilgari surilgan.

Eramizdan avvalgi VII asrda Xitoyda yashab ijod etgan mutafakkir Guan Szi (eramizdan avvalgi 725–645-yillar)ning iqtisodiy faoliyati haqida Shumpeterning tasvirlashicha: ular qa‘tiyan “ilmiy” o‘rganishlardan ko‘ra etika asosga ega bo‘lgan davlat boshqaruvi mulohazalari bilan cheklangan²⁸.

Guan Szi tovar mo‘l bo‘lsa, uning vazni qanchalik yengillashsa uning narxi shuncha pasayishini ta’kidlagan. Tovarning yengilligi va og‘irligiga asoslangan holda narxlarning belgilanishi, muayyan darajasi tovarlar bozori tovar-pul munosabatlari tomon harakat qilinishini ko‘rsatadi. Shu tarzdagi Guan Szining yengil/og‘ir nazariyasi orqali talab va taklif qonuni tasvirlashga harakat qilingan. Guan Szi engil/og‘ir nazariyasidan, shuningdek, pulning miqdoriylik nazariyasida ham ko‘rinadi, jumladan, pul og‘ir bo‘lganida uning narxi ko‘tarilganligini ta’kidlagan (tovarlar narxi pasayadi) va pul yengil bo‘lganida, uning narxi pasayishi aytilgan (tovarlar narxi ko‘tariladi). Bu tebranishni to‘xtatish uchun u pul og‘ir bo‘lganida (buning yordamida narx darajasi ko‘tarilib), hukumat tovarlarni xarid qilishi lozimligini va pul yengil bo‘lganida (buning yordamida narx darajasi pasaytirilib) tovarlarni sotishni tavsiya etgan. Bu nafaqat narx

²⁸History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 45-b.


darajasini barqarorlashtirishga, balki hukumat uchun pul daromadlarini ko‘paytirish imkonini bergen.²⁹

Guan Szining asarlari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy g‘oyalarning umumiy tuzimi bu – umuminsoniylikdir. Lekin masala siyosatga kelganida Guan Szida ham aks ettirilgan fikrlar institutsional tizimdan mustaqil bo‘lib, siyosiy yo‘nalishga ega bo‘ladi. Institutsional tizim o‘zgarganda siyosiy oqibatlar ham o‘zgaradi. Guan Szi faol tarzda siyosatni o‘z zamonining institutsional tizimiga moslashtirish uchun bozor kuchlariga qarshi emas, balki bozor kuchlari bilan birgalikda harakatiga asoslangan³⁰.

2.3. ZARDUSHTIYLIK (AVESTO)DAGI IQTISODIY G‘OYALAR

«Avesto»dagi iqtisodiy fikrlar. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari (ajdodlarimiz) miloddan ancha ilgari rivoj topgan. Buni dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri – Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblangan «Avesto» ham isbotlaydi. Olingan ma’lumotlarda «Avesto» kitobining muallifi **Zardusht (m. av. 589–512-y.)** bo‘lganligi qayd etiladi. U Markaziy Osiyo hududida faoliyat ko‘rsatgan ilohiyotchi, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo‘lgan.

Respublikamiz olimlarining tadqiqotiga ko‘ra, zardushtiylik dining muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto”, ya’ni “Hayot yo‘riqnomasi” (asli “Ovasto”)da muhim iqtisodiy fikrlar bayon etilgan³¹. Jumladan, sun’iy sug‘orish asosida dehqonchilik yuritish, ona tabiatni e’zozlash, hayvonlarni asrash, ularni noo‘rin so‘ymaslik, ularga zug‘um qilmaslik, tuproq sharoitini yaxshilash masalalari yoritilgan.



²⁹Bu muhokama Guan Szining W.Allyn Ricket tomonidan nashr qilingan asarlari (A Conside History of Chinese Economic Thought, 1998).

³⁰History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 47-b.

³¹Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011. 11-6.

«Avesto» boshidan oxirigacha yer yuzidaadolat qaror topishi uchun kishilarning rangidan, tilidagi va urf-odatlaridagi farqlaridan qat'i nazar ularning ro'shnoli hayoti uchun kurashuvchi jasur, halol, pok insonlarni shakllantirish va tarbiyalash g'oyasi bilan sug'orilgan. Unda xalqlarning qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatlar o'z aksini topgan. «Avesto»da yer dumaloq shaklda yaratilganligi, uning atrofi okeanlar bilan o'ralganligi haqida yozilgan. Unda 16 mamlakatning nomi ko'rsatilgan bo'lib, ulardan to'qqiztasi (masalan, Sug'diyona, Marg'iyona, Nisoya, Gurgon, Varana va boshqalar) Markaziy Osiyo hududida joylashgan.

«Avesto» shakllanishi davrida kishilik jamiyati yanada rivojlna bordi. Ko'chmanchilikka asoslangan Markaziy Osiyoda eski turmush tarzi o'rnini o'troq yashash egallay boshladi, sug'oriladigan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik borgan sari taraqqiy etdi. Yangi-yangi shaharlar, obod qishloqlarning paydo bo'lishi o'troq yashash turmush tarzining afzalliklarini ko'rsata bordi. Ana shu o'troqlik turmush tarzining odamlarga benihoya kulfatlar keltirayotgan ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan afzalliklarini ko'rsatib berilishida «Avesto»ning ahamiyati kattadir.

“Avesto”da, jumladan, O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik viloyatlarida asosan ziroatchilik, hunarmandchilik va savdogarchilik bilan shug'ullanuvchi sug'dlar, baqtriyaliklar va xorazmliklar yashardilar. Ular atrofida, dashtlik va tog'oldi hududlarda chorvador qabilalarning yaylov-manzilgohlari joylashgan edi. Shuningdek, “Avesto”da mamlakatning chorvador aholisi – “tur”lar deb atalib, ular yashaydigan yurt esa Turon nomi bilan tilga olinadi.

Akademik A.Asqarov³² ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyo sharoitida dastlabki sinfiy jamiyatning asosiy harakatlanuvchi kuchlari, erkin dehqon jamoalar – kashovarzlar, ozod shahar hunarmandlari – ozodkorlar va savdo-sotiq jamoalari – guvakorlardan tashkil topgan. Dastlab mulkka egalik qilish matriarxat davrida umumiyl edi, so'ng patriarxat davrida erkin ishlab chiqarish jamoasi a'zolariga tegishli xususiy mulk shakllandı.

Mulkiy tabaqalanish kuchayib borishi tufayli, kashovarzlarning boyib ketgan qatlami badavlat dehqonzodalar tabaqasini tashkil etsa,

³²Аскаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: “Университет”, 2007.

ularning yer mulkidan ajralgan kambag‘al qismi kadivarlar tabaqasiga aylandi. Kadivarlar dehqonzodalarga qaram korandalarga – ijarchilarga aylandi. Shunday tabaqlanish hunarmand va savdogarlar orasida ham kuzatildi.

Chorvador jamoasi esa, badavlat chorvadorlarga, aslzoda harbiylarga, kambag‘al avom va xizmatkorlarga bo‘lingan. Arablar O‘rta Osiyoga kirib kelgunga qadar, ya’ni zardushtiylik dini hukmronligi davrida xususiy, jamoa, vagize (ibodatxonalarga tegishli) mulklar tarkib topdi. Vagize mulki islom davrida masjid va madrasalarning vaqf mulkiga aylandi.

Muqaddas kitobda, shuningdek, ko‘chmanchi xalqlarning asosiy boyligi bo‘lgan mollar sonini saqlash qo‘llab-quvvatlanadi, ularni bekordan-bekorga qurbon qilaverish qoralanadi. Uy hayvonlarini asrash, ko‘paytirish, ayniqsa, semirtirishga alohida urg‘u berilgan. Ana shu maqsadda yaxshi yaylov, kerakli qarov, xashak bilan ta’minalash eng yaxshi faoliyat deb baholanadi. Bu g‘oya ayniqsa, ilk zardushtiylikda kuchli tus olgan³³.

«Avesto»da: «... *yerga yaxshi, sog‘lom urug‘lar sepishdan ortiq savob ish yo‘q...*» deyilib, xalq xo‘jaligi sohasida dehqonchilikning muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib beriladi. «*Olam go‘zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, kimki yerga urug‘ qadabdiki, u odamiylikka iymon keltiradi, yagona shu yo‘lgina haqiqat bo‘lib, qolgani sarobdir*», – deyiladi unda. Qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish, uni jamoa o‘rtasida adolatli taqsimlash eng savobli ishlardan hisoblangan. Asarda oziq-ovqat tayyorlash, uy hayvonlarini va chorva mollarini ko‘paytirishga ham alohida e’tibor berilgan.

Yaxshi ishlarni amalga oshirish kuchli hokimiyat bilan bo‘lishi qayd etiladi. Kitobda yozilishicha, hayvonlarni o‘g‘irlash yoki tortib olishdan, turar joylarni xonavayron qilishdan asrashga intilish yaxshilik g‘alabasiga olib keladi. Ana shu qoidalarga amal qilganlar yaylovlar bo‘ylab erkin harakatlanishiga va’da beriladi, chunki tabiiy yaylovlar cheklangan sharoitda bu “erkin harakat” ta’mnoti muhimdir. Aks holda, o‘zaro to‘qnashuv va urushlar ro‘y berishi mumkin.

Ma’lum qonun-qoidalarga bo‘ysunish kuchli hokimiyat va mo‘tadillik bilan bog‘liq edi. O‘zaro shartnomalarga bekamu ko‘st amal qilish zarurligi, ayniqsa o‘zaro moddiy yordam berish kerakligi targ‘ib etiladi.

³³ Razzoqov A.. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011, 20-21-b.

“Avesto” ma’lumotlariga qarab, shu davrda jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni bilib olish mumkin. Bu davrda urug‘ jamoasi yemirilib, dastlabki sinflar paydo bo‘lganligi ayondir, ular kohinlar, harbiylar, chorvadorlar va hunarmandlardan iborat bo‘lgan. Aholi ko‘proq ko‘chmanchilik asosida kun kechirgan. Ekstentiv, ya’ni o‘tloq maydonlarini kengaytirishga asoslangan chorvachilik yetakchi edi.

«Avesto»da yer, suv, havoni bulg‘ash, ifloslantirish og‘ir gunoh hisoblanadi. Bunday ibratli tasdiqlash bugungi avlodlarni ham tabiatga, atrof-muhitga aslo vahshiyona munosabatda bo‘lmaslikka chorlaydi.

Kitobda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aks ettirilgan holda shunday deyiladi: «*yomon ovqatlangan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog‘lom baquvvat bolalarga ega bo‘ladi... Yomon ovqatlanishdan odob-axloq ham aynib ketadi. Agar non mo‘l-ko‘l bo‘lsa, muqaddas so‘zlar ham yaxshi qabul qilinadi*». Bu yerda biz sog‘lom avlod to‘g‘risida, iqtisodiy va madaniy, ma’naviy yuksalish o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi to‘g‘risida fikr yuritilganligini ko‘ramiz³⁴. Yoki boshqa manbada keltirilganidek, barkamol hayot tarzi quyidagicha talqin etilgan. Yerdan shunday joyni topish yoki yaratish kerakki, u joyda ko‘p ovqat pishirilsin, doim katta bo‘lak go‘sht tegsin, otlar pishqirib tursin, ot-arava g‘ildiraklari jarangi chiqsin, qamchi doim ko‘tarilib, ovozi chiqib tursin, ziravorlar yetarlicha g‘amlangan bo‘lsin, xushbo‘y hidlar arimasin, yaxshi hayot uchun kerakli barcha narsalar ko‘p miqdorda saqlanadigan omborlar bo‘lsin³⁵.

Shu bilan birga, “Avesto”da turli tabiiy ofatlarga qarshi oziq-ovqatlar zaxirasi barpo etish qo‘llab-quvvatlanadi. “Avesto”da, xususan, chorvadorlar hamkor Yim to‘g‘risidagi afsonada “oltin asr”dagi mol-ko‘lligi haqida fikr yuritiladi. Yimning xizmati ulug‘lanadi, chunki u kuchli sovuq, qor va suv to‘fonidan hayvonlar va odamlarni qutqarish uchun “varu” (qo‘rg‘on) qudirib, unga suv o‘tkazadi, mayda va yirik mollar, odamlar, it, qush, barcha o‘simliklar urug‘i va yonib porlab turgan olovni keltiradi. Odamlar uchun turar joy, hayvonlar uchun molxonalar quradi.

“Avesto”ning yana bir naski – Videvdot bo‘lib, nisbatan keyingi davr voqealarini aks ettiradi. Unda asosan dehqonchilik va dehqon

³⁴ Egamov E., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi . Ma’ruzalar matni. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010, 9 b.

³⁵ A.Razzoqov. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011, 21–22-betlar.

mehnati ulug‘langan. Endilikda ko‘proq ekin ekiladigan, don, o‘t, mevali ekinlar o‘stiriladigan, suvsiz joylar sug‘oriladigan, suvi ortiqcha yerlar esa quritiladigan joylar maqtaladi, hatto yerlardan ko‘p go‘ng solinishi, buning uchun esa ko‘proq kichik va katta qoramollar boqish tavsiya etiladi. Bu tavsiyalarda juda katta tabiiy mantiq borligi ko‘rinib turibdi. Aholi qunt bilan don yetishtirishga da’vat etiladi, hatto g‘allakorlar e’tiqodini mustahkamlovchilar, deya talqin etiladi. “Dehqonchiliksiz mo‘l-ko‘lchilik yo‘q” degan aqida ilgari suriladi.

Zardushtiylik qashshoqlikni yo‘qotish yoki unga yo‘liqmaslik uchun ziroatchilikni rivojlantirish, ya’ni yerlarni ochish bo‘yicha faol siyosat olib borish kerakligini uqtiradi. Ammo, inson yerni tashlasa, unga qaramay qo‘ysa, unday odam o‘zgalar eshigi oldida turgan doimiy gadoyga aylanadi, deyilgan bu kitobda³⁶.

Bu noyob kitobda patriarxal urug‘ jamoasi haqida, uning tugatilishi davrida iqtisodiy tengsizlik, sinfiy tabaqlananish haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi. Demak, «Avesto» miloddan avvalgi IX–VII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy hayot haqida g‘oyat muhim ma’lumotlar beruvchi bebahoh obida, xalqimizning merosiy boyligidir.

2.4. QADIMGI GRETSIYADAGI IQTISODIY FIKRLAR

Iqtisodiy fikrlar qadimgi Gretsiyada yana ham rivojlantirildi. **Ksenofont, Platon, Aristotel** asarlarida iqtisodiy muammolar maxsus tadqiqot obyektiga aylandi. Buni Sokratning shogirdi, Platonning zamondoshi **Ksenofont (m.o. 430–355)** asarlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Uning ko‘p sonli asarlari ichida «**Daromadlar to‘g‘risida**» va «**Ekonomikos**» (xo‘jalik to‘g‘risida ta’lim) maxsus iqtisodiy asarlari alohida ahamiyatga ega.


Ksenofont «Daromadlar to‘g‘risida» asarida Afina davlatining iqtisodiy holatini tahlil qilib uni yaxshilashning uch yo‘lini tavsiya etadi:

- 1) xorijiy kishilardan olinadigan soliqni ko‘paytirish, ularning Afinaga kelishini rag‘batlantirish;
- 2) kumush qazib olishni kengaytirish;

³⁶ A.Razzoqov. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011, 22–23-betlar

3) nullar savdosini tashkil etish.

«Ekonomikos» asarida hamda Ksenofontning alohida mulohazalarida quldorlik xo‘jaligi iqtisodiyotiga tavsifnomasi beriladi. Ksenofont qishloq xo‘jaligini xalq xo‘jaligning eng asosiy tarmog‘i deb hisoblagan. «*Qishloq xo‘jaligi rivojlansa, – deb yozadi u, – boshqa faoliyat turlari ham rivojlanadi. Agar dehqonchilik pasaysa, u holda uning bilan birga suv va quruqlikdagi barcha boshqa sanoat faoliyati tarmoqlari halok bo‘ladi*».



Ksenofont (m.a.430-355)

Ksenofont iqtisodiy fikrlar tarixga birinchilardan bo‘lib mehnat taqsimotini tahlil qilgan olim sifatida kirib keldi. U o‘zining «**Kiropediya**» asarida shunday yozadi: «Kichkina shaharlarda bitta ustanning o‘zi yotoq joy, eshik, stol yasaydi, ko‘pincha o‘sha odamning o‘zi uy ham quradi... Albatta, bunda har xil hunar bilan shug‘ullanuvchi odam, hammasini bir xilda yaxshi tayyorlashi mumkin emas. Aksincha, yirik shaharlarda har bir buyumga ko‘pchilikning ehtiyoj sezishi tufayli, har bir ustaga o‘zini boqish uchun bitta hunar yetarli. Ko‘p joylarda o‘sha hunarning hatto bir qismi ham kifoya: masalan, bir usta erkaklarning oyoq-kiyimini tikadi, boshqasi esa – xotinlarning. Ba’zida esa odam faqat boshmoq uchun yarim mahsulot tayyorlab, boshqasi – charm kesib, uchinchi biri bichib berib, to‘rtinchisi esa – ularning hammasini birlashtirib tikib hayot kechirish uchun haq to‘laydi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, kim muayyan cheklangan ish turi bilan shug‘ullansa, o‘shani eng yaxshi qilib bajarishga qodir».

Har qanday tovarning ikkiyoqlama xarakterini, ya’ni uning foydaliligini va almashuv qobiliyatini birinchilardan bo‘lib tushungan ham Ksenofont hisoblanadi. Bundan tashqari, natural-xo‘jalik konsepsiysi tarafdori va shunga ko‘ra sudxo‘rlikka qarshi bo‘lganiga qaramay, u pulning zarurligi va foydaliligini tan olgan hamda unga xos bo‘lgan muomala vositasi va jamg‘arish vositasi funksiyalarini ko‘rsatib bergen.


Natural-xo‘jalik konsepsiysi grek mutafakkiri **Platonning (m.o. 427–347)** iqtisodiy qarashlari uchun ham xarakterli bo‘lgan. Bu uning «**Davlat**» va «**Qonunlar**» asarlarida o‘z aksini topgan. Birinchisida ideal

davlat tuzumi loyihasi shakllantirilgan bo‘lsa, ikkinchisida real haqiqatga ancha yaqin davlat tasvirlangan³⁷. Platon «Davlat» asarida ideal ijtimoiy tuzum nazariyasini yaratib, iqtisodiy ta’limotlar tarixiga katta hissa qo‘shdi. Ideal “davlat”da yashovchi kishilar uch toifaga ajratib ko‘rsatiladi:

1. Faylasuflar.
2. Harbiylar.
3. Oddiy toifa – yer egalari, hunarmandlar, savdogarlar.

Bunda ijtimoiy manfaatlarni himoya qilishda oqsuyaklarning (faylasuflarning) roliga yuqori baho beriladi, negaki ular boshqa bir toifa – harbiylar (armiya) bilan birga, davlatning boshqaruva apparatini tashkil etgach, olimning fikriga ko‘ra, butun jamiyatni boshqaradi. Bunda faylasuflar ham, harbiylar ham hech qanday mulkka egalik qilmaydilar (davlat manfaatlari yo‘lida chalg‘ib ketmaslik uchun); ularning moddiy ta’mintoni tenglik tamoyili asosida davlat o‘z zimmasiga oladi. Barcha xo‘jalik ishlari, shu jumladan, mulkka egalik qilish, uni tasarruf etish ideal davlatdagining uchinchi toifa hisoblangan–yer egalari, savdogarlar va hunarmandlar zimmasiga yuklanadi. Qullar – erkin fuqarolar mulki va shuning uchun «Davlat» muallifi tomonidan ular hech bir toifaga kiritilmadi.

«Qonunlar» asarida Platon boshqa bir loyihani tavsiya etadi va unda davlat ta’mintonida bo‘lgan, ya’ni yuqori toifali «fuqarolarning» moddiy ta’moti to‘g‘risidagi oldin ilgari surilgan g‘oyalari rivojlantirilgan. Bu yerda faylasuf tenglik tamoyilida jamiyat tuzilishining ayrim ijtimoiy-iqtisodiy unsurlarning tavsifini boshqalardan oldin ko‘ra bilgan. Xususan, barcha fuqarolar, Platon fikricha, ideal davlatda (qur’a bo‘yicha) uy-joy, yer olishlari mumkin. Buning ustiga yer faqat unga egalik qilish va undan foydalanish huquqi bilan (ya’ni to‘la bo‘lmagan mulk huquqi) berilgan bo‘lsa ham, uni olgan kishi keyinchalik bolalarining biriga aynan shu shart bilan meros qoldirish imkoniyatiga ega bo‘lgan.



Platon (m.o.427-347)

³⁷ Рассоқов А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. Дарслик. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007, 18-6.

Fuqarolar umumiyligini qimmati to‘rt martadan ko‘p farq qilmasligi kerak.

Platonning har ikkala loyihasida o‘xshashlik mavjud: davlatni boshqaruv apparati (birinchi loyihada) va fuqarolar (ikkinchi loyihada) oltin va kumushga ega bo‘lishlari va sudxo‘rlik bilan shug‘ullanishlari mumkin emas. U xuddi Ksenofontga o‘xshab, dehqonchilikni iqtisodiyotdagi asosiy tarmoq deb hisobladi, hunarmandchilik va savdoni jamiyatda uncha e’tiborli bo‘lmagan mashg‘ulotlar turiga kiritdi.

Antik iqtisodiy fikrlar tarixida Platon birinchilardan bo‘lib bahoning asosi va darajasi to‘g‘risidagi savolni o‘rtaga tashladi. Uning fikricha, baho davlat hokimiyyati tomondan tartibga solinib turilishi kerak, bundan tashqari, asos sifatida shunday baho olinishi kerakki, u o‘rtacha foyda olishni ta’minlasin.

Aristotelning iqtisodiy qarashlari. Antik dunyodagi iqtisodiy fikrlarning yirik namoyandalaridan biri **Aristotel** (m.o 384–322) hisoblanadi. O‘z mamlakatida shakllangan natural-xo‘jalik munosabatlarini himoya qilgan bu qadimgi grek mutafakkiri boshqa zamondoshlariga qaraganda, iqtisodiy muammolarga chuqurroq kirib borishga muvaffaq bo‘lgan. Uning iqtisodiy savollar bo‘yicha fikr yuritgan asosiy asarlari «**Nikomaxova etikasi**» va «**Siyosat**» hisoblanadi³⁸. Bu yerda Aristotel, xuddi Platonga o‘xshab, ideal davlat loyihasini ilgari suradi. Aristotel loyihasining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unda xo‘jalik va kishilar faoliyatining barcha turlari (mayli u: erkin fuqarolar bajaradigan boshqaruv-nazorat funksiyasi bo‘lsin yoki yer egalari, chorvador, hunarmandlar, savdogarlar bo‘lsin) har bir toifa yashash vositalaridan foydalanishi va boylik to‘lashi nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shu yerda Aristotel boylik topish va ehtiyojlarni qondirish usullari to‘g‘risida fikr yuritib, **ekonomika** va **xrematistika** tushunchalari farqini ajratib ko‘rsatib beradi.

Aristotel nafaqat o‘zining falsafiy tafakkuri balki, sotsialistik iqtisodiy g‘oyalarni rivojlantirishga qo‘shtan hissasi bilan ham ajralib turadi. Aristotelning ustozisi Platonning ta’kidlashicha, barkamol jamiyatning hukmron sinflari hisoblangan – askarlar va faylasuflar e’tiborini chalg‘itadigan mulk bo‘yicha mojarolarni oldini olish uchun,

³⁸ Рассоқов А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н.. Иқтисодий таълимотлар тарихи. Дарслик. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 19-6.


ularni xususiy mulkka ega bo‘lmaslikni, balki jamoat mulkidan foydalanishni tavsiya etgan. Lekin Aristotelning fikricha, xususiy mulk jamiyatda foydali funksiyani bajaradi, shu sababli uning miqdori bo‘yicha cheklov o‘rnatadigan qoidalar tatbiq etilmaslik zarur.

Aristotelning iqtisodiy tafakkurga qo‘sghan asosiy hissasi bu tovarlar almashuvi hisoblanadi. Unga ko‘ra bu almashuvda esa tovar-pul munosabatlari chuqr yoritilgan. Uning fikricha, insonlarning ehtiyoji uncha ko‘p emas, ammo istaklari cheksizdir. Shundan kelib chiqib, ehtiyojni qondirishda tovarlarni ishlab chiqarish tabiiy holatdir, ammo cheksiz istaklarni qondirish uchun tovarlarni ishlab chiqarish notabiyy holdir.

Aristotelning fikricha, tovarlarni bozorda sotish uchun ishlab chiqarish, insonlar ehtiyojini yoki istaklarini qondirish uchun amalga oshirilishi sifatida ekanligini aniqlash qiyin; lekin uning fikricha, agar bozordagi almashuv barter shaklida bo‘lsa, bu tabiiy ehtiyojni qondirish uchun amalga oshirilgan va bundan iqtisodiy foyda ko‘zlanmagan holat hisoblanadi. Ammo pul vositasidagi almashuvning asosiy maqsadi Aristotel tomonidan qoralangan daromadni olish (xrematistika) ekanligi ko‘zda tutiladi.

Aristotel ko‘rsatib o‘tgan qiziqarli masalalardan yana biri shundan iboratki, yetishmovchilik muammosini oldini olish uchun iste’molni kamaytirish, odamlarning tovarlarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish yo‘li bilan hal qilish mumkin³⁹ deydi.

Ekonomika – Aristotel tushunchasi bo‘yicha – bu, eng avvalo, dehqonchilikdagi kishilarning hamda hunarmandchilik va mayda savdo bilan shug‘ullanuvchilarning asosiy va sharafli faoliyatidir. Uning maqsadi – insonning eng muhim ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi, shuning uchun unga davlat g‘amxo‘rlik qilishi kerak.



Aristotel (m.o.384-322)

Xrematistika – bu yirik savdo yo‘li bilan boylik orttirish mahoratidir. Aristotelning qayd qilib o‘tishicha, bunda boylik orttirish maqsadiga erishishning cheki bo‘lmaydi. Bundan maqsad – boylik va pul topishdir. Shu boisdan uning chegarasi yo‘q.

Ekonomikadan farqli ravishda, xrematistika zarur hisoblanmaydi va

³⁹History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 48-b.

tabiat qonunlariga zid deb ko'rsatiladi. Shunday kelib chiqqan holda, Aristotelning xitob qilishicha, «ekonomika maqtovga sazovor, xrematistika esa – tanbehga».

Qadimgi grek mutafakkirlarining ekonomika va xrematistikaga bo'lgan bunday munosabati, uning natural xo'jalik mavqedagi bo'lganligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Aristotel o'zining ekonomika va xrematistika konsepsiysi doirasida quzdorlik davlat tuzilishini ideallashtirib, xo'jalik hayotining eng muhim unsurlarini sun'iy ravishda «soddalashtirdi». Masalan, Aristotel fikri bo'yicha, «haqiqatan ham narsalar shu qadar turlitumanki, ularni tenglashtirib (taqqoslab) bo'lmaydi».

Shunga ko'ra xulosa qilinadi: «5 qo'ndoq = 1 uyga», chunki ularni taqqoslash faqat go'yoki pul tufayli amalga oshirilishi «kundalik hayotda» ancha qulay. Tovar sifatidagi pulning o'zi esa, olimning fikricha, stixiyali ravishda emas, balki odamlar o'rtasidagi kelishuv natijasida kelib chiqqan va uni (pulni) «iste'molga yaroqsiz» qilib qo'yish «bizning ixtiyorimizda».

Aristotelning ekonomika va xrematistika konsepsiysi «kamchiligiga» ayirboshlashning ikkiyoqlama tavsifini ham kiritish mumkin. Bu yerda gap shundaki, bir joyda ayirboshlash ehtiyojni qondirishda asosiy omil sifatida ko'rildi va tovarning iste'mol qiymatini iqtisodiyot sohasining kategoriyasi sifatida talqin qilish imkonini beradi, ikkinchi bir joyda – aksincha, ayirboshlash boylik orttirish sifatida qaraladi va tovarning al mashuv qiymatini xrematistika sohasining kategoriyasi deyishga asos bo'la oladi.

Nihoyat, shu konsepsiya nuqtayi nazardan Aristotel savdo shakllari evolyutsiyasi bosqichlarini va pul muomalasini bирyoqlama tahlil qilib, o'zining yirik savdoga va ssuda operatsiyasiga salbiy munosabatda ekanligini namoyon etdi. Xususan, to'g'ridan to'g'ri tovar ayirboshlash va pul vositasi orqali tovar ayirboshlash kabi savdoning dastlabki shakllarini u ekonomika sohasiga kiritadi, savdo kapitalining harakatini, ya'ni tovar ayirboshlash jarayonida dastlabki avanslangan pulning ko'payishini xrematistika sohasiga kiritadi.

Xuddi shunga o'xshash, Aristotel pul muomalasi shaklini tadqiq qiladi va pulning qiymat o'lchovi va muomala vositasi tarzida aks ettilishini – ekonomika sohasiga, pulning foydani ko'paytirish vositasi sifatida ishlatalishini esa xrematistika sohasiga kiritadi.

2.5. QADIMGI RIMDAGI IQTISODIY QARASHLAR

Rimning yirik siyosiy arbobi va yozuvchisi Katta **Mark Portsiy Katon** (m.av. 234–149) o‘zining «**Dehqonchilik to‘g‘risida**» asarida qishloq xo‘jaligini xalq xo‘jaligidagi asosiy tarmoq deb hisoblaydi. Katon dehqonchilikni tashkil qilishning eng qulay usulini qo‘llashga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishni tashkil qilishga katta e’tibor berdi. U faqat ortiqcha mahsulotni sotish, xo‘jalikda ishlab chiqarish mumkin bo‘lmasan narsalarni esa sotib olish zarurligi to‘g‘risida fikr yuritdi. Eng foydali mahsulot deb olif yog‘ini hisoblagan. Katon savdogarlar va sudxo‘rlar faoliyatiga salbiy munosabatda bo‘lgan.



Mark Portsiy Katon
(m.a.234-149)

Katon tovar qiymatidan ortiqchasini foyda deb bilgan va qiymatni to‘la ravishda ishlab chiqarish xarajatlariga kiritgan. Masalan, uningcha, barcha «qiymat o‘zagini» material sarflari, usta va yordamchilarga to‘lanadigan haq tashkil etadi.

Atoqli Rim yozuvchisi va olim **Mark Terensiy Varron** (m.o. 116–27) xalq xo‘jaligida dehqonchilik va chorvachilikni asosiy tarmoq hisobladi. U «**Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida**» degan asarida o‘zining iqtisodiy qarashlarini bayon etdi. Chorvachilikka katta e’tibor berib, bozor sharoitida uni eng foydali tarmoq deb bildi. Bunday xulosa qilishning asosiy sababi shundaki, o‘sha davrda Italiyada don arzon bo‘lgan, chunki u chet o‘lkalardan ancha ko‘p miqdorda olib kelinar edi, chorvachilik daromadi esa yuqori bo‘lgan. Shu bilan birga, Varron, har bir xo‘jalikning o‘zini-o‘zi ta’minlashining tarafdori bo‘lgan, bozor uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga esa uncha e’tibor bermagan.



Mark Terensiy Varron (m.o.
116–27)


Rim yozuvchisi **Yuniy Moderat Kolumella** (m.o. I asr) «**Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida**» degan kitobida inqiroz va kolonatning (yirik yer egalari bilan bevosita ishlab chiqaruvchilar – kolonlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari shakli) rivojlanishi davridagi



Rim qishloq xo‘jaligiga tavsif beradi. Uning fikricha, qullar yerni yaxshi ishlatmaydilar, yerdan yuqori hosil olish uchun qayg‘urmaydilar. Kolumella urug‘ni sepishdan boshlab to hosilni yig‘ib olishgacha bo‘lgan davrda qullar isrofgarchilik qilishini, yaxshi ishlamasligini, o‘g‘rilik qilishini va pirovard natijada donni qabul qilishda uning miqdorini hisob daftarida noto‘g‘ri ko‘rsatishini aytib berdi.


U qullar mehnatidan ko‘ra erkin mayda ishlab chiqaruvchilar mehnatining afzalligini isbotlab berdi. Qullarning imkon boricha yerni ishlamaslikka intilishini ko‘rgan Kolumella, bunday yerlarni erkin kolonlarga bo‘lib berish, mayda tovar ishlab chiqarishga o‘tish zarurligi to‘g‘risida fikr yuritadi. Bunday fikrning yuritilishi, Kolumellaning ishlab chiqarishni rivojlantirish savollarini nisbatan to‘g‘ri tushunganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Rimning jiddiy iqtisodiy muammolaridan biri yerga bo‘lgan mulkchilikning oqsuyak patrisiylar qo‘lida to‘planishi va italiyalik ko‘pchilik dehqonlarning yerdan mahrum bo‘lishi hisoblanadi. Xonavayron bo‘lgan mayda dehqonlarni aka-uka **Tiberiy (m.o. 162–133-yy.) va Gay (m.o. 153–121-yy.) Grakxlar** himoya qilib chiqishdi. Patritsiylarning yer mulkini cheklash va agrar masalalarni yechish maqsadida Tiberiy Grakx m.av. 133-yilda qonun qabul qilishni taklif qilib chiqdi. Bu qonunga muvofiq, rimlik fuqarolarga davlatning haydaladigan yeridan 500 yuger (125 hektar)gacha ijara qilib ruxsat etilgan. Bundan tashqari, bir oila 1000 yugerdan ziyod yerga egalik qilishi man etilgan. Barcha ortiqcha yerlar davlat ixtiyorida bo‘lgan va yerga muxtojlarga avlodlariga qoldirish va uncha ko‘p bo‘lmagan soliq to‘lash sharti bilan 30 yugerdan bo‘lib berilgan.



Tiberiy Grakxning agrar loyihasi qisman amalga oshirildi va natijada o'n minglab dehqonlar yer olishga muvaffaq bo'ldilar. Tiberiy Grakx ataylab o'ldirilgandan keyin, uning ishini ukasi Gay Grakx davom ettirdi. Dehqonlarga yer berish qaytadan boshlandi hamda shaharlik kambag'allarga davlat xazinasidan past bahoda don sotish to'g'risida qonun qabul qilindi. Grakxlarning islohoti mayda dehqon yer egaligi mavqeini kuchaytirish va aholi kambag'allashuvining oldini olishga qaratilgan edi. Islohot ancha muvaffaqiyatli bo'ldi va hatto Gay Grakx o'limidan keyin ham konservatorlar muhtojlarni yer bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunni bekor qila olmadilar.

Mark Tulliy Sitseron (m.o.106–43-yy.) taniqli davlat arbobi va



Mark Tulliy Siseron
(m.o.106–43 y.)

mashhur notiq. U yashagan davrda davlat ancha markazlashgan bo'lib, savdo-sotiq rivojlandi, sudxo'rlik boylik manbayiga aylandi. Qadimgi Gretsiya iqtisodiy fikrlaridan farqli ravishda, Sitseron yirik savdoni qo'llab-quvvatlab, mayda savdoga esa e'tibor qaratmadni. Sitseronning sudxo'rlikka bo'lган munosabati ziddiyatli bo'lган. Bir joyda sudxo'rlikni ma'qullasa, ikkinchi bir joyda uni qoralaydi. Sitseronning savdo va sudxo'rlikka bo'lган qarashlarida Qadimgi Rim iqtisodiyotidagi natural va tovar xo'jaligi o'rtasidagi ziddiyat o'z aksini topgan.

Sitseron xususiy mulkchilik, yirik yer egaligi va mustamlakalarda ekspluatatsiyani kuchaytirish tarafdori bo'lган. Dehqonchilikni ancha samarali ish turi deb hisoblagan. U bozorni tovar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutgan.



Quldarlik tuzumining⁴⁰ ichki qarama-qarshiligi tobora o'sdi, qullar qo'zg'oloni ro'y berdi. Tarixda **Spartak** boshchiligidagi (m.a.73-71 yy.) qullar qo'zg'oloni katta ahamiyatga ega, u beayov bostirilgan bo'lsa ham, tuzum zaminiga jiddiy zarba bo'ldi. **Lusiy Sergey Katalina** (m.a. 63-62-yy.) kambag'al aholi yordamida hokimiyatni egallamoqchi, qulchilikni yo'q qilmoqchi va boyimoqchi bo'ldi, ammo uning harakatlari ham zoye ketdi.

Eramizning I-II asrlarida Rim imperiyasida nisbatan barqarorlik davri bo'ldi, lekin quldarlik eksplutatsiyasining samarasizligi tobora ayon bo'lib qoldi, kolonalar o'sdi. Aristotel g'oyalarda qulchilik tabiiy zarurat deyilgan bo'lsa, endilikda bunga sharoit taqozosi tufayli kelingan, degan fikrlar yuzaga chiqa boshladи.

Lusiy Anney Seneka (m.a.3-mil. 65-yy.) qulchilikning siyosiy xavfini tushundi va qullar bilan yumshoqroq munosabatda bo'lishni taklif etdi, ular ham tabiatan ozod odam ekanligini tan oldilar.

Shu davrda kolonatga, krepostnoylikka o'tish kuchaydi. Ana shunday bir paytda milodning I asrida (2-yarmida) yangi diniy mafkura – xristianlik vujudga keldi. Uning asosiy aqidalari Injilda berilgan. Oddiy xo'jalik faoliyati (mehnat) zarur va ulug' ish deb qaraladi. Dastlab qullar haq-huquqini himoya qilgan bu din, bu avloddan qutulish yo'li yuqoridan, xudodan deb bilgan. O'sha davrda bu dinning boshqa dinlardan afzalligi shu bo'ldiki, xalqlar o'rtasidagi etnik va ijtimoiy tafovutlar inkor etildi, din oldida hamma barobar deb e'lon qilindi. Keyinchalik bu din boshqa toifalar orasida ham tarqaldi. Dastlab xristianlik mulki umumiyo bo'lib, eksplutatsiya inkor etilgan, odatda, sadaqa hisobiga kun ko'rilgan. Birinchi xristianlar ta'qib ostiga olingan, ammo 325-yili Nikey Soborida xristianlikka Rim imperiyasining davlat dini maqomi berildi,

⁴⁰ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. Дарслик. –Т.: "IQTISOD-MOLIYA" 2007. 23–24-б.



Lusiy Anney Seneka

oqibatda u quldorlik va bo‘lajak feodal jamiyatining mafkurasiga aylandi.

Milodiy yilning boshida ilk xristianlikning iqtisodiy g‘oyalari **Avreliy Avgustin Blajenniy** (353-430) asarlarida ham berilgan. U hammaning mehnat qilishi zarurligini, “ishlamagan tishlamaydi” (avvalo Pavelning fikri) g‘oyasini ilgari surdi (sotsializmning asosiy ta’limotini eslang), dehqonchilik eng faxriy kasb ekanligini aytdi, savdoni esa faqat foyda, naf olish uchun qilinadigan ish deb qoraladi. Aqliy mehnatni jismoniy mehnat kabi baholash muhim bo‘lib qoldi.

Tayanch so‘z va iboralar: iqtisodiy fikr, quldorlik, mulkini himoya qilish, ijara, sudxo‘rlik, terimchilik, ovchilik, baliq ovlash, o‘troqlik turmush tarzi, qishloq xo‘jaligi.

2-BOB BO‘YICHA XULOSALAR

Insoniyat iqtisodiy tarixi davlatlar paydo bo‘lgunga qadar ham mavjud bo‘lgan, jumladan, ovchilik, terimchilik kabi birlamchi kasblar holida o‘z yuzaga chiqargan. Aniq iqtisodiy munosabatlar, g‘oyalar haqida biz davlatlar va yozma manbalar yuzaga kelgan davr orqali tasavvurga egamiz. Mazkur bobda biz ilk iqtisodiy fikrlar bo‘lgan qadimgi Bobil davlatining g‘oyalari, Sharq va G‘arb qarashlari orqali yoritamiz. Ular ichida ayniqsa Zardushtiylik (Avesto)dagi iqtisodiy g‘oyalarga to‘xtalamiz, chunki bu g‘oyalarda bizning hozirgi turmush tarzimizni belgilab bergen.

Dastlabki iqtisodiy g‘oyalar insoniytning paydo bo‘lishi bilan shakllangan, ammo bizgacha yetib kelganlari miloddan avvalgi 2-ming yillika to‘g‘ri kelib, ko‘proq qadimiyo osiyo xalqlarning xo‘jalik faoliyatlarini aks ettiradi. Antik dunyoga ma’lum darajada amaliyotini nazariy umumlashtirish, abstraksiyalash oqibatida birinchi iqtisodiy mushohadalar, ayrim iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar shakllana boshladi.

Qullikka asoslangan natural xo‘jalik, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi qo‘llab-quvvatlangan, boylikning asosiy manbai mehnat deb hisoblangan Hindistonda buyumning qiymatini ish kunlari bilan belgilash, mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o‘rtasidagi farqi aytilgan, foyda masalasi ko‘tarilib, uning miqdori chiklangan. Davlatning iqtisodga aralashuvi qo‘llab quvvatlangan.

Xitoydagi iqtisodiy g‘oyalar ancha revojlangan bo‘lib, tabiiy huquq nazariyasi ilgari surildi, ularda mehnat taqsimoti, davlatning roli, xalq boyligi va hukmdorlar mulki o‘rtasidagi boshlanish, iqtisod va qonun masalalariga tegib o‘tiladi.

Agar Osiyoda quldorlik ko‘proq patriarxal shaklda bo‘lsa, anti dunyoda u klassik pavishda ro‘y bergen, natural hunarmandchilik, dehqonchilik xo‘jaligi qo‘llangan, ammo bu davr oxirida savdo, sudxurlik ham qo‘llab-quvvatlangan. Pulning asosan almashuv (ksenofont jamg‘arish) funksiyasi tan olingan. Mahsulot ishlab chiqarishni rag‘bbartlantirish, boylik jamg‘armasi zarar deb hisoblangan. «ekonomika» «Ximatistika» tushunchalari kiritilgan, ular bir-biriga qarshi quyilgan, qiymat (qiymat) toifasi, tovarlarning almashuv tamoyillari (ilk yo‘nalish) keltirilgan, ammo buning mezoni (mehnat miqdori, foydalilik) aniq berilmagan. Rimda quldoplilik eng yuksaldi, lekin tanazzulga ham uchray boshladi (Osiyoda feodalizm munosabatlari oldinroq ro‘y bergen). Qulchilikka munosabat o‘zgardi, erkin sohibkorlik ustunligi oydin bo‘lib qoldi, dehqonchilik bilan chorvachilik, yirik savdo va sudhurlik faoliyati qo‘llandi (Sitseron). Mayda ishlab chiqarishga o‘tish jarayoni, islohotlar (Gpakxlar) yo‘li boshlanadi.

Katon tomonida foyda tushunchasi kiritilgan, ammo uni xato ravishda qiymatdan ortiq mahsulot deb bilgan

Zoroastrizmning muqaddas kitobi *abesto* va xiristanlik kitoblari bibliya, *injilda* muhim iqtisodiy g‘oyalar mavjud, masalan, sotsializmning bosh tamoyli bo‘lgan «*ishlamagan tishlamaydi*» g‘oyasi eramiz boshida ma’lum edi.

Qisqacha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu davrdagi iqtisodiy g‘oyalarda natural xo‘jalik (nobozor) konsepsiyalari asosiy hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Dastlabki iqtisodiy g‘oyalar qachon va qayerda paydo bo‘la boshladi?
2. Xammurapi qonunlari qachon va qaysi davlatda yuzaga keldi, uning asosiy mazmunini aytib bering.
3. Avestoda qaysi iqtisodiy kasblar yoritilgan?
4. Avestoda qanday xatti-harakat yoritiladi?

5. Konfutsiy g‘oyalarining asosiy mazmuni nimadan iborat?
6. Aflatun iqtisodiy g‘oyalari nimadan iborat, u almashuvning qanday shaklini tavsiya etadi?
7. «Avesto»dagi iqtisodiy g‘oyalarda ijtimoiy mehnat taqsimotining qaysi jixatlariga ko‘proq e’tibor berilgan?
8. Ilk uyg‘onish davrida O‘rta Osiyo olimlarining iqtisodiy g‘oyalarining asosiy mohiyati nimadan iborat?
9. Ksenofont g‘oyalarining mazmuni Arastu va Platon g‘oyalaridan va farqi va o‘xhash tomonlari qaysi?
10. Qadimgi Gretsiya va Rim g‘oyalarini taqqoslab bering.

3-bob. FEODAL JAMIYATI VA UNING YEMIRILISHI DAVRIDAGI IQTISODIY TA'LIMOTLAR

3.1. FEODALIZM DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yangi davr – milodning III asridan boshlab Osiyoda, milodning V asridan G‘arbiy Yevropada quldorlik tuzumi yangi feodal ishlab chiqarish usuli bilan almashdi⁴¹.

Ammo quldorlik tuzumining qoldiqlari feudalizm va hatto kapitalizm davrida saqlanib qoldi. Masalan, eng rivojlangan AQSHda quldorlik, qullar mehnatidan foydalanish 1861–1865-yillardagi fuqarolik urushidan keyin to‘la tugatildi. Markaziy Osiyo, xususan, Turkistondagi qullik davri ham shu davrda, ya’ni o‘lka Rossiya tomonidan bosib olingach, qonun yo‘li bilan taqiqlandi. Ayrim tarixiy, iqtisodiy-ijtimoiy sabablarga ko‘ra Yevropaning asosiy qismida, jumladan, Rossiyada qulchilik ishlab chiqarish usuli darajasida etmadni, balki feudalizmga o‘tdi. Tuzumda yerga xususiy mulkchilik mavjud bo‘lib, bevosita ishlab chiqaruvchilar, rasman ozod dehqonlarni eksplutatsiya qila boshladi. Yer egalari – feodallar yoki davlat dehqonlardan barshchina (ishlab berish), natural (mahsulot) yoki pul obrogi (soliq) sifatida yer rentasini olish imkoniga ega edilar. Shunday qilib, feudalizm jamiyati yirik yer egalari va mayda ishlab chiqaruvchilar – dehqonlarning hamkorligiga asoslanildi.

Qulga nisbatan erkin dehqon ishlab chiqarishdan xiyla manfaatdor bo‘lgan, o‘zining oilasi, ayrim ishlab chiqarish vositalariga, xo‘jalik mustaqilligiga ega edi, shu sababli mehnat unumдорligi va ishlab chiqarish kuchlari ancha o‘sdi. Feodalizm shu jihatdan avvalgi ibtidoiy jamoa va quldorlikdan tarixan progressiv jamiyat edi. Ammo bu davrda hali ham qoloq texnika mavjud bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlarining rivoji sekin borgan. G‘arbiy Yevropada feodal ishlab chiqarish usuli V asr oxiri (Rim imperiyasining qulashi)dan burjua inqiloblari (XVII–XVIII asrlar), aniqrog‘i, sanoat to‘ntarilishi davrigacha yashadi. Ko‘pgina mamlakatlarda (masalan, O‘rta Osiyo, jumladan,

⁴¹ Рассоков А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н.. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2007. 27 -28 б.

O‘zbekistonda) bu davr undan ham uzoq vaqt ni o‘z ichiga oldi (III–XX asrlar).

Bu jamiyatda yuzaga kelgan iqtisodiy qarashlar keng qamrovli bo‘lib, yerga egalikning qonuniy ekanligini ko‘rsatish, tovar-pul munosabatlari muammolariga munosabatning kuchayishi belgilashga qaratilgan. O‘sha davrdagi iqtisodiy g‘oyalarga tovar-pul munosabatlari (sudxo‘rlikdan tashqari) qo‘llab-quvvatlanadi, shu bilan birga, feodal jamiyatning tabiiyligi, uni saqlab qolish zarurligi qayd etildi.


3.2. «BUYUK IPAk YO‘LI»NING MARKAZIY OSIYODA IQTISODIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Xitoyning Tinch okeani bilan Hindiston, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa davlatlarini bog‘lovchi qadimgi savdo yo‘li – Buyuk ipak yo‘lidir. Bu yo‘l orqali asosan ipak eksport qilinganligi sababli «Ipak yo‘li» nomi bilan shuhrat qozongan. Bu yo‘l m.a. II asrdan to milodiy XV asrgacha, suv yo‘llari rivojlanguncha Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda O‘rta Yer dengiz mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojida muhim rol o‘ynagan.

Manbalarga qaraganda, Sariq dengiz qirg‘oqlaridan Xuanxe daryosidagi Sian shahridan boshlangan dastlabki yo‘l Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan (Xutan), u yerda ikkiga ajralib, biri shimoli-g‘arbg‘a ikinchisi janubi-sharqqa yo‘nalgan. Karvon yo‘lining umumiyligi 12 ming chaqirim atrofida bo‘lgan. Nemis muarixi K.Rixtgofen 1887-yil ushbu yo‘nalishga ilk bor «Buyuk ipak yo‘li» degan nisbat beradi va bu ibora muamalaga kiritiladi. Yevropaliklarga mayin ipak siri ko‘p asrlar davomida ma’lum bo‘lmagan, u yerda odatda jundan to‘qilgan ancha dag‘al kiyim-kechaklar tayyorlangan. Bu esa ipak matolarga bo‘lgan talabni oshirgan. Ayniqsa, xotinqizlarning bu gazlamaga ehtiyoji katta edi. Bu yo‘l orqali, nafaqat ipak, balki boshqa turli-tuman mahsulotlar savdosi olib borilganligi aniq.

Shimoliy yo‘l Turfon orqali Tarim vohasiga va bu yerdan Qashg‘ar, Dovon (Farg‘ona vodiysi)ga borgan. U yerdan So‘g‘dning markazi Samarqand va Marg‘iyona (Marv)ga yo‘nalgan. Ipak yo‘li Farg‘ona vodiysida yana juft tarmoqqa bo‘lingan. Janubiy qismi

O‘zgandan O‘sh, Quva, Marg‘ilon, Qo‘qon orqali Xo‘jand, Samarqand, Buxoro sari uzaygan. Keyingisi Aksi (Andijon) va Qamchiq dovonidan o‘tib, Iloq vohasi hamda Toshkent tarafga etgan. Demak, qamchiq tarixiy yo‘lning uzviy bo‘lagi hisoblangan. Bu yo‘l mohiyat-e’tibori bilan Sharq va G‘arbni turli jabhalarda bog‘lovchi yo‘ldir (savdo-sotiq, diplomatiya, madaniyat va boshqalar).



3-rasm. Buyuk ipak yo‘li xaritasi

Buyuk ipak yo‘lining yo‘nalishi sharoit, shuningdek, talab-taklifga qarab o‘zgarib turgan, o‘rtacha borib-kelish uchun 120-150 kun ketgan. Karvonni tashkil etish, boshqarish katta tajriba, bilim, sa'y-harakat talab etgan. Tarixchi mutaxassislarning aniqlashicha, bir karvonda 500 nafargacha odam, yuk tashiydigan jonivorlar bo‘lib, karvonboshi, yo‘lni yaxshi biluvchi boshlovchi, qo‘riqchilar va boshqalar, ayniqsa, elchilar, tilmochlar, hajga boruvchilar, xat tashuvchilar ham ishtirot etgan. Bu o‘rinda qayerga borish, qayerda dam olish, madad so‘rash joylari, karvonsaroylar, kerak paytda jonivorlarni almashtirish masalalari muhim edi. Odatda, kunduzi yurilgan, kechasi dam olingan, shunga mos ko‘nalg‘alar barpo etilganligi ma’lum. Suv, yem-xashak masalasi eng dolzarb edi, chunki cho‘l-u sahrolarni yurib o‘tish kerak bo‘lgan. Uzoq yo‘llar davomida karvon to‘xtaydigan doimiy makonlar vujudga kelgan, ularni karvonchilar bilgan. Ko‘rinib turibdiki, bir

qancha davlatlar chegarasini kesib o‘tib, turli xavf-xatarlarni yengib, savdogarlar nihoyatda muhim vazifalarni bajarganlar⁴².

Shu karvon yo‘l orqali Xitoydan ipak, Xitoya esa har xil gazlamalar, gilam va poloslar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar keltirilgan. Baqtriya va Dovon (Farg‘ona)dan ot va tuyalar olib borilgan. XV–XVI asrlardan bu yo‘ning ahamiyati ancha pasaydi, ammo Markaziy Osiyo respublikalarining siyosiy mustaqillikka erishuvi tufayli, bu yo‘lni yanada jonlantirishga katta ehtiyoj tug‘ildi. Xitoy, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston, Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjon, Gruziya, Qora dengizga chiquvchi undan Yevropa (Parij, Rottyerdam)ga yetkazuvchi yo‘l loyiha ishlab chiqildi va amalgalashirilmoqda, bu yo‘ning kelajagi porloq.

Endi esa, moziyga qaytib, O‘rta Osiyoning Buyuk ipak yo‘li o‘rnini va eksport potensialiga e’tiborni qaratsak. Markaziy Osiyoga, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududiga qiziqish avvaldan ma’lum va bu har tomonlama (siyosiy, iqtisodiy jihatdan) ahamiyatli bo‘lgan. Tarixiy va hozirgi ma’lumotlarga ko‘ra, bu hudud, yer, suv, iqlim, tabiat, geografik o‘rni, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi jihatidan ajralib turgan. Aholining mehnatsevarligi, mirishkorligi, bunyodkorligi, kasbhunarga mehr qo‘yanligi va ijodkorligi muhim ahamiyatga ega.

Hudud zaminida turli-tuman boyliklar, ayniqsa oltin, kumush, boshqa rangli metallar va javohirlarning mavjudligi va serobligi shu soha hunarmandchiligi rivojida hal qiluvchidir. Ayniqsa oltin ajnabiylarni magnit (oxangrabo) kabi tortganligi aniq.

Bu o‘lka eksport potensialida oltin, kumush va undan qilingan zebu-ziynatlar, zargarlik buyumlari, sifatli po‘lat olish va undan yasalgan asbob-uskunalar, ayniqsa, qilich, qalqon va boshqa harbiy asbob-anjomlar, ipakdan to‘qilgan xon atlas va boshqa nafis matolar, ajoyib ko‘rinishli qorako‘l terisi va undan tikilgan buyumlar xaridorgir bo‘lgan.

Ajdodlarimiz yaxshi po‘lat olish yo‘llarini bilganlar. Bu po‘latdan yasalgan uskunalar sifatli, o‘tkir va nafis bo‘lgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, kiroyi bir qilichning bahosi bir filga tenglashtirilgan. Qilichlar shunchalik mustahkam bo‘lganki, hatto doira shaklida har

⁴² Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011. 29-b.


qancha egilsa-da, sinmagan. Bu po'latning mustahkamligi siri G'arbiy Yevropada XIX asrning 40-yillaridagina ochildi⁴³.

Markaziy Osiyo donishmandlarining kitoblari, diniy va ilmiy asarlar hammani qiziqtirgan. Kitob yozish (xattotlar) san'ati ham yuqori bo'lgan. Miniatyura san'ati yuqori darajada edi.

Shu sababli bilim, ilm makoni bo'lgan kitob savdo-sotig'i yetakchi o'rinni egallagan. Hozirgi davrda ko'plab taniqli mutafakkirlarimizning asarlari xorij davlat va shaxsiy kutubxonalaridan topilmoqda va o'z vatani, O'zbekistonga qaytarilmoqda. Bu fakt shundan dalolat beradiki, o'z davrida kitob savdosi Buyuk ipak yo'lining asosiy faoliyatidan bira bo'lgan, demak, bu yerdan chetga ko'plab ilm va san'at asarlari chiqarilgan. Mamlakatimizda dunyodagi eng yaxshi ot zotlari bo'lganligi ma'lum, xalq eposida uchqur, ziyrak tulporlar haqidagi rivoyatlar haqiqatga juda yaqin. Ot savdosi ayniqsa qadimgi farg'onaliklar uchun eng ko'p foyda keltiruvchi sohaga aylangan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, aksariyat xaridorlar xitoylar bo'lgani aniq. Masalan, Xitoy elchisidan uni qanday tuhfa qiziqtirishini so'ralganda, ot olishni afzal ko'rgan. Otlar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, harbiy xizmatda, transport vositasi sifatida, uloq chopish, chovgan o'ynash, zeb-ziynat sifatida nihoyatda qadrlangan. Shu sababli otlar eksportda etakchi o'rinni egallagan.

Qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish va paxtadan olinadigan mahsulot asosiy o'rinda turgan. Polizchilik (ayniqsa, qovunchilik), bog'dorchilik (uzum) yaxshi rivojlangan. Agar bizga ipak yetishtirish Xitoydan kirib kelgan bo'lsa, xitoyliklar bizdan zotli otlar sotib olgan, uzum va beda yetishtirishni o'rganishgan.

Vatanimiz hududida qorako'l teri beradigan qo'ylar parvarishi muhimdir. Ularning terisi bilan savdo qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi davrda ham bu sohaga e'tiborni kuchaytirish



⁴³ Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011. 33-b.

O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun zarur vosita hisoblanadi.

3.3. ISLOM TA’LIMOTIDA IQTISODIY QARASHLAR

O‘rta asr davriga (feodalizm) kelib iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ancha to‘g‘ri aks ettirgan iqtisodiy g‘oya va nazariyalar shakllandi va rivojlandi. Ular o‘sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunday xususiyatlardan biri, eng avvalo, iqtisodiy g‘oya va nazariyalarda diniy qarashlarning ustunligidir. O‘sha davrda xo‘jalik hayotidagi diniy-axloqiy me’yorlar, ularning bozor iqtisodiy munosabatlari va ijtimoiy tizimda demokratik tamoyillarning o‘rnatalishiga to‘sinqilik qilishi yangi iqtisodiy g‘oya, nazariyalarning din “pardasiga o‘rab” berilishiga sabab bo‘lgan.

Arab mamlakatlarida feodal munosabatlarning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitini to‘g‘ri aks ettiruvchi iqtisodiy qarashlarning kelib chiqishi yangi islom dinining paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq. Ana shunday iqtisodiy fikr va ko‘rsatmalar islom dinining muqaddas kitobi – **Qur’oni Karimda** (arabcha – qiroat, ya’ni o‘qish) keng tarzda o‘z aksini topgan. Islom dinida Qur’oni Karim Allah tomonidan payg‘ambarimiz **Muhammad alayhissalomga** vahiy qilingan deyiladi. Qur’oni Karimdagagi iqtisodiy fikr va ko‘rsatmalar o‘zining to‘g‘ri va faolligi bilan ajralib turadi.

Qur’oni Karimdagagi assosiy g‘oyalardan biri musulmonlarning qardoshligi bo‘lib, arab qabilalari shu bayroq atrofida birlashdilar. Unda dehqon, hunarmandlar mehnati, umuman halol mehnat ulug‘lanadi, barcha boylik shu asosda paydo bo‘lishi uqtiriladi. Bu muqaddas kitobda savdoga katta ahamiyat beriladi, sudxo‘rlik (sudxo‘rlik foizi) qoralanadi, xususiy mulkning muqaddasligi, birovning mulkiga xiyonat va hatto hasad qilish katta gunoh deb ko‘rsatiladi. Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb tan olinadi, ammo halollik va to‘g‘rilikka buyuriladi va yolg‘on ishlatish, o‘g‘rilik va mehnatsiz daromad topish man qilinadi. Qur’oni Karimda qarz olish va berish, merosni taqsimlash, yetim-yesirlarga muruvvat, xayr-ehson qilish, o‘zaro yordam berish haqidagi g‘oyalalar hamda soliq turlari va miqdori to‘g‘risidagi tushunchalar katta ahamiyat kasb etadi. Oyati karima va hadisi shariflarda turli kasblarni egallash, ayniqsa,

dehqonchilik, qo‘ychivonlik bilan shug‘ullanish, mehnat qilish zarurligi marhamat qilingan⁴⁴.

Muqaddas kitob – Qur’oni Karimda kishilik jamiyatining faoliyat turlaridan biri iqtisodiyot sohasidagi munosabatlар muhim o‘rin tutadi. Qurondagi 293 oyat bevosita iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan. Chunki iqtisodiy munosabatlarda insonlarning asosiy fe’l-atvorlari namoyon bo‘ladi. Qur’oni Karim ahkomlari insonlarga ilohiy farmoyish sifatida zamindagi barcha insonlarning bir ota-onasi Odam alayhissalom va Momo Havo farzandlari, binobarin aka-uka, opasingal ekanligiga asoslanadi. Jumladan, «Hujurot» surasining 13-oyatida «Ey insonlar, biz sizlarni bir ota (Odam alayhissalom) va bir ona (Momo Havo)dan yaratib yer yuzi bo‘ylab har xil xalq, qabila va elatlar tarzida taratib qo‘ydik, toki sizlar bir-birlaringiz bilan tanishib, mehr-muhabbat hosil qilgaysizlar. Albatta sizlaning Olloh nazdida eng hurmatlirog‘ingiz taqvodorrog‘ingizdir. Albatta Olloh bilguvchi va hamma narsadan ogoh zotdir». Islomda «taqvo» deganda – solih, xayrli ishlarni ado etib, munkar, man qilingan, insoniyatni zavolga boshlaydigan ishlarni qilmaslik tushuniladi. Demak, taqvo insonlarning bir-biridan afzalligini belgilashdagi asosiy o‘lchovlardan biri hisoblanadi. Bu afzallik ma’naviy va ruhiy tarbiyalash bilan o‘zgalarni yashash va turmush kechirish huquqlarini e’tirof etish bilan shakllanadi.

Qur’oni Karimdagи iqtisodiy g‘oyalarni bir necha guruhgа ajratish mumkin. Ulardan biri eng avvalo halol mehnat, xususan dehqon, chorvador, hunarmandlar mehnati ulug‘lanadi, peshona teri bilan halollik asosida hayot kechirishga da’vat etiladi, barcha boylikning asosida mehnat yotishi uqtiriladi.

Islom aqidasida isrofgarchilikka qarshi kurash, «Yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, ammo isrof qilmanglar», degan ko‘rsatmalar asosida olib boriladi (bu hozirgi davrda eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi), «Daryo bo‘yida tahorat qilsangiz ham suvni isrof qilmanglar» kabi qoidalar aynan hozirgi zamon iqtisodiyoti va ekologiyasi uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Ikkinci guruh g‘oyalari – tijorat, ya’ni kengroq ma’noda esa bozor munosabatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Niso surasida (29-

⁴⁴ Рассоков А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 28-6.

oyat) «Mollarizingizni o‘rtalarinigizga nohaq (ya’ni o‘g‘rilik, qaroqchilik, sudxo‘rlik, poraxo‘rlik, qimor kabi) yo‘llar bilan yemangiz! Balki o‘zaro rizolik bilan bo‘lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo qilingiz», deyiladi. Biroq sudxo‘rlik, poraxo‘rlik kabi illatlar shar’iy jihatdan xarom ekanligi qayta-qayta ta’kidlanadi.

Uchinchi guruhi iqtisodiy g‘oyalar esa, mulk va meros masalalariga qaratilgan. Mulkning muqaddasligi, birovning mulkiga xiyonat (ayniqsa, omonatga xiyonat) qoralanadi, hatto biron odamning mol-mulkiga hasad qilish ham katta gunoh deb hisoblanadi.

Yerga mulkchilik munosabati to‘g‘risida ham alohida fikrlar lo‘nda bayon etilgan. Masalan, Moida surasining 40-oyatida yerdan unumli foydalanib olingan narsalargina insonga tegishli ekanligi ta’kidlangan.

Islomda jamiyatning tengsizligi taqdiri azaldan deb tan olinadi, ammo halollik va to‘g‘rilikka buyuriladi, yolg‘on ishlatish, o‘g‘rilik, mehnatsiz daromad topish man etiladi. Bu xatoga yo‘l qo‘yanligi uchun qattiq jazo choralar belgilanadi (Moida surasi, 38-oyat), «*ammo kim bunday jabru-zulmdan keyin tavba qilib, o‘zini tuzatsa, albatta olloh tavbasini qabul qilar*» (39-oyat).

Alloh Taolonning Qur’oni Karimda qarz olish va berish, meros, uni taqsimlash (4-sura, 8-oyat), yetim-yesirlarga muruvvat, xayr-ehson qilish haqidagi oyat karimalaridan kelib chiqadigan g‘oyalar hamda soliq turlari va miqdori ham katta ahamiyat kasb etadi. Yetim-yesirlar haqiga xiyonat qilish eng katta gunohlardan deb e’lon qilingan. Shuningdek, o‘zaro yordam ham zarur, lekin yomon ishlarda va dushmanlikda emas, deyiladi.

Shariatda mol-mulklar xususiyatiga ko‘ra ko‘char va ko‘chmas mulk, bo‘linishi mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan mulk, asosiy va qo‘srimcha mulklarga bo‘linadi (hozirgi asosiy va aylanma kapital ana shunday). Xususiy mulk – asosan egallangan yerlar, mulklardan iborat bo‘lib, ular o‘z navbatida vujudga kelishi va soliq to‘lanishi yoki to‘lanmasligiga qarab “Mulki xuri-xolis” huquqi asosan yirik yer egalariga va jamiyatning imtiyozli shaxslariga tegishli bo‘lib, ular har qanday soliqlardan ozod etilgan va o‘z yerlari bo‘lmagan yoki kam yerlilarga ijara ga yer berishgan. “Mulki xiroj” huquqiga ega bo‘lganlar aholining ko‘p qismini tashkil qiluvchi dehqonlardan iborat bo‘lib, ular

shariat bo'yicha "ushr", ya'ni hosilning undan bir qismi miqdorida xiroj solig'i to'lashlari lozim bo'lgan.

Xiroj solig'i O'rta Osiyoda VII asrda arablar tomonidan joriy etilgan bo'lib, davlat tomonidan undirilgan yer solig'idir. Islom qonunshunosligida bu soliqning xiroj-mioha (yer maydoni birligidan olingan) va xiroj muqosama (yerning sifati va sug'orish usuliga qarab, hosilning 25, 33 va hatto 50 foizi miqdorida undirilgan) xillari bo'lgan. E'tiborli tomoni shundaki, xuddi renta usuliga o'xshab ish yuritilgan. Tabiiy, ya'ni ariq, kanal orqali sug'orish uchun soliq katta edi, chunki bunga nisbatan kam sarf-xarajat talab qilinardi. Qoiz, ya'ni suv osti sug'orish kanalidan chig'ir ishlatib suv tortib olingan holda sug'oriladigan yerlar uchun kamroq soliq solinar va bu adolatli hisoblanar edi. Xiroj dastlabki paytlarda mulk holida, keyinchalik esa pul shaklida yig'ib olingan. Bu holat Bobur va boburiylar olib borgan iqtisodiy siyosatda yaqqol ko'zga tashlangan.

Islomda turli ijtimoiy jamg'armalarni tashkil etishiga ham katta ahamiyat berilib, bunday mulkchilik "vaqf mulki" deb atalgan. Shariatga asosan, vaqf mulki turli diniy jamiyatlar, o'quv yurtlari va boshqa muassasalar foydasiga vasiyat qilib qoldiriladigan mol-mulk, ularning ixtiyoriga o'tkaziladigan turli xayr-ehsonlar, yordam hisobiga tashkil etiladi. Vaqf mulkiga ko'chmas va ko'chadigan mol-mulk, sug'oriladigan yerlar, karvonsaroylar, hammomlar, savdo binolari, omborxonalar, tegirmonlar, masjid va madrasa binolari, musofirxonalar, shuningdek, foyda keltiradigan boshqa mol-mulklar kirgan⁴⁵.

Islom ta'limotini chuqurroq tushunishda Qur'oni Karimdan keyingi hujjat payg'ambarimiz Muhammad Alayhis-Salomning **Hadisi Shariflari** hisoblanadi. Hadisi Shariflardan quyidagi namunalarni keltiramiz:

- munofiqlik belgisi uchtadir: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga hiyonat qilish;
- amirning sovg'a olishi xarom va qozining pora olishi dindan chiqishdir;
- boylarning uyiga kamroq kiringlar, aks holda Tangrining sizlarga bergen ne'matlarini pisand qilmagan bo'lasizlar;

⁴⁵ Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011, 60-61-b.


- tilanchilik quyidagi uch toifadan birigagina joizdir:
 - 1) xun to‘lovchiga;
 - 2) og‘ir qarzdorga;
 - 3) miskin qashshoq kishiga.
- ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda bexosdan qiyomat qoyim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo‘yavering.
- Kimki hayotda tejamkor bo‘lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.
- Pora beruvchi ham uni oluvchi ham do‘zahga mahkumdir.
- Ilmga nisbatan go‘yo go‘pon kabi posbon bo‘linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qilgувчи bo‘lmanglar.

Hadislarda mulk, mol-dunyo, mehnat, halollikning afzalligi va boshqa iqtisodiy, xo‘jalik masalalari borasida ko‘p so‘z yuritiladi. Inson uchun mol-dunyo zarurligi, mehnat qilish yo‘li bilan halol boylik orttirish va dunyo lazzatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ammo “mol-dunyo ketidan quvmasangizlar, deb qo‘rgaymen, xolos”, degan ekanlar payg‘ambarimiz. Bu fikr naqadar to‘g‘ri ekanligi hozirgi kunda aniq ko‘rinib turibdi. Boylikni to‘g‘ri sarf qilmoq kerak. “Faqat ikki narsaga hasad qilmoq mumkin: biri – Olloh taolo bir kishiga mol-dunyo bersayu, u o‘z boyligini ezgu yo‘lda sarflab tugatsa, ikkinchisi, Alloh taolo bir kishiga ilmu-hikmat ato etasayu, u bilimidan to‘g‘ri foydalanib, boshqalarga ham o‘rgatsa”, deb aytiladi hadisda.

Imom Buxoriyni “Jomiy as-sahih” to‘plamidagi “bozorlar xususida”gi bobda shunday deyiladi: “Odamlar bozorga mol olib kelayotganlarini to‘xtatib, ulardan yeguliklar sotib olishar va o‘shal yerning o‘zida ularning qayta sotishar edi. Shu boisdan janobi Rasul olib sotarlarga odam yuborib, taomni sotib olingan yerning o‘zida sotishni man qildilar va uni taom sotiladurgon joyga olib borib sotishni amr qildilar”.

Bizga hozir yaxshi ma’lumki mahsulot bahosi bozorda, talab va taklif asosida erkin shakllanadi va uni sun’iy ravishda tartibga solish qiyin. Payg‘ambarimiz bilan bo‘lgan yana bir hodisada shu narsa aks ettirilgan. Bozorlarda narx-navolar ancha ko‘tarilganda, xokimlardan



biri payg‘ambarimizga “siz bir fatvo berib, bozordagi narsalarni pasaytirishga imkon bersangiz”, deb iltimos qiladi. Shunda payg‘ambarimiz shunday deb javob qilgan ekanlar: “Bozordagi narxnavo mahsulot mo‘l-ko‘lligiga bog‘liq. Agar narxni pasaytirish to‘g‘risida fatvo berilsa, sotuvchilar o‘z mahsulotini yashirib, sotmay qo‘yadi va baholar yanada oshib ketadi. Shu sababli bozorga tegish kerak emas. Faqat nonga bo‘lgan narxni vaqtincha tartibga solish mumkin”. Demak, bozorning o‘rni nihoyatda to‘g‘ri tushunilganini ko‘rish mumkin.

Islomda savdo-sotiq ishlarida amal qilinadigan shartlardan yana biri biror savdogarning boshqa savdogar amalga oshirayotgan savdosini buzmasligidir. “Birortangiz, birodaringiz savdosini ustiga savdo qilmangiz!” deyilgan. Kitobda “juf‘a” tushunchasi ham ko‘rsatilgan bo‘lib, “juf‘a”ning mohiyati va shartlari ochib beriladi. “Juf‘a iqtisodiy munosabatlarda ayon bo‘lib, yerlari tutash qo‘shnilarning birinchi bo‘lib sotib olish huquqlarini anglatadi. “Juf‘a” bo‘yicha, o‘z uyi va yerini sherigining ruxsatisiz sota olmasligi, sotganda ham agar ikki qo‘shnining eshiklaridan qaysi biri yaqinroq bo‘lsa, faqat unga boshqalarga qaraganda arzonroq narxda sotish lozimligi ko‘rsatilgan. “Qo‘shniga uy – joylarining tutashligi bilan boshqalardan ko‘ra haqliroqdur” deyiladi.

Zakot bilan birga boshqa soliq turlari bo‘yicha ham tavsiyalar berilgan. “Ariq yoki yomg‘ir suvi bilan sug‘oriladigan ekinga ushr (hosilning o‘ndan biri), chig‘ir yordamida sug‘oriladigan ekinga yersa, rim ushr soliq solingaydir”. Bu juda ajoyib va oqilona taklif. Chunki o‘zi oqar suvlar nisbatan kam xarj va aksincha, chig‘ir xarji ko‘r. Ba’zi narsalar uchun soliq bekor etilgan. Masalan, asalga soliq solmoqni lozim ko‘rmaganlar.

Mulk, meros bo‘lish, savdo-sotiq, toshu-tarozi, halollik, sotilayotgan molning kamchilagini aytib sotish kabi ko‘plab munosabatlar nihoyatda oqilona hal etiladi. Ularga amal qilish hozirgi davrda ham ahamiyatlidir⁴⁶.

⁴⁶ Razzoqov A.. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011. 80-81-b.

3.4. IBN XOLDUNNING IQTISODIY QARASHLARI

Iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida arab mutafakkiri Ibn Xoldunning (1332–1405) hissasi benihoya katta. U Tunisda zodagonlar oilasida tug‘ilgan. Uning asosiy asari «**Kitob-ul-ibar**» («**Ibratli misollar kitobi**»-1370-y.)⁴⁷.

Ibn Xoldun ijtimoiy rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini ko‘rsatib berishga harakat qildi. Uning fikricha, tarixiy jarayon asosini kishilik jamiyatining rivojlanishi tashkil etadi. Dastlab odamlar yovvoyi holatda bo‘lgan. Keyinchalik kishilik jamiyati tabiat dunyosidan ajralib chiqqach, o‘z rivojlanishida ikki bosqichni bosib o‘tadi: «**primitiv**» va «**sivilizatsiya**». Ularning biri ikkinchisidan «odamlar yashash vositalarini qanday topa olishi» bilan ajralib turadi. Birinchi bosqichda odamlar, asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, ikkinchi bosqichda, olimning fikricha, ularga hunarmandchilik, savdo, ilm va san’at qo‘shiladi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi xalq boyligini bir

necha bor ko‘paytirish, har bir kishining mo‘l-ko‘llikka erishish imkonini beradi. Ammo ortiqcha moddiy boylik ishlab chiqarish imkoniyatini beruvchi sivilizatsiyaga o‘tish, olimning ta’kidlashicha, umumiy, ijtimoiy va mulkiy tenglik kelib chiqqanini, jamiyatning tabaqalarga bo‘linishi zarurligi tugaganini bildirmaydi.



Ibn Xoldun (1332–1405)

Ibn Xoldunning ko‘rsatib berishicha, fuqarolarni hayotiy zarur buyumlar va zeb-ziynat buyumlari bilan yoki uning atamasi bo‘yicha «**zarur**» va «**zarur bo‘lma**» buyumlar bilan ta’minalash, eng avvalo, shahar aholisining zichligiga bog‘liq. Shahar aholisining zichligi uning rivojlangan yoki rivojlanmaganligining ramziy belgisi hisoblangan. Shuning uchun agar shahar rivojlangan bo‘lsa, unda «**zarur**» va «**zarur bo‘lma**» buyumlar yetarli bo‘ladi; bunda: birinchisining bahosi (dehqonchilikda shaharliklar ham ishtirok etganligi tufayli) pasayib boradi, ikkinchining esa (zeb-ziynat buyumlariga talabning keskin

⁴⁷ Рассоков А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи.–Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 29-b.

o'sishi sababli) bahosi oshib boradi. Aksincha, shahar aholisining kamligi natijasida uning rivojlanmay qolishi barcha moddiy boyliklarning yetishmasligini va qimmatchilikni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, mutafakkirning ta'kidlashicha, soliq qancha past bo'lsa, har qanday shaharning, bir butun jamiyatning ravnaqi shuncha yaxshi bo'ladi. U: "Bozor bahosi shakllanishining bir qancha qonuniyatlarini ta'riflab, soliqlar va har xil yig'imlar tovar qiymatining oshishiga olib keluvchi omil hisoblanadi", – deb ko'rsatib berdi. Ibn Xoldun bozorning rag'batlantiruvchi ahamiyatini bilgan: bozor mexanizmi ishlab chiqaruvchilarni mehnat unumdoorligini oshirishga va mahsulot sifatini yaxshilashga majbur etadi.

Ibn Xoldun pulni xo'jalik hayotining muhim unsuri deb hisobladi va pul vazifasini xudo tomonidan yaratilgan metallar ichida – oltin va kumush bajarishini ma'qulladi. Uning fikricha, pul «barcha sotib olinadigan» buyumlardagi inson mehnatining miqdoriy mazmunini aks ettiradi. U «**mehnatning qiymatini**», ya'ni ish haqini tavsiflab, uning miqdori: birinchidan – «**kishi mehnati miqdoriga**», ikkinchidan «**boshqa mehnatlar ichida uning tutgan o'rniga**», va uchinchidan «**odamlarning unga (mehnatga) bo'lgan ehtiyojiga**» bog'liq deb tasdiqladi.

Ibn Xoldun: "Ijtimoiy hayot asosini mehnat faoliyati tashkil etadi", – deydi. Uning yozishicha, «jamiatning ahvoli, uning boyligi va ravnaqi faqat mehnatga va kishilarning boylikni o'zlashtirishga bo'lган ishtiyoqiga bog'liq. Agar odamlar yashash vositalari to'g'risida qayg'urmasalar va ularga egalik qilish uchun mehnat qilmasalar unda bozorda oldi-sotdi bo'lmaydi va odamlar oziq-ovqat qidirib, boshqa mamlakatlarga chiqib ketadilar».


3.5. O'RTA ASR G'ARBIY YEVROPA VA ROSSIYADAGI IQTISODIY G'OYALAR

Rim imperiyasi⁴⁸ yemirilgandan keyin, G'arbiy Yevropada juda ko'p feodal davlatlar vujudga keldi. Bunday davlatlar natural xo'jalikka asoslangan, undagi o'rta asr ilk iqtisodiy g'oyalari Yevropada V–XI asrlarda shakllanib, XVII–XVIII asrlargacha burjuazik to'ntarilish sodir bo'lgunga qadar davom etdi. Bu davrda iqtisodiy va siyosiy masalalar yuqori bo'g'in va dindor Serkov feodallari qo'lida bo'lgan. Ularda katolik cherkovining qoidalari ustunlik qilardi. Iqtisodiy qarashlarning barchasi huquqiy hujjat hisoblangan "Haqiqat" deb nomlanilgan feodal hujjatda aks etgan. Barcha ilmiy shakllantirilgan g'oyalarda diniy cheklashlar mavjud bo'lardi. Shu sababli iqtisodiy savollar bo'yicha o'rta asr mualliflarining talqinlari diniy-etnik shaklda ifoda etilgan.

"Salistik haqiqat (VI asr boshlari) salistik franklarning oddiy kodeksi (qonuni) bo'lib, unda dehqonchilik xo'jaligi va ijtimoiy notenglik tasvirlangan. Dehqonchilik xo'jaligi frankning doimiy faoliyati hisoblanilib, savdo, shaharsozlik va sanoatdan xoli hisoblanardi. Hujjat bir tarafdan jamiyat ehtiyojlarini, ya'ni xususiy mulkka nisbatan jamiyat mulkini ustun qo'ysa, ikkinchi tarafdan franklar o'rtasidagi tabaqalanishni, ya'ni yerni xususiy mulkchilagini, quldarlikni, yirik feodal egalarini va yuqori hokimiyatni tan olardi.

IX asr boshlarida esa franklar hokimiysi feodal davlatni to'la shakllantirdi, dehqonchilik erkinligini yo'qotdi, jamiyat mulki saqlanib qoldi, ammo u ham erkinlikni yo'qotdi. Bu davrda yirik feodal yer egaligi haqida "Yirik xo'jalik haqida" (Kaputulyariy o villax) huquqiy hujjat paydo bo'ldi. Unga ko'ra birinchi o'ringa yirik feodal yer egaligi chiqib, dehqonlar unga bo'ysunishni, savdogarlar faqat qishloq xo'jaligidan ortib qolgan mahsulotni sotishi lozimligi huquqiy asosda tasdiqlandi.

Demak, katolik Serkov talablari asosida iqtisodiy tafakkur vujudga keldi. Yer egalariga o'rta asr (VI–X asrlar) Serkov doktorinasi va



⁴⁸ История экономической мысли/ Под ред. В.В. Круглова, Е.В. Балахоновой.- СПб.: Питер, 2008, 23 с.

Serkov Otalariga: Ulug‘ Vasiliy (VI), Ioan Zlatousta (347–407), Avgustin Blajeniy (353–430) yon bosdi. U davrda xristianlik tenglik asosida qurildi. Aytildiki, barcha kishilar Olloh oldida tengdir, kishilar mehnat orqali o‘zini Olloh oldidagi burchlarini ato etadilar. Ijtimoiy tengsizlik qoralanardi, boylik yomonlikka olib keluvchi belgi, jamiyat mulki tabiiydir, xususiy mulk esa undan (tabiiylikdan) chetga chiqaruvchi kuchdir, tenglik bu o‘zini ruhiy boyitishdir deyilgan.

Serkov qonunchiligi dehqonchilikni yoqlar edi, chunki u tabiiylikni bildiradi deyilgan, tabiat tomonidan in’om etilgan boyliklarni qayta ishlash albatta qishloq xo‘jaligi bilan chambarchas bog‘liq. Savdo esa tabiylikdan chetga chiqishdir, u ruhiy holatni buzadi deyilardi. Savdogar Serkov Otarli fikricha, Ollohga yoqmaydi, ammo ular dan ko‘ra hunarmandlardan sotib olingan mol yaxshidir. Xuddi shuningdek, Serkov qonunchiligi sudxorlikka qarshi edi. Foizlar puldan qizg‘anish asosida kelib chiqqan, u oddiy xalqni ezadi deb hisoblanardi va sudxo‘rlarga jazo berilardi.

XI–XV asrlarda Serkov haqiqati Kanon qoidalari asosida olib borilgan. Kanonistlar Kanon qoidalari asosida ideal suratni tasvirlashga harakat qildilar, aholi unga ishonishga, bo‘ysunishga majbur edi. Bu davr ilohiyotchilari Serkov Otarli hamda Arastu fikrlariga tayanishdi.


O‘rta asrning dastlabki davrida hukmronlik qilgan kanonistlar savdo foydasini va sudxo‘rlik foizini qat’iy qoraladi. Ular bu jarayonni noto‘g‘ri ayriboshlash va birovning mehnatini o‘zlashtirish natijasi sifatida tasvirlashdi hamda Olloh oldida gunoh sanalishini ta’kidlashdi. Faqat «**Odil narx**» o‘rnatilgan sharoitdagina ekvivalentli va proporsional ayriboshlash bo‘lishi mumkinligi uqtirildi (“Odil narx” – mehnat va moddiy sarflar bilan ifodalanadigan narx). Shuningdek, cherkov qonunlari mualliflari, antik dunyo qarashlariga xos bo‘lgan jismoniy mehnatga nisbatan nafratli munosabatlarga, ko‘pchilik aholining zarar ko‘rishi hisobiga ayrim shaxslarning boylik orttirish huquqiga qarshi chiqdilar. Yirik savdo, ssuda operatsiyalari, gunohli ish sifatida, umuman man etilgan.

Ammo jamiyatning tabaqalashuvi kuchaygan, shaharlarning soni va iqtisodiy qudrati oshgan, unda dehqonchilik bilan birga hunarmandchilik, savdo va sudxo‘rlik rivojlana boshlagan, ya’ni tovar-pul munosabatlari jamiyat va davlat taqdiri uchun muhim ahamiyatga aylangan. O‘rta asrning oxirgi davriga kelib, keyingi kanonistlar

iqtisodiy muammo va ijtimoiy tengsizlik sabablarini tushuntiruvchi «dalillar» doirasini ancha kengaytirdilar. Bu yerda shu narsa nazarda tutiladiki, dastlabki kanonistlar ta’limotiga asoslangan metodologik baza, eng avvalo, avtoritar isbotlash (diniy kitob va cherkov nazariyachilari asarlaridan dalil (izoh) keltirish vositasi orqali) va iqtisodiy kategoriyalarning axloqiy-etnik tavsifi (shu jumladan «odil narx» to‘g‘risidagi qoida ham) bo‘lgan. Bu tamoyillarga keyingi kanonistlar izohlash, aniqlash, qo‘srimcha qilish yo‘li bilan o‘rganilayotgan xo‘jalik hodisalarning va iqtisodiy kategoriyalarning avvalgi tadqiqot yo‘lini o‘zgartirish va hatto qarama-qarshi ma’no keltirib chiqarish imkonini beruvchi ikkiyoqlama baholash tamoyilini qo’lladilar. Akvinat undan foydalangan holda boylik, qiymat (qimmat), pul, savdo foydasi, sudxo‘rlik foizi singari boshqa iqtisodiy kategoriyalarni tadqiq qildi. Ularni quyidagi tartibda ko‘rib chiqamiz.

F.Akvinskiyning iqtisodiy g‘oyalari. G‘arbiy Yevropadagi ancha ko‘zga ko‘ringan iqtisodiy fikrlar muallifi deb, odatda, Italiya monarxi **Foma Akvinskiy (Akvinat) (1225–1274)** tan olinadi. U IV asrning oxiri – V asrning boshida iqtisodiy muammolarga diniy-etnik yondashuvning nomuqobil dogmatik tamoyillarni kiritgan, dastlabki kanonizm maktabi asoschilaridan biri hisoblangan Avgustin Blajenniyga (Avliyo Avgustin) (353–430) muholiflik qildi va uning g‘oyalarini ijodiy davom ettirdi. V–XI asrlar davomida bu tamoyillarga amal qilib kelindi.

Boylit – Avgustin davridan boshlab kanonistlar tomonidan moddiy ne’matlar yig‘indisi sifatida, ya’ni natural shaklda qaralgan. Agar boylik unga sarflangan mehnat bilan emas, balki boshqa vositalar yordamida yaratilgan bo‘lsa, gunoh deb tan olingan. Bu qat’iy qoidaga muvofiq noinsoflik bilan oltin va kumushning ko‘paytirilishi (jamg‘arilishi) jamiyatning axloqiy va boshqa me’yorlariga zid hisoblangan. Ammo Akvinat fikri bo‘yicha, «odil narx» xususiy mulkni ko‘paytirish va «o‘rtacha» boylik yaratishda inkor etib bo‘lmaydigan manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu, uningcha, gunoh hisoblanmaydi.



Foma Akvinskiy
(1225–1274)

Ayirboshlash – Qadimgi Dunyo va o‘rta asrda tadqiqotchilar tomonidan proporsional va ekvivalent qoidasiga asoslangan, odamlarning xohishi tufayli bo‘ladigan akt sifatida qabul qilingan. Bu tamoyilni inkor etmagan holda, noekvivalent bo‘lib tuyulgan ayirboshlash, subyektiv jarayon sifatida, tomonlarga teng foyda keltirishi mumkinligini Akvinat ko‘rsatib berdi. Boshqacha aytganda, buyum «*bir odamning foydasiga boshqa odamning zarar ko‘rishi hisobidan kelib tushsa*», o‘shandagina ayirboshlash sharti buzilgan bo‘ladi.

«Odil narx» – bu kategoriya kanonistlar ta’limotida «*qiymat*» (qimmat), «*bozor bahosi*» kategoriyalari o‘rnida ishlatilgan. U muayyan feodal oqsuyaklar hududida o‘rnatilgan va biriktirib qo‘yilgan. Dastlabki kanonistlar uning darajasini tovar ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat va moddiy sarflarga bog‘lab tushuntirganlar. Ammo Akvinat, «*odil narx*»ga bo‘lgan sarfli yondashuv tushunchasini yetarli emas, deb hisobladi. Uning fikricha, sotuvchi o‘z mavqeiga qarab buyumni «*o‘z narxidan ko‘ra qimmatroq sotishi mumkin*».

Pul (moneta)ni Akvinat Qadimgi Dunyo va dastlabki kanonizm mualliflariga o‘xhash talqin qiladi. Uning ta’kidlashicha, «*savdoda ... ishonchli o‘lchov birligiga*» ega bo‘lish uchun pul kishilarning xohishi tufayli kelib chiqqan. Olim monetaning «ichki qimmatga» ega ekanligini tan olsada, davlat moneta qimmatini uning «ichki qimmatiga» nisbatan bir oz o‘zgartirishga haqli deb hisobladi. Bu yerda Akvinat o‘zining ikkiyoqlamalik tamoyiliga sodiqligini yana bir bor ko‘rsatdi, ya’ni bir tomongan, monetalarni buzish tashqi savdoda pulning qadr-qimmatini yo‘qotilishiga olib kelishini tan olgach, ikkinchi tomongan esa – pulning «nominal qimmatini» davlatning o‘z xohishi bo‘yicha o‘rnatish huquqiga ishongan.

Savdo foydasi va sudxo‘rlik foizi kanonistlar tomonidan qoralangan va gunoh deb hisoblangan. Akvinat ham ularni shartli ravishda «aybladi». Uning fikricha, agar ular bunda axloq-odob doirasida ish yuritgan bo‘lsalar, savdo foydasi va ssuda uchun foiz muvofiq ravishda savdogar va sudxo‘r tomonidan o‘zlashtirilishi kerak. Boshqacha so‘z bilan aytganda, mazkur turdagи daromad savdo va ssuda operatsiyalaridagi mehnat, transport va boshqa xarajatlar, hatto xatar uchun to‘lanadigan haq bo‘lmog‘i kerak.

Shunga o‘xhash g‘oyalar Fransiyada (Nikola Orem), Angliyada (Djon Boll) ham ilgari surishdi. Angliyada Yaat Tayler (1381),

Germaniyada Tomas Myunser (1524–155) rahbarligida dehqonlar qo‘zg‘oloni bo‘lishiga sababchi bo‘lgan, ular krepostnoylikni, boshqa majburiyatlarni bekor qilishni talab etganlar⁴⁹.

Rossiyada o‘rta asr iqtisodiy fikrlari. Rossiyada iqtisodiy fikrlar I asr oxiri II asr boshlarida vujudga kelgan, ammo uzoq vaqt davomida nazariya sifatida yuzaga chiqmagan, diniy qarashlar, insonlarning huquqiy va ma’naviy tasavvurlari sifatida qaralar edi. IX–XI asrlarga kelib esa Kiyev Rusi davlatida ilk iqtisodiy fikrlar: mulk, tashqi va ichki savdo, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish qonunlari sifatida keldi. U davrning ilk qonuniy kodeksi bo‘lgan “Rossiya haqiqati” dastlabki iqtisodiy faoliyatlarni tartiblovchi rolini bajardi. Unda asosiy savollar mulkiy munosabatlar bo‘lgan: qarz tartibi, mulkiy meros, jinoyat uchun moliyaviy javobgarlik qonuniy asosda tasdiqlandi.

XII asrning ikkinchi yarmida to XV asrning oxirigacha iqtisodiy tafakkur siyosiy karaxtlik bilan rivojlandi. Bu davrda faqat “unvon” ko‘rinishidagi iqtisodiy g‘oyalardan bo‘lgan. Yuqori unvon egalari feodallar, monastr va Serkov xodimlari bo‘lib, ular yer egaligining mutloq sohibi nomi bilan tanildi. Yana bir unvon turi bo‘lgan knyazlar bo‘lib, bu unvon vakillari o‘rtadagi knyazliklar munosabatlarni yaxshilashga, tashqi savdo rivojlantirishga qaratilgan xatti- harakatlarni amalga oshirar edilar. Unvonlar qatorida yangi pog‘ona 1397 va 1467-yillar ta’sis etilgan Pskov Kema Nishoni bo‘lib, u yerni savdo-sotiqni, meros hujjati bo‘yicha merosga qoldirish, yerdan foydalanish va egallahni tartibga solib turardi.

XV asr oxiridan iqtisodiy g‘oyalarda faol ko‘tarilish kuzatildi. Rossiyada iqtisodiy muammolar bilan qiziqadigan olimlar ko‘paydi. Shu davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti quyidagi ko‘rinishga ega edi: turli feodal knyazlarni birlashtirish, ularni markazlashgan davlatga aylantirish, podsho vazifalari, hukumat faoliyati, knyajlar huquqlari va majburiyatları, davlat, Serkov va turli tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan harakatlarda ifoda etildi. XVI asr buyuk iqtisodiy g‘oyachisi, dvoryanlikni fikrlovchisi **Ivan Semenovich Peresvetov** (tug‘ilish va o‘lish yillari aniq emas) Ivan Grozniy uchun davlatning iqtisodiy islohotlari dasturini yaratib berdi.

⁴⁹ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2007, 32 б.

O‘z g‘oyalarini “Konstantin podshohi haqida”, “Kitoblar haqida” (taxminan 1546–1549-yillar) orqali ifodalab, podsholik hukumatining kuchli tomonlarini, davlatni boshqarishda feodal va yuqori martabali shaxslarga tayanish lozimligini aytgan.



Ivan Semenovich Peresvetov


O‘zining markaziy davlat g‘oyasiga asoslanib, soliq va boj to‘lovlarini xazinaga joylashtirishni, qozi va harbiylarga maosh belgilash lozimligini aytgan. Bu qonuniyatda, shuningdek, Rossiyada keng yoyila boshlangan o‘g‘rilikni oldini olish ham ta’kidlangan. Moliyaning markazlashtirilishi davlatning daromadlari ko‘payishini nazarda tutardi.

XVI asrning ikkinchi yarmi islohotchilaridan yana biri **Yermolay Yerazm**

(taxminan 1510–1550-yillar) bo‘lgan. Uning “Podsholik hukumati va yer hokimligini sevuvchilar uchun” asari Rossiyada birinchi maxsus iqtisodiy traktat rolini bajardi. Bu asar podsholar uchun davlatni boshqarish, yer o‘lchovini amalga oshirish ko‘rsatma-si sifatida yozildi. Ruhoni bo‘lgan Yermolay barcha muammolarni diniy ma’naviyat orqali ko‘rdi, Serkov hokimiyatini birinchi qatorga qo‘ydi, boylikni esa ayyorlik va zo‘ravonlikka bog‘liq holat deb bildi.

Qishloq xo‘jaligini asosiy ishchi tarmoq sifatida qarab, dehqonlar ahvolini yaxshilashni yoqladi, obrokni (daromadidan to‘lov turi) pulli ko‘rinishdan natural ko‘rinishga o‘tkazishni (dehqon olgan mahsulotini beshdan bir qismini tashkil etadi) taklif qildi. Bu taklif o‘sha davrda tovar-pul munosabatlarining faol rivojlanayotgan holatga qarshi hisoblanilardi.

Yermolay markaziy hukumat podsholikka xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi. Boyarlar, xarbiylar o‘zining davlat oldidagi xizmati uchun yerlar bilan (ichida shu yerda ishlaydigan kristianlar bilan birga) mukofotlanardi. XVI asrda, shuningdek, Ksenofontning “Davlat” asariga o‘xhash “Domostroy” asari yuzaga keldi. Uni




Yermolay Yerazm
(taxminan 1510–1550 yillar)

muallifi ruhoniyl Silvestr bo'lib, o'z asarini oldingi yozilgan qonuniylarni jamlagan holda keltirib, to'ldirgan. Bu asar orqali xristianlarning huquqlari va natural xo'jalikni yoqlab chiqdi. Shuningdek, unda yollanma ish yoqlanadi, obrokni pul ko'rinishini keng targ'ib qildi, tovar-pul munosabatlari islohotning asosiy kuchi deb aytadi. Demak, Rossiyadagi iqtisodiy g'oyalari kuchli boshqaruvga ega podsholik hukumatini, davlat nazoratini yoqlab chiqilgan.

3.6. O'RTA ASR UTOPIYALARI: TOMAS MOR VA TOMMAZO KAMPANELLA

Utopik g'oyalari ideal shahar bilan bog'liq xayoliy davlatlar haqidagi qarashlardir. Shu davrga qadar ideal davlat to'g'risidagi g'oyalari Platon, Forobiy va Ibn Sino qarashlarida chiqqan bo'lsada, ammo utopik g'oyalari kabi ertaknavo ko'rinishga ega bo'lmagan.



Tomas Mor (1478-1535)

Ilk utopik g'oya 1516-yil nashrdan chiqqan angliyalik faylasuf va davlat arbobi Tomas Mor (1478–1535-yillar) qalamiga mansub "Utopiya" asari bo'ldi. Aynan Tomas Mordan so'ng ideal jamiyatlar utopiyalar deb nomlanila boshlandi. Asarda farovon va adolatli jamiyatga asoslangan Utopiya

orolidagi hayotiy holatlar keltirilgan. U yerda xususiy mulk yo'q, barcha shaxslar bir xil huquqqa ega, jismoniy faoliyat har bir shaxsning majburiyati, mehnat natijalari esa barcha jamiyat vakillari o'rtasida teng bo'linishi lozimligi aytilgan.

Tomas Morning "Utopiya" asarida quyidagi asosiy qarashlar aks etdi:

- hayotdagи har qanday qiyinchiliklar – bu xususiy mulkning jamiyat va shaxs ehtiyojlariga xizmat qilishida, boy va kambag'allik, yaxshi yashash va qashshoqlik bular barchasi bir-biriga teskaridir. Xususiy mulk va pul jinoyatga yetaklaydi, uni hech qanday qonun bilan to'g'rilab bo'lmaydi;

- Utopiya (ideal davlat) bu 54 ta federativ shahar birlashmasi;

– unda har bir shahar va uni boshqaruvi bir xilda. Shaharda 6000 oila, har bir oila 10-15 ta katta yoshdagi shaxslar majmuidan iborat. Har bir oila ma'lum bir hunarmandchilik bilan shug'ullanadi (bir oiladan ikkinchi oilaga o'tish ruxsat berilgan). Shahar yaqin joyda joylashgan qishloqda "qishloq oilasi" (40 tagacha bo'lgan katta yoshdagilar) tashkil etiladiki, unda shahar aholisidan har qanday inson kamida ikki yil yashashi lozimligi aytilgan;

– Utopiyada hokimiyat vakillari har yili saylanadi. Asosan olimlar bu lavozimni egallashi mumkin. Ular knyaz tomonidan boshqariladigan shahar senatini tashkil etadi. Knyaz (adem) shahar senati vakillari (falarx) tomonidan taklif etilgan shaxs. Knyaz lavozimi biror-bir jinoyatda ushlanmasa, unda u doimiy o'z o'rnida o'tirishi mumkinligi aytilgan;

– Utopiyada xususiy mulk yo'q, shu sababli utopiya aholisi o'rtasida jinoyatlar yo'q, shu sababli mukammal va keng qonunchilikni yaratish shart emas;

– Utopiya aholisi urushni vahshiylik deb biladi, ammo agar kerak bo'lsa urushni ham amalga oshirishlari mumkin. Urushni mavjud bo'lishi bu yangi hududni o'zlashtirilishi bilan bog'liq deb hisoblanadi.

Umuman Tomas Mor tomonidan yaratilgan "Utopiya" asari toza xayoliy davlat. Bunday davlat yomonliklardan xoli, chunki hamma

qiyingchiliklar faqat xususiy mulkda deb hisoblanilgan. Uning asari butun Yevropani qiziqishini uyg'otdi, u bir necha marta qayta nashr ettirildi.

Utopiya asariga mos yaratilgan yana bir asar **Tomazzo Kampanellaning** "Oftob shahar" asaridir. Mazkur asar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotining tub ko'rinishidir. Uning asosi xuddi utopiya muallifi kabi jamiyatda notenglikni yo'q qilish, ya'ni xususiy mulkni yo'qotish tarafidori. Shu sababli Oftob shahrining barcha yashovchilari

tengdir, ya'ni boy ham kambag'al emas, chunki ularda yashash uchun hamma narsa bor, ularda hech qanday mulk ko'rinishi mavjud emas, shu sababli ular mulkka xizmat qilmaydilar, balki mulk ularga xizmat qiladi. Kampanellaning mazkur fikrlariga barcha olim shaxslar



Tommaso Kampanella

qarshiligiga duch kelgan, chunki bunday davlatda “monogam oila”: yani xotin uchun hamma er, bolalar uchun ota-onalar hamma jamiyat vakillari bo‘lishi mumkin. Kampanella fikricha, shaxsning o‘z-o‘zini sevishini oqibati bu o‘z oilasiga ega bo‘lishidir, monogam oila esa bunga qarshidir deb bilgan.

Kampanella qarashlari Platonning “Davlat” asari va uning monastrlik tajribasining birlashuvi deb qarashadi. Bu asardagi yangilik “oftob shahar”da oila tashvishi davlatning asosiy vazifasi qilib belgilanishida, jamiyat mablag‘lari hamma uchun tengligida, hech kim o‘z shaxsiy manfaatdorligiga ega emaslidigadir. Mehnat qilish barchaning vazifasidir. Ish vaqt kuniga 4 soatni tashkil etadi, qolgan vaqtni odamlar ilmni o‘rganishga sarflashlari kerak, bu insonlarni aqliy va ruhiy oziqlantiradi. Ortiqcha vaqt faqat yangi texnologiyalarning joriy etilishi tufayli kelib chiqadi. Shaharda doim kulgi va quvonch yashnab turadi. Oftob shaxrining hukumдори “Quyosh” deb nomlanilib, mutloq metafizikdir deb hisoblanildi. Metafizik bu – kuch, donolik va sevgining mutloq ramzini ifodalovchi shaxsdir. U ruhoniydir, hammani eshituvchi, dardini bilguvchidir. Barcha shaxslarni ruhiyati birlashuvi, jamiyatda tabiiy qonundir deb aytilgan.

Faylasuflarning bergen bahosiga ko‘ra, bu olimlarning jamiyati “xomaki ishlangan”, “qo‘pol kommunizm”dir. Ular asosan, hunarmandchilik va dehqonchilikka asoslangan tenglashtirish xususiyatiga ega. Ammo shunisi e’tiborliki, bu kishilar har jihatdan ta’minlangan, bilimli davlat arbobi bo‘lganlar, kommunistik jamiyat g‘oyasi K.Marks va F.Engelsarning g‘oyasi emasligini ham eslatib o‘tish zarur. Xayoliy sotsializm to‘g‘risidagi dastlabki g‘oyalar Osiyoda **Abu Nasr ibn Muhammad Forobi** (870-950, 2-muallim), Germaniyada **Tomas Myunsyer** (1420–1525) lar tomonidan ham ilgari surilgan. Injil va Qur’oni Karimda ham uning elementlari bor. Markaziy Osiyodagi sarbadorlar davlati ham shu tamoyillarga asoslangan (Samarqandda Abu Bakr Kalaviy, Mavlonozoda, Xurdaki Buxoriy va boshqalar).

Keyinchalik Abdurahmon Jomiy va A.Navoiy, Xurdaki Buxoriy asarlarida ham bunday g‘oyalar bo‘lgan⁵⁰.

⁵⁰ Рассоқов А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н.. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2007, 35-6.

Tayanch so‘z va iboralar: boylik, ayriboshlash, savdo, odil narx, savdo foydasi, eksport, tejamkorlik, xususiy mulk, moddiy ehtiyojlar, mulk, mehnat, soliq.

3-bob. BO‘YICHA XULOSALAR

Qulدورлик жамиятинг юмрилиши янги даврни вујудга келишига асос бо‘лди, я‘ни феодал жамияти шаклана бoshланди. Mazкур жамият олдингি тизимдан ко‘ра диниј ва мурakkabroq iqtisodiy munosabatlarni o‘z ichiga qamrab olganligi bilan farq qildi. Bunday iqtisodiy munosabatlar qatorida xristian yoki islom diniga to‘liq bo‘ysunish, har bir harakat muqaddas kitoblarda yoritilgani kabi amalga oshirish, kredit berishda, savdoda gunoh qilishdan qo‘rqish kabi holatlarni o‘z ichiga oldi.

Feodal yer egaligi dabridanatural xo‘jalik, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi asosiy edi, ammo shu bilan birga bu paytda shaharlar soni usti, Tovar – pul munosabatlari ham ancha rivojlandi, nisbatan erkin va samaraliy ishlab chiqarish usuli bo‘lgan kriposoylikka o‘tildi. Avvalgi davrdagi natural xo‘jalik ishlab chiqarishi (T) asta-sekin T-PT munosabatlari bilan almasha bordi (agrар yunalish xal qiluvchi), istemol qiymatlarini yaratish baribir asosiy maqsad bo‘lgan va shu g‘oya himoya etilgan mehnat qurollari takomillashmagan davrda bu tabiiy bir hol edi.

Feodal munosabatlar sharqda nisbatan erta tarkib topdi va uzoqroq davom etadi. Arab mamlakatlarning iqtisodiyotiga islom aqidalari faol ijobjiy ta’sir etdi. Qur’oni karim va hadislarda keltirilgan iqtisodiyotga aloqador qonun-qoidalar «Xidoya» va shu kabi boshqa fiqh kitoblarida ken o‘rganib, amalga oshirildi, natijada muhim iqtisodiy g‘oyalari ilgari surildi. Mehnat, ayniqsa qishloq, xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo qo‘llab-quvatlanadi. Isrofgarchilik, mehnatsiz daromad, ayniqsa, sudxo‘rlik xarom deb e’lon qilindi.

Bu davir uchun ibn xaldunning iqtisodiy g‘oyalari nihoyatda muhimdir, u o‘z asarlarida ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat unumдорлиги, oddiy va murakkab mehnat, zaruriy va qo‘srimcha mahsulot, tovarning istemol qiymati va umumiyligi qiyamatining farqini tariflab berdi, ayiboshlash tamoyilini (sarflangan mehnatning yarimi) to‘g‘ri talqin etdi, sarflangan mehnat bilan birga shu tovarning

odamlarga zarurligi ham muhimligini ta'kidladi. Uning asarlarida mehnat taqsimoti, Tovar – pul munosabatlari, savdoning boylik yaratishdagi roli, soliq tizimning xalq farovonligiga ta'siri asosan to‘g‘ri tahlil etib berilgan.

Yevropadagi feodal munosabatlar nisbatan kech tarkib topgan bo‘lsa ham, uning pevoji tezroq buldi. Dehqonchilik, umuman, qishloq ho‘jaligi ustun bo‘lishiga qaramay, hunarmandchilikda sex tizimi, keyinroq manufakturna vujudga keldi, mehnat taqsimoti, unimdonlik va sifat masalalari (ayniqsa, sexlarda), raqobat tamoyillari tarkib topdi. Bu davirda farbda natural xo‘jalik (iste’mol qiymati) ishlab chiqarish qo‘llangan oltin va kumush, zeb-zeynat sun’iy boylik deb qaralgan, «adolatli baho» masalasi ko‘tarilgan. Bu yerda ham va din ahli tomonidan iqtisodiyotda muhim fikrlar ilgari surilgan. Masalan, F.Akvinskiy «adolatli baho» masalasini naf va manfaatlar tengligi asosida hal etadi. Prosint (foiz)ni oqlaydi, uni qullaydi va tavakkalchilik to‘lovi deydi. U shuningdek, retain ham qo‘llaydi, uning ekspluatatorlik mohiyatini imkor etadi.

Rossiyada shu davrdagi iqtisodiy goyalarda ham dehqon mehnati boylikning asosi ekanligi ko‘rsatiladi, natural renta miqdori 2 foiz belgilanadi, pul munosabatlariga, ayniqsa, savdoga qarshi g‘oyalalar ko‘p edi.

XIV–XV asrlarda G‘arbiy Yevropada feodalizmning yemirilishi va ilk kapitalistik munosabatlar shakllana boshladi. Bu jarayon kapitalning dastlabki jamg‘arilishi jarayoni bilan bog‘liq bo‘ldi va ko‘p hollarda og‘ir shakilda amalga oshdi. Ayniqsa, dehqonlarni yerdan mahrum etish ogir oqibatlarga, dehqonlarning katta qismining xonavayron bo‘lishiga olib keldi. Yangi munosabatlar yangi sinfning burjuaziyaning manfaatiga mos edi, ammo bu jarayon boshqalar hisobiga ro‘y berdi.

Ana shunday sharoitda xayoliy (utopik) sotsializm g‘oyalari tarkib topdi. Aslida bu g‘oyalarning elemintlari ilgarigi davrda ham bo‘lgan. Yangi yo‘nalish tarafdarlari barcha ofat xususiy mulk va puldan qilib chiqadi, deb uylashgan. Ular boylik hammaning mehnati asosida, ijtimoiy mulkchilik sharoitida hosil qilinsa, xususiy mulk esa tekis taqsimot yo‘li bilan (pulsiz) amalga oshirilsa, barchaning farovonligi ta’minlanadi degan fikrda edilar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘rta asr davridagi iqtisodiy fikrlarning o‘ziga xos xususiyatlari nima?
2. Ibn Xoldun bo‘yicha ish haqi qanday omillarga bog‘liq?
3. Qur’oni Karimdagagi iqtisodiy fikrlarning o‘ziga xosligi nimada?
4. Hadisi sharifda esa qanday?
5. Kanonlar ta’limoti nimaga asoslangan edi?
6. Qaysi faoliyatlar Serkov otalari tomonidan oqlanmagan?
7. F.Akvinskiyning “Odil narx” nazariyasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatini tushuntiring/
8. Rossiyada o‘rta asr iqtisodiyoti qanday rivojlangan?
9. Yermolay yerazm qarashlari nimaga asoslangan edi?
10. Yevropa va Rossiya iqtisodiy ta’limotining farqli tomonlari qaysilar?

4-bob: O'RTA OSIYODAGI TEMURIYLAR DAVRIGACHA BO'LGAN IQTISODIY G'OYALAR

4.1. MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA IQTISODIY FIKRLAR

Buyuk vatandoshimiz – **Imom Burhoniddin Abu-Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdujalil al-Farg'oniy al-Marg'inoniy** 1123-yilda, hozirgi Marg'ilon yaqinidagi Rishton tumanida tug'ilib, 1197-yili Samarqandda olamdan o'tgan va o'sha yerda dafn etilgan. U yashagan davr O'rta Osiyoda Uyg'onish davrining birinchi bosqichi bo'lmish IX–XII asrlarga to'g'ri keladi. Burhoniddin Marg'inoniying yozgan to'rt jildlik "Al-Hidoya" kitobi sunniylik oqimidagi hanafiy mazhabi bo'yicha 55 dan ortiq kitob, yuzlab bob, fasldan tarkib topgan bo'lib, islomdagi barcha mulkiy va nomulkiy huquqiy masalalarni qamrab olgan. Hozirgi kunda ham ushbu asar Misr, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston universitetlarining o'quv dasturlariga kiritilgan⁵¹.

«Al-Hidoya»ning birinchi kitobi to'rt jılddan iborat bo'lib, har birida alohida muammolarni tahlil etadi. Bu kitob 1994-yildan professor A.X.Saidovning izohi bilan nashr etilgan. Kitobning tarkibi quyidagicha:

1-jild – tahorat, namoz, ro'za, zakot va haj kabi farz amallarning ibodat masalalariga bag'ishlangan.

2-jild – oila huquqi, qullar muammolari, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalarni yoritgan.

3-jild – oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da'vo, iqror bo'lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo'lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, valiylik, majbur qilish, homiyliy, bosqinchilik xususidagi masalalar yoritilgan;

4-jild – shafe'lik, meros taqsimlash, dehqonchilik va bog'dorchilik xususida shartnomalar,



⁵¹ A.Razzoqov. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011, 82–83-betlar.

qurbonlik qilish to‘g‘risida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq va qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish xususida, ovchilik, garovga qo‘yish, jinoyatlar xususida, hun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalarga bag‘ishlangan.

Ushbu asarda yoritilgan masalalar tarkibidan ko‘rinadiki, u juda boy tarixiy tajribani o‘zida mujassamlashtirgan. Chunonchi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda insonparvarlik, adolat barqaror bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tijorat ishlarida adolat, to‘g‘rilik, halollik, insonparvarlik qoidalariga rioya qilish nihoyatda zarur ekanligi qayd qilinadi. Birovning haqiga hiyonat qilish, kishilarni aldash gunohi kabr sifatida ta’riflanadi. Demak, «Al-Hidoya» sakkiz asrdan buyon Islom dunyosi mamlakatlari uchun eng ishonarli manballardan biri sifatida mo‘tabar qo‘llanma vazifasini o‘tab kelmoqda.

Asarda keltirilgan shariat hukmlarini bajarish yuksak ma’naviy, insoniy fazilatlar shakllanishida muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Islom ahkomlariga mos ravishda paydo bo‘lgan tafakkur taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri tasavvuf, ya’ni so‘fiylik ta’limoti hisoblanadi. Bu ta’limotlar VIII–IX asrlarda arab dunyosida vujudga kelib, X–XI asrlarda Movaraunnaxr tuprog‘iga yetib keldi. Bu ta’limot insoniyatni ma‘rifatga, insof va adolatga undashni, umuminsoniy qadriyatlarni e‘zozlashni targ‘ib qiladi. Nafs, hirs, boylik barcha yomon xislatlarga qarshi kurash tasavvufning mag‘zi hisoblanadi. Uning maqsadi esa komil insonni tarbiyalashdan iborat. So‘fiylik ta’limoti nafs deganda, inson fe’l-atvorida uning sha’nini bulg‘aydigan illatlarni, jumladan, johillik, manmanlik, dunyoparastlik, poraxo‘rlik, o‘g‘rilik, ta”magirlilik, xasislik, baxillik kabilarni tushunadi. Nafsni engish uchun inson imtihon qilinadi, buning uchun u o‘zlikni anglashi kerak bo‘ladi⁵².

“Hidoya” asarida zakot masalasi. Zakot (ayrim yerlarda “sadoqot” deb nomlanadi) faqir, miskin, zakot yig‘uvchilarga, dilini islomga moyil qilishi uchun ayrim kofirlarga, qullarni ozod qilish uchun va qarzdorlarga, jihod qiluvchilarga, musofirlarga beriladi. Ba’zi joylarda, ilm-u toliblarga ham berilishi mumkin, deb qayd etilgan. Agar hozirgi ta‘biri bilan aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy himoyaga loyiq xalq ommasiga yordam qo‘lini cho‘zish deganidir. Ya’ni zakot to‘lashga qodir kishilar

⁵² Djumanov D., Allaberganov Z., Husanov D., Mamadiyorov O., Ruziiyev B. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma’ruzalar matni). –Toshkent, 2016. 24–25-betlar

(“nisob”idan ortiqchasing bir qismini) boshqalarga ko‘mak berishi deyarli majburiy shart qilib qo‘yiladi. Shundan bilish mumkinki, jamiyatning tabaqalanishi, boylar va kambag‘allar bo‘lishi tan olinadi.

“Hidoya” asarining yozilish uslubi shundayki, unda hammaga yaxshi ma’lum masalalar bilan birga, kam uchraydigan holatlar, u yoki bu masalaning nozik tomonlari ikir-chikirigacha izohlab beriladi. Hozirgi davr tili bilan aytilganda, chiqarilgan asosiy qonunga berilgan to‘la-to‘kis sharhga o‘xshaydi. Kitobda kimlar va qancha zakot to‘lashi kerakligi to‘g‘risida qiziq va aniq ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, daromadning qiriqdan bir hissasi hisobidan zakot to‘lanishi kerak deyilgan.

Hosildan undirilgan soliq. Dehqonchilikda ziroatchilik eng keng tarqalgan faoliyat turi hisoblangan, aholining katta qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan. Shu sababli aholi daromadida bu soha yetakchi o‘rinni egallagan. Asosiy yerda sun’iy sug‘orish yo‘li bilan, ayrim qismi lalmirkorlik asosida, ya’ni ekinlarni tabiiy qor, yomg‘ir suvlari yordamida sug‘orilib dehqonchilik qilingan. Bundan tashqari, suv bemalol, o‘z oqimi bilan kelmaydigan joylarda koriz-yer osti va buloq suvlari, quduqlar va past yerlardan chig‘irlar yordamida yuqoriga ko‘tarilib, sug‘orish olib borilgan. Ikkinchisi holatdagi ishlar ancha murakkab va qo‘sishimcha xarajat sarflashni taqozo etgan. Shularni hisobga olgan holda, yomg‘ir, qor suvi bilan sug‘oriladigan yerlardagi hosilning o‘ngdan biri ushr shaklida soliq sifatida olinar edi. Ammo o‘rmon, yaylov, chakalakzor zakotdan ozod etilgan. Sun’iy sug‘oriladigan yerlar hisobidan ushrning yarmi miqdorida soliq to‘lanar edi⁵³.

Agarda islom nuqtayi nazaridan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy masalalar: mulkiy va moliyaviy munosabatlar, ayniqlashtirish, uni bo‘lish yo‘llari, jinoyat va jazo, fuqarolik huquqlari ham ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, faqat islomga xos bo‘lgan bir qancha masalalar, xususan, jihad, o‘lja olish va uni taqsimlash, turmush faoliyatidagi ayrim ta‘qiblar, ijozatlar qayd etilgan.

Burxoniddin al-Marg‘inoniy nihoyatda keng bilim egasi bo‘lish bilan birga haqsevar, adolatli qonunshunos, hadis ilmining donishmandlaridan biri edi. U Qur’oni yoddan bilgan, uni izohlay

⁵³ Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011. 85–87-b.

olgan, shoir, adabiyotchi bo‘lgan. Tarixiy qo‘lyozmalarda qayd etilishicha, olim avlod-ajdodi ham musulmonlar qonunchiliginini yaxshi bilgan insonlar bo‘lishgan.

«Hidoya» asari musulmon qonunchiligining barcha qirralarini o‘z ichiga oladi va nihoyatda keng tadqiqot manbayi bo‘lib hisoblanadi. Asarda, ayniqsa, zakot masalasiga katta e’tibor berilgan, unga maxsus bir bob ajratilgan. Chorva mollari, shaxsiy mulk shakllaridan olinadigan to‘lovlар yuzasidan aytilgan fikrlar bag‘oyat muhimdir. Asarning yozilish uslubi shundayki, unda hammaga yaxshi ma’lum masalalar bilan birga, kam uchraydigan holatlar, u yoki bu masalaning nozik tomonlari ikir-chikirigacha izohlab beriladi. Hozirgi davr tili bilan aytadigan bo‘lsak, chiqarilgan asosiy qonunga to‘la-to‘kis sharhga o‘xshaydi. Kitobda kimlar va qancha zakot to‘lashi kerakligi haqida qiziq ma’lumotlar keltiriladi. Odatda, daromadning qirqdan bir hissasi (2,5 foizi) hisobidan zakot to‘lanishi kerak. Chorvachilikda 40 echkidan bittasi zakot hisobida beriladi, mol soni kam bo‘lsa, olinmaydi. Zakot to‘lashda bir yoshdan kichik qo‘zilar hisobga kiritilmaydi.

Otlarda esa boshqacha hisob-kitob qilinadi, ya’ni har otdan bir dinor yoki ot bahosining 9 foizi miqdorida zakot to‘lanishi kerak. Ammo eshak, xachir va boshqa ishchi hayvonlar (xo‘kiz, tuya)dan to‘lov olinmaydi. Agar ular oldi-sotdi muomalasida bo‘lsa, ahvol o‘zgaradi va zakot beriladi. Bir yoshga to‘lmagan echki, buzoq va bo‘taloqlar ham umumiylis hisobga kiritilmaydi, ammo 25 ta tuyadan bittasi, 66 tadan boshlab ikkita, 145 tadan ortig‘idan uchta tuya zakot hisobiga berilishi kerak. Shu yerda muhim bir fikr borki, agar mol egasi shu molning (natura) o‘rniga uning bahosiga teng zakotni pul shaklida to‘lashi ham mumkin, deyiladi.

Yana muhim bir ko‘rsatma diqqatga sazovorki, zakot yig‘uvchi eng yaxshi (sara) molni emas, o‘rtacha bahodagi molni olishi talab etiladi. Undan tashqari, zakotni oldindan ham to‘lash mumkinligi ko‘rsatiladi.

Kumush narsalardan olinadigan zakotda o‘rtacha nisob (soliq olinishi mumkin bo‘lgan miqdori) 200 dirham deb belgilangan, bundan 2,5 foiz (ya’ni 5 dirham) zakot olinadi. Agar kumush miqdori 200 dirhamdan ortiq bo‘lsa, har qo‘srimcha 40 dirhamdan yana zakot beriladi va hokazo.

Oltindan olinadigan zakot miqdori o‘ziga xosdir. 20 misqolgacha zakot olinmaydi (bir misqol o‘rtacha 4,5 gramm), 20 misqoldan yarim misqol (2,5 foiz) zakot to‘lanadi. 20 misqoldan ortiq har 4 misqoldan 2 karat, ya’ni 12 dan 1 unsiya zakot berish kerak.

Shaxsiy, xususiy mulk hisob-kitobi kumush yoki ekvivalentiga qarab belgilanadi. Hatto kumush va oltin ham umumiylaho asosida yagona qiymatga keltirilishi mumkin.

Topilgan kon xazina uchun beshdan bir (20 foiz) zakot olinishi lozim. Masalan, biror yerdan yoki ekilayotgan joydan xazina topilsa, shu usuldan foydalaniladi. Qimmatbaho toshlardan zakot to‘lanmaydi, chunki toshlar zakotdan mustasnodir.

Tabiiy (yomg‘ir, qor suvi bilan) sug‘oriladigan yerlardagi hosilning o‘ndan biri (10 foizi) ushr shaklida olinadi. Ammo o‘rmon, yaylov, chalakalakzor zakotdan ozod etilgan. Sun’iy sug‘oriladigan yerlar hisobidan ushrning yarmi (50 foizi) miqdorida soliq to‘lanadi.

Burhoniddin al-Marg‘inoniy o‘z asarida zakotni taqsimlash qonun-qoidalarini ham bayon etadi. Aholining ayrim toifa vakillari: faqir, miskin, zakot yig‘uvchilar, qarzdorlar yig‘ilgan zakotdan foydalanish imkoniyatlari egaligi haqida ham qimmatli fikrlar bildirilgan.

4.2. FOROBIY ASARLARIDA EHTIYOJ, MEHNAT, MEHNAT TAQSIMOTI, INSON OMILINING YORITILISHI

Forobiy to‘g‘risidagi iqtisodiy qarashlar respublikamiz⁵⁴ iqtisodchi olimlari tomonidan “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanidan darslik, o‘quv qo‘llanma va ma‘ruzalar matnlarida bat afsil yoritilgan.


O‘rta asr davrida ilg‘or iqtisodiy fikrlarni ilgari surgan buyuk mutafakkirlardan biri, Aristotelning izdoshi, uning asarlarini tahlil qilgan «**ikkinch muallim**» Abu Nasr Forobiy (870–950) hisoblanadi. U ko‘p qirrali olim bo‘lib, o‘z bilimini oshirish yo‘lida tinmay mehnat

⁵⁴ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2007, Egamov E., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Ma’ruzalar matni. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010; Asatullayev X., Djumonov D., Allaberganov Z., Xusanov D., Mamadiyorov O. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma’ruzalar matni) Toshkent 2014; Djumanov D., Allaberganov Z., Husanov D., Mamadiyorov O., Ruziiyev B. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma’ruzalar matni) – Toshkent 2016, Д.Джумонов, З. Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017.

qilgan, qaysi yurtda mashhur olim borligini eshitishi bilan, suhbatlashib undan saboq olish uchun yo‘lga chiqqan⁵⁵.

Forobiy bir asarni bir marta o‘qib tushunolmasa, uni qayta-qayta o‘qirdi. Aristotelning «**Jon haqida**» asarining Forobiy o‘qigan nusxasi topilgan bo‘lib, kitob chetiga uning tomonidan «*Men bu kitobni yuz marta o‘qidim*», boshqa bir kitobda esa «*Bu kitobni qirq marta o‘qidim, lekin yana o‘qishim kerak*», deb yozilgan. Forobiy Aristotel asarlarini o‘qib o‘rganish bilan birga, ularga sharhlar ham yozgan. Buyuk alloma Ibn Sino Aristotelning «**Metafizika**» asarini Forobiy yozgan sharhlar yordami bilangina to‘liq tushunganligi haqida yozgan.

Forobiy bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan *moddiy ehtiyojlar* to‘g‘risida ta’limot yaratdi. Uning fikricha, odamlarning ehtiyoji jamiyat shakllanishining asosiy sababidir. «Tabiatan har bir odam shunday yaralganki, u yashashi va kamol topishi uchun ko‘p narsalarga ehtiyoj sezadi. Ularni u bir o‘zi topa olmaydi va ularga erishish uchun kishilar jamoasiga muhtoj bo‘ladiki, uning har biri u ehtiyoj sezayotgan narsalardan biron-birini beradi. Bunda har bir odam boshqalarga nisbatan xuddi shunday holatda bo‘ladi». Jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlar to‘g‘risida bunday tushuncha o‘sha davrdagi ilg‘or fikrlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, moddiy boylik yaratishdagi mehnat va mehnat qurollarining ahamiyatini, har xil hunar turlarini uqtirib o‘tgach, qullikka keskin qarshi chiqdi.



Abu Nasr Farobi (870–950)

Forobiy Platonga o‘xshab **ideal tuzum** to‘g‘risida fikr yuritdi. U kelajak haqida o‘ylab, baxtga erishishning zarur va birlamchi shartini tashkil etuvchi o‘zaro yordam va do‘stlik tufayli bo‘ladigan shaharni ideal shahar deb hisoblagan; yer yuzida barcha xalqlarning o‘zaro yordami asosida bir butun yagona jamiyat qurish mumkinligi to‘g‘risida, mahsulotlarni adolatli taqsimlash haqida fikrlar bildirgan. Ammo Forobiy mazkur o‘zaro yordamning iqtisodiy asosi – mehnat mahsulotlarini ayrboshlashning zarurligini ko‘rsatib bera olmadi. Shu

⁵⁵ Джумонов Д., Аллаберганов З. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017, 45–47-б.

narsani qayd qilib o‘tish kerakki, Forobiy iqtisodiy savollarni ikkinchi o‘ringa surib qo‘ydi. Bu, ayniqsa, uning davlat to‘g‘risidagi talqinida ko‘rinadi, undaadolat o‘rnatish, ommani ma’rifatli qilish uning asosiy funksiyalaridan deb e‘tirop etiladi.

Forobiyning mulkchilik to‘g‘risidagi qarashlari. Abu Nasr Forobiy mulkchilik haqida fikr yuritib, mulkka egalik qilish, undan maqsadga muvofiq foydalanish, o‘ziga to‘q yashash to‘g‘risidagi ilg‘or fikrlarni ilgari suradi. U odamlarga, avlodlarga zarar keltirmaydigan mol-mulk orttirish foydali ish ekanligi, boshqalar uchun zarar keltiradigan boylik to‘plash, mol-mulk orttirish esa yomon odat ekanligini aytib o‘tadi.

Forobiy kishilarни mulkiy qonunlar asosida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor beradi. Uningcha, ma’rifatli, qonun asosida ish yuritadigan, huquqiy madaniyatli kishilar jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydilar va aksincha “...shahar aholisi ma’rifatsiz, tajribasiz odamlar va bolalardan iborat bo‘lsa, u holda ular qonun o‘rnatgan tartib va boshqaruv usulini qabul qilmaydilar”. Ko‘rinib turibdiki, qonun-qoidalar asosida ish yuritishga alohida e’tibor qaratilgan. Huquqiy tarbiya, madaniyat mulkni to‘g‘ri tasarruf etish, undan unumli foydalanish va mulkni ko‘paytirishga undaydi. Forobiyning ta’kidlashicha, “*Mulk orttirishda unchalik xavf yo‘q... Mulkni ehtiyyot qilib saqlab, o‘z ehtiyoji uchun ishlatsa, bu yomon hisoblanmaydi*”.

Forobiyning mulkchilik to‘g‘risidagi iqtisodiy fikrlarining to‘g‘ri ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatib berdi. Mamlakatimizda mulkdorlar sinfining shakllanib, ularning soni ko‘payib, iqtisodiyotni rivojlantirishda roli ortib borayotgan hozirgi davrda Forobiyning mulk va unga egalik qilish haqidagi g‘oyalari yana ham faollashib bormoqda.

Forobiyning taqsimotga bo‘lgan iqtisodiy qarashlari. Taqsimot Forobiyning iqtisodiy qarashlarida o‘ziga xos usulda talqin etiladi. Uningcha, jamiyat va kishilar qo‘lidagi mol-mulkini, noz-ne’matlarni to‘g‘ri taqsimlash davlat miqyosidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Taqsimot maqsadga muvofiq amalga oshirilmas ekan, ko‘pchilik kishilar bachkanalashib ketadi, odamlar faqir ahvolga tushib qoladi.

Shu narsa ayonki, mavjud narsalar taqsimlanadi. Shu bois maqsadga muvofiq taqsimotni amalga oshirish maqsadida Forobiy mavjud bo‘lgan barcha boyliklarni to‘g‘ri hisobga olishni nazarda tutadi. U shunday yozadi: “*Avvalo yer va joylarning miqdori, keyin ularning egalari va tutgan o‘rinlari, so‘ngra nihoyatda zarur narsalar bo‘lgan oziq-ovqatlar, ekiladigan yerlar, saroy va shaxsi uylar miqdori hisobga olinishi zarur*”. Forobiy Platonning: “*Taqsimot juda qiyin ish, lekin juda zarur ishdir*”, – degan fikrini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Biz bundan Forobiy taqsimot muammosining qiyinligini, uni to‘g‘ri hal etish jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushunganligini ko‘ramiz.

Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari diqqatga sazovor bo‘lib, unda mamlakatni boshqarish, hokimlar faoliyati, iqtisodiyotni olib borish, bugunning ta‘biri bilan aytganda menejment bilan bog‘liq muhim g‘oyalar keltiriladi. Forobiyning fozil, ya’ni ideal, bekam-u ko‘st shahar hokimining fazilatlari haqidagi fikrlari nihoyatda qimmatlidir. Alloma jamiyatda, xususan, iqtisodiyotda *inson omili* hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ta’kidlaydi.

Forobiy *inson omili* g‘oyasiga asoslanib, rahbar uchun zarur bo‘lgan 12 fazilatni ta’riflab berdi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu fazilatlar hozirda ham rahbarga qo‘yiladigan asosiy talablar bo‘lmoqda. Rahbardagi xushaxloqlik, bilimdonlik, adolatparvarlik, boylikka ruju qo‘ymaslik kabi fazilatlar bugun ham nihoyatda dolzarb. Rahbar, shuningdek, “o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, savodli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rroqlik va xadiksirashga yo‘l qo‘ymasligi zarur”, – deb ta’kidlaydi alloma.


Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Forobiy fozil, ya’ni mukammal davlat, hokimlar to‘g‘risidagi g‘oyalari nihoyatda ahamiyatlidir. Masalan, shahar tartibotida eng asosiy narsa – mulk, noz-ne’matlarni to‘g‘ri taqsimlash ekanligi qayd etilgan.

Uning fozil davlatdagagi odamlar, yashash va hayotini saqlab qolish uchun o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarida bir-biriga yordam berishlari kerak deyilgan. O‘zaro yordam asosiy mezon qilib olinadi. Bu ideal davlatning odamlarini odatdagagi mehnat faoliyatjisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki mehnat xalqlarning hayot, quvonch va boylik manbayi sifatida qaraladi. Shu sababli aholining barcha qatlamlarini

jamiyat uchun foydali biror hunar bilan qat’iy mashg‘ul bo‘lishga undaydi. Mehnatga bo‘lgan bu qarash nihoyatda ahamiyatlidir, chunki hukmron ijtimoiy guruhlar, ayniqsa, quldarlar mehnatga nafrat bilan qaralgan.

Forobiyning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularda ilm-fanning dolzarb muammolari yoritilgan. Ayniqsa, ideal davlat va uning rahbarlari fazilatlari haqidagi g‘oyalar ham dolzarbdir. Fozil shahar rivoji uchun mehnat taqsimoti zaruriyati yaxshi bayon etilgan. Boylikni yaratish va to‘g‘ri taqsimlashga alohida e’tibor beriladi va shu yo‘l bilan adolatni amalga oshirish imkonи tug‘iladi. Fozil davlatning shakli va uni boshqarilishi, xodimlar masalasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan⁵⁶.

4.3. BERUNIYNING ASARLARIDA KISHILIK EHTIYOJI, MEHNAT VA HUNAR MASALALARI



Abu Rayhon Beruniy Muhammad ibn Ahmad (4-sentabr, 973, Kat, Xorazm, 11-dekabr, 1048, G‘azna) XI asr qomusiy olimi. Beruniy juda yoshligidan ilm va fanga qiziqadi. U sevgan fanlar astronomiya, matematika, geodeziya, geografiya va mineralogiya bo‘lgan⁵⁷.

Beruniyning matematikaga va fanning boshqa sohalariga qo‘shtigan hissasini yozib qoldirgan 100 dan ortiq asaridan ham ko‘rish mumkin. Ulardan eng yiriklari - “Hindiston”, “Yodgorliklar”, “Qonuni Mas’udiy”, “Geodeziya”, “Mineralogiya” va “Astronomiya”. Qolganlarini quyidagicha taqsimlash mumkin: matematikaga doirlari — 22 ta; astronomik asboblar haqida — 10 ta; astrologiyaga oid — 21 ta; turli fanlar (fizika, mineralogiya, adabiyot, tarix va boshqalar) — 38 ta; turli tillardan tarjima asarlar — 21 ta. Beruniyning bu asarlaridan atigi 30 ga yaqini bizning kunlargacha yetib kelgan.

⁵⁶ A.Razzoqov. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011, 93–98-betlar

⁵⁷ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017, 47–50-б.

995-yilgacha u astronomiya, geografiya, geodeziya amaliy masalalarini hal etish bilan birga yer va osmon globusini yasadi hamda astronomiyaga oid bir necha kitoblar yozdi. Olimning ana shunday asarlaridan biri “Geodeziya” 1025-yilda yozib tugatilgan. Bu asar “shaharlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash”ga doirdir. Kitobning 4-bobi oxirida Beruniy yer aylanasining kattaligini o‘lhash haqida fikr yuritgan. Qadimdan insonlar yerning shakli va kattaligini bilishga qiziqqanlar va turli xalqlar yer shaklini turlicha tasavvur qilishgan. Miloddan avval o‘tgan Pifagor, Arastu, Arximed, Yeratosfen kabi buyuk olimlar yer dumaloq va shar shaklida degan fikrni aytganlar.

Bag‘dodda tashkil topgan “Donishmandlik uyi” nomli o‘sha davrning fanlar akademiyasida O‘rta Osiyolik olimlardan Xorazmiy, Farg‘oniy, Habash Xasib, Marvaridiy kabi olimlar turli sohalarda ish olib borganlar. Beruniy ham shu “Donishmandlik uyi”ning a’zosi bo‘lib, u yerda 7 yil ishlagan.

Olimning muhim asarlaridan biri “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” uning Jo‘rjon saroyida xizmat qilgan davrida yaratiladi. 1000-yili tugallagan bu asar muallifning ko‘p qirrali olim ekanini namoyish etdi va unga katta shuhrat keltirdi.

Muallifning ilmiy adabiyotlarda qisqacha “Geodeziya” deb yuritiladigan “Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarni aniqlash” nomli astronomiya va geografiyaga bag‘ishlangan asari 1025-yilda yozib tugatildi. Beruniyning “Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar” asari ham 1029-yilda G‘aznada yoziladi. Oradan bir yil o‘tgandan so‘ng u o‘zining “Hindiston” nomi bilan tanilgan “Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash” kitobini yakunlaydi. Bunda Beruniy hozirgi Amerika qit’asining mavjudligini Kolumbdan bir necha asr avval ilmiy asoslab bergen.

Olim yashagan davrdagi munosabatlari, ishlab chiqarishning yuksalganligi, savdo-sotiqning rivojlanishi, sug‘orish inshoatlarining ishga tushirilishi ana shu davr uchun xos edi. Shu asosda Beruniyda kishilik ehtiyojlarining paydo bo‘lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlari uyg‘unlashib ketadi. Uning fikriga ko‘ra, kishilar o‘z zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishslashga majburdirlar. Ehtiyojlar turli-tuman va ko‘p

bo‘lganligi uchun insonlar birlashgan holda turar joy va shaharlar yaratishga intiladilar, deb hisoblaydi. Shuningdek, u davlatning paydo bo‘lishini ham ehtiyoj tufayli deb o‘ylagan. Eng muhim g‘oya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati uning avlod-ajdodlarining kim bo‘lganligi emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi. Har bir davrning urf-odatlari o‘ziga xos bo‘ladi va inson ahli ularga rioya qilmog‘i darkordir, aks holda nizom va bir xillik yo‘qolsa, tartib ham yo‘q bo‘ladi, deb uqtiradi buyuk donishmand.

Olimning fikrlariga tayanib shunday muhim qisqacha xulosalar chiqarish mumkinki, inson yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Inson avvalo halol mehnati bilan ulug‘lanadi, kishilik jamiyatining asl ibtidosi ham mehnatdandir.

Beruniy qayd etishicha, bilimlarni egallamoq va hunar o‘rganmoq uchun mehnat qilish zarur, bu esa doim davom etadigan va takomillashib boradigan jarayondir. U mehnatni turlarga ajratib, ularning har qaysisi alohida talab va ehtiyojlar asosida vujudga kelishini ko‘rsatib berdi. Binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini og‘ir mehnat deb biladi. Ilm, ma‘rifat zahmatkashlari mehnatiga ta’rif berish, ilm olish, o‘qish eng kerakli mehnat ekanligini isbotlaydi. Shunga ko‘ra, olimlarning mehnatini qadrlash turli ilmlar ko‘payishiga olib keladi deyiladi. Olim jamiyatning asosini moddiy ne’matlar uchun bo‘lgan harakatlarda, mehnatda deb biladi.

Qul mehnati, majburiy mehnatdan erkin kishilarning faoliyati ustunligi isbotlab beriladi (erkin bozor munosabatlarining asosi). Mehnatkashlarning xohish-irodasiga qarshi, ularni majburlab ishlatalishga qarshi bo‘lgan, chunki bunday mehnat samarasi pastdir. Meros bo‘lib avloddan avlodga o‘tib keladigan hunarlar yuqori baholangan.

Beruniy og‘ir jismoniy mehnat qiluvchilar, ya’ni konda ishlovchilar, yer ostida gavhar qidiruvchilar, dehqonlar to‘g‘risida, ularga berilishi kerak bo‘lgan imtiyozlar va ish haqi haqida «Mineralogiya» asarida keng mulohaza yuritadi. Ayniqsa, ochiq va yer ostidagi kon ishlariga alohida e’tibor beriladi, yer osti konlarini mustahkamlash (falokat oldini olish uchun), yer osti suvlarini chiqarib tashlash, olingan rudani yuqoriga olib chiqish uchun maxsus

moslamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Kon atrofida konchilar qishlog‘ini barpo etish zarurligi ko‘rsatiladi.

Yer osti boyliklarini qazib olish ishlari katta jismoniy mehnat, ixtirochilik, aqliy mehnat va bilim sarflashni talab etadi. Bu murakkab va og‘ir ishlarni bajarish maxsus maktab, ularda ta’lim-tarbiya berish asosida yo‘lga qo‘yilmog‘i kerak, deydi olim. Xuddi shu o‘rinda Beruniy ilm ahllari, olimlar, tarbiyachilarning mehnati jamiyat uchun naqadar kerakli va zarurligini alohida uqtiradi. Beruniy ustalarning ahvoli, shogirdlarning faoliyati, ish haqlari borasida ham qimmatli g‘oyalarni ilgari suradi, ish haqi miqdorini samaradorlik bilan bevosita bog‘laydi.

Olimning yozishicha: «Basmada billurdan idish-tovoq va boshqa narsalar yasaydilar. Ish joyida belgilab-o‘lchab beruvchi usta bo‘lib, uning oldida billurning mayda va katta bo‘lakchalari to‘plangan. U ana shulardan chiroyli va keraklisini olib, undan eng chiroyli va yaxshi buyum yasashni o‘ylab o‘lchab belgilab chiqadi. Shundan keyin uni yasovchi hunarmandga beradi, ular usta aytganidek qilib buyumlarni yasay boshlaydilar.

Olim shu yerda mehnat taqsimoti va uning ahamiyatini ko‘rsatadi. Olim va mutaxassislar mehnatini mamlakat boshqaruvchilari tomonidan rag‘batlantirib turish foydali ekanligi alohida ta’kidlanadi. Bu aslini olganda, manfaatdorlik tamoyilining xuddi o‘zidir. Uningcha, ayniqsa, yerga ishlov berib, rizq-ro‘z yaratuvchilarga mehribon bo‘lish kerakligi ko‘rsatiladi. Ana shu g‘amxo‘rlik oqibatida yerga yaxshi ishlov beriladi va yer hosildor bo‘ladi, moddiy ne’matlar yaratiladi, ishlovchi va jamiyat manfaatlari bab-baravar himoya qilinadi (bu fikr XVIII asrda Adam Smit tomonidan to‘laroq isbotlab berilgan). Moddiy ne’matlar esa tiriklik asosi. Ana shunday qilinganda hokimiyat ham mustahkam bo‘ladi, deydi olim (bu yerda davlatning iqtisodiyot bilan munosabati masalasi ko‘tariladi).

Agar kishilar to‘q bo‘lsa, davlat ham kuchlidir. Hukmdorlarning vazifasi yuqori tabaqalar bilan quyi tabaqalar o‘rtasida haqiqatni, kuchli bilan kuchsiz o‘rtasida tenglikni o‘rnatishdan iboratdir, deb uqtiradi olim. Mehnatning ixtiyorligi, ozodligi, erkinligi kishilar o‘rtasida xulq-atvor, hurmat-e’tibor uchun muhim va zarurdir. Bozor

iqtisodiyotining eng zarur tamoyillaridan biri – bu tanlash va tadbirkorlik erkinligi masalasi ilgari surilgan.

Beruniy o‘gitlaridan:

Har bir yangi narsada lazzat bor.

Ne’matning qadri u yo‘qolgandagina bilinadi.

Bugunning chorasini ko‘rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.

Asalarilar ham o‘z jinsidan bo‘laturib ishlamay, uyadagi asalni bekorga yeb yotadiganlarini o‘ldirib tashlaydilar.

Ikkala da’vogar rozi bo‘lishibdi-yu, qozi rozi bo‘lmabdi.


Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi.

Haddan ortiq g‘azab vahshiylik keltiradi va bevaqt qilingan lutf obro‘ni ketkazadi.

4.4. IBN SINO ASARLARIDA IQTISODIYOTGA OID FIKRLAR

Ulug‘ mutafakkir **Ibn Sinoning (980–1037)** 280 dan ko‘p asarlari mavjud bo‘lib, ular tibbiyat, matematika, astronomiya, ximiya, falsafa, iqtisodiyot va boshqa sohalarga bag‘ishlangan⁵⁸.

Ibn Sinoning inson ehtiyojlari to‘g‘risidagi, mehnat va uning moddiy ishlab chiqarishdagi roli to‘g‘risidagi fikrlari diqqatga sazovor. Uning fikricha: «Hayvon tabiat ne’matlariga qanoat qiladi, insonga esa tabiat ne’matlari kamlik qiladi, u oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ehtiyoj sezadi. Hayvonlar tabiat ne’matlarini o‘zlashtiradi, inson esa o‘z mehnati bilan o‘ziga ovqat, kiyim-kechak, uy-joy yaratadi. Shu maq-sadda inson dehqonchilik bilan shug‘ullanishi kerak. Hayvonlar garchi poda bo‘lib yashasalar ham, yolg‘iz yashay oladilar, odamlar esa yakka holda o‘zlari uchun



Ibn Sino (980–1037)

⁵⁸ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017, 51–52-б.

barcha yashash vositalarini topa olmaydilar. Shuning uchun odamlar muloqot va o‘zaro yordamga muhtoj bo‘ladilar».

Ibn Sino feodal jamiyatning asosiy muammolarini tadqiqot qiladi. U jamiyatning amal qilishining asosi hunarmandchilik deb hisobladi. «*Odamning o‘z quvvatini saqlashga va oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji, –deb yozadi Ibn Sino, – hammani hunar o‘rganishga undaydi*».

O‘rta Osiyo Yevropani Osiyo bilan bog‘lovchi yirik moddiy-madaniy va savdo markaziga aylantirdi. Bu jarayonlar bir-biridan minglab chaqirim uzoqlikdagi davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi. Axir, Osiyodagi va Yevropadagi tovarlarga bo‘lgan talab va taklifni (bozorning asosiy unsurlarini) yaxshi bilmay turib, uzoq va xatarli yo‘lga chiqish, katta karvonlarni tog‘u toshlardan, qum cho‘llardan olib o‘tish, buning uchun ma’lum qoidalarga, amallarga tayanib ish ko‘rish kerak bo‘ldi. Yevropaga qancha va qaysi tovarlarni olib borish, u yerdan nima olib qaytish, karvon yo‘lidagi davlatlar, xalqlar talab-etiyojini yaxshi bilish talab etilgan. Oqibatda turli bilim sohalari, matematika (al-jabr), geometriya (xandas), astronomiya (falakiyot) va boshqa ko‘pgina fanlar rivojlandi. Bu davrda butun dunyoga tanilgan Xorazmiy, Farg‘oniy, Ibn Sino, Ibn Ro‘shd, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk va boshqa ko‘plab mutafikkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida muhim iqtisodiy g‘oyalarga o‘z aksini topgan. Sharq uyg‘onishi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik sirlarini bayon etganlar. Ularning ko‘plari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Ibn Sino nafaqat oila doirasidagi, balki shahar va hatto davlat miqyosidagi daromad va xarajatlar balansi to‘g‘risida ham fikr yuritadi. Uning fikricha, davlat tabiiy ofat yoki urush bo‘lish ehtimolini hisobga olib, unga mablag‘ ajratgan holda daromad va xarajatlar balansiga erishishi zarur.

Ibn Sino ideal davlat to‘g‘risida fikr yuritib, unga quyidagicha tavsif beradi:

- 1) hamma o‘z foydasini ko‘zlab mehnat qilishi kerak;
- 2) bu davlatda barcha moddiy boyliklar shunday teng taqsimlanishi kerakki, mamlakatda juda katta boylik va ashaddiy kambag‘allik bo‘lmasisin;
- 3) barcha kishilar halol mehnat bilan shug‘ullanishi va halol savdo qilishi sababli urushadigan odamlar bo‘lmaydi va urushlar

tugatiladi, davlatlar o‘rtasidagi siyosiy bahslar esa tinch yo‘l bilan hal etiladi;

4) ideal davlatda odamlarda hamma narsa muhayyo bo‘ladi, shuning uchun ular bir-biriga qarama-qarshi bo‘lmaydilar, quvnoq ashula va musiqani yaxshi ko‘radilar, uzoq vaqt qarimaydilar.

Ibn Sinoning ideal davlat to‘g‘risidagi qarashlari Platonning «Qonun»larida, Aristotelning «Afina siyosatchilari»da, Forobiyning «Saxovatli shahar yashovchilarining qarashlari to‘g‘risida traktat»ida aytilgan fikrlariga ko‘p jihatdan o‘xshab ketadi.

Olimning tibbiyotga oid asarlarida iqtisodiyot bilan bog‘liq muhim g‘oyalarilgari suriladi. Inson sog‘lig‘ining ichki va tashqi muhitga bevosita bog‘liqligi, ayniqsa ovqatlanish, turmush sharoitida katta ahamiyat kasb etishi ko‘rsatiladi. Iqtisodiyot fanida muhim bo‘lgan tushuncha – ehtiyojni ta’riflab, moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurollarining o‘rnini aniqlab beradi. Uning asarlarida “mehnat taqsimoti”ga katta e’tibor qaratiladi, taqsimot tufayli unumdarlik o‘sishi va mahsulot sifati yaxshilanishi isbotlab berilgan. G‘arbiy Yevropada esa faqat 1776-yilda Adam Smit bu masalaga alohida diqqatni jalb etadi.

Inson hayotida iste’mol masalasi muhimligi ko‘rsatiladi. Hozirgi zamon nuqtayi nazaridan, bu *iste’mol savatchasi* to‘g‘risidagi g‘oyaga yaqin, ya’ni sog‘-salomatlik va inson hayoti, faoliyati, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun taomlanish me’yori ham belgilab beriladiki, uni hozirda ham bemalol qo‘llash mumkin.

Ibn Sinoning asarlarida *fozil davlat* to‘g‘risidagi g‘oyalar rivojlantirilib, o‘zaro yordam, do‘stlik va hamkorlikka katta e’tibor beriladi. Ibn Sino nazariy va amaliy ilmlarni ajratib ko‘rsatadi, nazariy ishlarni inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘limgan narsalar to‘g‘risidagi haqiqiy ilmlar, deb ta’riflaydi. “Aql tarozisida o‘lchanmagan har qanday bilim chin bo‘la olmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas”, degan ibora shu olimga tegishlidir.

Olim ilmlarni ikki qismga bo‘ladi: nazariy va amaliy ilmlar. Amaliy ilmlarning bahosi inson faoliyatidir. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar esa yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Jamiyat kishilari o‘zaro kelishuv asosida qabul qilinadigan adolatni qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi. Bunda insonining axloqiy fazilatlari muhim o‘rin egallaydi. U insonlarning kundalik foydali amaliy ishlarni

o‘g‘irlaydi, axloqiy munosabatlarda kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, ayniqsa to‘g‘rilik, sofkillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e‘tibor beradi. Bu xususiyatlar iqtisodiyotda *insoniy omil* to‘g‘risidagi g‘oyaga mos keladi.

Iqtisodiyot rivojlanishining qonun qoidalariiga amal qilib, inson o‘z bahtini o‘zi yarata oladi. Yaxshi xulq, ma’naviyat va iqtisodiyot o‘rtasida bevosita bog‘liqlik borligini esa, olim “Uy joy tutish tadbiri” asarida ko‘rsatib beradi. Bu risolada u ayollarga kerakli o‘n yetti xislatni sanab ko‘rsatadi. Ayol oqila va e‘tiqodli, yoqimtoy, o‘z yeriga mehru muhabbat qo‘ygan, farzand ko‘ra oladigan, kamgap, itoatkor, dili pok, bexarxasha, pokiza, vazmin va o‘zini tutib olgan jiddiy va ulug‘vor, har bir qat‘iy harakatida o‘zining yaxshi xislatlari bilan ajralib turadigan va eng muhimmi, yerining birini ikki qiladigan, iqtisodiy tejamkor, og‘ir damlarda unga malham bo‘la oladigan, mushfiq mehribon bo‘lishi kerak.

Olimning ilmiy merosi shartli ravishda 4 qismga, ya’ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo‘lish mumkin. Biz ularning orasidan ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalarigagina e‘tibor qaratdik⁵⁹.

4.5. NIZOMULUKNING “SIYOSATNOMA” ASARIDAGI IQTISODIY FIKRLAR

Nizomulmulk (1017, Tus - 1092, Nahovand) – Saljuqiylar davlati arbobi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiyning unvoni, «Nizomulmulk», ya’ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozongan. Nishopur va Marvda oqib, voyaga yetgach, Balxga borib, Ali ibn Shodon xizmatiga kiradi.



Nizomulmulk (1017 - 1092)

Saljuqiylar shohi Alp Arslon saroyida vazirlik mansabigacha ko‘tariladi. 1072-yili Alp Arslon o‘ldirilgach, uning o‘g‘li, 17 yoshlik Malikshoh (1072–1092-yillar) saroyida Nizomulmulk vazirlik qilib, qariyb davlatning hamma ishlarini o‘zi olib borgan.

⁵⁹ A.Razzoqov. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011, 102–104-betlar.

Nizomulmulk mamlakatda yirik mulkdorlar va qabila boshliqlarining ayirmachilik (separatistik) harakatlariga qarshi kurashib, davlatni boshqarish ishlarini markazlashtirish siyosatini o'tkazgan. 1067-yili Bag'dodda «Nizomiya» aqoid va huquq madrasasini qurdiradi. 1091-yili «Siyosatnoma» («Siyar ulmuluk») asarini yozadi. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo'shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilar-u posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg'oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va hiroj, zakot va vaqf masalalari ham o'rin olgan. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat qiladi. Nizomulmulk Bag'dod safari yo'lida yollangan qotil tig'idan halok bo'ladi.

Nizomulmulkning "Siyosatnoma" yoki "Siyar ul-muluk" asari saljuqiylar sulolasining davlat boshqaruvi sohasidagi siyosiy dasturi sifatida e'tiborga sazovor manba bo'lib, u o'zbek milliy davlatchiligi tarixida ham alohida qiymatga egadir. Asar IX–X asrlarda hukm surgan sulolaning siyosiy dasturi bo'lib, unda o'rta asrlarda O'rta Osiyo va Eronda VI asrdan to XI asrgacha sodir bo'lgan muhim siyosiy voqealar bayoni va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar yuzasidan tarixiy ma'lumotlar keltiriladi. Asarda uchraydigan tarixiy-falsafiy va davlat boshqaruviga oid ma'lumotlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- siyosiy tarixga oid ma'lumotlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy hayotga doir ma'lumotlar;
- ma'naviy hayotga tegishli ma'lumotlar;
- islom mazhablari o'rtasidagi kurashlar tarixiga oid ma'lumotlar;
- boshqaruvning diniy va dunyoviy tamoyillari;
- siyosat falsafasi, o'zini o'zi boshqaruv institatlari.

Qonun ustuvorligining siyosiy-amaliy jihatlari qonunlarning podshoh va sultonlar tomonidan qabul qilinishi siyosiy faoliyat bo'lib, ular xalq (raiyat) hayoti bilan bog'liq.

Birinchidan, podshoh tomonidan farmonlar yozilib, xalqqa tanishtirib boriladi. Bu oddiy hol bo‘lib ko‘rinsada, hozirgi siyosatshunoslik uchun ham qo‘l keladi. Biroq u jamiyat hayotiga monand tarzda mudom ishlab turishi shart. Ana shunda siyosiy institutlar, shu jumladan, ularning ijrosini ta’minlovchi idoralar ham hayot talablaridan orqada qolmaydi.

Ikkinchidan, agarda farmonga salbiy munosabat bildirilsa yoki uning ijrosi cho‘zilib ketganligi to‘g‘risida xabar etsa, podshoh mas’ul va mutasaddi shaxslar uchun ham jazo belgilagan (ular o‘z yaqinlari bo‘lsa ham). Chunki, markazlashgan davlat siyosati shoh farmoniga so‘zsiz itoat etishni talab qiladi. Bu o‘sha davrning eng oliv siyosati edi.

Uchinchidan, shoh, sulton farmonlari barchaga taalluqlidir, uni hatto hukmdorga yaqin odamlar ham buzishi mumkin emas. Shuning uchun ham Nizomulmulk qonun va siyosat oldida hammani teng, deb qaragan. "Siyosatnoma" asarida davlat boshqaruvi haqida keng fikr yuritilgan, undagi rivoyatlar, hikoyatlar, aforizmlar Nizomulmulkning jamiyat va davlatni boshqarish, falsafa, axloq masalalariga oid javoblaridir. Asarda jamiyat va davlatni boshqarish masalalari falsafiy-axloqiy yondashuv orqali ochib berilgan. Donishmandning siyosiy-falsafiy qarashlarida podshoh (sulton), xalq (raiyat) va shaxs (fuqaro) o‘rtasidagi munosabatlarda uyg‘unlikni ta’minalash asosiy o‘rinda turgan.

Nizomulmulk markazlashgan davlat qurish tarafdoridir. To‘g‘ri, u markazlashgan davlat barpo etish uchun ijtimoiy-siyosiy loyihalar, istiqbolli dasturlarni tavsiya qilmaydi, ammo islohotlar o‘tkazishni o‘rtaga tashlaydi. Uning mushohadalari podshoh (sulton) bilan xalq (avom), amaldor (xizmatchi)lar bilan kishi (fuqaro)lar o‘rtasida murosa munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan.

Insonparvar podshoh davlatni uzoq boshqaradi, xalq farovonligini o‘ylaydi, zo‘rlik ishlatmaydi. «Kim insonparvarlikka chindan intilsa, u hech qachon yomon ishlar qilmaydi... Kim insoniylikni sevs, undan yuqori narsa yo‘q deb hisoblaydi», degan g‘oyani o‘z davrida alloma Konfutsiy ilgari surgan edi. Bunday g‘oyalarni Nizomulmulkda ham uchratish mumkin. Demak, insonparvarlik shaxslararo munosabatlardangina iborat emas, u jamiyat va davlatni boshqarishga ham taalluqli voqelikdir. To‘g‘ri, ba’zan Nizomulmulk insoniylikni

kichiklarning kattalarga hurmat ko‘rsatishi, deb ham talqin qiladi. Keyin ushbu talqinni podshoh (sulton) va xalq (raiyat), amaldor (xizmatchi) va fuqaro (inson), davlat va shaxs munosabatlariga ko‘chiradi. Qanday bo‘lmashin, jamiyat va davlatni boshqarishda insoniylik, insonparvarlik tamoyillariga tayanishga da’vat – Nizomulmulk ijodidagi oljanob jihatdir. Xalq, odamlar, amaldorlarning qanday sifatlarni o‘zida shakllantirishi yoki ulug‘lashi podshoh (sulton)dagi fazilatlarga bevosita bog‘liqdir. Bu o‘rinda Sharq xalqlariga xos bo‘lgan «aravaning katta g‘ildiragi qayerdan yursa, kichik g‘ildirak ham shu yerdan yuradi», degan maqol esga tushadi. «Xalqni o‘z ketidan yergashishga majbur qilish mumkin, lekin u nima uchun majbur qilinayotganini bilmasa, davlat uchun yomondir». «Hukmdor o‘z axloqini tuzatmasa, u kichik odam, xalq axloqini ham tuzatolmaydi», “badaxloqlik oxir-oqibatda davlatni, boshqaruvni tanazzulga olib keladi...”. Bunday siyosiy qarashlar Nizomulmulk asarining maqsadini ifoda qiladi. Agar Nizomulmulk Makiavelli, hukmdor xalqni, davlatni kuch bilan, quroq ishlatib ushlab turishi zarurligini ta’kidlasa, Nizomulmulk siyosiy jihatdan boshqarishni yoqlaydi. Shubhasiz, Nizomulmulk Makiavelli Qadimgi Rim va Gretsiya davlatlarida shakllangan idora usullarini o‘rganib, ulardan zarur xulosalar chiqarib, despotiyani ilgari suradi. Hokimiyatda turli manfaatlar, intilishlar to‘qnashadi, ularning barchasini qo‘llab-quvvatlash podshoh (sulton)ni⁶⁰ tilyog‘lamalik qilishga, natijada umummanfaatlarni unutishga majbur qiladi. Shu nuqtai nazardan, Nizomulmulk Makiavelli hukmdor kuch ishlatishga majbur, deb hisoblaydi.

“Siyosatnoma” kitobida moliya va xo‘jalik ishlari, soliq va xiroj, zakot va vaqf, iqto‘ masalalari alohida o‘rin egallaydi. “Siyosatnoma” kitobining birinchi faslida “davlatni idora qilish talablaridan yana biri – chetdan qoriz qazib suv keltirish, qishlog‘-u dalalar obodchiligi uchun katta ariqlar qazish, qalalar qurish, shaharlar bino etish, inshootlar-u keng ko‘chalar, rabotlar qurdirishdir”, deb o‘qtiriladi. Xuddi bugungi kunning gaplari.

Uchinchi faslda juda ajoyib bir taklif kiritiladi: zulm ko‘rgan kishilar va kambag‘allar qizil kiyim kiysin (eng arzon mato), boshqa

⁶⁰ Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk. –T.: 1997, 20-b.

hech kim bunday rangdagi kiyim kiymasin, toki podsho zulm, qashshoqlik darajasini osonlik bilan aniqlab olish imkoniga ega bo‘ladi, xalq hol-ahvoli to‘g‘risidagi bo‘yama, yolg‘on gaplardan xoli bo‘lish imkoni tug‘iladi. Xalq orasidan o‘tgan podsho o‘z xizmatchilarining ahvolini baholashi mumkin.

Olim kitobining to‘rtinchi faslida soliqchilar masalasini ko‘taradi. Ular xalq bilan yaxshi yashab, yaxshi muomalada bo‘lib, xalqdan xirojdan boshqa soliq talab qilmaslik yo‘l yo‘rig‘ini ko‘rsatadi.

Asarning 9 faslida davlat xizmatchilariga maosh to‘lash to‘g‘risida so‘z yuritiladi, bugungi atama bilan so‘zlasak, bunda differensiya, ya’ni tabaqlashtirishdan foydalanish taklif etiladi.

“Ashroflar o‘z martaba va bilimlariga ko‘ra maosh olishlari zarur. Ularning oylik xarajat va maoshlarini raiyat hisobidan emas, balki xazinadan beriladi, shunda xalq boshiga ranju azob tushmaydi, zero, rostligu halollikdan topilgan mol-u davlat himoya qiladi” qanday ajoyib va to‘g‘ri fikr.

13 faslda omonatga hiyonat qilgan qoziga shohning aqlli tadbiri tufayli tegishli jazo berilgani nihoyatda chiroyli misolda beriladi. Shohga xiyonat qilib, omonat shartlarini va diyonat rasmini buzgan qozi qat’iy ravishda jazolanadi.


37-faslda podshoning safarga chiqqani va yo‘lida daraxt ekayotgan keksa odamni ko‘rgandagi voqeа tafsiloti keltiriladi, qari cholning yong‘oq ekayotgan holati beriladi va xosilidan tatish uchun qancha yashash kerakligi so‘raladi. Chol, boshqalar ekkanini biz yedik, biz ekkanimizni boshqalar yeydi, deb javob beradi. Demak, bog‘-rog‘ yaratish kelajak to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik yuqori baholanadi. Otaxonga sovg‘a beriladi, shunda u mana mehnatimiz mukofotini hoziroq olidik, deb javob beradi.

48-fasl xazina to‘plash va uni saqlash qoida tartibi to‘g‘risida bo‘lib, shohlarda hamisha ikkitadan xazina bo‘lishi, ularning biri asosiy, ikkinchisi xarj va xarajat xazinasidir. Birinchisidan, zaruriyatsiz bir dirxam ham xarj etmaslik kerakligi uqtiriladi. Qilingan xarajatlar imkon boricha tez to‘ldirilishi, xazina doim ko‘payib borishi zarur deb hisoblanadi. Bu yerda gap mamlakatning moliya tizimi asoslari ustida bormoqda. Mamlakatda har ehtimolga qarshi doimiy tegilmaydigan zaxira bo‘lishi kerakligi uqtirilmoqda.

50-faslda, hisob-kitob tartibi va uni kerakli darajada olib borish to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Bu bobda iqtisodiyotning bosh masalalaridan biri, hozirgi davr tili bilan aytilganda, buxgalteriya hisobi yuqori o‘ringa qo‘yiladi. “Amaldorlarning ishlari, daromadlari, boylik saqlash, dushmanlarni daf etishda zarur bo‘ladigan zaxiralar va xazina tutish podshoh uchun muqaddas farzdir. Ammo shunday bo‘lishi kerakki, odamlar uni baxl deb o‘ylamasinlar”⁶¹ deyiladi.

4.6. YUSUF XOS XOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARI, UNDAGI IQTISODIY FIKRLAR

Atoqli davlat arbobi, ilk turkiy dostonnavis **Yusuf Xos Hojib**⁶² 1020-yili Qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan biri Bolasog‘unda tug‘ildi (olamdan o‘tgan yili noma’lum). Bo‘lajak mutafakkir o‘z davridagi barcha bilimlarni, arab va forsiy tillar hamda undagi adabiyotlarni puxta egallaydi.



Yusuf Xos Hojib

U 1069–1070-yillar orasida «Qutadg‘u bilig» (Qutga, ya’ni baxt saodatga yerishtiruvchi bilim) asarini turk tilida yozib, Qoraxoniylar hukmdori Tabg‘ochxon Bug‘roxonga taqdim etadi. Xon Yusufga «Xos Hojib» (eshik og‘asi) degan martabani in’om etadi. Bu falsafiy didaktik asarda markazlashgan davlat tuzish, uni mustahkamlash, nizo va adolatga barham berish kabi ma’muriy-xo‘jalik hamda ma‘rifat, obodonchilik, moddiy-ma’naviy va boshqa adolatli hukmron, davlatni tadbir bilan boshqarish ishini o‘rganish, kasb-hunar egallash, xalq g‘amini yeish haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Bizgacha donishmandning faqat bir asari yetib kelgan, ammo bu asarda shunday durdonalar to‘planganki, ularga qoyil qolmay iloj yo‘q. Asar 13 ming misra (nasriy va nazmiy muqaddimadan tashqari) 73 bobdan iborat. Unda inson tafakkurining barcha jabhalari bo‘yicha so‘z yuritiladi va nihoyatda qimmatli fikrlar bayon etilgan. Kitobda berilgan bu g‘oyalar o‘z davri uchun ham,

⁶¹ A.Razzoqov. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –Т.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011, 113–116-betlar

⁶² Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017, 53–55-б.

hozirgi davr uchun ham nihoyatda qadrlidir. Ayniqsa iqtisodiyot masalalari bo'yicha davlat va raiyat munosabatlari sinchiklab o'rganilgan. Asar 18 oy-bir yarim yilda yozib tugallangan (Bolasog'unda boshlangan va Qashqarda nihoyalangan) bo'lsa ham, uni yaratish uchun juda uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rildi.

Donishmand fikricha, ezgu orzularga faqat toat-ibodat bilangina etishib bo'lmaydi. Buning uchun talay ezgu ishlar qilish, foydali faoliyat ko'rsatish kerak, degan fikrni ilgari suradi. Borliq haqidagi bilimlarga to'qnashib, odam bilishi mumkin bo'limgan narsa, bilim bilan echilmaydigan jumboq yo'q, bilim tufayli osmon sari ham yo'l ochiladi, deydi. Bilish uchun esa tinmasdan o'rganish lozim, deb uqtiradi.

Taniqli iqtisodchi Adam Smitning iqtisodiy ta'limotga ko'ra (XVIII asr), mamlakatni iqtisodiy bo'hrondan chiqarish uchun 3 narsa:

- 1) tinchlik-osoyishtalik;
- 2) me'yordagi soliqlar;
- 3) iqtisodiy erkin faoliyat yuritish imkoni talab etiladi.

Ana shu g'oya aslida bizning mutafakkir tomonidan yetti asr avval bayon etilgan.

Xalq, raiyat (soliq to'lovchilar) mamlakat hukmdoridan uch narsani kutadi, deb uqtiradi Yusuf Xos Hojib, bular:

- 1) pulning qadrini ko'tarish yoki (ushlab turish);
- 2) xalqqa xususiy mulk huquqini ta'minlovchi qonunlarni joriy etish;
- 3) yo'llarni o'g'ri-qaroqchilardan muhofaza qilish.

Shoh esa fuqarolardan soliqni vaqtida to'lashni (hozirgi kunda ham nihoyatda dolzarb), chiqargan farmon qonunlarini bajarish hamda do'stiga do'st, dushmanga dushman bo'lishni talab qiladi, deb yozadi. Ko'rinish turibdiki, bunda jamiyat va siyosiy hokimiyat o'zaro mutanosib bo'lishi zarurligi g'oyasi aniq ifoda etiladi.

Pulning qadrli bo'lishi haqidagi g'oya, aslini olganda inflyatsiya muammosi bilan chambarchas bog'liq, baholarning mo'tadilligi ham ta'min etiladi. U o'z navbatida inqirozsiz iqtisodiyot, erkin muomaladagi valuta masalalariga borib taqaladi.

Yo'llarni o'g'rillardan muhofaza qilish ichki va ayniqsa tashqi savdo (eksport-import)ni ta'minlash va qo'llab-quvvatlashning o'zginasidir. Bu yerda savdoning xalq xo'jaligi uchun ustuvor ahamiyati to'g'risida gap yuritiladi.

Yusuf Xos Hojib barcha imtiyozlardan mahrum kambag'al tabaqalar ahvoliga achinish hissini izhor qiladi. Donishmand hokimlarni quyi tabaqa vakillarini ularga nisbatan mehr shafqatli, insof-adolatli, marhamatli bo'lishiga, ayni paytda raiyatni hokimlarga bo'ysunuvchi, sadoqatli bo'lishiga chaqiradi. Mana shunday kelishtirish yo'li bilan osoyishta hayotga erishishga umid bildiriladi (bu esa iqtisodiy rivoj uchun ham zaruriy shartdir).

Kitobdagagi g'oyalar dunyodagi barcha ishlarda qo'l keladi. Unda mulk tutishning siru-asrorlari, mamlakatni idora qilish tartibi, sharti, shuningdek, molu-mulk, el-yurtning mangu qolishi, gullab-yashnashi va uning xarob bo'lish belgilari berilgan. Mutafakkir ayniqsa kasbhunar ahlining faoliyatini yuqori baholaydi. «Bir yigitga qirq hunar oz» bobি xuddi shu masalaga bag'ishlangan. Vazir, qo'mondon, elchi va boshqa hukmdorlarning faoliyat mezonlari diqqatga sazovordir.

Masalan, «Vazir ko'zining to'q bo'lishi uni har xil mol-mulk oldida suqlanishdan asraydi. Ko'zi och odam bor olamga ham to'maydi», deydi olim. Dehqon, savdogar, chorvador, oddiy mehnatkash ahli to'g'risida nodir fikrlar bildiriladi. «Bular bilan yaqin bo'lgin hamisha, to tomoq tashvishin bilmasdan yasha», deb aytildi.

Ayniqsa, bilim va aql-idrokka, shu soha sohiblariga katta e'tibor beriladi. «Odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir», deb yozadi alloma.

Aql-idrok egalarining nafi har doim ko'pchilikka tegib turadi. Bilim egalari esa elda aziz bo'ladi, hurmat qozonadi. Butun ishlar o'quv-idrok bilan amalga oshadi. Barcha murakkab ishlar bilish bilan hal etiladi.

Tayanch so'z va iboralar: ehtiyoj, mehnat, mulk, mehnat taqsimoti, inson omili, mulk daxlsizligi, pulning qadr-qiymati, savdo, iqtisodiy munosabat, mehnat qurollari.

4-BOB BO‘YICHA XULOSALAR

O‘rta Osiyoda renessans davr bo‘lib ikki davr tan olinadi, bu IX–XII va XV asrlardir. Chunki birinchisida Bog‘dod faoliyati tufayli ko‘pgina grek, rim asarlari tarjima qilinib, yangi g‘oyalarning shakllanishiga asos bo‘ldi, ikkinchisida esa Amir Temur faoliyati tufayli kuchli ziyoli davlat shakllanildi. Mazkur bobda biz temuriylar davrigacha bo‘lgan O‘rta Osiyoning ilk renessans davrini Marg‘inoniy, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Rabg‘uziy qarashlari orqali ko‘rib chiqamiz.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixiy ijtimoiy saboqlar davri hisoblanadi. Bu davrda Amir Temur boshchiligidagi yagona tug‘ ostida markazlashgan kuchli va mustaqil davlat tashkil topdi. Bu davlatni idora etish va boshqarish uchun Amir Timur asosiy qonun-qoidalar tuplami «Tuzuklar»ni yaratdi. «Tuzuklar» Islom dini mafkurasiga asoslangan bo‘lib, mamlakatni obod etishiga xizmat qildi. Xo‘jalikni asosi bo‘lgan dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo kengaydi, fan va madaniyatning ravnaqi uchun ma’lum shart-sharoitlar yaratildi.

Amir Temurdan keyin uning o‘g‘li Shohrux Mirzo va nabirasi Mirzo Ulug‘bek davridagi islohotlar iqtisodiyotni barkamollashuvi va ravnaq topishuviga shart-shoroit yaratdi. Ayniqsa, 1428-yilda Ulug‘bek tomonidan o‘tkazilgan pul eslohiyati katta ijobiy ahamiyat kasb etdi. XV asrdagi iqtisodiy g‘oyalilar majmuasida buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari muhum o‘rin tutadi. Alisher Navoiy dastlabki iqtisodiy qarashlari «Hiloliya» (1469) asarida ham boylikning tuplanishi va taqsimlanishidagiadolatlilik va ijtimoiy manfaatlarning ustuvorligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosi ekanligi alohida ta’kidlangan. «Mahbub-ul qulub» asarida esa ijtimoiy tabaqalarga tavsif beriligan. Har bir kasb hunarning jamiyat ijtimoiy tuzilishidagi o‘rniga baho berilgan. Bobur va boburiylar davridagi iqtisodiy g‘oyalarning negizini islom ta’limotidagi mezonlar tashkil etildi. «Zakot to‘g‘risidagi katta kitob» «Mubayyin» kabi asarlar shular jumlasidandir. 1601-yilda chop etilgan «Akbarnoma» kitobida soliq tartibi hamda murakkab iqtisodiy muammolar yechimiga qaratilgan qator fikrlar ilgari surilgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ilk uyg‘onish davridagi O‘rta Osiyo olimlarining iqtisodiy g‘oyalarining asosiy mohiyati nimadan iborat?
2. Marg‘inoniy bo‘yicha islom dinida qanday iqtisodiy g‘oyalar qo‘llab-quvvatlangan?
3. “Hidoya” asarida qanday iqtisodiy xatti-harakatlarni yoqlangan?
4. “Fozil odamlar shahri” va turli davrlarda ideal davlatga berilgan g‘oyalarni taqqoslang.
5. “Fozil odamlar shahri” asarida ta’riflangan podsho va amaldorlarga xos fazilatlar qaysilar?
6. Ibn Sino va Forobiyning ideal davlat to‘g‘risidagi fikrlarining o‘xhash va farqli tomonlari nimada?
7. Ibn Sinoda inson omili qanday ta’riflangan?
8. “Siyosatnoma” asarining podsholikni yuritishdagi ahamiyati nimada ko‘rindi?
9. “Siyosatnoma” necha fasldan iborat?
10. Yusuf Xos Hojibda pulning qadr-qiymati qanday xususiyatlar bilan yoritildi?

5-bob. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IQTISODIY G‘OYALAR VA IQTISODIY SIYOSAT

5.1. A.TEMURNING IJTIMOIY-IQTISODIY QARASHLARI

Amir Temur va Temuriylar davri tarixda uyg‘onish davri sifatida XIV–XV asr Markaziy Osiyo tarixida “oltin asr” deb ataladi. Buyuk sohibqiron Amir Temur dunyodagi eng kuchli va katta sultanatlardan birini barpo etgan bo‘lib, u harbiy san’ati, davlatni qanday asoslarga tayanib boshqarganligi, shuningdek, o‘z raiyatining farovonligi yo‘lida olib borgan islohotlari davrlar osha tadqiqotchilar hamda siyosatchi, arboblarning diqqat-e’tiborini tortib kelgan. Bugungi kungacha Amir Temurga bag‘ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 700 dan ziyod, sharq tillarida esa 900 dan ko‘pdir. Bu asarlarda Amir Temur shaxsi va sultanatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti alohida qiziqish bilan o‘rganilgan⁶³.

Amir Temur (1336–1405) davlatni boshqarishda mamlakat mustaqilligiga, el-yurt osoyishtaligiga, uni obod etishga katta ahamiyat berib, o‘ziga xos maktab yaratdi. Jumladan, Sohibqiron davlatida sultanatning markaziy ma’muriyatini bosh vazir – devonbegi boshliq quyidagi yetti vazirdan iborat arkoni davlat boshqargan:


1. Mamlakat va raiyat ishlari bo‘yicha vazir.
2. Sipoh vaziri, ya’ni harbiy ishlar bo‘yicha vazir.
3. Tijorat vaziri.
4. Saltanat ishlarini yurituvchi vazir.

Ana shu to‘rt vazirdan tashqari, chegara viloyatlari va tobe mamlakatlar ishlarini nazorat qilib turish uchun maxsus uch nafar vazir tayin etilgan. Ular mazkur viloyat va mamlakatlardan davlat xazinasiga kelib tushadigan daromadlarni nazorat qilish va ularga bog‘liq moliyaviy masalalar bilan mashg‘ul bo‘lgan⁶⁴. O‘z navbatida, ular sultanatning bosh nazorat hay’ati – “xolisa”ni tashkil etishgan.

⁶³Ртвеладзе Э.В., Сайдов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой науки. – Ташкент: Издательский дом Мир экономики и права, 1999. -352 с.

⁶⁴ Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. Temur tuzuklari. – T.: O‘zbekiston, 2011.-181 b, 123-124 betlar.

Amir Temur davlatni boshqarishda mulkchilik munosabatlariga jiddiy e'tibor qaratgan. Uning ta'biricha, davlatu sultanat uch narsa: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir⁶⁵. Bosh hukmdor tomonidan yirik mulkdorlarga biron xizmatlari evaziga taqdim etiladigan yer-mulkning



taxxonlik⁶⁶, tanxoh⁶⁷ va tuyul⁶⁸ yorliqlari asosida berilishi keng tarqalgan. Shu bilan birga, turli yorliqlar asosidagi maosh, yer-mulk berilishi va unumli foydalanish tizimi nazorat ostiga olingan. “*Hukm qildimki, – deya ta'kidlaydi Amir Temur, – davlat tomonidan belgilangan butun maoshlarning to‘liq ma'lumotlarini devonbegi va vazirlar avval menga bildirsin, so‘ngra tanxoh berilsin.... O‘nboshi, yuzboshilarga maosh shahar omonligi⁶⁹ xazinasidan va podsholik mulki daromadidan naqd pul hisobida yozilsin.*

Mingboshilarga viloyat ichidagi ekinzorlardan tuyul bersinlar. Amirlar va amir ul-umarolarga esa chegaralardagi viloyatlardan biri tuyul qilib belgilansin... Qaysi amirga tuyul berilar ekan, uni uch yilgacha o‘z holiga qo‘ysinlar. Uch yil o‘tganidan so‘ng uni tekshirib ko‘rsinlar. Agar mamlakat obod, raiyat rozi ekan, shu holicha qoldirsinlar. Agar ahvol bunga ters bo‘lsa, ul viloyatni xolisaga⁷⁰ o‘tkazib, uch yilgacha o‘sha yer egasiga haq berilmasin”⁷¹.

Bu davrda yer va mulkchilikning asosan to‘rtta shakli, ya’ni:

- mulki devoniy – davlat yerlari;
- mulk – xususiy yerlar;
- mulki vaqf – madrasa va ibodatxonalar tasarrufidagi yerlar;

⁶⁵ O‘sha asar, 109-bet.

⁶⁶ Taxxonlik yorlig‘i – mulk egasini soliq, to‘lov va boshqa majburiyatlardan ozod etilishini kafolatlovchi, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga beriluvchi hujjat. S.Saidqosimov (rahbar), A.Ahmedov, B.Ahmedov va boshqalar. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq, 2001, 104-bet.

⁶⁷ Tanxoh – saroy xizmatchilari, lashkarboshilar va boshqalar uchun maxsus xazinadan beriladigan maosh pul, ba’zida alohida xizmat ko‘rsatgan beklarga tanxoh sifatida yer-suv berilgan. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. Temur tuzuklari. – T.: “O‘zbekiston”, 2011,100-bet.

⁶⁸ Tuyul – xiroj va soliq yig‘ib olish haqi bilan in‘om etilgan yer-mulk, viloyat. O‘sha asar, 101-bet.

⁶⁹ Shahar omonligi xazinasi – fath etilgan shahar aholisidan to‘plangan “moli omon” (o‘lpon) saqlanadigan xazina. O‘sha asar, 101-bet.

⁷⁰ Xolisa – davlat ixtiyorida bo‘lgan, barcha soliqlardan ozod etilgan yer-suv va mol-mulkni tasarruf etuvchi idora. O‘sha asar, 101-bet.

⁷¹ O‘sha asar, 100–102-betlar.

– jamoa yerlari mavjud bo‘lgan.

Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Ularga avvalgidek yurt hukmdorlari – sulton yoki amir egalik qilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida suyurg‘ol keng qo‘llanilgan. U Amir Temur davlati tashkil topishi arafasida joriy qilinib, yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo‘lgan. Suyurg‘ol yerlari ba‘zan oliy hukumat farmoniga binoan avloddan avlodga meros qoldirilgan. Egasiga o‘z suyurg‘oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va boshqa to‘lovlarni to‘plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Qayd etish kerakki, buyuk Sohibqiron hukumatga aloqador har qanday mansab egalaridan o‘z ishiga, xususan, mulkchilik masalasiga tartib, mas‘uliyat va adolat bilan yondashishlarini qattiq talab qilgan. Aksincha ish tutib, mol-mulkka zarar yetkazganlariga nisbatan tegishli choralar ko‘rilgan⁷².

Agar kimda-kim qarovsiz yerlarni obod qilsa, koriz qursa yoki bog‘ yaratса, soliq to‘lovlari bo‘yicha muayyan imtiyozlardan foydalangan. Xarob bo‘lib yotgan egasiz yerlar xolisa tarafidan obod qilingan. Mabodo, egasi bo‘lsa-yu, obod qilishga qurbi yetmasa, unga bu ishni amalga oshirishi uchun turli asboblar va kerakli narsalar berilgan. Dehqonchilikka mo‘ljallangan yerlardan olinadigan asosiy soliq xiroj (yoki mol) deb nomlangan. Xiroj asosan hosil yetilib, uni yig‘ib-terib olish vaqtida mahsulot, ba’zida pul holida to‘langan. Soliq hosilga, yerning unumdoorligi va suv bilan nechog‘li ta’minlanganiga qarab belgilangan. Chunonchi, daryo, buloq va koriz suvlari bilan sug‘oriladigan yerlardan yalpi hosilning uchdan bir qismi miqdorida olingan. Agar yer egasi uni pul hisobida to‘lashga rozi bo‘lsa, unda hosilning uchdan bir qismi bozor narxi hisobida pulga chaqilgan. Bordi-yu, raiyat hosilni uch qismiga bo‘lishga rozi bo‘lmasa, shu paytda hisobga olingan yerlar birinchi, ikkinchi va uchinchi jarib⁷³ yerlariga ajratilgan. Bunda birinchi

⁷² Rui Gonsales de Klavixo. Samarcandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). – T.: “O‘zbekiston”, 2010 yil, 174-bet.

⁷³Jarib yoki jerib (Alisher Navoiyning “Vaqfiya” asarida jerib deb nomlangan) – yer sathi o‘lchovi. Bir jarib 3600 kv. m. Gazga, ya’ni taxminan bir tanob (958 kv.m.) yerga teng bo‘lgan. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. Temur tuzuklari. – T.: “O‘zbekiston”, 2011, 144-bet.

jaribdan olingan hosilning uch harvori (bir eshak ko‘tarishi mumkin bo‘lgan yuk), ikkinchi jaribdan – ikki harvori, uchinchi jaribdan esa bir harvori yig‘ib olinishi buyurilgan. Shuningdek, kuzgi, bahorgi va yozgi dehqonchilikdan olingan hosil dehqonning o‘ziga qolgan. Bu haqda, Alisher Navoiyning “Vaqfiya” asarida temuriylar davrida o‘ziga xos tarzda jaribga ajratilgan ekin maydonlari va ulardan olingan daromadlar haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan⁷⁴.

Amir Temur o‘z xalqiga doimo e’tiborli bo‘lgan. Ularni og‘ir ahvolga solishni man etgan, yashash sharoitlarini, soliq va boshqa majburiy to‘lovlар undirilishi jarayonlarini nazorat qilish uchun alohida vazirlar tayinlagan. Vaqtı-vaqtı bilan olimlar va hukumat vakillarini chekka hududlarga biriktirib, raiyat ahvolini o‘rganishlarini va haqiqiy vaziyat to‘g‘risida ochiq-oydin axborot berishlarini talab qilgan. Bu fikrimizga Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridan olingan quyidagi parcha yaqqol misol bo‘la oladi: “*Amir Sohibqiron bir guruh taniqli va diyonatli olimlardan tanlab, ularning har birini devoni a’lo tomonidan bir amin bilan mamlakat chekkalaridan biriga nomzod qildi, toki ular tayin etilgan tomonga jo‘nab, mamlakat ishlarining tagiga yetsinlar, agarda birorta mazlumga ziyon yetgan bo‘lsa yoki biron ojizga zo‘ravonlik ravo ko‘rilgan bo‘lsa, zarar tikanini mazlumlar oyog‘idan chiqarib, ulardan zo‘rlik bilan olingan narsa isbot qilinsa, o‘sha tomonda bo‘lgan xazina molidan ularga qaytarib bersinlar, bo‘lgan ahvolni yozib qaytsinlar va arz izzatgohiga yetkazsinlar, toki bundan keyin u (zulm) qoidalarini ulardan yiroqlashtirsinlar*”⁷⁵.

Mamlakatni iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirish yo‘lidagi strategik islohotlar zamirida tabiiyki, turli yo‘nalishlar bo‘yicha hunarmandlarga talab yuqori bo‘lgan. Buni hisobga olgan Sohibqiron maxsus odamlar tayinlab, harbiy yurishlar davrida fath etilgan joylarda olim-u fuzalolar bilan bir qatorda o‘z ishining mohir ustalari bo‘lgan turli xil kasb-hunar egalarini aniqlab, ularni poytaxt Samarqandga jo‘natish va faoliyat olib borishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berishni buyurgan.

Chet ellardan yuzlab sohibi hunarlar, jumladan:

⁷⁴ Alisher Navoiy. Vaqfiya. 21–22-betlar. www.ziyonet.com.

⁷⁵ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T.: “O‘zbekiston”, 1996, 369–370-betlar.

- Erondan musavvirlar, xattotlar, sozandalar, muarixlar, me'morlar, qurilish ishlari bo'yicha hunarmandlar bilan birga olimlar va din arboblari;
- Kichik O'siyodan qurolsozlar, to'pchi muhandislar, kumushga ishlov beruvchi ustalar, g'ish teruvchilar, arqon eshuvchi ustalar;
- Suriyadan pillakashlar, tikuvchilar, to'quvchilar, sangtaroshlar, duradgorlar, chodir tikuvchilar, kamon-yoy yasovchi ustalar, qurolsozlar, qalpoq yasovchilar, mol tabiblari, naqqoshlar, qirg'iyyorlar, shisha idishlar va chinni ishlab chiqarish bo'yicha muhandislar;
- Turkiyadan zargarlar, movut ishlab chiqaruvchilar, sangtaroshlar, o'q-yoy ustalari;
- Halabdan mashhur paxta yigiruvchilar;
- Hindistondan eng malakali g'ish teruvchi me'morlar, quruvchilar, metall bo'yicha ustalar, sangtaroshlar hamda zargarlar;
- Tabriz va Xorazmdan imoratsozlar va naqqoshlar olib kelindi. Aksariyati qulga aylantirildi⁷⁶. Ularning kasb sirlaridan mahalliy aholi ham bahramand bo'lib, yangi kasb-hunarlar rivoj topib, hunarmandchilik mahsulotlarining turi ko'payo boshladi.

Ibn Arabshohning ta'kidlashicha, "Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biron fazilat va shafoat bo'lsa, shu kasb egalariga g'oyatda mehr qo'ygan edi. U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yo'qtirmas, munajjim-u tabiblarni (o'ziga) yaqin tutib, ular gaplariga e'tibor qilar va so'zlarini tinglardi⁷⁷.

Amir Temur bu bilan ikki maqsadni: bir tomondan, o'z poytaxtini bezatish uchun Osiyoning eng yaxshi ustalarini to'plashni, ikkinchi tomondan, vohalar va shaharlarni kengaytirib, Movarounnahr aholisini ko'paytirishni ko'zlagan edi. Ushbu davrda hunarmandchilik faoliyatini olib borish, uning yangi turlarini yo'lga qo'yish, aholining mehnatga layoqatli, lekin ishsiz yurgan qismiga


⁷⁶Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur) I kitob. – T.: Mehnat. 2018. 49-bet. 245-bet. // Vambery A. History of Bokhara from the earliest period down to the present. London. Henry S. King & Co. * 6 5 Cornhill & 12 Paternoster Row. 1873. 193-213 p..// Hilda Hukhem. Yetti iqlim sulton. – T.: Adolat. 1999. 170-bet. // Рене Груссэ. Империя степей. Аттила, Чингиз-хан, Тамерлан. Перевод Х. Хамраева. — Алматы, 2006. 592 с. – 461, – 478, - 480, - 494 стр.// <https://sogolom.uz/nigoh/sohibqiron-davrida-hunarmandchilik>.

⁷⁷Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur) II kitob. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. –T.: Fan. 2018. 144-b.

turli kasb-hunararlarni o‘rgatish, kerak bo‘lsa o‘z faoliyatini boshlash uchun davlat xazinasidan sarmoya ajratish va boshqa qulay shart-sharoitlar yaratish yo‘lida odilona siyosat olib borgan (4-rasm).

Shubhasiz hunarmandchilikning yuksalishi ko‘p jihatdan ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Buyuk Sohibqironning eng muhim fazilatlaridan biri shuki, ul zot bundan olti asr avvaloq davlatlararo o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o‘z saltanati yorqin istiqbolini ta’minlashning muhim omili ekanini teran anglagan. Shu sababli u Yevropa va Osiyoni bog‘lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalgalashgan. Bir tomondan – Xitoy, Hindiston, bir tomondan – Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan. Binobarin, “Temur tuzuklari”da quyidagi jumلالарни о‘qiymiz: “*Har bir mamlakatu diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular Xo‘tan, Chinu Mochin (Xitoy), Hindiston, arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangistongami, qaerga borishmasin, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirsinlar. O’sha mamlakatlarda istiqomat qiluvchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushi haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorining o‘z raiyatiga qanday muomalayu munosabatda ekanligini aniqlasinlar*”⁷⁸. “*Va yana buyurdimki, yo‘l ustiga kuzatuvchilar, zabitlar tayinlasinlarki, yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar.*

⁷⁸ Xalqaro Amir Temur jamg’armasi. Temur tuzuklari. – T.: “O’zbekiston”, 2011.100-b.



4-rasm. A. Temurning hunarmandchilikni rivojlantirish borasidagi islohotlari

*Yo'l ustida birortasining narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo'lsin*⁷⁹. “*Amr qildimki, sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin*⁸⁰.

Samarqanddan chet ellarga, xususan, Rusiya, Tatariston va Sibirga asosan arzon narxli ipdan to'qilgan matolar, duxobalar, shoyi gazlamalar, paxta va kalavalar, qog'oz, quruq meva va guruch jo'natilgan. Bu haqida Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z kundaligida ta'kidlab o'tgan⁸¹.

Sohibqiron qudratli sultanat shakllangach, o'sha davrning deyarli barcha taniqli davlatlari va ularning hukmdorlari bilan faol iqtisodiy-siyosiy aloqalar o'rnatgan. Turli davlatlarga o'z elchilarini yuborgan, shuningdek, uning huzuriga yo'llangan chet ellar elchilarini qabul qilgan. Jumladan, Misrga 1393-yilning oktabrida Sulton az-Zohir Barquq huzuriga dono ulamolardan shayx Sovaiy boshchiligidagi maxsus elchilarni, keyinchalik Sulton an-Nosir Farajning elchilari bilan birga uning huzuriga Abdulla Keshiyni jo'natgan⁸². Sohibqiron 1389-yili Mo'g'ulistonni uzil-kesil o'z tasarrufiga kiritgach, Xitoy bilan aloqalarni tiklagan, ungacha Min sulolasining ta'qiqlari sabab aloqalar uzilgan edi. O'sha davr Xitoy manbalaridan biri “Min shi lu” da 1389–1398-yillar oralig'ida Xitoya Amir Temur nomidan to'qqiz marta elchi kelganligi qayd etilgan. Xitoydan o'z navbatida, 1395-yili Fu An boshchiligidagi Samarqandga – Amir Temur huzuriga elchilar yuborilgan: u Xitoydan qaytgan Amir Temur elchilari bilan yo'lga chiqqan edi. Xitoy solnomalarida 1403–1449-yillar davomida Xitoya Samarqanddan o'ttiz uch marta va Hirotdan o'n to'rt marta elchilar jo'natilganligi qayd etilgan⁸³. Kastiliya va Lion qiroli Genrix III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV va boshqa mamlakatlar hukmdorlari saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa bir

⁷⁹ O'sha asar. 138-b.

⁸⁰ O'sha asar. 95-b.

⁸¹ Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). – T.: “O'zbekiston”, 2010. 200-b.

⁸² Saidqosimov S., Ahmedov A., Ahmedov B. va boshqa. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq, 2001. 115;118-b.

⁸³ O'sha asar. 121-b.

qator – jami yigirmadan ortiq xorijiy davlatlar elchilarini o‘z saltanatida qabul qilgani va o‘zaro savdo munosabatlari yo‘lga qo‘yilganligi haqida atroflicha bayon etilgan ko‘plab tarixiy va ilmiy asarlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi⁸⁴.

Aytish joizki, Erondagi Sultoniya shahrining arxiepiskopi Jan (Ioann; ayrim nashrlarda Ioann de Galonifontibus deb ham aytildi). Sohibqironning elchisi bo‘lgan, uning “Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar” (Memoires sur Tamerlan et sa cour) asarining “Temurbeyning sultanati va shaharlaridagi tartib-qoidalar xususida” deb nomlangan bobida, savdo munosabatlari borasida quydagilarni e‘tirof etadi:” U o‘z fuqarolariga bir qancha soliq va to‘lovlar joriy etgan bo‘lsa-da, ajnabiyligi tujjorlarga katta e’tibor ko‘rsatadi va ularni, ayniqsa, faranglar va nasoralarni rag‘batlantiradi, sultanati hududida ularning xavfsizliklarini ta’minlaydi. U ko‘p maskanlarda olinadigan jon va tuz soliqlarini bekor qildi va bu soliqlar faqat yirik shaharlarda olinsin, deb farmon berdi. U sultanatining barcha hududlarida tujjorlar hayotiga xavf soladiganlarga shafqatsiz jazo tayinladi: tujjorlarni talagan o‘lka ahli unga (tujjorga) talagan mol qimmatini ikki barobar qilib qaytaradi yoxud sultanat xazinasiga tujjor yo‘qotgan mol-mulk qimmatining besh barobari miqdorida jarima to‘laydi”⁸⁵.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar bilan birga boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan islohotlar haqida ma’lumotlar “Temur tuzuklari”da to‘la bayon etilgan.

5.2. MIRZO ULUG‘BEK DAVRIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR

Amir Temur vafotidan keyin uning islohotlarini asosan Shohrux Mirzo (1377–1447) va Ulug‘bek (1394–1449) davom ettirdilar. **Shohrux Mirzoning** mo‘tadil ichki va tashqi siyosati Xurosonda tinchlikning barqaror bo‘lishiga olib keldi. Bu davrda tijorat, hunarmandchilik, dehqonchilik yuqori darajaga ko‘tarila boshladi. Jumladan, mahalliy va xorijdan olib kelingan xomashyolardan banoras, atlas kabi matolar ishlab chiqarila boshlandi. U mamlakat istiqbolini ko‘zlab Xitoy va Hindiston hukmdorlari bilan diplomatik

⁸⁴ O`sha asar. 125; 129 betlar.

⁸⁵ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasining 2005 yil 20-soni. www.kh-davron.uz.

munosabatlarni yaxshilashga harakat qildi. Mazkur mamlakat elchilar Samarqand va Xirotda, o‘z navbatida G‘iyosiddin Naqqosh rahbarligida Xitoyda, Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligidagi elchilar Hindistonda bo‘ldilar⁸⁶.

Abdurazzoq Samarqandiy asarida Xitoy podshohi elchilarining kelganligi haqida quyidagi ma’lumotlar keltirib o’tilgan: “*Shu orada Xitoy viloyatidan, mamlakatlarning Chinu Mochin va boshqa yerlari podshohi Doy-Ming xon tarafidan elchilar yetib keldi. (Xoqoni said tomonidan):*

“*Shahar va bozorlarga ziynat berilsin, har bir san’at egasi o‘z hunarini to‘la zohir qilib do‘konini bezatsin*”, — degan humoyun farmon sodir bo‘ldi. Amirlar istiqbol rasmi bo‘yicha (*shahardan*) tashqari chiqib elchilarining hammasini izzat-hurmat bilan shaharga olib kirdilar. ...Hazrat xoqoni said balanddik avjidagi oftob singari xurshid chehra bilan sultanat taxtiga ko‘tarildi. Ulug‘ amirlar elchilarni qo‘l o‘pish sharafiga yetkazib, tortiklarni qo‘ydilar va ularning so‘zlarini arz qildilar”⁸⁷.

Bu davrda maydoni nisbatan kichik va huquqlari cheklangan suyurg‘ol yerlari ham bo’lgan. Ular, odatda, ibrat ko‘rsatgan kichik lavozimli oddiy lashkarlardan tortib, oliy hukmdorning muntazam gvardiyasida xizmat qiluvchi harbiylarga ham berilgan. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy o‘z asarida atroflicha to‘xtalib o‘tgan⁸⁸.

Shuningdek, **Ulug‘bek** ham mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji yo‘lida bir qator islohotlar olib brogan. O‘scha davrda

muomaladagi fulusiy chaqa pullar yengil vaznda bo‘lib, savdo rivojiga to‘sinqinlik qilgan. Ulug‘bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqa pullarni bekor qildi. Eski chaqalami yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo‘lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o‘zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz,



Ulug‘bek (1394-1449)

⁸⁶ www.tarix.uz.

⁸⁷ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn. II jild, birinchi qism, 1405–1429- yillar voqealari. – T.: O‘zbekiston, 2008. 222; 223-betlar.

⁸⁸ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn. II jild, birinchi qism, 1405–1429-yillar voqealari. – T.: O‘zbekiston, 2008. 83, 123, 125, 158, 163, 271, 341, 478-betlar.

Toshkent, Shohruxiya va Andijon shaharlarida zARBxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqli fuluslami zARB ettirib, muomalaga kiritdi. Mis pullar zARBini markazlashtirish maqsadida boshqa shaharlardagi zARBxonalarga barham berildi. Faqat Buxoro zARBxonasi (poytaxt Samarqandda emas) saqlab qolindi. Xalq orasida “fulusi adliya”, ya’ni adolatli chaqa nomi bilan shuhrat qozongan bu yangi mis fuluslar mamlakatning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqdina bilan to‘la ta’minlay boshladi. Ichki chakana savdo-pul munosabatlaridagi tanqis-likni fulusning vazni va qiymatini oshirish bilan hal etilishi o‘rtalasrlar sharoitida nodir va favqulodda voqeа bo‘lsa-da, har holda Ulug‘bekning bunday islohoti mamlakatda hunarmandchilik buyumiariining ichki chakana savdosi uchun keng yo‘l ochib berdi. Ulug‘bek tashqi savdodan keladigan daromadni oshirish maqsadida “tamg‘a” – savdo bojini birmuncha ko‘paytirgan⁸⁹. Bu usul davlat xazinasini boyitishga xizmat qilgan. Ammo xorijlik savdogarlarga har doim ham qulaylik tug’dirmagan, zamonaviy tilda aytganda, proteksionizm siyosati qo’llanilgan. Hozir hammamizga yaxshi tanish ruscha “tamojnya” kalimasi esa aslida turkiy bo’lgan “tamg‘a boji” so‘zlaridan olingan. Bu o’sha paytlar mamlakatimizda savdo-sotiq ishlari bag‘oyat rivojlanganidan dalolat beradi⁹⁰. Bu davrda mamlakat iqtisodiyotining asoslariga alohida e’tibor qilinadi, busiz rivojlanish bo‘lmasligini hokimlar yaxshi tushunishgan. Sug‘orish tarmoqlari qurilib, ular toshhovuz, darg‘ot, navo, chig‘ir, charxpalak, qaynama, sharshara, osma ko‘prik, handoq, tazar va sardobalar kabi turli-tuman suv inshoatlari bilan jihozlandi. Soliq sohasida iloji boricha me’yorni saqlab, uni yig‘ishning ma’lum adolatli usullarini qo’llanganlar. Masalan, g‘alla g‘aram qilinmasdan avval soliq to‘plash qat’iyan man etilgan, chunki dehqon hosil yig‘ib olgachgina real soliq to‘lash imkoniga ega bo‘ladi. Soliq aniq uch muddatda, dehqon hosili pishishiga qarab bo‘lingan.

Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrni boshqarishda, ayniqsa, tashqi siyosatda padari buzrukvorining xohish-irodasini bekami ko‘st bajo keltirgan. Tashqi va ichki siyosatga daxldor har qanday masalaga u bilan maslahatlashib yechim topgan. Tabiiyki, Xitoy temuriylar bilan

⁸⁹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. 368-b.

⁹⁰ Razzoqov A., O‘rmonov N. O‘rtalasrlarining iqtisodiy g‘oyalari. Darslik. – T.: Moliya, 2009. 69-b.

savdo qilishdan manfaatdor bo‘lgan. Bu mamlakatga Movarounnahr va Xurosandan yilqi olib borilgan. Ular o‘rtasidagi savdo va elchilik aloqalari har qachongidan avj olgan. Har ikki-uch yilda Samarqand-u Hirota xitoylik, Xonbaliqqa (Pekinga) esa movarounnahrligu xurosonlik elchilar va savdogarlar qatnab turishgan. 1418-yili Shohruxning Ardasher boshliq elchilar Xitoyda bo‘lishgan. Bunga javoban kelasi yili Li Di va Jong Ku Xitoydan Samarqand va Hirota elchi sifatida kelishgan. Ular Shohrux va Ulug‘bekka o‘zaro do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga doir takliflar bitilgan maktublarni va katta sovg‘a-salomlarni topshirishgan. 1420-yili Shohrux va Ulug‘bek tomonidan 530 kishidan iborat elchilik karvoni Xitoyga jo‘natilgan.

Movarounnahrdan Xitoyga ikkita karvon yo’lidan borilgan. Birinchisi Toshkent, Sayram, Yettisuv, Sharqiy Turkistonning Turfon va Qumul shaharlari orqali, ikkinchisi Farg‘ona vodiysidagi Xo‘jand, Qo‘qon, Marg’ilon, Andijon, O‘sh shaharlari, Oloy vodiysi va Sharqiy Turkistonning Koshg‘ar, Xo‘tan va Yorkend shaharlari orqali o‘tgan. Bu yo‘llarning xavfsizligiga alohida e’tibor qaratilgan. Shohrux va Ulug‘bek zamonida Tibet va Hindiston bilan ham yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari o‘rnatalgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, XV–XVI-asrlarga iqtisodiy-siyosiy jihatdan barqarorlashgan o‘ziga xos davr sifatida qaraladi. Amir Temur va temuriylar zamonida ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirish yo‘lidagi olib borilgan islohotlar davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri qilib belgilangan. Bu tarixiy manbalarda ham yaqqol ifodasini aksini topgan. Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlardan mulohaza qilish mumkinki, ushbu islohotlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, barqaror ravishda rivojlanishda davom etmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda o‘ziga xos milliy iqtisodiy tafakkurimizni yana ham rivoj topishida poydevor vazifasini o‘tamoqda.

5.3. ALISHER NAVOIY IQTISODIY TA'LIMOTI



Alisher Navoiy
(1441–1501)

Alisher Navoiy (1441–1501) buyuk shoir va davlat arbobi. U o‘z davrining siyosiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, mamlakatning iqtisodiy qudratini barqarorlashtirish uchun kishilarda vatanparvarlik his-tuyg‘usini uyg‘otish zarurligini yaxshi tushungan.

Navoiyning dastlabki ijtimoiy-iqtisodiy fikrlari shakllangan asari «**Hiloliya**» hisoblanadi. U *shaxsning tarixdagi o‘rniga* katta e’tibor berib, mamlakatning iqtisodiy ahvoli mamlakat xukmdorining aql-idroki va qobiliyatiga bog‘liqligini aytadi. “Agar mamlakat hukmdori fanlarni, ayniqsa iqtisodiyot, tarix, falsafa va siyosiy fanlarni mukammal bilsa, o‘zi boshqarayotgan mamlakat obod va badavlat bo‘ladi, agar aksi bo‘lsa, mamlakat qashshoq va xarob bo‘ladi”, – deydi Navoiy. Keyinchalik jamiyatning rivojlanishida iqtisodchilarning va davlat arboblarining ahamiyati katta ekanligini ingliz olimi J.M. Keysn ham qayd qilib o‘tadi.

Navoiy mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga alohida e’tibor berdi. Uning fikricha, Markaziy Osiyo sharoitida irrigatsiya inshootlarini kengaytirish – dehqonchilikni rivojlantirishga olib keluvchi muhim omillardan hisoblanadi. Shu bois, juda ko‘p kanal va ariqlar qazildi. Asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yerni kengaytirishga, uning unumdarligini oshirishga katta e’tibor berildi.

Navoiy boylikni ikki yo‘l bilan topish mumkinligini ta’kidlaydi. Birinchi yo‘l bu – o‘z mehnati bilan boylik to‘plash, yig‘ish va o‘ziga to‘q yashash. Bunday boylikni u qo‘llab-quvvatlagan. Navoiy olingan boylikni uch qismga bo‘lib, ya’ni birinchi qismini ketgan xarajatlarga, ikkinchi qismini o‘zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlariga sarflashni tavsiya etgan. Navoiy ko‘pgina madrasa, shifoxona, hammom, ko‘prik va boshqalarini o‘z hisobidan qurdirgan. Boylik topishning ikkinchi yo‘li bu – o‘g‘irlik, ta‘magirlilik va zo‘rlik hisobiga boylik orttirishdir. Navoiy bunday boylik orttirish nomaqbul usulligini qayd qiladi.

Navoiy o‘zining «**Mahbub-ul-qulub**» (1500.) asarida mamlakatdagi ijtimoiy guruhlarning jamiyatda tutgan o‘rnini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Uning fikricha, dehqonlar, hunarmandlar va chet el bilan aloqasi bor savdogarlar jamiyatda moddiy boylik yetishtirishda, yaratishda va mamlakatning boyligini ko‘paytirishda muhim o‘rin tutadi. Navoiy dehqon va uning ishlab chiqarishdagi ahamiyati to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildiradi: «*Don sochuvchi dehqon yerni yorish bilan rizq yo‘lini ochuvchidir*». Shu bilan birga, u dehqon mehnatini ulug‘lab, uning moddiy boylik yaratishdagi xatti-harakatini quyidagicha tasvirlab berdi:

Har ne qilsalar harakat,

Xalqqa ham yetar ovqat ham barakat.

Navoiy ijtimoiy hayotga odamlarning birlgiligidagi faoliyati sifatida qaraydi. Uning fikriga ko‘ra, *kishi yakka holda hech narsa ishlab chiqara olmaydi*. U biron narsani ishlab chiqarish uchun boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Masalan, dehqonga mehnat qurollari zarur bo‘lsa, hunarmandlarga non kerak; dehqonga ham, chorvadorga ham hunarmandchilik va attorlik mahsulotlari zarur. Dehqon mehnatining mahsulini novvoy, unfurush, qo‘shchi va o‘roqchi, mashoqchi va boshqalar orziqib kutadi. Shu bilan birga, dehqon ham hunarmandning, chorvadorning va boshqalarning mehnat mahsulotiga muhtoj. Ularsiz u hech narsa ishlab chiqara olmaydi. Navoiy fikricha, dehqon o‘z mehnati bilan o‘z ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulot miqdoridan ko‘ra ko‘proq ishlab chiqarib, jamiyat va uning ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan boshqa qismlarini ham moddiy ne’matlar bilan ta’minlaydi. Uning mana shu fikri fiziokratlarning “qo‘shimcha mahsulot faqat qishloq xo‘jaligida yaratiladi” degan fikriga mos tushadi. Navoiy “qishloq xo‘jaligining rivojlanishi mamlakat qudratini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi” degan ilg‘or fikrni ilgari suradi. Bu fikr o‘sha davr, ya’ni feodalizm rivojlangan, uning negizini dehqonchilik tashkil qilgan bir davrda to‘g‘ri fikr bo‘lib qolmaygina, balki tarixiy haqiqat hamdir.

Navoiy jamiyatda muhim tabaqa hisoblangan savdogarlarning o‘zini ham ikki guruhga bo‘ladi. Birinchi guruh chet el bilan savdo aloqalarini olib boruvchi savdogarlar. Ikkinci guruh mamlakat

ichkarisidagi olib sotarlar. Olib sotarlarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lgan. Uning fikricha, olib sotarlar «*o‘ziga foyda va boshqalarga qaxat istovchi ... arzon olib qimmat sotish*», ya’ni xalqning zarari hisobiga foyda ko‘rvuchilardir.

Savdogarning asosiy maqsadi foyda olishdir. Biri yuz, bo‘zi shoyi bo‘lishga intiladi. Bu yerda savdogar Navoiyning “Xotami Toyiy” asaridagi o‘tin teruvchi cholga qarama-qarshidir. Chol kuni bilan mehnat qilib, o‘tin teradi va uni bozorga olib borib, sotadi. Bu joyda “tovar-pul-tovar” jarayoni kechadi. O‘tinchi cholning ayriboshlashdan ko‘zlangan maqsadi iste’mol qiymatidir. Bundan tashqari, ayriboshlash qiymati ham mavjud. Navoiyning nazarida, savdogarning molni sotib olishdan maqsadi uni yanada qimmatroq sotishdir. Demak, shoirning fikricha, kapitalning dastlabki shakllaridan biri mavjud bo‘lgan.

Agar klassik maktab vakillari muomala sohasida boylik yaratilmaydi, deb hisoblagan bo‘lsalar, mutafakkir Navoiy fikricha, muomala, ya’ni odilona savdo sohasida ham o‘zaro foydali faoliyat ro‘y beradi⁹¹.

Navoiy intellektual mehnatni, ya’ni olimlar va boshqa shu kabilarning mehnatini jamiyat uchun zarur deb ko‘rsatib berdi va ularni o‘z mas’uliyat va burchlarini sezishga chaqirdi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida iqtisodiyotning ravnaqi inson ma’naviyatining kamoloti bilan uyg‘unligini takror-takror qayd etganlar. Jumladan, mamlakat obodligi va el farovonligini yuksak ma’naviyat bilan quyidagicha bog‘lagan:

To hirs-u havas xirmoni barbod o‘lmas,
To nafs-u havo qasri barraftod o‘lmas,
To jabr-zulm jonga bedod o‘lmas,
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas⁹².


⁹¹ A.Razzoqov. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011, 154–155-betlar

⁹² А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2007, 51-6.

5.4. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRI

Davlat arbobi va qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) va uning avlodlari tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarda katta ishlar amalga oshirilganligi bizga tarixiy bitiklardan ma'lum⁹³. Xususan, Boburning «Boburnoma» asarida, «Mubayyin» kabi to‘plamlarida iqtisodiyotga oid ma'lumotlarga, shu jumladan soliq siyosatiga katta o‘rin berilgan. «Zakot to‘g‘risidagi katta kitob»da esa o‘sha davrdagi soliq, uning turlari to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildiriladi. Bu asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, ulardan mamlakatimizning bugungi hayotida ro‘y berayotgan iqtisodiy islohotlarni, o‘zgarishlarni tahlil qilish, qisqacha xulosalar chiqarish va amaliyotda foydalanish uchun yangi fikrlar, maslahatlar topamiz. Ayniqsa, iqtisodiyotga oid, uning umumiylasoslari bo‘lmish ishlab chiqarish, shuningdek, savdo va tijoratga oid, soliq va boj to‘lovlar bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlari bizni to‘lqinlantiradi.

E’tirof etish kerakki, garchi bizning hayotimizda Boburning davlatni boshqarish, ishlab chiqarish va savdoni tashkil etish masalalariga doir alohida asari yoki uning o‘z hukmronligi davrida yurgizgan iqtisodiy siyosatiga oid birlamchi manbalar bo‘lmasa ham, ilmiy bilish va idrok etish kuchiga suyangan holda shunday qisqacha xulosalarga kelamizki, u buyuk mutafakkir, qomusiy olim sifatida iqtisodiy qonunlarning mohiyatini, iqtisodiyotning jamiyat va davlat hayotidagi belgilovchi ahamiyatini chuqr tushungan. Shuning uchun ham u dolzarb va adolatli farmonlar va hukmlar chiqarib, ilmiy jihatdan asoslangan iqtisodiy siyosat yurgizgan, buning oqibati o‘laroq u hukmronlik qilgan davrda davlatda osoyishtalik, milliy totuvlik, siyosiy-ijtimoiy taraqqiyot qaror topgan. Shu bois ham Bobur asos solgan saltanat bir necha asr davomida yashadi va tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Bobur va uning vorislari davrida soliq masalalari muhim o‘rinni egallagan.



Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)

⁹³ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007, 51–52-6.

Boburning «Mubayyin» asari to‘la ravishda qonunlar va iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan. Asarning nomi ham «qonunlar izohi» ma’nosiga ega.

Butun islom mamlakatlaridek, Movarounnahr va Xurosonda ham «zakot» ma’lum miqdorda va muayyan shart-sharoitlarda olinadigan soliq ma’nosida qo‘llaniladi hamda naqd pul va savdo yig‘imi shaklida to‘planadi. Soliqni hisoblash uchun soliq olish obyektining «hisobi», ya’ni mol-mulkning zakot berishga layoqatli bo‘lish uchun belgilangan miqdori aniqlanadi, hisobdan kam mulkdan soliq olinmaydi.

«Agar yerdan ikki hosil olsang, xirojni ham ikki marta to‘la», deb yozadi Bobur. Xiroj, ya’ni yer solig‘i ikki toifaga bo‘lingan: muqassam va muvazzar. Birinchisi, olingen hosilning miqdoriga bog‘liq bo‘lib, uchdan birga teng bo‘lgan, ikkinchi esa, soliq solinadigan yerning maydoniga bog‘liq ravishda olingen.

Yerni sug‘orish masalalari Sharqda o‘ta muhim edi, chunki ob-havo nihoyatda quruq va issiq, yer-tuproq sharoiti sun‘iy sug‘orishni talab etganligidan sug‘oriladigan yerlar, tabiiyki, lalmikol yerdan ko‘p hosil bergen. Shu sababli suv solig‘i ham bo‘lgan.

Suv solig‘i quyidagicha olingen: «agar sug‘orish davrida chig‘ir qursang, olgan hosilning o‘ndan birining yarmini (5%) soliq uchun to‘lapping kerak», ya’ni sug‘oriladigan yerkarta sarf-xarajat hisobga olingen va bu mantiqan to‘g‘ridir. Umuman olganda, bu davrda soliq va boshqa yig‘imlar tamomila islomiy shariatga to‘la rioya qilingan holda olingen. Nisobga etgan miqdordagi mol-mulkdan Qur’oni Karim, Muxtasar, Hidoya va boshqa manbalarda qat’iy belgilab qo‘yilgan qismi ixtiyoriy ravishda miskinlarga berilgan, masalan, boqiladigan mollar, ya’ni echki, tuya, sigir, otlardan, xususan, qo‘ylardan soliq (zakot) quyidagicha olingen: 40 qo‘ydan bitta (2,5%), 120 tasidan ikkita, 201 dan boshlab uchta, 400 dan ortiq bo‘lsa har 100 qo‘ydan bittasi zakot qilib berilgan. Shuningdek, «Boburnoma»da bir yurt tovarining boshqa yurtlarga olib borilishi, almashuvi, aholi ehtiyojlarining qondirilishi va ularning iqtisodiyot ravnaqidagi ahamiyati to‘la bayon qilinadi. Bobur savdo-sotiqning xalqlar o‘rtasidagi bebafo ahamiyatini juda chuqur tushungan.

Shuning uchun ham u savdo karvonlarini yo‘llarda talash, bosqinchilik qilish, mol-mulkiga ziyon yetkazish kabi salbiy illatlarga ayovsiz munosabatda bo‘lgan. Bu siyosat Amir Temur, Ulug‘bek va

boshqa temuriylar siyosati bilan ma'lum. O'sha davrda Bobur savdogarlardan olinadigan savdo yig'imining ham adolatli va xolisona tashkil qilinishiga katta ahamiyat bergen. Musulmon savdogarlarining savdo aylanmasidan savdo yig'imi 20 misqol (4,5 gramm) oltindan 1 misqoli shaklida olingan, eng muhimi soliq hissasi daromad hissasiga nisbatan kamayib borgan, ya'ni daromad ko'payishi bilan soliq kamaygan va boylik jamg'aruvchilar uchun o'ta manfaatli bo'lgan. Hozirgi davrda ham mana shu siyosatni qo'llash foydadan xoli emas. Chet ellik savdogarlardan olinadigan yig'im esa ularning qaysi yurtlardan kelganligiga bog'liq bo'lgan.

Agar ular islam mamlakatlaridan kelgan bo'lsalar, barcha daromadlarining yigirmadan bir qismi (5%) miqdorida soliq olingan. Musulmon bo'limgan mamlakatlardan kelgan savdogarlardan olinadigan soliq miqdori shu mamlakatlarda musulmon savdogarlaridan olinadigan soliq miqdoriga tenglashtirilgan. Naqadar adolatli va foydali soliq tizimi. Bobur ishlab chiqqan soliq siyosati uzoq yillar davomida qo'llanib kelindi va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi. Bu esa Bobur iqtisodiy g'oyalarining juda chuqr ilmiy asosga suyanganligi, uzoqni ko'zlovchi salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday ilmiy salohiyat uning vorislari, hamyurtlari bo'lgan-bizlarda unga nisbatan yanada chuqr hurmat va faxrlanish hissini uyg'otadi.

Ulug' bobokalonimiz Vatandoshimiz qoldirgan iqtisodiy g'oyalar va iqtisodiy tafakkur merosi, u yurgizgan iqtisodiy siyosat tizimi mustaqilligimizni mustahkamlashda, bugungi qarashimizda qudratli ma'naviy tayanch bo'lishga xizmat qiladi. Mirzo Bobur iqtisodiy dunyoqarashini o'rganish, uning iqtisodiyotga oid qarashlarini tadqiq etish hamda imkon darajasida bugungi hayotimizga tatbiq qilish foydadan holi emas. Shunisi diqqatga sazovorki, Bobur podshohligi davrida mamlakatga vino keltirish taqiqlangan, ya'ni iqtisodiyotda proteksionizm siyosati qo'llanilgan. Boburdan keyin uning o'g'li Humoyun, keyinchalik nevarasi Akbarshoh Jaloliddin (1542-1605) 1556-1605-yillari Hindistonda muvaffaqiyatli podshohlik qilgan. Akbarshoh 1574-yildan boshlab islohotlar o'tkazdi, dehqonlarga yagona soliq kiritdi, yagona uzunlik va og'irlilik o'Ichovlarini joriy qildi. Bu shoh to'g'risida 1601-yil «Akbnoma» kitobi chop etildi, unda mamlakatdagi soliq tartibi o'z aksini topgan.

Boburning o‘g‘li Humoyun (1507–1556, podshoxlik yillari: 1530–1540; 1555–1556) jamiyatni tabiiy tartib asosida qurish tarafdoi bo‘lgan. Pirimqul Qodirovning “Humoyun va Akbar” asarida keltirilishicha, Humoyun: “Men jamiyatdagi sun’iyliklaru betartibliklardan bezor bo‘lganim uchun davlat ishini tabiiy bir asosga qurmoqchiman”, – deydi.

Yer uchun to‘lanadigan soliq davlat xazinasini to‘lg‘azishning asosiy manbayi hisoblangan. Bobur barcha yerkarni o‘z amaldorlariga “jogir” sifatida bo‘lib bergen edi. Humoyun bunga o‘zgartirish kiritmadidi. Akbarshoh esa yer solig‘i tizimini ancha takomillashtirdi. 1580-yildan boshlab, yer o‘lchov birligi qilib “gazi Iskandariy”, keyinroq “gazi ilohiy” qabul qilindi. Yerlar har yili ekiladigan, ikki yilda ekiladigan, uch-to‘rt yilda ekiladigan, besh yildan ortiq muddatga bir ekiladigan toifalarga ajratilar va shunga ko‘ra soliq hajmi belgilanar edi. Bu hajm uchun o‘tgan yillikda olingan hosilni o‘rtachasi me’yor qilib belgilangan. Davlatga ko‘pincha olingan hosilning uchdan bir qismi soliq sifatida topshirilar yoki o‘scha miqdordagi pul davlat xazinasiga to‘lanar edi.

Bobur va Xumoyun o‘zlarining nomi va surati tushirilgan tanga pul zarb qildilarku, biroq pul muomalasi tizimiga boshqa o‘zgartirish kiritmadilar. Akbarshoh davriga kelib, tilla, kumush va misdan tanga pullar zarb qilindi va har birining qimmati alohida ko‘rsatilib, og‘irligi va tarkibidagi metall miqdori qat’iy belgilab qo‘yildi. Tangalar asosan dumaloq shaklda zarb qilinar edi. Akbarshoh tangalarga o‘z suratini tushirmadi, balki tangalarga podshohning ismi, pul birligi, zarb qilingan yil va Qur’ondan oyatlar o‘yib yozildi. Akbarshox davrida zarb qilingan pullar juda chiroyili edi. Eng yuqori qimmatga ega bo‘lgan pul birligi “Shahanshoi” deb yuritilardi. Bu pul ko‘proq yuqori doiralarda qo‘llanilgan. Pastroq tabaqalar ishlatishi uchun “ilohiy” pul birligi chiqarilgan bo‘lib, bir tanga pul o‘n rupiyaga teng edi. Jami yigirma olti hil tanga pul zarb qilingan. Kumush tangalar “rupiya” deb atalgan. Mis tangalar “dom” deb atalar va rupiyaning qirqdan bir qismiga, eng kichik mis tanga esa “jidal” deb atalib, paysaning yigirma beshdan bir qismiga teng edi. Akbarshohning pul birligi tizimi juda mukammal edi. Bu pullar Britaniyaning pul birliklarini takomillashtirish uchun ham asos bo‘lgan.

Jahongir ba'zi tangalarga o‘z suratini, ayrim tangalarga esa, nomni yoki rafiqasi Nurjahonning nomini o‘yib yozdirgandi. Ayrim tangalarda uning qo‘lida may kosasi tutib turgan surati tushirilgan edi. Pul tizimi ancha vaqtgacha shundayligicha o‘zgarishsiz qoldi. Avrangzeb davrida rupiyaning qadri ancha ko‘tarildi. Boburshoh-larning asosiy burchiadolatli ish olib borish edi. Podshoh asosiy qonun chiqaruvchi shaxs hisoblanib, sudlov hokimiyatiga ham uning qo‘lida bo‘lgan. Har juma kuni peshin nomozidan so‘ng, ochiq sudda ish ko‘rilar edi. Eng og‘ir va quyi sudlov qarorlarida hal qilib bo‘lmaydigan ishlar qozilar orqali shoh e’tiboriga havola qilinar edi. Podshohdan keyingi mavqeida qozikalon turar edi. Har bir viloyat, tuman, parganda va shaharlarda qozilar tayinlanar edi. Qozilar asosan mulklarni ajrim qilish va diniy ishlar muhokamasi bilan shug‘ullangan. Ko‘pincha ularga “muftiy” hamkorlik va maslahatgo‘y qilardi. Bundan tashqari, sho‘bador, favjdor, shiqdor, qutvol va boshqalar jinoi ishlarni ko‘rar, devon, amali guzar, omil va boshqalar esa fuqarolar orasida mojarolarni hal qilardi. Qishloqdagi mojarolar esa qishloq oqsoqoli tomonidan hal qilingan.

Akbarshohdan boshqa boburiyshohlar huquqiy masalalarni hal qilinganda, islom qoidalariga tayanib ish ko‘rardi. Akbarshoh esa hindlar masalasi ko‘tarilganda, ularning urf-odatlarini hisobga olardi. Avrangzeb davrida esa, islom qonunlariga asoslangan qonunlar to‘plami “Fatvon Olamgiri” yaratildi. Boburiylarning jazo chorralari shafqatsiz edi. Jinoiy ishlar “qonga qon”, “jonga jon” mezonasi osida ko‘rilardi. Aybdorlarga nisbatan o‘lim jazosi, tana a’zolarini kesish, kaltaklash, mol mulkini musodara qilish, jarima solish va boshqa jazo chorralari tayinlanardi.

Bobur va boburiylar ishlab chiqqan soliq siyosati uzoq yillar davomida qo‘llanib kelindi va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir etdi. Bu esa Bobur iqtisodiy g‘oyalarining chuqur ilmiy asosga suyanganligi, uzoqni ko‘zlovchi salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday ilmiy salohiyat Boburning vorislari, hamyurtlari bo‘lgan bizlarda, unga nisbatan chuqur hurmat va faxrlanish hissini uyg‘otadi⁹⁴.

⁹⁴ Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011. 169–171-b.

5-bob BO‘YICHA XULOSALAR

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixiy ijtimoiy saboqlar davri hisoblanadi. Bu davirda Amir Temur boshchiligidagi yagona tug‘ ostida markazlashgan kuchli va mustaqil davlat tashkil topdi. Bu davlatni idora etish va boshqarish uchun Amir Timur asosiy qonun – qoidalar to‘plami «Tuzuklar»ni yaratdi. «Tuzuklar» islom dini mafkurasiga asoslangan bo‘lib, mamlakatni obod yetishiga xizmat qildi. Xo‘jalikning asosi bo‘lgan dehqonchilik hunarmandchilik ichki va tashqi savdo kengaydi, fan va madaniyatning ravnaqi uchun ma’lum shart-sharoitlar yaratildi.

Amir Temurdan keyin uning o‘g‘li Shohrux Mirzo va nabirasi Mirzo Ulug‘bek davridagi islohotlar iqtisodiyotni barkamollashuvi va ravnaq topishuviga shart-shoroit yaratdi. Ayniqsa, 1428-yilda Ulug‘bek tomonidan o‘tkazilgan pul eslohiyati katta ijobiy ahamiyat kasb etdi. XV asirdagi iqtisodiy g‘oyalar majmuasida buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari muhum o‘rin tutadi. Alisher Navoiy dastlabki iqtisodiy qarashlari «Hiloliya» (1469) asarida ham boylikning to‘planishi va taqsimlanishidagi adolatlilik va ijtimoiy manfaatlarning ustuvorligi mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning asosi ekanligi alohida ta’kidlangan. «Mahbubul kulub» asarida esa ijtimoiy tabaqalarga tavsif berilgan. Har bir kasb hunarning jamiyat ijtimoiy tuzilishidagi urchiga baxo berilgan. Bobir va boburiylar davridagi iqtisodiy g‘oyalarning nigizini islom talimotidagi mezonlar tashkil etildi. «Zakot tug‘risidagi katta kitob» «Mubayyin» kabi asarlar shular jumlasidandir. 1601-yilda chop etilgan «Akbarnoma» kitobida soliq tartibi hamda murakkab iqtisodiy muammolar yichimiga qaratilgan qator fikirlar ilgari surilgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Temur va Temuriylar davridagi iqtisodiy g‘oyalarning asosini izohlab bering.
2. “Temur tuzuklari”da ishbilarmon shaxslarga qanday munosabatda bo‘lishni izohlagan?
3. Temur davrida soliqlarni to‘lash qaysi tamoyillarga asoslangan?
4. “Tuzuklar”da feodal tuzumning qaysi qoidalari mavjud?

5. 12 ijtimoiy toifa va ular bajaradigan ishlar “tuzuklarda qanday aks etgan?
6. Savdo ishlari temuriylar davrida qanday va qaysi qoidalar asosida amalga oshirilgan?
7. Amir Temur davrida budjet va uni yuritish tartibini ko‘rsating.
8. Mirzo Ulug‘bekning qanday iqtisodiy islohotlarini aytib bera olasiz?
9. Navoiy asarlarida iqtisodiy daholik qanday ko‘rinadi?
10. “Boburnoma” asaridagi iqtisodiy g‘oyalarda nimalar aks etgan?

6-bob. MERKANTILIZM IQTISODIY TA'LIMOTINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

6.1. MERKANTILIZM TUSHUNCHASI UNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Yevropada 1600-yildan 1750-yilga qadar 150 yil iqtisodiy faoliyatning yuksalish davri sifatida xarakterlanadi. Feodalizm, o‘ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, xususiy mulk xususiyatlari bilan savdo, shahar tashqarisidagi yer mulki va mamlakatlarning mustaqil davlat bo‘lib yuksalishiga uchun yo‘l ochib bermoqda edi. Bu davrga kelib feedal jamiyatning an’ana va urf-odatlari hamda cherkov ma’muriyati kishilar faoliyatini din bilan cheklamas edi. Bozor uchun ishlab chiqariladigan tovarlar tobora muhim ahamiyat kasb eta boshladi, bozorlarda joy, mehnat, kapital sotila boshladi. Bu holat sanoat inqilobining kelib chiqishiga asos bo‘ldi.

Bu davrda iqtisodiy mulohazalar individual, ro‘zg‘or, oila va ishlab chiqaruvchilar haqidagi g‘oyalardan yiroqlashib, iqtisodiy qonun va huquqlar o‘zaro bog‘langan tizim shaklidagi murakkabroq g‘oyalar ko‘rinishida rivojlana boshladi.



Merkantilizm atamasi 1500 va 1750-yillar oralig‘ida yaratilgan iqtisodiy adabiyotlar va amaliy takliflarga nisbatan ishlatiladi. Merkantilistlar adabiyoti G‘arbiy Yevropaning barcha rivojlanayotgan iqtisodiyotlarida bo‘lsa ham, uning asosiy g‘oyalari ingliz va fransuzlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Sxolastik iqtisodiy adabiyotlar o‘rtta asr cherkov ruhoniylari tomonidan yozilgan bo‘lsa, merkantilizm iqtisodiy nazariyasi savdogar tadbirkorlar tomonidan yozilgan. Bu adabiyotlar iqtisodiy siyosatdagi masalalarga qaratilgan bo‘lib, odatda, savdogar tadbirkorlarni qiziqtirgan muammolarga bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli ularning xulosalari haqqoniyligiga va alohida munozaralarning tahliliy ahamiyatiga ega. Faqatgina ayrim yozuvchilargina obyektiv tahlil muammolaridan xoli ravishda ish olib bora olishgan. Shunday bo‘lsada, merkantistik davr davomida iqtisodiy adabiyot sifat va miqdor jihatidan yuksalishga erishdi. 1650-yildan 1750-yilgacha bo‘lgan davrdagi merkantilistlar adabiyoti muqarrar yuqori sifatga erisha oldi, va ushbu adabiyotlarda keltirilgan tahliliy tushunchalari tez orada tarqalib 1776-yilda Adam Smit muallifligidagi “Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot” asariga asos bo‘lib xizmat qildi⁹⁵.

Merkantilizm – bu muomala sohasida iqtisodiy qonuniyatlarning rivojlanishiga bo‘lgan qarashlar tizimi va proteksionizm prinsiplariga asoslangan bir qator davlatlarning iqtisodiy siyosati, u feodalizmning yemirsh davriga muvofiq keladi va “toindustrial” iqtisodiy davrdagi voqelikni tahlil qilishga uringan ta’limot hisoblanadi⁹⁶.

Merkantilizm, eng avvalo, davlatning iqtisodiy siyosatini ifoda etgan, uning amaliy faoliyati uchun tavsiyalar ishlab chiqqan. Merkantilistlar tadqiqotining maqsadi reallik sifatidagi iqtisodiyotni tahlil qilish emas, balki hukumatga amaliy maslahatlar berish bo‘ldi. Shuning uchun ular davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini qo‘llab-quvvatladilar, yuqori soliq stavkasini va davlat xarajatlarini himoya qildilar.

Merkantilistlarning ilmiy dunyoqarash tamoyillari quyidagilar bilan tasvirlanadi: har qanday oltin va qimmatbaho narsalarga boylik

⁹⁵ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 61-b.

⁹⁶ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 73-б.

sifatida qarash; mamlakatga oltin va kumushning oqib kelishini ta'minlash maqsadida tashqi savdoni tartibga solish; arzon xom ashyni import qilish yo'li bilan sanoatni rag'batlantirish; import qilinadigan sanoat tovarlariga proteksionistik tariflarni belgilash; eksportni, ayniqsa, tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish; ish haqining past darajasini ushlab turish uchun aholining o'sishi. Milliy farovonlikning zaruriy sharti sifatidagi aktiv savdo balansi doktrinasi, shak-shubhasiz, merkantilizmning asosi hisoblanadi.

Shu narsani qayd qilib o'tish kerakki, uzoq yillar davomida boylikning, xalq farovonligining asosi mehnat, yer, dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik deb kelinar edi (uni biz yuqorida ko'rib chiqdik). Lekin XV asrga kelib vaziyat keskin o'zgardi. Avvalo, natural-xo'jalik tizimining yemirilishi, tovar-pul munosabatlarining o'sishi, fan va madaniyatning yuksalishi, ayniqsa, yangi yerlarning ochilishi, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik tuzumining paydo bo'lishi, birinchi navbatda, savdoning tez rivojlanishiga turtki bo'ldi. Noekvivalent savdo tufayli metropoliyalar mustamlakalar hisobiga beqiyos boyidi. Mana shu davrga kelib jamiyatning boyishida savdoning o'rnini asoslab berishga uringan merkantilizm qarashlarida noelastik talab va eksportning importdan ko'p bo'lishining maqsadga muvofiqligi, kapital eksportini rag'batlantirish va jamiyat ishlarini qo'llab-quvvatlash tushunchalari ustunlik qilgan, shuningdek, "qo'shningni quritsang, go'yoki millat boy bo'ladi" kabi noto'g'ri siyosat ilgari surilgan.

Merkantilizmni zamon muammolariga ilmiy munosabat deb tushunish to'g'ri bo'ladi. Xususiy mulk inqirozga uchrab, davlat mulkiga aylantirilayotgan bir davrda merkantilistlar xalq boyligi va qudratini oshirish uchun eng yaxshi siyosat va yo'llarni belgilashga intilardilar.

Merkantilistlar dunyodagi umumiyligi boyligini o'zgarmas deb qabul qilishgan. Shu farazga asoslangan holda sxolastiklar insonlar o'rtasida savdo amalga oshirilganda ulardan birining daromad olishi boshqasiga albatta zarar keltiradi, deb ta'kidlashgan. Merkantilistlar xuddi shu mantiqni xalqlar o'rtasidagi savdoda ham qo'llab, bir xalqning iqtisodiy qudrati va boyligining o'sishi faqatgina boshqa davlat boyligi hisobiga amalga oshadi degan xulosaga kelishgan. Shunday qilib, merkantilistlar xalqaro savdo millatning qudrati va boyligining ravnaq

topishida muhim vosita ekanini e‘tirof etib, ko‘proq xalqaro savdo balansiga e’tibor qaratishgan.

Merkantilistlar ishlab chiqarishga katta ahamiyat bergen bo‘lsalar ham, ichki bozorga ko‘p mahsulot ishlab chiqarishni ma‘qullamaganlar. Ko‘p ishlab chiqarish bilan birga kam iste’mol qilish eksportni oshirishga imkon beradi, bu esa millat boyligining va qudratining oshishiga olib keladi deb hisoblaganlar. Merkantilistlar xalqaro savdoda nisbiy ustunlikka erishish uchun ishchilarga kam ish haqi berilishi tarafdori bo‘lganlar. Ularning fikricha, yashash minimumidan yuqori maosh berish mehnat layoqatini kamaytirishi mumkin, yuqori ish haqi yil davomida kamroq soat ishlashga va yalpi ishlab chiqarishni kamaytirishga sabab bo‘lishi mumkin⁹⁷.

6.2. DASTLABKI VA KEYINGI MERKANTILIZMNING O‘ZIGA XOSLIGI

Dastlabki merkantilizm buyuk geografik kashfiyotlardan oldin paydo bo‘ldi va XVI asrning o‘rtalarigacha faol amal qilib keldi⁹⁸. Uning asosiy vakillari **Uilyam Stafford (1554–1612) (Angliya)**, **Gaskar Skaruffi (1519–1584) (Italiya)** va boshqalar hisoblanadi. Dastlabki merkantilizm «**pul balansi**» siyosatini olib borgan. Bu siyosat pul muomalasini, tashqi savdoni ma’muriy yo‘l bilan qattiq tartibga solish asosida mamlakatning pul boyligini ko‘paytirishga qaratilgan (mamlakat puli qancha ko‘p bo‘lsa, u shuncha boy hisoblangan). Dastlabki merkantilizm oltin va kumushni boylikning mutlaq shakli deb qaradi va uni chetdan olib kelish yo‘lini qidirdi. Dastlabki merkantilistlar tashqi savdoda ijobiy saldoga erishish uchun quyidagilar maqsadga muvofiq hisobladilar:


- eksport qilinadigan tovarlarga *maksimum yuqori baho o‘rnatishni*;
- tovarlar *importini har tomonlama cheklashni*;
- *mamlakatdan oltin va kumushning oqib chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikni*.

⁹⁷ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 62-b.

⁹⁸ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017, 75–77-б.

Dastlabki merkantilizm davrida hukumat xorijiy savdogarlarni ularning pulini mahalliy pulga almashtirish va ko‘proq tovar sotib olishga qiziqtirish maqsadida ataylab chaqalarni buzib, ularning qiymatini pasaytirish bilan shug‘ullangan. Keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, tashqi savdoning kengayishi merkantistlarning boylik muammosiga bo‘lgan qarashini o‘zgartirishga majbur etdi.

Keyingi merkantilizm XVI asrning ikkinchi yarmidan XVII asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. (Uning asosiy vakillaridan biri ingliz Tomas Man hisoblanadi.) Bu davrga kelib milliy sanoat va savdoni rivojlanishining davlat tomonidan rag‘batlantirilishi sababli, mamlakatlar o‘rtasida savdo aloqalari keng va muntazam rivojvana boshladi. Dastlabki merkantistlarning «*pul balansi*» o‘rniga keyingi merkantistlarning «*savdo balansi*» nazariyasi kelib chiqdi. «*Savdo balansi*» nazariyasi (yoki yetuk merkantilizm) Angliyada keng tarqala boshladi. Mazkur konsepsiya



vakillari dastlabki merkantistlarni mamlakatdan tashqariga pul chiqarishni man etgani, importni haddan tashqari cheklagani uchun tanqid qildi. Ularning fikricha, hukumatning tashqi iqtisodiy siyosatdagi asosiy vazifasi — mamlakatda imkonli boricha ko‘proq pul mablag‘larini jamg‘arish emas, balki aktiv savdo balansiga erishishdir

(eksportning importdan ustun bo‘lishi). *Eksport va import o‘rtasidagi farq (ijobiyl saldo)* — mamlakat boyligining o‘sishidir. Demak, real boylik bu — «o‘lik pullar» yig‘indisi emas, balki yangi pullarni, ya’ni pul kapitalini vujudga keltiruvchi pullardir.

Merkantistlar fikriga ko‘ra, savdoning muqobil balansiga erishish uchun davlat eksportni rag‘batlantirib importni ta’riflar, kvotalar, subsidiya va soliqlar orqali ishga solishi kerak. Mahsulot ichki iqtisodiyotda hukumat aralashuvi orqali rag‘batlantirilishi va xorijiy savdo orqali boshqarilishi lozim.

Xorijdan manufakturna tovarlarni keltirilishi arzon xomashyolar importni, ularni tovar eksporti uchun ishlatalishi kabilar himoya majburiyatları hisoblangan.

Merkantilistlar savdo balansi mohiyati va tabiat o‘rtasidagi nomutanosibliklar haqida fikr yuritishgan. Shunisi aniqki, ko‘pgina merkantilistlar davlat boyligi tovar, iste’mol yoki ishlab chiqarishda emas, balki qimmatbaho metallarga egaligida deb fikr yuritishgan, Qimmatbaho metallarning ishlab chiqarishi savdo balansini o‘rnatadi degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Ularning qarashlariga ko‘ra xalqlar bilan savdoning umumiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni Angliya va Hindiston savdo balansi bir-biriga mos kelmasligi mumkin, biroq Hindistonda import qilingan arzon xomashyolardan Angliyada eksport qilinadigan tovarlar manufakturasi uchun foydalaniishi mumkin. Shunday masalalardan biri qimmatbaho metallar yoki eksport bilan bog‘liq, ilk merkantilistlar qimmatbaho toshlar eksporti qat’iyan taqiqlanishi kerakligini tavsiya qilishgan. Keyinchalik yozuvchilar agar yombi eksport tovarlari uchun xomashyo sotib olish maqsadida ishlatsa, u savdo balansi uchun o‘rinli bo‘lishi mumkin degan farazni taklif etishgan.

Shulardan kelib chiqqan holda, keyingi merkantilizm vakillari aktiv savdo balansiga erishish uchun qator tavsiyalarni ilgari surdilar:

- tashqi bozorlarni *nisbatan arzon* tovarlar sotish yo‘li bilan egallash hamda bir mamlakat tovarini olib, boshqalariga uni qimmatiga sotish;
- mamlakatda faqat aktiv savdo balansini saqlab turgan holda, *tovarlar importiga ruxsat etish* (zeb-ziynat buyumlaridan tashqari);
- qulay savdo ishlarini amalga oshirish uchun *oltin va kumushni chetga chiqarish*, pirovard natijada mamlakatda ularning massasini ko‘paytirish.

1-jadval

Dastlabki va keyingi merkantilizning farqlanishi⁹⁹

Dastlabki merkantilizm (pul balansiga asoslangan)	Keyingi merkantilizm (savdo balansiga asoslangan)
1. Pulga munosabat	
Xazina to‘plovchi vazifasida: har qanday to‘lov pul jamg‘armasini kamaytiradi, har qanday sotuv esa uni ko‘paytiradi	Kapitalistik qarash: pul pulni “tug‘diradi”, shu sababli u doimo harakatda bo‘lishi kerak, pulning aylanishi uni ko‘payishiga xizmat qiladi
2. Eksport va importga munosabat:	
Kamroq sotib olish, ko‘proq sotish, sotib olishdan o‘zini tiyish	Kam sotib olish, ko‘p sotish, sotuv hajmi sotib olish hajmidan ko‘proq bo‘lishi lozim (xo‘jalik yilining oxiriga)
3. Faol pul (savdo) balansini amalga oshirishga yordam beruvchi vositalar	
<p>1. Chet elliklar o‘z tovarlarini to‘plovchi “saqlash joyi”lari tizimini mavjud bo‘lishi.</p> <p>2. “Xarajatlar” bo‘yicha qonunlar, ya’ni unga ko‘ra xorijliklarni o‘z tovarini sotishdan tushgan tushumni milliy tovarga almashtirishga tayyor bo‘lishi lozim.</p> <p>3. Xususiy shaxslar tomonidan pulni tashqariga chiqarishga yo‘l qo‘ymaslik.</p> <p>4. G‘azna va almashuvni amalga oshiradigan muassasa mavjudligi.</p> <p>5. Pul ayrboshlanishida monopoliyasi tan davlatning</p>	<p>1.Eksport va import bo‘yicha bojxona tarifi mavjudligi.</p> <p>2.Jahon bozoridagi operatsiyalarda qatnashish uchun davlat ko‘magi.</p> <p>3.Foydali xarid uchun pulni tashqariga chiqarishga ruxsat berish.</p> <p>4.Ishlab chiqaruvchilarga ko‘maklashish (manafaktura egalariga), rag‘batlantirish (davlatning iqtisodiy va administrativ vositalari bilan), ular tomonidan eksportbop tovarlarni ishlab chiqarilishi.</p> <p>5.Tovar harakatini nazorati orqali davlatda qimmatbaho</p>

⁹⁹ История экономической мысли/ под.ред.В.В.Круглова, Е.В.Балахановой. – СПб.: Питер, 2008. 29 – 30 стр.

olinishi.	metallarni ko‘paytirish.
6. Pul oqimini nazorati orqali mamlakatda qimmatbaho metallarni ko‘paytirish lozim.	
4. Davlatning iqtisodiy siyosati xususiyatlari:	
1. Iqtisodiy muammolarni markazlashgan yechimi.	1. Savdo va ishlab chiqarishni iqtisodiy tartibga solish usullari.
2. Davlat bu feodallarga yondashuvchi mutloq monarxiya.	2. Davlat bu feodallarga, savdoga va ishlab chiqarishga yondashuvchi mutloq monarxiya.
5. Ijtimoiy asos	
Xazina ko‘paytirishga asoslangan yarim feodal davlat	Davlat bilan faol aloqada bo‘lgan yirik savdo kompaniyalarning qiziqishini qo‘llab-quvvatlovchi, lekin shu bilan birga o‘z kapital jamg‘armasini ko‘paytirishga qiziquvchi asosga egaligi

Pulning tovarli mohiyatini tan olsada, uning qimmatini keyingi merkantilistlar ilgarigidek oltin va kumushning tabiiy xususiyatidan deb qaradilar. Ammo aynan ular metallistik nazariyadan pulning miqdoriy nazariyasiga va monometallizm tizimiga o‘tishga sabab bo‘lgan. Agar dastlabki merkantilistlar pulning jamg‘arish funksiyasini asosiy deb bilgan bo‘lsalar, keyingi rivojlangan merkantilistlar – muomala funksiyasini asosiy hisobladilar. Keyingi merkantilistlarning ishonchiga ko‘ra, pulning qimmati uning miqdoriga nisbatan teskari bog‘liqlikda, tovarlar bahosi darajasi esa pul miqdoriga to‘g‘ri mutanosiblikda bo‘ladi. Ular, pul taklifining ko‘payishi unga bo‘lgan talabni oshirgach, savdoni rag‘batlantiradi, deb bir tomonlama hisobladilar.

Dastlabki merkantilistlar Yevropaga, ayniqsa Ispaniyaga yangi dunyodan oqib kelgan yirik miqdordagi qimmatbaho metallar mohiyatiga e’tibor qaratgan. Biroq keyingi merkantilistlar bu qarashlarni inobatga olishmadni va iqtisodiyotda pulning o‘rni haqida tahliliy g‘oyalarini rivojlantira olishdi. Pul miqdori va narxlarning umumiy bosqichi o‘rtasidagi aloqa 1569-yilda fransuz olimi Jiyn Bodin

tomonidan taqdim etilgan. U XVI asr davomida G‘arbiy Yevropada narxlarning umumiy bosqichini yuksaltirish uchun 5 ta sabab taklif etdi, asosiy – yangi dunyo kashfiyoti bo‘lgan kumush va oltin miqdorining o‘sishi deb hisoblangan. 1660–1776-yillar davomida bozor iqtisodi boshqaruvi haqidagi tahliliy fikrlar ko‘paydi. Merkantilistlar adabiyotining (markaziy) asosiy xususiyati real faktorlardan ko‘ra pulga oid faktorlar iqtisodiy faoliyat va uning rivojining asosiy belgilari ekaniga ishonishdilar. Ularning ta’kidlashlaricha, mablag‘ adekvatligi tashqi va ichki savdoning o‘sishida zaruriy omildir. Pul miqdorining o‘zgarishi real mahsulot ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlarni boshqaradi, Adam Smit hamda klassik iqtisodchilar o‘rtasidagi munozarada aytilgan fikrlarga ko‘ra, iqtisodiy faoliyat bosqichi va o‘sish sur’ati real faktorlar: mehnat miqdori, tabiiy resurslar, kapital, tovar va tashkiliy struktura bilan chambarchas bog‘liq.

6.3. TURLI MAMLAKATLARDA MERKANTILIZM TA’LIMOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Har bir davlatda merkantilizm o‘ziga xos usulda namoyon bo‘ldi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi, mamlakatdagi siyosiy vaziyat, turli alqlarning milliy-psixologik xususiyatlari uning o‘ziga xos tomonlarini keltirib chiqardi¹⁰⁰.

Merkantilizm Ispaniya, Italiya, Angliya va Fransiyada ancha keng tarzda rivojlandi.

Masalan, Ispaniyada boylik qimmatli metall, pul bilan bir narsa deb qaralgan. Shu bois, Ispaniyada XVII asrning boshigacha mamlakatdan oltin va kumushni olib chiqish (o‘lim jazosi tahlikasi ostida) taqiqlangan. Ispan bimetall monetar nazariyasining yetuk himoyachisi **Marian** XVII asrning 20-yillarida qimmatli toshlardan iborat xorijiy monetalarga ayriboshlanadigan tovarlarni chetga chiqarishdan boshqa, barcha har qanday tashqi savdoni man etish talabini ilgari surdi.

¹⁰⁰ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017, 78-81 б.

Bunday qattiq chora-tadbirlar mamlakat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro savdoda chetga chiqib qolgan Ispaniya iqtisodiy rivojlanishda ancha orqada qolib ketdi.

Merkantilizm iqtisodiy ta'limot va davlat siyosati sifatida Fransiyada ancha rivoj topdi. Fransiyada merkantilizm vakillaridan biri, mashhur «**Siyosiy iqtisod traktati**» (1615) asarining muallifi **Antuan Monkreten** (1576–1621) hisoblanadi. U davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini – jamg‘armani ko‘paytirishning, mamlakat xo‘jaligini mustahkamlash va rivojlantirishning asosiy omili sifatida qaradi. A.Monkreten pul boyligini ko‘paytirish yo‘llarini qidirdi, o‘z takliflarini qirol Lyudovik XIII ga tavsiya etdi. U manufakturani rivojlantirish, hunarmandchilik maktablari tashkil etish, mahsulotlar sifatini yaxshilash, o‘z mamlakati savdogarlariga tashqi savdoda monopol huquq berish, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar savdosini kengaytirish bilan Fransiya bozoridan xorijiy savdogarlarni siqib chiqarishni taklif qildi. A.Monkreten xorijiy savdogarlarni mamlakat boyligini so‘rib oluvchi nasosga taqqoslaydi. A.Monkreten dasturi Fransiya tashqi savdosini kengaytirishni ko‘zda tutadi, u nisbatan monetarizm g‘oyasini, shuningdek, savdo balansi konsepsiyasini aks ettiradi.

Fransiyadagi amaliy merkantilizmnинг eng yorqin vakili **Jan Batist Kolber** (1619–1683 y.) hisoblanadi.



Jan Batist Kolber (1619–1683 y.)

U frantsuz qiroli Lyudovik XIV saroyida moliya superintendenti (vaziri) vazifasida ishlagan va faol proteksionistik siyosatni olib borgan. Keyinchalik J.B.Kolber olib borgan iqtisodiy siyosat va fransuz merkantilizmi *kolbertizm* deb atala boshladi. J.B.Kolberning asosiy g‘oyalari va ularning hayotga tatbiq etilishi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) Fransiya tashqi savdosini faollashtirishga har tomonlama ta’sir ko‘rsatdi;
- 2) tashqi bozorga tovar ishlab chiqarishni hisobga olgan holda manufakturna sanoatini rivojlantirishga imkoniyat yaratib berdi;

3) proteksionistik tariflardan keng foydalangach, Fransiya bojxona siyosatini tartibga solish bilan faol shug‘ullandi;

4) manufakturna sanoati rivojlanishiga alohida e’tibor bergen holda, qishloq xo‘jaligining ancha orqada qolib ketishini keltirib chiqardi, ayniqsa, mamlakatdan don olib chiqishni noto‘g‘ri man etishi va mamlakatga erkin don olib kirishga ruxsat berishi natijasida dehqonchilikning qashshoqlashuviga olib keldi.

Angliya merkantilizmining ancha yirik vakili **Uilyam Staffordning** (1154–1612.) hayot faoliyati



Uilyam Stafford (1154–1612 y.)

to‘g‘risidagi ma’lumotlar juda kam. Uning faqat boy savdogar oilasidan kelib chiqqanligi va “Bizning vatandoshlarning ba’zi bir shikoyatlarining qisqacha bayoni” asarini yozganligi ma’lum. Unda U.Stafford merkantilizm uchun xarakterli bo‘lgan quyidagi g‘oyalarni ilgari surgan:

1) muomalada buzilgan pullar emas, balki to‘la qimmatli pullar bo‘lishi kerak, chunki faqat ular tashqi tovar aylanmasida

yaroqli hisoblanadi;

2) chetga xomashyo chiqarishni man etishni taklif etadi (keyin undan tayyor mahsulot ishlab chiqarilib yuqori bahoda Angliyaga qaytib kelmasin);


3) katta miqdordagi pulning chetga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qimmatli xorijiy tovarlarni (zeb-ziynat buyumlari) iste’mol qilishni man etishni talab qilib chiqdi;

4) Angliyada ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan tovarlarni mamlakatga olib kirishni to‘liq man etishni tavsiya etdi.

T.Man 1630-yilda «Angliyaning tashqi savdodagi boyligi yoki boylikni tartiblash sifatidagi tashqi savdo balansi» asarini yozdi. Unda muallif pul muomalasini qat’iy tartibga solish zararli ekanligini, pul foyda keltirishi uchun doimo harakatda bo‘lishini, pulning chetga erkin chiqarilishi kerakligini, busiz tashqi savdoni risolidagidek rivojlantirib bo‘lmasligini qayd qilib o‘tadi. T.Man bo‘yicha, boylikning manbayi faqat *tashqi savdo* hisoblanadi, bunday boylikka «*har yili xorijliklardan xarid qilgan summadan ko‘ra, ularga ko‘proq sotish*» yo‘li bilan erishiladi. U chetga faqat tayyor mahsulot

chiqarishni, isrofgarchilikka qarshi qattiq kurashishni, qimmatbaho xorijiy tovarlarni iste'mol qilishdan o'zini tiyishni tavsiya etadi.

Adam Smit o'zining "Millatlar boyligi..." asarining 4-kitobida merkantilistlar nazariyasini va siyosatini keskin rad etgan, unda Smit Tomas Manni merkantilistlar lideri sifatida keltirib o'tgan. Angliyada keyingi yetuk merkantilizm **Tomas Man (1571–1641)** asarlarida ifoda etilgan. Manufakturna tizimining klassik vakili T.Man o'z davrining yirik savdogar, Sharqiy Hindiston kompaniyasining direktori edi, bu kompaniya tanqidchi yozuvchilar tomonidan 2 jihat bo'yicha tanqidga uchragan: 1) Angliya Hindistonga eksport o'rniga import qilardi, 2) Angliya Import uchun Hindistonga qimmatbaho metallar yuboradi: Man shaxsiy biznes manfaatdan foyda ko'rvuchi hukumat siyosati tarafdori, oddiy merkantilist edi. Uning birinchi kitobi "Angliya va Sharqiy Hindiston o'rtasidagi savdo haqida(ma'ruza)" deb nomlanib 1621-yilda nashr etilgan. Bu kitob Sharqiy Hindiston kompaniyasini partisan tartibidagi turli soliqlardan himoya qilgan. Uning 2-kitobi: Xorijiy savdo orqali kelgan Angliya xazinasi deb nomlanib 1628-yilda tayyor bo'lgan, biroq bu kitob uning vafotidan so'ng o'g'li tomonidan 1664-yili chop etilgan.



Tomas Man (1571-1641)

Man o'z kitobida Angliya xazinasi xalqaro savdodan boyishini ta'kidlagan. U qimmatbaho metallar aksiyasiga ega davlat boyligini o'z nazariyasiga ko'ra rad etardi. Uning fikricha, hukumat muqobil balans, arzon xomashyo import qilishni rag'batlantirish, ishlab chiqarilgan tovarlar importini nazorat qilishga erishish uchun davlat xorijiy savdoni boshqarishi lozim edi.

1755-yilda Manning mashhur kitobi so'ngi bor nashr etildi. U barcha xalqaro savdoning maqbul balansiga erishish mumkinligiga e'tibor qaratgan, Hindistonga keladigan qimmatbaho metallar eksportidan Angliya katta daromad olishi va savdoni kengaytirgan holda barcha xalqaro savdosi balansiga ham ta'sirini aytib o'tadi.

Keyingi merkantilizm vakillaridan biri shotlandiyalik **Jon Lo (1671–1729.)** hisoblanadi. J.Lo kredit-bank tizimi, shuningdek, qog'oz-pul muomalasi va birja chayqovchiligi asoschilardan biri hisoblanadi.

U kuchli iqtisodchi-amaliyotchi bo‘lsada, faqat ikkita asar yozgan. Birinchisi “**Pul va savdo**” 1705-yilda chop etilgan, ikkinchisi “**Regentstvo davri moliya tarixi**” uning o‘limidan sal oldin yozib tugatiladi, lekin faqat ikki yuz yildan keyin nashr etiladi. Bank va yangi turdag'i aksionerlik jamiyatini tashkil etish, banknot chiqarish, kapital to‘plash, aholining barcha qatlamlari o‘rtasida aksiyalarni tarqatish bo‘yicha uning konseptual qarashlari va amaliy faoliyati, ularning ancha rivojlangan davlatlarning xo‘jalik tajribasida keng qo‘llanilishidan 150 yil ilgari kelib chiqqan.

J.Loning asosiy iqtisodiy g‘oyalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1) milliy iqtisodiyot rivojlanishining kaliti sifatida, banknotalarni chiqarish yo‘li bilan mamlakatda pulning mo‘l-ko‘lligini ta’minlashga harakat qildi;

2) kredit emissiya banklarining davlatga qarashli bo‘lishini, hukumat tomonidan iqtisodiy siyosatini olib borilishi va uning yordamidan foydalanishni talab qilib chiqdi;

3) tovarlar bahosining ozgina oshishi, tovarlar taklifining ancha ko‘payishiga olib kelishi qoidasini asoslab berdi;

4) davlat qo‘sishma ish joylarini yaratishga imkon beruvchi muomaladagi pul miqdorini ko‘paytirish yo‘li bilan, ishlab chiqarish miqdoriga ancha katta ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi to‘g‘risida gapirib o‘tdi;

5) aksionerlik jamiyatlarini tashkil etish yo‘li bilan kapital markazlashuvi va birlashuvi g‘oyasiga ta’sir ko‘rsatdi¹⁰¹.

Shunday qilib, aytish mumkinki, merkantilizm konsepsiysi eng avvalo, proteksionistik tadbirdan foydalanishga va iqtisodiy hodisa va jarayonlarning rivojlanishida davlat aralashuviga tayanadi. Bunday qarash jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining turli bosqichlarida, shu jumladan, hozirgi davrda ham kuzatiladi.

6.4. MERKANTILIZMNING ZAMONAVIY TAHLILLARI

Merkantilizmga nisbatan bildirilgan munosabatni qayd etib o‘tishimiz kerak. Ayrim iqtisodchilar merkantilizmni ularning

¹⁰¹ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017, 81-б.

namoyandalari ilgari surgan g‘oyalari asosida emas, balki ularning manfaatlari asosida baholashadi. Merkantilistlar zamonaviy iqtisodiy tilda “manfaat qidiruvchilar” deb atalgan. Ular foyda ko‘rish maqsadida davlatni ishga solib o‘zлari uchun imtiyozlar yaratganlar. Umuman olganda ular davlatni monopollik imtiyoziga sazovor bo‘lgan savdogar deb bilib, bu bilan monopol-savdogarlik asosida tovarlarga balandroq narx o‘rnatish imkoniyatini olishgan.

Iqtisodiyot nazariyasi tarixchilari merkantilizmni o‘rganib, 1660–1776-yillar oralig‘ida iqtisodiy tahlil ham miqdoran ham sifat jihatdan mukammallahganini aniqladilar. Bu ehtimol merkantilistlarning eng katta muvaffaqiyati iqtisodiyotni tahlil qilish mumkinligini anglab yetganlidigadir. Sxolastlarning axloqiy tahlili o‘rnini sabab va natija tahlillarining egallashi natijasida savdo o‘rnini egallagani merkantilistlarning yutug‘idir.

Merkantilistlar davlatning iqtisodiyotga aralashuvi tasodifiy bo‘lmasligi, balki shu orqali talab va taklif qonunlari kabi asosiy bozor iqtisodiy haqiqatlari yuzaga chiqaradi deb tushungan. Masalan, muvozanat narxidan past narx davlat tarafidan defitsitni keltirib chiqarishini yaxshi tushinishgan. Keyingi merkantilistlar iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishda iqtisodiy odam va foyda tushunchalarini tez-tez qo‘llay boshladilar. Davlat insonlarning tabiatini, ayniqsa ularning egoistik harakatlarini o‘zgartira olmaydi deb hisoblaganlar. Siyosatchilar insonning bu hususiyatini qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilib, bu xususiyatlarni millatning farovonligi uchun safarbar qiladigan qonun va institutlar sifatida shakllantirdilar.

Keyingi merkantilistlar o‘zlaridan oldingi g‘oyadoshlari yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarini anglab yetganligini ko‘ramiz. Ular, masalan, pul boylik o‘lchovi emasligini, barcha davlatlar bir vaqtning o‘zida ijobjiy savdo balansiga ega bo‘lishi mumkin emasligini, uzoq vaqt mobaynida hech bir davlat ijobjiy savdo balansini ushlab turishi mumkin emasligini, savdo har ikki davlatga ham foydali bo‘lishi mumkinligini va ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti davlatlarga ustunlik keltirishi mumkinligini tushunishgan. Davlatning iqtisodiyotga aralashishini kamaytirishni taklif etgan olimlar soni tobora oshib borar edi. Shu tariqa ko‘pgina adabiyotlarda klassik liberalizm g‘oyalari boshlanayotgan edi.

A.Smit merkantilistlar tushuna olmagan tushunchalarni anglab yetdi va boylikning asosiy manbayi bu mehnat ekanligini anglab yetdi. Merkantilistlar fikricha, shaxsiy manfaat va xalq farovonligi o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud deb hisoblashgan. Shuning uchun ularning fikricha, davlat shaxsiy manfaatni xalq farovonligi tomon yo‘naltirishi kerak. Klassik iqtisodchilar esa tizimda tabiiy uyg‘unlik borligiga ishonishgan va xalq farovonligi tabiiy ravishda shaxsiy manfaatdan kelib chiqadi deb hisoblashgan. Hatto laissez-faire g‘oyasini qo‘llagan keyingi merkantilistlar ham ularni qo‘llab-quvvatlash uchun bozor mexanizmi haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lishmagan. Shunday bo‘lsada, A. Smit o‘z tahlilini rivojlantirishda keyingi merkantilistlar adabiyotlaridan keng foydalangan¹⁰².

6.5. MERKANTILIZMNING TARIXIY AHAMIYATI

Merkantilizm va uning vakillari – ijodiy merosidagi ham pozitiv, ham negativ unsurlar nuqtayi nazaridan, iqtisodiy ta’limotlar tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Birinchidan, merkantilistlar konsepsiysi deyarli butunlay muomala sohasidagi xo‘jalik hayotining amaliyotiga qaratilgan. Shunday bo‘lsada, bu ularga ko‘plab iqtisodiy kategoriyalarni ilmiy muomilaga kiritish, savdo sohasi, ssuda operatsiyalari va pul muomalasining muhim qonuniyatlarini aniqlab berish imkonini beradi. Lekin iqtisodiyotning boshqa sohalariga bo‘lgan ularning ta’siri doimo aynan bir xil bo‘lgan emas.

Masalan, mamlakatning o‘z sanoati va savdosini rivojlantirishi uchun pul muhim vosita ekanligini to‘g‘ri tushuntirib bergach, merkantilistlar shunday bo‘lsada, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga e’tibor bermadilar. Bundan tashqari, ular uchun ishsizlik muammosi ham muhim hisoblanmagan. «Ixтиорија ishsizlik»ning asosiy sababi ishlamaslik xohishini keltirib chiqaruvchi yoki «yalqovlik», yoki «axloqiy buzuqlik» hisoblangan.

Ikkinchidan, merkantilizm bozor munosabatlari shakllanishining va Yevropada ancha rivojlangan mamlakatlar – Angliya va Fransiyada uning o‘rnini olgan klassik siyosiy iqtisodning o‘ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqardi. Xususan, Fransiyada XVII asrda

¹⁰² History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 66-b.

moliya vaziri Jan Batist Kolber ancha faol proteksionizm siyosatini olib borgan davrda sanoatning qudratli manufakturna tarmog‘i yaratildi. Ammo bir vaqtning o‘zida mamlakat tashqarisiga don chiqarishni man etish va boshqa mamlakatlardan uni erkin olib kelish yo‘li bilan fermer xo‘jaliklarining shakllanishiga to‘sinqilik qilindi. O‘sha davrdagi Fransiya ichki bozorining uning azaliy raqibi – Angliyaga nisbatan «torligi» oqibatda aynan shu vaziyatga bog‘lab tushuntirildi. Natijada, fransuz merkantilizmi kolbertizm deb atala boshladi, klassik siyosiy iqtisod doirasidagi o‘ziga xos fransuz maktabi esa fiziokratizm ta’limoti deb yuritildi.

Angliyada esa merkantilizm, iqtisodiy tarixdan ma’lumki, Fransiyaga nisbatan ancha «unumli» bo‘ldi. XVII asrdagi savdo va sanoat sohasidagi bu mamlakatning proteksionizm siyosatidagi asosiy yutuqlari, odatda, Ost-Indiya kompaniyasi rahbarlaridan biri – Tomas Man nomi bilan bog‘lab tushuntiriladi. Shu narsa ham ma’lumki, aynan Angliyada merkantilizm bilan bo‘lgan g‘oyaviy kurash natijasida eng muhim nazariy xulosalar ishlab chiqildi va ular A.Smit, D.Rikardo, T.Maltus, J.S.Mill va boshqalarning asarlarida o‘z aksini topdi. Bundan tashqari, Angliya XIX asrda ancha kuchli rivojlangan mamlakat sifatida eng muhim antimerkantistik chora-tadbirlarni, jumladan ichki va tashqi savdoda to‘la erkinlik siyosatini amalgalash boshladi.

Tayanch so‘z va iboralar: merkantilizm, savdo, savdogar, boylik, metall, kumush, oltin, iste’mol, tovarlar bahosi, xarid, kapital.

6-bob BO‘YICHA XULOSALAR

Merkantilizm Yevropada paydo bo‘lgan eng birinchi yirik iqtisodiy oqim hisoblanadi. Uning taraqqiyoti ikki asrni, ya’ni XVII–XVIII asrlarni qamrab oldi. Bu oqimning asosiy g‘oyasi siyosiy iqtisodni asosiy tarmoq sifatida yuzaga chiqarishga sabab bo‘ldi. Mazkur bobda biz merkantilizm oqimining umumiy xususiyatlarini, dastlabki va keyingi merkantilizmning farqlanishini, G‘arbiy Yevropadagi merkantilizm g‘oyalarini rivojlantirgan shaxslarni o‘rganamiz.

XV asr oxiri – XVIII asrlar davomida yangi iqtisodiy ta’limot – merkantilizm va u bilan bog‘liq siyosat paydo bo‘di. Bu ta’limot bo‘yicha millat (xalq) boyligining asosi muomala sohasida yuzaga

kiladi (avvalgi qarashlardan printspial farq qiladi). Bu ta'limotda ikki davrni ajratish mumkin:

1.Ilk merkantilizm yoki monitarizim (ya'ni pul degani) XV–XVI asrlarda (qisman XVII asda) mavjud bo'ldi va boylik asosan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho javohirlardan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari surdi. Shunga oid siyosat ham olib borilgan, unda chetdan imkonи boricha ko'proq nodir metallar keltirish va ularni chetga kamroq chiqarish targ'ib qilingan.

2.Revojlangan merkantilizim ta'limotida boylik savdo-sotiқ sohasida savdo balansi asosida yuzaga kelgan, imkonи boricha ko'proq eksport qilish va mumkin qadar kamroq import qilish g'oyasi ilgari surilgan.

Merkantilizmning ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi milliy xususiyat kasb etgan, ayniqsa Fransiyada *kolbitrtizm*, Germaniyada *kameralistika* shakllari yaxshi ma'lum.

Bu ta'limot yangi tug'ilayotgan jamiyat – kapitalizim rivoji uchun ijobiy progressiv xarakteriga ega bo'ldi Kapitalning dastlabki jamg'arilishiga imkon yaratdi, mustamlakachilik tizimini qo'llab-quvvatladi, Tovar-pul muomilasi rivojiga olib keldi, moliya tizimining rivoji tufayli iqtisodiyot jonlandi. Merkantilizm ta'limotida davlat iqtisodiyotga faol ishtirok etishi shart, shunga oid iqtisodiy siyosat ham yuzaga qildi.

Merkantilizm tarixan cheklangan bo'lsa ham (u XVIII asrda to'g'ri va qattiq tanqidga uchradi), ta'limotlar tarixidan munosib o'rinni egallaydi. Lekin bu talimot va unga asoslangan seyosatini to'la amalgaloshirish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi Jon Lo tajribasidan ma'lum. Merkantilizm moliya tizimi va savdo rivojiga muhim hissa qo'shdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Merkantilizm ta'limotining mazmuni va uning bosqichlari, umumiylig va farqlari nimadan iborat?
2. Bu ta'limot vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari nimada ko'rindi?
3. Merkantilizm bo'yicha boylikning asosi nima?

4. Bu ta'limotning ayrim mamlakatlardagi milliy ko'rinishlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aytib bering.
5. Mamlakatda qimmatbaho metallar miqdorini ko'paytirish uchun qanday choralar ko'rilsin?
6. «Aktiv savdo», «savdo saldosi» iboralari nimani anglatadi?
7. Merkantilizm ta'limotining taniqli namoyandalari kimlar?
8. «Kapitalning dastlabki jamg'arilishi» nimani anglatadi, uning asosiy manbalari nima? Sanab bering.
9. Jon Lo tizimining mohiyati, ahamiyati, inqirozining sabablari.
10. Merkantilizm ta'limotining tarixiy ahamiyati va taqdiri.

7-bob. ANGLIYA VA FRANSIYADA KLASSIK (MUMTOZ) MAKTABNING SHAKLLANISHI

7.1. KLASSIK IQTISODIY MAKTAB PAYDO BO‘LISHINING TARIXIY SHART-SHAROITLARI VA UNING TAVSIFI

Merkantilizmning yemirilishi va klassik siyosiy iqtisod maktabining paydo bo‘lishi (Angliyada) XVII asrga to‘g‘ri keladi¹⁰³. XVI asrning o‘rtalarida boshlangan manufakturning davri XVII asrga kelib sanoatning ayrim tarmoqlarining rivojlanishiga olib keldi. Ayni paytda, qishloq xo‘jaligida ham kapitalizm rivojlana boshladi. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti dunyoda eng rivojlangan mamlakatga aylandi. XVIII asrga kelib bu yerda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari faqat savdoda emas, balki sanoat va qishloq xo‘jaligida ham g‘alaba qozondi. Bu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga yo‘l ochib berdi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga imkoniyat, tadbirkorlar tashabbusiga erkinlik berishga harakat qilgan kapitalistik tuzumning afzalliklarini nazariy jihatdan asoslab beradigan iqtisodiy ta’limotlar endi taqozo etila boshladi.

Demak, bu davrga kelib iqtisodiy ta’limotlarni rivojlantirish uchun, ya’ni iqtisodiyotni obyektiv tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratildi. Mana shu sharoitda yashab ijod qilgan U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, F.Kene va klassik siyosiy iqtisod maktabining boshqa vakillari iqtisodiyotni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiqot qildilar. Haqiqatan ham, mazkur davr yangi klassik siyosiy iqtisod maktabining boshlanganini bildiradi. Uning klassik deb atalishining asosiy sababi, eng avvalo, uning ko‘plab nazariy va metodologik qoidalari chinakam ilmiy bo‘lib, ular zamonaviy iqtisodiy nazariya asosini tashkil etishidir. Aynan klassik siyosiy iqtisod vakillari tufayli iqtisodiy nazariya ilmiy fan maqomiga ega bo‘ldi. Angliyada klassik siyosiy iqtisod maktabining dastlabki vakili U.Petti bo‘lsa, Fransiyada – P.Buagilber, F.Kene, A.Tyurgo hisoblanadi. Keyinchalik, bu maktab ta’limoti A.Smit, D.Rikardo J.B.Sey, T.Maltus tomonidan

¹⁰³ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иктисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017, 86–89-б.

rivojlantirildi va J.S. Mill, K.Marks tomonidan yakunlandi. Ularni biz keyingi boblarda ko‘rib chiqamiz.

Iqtisodiyotning klassik davri yuz yildan ziyodroq vaqt mobaynida ilgari surilgan iqtisodiy g‘oyalarni qamrab oladi, bu asosan britaniyalik yirik hissadorlar va ularning faoliyat yo‘nalishiga to‘g‘ri kelgan. Klassik maktabning uch yirik traktatlari: Adam Smit tomonidan yozilgan “Xalqlar boyligining tabiat” asari, David Rikardo muallifligidagi “Soliq va siyosiy iqtisodiyotning asosiy qonun-qoidalari” asari, hamda “Siyosiy qonun-qoidalari (tamoyillari)” nomli asarlaridir. Shuningdek, Rikardoning kitobi chop etilgandan so‘ng qisqa fursatlarda bir qator neoklassik nazariyaning kichik ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Jon Styuart Mill klassik davrning oxirini izohlashga urindi, biroq u klassik qoidalarning ba’zilarini yoqlamagan. Smit, Rikardo va J.S.Millar tomonidan ilgari surilgan 1776-yildan XIX asrning so‘nggiga qadar iqtisodiy nazariyalar boshqarib turilgan: Smit 1776-yildan deyarli 1820-yilgacha, Rikardo 1820-yildan deyarli 1850-yillargacha, J.S.Mil esa 1850-yillardan 1890-yillarga qadar.

Demak, klassik (mumtoz) maktabni quyidagi to‘rt bosqichini ko‘rib o‘tamiz¹⁰⁴:

Birinchi bosqich ikki pog‘onaga ajratish mumkin. Birinchi pog‘onada (XVII asr oxiri, XVIII asr boshlari) erkin tadbirkorlikni yoqlovchi va proteksionizmga keskin qarshi chiqqan angliyalik iqtisodchi U.Petti va fransiyalik P.Buagilbergni kiritish mumkin. Ular tomonidan xo‘jalik yuritish tamoyillarida liberallik va boylikni asosiy omili pul emas, balki ishlab chiqarishda yaratilgan tovarlar bo‘lishi ta’kidlanilgan. Bu g‘oya har qanday mahsulotning yaratilishida qiymatning mehnat nazariyasi yondashuvini paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi.

Ikkinci pog‘ona (XVIII asr o‘rtalari) fiziokratlar bo‘lgan F.Kene va A.Tyurgo nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular mikro va makroiqtisodiy tahlillari bilan iqtisodiyot faniga hissa qo‘shdilar. Lekin, ularning qarashlari faqat qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarishni o‘rganish bilan chegaralanib qoldi.

Ikkinci bosqich (XVIII asrning uchinchi choragi) to‘liqligicha angliyalik olim Adam Smit bilan bog‘liq. U 1777-yili o‘zining “Xalqlar boyligining tabiat” va sabablari to‘g‘risida”gi mashhur asarini

¹⁰⁴ Г.М.Гукасъян, Г.В.Нинциева. История экономической мысли. – СПб.: Питер, 2008. 34-35 стр.

bosmadan chiqargan. Bu asarning asosiy g‘oyasi bo‘lgan qiymatning mehnat nazariyasini isbotlash bilan bog‘liq bo‘lib, boylikning har qanday manbayi qishloq xo‘jaligida ham, ishlab chiqarishda ham emas, balki mehnatda ekanligini isbotlashda bo‘ldi.

Uning ta’sirida Edinburg universitetida “Siyosiy iqtisod” fani kiritildi. A.Smitning g‘oyalari uch asosga ega:

Birinchisi, “iqtisodiy odam”. Uningcha iqtisodiy odam sanoat-bozor munosabatlarining yurgizuvchi kuchidir.

Ikkinchisi, “ko‘rinmas qo‘l” davlatning kam nazorati va bozorning o‘z o‘zini tartibga soluvchi kuchidir. “Ko‘rinmas qo‘l” bu iqtisodiy qonunlarning obyekтив harakatidir deb tushuntiriladi.

Uchinchisi, boylik bu iqtisodiy munosabatlar obyekti va maqsadli funksiyasidir.

Uchinchi bosqich (XIX asr birinchi yarmi) D.Rikardo, T.Maltus, N.Senor, J.B.Sey va F.Bastnalar bilan bog‘liq davr. Ular ichida David Rikardonning qarashlari alohida o‘rin egallaydi, chunki uni ishlari erkin raqobatlashgan bozor sharoitida qiymat shakllanishi tahlili va renta nazariyasini isbotlash asosiy o‘rinni egalladi.

To‘rtinchi bosqich (XIX asr ikkinchi yarmi) Dj.S.Mill va Karl Marks ishlari bilan bog‘liq. Djon Styurd Mill Kembridj universitetida klassiklarning “Siyosiy iqtisod” fanini oxirgi o‘qigan olim. Keyinchalik u Marshall tomonidan “Ekonomiks” faniga o‘zgartirildi. Iqtisodiy mакtabning oxiri esa Karl Marks g‘oyalari bilan tugallandi. U qo‘sishimcha qiymat, iste’mol va ayirboshlash qiymati shakllanishini, yollanma mehnat mohiyati, foiz, ish haqi, foyda nazariyalarini rivojlantirdi.

Shu o‘rinda merkantistik va klassik (mumtoz) mакtab vakillarining g‘oyalari farqlanishini ko‘rib o‘tamiz¹⁰⁵:

¹⁰⁵ Гукасъян Г.М., Нинциева Г.В. История экономической мысли. – СПб.: Питер, 2008. С.33.

2-jadval

Merkantilizm va klassik siyosiy maktab farqlanishi

Nazariy xususiyatlari	
Merkantilizm	Klassik (mumto) siyosiy maktab
Siyosiy iqtisodning asosiy tamoyili	
Proteksionizm	Iqtisodiy liberalizm yoki laissyer faire
Iqtisodiy tahlil predmeti	
Ishlab chiqarishdan ajralgan holatda ayirboshlash sohasini o‘rganish	Ayirboshlash sohasidan ishlab chiqarishni ajratish orqali o‘rganish
Iqtisodiy tahlil usuli	
Iqtisodiy jarayonlarga tashqi omillarning ta’sirini ko‘rib o‘tish. Barcha iqtisodiy sohalarning tizimli o‘rganish yo‘qligi	Tahlilning sababli, deduktik, induktiv usullari, shuningdek, mantiqiy abstraksiya usulini qo‘llash. Ayirboshlashning ishlab chiqarishga qaytar ta’siri o‘rganilgan
Iqtisodiy o‘sish konsepsiysi	
Faol savdo balansi (tashqi savdoda) orqali pul boyligini ko‘paytirish	Tovar ishlab chiqarishda mehnat sarfi tufayli milliy boylikni ko‘paytirish
Makroiqtisodiy muvozanatlilikka erishish tamoyili	
Davlatnin tartiblovchi vazifasi orqali	Bozor qonuni asosida talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat erkin amalga oshadi
Pul mohiyati	
Pul – bu insonlar ixtirosi, milliy boylikni o‘stirish omildir	Pul – bu tovarlar olamidan ajralib chiqqan ayirboshlash tovari; pul-ayirboshlashni osonlashtiruvchi vosita.

7.2. U.PETTINING IQTISODIY TA'LIMOTI

Uilyam Petti (1623–1687) – Angliya klassik siyosiy iqtisodining asoschisidir¹⁰⁶. K.Marks so‘zi bilan aytganda,



Uilyam Petti (1623–1687)

U.Petti: «*Siyosiy iqtisodning otasi... buyuk tadqiqotchi – iqtisodchi*». U.Petti har tomonlama yuksak bilimli odam bo‘lgan. U Angliyaning janubidagi Romsi shahrida hunarmand-matochi oilasida tug‘ildi. O‘n to‘rt yoshida ota kasbini egallashdan voz kechgan U.Petti uydan chiqib ketadi va kemada yollanma dengizchi (yunga) bo‘lib xizmat qiladi. Oradan bir yil o‘tgach, taqdir taqozosi

bilan oyog‘i lat egan U.Petti Fransiya hududidagi bir qirg‘oqda qoldirib ketiladi. Bu notanish chet o‘lkalarda lotin tilini bilganligi tufayli u Kan kollejiga qabul qilindi va tinglovchi sifatida moddiy jihatdan ta’minlandi. Kollej unga frantsuz va grek tillarini, matematika, astronomiyani o‘rganishga imkoniyat yaratib berdi. 1640-yili kollejni bitirib, U.Petti Londonga qaytib keldi. Keyinchalik, Oksford universitetida tibbiyot sohasida tahsil oldi.

1650-yili 27 yoshida U.Petti fizika bo‘yicha doktorlik darajasini oldi, Angliya kollejlarining birida professor bo‘lib ishladi.

U.Petti iqtisodiy muammolarga bag‘ishlangan «Soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida traktat» (1662), «Donishmandlarga so‘z» (1665), «Irlandiyaning siyosiy anatomiysi» (1672), «Siyosiy arifmetika» (1683) va boshqa asarlarni yozdi. U.Petti dastlab o‘z asarlarida merkantilistlarning ijobiy savdo balansi g‘oyasini va sanoatni rag‘batlantirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga faol aralash-vini qo‘llab-quvvatladi. Ammo U.Petti asta-sekin tadqiqot obyektini o‘zgartirdi va asosiy e’tiborni savdo muammosidan ishlab chiqarish muammosiga qaratdi. Uning qayd qilishicha, boylik ishlab chiqarishda yaratiladi, muomala sohasida esa u faqat taqsimlanadi.

Boylit va pul nazariyalari. Merkantilistlardan farqli ravishda, U.Petti fikri bo‘yicha, nafaqat qimmatli metall va toshlar hamda pul boylik hisoblanadi, balki mamlakatning yeri, uylar, kemalar, tovarlar va

¹⁰⁶ Рассоқов А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.:“IQTISOD-MOLIYA”, 2007.73–82.

hatto uy jihozlari ham boylikni tashkil etadi. Bu masala bo‘yicha o‘z fikrini rivojlantirib, bizning davrda keng tarqalgan «*Mehnat – boylikning otasi, yer esa uning onasi*» degan iborani ishlatdi.

Mamlakat boyligini ko‘paytirish uchun U.Petti qamoq jazosi o‘rniga pul jarimasini joriy etish zarurligini, pul to‘lashga «qurbi yetmagan o‘g‘rilarni» esa «qullikka» mahkum etishni, ishslashga majbur qilishni tavsiya etadi. Bu merkantilistlarga qarama-qarshi tarzda, *boylik, eng avvalo, mehnat bilan yaratilishini* bildiradi, ya’ni xo‘jalik hayotidagi pulning «asosiy» vazifasini inkor etadi.

U.Petti bu fikrni rivojlantirib, chetga pul chiqarishni taqiqlash bemani narsa ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Davlatning bunday hatti-harakati, uning fikri bo‘yicha, mamlakatga chetdan tovar keltirishni man etish bilan bir narsadir. U.Petti bu fikrlari bilan o‘zini pulning miqdoriy nazariyasi tarafdori ekanligini ko‘rsatdi va muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori to‘g‘risidagi qonuniyatni tushunganligini namoyish etdi. Ammo uning iqtisodiyotdagi pulning vazifasini yuzaki tushunganligi aniq ko‘rinadi. Bir tomondan, pulning miqdoriy nazariyasi, haqiqatan ham, «pul o‘z-o‘zidan boylik mazmunini anglatmasligini» ko‘rsatdi, ikkinchi tomondan esa – U.Petti va undan keyingi boshqa klassik iqtisodiy nazariya mualliflari, M.Blaug so‘zi bilan aytganda, u (pulning miqdoriy nazariyasi) asosiy e’tiborni pulning muomala vositasi sifatidagi vazifasiga qaratgan holda, tovar va pul bozorlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni keltirib chiqaruvchi pulning qimmatni saqlash vositasi sifatidagi funksiyasini inkor etdi.

Shuning uchun merkantilizmga nisbatan to‘g‘ri tanqidlari bilan birga, U.Pettining bu borada noto‘g‘ri tushunchalari ham bo‘lgan. Masalan, *u savdo va savdo kapitalining milliy boylik yaratishdagi ishtirokini inkor etdi* va hatto savdogarlar sonini ancha kamaytirishni qattiq turib ma’qulladi. U.Petti savdogarlarni davlatning «qonini» taqsimlash bilan shug‘ullanuvchi «o‘yinchilar»ga o‘xshatadi. U «qon» deganda qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlarni nazarda tutadi.

Qiymat nazariyasi. U.Pettining merkantilistlar g‘oyasiga bo‘lgan salbiy yondashuvi nafaqat boylikning mohiyatini va uni ko‘paytirish yo‘llarini tahlil qilishda, balki tovarlar qiymatining yaratilish tabiatini va bozorda ularning qimmati darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu boradagi uning tadqiqotlari keyinchalik uni *qiymatning mehnat nazariyasining birinchi muallifi*

deb tan olinishiga sabab bo‘ldi. Umuman olganda, qiymatning mehnat nazariyasi klassik iqtisodiy maktabning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

U.Petti nazariyalarining birida aytishicha, *tovar qiymati kumush qazib oluvchi mehnat bilan yaratiladi* va uning «tabiiy bahosi» hisoblanadi; kumush qiymatiga tenglashtirilgan tovarlar qiymati esa ularning «haqiqiy bozor bahosi» hisoblanadi. Ikkinchi bir joyda qayd qilinishicha, *tovar qiymati mehnat va yer ishtirokida yaratiladi*. Ya’ni U.Pettining o‘zi aytganidek, «Kemaning yoki kamzul (syurtuk)ning qiymati qandaydir yer miqdori va qandaydir mehnat miqdori qiymatiga teng, chunki har ikkalasi – kema ham, kamzul ham – yer va inson mehnati bilan yaratiladi». Bundan ko‘rinib turibdiki, U.Pettida tovar bahosi asosida *sarfli mexanizm yotadi*.

Daromadlar nazariyasi. Ishchilarning daromadlari, pul kapitali va yer egalarining daromadlari to‘g‘risida U.Petti aytib o‘tgan qoidalar keyinchalik klassik iqtisod maktabi vakillarining nazariy izlanishlari uchun asos bo‘lib xizmat qildi. U.Petti ishchining daromadi sifatidagi *ish haqini mehnatning bahosi* deb hisobladi va uning darajasini ishchining yashashi uchun zarur bo‘lgan vositalar minimumi bilan ifodaladi. U.Petti, har bir ishchi «*yashash, mehnat qilish va ko‘payishi uchun*» kerakli narsani olsa bas, degan xulosaga keldi. Buni u nazariy jihatdan isbotlab bermoqchi bo‘ldi: agar ishchiga ko‘rsatilgan minimumdan ikki baravar ko‘p haq to‘lansa, u chog‘da ishchi ikki marta kamroq ishlaydi. Bu esa jamiyat uchun shuncha miqdordagi mehnat boy berilganini bildiradi. U.Pettining ish haqi to‘g‘risidagi mazkur qoidasi «klassik maktabning» ko‘pchilik vakillari nazariy tadqiqotlarining asosini tashkil etdi. Masalan, U.Pettidan keyin, D.Rikardo va T.Maltus *ish haqini ishchi mehnatinning bahosi sifatida tavsiflab*, uni ishchining va uning oilasining yashashi uchun zarur bo‘lgan vositalar minimumi bilan bog‘lab tushuntirganlar.

Tadbirkorlar va yer egalari daromadlari U.Petti o‘zi umumlashtirgan tushuncha – “renta” sifatida tavsiflanadi. U, masalan, dehqonchilikda yaratilgan mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar o‘rtasidagi farqni renta deb atagan (ya’ni tuproq unumdorligiga bog‘liq bo‘lgan renta). Ikkinchi bir misolda, ssuda foizining kelib chiqish mohiyatini ko‘rib chiqqach, U.Petti soddalashtirib, bu ko‘rsatkich “ssudaga beriladigan pulga sotib olinishi

mumkin bo‘lgan muayyan yer maydonidan olinadigan rentaga teng”, deb atadi.

Yana bir joyda yer uchastkasining bozorga uzoq-yaqin joylashishidan kelib chiqadigan renta shakli ko‘rsatib beriladi. Aholi yashash joylariga yaqin joylashgan yer uchastkalaridan nafaqat yuqori renta olinadi, balki yillik renta summasi ham boshqa xuddi shunday unumdar, lekin aholi turar joylaridan ancha uzoq bo‘lgan yerkunda nisbatan ko‘p bo‘ladi.

Shu bilan U.Petti yer bahosini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammoni yechib berishga uringan. Lekin bu yerda ham olim mazkur muammoni hal etishda yuzaki yondashdi. Uningcha, yerning bahosi bir yillik muayyan miqdordagi rentaga teng bo‘lishi kerak. Ammo u bu miqdorni ilmiy jihatdan aniqlab bera olmadi, ya’ni yerning bahosini keltirib chiqarish uchun bir yillik rentani ko‘paytirish mumkin bo‘lgan sonni topa olmadi.

Shu bilan birga, uning yer bahosini aniqlashdan kelib chiqadigan ssuda kapitali bilan yerdan olinadigan yillik renta o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik g‘oyasi iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida ijobjiy rol o‘ynadi. Buni keyinchalik K.Marks qayd qilib o‘tadi. Ma’lum ma’noda xuddi shunday fikr Y.Shumpetrning iqtisodiy qarashlarida ham uchraydi. Uningcha, birorta kapitalist yer uchastkasini ushbu uchastkadan olinishi mumkin bo‘lgan rentaga teng foiz keltirishi mumkin bo‘lgan pul summasidan yuqori ham, past ham baholashi mumkin emas. Bironta yer egasi o‘z uchastkasini undan olinadigan rentaga teng foiz keltiruvchi pul summasidan kamiga sotmaydi. Ammo u o‘scha summadan ko‘pini ham ololmaydi, negaki bunday summani to‘lashga rozi bo‘lgan kapitalistga birdaniga juda ko‘p yer uchastkalari taklif qilinadi.

Petti ijtimoiy voqealarni o‘lchashda statistik usullarni qo‘llashni ochiqchasiga ma’qullagan birinchi olim bo‘lgan bo‘lsa kerak. U aholi sonini, milliy daromadni, eksportni, importni va xalqning asosiy jamg‘arilgan kapitalini o‘lchashga harakat qilgan. O‘z tahlili va siyosiy xulosalarida u oddiy merkantilist bo‘lib ko‘rinsa ham, keyinchalik xulosalari muhim ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiy nazariyaning va ijtimoiy fanlarning shakllanishida muhim rol oynadi. Uning statistikadan dastlabki foydalanishlari xom bo‘lishiga qaramay, uning metodologik yondashuvi o‘z davrining empirik induksiyasidan tortib

hozirgi kundagi iqtisodiy jurnallarda ishlataladigan zamonaviy ekonometrik yondashuvlar bilan bir xil ahamiyatga ega bo‘ldi¹⁰⁷.

7.3. P.BUAGILBERNING IQTISODIY TA’LIMOTI

Agar Angliyada klassik iqtisodiy g‘oyalarning boshlanishi U.Petti nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, bu g‘oyalar Angliyada Rikardo bilan intihosiga yetgan, Fransiyada esa P.Buagilberg bilan boshlanib Sismondi bilan yakunlandi.

Fransiyadagi ijtimoiy iqtisodiy muhit Angliyanikidan keskin farq qilar edi. Fransiyada feodal munosabatlar hali ham kuchli bo‘lib, qirollar va uning atrofdagilar tomonidan qattiq himoya qilingan. Kolber tomonidan olib borilgan siyosat mamlakat iqtisodiyotining umumiyligi rivojiga olib kelmadи. U sanoatni, moliyani taraqqiy ettirish tarafdoi edi, ammo bu ish qishloq xo‘jaligining ziyoniga o‘tqazildi, feodal munosabatlar to‘la saqlab turildi, vaholanki, Fransiyada inqilob XVIII asr oxirida ro‘y berdi, bu esa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga to‘siq bo‘ldi.

Shu sababli bu sohada islohotlar o‘tkazish zarur bo‘lgan, ammo unga shu davrdagi tizim xalaqit berardi. Ichki bozor tor bo‘lib, kapitalistik tadbirkorlikning o‘sishiga yo‘l bermasdi. Bu sinf asosiy soliq to‘lovchi sinf edi, dvoryanlar va dindorlar umuman soliq to‘lamagan, soliqlardan ustalik bilan bosh tortar edi.

Yana bir muhim to‘siq – bu urushlar edi. Fransiya olib borgan urushlar tufayli mablag‘larning asosiy qismi shu urushlarga sarflanardi. Qirol saroydagi bazmi jamshidlar ham davlat xazinasiga katta ziyon yetkazardi. Demak, Fransiyaning XVII asrning ikkinchi yarmida feodal munosabatlar o‘zining cho‘qqisiga chiqqan edi. Fransiyada yuqori tabaqa barcha yerning egasiga aylandi, dehqonlar shaxsan ozod bo‘lsalar ham, feodal majburiyatlar nihoyatda ko‘p edi. Xo‘jalikdagi kapitalistik uklad nihoyatda sekin rivojlandi, ichki bozor xiyla tor edi, xalq xo‘jaligida natural xo‘jalik asosiy bo‘lib, sanoat rivoji past bo‘lgan.

¹⁰⁷ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 67-68 b.

Ana shunday sharoitda klassik siyosiy iqtisodiyotga Pyer Buagilber kirib kelgan. Demak, Fransiya klassik iqtisodiy mактабининг асосчиси **Pyer Buagilber (1646–1714)** hisobланади¹⁰⁸. U Angliya klassik iqtisodiy maktabining асосчиси U.Petti каби professional iqtisodchi-olim bo‘lgan emas. P.Buagilber xuddi otasiga o‘xshab huquqshunoslikdan ta’lim oldi. 31 yoshida Normandiyada sudyalik lavozimini egalladi. U bu lavozimda 25 yil mobaynida, ya’ni deyarli umrining oxirigacha ishladi, faqat o‘limidan ikki oy oldin bu lavozimni katta o‘g‘liga topshirib ketdi.

Sinchkov aql, jamiyatdagi yuqori ijtimoiy mavqe P.Buagilberda mamlakatning iqtisodiy muammolarini bilishga, XVII asrning oxiri XVIII asrning boshidagi Fransiya viloyatlaridagi aholi turmush darajasining pastligi sabablarini aniqlashga bo‘lgan qiziqish uyg‘otdi. U o‘zining birinchi islohotlar to‘g‘risidagi mulohazalarini (merkantilistlarga qarshi) 50 yoshida yozgan «**Fransiya holatining mufassal tavsifi, uning farovonligining pasayishi sabablari va qayta tiklanishining oddiy usullari...**» asarida e’lon qildi. P.Buagilber bu asarida *merkantilizm iqtisodiy siyosatini qattiq tanqid qildi*. Bu siyosatning boshida o‘sha davrdagi Lyudovik XIV qirolligida moliya vaziri lavozimini egallab turgan Jan Batist Kolber turar edi. U Fransiya tovarlari eksportini rag‘batlantirishni, Fransiyaga keladigan import tovarlarni esa cheklashni, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga yuqori soliq belgilashni qonunlashtirgan. Bu sanoat ishlab chiqarishga hamda bir butun milliy iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.



Pyer Buagilber (1646–1714)

Iqtisodiyotdagi salbiy holatlarni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash P.Buagilberning keyingi, XVIII asrning boshida chop etilgan asarlarining ham asosiy vazifasi hisobланади. Ularda P.Buagilber merkantilizmni tanqid qilishni davom ettirdi, islohotlar zarurligini asoslab berdi, iqtisodiy o‘sishni va davlat boyligining asosi deb bilgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish muammolariga alohida e’tibor qaratdi. Bunday qarash Fransiya iqtisodiy qarashlarida

¹⁰⁸ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017, 94–96-б.

XVIII asrning yarmigacha saqlanib qoldi. Chunki o'sha davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hal qiluvchi mavqeini targ'ibot qiluvchi fiziokratizm ancha kuchaygan edi.

1707-yili P.Buagilberning «**Fransiyani qoralash**» asari chop etildi. Unda Fransianing kambag'allik holati ko'rsatildi, merkantilistik siyosat qoralandi. Iqtisodiy islohotlar o'tkazish to'g'risida yangi g'oyalalar ilgari surildi. Biroq ular o'zi ishongan va umid qilgan hukumat vazirlari tomonidan ham e'tiborga olinmadi, qo'llab-quvvatlanmadni.

Iqtisodiy fikrlarning rivojlanishida va Fransiyada bozor munosabatlarining shakllanishida P.Buagilberning hissasi katta bo'ldi. Aynan uning asarlari merkantilistik g'oyalarning batamom obro'sizlanishi va Fransuz klassik iqtisodiy maktabining shakllanishi uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi. U Pettidan qat'i nazar, mamlakatning boyligi pul miqdoridan iborat emas, balki barcha foydali narsa va ne'matlardan tashkil topadi degan konsepsiyanı ilgari surdi.

Nazariy qoidalarning o'ziga xosligi. P.Buagilberning muhim yutug'i, U.Pettiga o'xshab, *qiymatning mehnat nazariyasini* «asoslab» berish hisoblanadi. Bunda u bozorda tovarlar o'rtaqidagi almashuv nisbatlari mexanizmini sarflangan mehnat miqdori yoki ish vaqtini hisobga olgan holda tahlil qiladi. Bu konsepsiya nomukammal bo'lishiga qaramasdan (uning asosida sarfli printsip yotadi) o'z davri uchun progressiv hisoblanadi, negaki merkantilistlarning bahoning shakllanishida pulning tabiiy roli to'g'risidagi konsepsiyasidan keskin farq qiladi.

P.Buagilber merkantilizmni ko'p jihatdan to'g'ri tanqid qilish bilan birga, pulning iqtisodiyotdagi ahamiyatini mensimagan holda, *mamlakatning iqtisodiy o'sishida qishloq xo'jaligi ahamiyatini mutlaqlashtirdi*, boylikni ko'paytirishdagi sanoat va savdoning ahamiyatini inkor etdi. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari ichida u pulni bekor qilish mumkin va zarur deb hisoblagan yagona iqtisodchi hisoblanadi, uningcha pul tovarlarning «haqiqiy qiymatlari» bo'yicha ayrboshlanishini buzadi.

Birinchi Fransuz klassigining fikri bo'yicha, iqtisodiyotdagi asosiy soha savdo emas, balki ishlab chiqarish, eng avvalo, qishloq xo'jaligi hisoblanadi. P.Buagilber o'z asarlarida iqtisodiyotning

«tabiiy» qonunlari to‘g‘risida qayd qilib o‘tadi. Davlat yuqori soliqlarni joriy etish yoki proteksionizm siyosatini qo‘llash bilan ularga xalaqit bermasligini tavsiya etadi.

7.4. FIZIOKRATLAR

Adam Smit Fransiyaga sayohat qilganida u fiziokratlar deb atalgan bir guruh Fransuz yozuvchilaridan ta’sirlangan. Ular iqtisodiyot sohalarining bir biriga bog‘liqligini yaxshi tushunishgan va nazorat qilinmagan bozorlar ishlash mexanizmini tahlil qilishgan¹⁰⁹.

Fiziokratlar (lat. – tabiat, hukmronlik) – bu XVIII asrdagi fransuz iqtisodchilari, klassik siyosiy iqtisod vakillaridir. Fiziokratlar maktabi Fransiyada feodalizmdan kapitalizmga o‘tish davrida vujudga keldi¹¹⁰. Bu tasodifiy hol emas edi. O‘scha davrda Fransiyada manufakturna ancha rivojlangan bo‘lsada, ammo mamlakat hali ham agrar holatda edi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashar, milliy boylikning 2/3 qismi shu sohada yuzaga keltirilar edi. Qishloq xo‘jaligi ahvolini yaxshilash tadbirlari fiziokratlar tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. Ular qishloq xo‘jaligini iqtisodiyotning yagona unumli sohasi deb hisobladilar. Ularning fikricha, boylik faqat qishloq xo‘jaligida yaratiladi, sanoat va savdoda esa u qayta ishlanadi va qayta taqsimlanadi, xolos. Shunga ko‘ra fiziokratlar tadqiqotni muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga olib o‘tdilar va bu bilan kapitalistik tizimning keyingi tahlili uchun asos yaratdilar.


1750-yillarga kelib yangi fiziokratlar harakati boshlandi, lekin ularning ta’limoti uzoqqa cho‘zilmadi. Fiziokratizm iqtisodiyotni tushunishda bir necha tahliliy tushunchalarni kiritgan va keyinchalik klassik iqtisodiy maktab vakillari uchun zarur bo‘lgan g‘oyalarning shakllanishida ahamiyatli rol o‘ynadi. Fiziokratlar o‘zlarini fiziokratman deb tan olmagan. Lekin iqtisodchi olimlar fiziokratlarni qishloq xo‘jaligi bo‘yicha o‘xshash taraflarini hisobga olib bir maktab sifatida tavsiflaydilar. Fiziokratlar ayrim muammolar bo‘yicha hayratlanarli tarzda izchil qarashlarni namoyon etganlar. Bularni quyidagi uch holat bilan tasvirlash mumkin. (1) Fiziokratizm faqatgina

¹⁰⁹ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017, 96–108-б.

¹¹⁰ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 91-б.

Fransiyada yuzaga kelgan. (2) Fiziokratlar g‘oyalari nisbatan qisqa, 1750-yildan 1780-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. (3) Fiziokratlarning tanilgan boshlig‘i, Fransua Kene (1694–1774) edi va uning g‘oyalari izdoshlari tomonidan so‘zsiz qabul qilinar edi¹¹¹.

Fransua Kene (1694–1774) fiziokratlar matabining asoschisi hisoblanadi. F.Kene har tomonlama bilimli olim bo‘lib, Versal yaqinida kambag‘al dehqon oilasida dunyoga keldi. U yoshligidan tibbiyotga qiziqdi va bu sohada ta’lim oldi. Keyinchalik tibbiyot amaliyoti unga shuhrat keltirdi. 1752-yilda Qirol Lyudovik XV saroyida tabiblik qildi. Tibbiyot va biologiyaga oid ko‘pgina asarlar yaratdi. F.Kene iqtisodiyot muammolari bilan oltmis yoshidan boshlab bevosita shug‘ullana boshladi.



Fransua Kene (1694–1774)

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, F.Kenening iqtisodiy g‘oyalari qirol saroyida – Versalda yuzaga keldi. U umrining oxirigacha o‘sha yerda yashadi va ijod qildi. F.Kenening «Fermerlar», «Don», «Aholi», «Soliqlar» nomli dastlabki iqtisodiy maqolalari Didro va D.Alamber tomonidan chop etilgan «Qomus» da e’lon qilindi. 1758-yilda uning asosiy asari «Iqtisodiy jadval» dunyoga keldi. F.Kene nafaqat fiziokratizm maktabi asosini yaratdi, balki uning nazariy va siyosiy dasturini ham shakllantirdi. Uning fiziokratik g‘oyalarni keyinchalik A.Tyурго va boshqa bir qator fransuz iqtisodchilari davom ettirdilar va targ‘ibot qildilar. Shunday qilib, haqiqiy fiziokratlar maktabi yoki o‘sha davr tili bilan aytganda «iqtisodchilar maktabi» tarkib topdi. Uning eng rivojlangan davri XVIII asrning 60–70-yillariga to‘g‘ri keladi.

O‘rganish metodi. F.Kenening iqtisodiy tadqiqotining metodologik maslagi (platformasi)ni uning tomonidan ishlab chiqilgan *tabiiy tartib to‘g‘risidagi konsepsiya* tashkil etadi. Uningcha, mazkur konsepsiyaning huquqiy asosi xususiy mulkni, shaxsiy manfaatlarni muhofaza qiluvchi va takror ishlab chiqarishni va moddiy boyliklarni to‘g‘ri taqsimlashni ta‘minlovchi davlatning moddiy va ma’naviy qonunlari hisoblanadi. F.Kenening yozishicha, tabiiy tartibning mohiyati shundaki, *bir odamning shaxsiy manfaati boshqalarining*

¹¹¹ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander74- b.

umumiyl manfaatidan ajralgan bo‘lishi mumkin emas. Bu esa erkinlik hukmronlik qilgan sharoitda bo‘ladi. Ana shunda dunyo o‘z-o‘zidan harakatlanadi. Shu bilan birga, F.Kene ogohlantirib aytishicha, «yuqori hokimiyat» oqsuyaklardan yoki yirik yer egalari vakillaridan tashkil topishi mumkin emas; ular birga qo‘shilib qonunning o‘zidan ancha kuchli hokimiyat tashkil etishi, millatni qul qilishi,adolatsizlikni keltirib chiqarishi, yirtqichlarcha zulm o‘tkazishi va o‘ta ketgan beboshlikni keltirib chiqarishi mumkin. *U, yuqori davlat hokimiyati davlat boshqaruvini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan – tabiiy tartib-qonunlarini yaxshi biladigan, o‘qimishli bir shaxs qo‘lida bo‘lishini maqsadga muvofiq deb hisoblagan.*

Sof mahsulot to‘g‘risidagi ta‘limot. F.Kenening nazariy merosida uning *sof mahsulot* (hozir uni milliy daromad deb atashadi) *to‘g‘risidagi ta‘limoti muhim o‘rin egallaydi.* Uning fikriga ko‘ra, sof mahsulotning manbayi yer va unga sarflangan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida band bo‘lgan kishilarning mehnati hisoblanadi. Demak, boylikning (sof mahsulot) ko‘payishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan «yer in’omidir». Shu bois, davlat sanoatni emas, balki qishloq xo‘jaligini rag‘batlantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi kerak. F.Kene: «*Dehqonlar kambag‘al bo‘lsa, qirollik kambag‘al bo‘ladi, qirollik kambag‘al bo‘lsa qirol kambag‘al bo‘ladi*», deb hukumatni ishontirishga harakat qilgan. Savdo va sanoat boylik yaratmaydi, negaki savdogar va hunarmandlar qishloq xo‘jaligida yaratilgan boylikni faqat bir joydan ikkinchi bir joyga yetkazish va o‘zgartirish bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun savdo va sanoat «*unumsiz*» hisoblanadi. U yerdagi tovarning o‘sgan qiymati faqatgina savdo va sanoat xarajatlarini qoplash vositalarini o‘z ichiga oladi, sof mahsulot esa bunda ko‘paymaydi. Keyinchalik, A.Smit fiziokratlarning sanoatning «*unumsizligi*» to‘g‘risidagi g‘oyasiga qarshi chiqadi va sanoatda ham boylik yaratilishini ko‘rsatib beradi.

F.Kene merkantilistlarning “boylik savdoda yaratiladi” degan tezisini tanqid qildi. Uning tasdiqlashicha, muomalada tovarlarning ayrboshlanishi ekvivalentli bo‘ladi, ya’ni teng qiymatli tovarlar ayrboshlanadi. Demak, ayrboshlashda qiymatning hech qanday o‘sishi sodir bo‘lmaydi. F.Kene pulni foydasi yo‘q boylik hisoblagan, unga faqat savdodagi vositachi sifatida qaragan. Shunga muvofiq,

davlatning boyishi pul kapitalining o'sishga emas, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

Sinflar nazariyasi. F.Kene o'zi ishlab chiqqan unumlilik qoidasiga asoslangan holda jamiyatni uch sinfga ajratib ko'rsatadi: *unumli sinf*, *unumsiz sinf*, *mulkdorlar sinfi*. Unumli sinf bu – qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan barcha kishilar, dehqon va fermerlar kiradi. Ular sof mahsulot yaratadilar. Unumsiz sinf bular hunarmandlar, ishchilar, savdogarlar, xizmatkorlar, to'ralar, ya'ni dehqonchilikdan boshqa sohada ish bilan band bo'lgan kishilar. Ular faqat o'zlarini ta'minlaydilar, o'z iste'moliga qancha mahsulot kerak bo'lsa, shunchalik mahsulot yaratadilar. Ular jamiyat uchun foydali; ammo o'zining ham, jamiyatning ham boyligini ko'paytirmaydi, shu ma'noda unumsizdir. Mulkdorlar sinfi yer egalari, unga qirol va ruhoniylar ham kiradi. Mulkdorlar sinfi sof foydani olishga haqli, negaki ular o'z paytida yerkarni o'zlashtirgan, yerning unumdarligini oshirgan. Mulkdorlar tomonidan olinadigan daromad bu – ularning oldin qilgan xarajatlari uchun in'om. Albatta, jamiyatning sinflarga bunday bo'linishi noto'g'ri. A.Smit fiziokratlarning bu boradagi qarashini kinoyali ravishda shunday deydi: "Agar ularning mantig'iga amal qilsak, unda faqat ikki farzand ko'radigan har qanday nikohni unumsiz deb tan olish kerak bo'ladi".

Kapital nazariyasi. Iqtisodiy fikrlar tarixida kapital to'g'risidagi birinchi chuqur nazariy tushunchani F.Kene ilgari surdi. Merkantilistlar kapitalni pul bilan bir narsa deb hisoblagan bo'lsalar, F.Kene fikriga ko'ra, pul unumsiz boylik bo'lib, u hech narsa ishlab chiqarmaydi. Uning atamasi bo'yicha qishloq xo'jaligi qurollari, qurilishlari, mollari, hayvonlari va dehqonchilikda bir necha ishlab chiqarish sikllarida foydalilaniladigan barcha narsalar «*dastlabki avanslar*» deyiladi (Hozirgi zamon atamasi bo'yicha – asosiy kapital). Bir ishlab chiqarish siklida ishlatiladigan urug'lik, yem-xashak, ishchilarning mehnat haqi va boshqalarni u «*har yilgi avanslar*»ga kiritdi (Hozirgi zamon atamasi bo'yicha – aylanma kapital). Ammo F.Kenening xizmati faqat kapitalni ishlab chiqarishdagi mavqeiga ko'ra asosiy va aylanma kapitallarga bo'lishdangina iborat emas. Bundan tashqari, u *aylanma kapital bilan birga asosiy kapital ham harakatda bo'lishini ishonarli* tarzda isbotlab berdi.

Takror ishlab chiqarish nazariyasi. Iqtisodiy ta’limotlarning rivojlanishida F.Kenening mashhur «Iqtisodiy jadval» asarining o‘rni beqiyos. Bu asarda *ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni birinchi marta makroiqtisodiy darajada tahlil qilindi*. F.Kene jamiyatdagi uchta ijtimoiy guruhlar-sinflar o‘rtasida mahsulot va pulning ayrboshlanish jarayonini ko‘rsatib berdi. Takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilishda baholarning o‘zgarmasligi asos qilib olinadi. (Bunda almashuv ekvivalentlik tamoyili asosida ro‘y bermoqda deb faraz qilinadi.) Bu jarayon tashqi bozor ta’sirisiz, ya’ni faqat ichki bozor sharoitida yuz bermoqda deb qaraladi.

«*Jadvaldagi*» takror ishlab chiqarishning boshlang‘ich nuqtasi yaratilgan bir yillik mahsulot hisoblanadi. F.Kene statistik hisob-kitoblarga asoslangan holda, Fransiya dehqonchiligidagi yalpi mahsulot qiymatini 5 mlrd. livrga (livr – o‘sha paytdagi Fransiya pul birligi) baholadi (oziq-ovqat 4 mlrd. livrni, xomashyo 1 mlrd. livrni tashkil etadi). Bu mahsulotdan tashqari fermerlar o‘tgan yilgi hosilni sotishdan olgan 2 mlrd. livrga ega. Bu pulni ular mulkdorlarga ijara haqi sifatida yer uchun to‘laydilar. Unumsiz yoki «hosilsiz» sinf 2 mlrd. livrlik sanoat mahsulotiga ega. Jami ijtimoiy mahsulot, F.Kene hisobi bo‘yicha, 7 mlrd. livrni tashkil etadi. Mulkdorlar (yer egalar) hosilni yig‘ishtirib olgandan keyin fermerlardan 2 mlrd. livr ijara haqi olganlar.

Bu yerda barcha yaratilgan mahsulot realizatsiyasi va aylanish jarayoni qanday amalga oshadi? «*Iqtisodiy jadval*»ning shartlariga ko‘ra bu jarayon besh aktdan iborat bo‘lib, uning har birida 1 mlrd. livrga teng mahsulot realizatsiyasi amalga oshiriladi.

1. Mulkdorlar «unumli sinf» dan 1 mlrd. livrlik oziq-ovqat mahsulotlarini sotib oladilar. Buning natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 1/5 qismi realizatsiya qilinadi. Mahsulotning bu qismi muomala sohasidan iste’mol sohasiga (yer egalariga) o‘tadi.

2. Mulkdorlar «unumsiz sinf»dan 1 mlrd. livrlik sanoat mahsulotlarni sotib oladilar. «Unumsiz sinf» shu bilan o‘z mahsulotining yarmini realizatsiya qiladi.

3. «Unumsiz sinf» mulkdorlardan olgan puliga «unumli sinf»dan iste’mol buyumlarni sotib oladi. Shu bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotining yana 1/5 qismi realizatsiya qilinadi.

4. «Unumli sinf» «unumsiz sinfdan» olgan 1 mlrd. livrga uning

o‘zidan («unumsiz sinf»dan) shuncha pulga ishlab chiqarish qurollarni oladi (ular asosiy kapitalning yeyilgan, ishdan chiqqan qismini qayta tiklashga ishlataladi). Buning natijasida sanoat mahsulotlarining ikkinchi yarmi realizatsiya qilinadi.

5. Aylanish jarayonining beshinchi, yakunlovchi aktida «unumsiz sinf» «unumli sinf»dan 1 mld. livrlik qishloq xo‘jaligi xom ashyosini xarid qiladi.

U.Pettining arifmetik formula asosida ishlab chiqqan “Iqtisodiy jadval”ⁱ¹¹²

3-jadval

U.Petti “Iqtisodiy jadvali”			
Unumli sinfning yillik avanslari	Yer egalari, davlat va mulkdorlarning daromadi	Unumsiz sinfning avanslari	
	<u>2 mld</u>	<u>2 mld</u>	<u>1 mld</u>
Birlamchi to‘lovlar:daromad va foizlarni amalga oshirish uchun pul hajmi	1 mld 1 mld 1 mld		1 mld
Yillik avanslarning xarajatlari	2 mld		1 mld
Jami:	5 mld		2 mld

Oxirida jami ijtimoiy mahsulotning butun aylanish jarayoni natijasida sinflar o‘rtasida 3 mld. livrlik qishloq xo‘jalik mahsulotlari va 2 mld. livrlik sanoat buyumlari realizatsiya qilindi. «Unumli sinf» ixtiyorida qolgan 2 mld. livrlik mahsulot barcha sinflar o‘rtasidagi umumiylaygan aylanishda qatnashmaydi, u faqat o‘z sinfi doirasida aylanadi (jadvalda bunday aylanish berilmagan). Bu mahsulot qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonida sarflangan urug‘lik va oziq-ovqat mahsulotlari o‘rnini qoplaydi. «Unumli sinf» tomonidan sotib olingan sanoat tovarlari asosiy kapitalning eskirgan qismini qoplash uchun


ⁱ¹¹² Гукасъян Г.М., Нинциева Г.В. История экономической мысли. – СПб.: Питер, 2008. С.44.

ishlatiladi. Naqd pul (2 mld.) muomala (aylanish) natijasida «unumli sinf» qo‘liga kelib tushadi, ammo keyingi muddat uchun ijara haqi to‘lash natijasida bu pul yana yer egalari ixtiyoriga o‘tadi. Shunday qilib, yangi ishlab chiqarish siklini boshlash uchun, ya’ni oldingi hajmdagi ishlab chiqarishni, oddiy takror ishlab chiqarishni davom ettirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Karl Marks fikri bo‘yicha “Iqtisodiy jadval – bu klassik iqtisodiy maktabning ilk tahlili, lekin shu davr uchun yuqori darajada ishlangan porloq jadvalidir”¹¹³. «Iqtisodiy jadval»da takror ishlab chiqarishni tahlil qilish asosida olingan muhim ilmiy xulosa shundaki, unda ayrim oldi-sotdi aktlari qarab chiqilmaydi, balki juda ko‘p bunday yakka muomala aktlari sinflar o‘rtasidagi muomalada mujassamlashadi. Ana shu sinflar o‘rtasidagi muomala F.Kene tadqiqotining predmeti hisoblanadi. Ayniqsa, uning muomalani takror ishlab chiqarish jarayonining atigi bir shakli sifatida, pul muomalasini esa kapitalning faqat aylanish momenti sifatida ko‘rsatib berishga qilgan harakati samarali bo‘ldi.

Ammo F.Kenening takror ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ta’limotida bir qator kamchiliklar mavjud. «Iqtisodiy jadval»dagi sinflar tushunchasida izchillik, ilmiylik yetishmaydi. Sanoatchilarni ishlab chiqarish vositalaridan mahrum etgan holda (ular o‘z mahsulotlarining hammasini sotib yuboradi), F.Kene ularni ishlab chiqarish jarayonini qaytdan boshlash imkoniyatidan ham mahrum etadi. Yer egalarining mahsulot realizatsiya qilishda markaziy o‘ringa o‘tib qolishi noto‘g‘ri bo‘lgan. Ammo undagi kamchiliklar mazkur asarning qimmatini tushirmaydi. Unda iqtisodiy fikrlar tarixida birinchi marta milliy iqtisodiyot makroiqtisodiy darajada tahlil qilindi va undagi g‘oyalalar bo‘lajak iqtisodiy modellarning kurtagi bo‘lib qoldi.

F.Kenening g‘oyalari **Ann Rober Jak Tyurgo** (1727–1781.) tomonidan davom ettirildi va rivojlantirildi. A.Tyurgo Parijda



¹¹³ Маркс К. Соч. – 2-е изд.-Т.26, ч.1.1955 – с.345

zodagonlar oilasida tug‘ildi. Oilaviy an'anaga ko‘ra diniy ta’lim olishga majbur bo‘ldi. Lekin Sarbonnaning Teologiya (diniy) fakultetini tugatgach, bu sohada ishlashdan bosh tortdi. 1751-yildan Parij parlamentining mansabdori, 1761–74-yillarda Limojda (Limuzen provinsiya – viloyat markazi) intendant (gubernator) lavozimida ishladi. Bu uzoq viloyatda markaziy hokimiyat vakili sifatida xo‘jalik ishlarini, jumladan, soliq olish tizimini nazorat qilib turdi. Aynan Limojda yashab turgan davrda A.Tyurgo o‘zining «**Boylirkning yaratilishi va taqsimlanishi to‘g‘risida mulohazalar**» (1766) nomli asosiy iqtisodiy asarini, tugallanmasdan qolgan «**Qimmat va pul**» (1769) kitobini va boshqa asarlarni yozdi. Ulardagi fikrlar, umuman fiziokratik qarashlarga hamda bozor iqtisodiy munosabatlari tamoyillariga, eng avvalo, erkin raqobat va erkin savdo tamoyillariga asoslangan.

1774-yili qirol Lyudovik XVI A.Tyurgoni moliya bosh nazoratchisi lavozimiga (molija vaziri lavozimi bilan bir xil) tayinladi. Bu lavozimda ikki yilga yaqin ishlagan A.Tyurgo davlat xarajatlarini kamaytirishga erisha olmagan bo‘lsada, lekin mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama erkinlashtirish uchun imkoniyat yaratib beruvchi bir qator farmon va qonun loyihalarini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Ammo uning har bir islohotga oid yangiliklari parlamentda o‘zining monopol mavqeini saqlab qolishga intilgan amaldorlar tomonidan qattiq qarshilikka duch keldi. Shuning uchun uning islohotlari ko‘p vaqt amal qilmadi. 1776-yili A.Tyurgo iste‘foga chiqqach, ular bekor qilindi.

A.Tyurgo vazir sifatida amalga oshirgan asosiy islohotlar: mamlakat ichkarisida don va uning erkin savdosining tashkil etilishi; qirollikka erkin don olib kelish va undan boj to‘lovlarisiz erkin don olib chiqish; natural yer majburiyatining pulli yer solig‘i (o‘lpon) bilan almashtirilishi; sanoat sohasida tadbirkorlikning rivojlanishiga to‘sinqilik qiluvchi hunarmandchilik sexlari va gildiyalarining (yirik savdogarlar va hunarmandlar birlashmasi) bekor qilinishi va boshqalar hisoblanadi.

Ish haqi nazariyasi. Xuddi fiziokratlarga o‘xshab, A.Tyurgoning tasdiqlashicha, dehqon barcha ishlarda birinchi harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi; u o‘z yerida barcha hunarmandlarning ish haqini yaratadi. Ish haqiga nisbatan ko‘proq ishlab chiqaruvchi yagona mehnat bu –

dehqon mehnatidir. U merkantilistlarni tanqid qilgan holda, millatning boyligi deb, eng avvalo, yerni va undan olinadigan «sof daromadni» hisobladi.

A.Tyurgo ish haqini F.Kene kabi yashash vositalari minimumiga bog'lab tushuntiradi. Ammo A.Tyurgo undan farqli ravishda, *ish haqining yashash vositalari minimumiga kelib taqalish mexanizmini ochib bermoqchi bo'ldi*. Ish haqini ishchining hayoti uchun zarur bo'lган yashash vositalari minimumi darajasiga pasaytiruvchi bunday mexanizm, uning fikricha, mehnatga bo'lган talabning mehnat taklifidan orqada qolib ketishi, ishchilar o'rtasidagi raqobatning rivojlanmaganligi hisoblanadi.

Sinflar nazariyasi. A.Tyurgo F.Kenega o'xshab, jamiyatni *uch sinfga ajratadi*: unumli sinf (qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan band bo'lган kishilar); unumsiz sinf (sanoat va boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lган kishilar); yer egalari sinfi. Lekin birinchi ikkita sinfni «*ishlovchilar yoki ish bilan band sinflar*» deb ataydi. Ularning har biridagi odamlarni ikki toifaga bo'lib ko'rsatadi, ya'ni tadbirkorlar yoki avans beruvchi kapitalistlar va ish haqi oluvchi oddiy ishchilar. Shu bilan birga, olimning tasdiqlashicha, aynan unumsiz sinf «ish haqi oluvchi jamiyat a'zolari»ni o'z ichiga oladi.

Qiymat, pul va foiz nazariyalari. A.Tyurgo qiymat, baho va pulni tahlil qildi. Uning bu sohadagi fikrlari o'ziga xos tavsifga ega va qiymatning mehnat nazariyasidan farq qiladi. A.Tyurgo tovarning narxi sotuvchi va xaridorlar istagining intensivligi bilan aniqlanishi to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi. Bunda kamyoblik tovar narxini “baholashda asosiy unsurlardan biri” hisoblanadi. Keyinchalik bu g'oya zamonaviy baho nazariyasining shakllanishida ijobiy o'rincutadi.

A.Tyurgo iqtisodiyotda proteksionizm siyosatining salbiy tomonini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, «olish va sotishdagi umumiyl erkinlik, bir tomondan, sotuvchiga ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi narxni, ikkinchi tomondan, xaridorga eng yaxshi tovarni eng past bahoda sotib olishni ta'minlashning yagona vositasidir».

A.Tyurgo pulni o'z mohiyatiga ko'ra tovarlar dunyosidagi bir tovar sifatida ta'riflab, ayniqsa, «oltin va kumushni, boshqa har qanday materialga nisbatan moneta (tanga) xizmatini o'tashga yaroqli», deb hisobladi, negaki ular tabiatan moneta bo'lib yaralgan, buning ustiga,

har qanday kelishuv va qonunlardan qat'i nazar hamma uchun umumiylar bo'lib qoladi. Uning fikricha, pul, ya'ni oltin va kumushning bahosi nafaqat barcha boshqa tovarlarga nisbatan o'zgarib turadi, balki bir-biriga bo'lган nisbati, kam yoki ko'pligiga qarab ham o'zgarib turadi. A.Tyurgo qog'oz pullarning miqdori yaratilgan tovar va xizmatlarning miqdoriga mos kelmagan sharoitda bunday pullardan foydalanish noqulayliklari to'g'risidagi qoidani dalillar bilan isbotlab berdi.

A.Tyurgo ssuda (pul) foizini tadqiqot qilar ekan, qarzga olingan pulni ustamasi bilan qaytarishga jinoyat sifatida qaraydigan nasihatgo'ylar bid'atlarini qoraladi. Uning ta'kidlashicha, qarz beruvchi qarz vaqt davomida ushbu qarzga bergan puli uchun olishi mumkin bo'lган daromadni yo'qotadi, qarz oluvchi esa bu pulni samarali ishlatib ancha foyda ko'rishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, qarz beruvchi qarz oluvchiga ozor yetkazayotgani yo'q, aksincha, birinchisining pulidan ikkinchisi foyda ko'rayapti. Ana shu foyda qarz oluvchini foiz to'lash sharti bilan qarz olishga undovchi asosiy kuch hisoblanadi. U foizni foydadan to'laydi. Demak, A.Tyurgoning fikriga ko'ra, bunday «kelishuvdan» qarz beruvchi ham, qarz oluvchi ham manfaatdor. Joriy foizga kelsak, A.Tyurgo bo'yicha, u bozorda kapitalning ko'p yoki kamligini ko'rsatuvchi termometr vazifasini o'taydi, xususan, foizning past bo'lishi bu – kapital ko'pligi natijasidir.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixida fiziokratlar o'ziga xos o'rinni egallaydi. A.Smit o'z vaqtida: «*fiziokratizm tizimi qanchalik nomukammal bo'lmasin, shu davrgacha chop etilgan iqtisodiy g'oyalari ichida haqiqatga eng yaqini edi*», – deb aytgan. Bu ta'limotning merkantilizmni inkor qilishi, mehnat bilan yer boylikning asosi ekanligini tan olishi, savdo-sotiqla bojxona cheklovlarini bekor qilishni taklif etishi nihoyatda muhimdir. Fiziokratlarning boylik tezisi, ayniqsa, uni yaratishdagi mehnatning ahamiyati diqqatga sazovor: boylik – bu jamiyat mehnati bilan har yili yaratilgan iste'mol qiymatlar yig'indisidir. Bu tezis A.Smit tomonidan ham qabul qilingan.

Kapital va uning ikki qismga ajratib ko'rsatilishi (asosiy va aylanma), takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil qilinishi, erkin sohibkorlik to'g'risidagi g'oyalari, jamiyatning sinflarga ajratilishi iqtisodiy ta'limotlarning rivojida keyingi muhim qadamdir.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun erkin bozor munosabatlariga o‘tish va dehqonchilikdan olinadigan soliqni kamaytirish zarurligi, yagona soliq tizimiga o‘tish kerakligi to‘g‘risidagi fikrlar nihoyatda qimmatlidir. Chunki sohibkor va tadbirkorlar shaxsiy manfaatdorlik bo‘lgan sharoitda ishlab chiqarishni tez rivojlantirishga intiladilar. Hozirgi zamon tili bilan aytganda, fiziokratlar sof bozor munosabatlarining unsurlarini asosan to‘g‘ri hal etib berdilar.

Xalq xo‘jaligi tarmoqlari o‘rtasida muayyan mutanosiblik bo‘lgan sharoitda takror ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonining uzluksiz davom etishi mumkinligi aniqlab berildi. Bu muammoni hal etishda fiziokratlar tomonidan mamlakatdagi uch sektor o‘rtasidagi munosabatlar misol qilib olingan. Ammo amalda, ayniqsa, hozirgi davrda, bunday sektorlar juda ko‘p bo‘lib, ular o‘rtasidagi aloqalar Nobel mukofoti sohibi V. Leontevning «xarajatlar – ishlab chiqarish» balansida n ta tarmoq uchun ishlab chiqilgan. Hozirgi davrda bunday balans tarmoqlararo balans deb yuritiladi va makroiqtisodiy tahlilda va umuman iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Undagi g‘oyaning kurtaklari fiziokratlar asarlarida yaratilgan bo‘lib, u klassik iqtisodiy maktab ta’limoti zanjirining ajralmas qismi sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Shu bilan birga, hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlari nuqtai nazaridan fiziokratizm g‘oyalari o‘z ahamiyatini tezda yo‘qotdi va o‘tkinchi xarakterga ega bo‘ldi. Chunki jahon ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar nisbatan mukammal g‘oyalarning ishlab chiqilishi zarurligini taqozo etdi va bu amalda ro‘y berdi. Ayniqsa, boylikni faqat dehqonchilik bilan bog‘lab tushuntiruvchi fiziokratizm g‘oyalari sanoat inqilobi natijasida yuz bergan o‘zgarishlar tufayli tez unutilayozdi. Bu holat iqtisodiyot osmonidagi yorqin yulduzning so‘nishini eslatadi.

Fiziokratlar Kenening iqtisodiy jadvalini o‘zlarining nazariy yutuqlarining gultoji deb hisoblashadi. U iqtisodiyotdagi turli tarmoqlar o‘rtasidagi pul daromadlari tasviri va sof mahsulotning yillik aylanmasi va yaqqol tasvir bergan Kene jadvali iqtisodiyot rivojida yirik metodologik olg‘a siljish sifatida tan olinadi. Fiziokratlar iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy jihatdan o‘rganish bilan chegaralanmay ularning o‘lchami miqdorini aniqlashga harakat qilishgan. Bu iqtisodiy jadval iqtisodiyotning turli

sektorlaridagi o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib bergan. Keyingi merkantilistlarning ba’zilari bu bog‘liqliklarni o‘rganib chiqdi va ularning ta’siridagi umumlashma Adam Smit izlanishlariga asos bo‘ldi va bozor iqtisodiyot tasvirini to‘ldirdi.

Fiziokratcha iqtisodiy siyosat. Fiziokratlarning mikroiqtisodiy nazariyaga qo‘sghan hissasi makroiqtisodiy nazariga qo‘sghan hissasidek ahamiyatli emas. Ularning ta’limotiga ko‘ra insoniyatning iqtisodiy faoliyatga bo‘lgan ishtiyoqi maksimum manfaat olishga qaratilgan bo‘ladi. Bozorda narxlar iqtisodiy faoliyat tufayli shakllantiriladi; bu narxlar shakllanishini o‘rganish mumkin emas, chunki ular insoniyat xohishidan bog‘liq bo‘laman tabiiy qonunlar asosida shakllanadi. Fizioktarlar narxlar shakllanishining yagona nazariyasini yaratishmagan bo‘lishsa ham, ammo erkin raqobat eng muqobil narxni belgilashiga va shaxslar o‘zlarining shaxsiy manfaatlari ketidan quvishi jamiyatga ham foyda keltirishiga ishonishgan. Bundan tashqari sof mahsulotning yagona manbayi qishloq ho‘jaligida ekanligi, soliq yuki ko‘pchiligi yerdan foydalanilganlik uchun olinadigan soliqqa to‘g‘ri keladi deb xulosa qilishgan.

Fiziokratlar inson xohishiga bog‘liq bo‘laman tabiiy tartib mavjudligiga ishonishgani uchun, ular iqtisodiyotni o‘z o‘zini boshqaruvchi tizim deb hisoblaydilar va merkantilistlarning davlat nazorat qilish kerak degan g‘oyalarini rad etadi. Hukumat uchun eng yaxshi siyosat “laissez faire”, ya’ni hech narsaga aralashmaslik siyosatiga amal qilishdir. Bu Adam Smit va undan keyingi iqtisodchilar uchun ham G‘arb sivilizatsiyasi shakllanishida juda katta ahamiyatga egadir. Fiziokratlar ta’kidlashicha, iqtisodiy o‘sishining asosiy to‘sig‘i merkantilistlarning ichki va tashqi savdoni nazorat qiluvchi siyosatidir. Ular, ayniqsa, merkantilistlarning soliq tizimiga qarshi chiqishdi va yerga yagona soliq qo‘llanishini yoqlab chiqdilar. Albatta, ularning ta’limotiga ko‘ra har qanday soliq ohir oqibatda baribir yerga borib tushadi, lekin shu jarayonda iqtisodiyot tizimida ayrim nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi.

Fiziokratlar hukumatning g‘alla bilan bog‘liq qarordan qoniqmadilar, chunki bu qaror Fransiya g‘alla eksportiga qo‘yilgan taqiq edi. Ularning fikricha, bu qaror Fransiyada g‘alla narxini past darajada ushlab turadi va shuning uchun qishloq xo‘jaligi rivojiga to‘siq bo‘ladi. Fiziokratlar manufakturaning rivojlanishini taxmin qila

olishmaganligi sababli, hukumatning qishloq xo‘jaligidagi olib borayotgan siyosati yiriklashib, mamlakatni bamisoli rivojlanishga olib keladi degan xulosaga kelishgan. Qishloq xo‘jaligiga asoslangan Fransiya iqtisodining boyligi va qudrati o‘sishiga ishonishgan. Merkantilistlar sof mahsulot ayirboshlash, xususan ayirboshlashning xalqaro shakllari natijasida yuzaga keladi, shuning uchun siyosat qulay savdo balansini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak deb ta’kidlashgan. Sof mahsulot faqat qishloq xo‘jaligida deb hisoblagan fiziokratlar esa qishloq xo‘jaligi bozorga olib chiqadigan tovar mahsulotlari ko‘payishiga olib keladi va bu pirovardida iqtisodiy o‘sish yuqori bo‘lishiga ishonishgan¹¹⁴.

Tayanch so‘z va iboralar: klassik iqtisodiy maktab, qishloq xo‘jalagi, sanoat, siyosiy iqtisod, fiziokratlar, iqtisodiy jadval, qiymat, foiz, pul.

7-bob BO‘YICHA XULOSALAR

XVIII asrning ikkinchi yarmida bozor munosabatlarining shakllanishi davlatning xo‘jalik aloqalariga aralashuvi mutlaqo kerak emasligini anglatib quydi. Chunki merkantilizmning asosiy g‘oyasi bo‘lgan davlatning faol roli kapitalizm va umuman ishbilarmonlik muhiti uchun begona edi. Bu davrda iqtisodiyotni predmeti bo‘lgan ayirboshlash ishlab chiqarishga o‘z joyini bo‘shatdi. Yetuk iqtisodchilar Fransa Kene, Adam Smit, David Rikardo, D.S.Mill, T.Maltus kabilar iqtisodiyotga tub o‘zgartirish kiritdilar. Bobimizda ularning dastlabki shakllanish pillapoyalari bo‘lgan U.Petti, Pyer Buagilberg, F.Kene, A.Tyurgo g‘oyalari bilan tanishib chiqamiz.

XVII–XVIII asarlarda qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dastlab angliyada klassik iqtisodiy maktab kurtaklari paydo bo‘la boshladi. Bu yangi iqtisodiy g‘oyalari B.Petti nomi bilan bog‘liq (burjua inqilobi, manufakturna va savdoning revojlanganligi, agror islohat, dehqonlarning chegaralanishi, mustamlakachilik siyosati, qulay tarixiy, tabiiy va geografik hamda iqlimiylar sharoitlar).

Klassik iqtisodiy maktabning shakllanishi avvalgi g‘oya merkantilizmdan prinsipial farq qiladi, agarda merkantilizmda boylikning asosi muomala sohasi (javohir, oltin, kumush, pul, savdo

¹¹⁴ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 80 b.

salodosi)da vujudga keladi deb qaralgan bo'lsa endi boylik ishlab chiqarish sohasida vujudga keladi, deb isbotlab beriladi. B.Petti yangi kapitalistik jamiyatini, erkin tadbirkorlikni, kapitalistlarni himoya qildi, xususiy mulkni «muqaddas» va «daxlsiz» deb bildi. U iqtisodiy tadqqiqotda tabiy fanlarni, yangi abstract usullarini qullab har bir masalaning foydalandi.

B.Pitti «tabiiy baho» (qimmat), «siyosiy baho» tushunchalarini kiritdi, Tovar qiymatining unga sarflangan mehnat miqdori bilan o'lchanishi g'oyasiga, yangi qiymatning mehnat nazariyasiga asos soldi. «Mehnat boylikning otasi, er esa uning onasidir» degan fikirni bildirdi. Qiymatni aynan almashuv qiymati (pul) shaklida tushundi. Ish haqi ishchilarga tirikchilik uchun zarur bo'lgan jismoniy minimum, ya'ni «yashash, mehnat qilish va ko'payish» uchun kerak darajada to'lansa bas, degan g'oyani ilgari surdi. Kapitalistlarning foydasini imkonи boricha oshirishni, ishchilarining soliq to'lashlarini zarur deb bildi.

Pulning roli va uning mamlakatdagi miqdori masalalarini asosan to'ri hal etdi, ya'ni pul miqdori ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga to'g'ri, pulning aylanish oborotiga esa teskari proporsionalligini aniqladi. Pulning me'yorda bo'lishini qo'llab-quvvatlandi.

Yer va renta masalalarini ancha puxta ishlab chiqdi. Ish haqi va rentaning bir-biriga qarama-qarshilagini isbotlanadi (yer bahosini to'g'ri hal etmadi).

Pitti «siyosiy arifmetika» va boshqa asarlarida statistika, aniqrog'i demografik statistika faniga asos soldi. «Axoli boylik asosi» masalasini to'g'ri qo'ydi. Milliy daromad masalasini qo'ydi va uni qisman hal etdi.

Fransiyadagi klassik iqtisodiy maktabning dastlabki vakili P.Bualgilber ham muhim g'oyalarni ilgari surdi. Bu mamlakat axoli angliyalikdan ancha katta farq qiladi. Sababli iqtisodiy qarashlarda o'ziga xoslik seziladi. Agar Petti ko'proq sanoat va savdoni qo'llagan bo'lsa, Buagilber asosan qishloq xo'jaligi sohasini tadqiq etdi va uzining muhim xulosalarini chiqardi. Qiymatini shaklida tushundi. «Proporsional baxollar» tarafdori edi. Erkin tadbirkorlik, raqobat va erkin baholarini qo'lladi. Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozini to'g'ri tushuntirib berdi, pulga salbiy munosabatda bo'ldi, oltin va kumushlarni yovuzlik sababi deb bildi. Noto'g'ri ravishda faqat qishloq

xo‘jaligini qo‘llab-quvvatladi, sanoat va savdoga kam e’tibor qildi. Buagberning iqtisodiy isloxatlari bo‘yicha takliflari o‘z davri uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining shart-sharoitlari. Bu maktabning merkantilizmdan asosiy farqi nimadan iborat?
2. V.Pettining iqtisodiy qarashlari, uning uslubi.
3. V.Pettining qarashlaridagi cheklanganlik. Qiymatning mehnat nazariyasi nima?
4. Fransianing shu davrdagi iqtisodiy ahvoli va uning P.Buagilber qarashlariga ta’siri.
5. P.Buagilber nima uchun qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatladi?
6. Nima uchun P.Buagilber pulga qarshi edi?
7. Fiziokratizmning mohiyati va xususiyatlari nimadan iborat?
8. F.Kenening «Iqtisodiy jadval» asaridagi iqtisodiy g‘oyalar.
9. A.Tyurgoning bosh asari va undagi iqtisodiy g‘oyalar.
10. Fiziokratizmning ahamiyati va tarixiy taqdiri to‘g‘risida nima deya olasiz?


8-bob. KLASSIK IQTISODIY MAKTABNING TO‘LA SHAKLLANISHI. ADAM SMIT VA DAVID RIKARDO IQTISODIY TA’LIMOTLARI

8.1. ADAM SMITNING IQTISODIY QARASHLARI

Iqtisodiyotning klassik davri yuz yildan ziyodroq vaqt mobaynida ilgari surilgan iqtisodiy g‘oyalarni qamrab oladi, uning asosiy yo‘nalishi va hissadorlari Britaniyaliklarga qaratilgan edi. Bu o‘rnada klassik maktabning uch yirik traktatlari: Adam Smit tomonidan yozilgan “Xalqlar boyligining sabablari va tabiatni tadqiqotlari” asari, David Rikardo muallifligidagi “Soliq va siyosiy iqtisodiyotning asosiy qonun-qoidalari” asari, hamda “Siyosiy qonun-qoidalari (tamoyillar)” nomli asarlari mashhurdir¹¹⁵.

Buyuk ingliz iqtisodchisi **Adam Smitning «Xalqlar boyligining tabiatni va sabablari to‘g‘risida tadqiqot»** asari zamonaviy iqtisod fanining boshlanishi hisoblanadi. A.Smit o‘z davridagi iqtisodiy bilim va konsepsiyanlarini umumlashtirdi va tizimlashtirdi. U xo‘jalik hayotining asosiy sohalarini tavsiflab beruvchi bir butun nazariya yaratdi.

Adam Smit (1723–1790) Shotlandiyaning Kerkoldi shahrida bojxona amaldori oilasida dunyo-ga keldi¹¹⁶. U Glazgo va Oksford universitetlarida ta’lim oldi, bu yerda adabiyot, tarix, falsafa fanlari bilan birga fizika, matematikani ham o‘rgandi. A.Smit 1748-yilda Edinburgda ommaviy ma‘ruzalar o‘qiy boshladi, 1751-yilda Glazgo universitetining professori etib tayinlandi. Keyinchalik ijtimoiy fanlar kafedrasini boshqardi. A.Smit 1759-yilda o‘qigan ma‘ruzalari asosida etikaning falsafiy muammolariga bag‘ishlangan o‘zining birinchi «Axloqiy hissiyot nazariyası» kitobini yaratdi.



Adam Smit (1723–1790)

¹¹⁵ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 89-b.

¹¹⁶ Рассоков А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “ИQTISOD-MOLIYA”, 2007. 112–124-б.

1764-yili A.Smit hayotida keskin o‘zgarish bo‘ldi: u kafedrani tark etdi va o‘sha davrda ko‘zga ko‘ringan siyosiy arbob – gersog Bakning o‘g‘li yosh lordning xorijga qiladigan sayohatida unga hamrohlik qilish to‘g‘risidagi taklifni qabul qildi. Bu sayohatdan A.Smit katta moddiy manfaatdorlik ko‘rar edi, ya’ni umrining oxirigacha unga har oyda 800 funt sterling kafolatlangan edi. Bu uning professorlik gonoraridan ancha ko‘p bo‘lgan. Sayohat chog‘ida u Shveysariyada Valter, Fransiyada fiziokratlar F.Kene, A.Tyurgo, D.Alamber va boshqa atoqli olimlar bilan uchrashdi, ularning ishlari bilan tanishdi. Bu uchrashuvlar A.Smit dunyoqarashining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

1766-yilda u o‘z yurtiga qaytib keldi va «Xalqlar boyligining tabiatи va sabablari to‘g‘risida tadqiqot» nomli asosiy asarini yozishga kirishdi. Bu asar 1776-yil martda chop etildi. Asarda insoniyat tomonidan oldin yaratilgan iqtisodiy bilimlar umumlashtirdi va umumiy nazariy tamoyil asosida iqtisodiy fan tizimiga aylandi.


A.Smitning bu asari besh qismdan (kitobdan) iborat bo‘lib, birinchi qismida qiymat va qo‘srimcha daromad muammolari tadqiq etildi, ikkinchisida – kapital jamg‘arilishi va uning funksional shakllari, uchinchisida – kapitalizm rivojlanishining tarixiy shart-sharoitlari ko‘rsatib berildi, to‘rtinchisida – merkantilizm va fiziokratlar ta’limotiga bo‘lgan o‘zining munosabatlari aks etildi, beshinchi qismida davlat moliyasi savollari ko‘rib chiqildi. Bu asar A.Smit hayot paytidayoq to‘rt marta, uning o‘limidan keyin asr oxirigacha yana uch marta qayta nashr etildi. U nafaqat Angliyada, balki chet ellarda ham zo‘r qiziqish uyg‘otdi. A.Smitning bu buyuk asari dunyodagi barcha keyingi iqtisodiy ta’limotlarining rivojlanishiga va ko‘pchilik davlatlarning iqtisodiy siyosatiga o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatdi.

Xalqlar boyligining tabiatи va sabablari¹¹⁷ Xalqlar boyligi asoslarining birinchi kirishidayoq Smit “Xalqlar boyligining tabiatи” konsepsiyasini tushuntirib o‘tgan. Bu bilan u o‘z qarashlarini merkantilistlar va fiziokratlarnikidan farqlanishini isbotlab berdi. Xalqlar boyligi asarining asosiy qismida Smit millat boyligi miqdor bilan o‘lchanadi degan fikrlari uchun merkantelistlarga qarshi bo‘lgan.

¹¹⁷ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 110–111-б

Uning fikricha, boylik qimmatbaho metallar miqdori bilan emas, balki tovar va xizmatlardan olinadigan yillik foydadir¹¹⁸.

Smit Xalqlar boyligi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan foyda bilan ham o‘lchanadi degan fikrda turgan. Masalan, Angliya Xitoydan boyroq, deyilganda ularning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan foyda qiyoslanadi, umumiyligi ishlab chiqarilayotgan mahsuloti emas. Bu qarash hozirda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan. Xuddi shu bandda Smit aytib o‘tganki: iste’mol “barcha ishlab chiqarishning yagona va oxirgi maqsadi” degan¹¹⁹.

 **Xalqlar boyligi sabablari**¹²⁰. Smit biz hozirda millat daromadi deb ataydigan davlat boyligini birinchidan ish unumdarligi va ikkinchidan unumdar ishlaydigan ishchilar mutanosibligiga bog‘liq deb hisoblangan.

Ish unumdarligi. Ishchi kuchining unumdar mehnati nima bilan belgilanadi? Smitning birinchi kitobida ish unumdarligi ish taqsimotiga bog‘liq deb yozadi. Mehnatning ixtisoslashtirilganligi mehnat unumdarligini oshiradi. Bizning hozirgi zamonaviy iqtisodiyotimizda – hattoki ilmiy dunyoda ham – mehnat taqsimoti amaliyatga ta’siri Smitschalik o‘rganilmagan. Asarning boshida A.Smit boylikni chinakam yaratuvchi bu – “har bir xalqning yillik mehnati” deb ko‘rsatib o‘tadi. Demak, boylikning manbayi – mehnat. A.Smit bu fikrni rivojlantirib, mehnat taqsimoti boylikni yaratishda asosiy omil hisoblanadi, degan xulosaga keladi. Chunki mehnat taqsimoti asosida uning unumdarligi oshadi. Muallif bu tezisni to‘g‘nog‘ich ishlab chiqarish ustaxonasi misoli yordamida asoslab beradi. Ustaxonada o‘n kishi ishlaydi. Ular o‘rtasida mehnat taqsimlangan: biri simni tortadi, ikkinchisi uni to‘g‘rilaydi, uchinchisi kesadi, to‘rtinchisi uchini o‘tkirlaydi va h.k. Bir kunda bu o‘n kishi 48000 to‘g‘nog‘ich, ya’ni har bir kishi 4800 donadan to‘g‘nog‘ich ishlab chiqaradi. Agar ular bir-birlariga bog‘liq bo‘lmasa holda ishlaganlarida, ularning hech qaysisi

¹¹⁸ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander ., p. 622.

¹¹⁹ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander ., p. 625.

¹²⁰ Джумонов Д., Аллаберганов З.. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 111–114-6.

bir kunda 20 dan ko‘p to‘g‘nog‘ich tayyorlay olmagan bo‘lar edi. Demak, ixtisoslashuv tufayli mehnat unumdorligi 240 baravardan ko‘proq oshgan.

A.Smitning fikri bo‘yicha, mehnat taqsimoti milliy mahsulot yaratish jarayonida odamlar o‘rtasida hamkorlikni amalga oshirishning juda qulay shakli hisoblanadi. Ixtisoslashuv tufayli mehnat jarayonini amalga oshirishda kishilarning chaqqonligi ortadi; ular vaqt ni tejaydilar, chunki doimo bir ish turidan boshqasiga o‘tishga hojat bo‘lmaydi; ular o‘z faoliyatlarini takomillashtirish, ixtiro qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Taraqqiyot va jamiyat farovonligining haqiqiy manbayi «tabiat in’omi» emas (fiziokratlar hisoblaganlaridek), balki aynan mehnat taqsimotidir. Shu bilan birga, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi, negaki birinchidan, agar yaratilgan qo‘srimcha mahsulot xarid qilinmasa, undagi mehnatni yanada taqsimlashga zarurat bo‘lmaydi, ikkinchidan, korxonalarning ko‘لامи qancha kichik bo‘lsa, mehnat taqsimoti uchun imkoniyatlar shuncha kam bo‘ladi (foydalananayotgan kapital miqdoriga qarab).

Shuningdek, mehnat taqsimoti Smitning bozorning kengayishi hamda kapitalning jamg‘arilishi haqidagi fikriga ham bog‘liq. Bozor qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik, ko‘p miqdorda tovar sotiladi, va shunchalik, mehnat taqsimotiga imkoniyat oshadi. Cheklangan bozor o‘z navbatida cheklangan mehnatni talab qiladi. Mehnat taqsimoti kapital jamg‘armasi orqali cheklab qo‘yilgan, chunki ishlab chiqarish jarayoni juda ko‘p vaqt ni oladigan jarayon bo‘lib, ishning boshidan to mahsulot tayyor bo‘lib sotilgunga qadar orada ancha vaqt bor¹²¹.

Samarali va samarasiz mehnat. Smit fikriga ko‘ra, kapital miqdori ish bilan ta’minlangan va ta’minlangan ishchilar soni o‘rtasida o‘zaro nisbat bilan belgilanadi. Smit kuzatishicha, bozorga tovarni ishlab chiqarishda band bo‘lish samarali mehnat, lekin shu qatorda ishlab chiqarishda band bo‘limgan ishchi kuchining xizmati ham samarasiz hisoblanildi.

Ushbu nazariyadan, milliy boylikning ko‘payishi jamiyatdagi ayrim sinflar faoliyati natijasi emas (merkantilistlarda – savdogarlar, fiziokratlarda – yer egalari), balki *mehnat taqsimotida qatnashayotgan barcha kishilar faoliyatining natijasidir*, degan xulosa kelib chiqadi.

¹²¹ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander ., p. 260.

Boshqacha aytganda, foyda yaratuvchi har qanday mehnat unumli mehnatdir. Ammo bu masala bo‘yicha A.Smitda izchillik bo‘lmagan. Birinchidan, u faqat moddiy narsalarni yaratish va o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat unumli mehnat deb hisoblangan. O‘qituvchilar, huquqshunoslar, harbiylar, ma\muriyat, yozuvchilar va shu kabilarning mehnati esa unumsiz hisoblanilgan. Ikkinchidan, A.Smit iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi sohasining ustunligi g‘oyasidan qutula olmagan. U, hunarmandlar va savdogarlar mehnatini yer egalar mehnatiga nisbatan kam unumli bo‘ladi, deb aytadi. Negaki yer egalariga tabiat «yordam» beradi va «dehqonchilikka qo‘yilgan kapital haqiqiy boylikka va daromadga ancha ko‘p qiymat qo‘shadi». Bunda A.Smitning ta’kidlashicha, iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan sanoat tovarlari bahosi pasayib borish moyilligiga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bahosi esa o‘sish moyilligiga ega. Shuning uchun, uning fikricha, qishloq xo‘jaligiga qo‘yilgan kapital ancha foydali hisoblanadi.

“Bir kishi ko‘plab ishlab chiqaruvchilarni yollasa boyligi oshib boraveradi agar u ko‘plab xizmatkorlarni boqsa kambag‘alligi ortib boraveradi.”¹²² Kapital samarali ishchi kuchini qo‘llab-quvvatlash uchun talab qilinadi, shuningdek, katta kapital to‘plash uchun jami ishchi kuchining katta qismini samarali mehnatga jalb etish kerak bo‘ladi. “Kapitalistlar isrofgarchilik va noto‘g‘ri xatti-harakatlarni kamaytirib, tejamkorlik orqali rivojlanishadi”¹²³.

Agar o‘sha davrda Angliyada manufaktura sanoati rivojlana boshlaganini va hatto birinchi yuqori unumli fabrikalarning paydo bo‘lganligini hisobga oladigan bo‘lsak, A.Smitning bu xatosini tushunish yana ham qiyinlashadi. Uning unumli mehnat konsepsiyasida izchillikning yo‘qligi, ishlab chiqarish jarayonidagi kapital mavqeini yetarlicha tushunmaganligi natijasidir. A.Smitning fiziokratik bid’atlari jamiyat o‘z resurslarini, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligiga, ikkinchi navbatda, sanoatga va faqat, uchinchi navbatda, savdoga yo‘naltirishi kerakligini tasdiqlashida o‘z ifodasini topadi. Bundan A.Smit sanoat to‘ntarilishining dastlabki uchqunlarini va kelajakda yirik sanoat ishlab chiqarishining hal qiluvchi ahamiyatini ko‘ra olmagan, degan xulosa kelib chiqadi.

¹²² History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander. p. 314.

¹²³ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander. p. 321.

A.Smit boylikni ko‘paytirishda pulning o‘rniga alohida urg‘u berib o‘tadi. Uning tasdiqlashicha, qimmatli metallarning, pulning maxsus ahamiyati to‘g‘risidagi merkantilistlarning fikri noto‘g‘ri. Agar pulni jamg‘arish asosiy maqsad bo‘lsa, unda pul harakatsiz qolib ketadi, bu esa ushbu pulga ishlab chiqarish yoki sotib olish mumkin bo‘lgan mahsulotlarning kamayib ketishiga olib keladi. Pul jamiyat boyligini ko‘paytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kapital nazariyasi. A.Smit ishlab chiqarishning o‘sishi, manufakturna sanoatining yaratilishi kapital faoliyati natijasi ekanligini ko‘rsatib beradi. U kapital deganda maxsus ishlab chiqarish fondlarini, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarishning moddiy omillarini tushungan. A.Smit kapitalni asosiy va aylanma kapital turlariga ajratib ko‘rsatadi. Muomalada bo‘ladigan kapital aylanma kapital, muomalada amal qilmaydigan kapital asosiy kapital nomini olgan. A.Smit bo‘yicha, asosiy kapital ham, aylanma kapital ham boylik yaratadi. Kapitalning o‘sishi – millat boyligini ko‘paytirishning uchinchi (mehnat taqsimoti va puldan foydalanish bilan birga) asosiy omili. Kapital qancha ko‘p bo‘lsa, ishchilarni boqish va ularni ixtisoslashtirish imkoniyati shuncha ko‘p bo‘ladi. Buning ustiga, kapitalning o‘sishi ayrim vaziyatlarda boylikni ko‘paytirishning yagona vositasi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun A.Smit tejamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Uning yozishicha, «har bir isrofgar – jamiyat boyligining dushmani, har qanday tejamkor odam – jamiyatga muruvvat ko‘rsatuvchidir».

Iqtisodiy erkinlik tamoyili¹²⁴. Jamiyatdagi mehnat taqsimoti odamlarni bir-birlari bilan bog‘lab turuvchi va ularga mahsulot va resurslarni almashtirish imkonini beruvchi mexanizmning bo‘lishini taqozo etadi. Bunday mexanizm bozor hisoblanadi. Bozor to‘g‘risida A.Smit ta’limotidagi asosiy g‘oya iqtisodiy liberalizm g‘oyasi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini minimallashtirish g‘oyasi, erkin raqobat asosida tashkil topadigan baho yordamida iqtisodiyotning o‘zini o‘zi boshqarish g‘oyasi hisoblanadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, bozor odamlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning manfaatlarini uyg‘unlashtiradi. Bozor iqtisodiyoti novvoyni shirin non yopishga, bog‘bonni ekologik toza meva-sabzavot yetishtirishga, savdogarlarni

¹²⁴ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 114–116-б

boshqa mintaqalardan arzon bahoga tovarlar olib kelishga undaydi. Raqobat sharoitida iste'molchilar ehtiyojini yuqori darajada qondira oladigan ishlab chiqaruvchilar yashab keta oladi. Demak, ko'proq foyda olish ishtiyoqida bo'lган tadbirkorlarning bir tomonlama manfaatlari, ularni jamiyatning boshqa a'zolari manfaatlariiga xizmat qilishga majbur qiladi.

"Menga nima kerak bo'lsa, shuni menga ber va sen o'zingga nima kerak bo'lsa o'shani olasan". Aynan shunday ko'rinishda odamlar o'zлari ehtiyoj sezgan narsalarni bir-birlaridan ko'proq olishga erishadilar.

A.Smit kitobining asosiy mohiyati hukumatning va boshqalarning erkin raqobatga aralashuvini tanqid qilishdan iborat. A.Smitning fikricha, iqtisodiy hayotda garmonik tartib hukmronlik qiladi: agar erkin raqobat cheklanmasa, unda u dunyoni takomillashuvga olib kelgan bo'lar edi. Bunday xulosaga kelishda A.Smit o'zgarmas «tabiiy» iqtisodiy qonunlar mavjudligiga asoslangan. A.Smit tushunchasi bo'yicha, shaxsiy manfaatlар ijtimoiy manfaatlardan ustun tursa, ya'ni jamiyat manfaatlari uning a'zolari manfaatlарining yig'indisi deb qaralsa, shundagina bozor qonunlari iqtisodiyotga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. A.Smitning asosiy xizmatlaridan biri shundan iboratki, u birinchi bo'lib iqtisodiyotni o'zining ichki qonuniyatlariga muvofiq amal qiluvchi, obyektiv, odamlarning irodasiga bog'liq bo'lмаган тизим sifatida qaraydi. Bunday tizim o'zining ichki qonuniyatlariga muvofiq amal qiladi.

A.Smit iqtisodiyotning davlat sektori samarasizligini ko'rsatib o'tadi. «Har xil sabablarga ko'ra, – deb yozadi u, – hukumat doimo va beistisno tarzda isrofgar, eng avvalo, u birovlar ishlab topgan pulni sarflaydi, o'zgalar pulini esa hamisha o'zingnikidan ko'ra behuda sarflanishini bilamiz. Bundan tashqari, hukumat xususiy korxonalardan juda uzoq turadi va ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lган e'tiborni ularga qarata olmaydi». A.Smit davlatning faqat uch funksiyasini tan oladi: adolatli sud qilish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, jamiyat uchun zarur bo'lган ijtimoiy korxona va muassasalarni ta'minlash.

A.Smit merkantilistlarning protektsionizm siyosatini tanqid qiladi. Unga ko'ra, chetdan ancha arzon bahoga olib kelishi mumkin bo'lган tovari o'zida ishlab chiqarish bema'ni narsadir. «Har qanday

ongli oila boshlig‘ining qoidasi sotib olishdan ko‘ra uyda tayyorlash qimmatga tushsa, uni uyda tayyorlamaslikdan iborat... Ayrim oilalar uchun oqilona hisoblangan narsa, bir butun davlat uchun bema’ni hisoblanmaydi».

Erkin raqobat sharoitida bozor mexanizmi, eng avvalo, baho orqali iqtisodiyotda “tartib o‘rnatadi”. Baho bozor xo‘jaligining asosiy tashkiliy kuchi sifatida qaraladi. Baho talab va taklif o‘zgarishi to‘g‘risida ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molchilarga signal berib turadi, ularni bir-birlarining manfaatlariga moslashishga majbur etadi. Baho orqali talab asosida kapital qo‘yilmasi amalga oshiriladi, kerakli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Odamlar bir-birlariga xizmat qilish orqali o‘z manfaatlarini amalga oshiradi. Bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zidan amal qilayotgandek ko‘rinadi, aslida u xatolar va tuzatishlar uslubida tartibga solib turiladi.

“Ko‘rinmas qo‘l”¹²⁵. Bozor iqtisodiyoti bir markazdan turib boshqarilmaydi. Shunday bo‘lsada, u muayyan tartib va qoidaga amal qiladi. Xo‘jalik faoliyatining har bir ishtirokchisi o‘z maqsadini ko‘zlagan holda ish yuritadi. Biroq bunday sharoitda alohida kishilarning manfaatlari qanday uyg‘unlashadi, barcha jamiyat manfaatlari qanday yuzaga chiqadi? Birinchi bo‘lib bu muammoni ilmiy darajaga ko‘targan olim A.Smit bo‘ldi. U shunday yozadi: «Har bir kishi o‘z kapitalini ko‘proq qiymat keltiradigan qilib ishlatishga harakat qiladi. Odatda, u jamiyat foydasiga ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutmaydi va unga ancha ta’sir ko‘rsatayotganini sezmaydi. U faqat o‘z manfaatini nazarda tutadi, faqat o‘z foydasini ko‘zlaydi. Shunday bo‘lsada, bunday maqsad uning rejasiga kirmagan bo‘lsa ham, ushbu sharoitda *ko‘rinmas qo‘l* uni maqsad sari yo‘naltiradi. O‘z manfaatlarini ko‘zlagan holda, jamiyat manfaatlariga ataylab unga xizmat qilgandan ko‘ra tez-tez xizmat qilib turadi».

Gap shundaki, o‘z manfaati yo‘lida xizmat qilayotgan har bir odam pirovard natijada ijtimoiy mahsulotning ko‘payishiga, jamiyat boyligining oshishiga yordam beradi. Shaxsiy manfaatga intilish ishlab chiqarishning rivojlanishiga, taraqqiyotga olib keladi. Har bir kishi o‘zini o‘ylab ish yuritadi, bundan butun jamiyat yutadi.

¹²⁵ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017. 116-б.

A.Smit aytib o‘tgan «ko‘rinmas qo‘l» bozor mexanizmidir. U odamlarni o‘z istak va xohishlariga bog‘liq bo‘lmagan holda maqsad sari yo‘naltirib turadi. Masalan, agar qandaydir bir mahsulotga, aytaylik, nonga bo‘lgan talab oshsa, novvoylar uning narxini oshiradilar. Ularning daromadlari oshadi. Kapital bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa oqib o‘tib turadi, ayni chog‘da, u non yopish sanoatiga oqib o‘ta boshlaydi. Natijada, non ishlab chiqarish ko‘payadi va narx yana pasaya boshlaydi. Bu yerda A.Smit shaxsiy manfaatni raqobat va xo‘jalik mexanizmining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rsatib bergen.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha turli mehnat egalari o‘rtasida raqobat kurashi amal qilib turadi. Bunda shaxsiy manfaat, o‘z foydasini ko‘zlab ish yuritish bir vaqtning o‘zida jamiyatga foyda keltiradi, umumiy boylikka erishishni ta’minlaydi. Demak, bozor iqtisodiyotida “ko‘rinmas qo‘l” amal qiladi.

Qiymat va bahoning shakllanishi¹²⁶. A.Smit «sarfli» qiymat nazariyasiga asos soldi. U tovarning foydaliligi (iste’mol qiymati) bilan almashuv qiymatini bir-biriga qarshi qo‘ydi va almashuv qiymatining shakllanishini tahlil qilishda foydalilikni inkor etdi. Keyinchalik, bu nazariyadan ikki qarama-qarshi yo‘nalish hisoblangan – iqtisodiy liberalizm va sotsializm vakillari o‘zlarining tamoyillarini asoslash uchun foydalandilar.

A.Smit bozor bahosining beqarorligini talab va taklifdagi doimiy o‘zgarishlarning natijasi ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Lekin boylikning «haqiqiy» qimmati doimo o‘zgarib turishi mumkin emas. Shuning uchun A.Smit o‘z oldiga tovarning «real», «tabiiy» bahosini, ya’ni uning qiymatini topish vazifasini qo‘ydi. Bunda u bir vaqtning o‘zida ikki har xil konsepsiyanidan foydalandi. Birinchisi – tovarning qiymati faqat unga sarflangan mehnat bilan aniqlanadi: qancha ko‘p mehnat sarflansa, tovar shuncha qimmat bo‘ladi (bu konsepsiya D.Rikardo va K.Marks iqtisodiy ta’limotlarining asosini tashkil etadi). Ikkinci konsepsiya ana shunday paydo bo‘ladi, unga binoan tovar qiymatini yaratishda barcha ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, yer) qatnashadi. Shunga muvofiq, tovar qiymati mehnat sarflaridan, foyda va yer rentasidan tashkil topadi, ya’ni ishlab chiqarish xarajatlari bilan

¹²⁶ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 117–119-б

aniqlanadi. A.Smit o‘z qarashlarida bu ikkala konsepsiyan foydalandi (5-rasm).



5-rasm. Qiymatning (va bahoning) tashkil topishi to‘g‘risidagi A.Smitning ikki konsepsiysi¹²⁷

Ular endi qiymatning shakllanishida ishtirok etuvchi omil sifatida bo‘ladi. Mehnat ish haqi ko‘rinishida daromad yaratadi, kapital foya ko‘rinishida daromad yaratadi, yer renta ko‘rinishida daromad yaratadi.

A.Smitning ikkinchi konsepsiysi oddiy tovar ishlab chiqarishni («qoloq jamiyatni») tahlil qilishdan kapitalistik tovar ishlab chiqarishni tadqiq qilishga o‘tish bilan bog‘liq. Aynan kapitalistik tovar ishlab chiqarishda jonli mehnat qiymatning yagona manbayi bo‘la olmaydi. “Oldin mehnat vositalari ishlab chiqaruvchiga qarashli bo‘lgan. Kapital jamg‘arilishi va yerning xususiy mulkka aylanishidan oldingi jamiyatda, – deb yozadi A.Smit, – mehnat miqdorlari o‘rtasidagi nisbat mahsulotlarni ayirboshlashning yagona asosi bo‘lib kelgan. Barcha

¹²⁷ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 117-б

mehnat mahsuli ishlab chiqaruvchiga qarashli bo‘ladi va sarflangan mehnatning miqdori bahoning yagona o‘lchovi hisoblanadi”.

Keyinchalik, kapital jamg‘arilib borgan sari vaziyat o‘zgarib boradi. Tovarning qiymati ikki qismga bo‘linadi: bir qismi ish haqiga, ikkinchi qismi kapital foydasiga. Kapital egasi yollanma mehnatni ishlatadi. Bunda yaratilgan barcha mahsulot ishlab chiqaruvchiga qarashli bo‘lmaydi. Uning bir qismi kapital egasiga tegishli bo‘ladi. Bunday sharoitda muayyan tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat miqdori tovarning qiymatini aniqlashda birdan-bir manba bo‘la olmaydi.

A.Smitning fikri bo‘yicha, «tabiiy baho» (qiymat) – bu shunday bahoki, uning tarkibiy qismlari mehnat, kapital va yer uchun to‘lanadigan tabiiy me’yorlarga taxminan mos keladi. Bu tabiiy me’yorlar mintaqalar bo‘yicha farq qiladi va ular hayot darajasiga, geografik va tabiiy sharoitlarga, o‘rtacha xarajatlar darajasiga va boshqalarga qarab o‘rnataladi. Mazkur qoida F.Akvinskiyning «Odil narx» konsepsiyasiga o‘xshab ketadi. Ikki yondashuvning farqi shundaki, F.Akvinskiyda «odil narx» odamlar tomonidan ongli ravishda o‘rnataladi, A.Smit bo‘yicha esa, «tabiiy baho»ning shakllanishi – obyektiv bozor qonunlarining amal qilish natijasidir.

Bozor bahosi «tabiiy baho» atrofida tebranib turadi, u bozor holatiga qarab undan yuqori yoki past bo‘lishi mumkin. Ushbu tebranish tufayli taklif talabga moslashadi. Agar talab taklifdan kam bo‘lsa, bozor bahosi xarajatlardan past bo‘lgan bo‘ladi va tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartiradi. Aksincha, talabning ortishi bahoning oshishi va taklifning ko‘payishini rag‘batlantiradi. Natijada, bozor bahosi «tabiiy baho» darajasiga intiladi. Albatta, axborotning yetishmasligi, tabiiy va sun’iy monopoliyalarning mavjudligi bilan bog‘liq holatlar bundan istisno.

Nominal narx. Adam Smit garchi nominal narx taklifi yoki faqatgina mahsulot narxlari kabi belgilanadi deb izohlagan bo‘lsa ham, u talabning rolini butunlay rad etmagan. U bozordagi narx talab va taklifning har ikkisi tomonidan belgilanadi, deb ishongan. U ba’zida tabiiy narxlar ham aynan talab va taklifga bog‘liqligini ta’kidlagan. Shuningdek, u iqtisodning turli sektorlari orasida resurslar nazoratida va tabiiy narxlar tuzilmasida talabning o‘rni haqida qayd etib o‘tgan.

Smitning nominal narxlarning shakllanishi haqidagi tahlili, uning davridagi iqtisodni ikki davrga ajratdi: qisqa va uzoq muddat hamda iqtisodning ikki katta sektori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarishga. Qisqa muddat mobaynida yoki savdo-sotiq davrida Smit ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida tez sur’atlarda tushayotgan talab va ko‘tarilayotgan ta’midot ko‘rsatkichlarini topdi va shu sababli savdo-sotiq narxlari talab va ta’midotga bog‘liqdir. Smitning uzoq muddatda uchraydigan murakkabroq “tannarx” ustidagi tahlili o‘z ichiga ba’zi bir qarama-qarshiliklarni oladi. Qishloq sektori uchun tannarx ehtiyoj va ta’midotga bog‘liq, buning sababi uzoq muddatli ta’midot ko‘rsatkichi o‘smoqda va bu esa o‘z navbatida narxlarning ko‘tarilishini ko‘rsatadi.

Ammo ishlab chiqarish sektori uchun uzoq muddatli ta’midot ko‘rsatkichi vaqt-i vaqt bilan mutlaqo elastikligi (gorizontalligi), ya’ni o‘zining o‘zgarmas narxlarning ifoda qilishi deb taxmin qilinsa, tahlilning boshqa qismlarida esa u pastga yo‘nalgan ko‘rsatkich ya’ni narxlarning pasayishi deb ko‘rsatiladi.

Ishlab chiqarishda uzoq muddatli ta’midot ko‘rsatkichi butunlay elastik bo‘lganda, narx mahsulot bahosiga bog‘liq, ammo u pastga yo‘nalganda esa tannarx ehtiyoj va ta’midotga bog‘liq bo‘ladi¹²⁸.

Smit fikriga ko‘ra, ayrboshlashdagi qiymat boshqa tovarlarni sotib olish uchun mahsulotning qudratidir. Bu bozor nuqtayi nazaridan xolis bahodir. Uning foydalanish bo‘yicha tushunchasi noaniqdir; uning nominal narxlarni tushuntirishdagi qiyinchiliklarni yengillatishda yaxshi natija berdi. Boshqa tomondan olib qarasak, uning sxolastikaga borib taqaladigan qo‘srimcha etik ma’nosи ham mavjud. Smitning qat’iy tartiblari uning foydalanishda olmoslarning deyarli ahamiyatsizligi haqidagi bayonotida asosan e’tiborga molikdir. Boshqa tomondan, amaliy ahamiyat bu tovarning talabni qondirilish kuchi, mahsulotni yig‘ish yoki iste’mol qilish orqali qabul qilingan yutuqdir. Tovar iste’mol qilinganda bir necha turdagи yutuqlarga erishish mumkin: to‘liq, o‘rtacha va past foyda. Smitning diqqat markazida u yozib ketgandan keyin yuz yilgacha iqtisodchilar tomonidan sababi tushunilmagan, o‘rtacha foyda va qiymat o‘rtasidagi munosabatdan iborat bo‘lgan to‘liq foyda edi va bu talabning narxni aniqlashda qanchalik rol o‘ynashi haqidagi uning tushunchalarini yashirdi. Shu

¹²⁸ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander ., p. 28.

aniqki, suvning to‘liq foydasi olmosning to‘liq foydasidan kattaroq; bu Smit ta’kidlaganidek, suvning amaliy ahamiyati olmosnikiga qaraganda balandroq bo‘lishiga ishora qiladi. Shunga qaramay, suvning boshqa bir tarkibiy qismi olmosnikidan pastroq foydali bo‘lishining ancha ehtimolligi bor, chunki tovarning oxirgi foydasi uning ko‘p iste’mol qilinishi sababli ko‘pincha kamayadi. Tovar uchun biz to‘lashni xohlaydigan narx uning to‘liq afzalliklariga emas balki oxirgi afzalligiga bog‘liqdir. Chunki Smit buni eslamaydi (boshqa iqtisodchilar ham 1870-yilgacha eslamaydi). U na olmos-suv paradoksiga qoniqarli yechim topa oladi, na amaliy ahamiyat va ayirboshlash ahamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘ra oladi. Suvdan ko‘ra foydaliroq narsa yo‘q, lekin uning sotish qiymati juda past; olmos-hech qanday foydalanish qiymatiga ega emas, biroq tovarlar almashinuvida juda yuqori qiymatga ega. Mana shundan so‘ng iqtisodiyotda olmos-suv paradoksi kelib chiqqan¹²⁹.

Sinflar va daromadlar. A.Smit qarashlarida jamiyat uch sinfga ajratib ko‘rsatiladi: *yer egalari, tadbirkorlar, yollanma ishchilar*:

– yer egalari qo‘lida asosiy ishlab chiqarish vositasi yer bo‘ladi. Ular ijara bergan yeri uchun ijara to‘lovleri sifatida ushbu yerdan olingan daromadning bir qismini renta ko‘rinishida oladi;

– tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarining ikkinchi bir turiga (imorat-inshootlar, asbob-uskunalar, fermalar, xomashyo zaxiralariga) egalik qiladi, ishchilarni yollaydi va daromad ko‘rinishida foya oladi;

– yollanma ishchilar – eng ko‘p, kambag‘al sinf hisoblanadi, ular mulk egasi emas va ular mehnatini sotib, daromad ko‘rinishida ish haqi oladi.

A.Smit bo‘yicha jamiyat uch sinfdan tashqari har xil guruh va qatlamlarni ham o‘z ichiga oladi. Asosiy sinflar daromadlari birlamchi hisoblanishi bilan ajralib turadi. Boshqa guruhlarning daromadlari esa – ikkilamchi, ya’ni qayta taqsimlash natijasida shakllanadi.

A.Smit daromadning har uchala asosiy shaklini alohida ko‘rib chiqqdi¹³⁰.

Ish haqi nazariyasi. Ishchining daromad sifatidagi ish haqi, A.Smit bo‘yicha, mamlakatning milliy boyligi darajasiga bevosita

¹²⁹ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 110-113 b.

¹³⁰ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иктисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 119 –121-б.

bog‘liq. A.Smitning ish haqi nazariyasining e’tiborga molik joyi shundan iboratki, u U.Petti, fiziokratlar va keyingi D.Rikardodan farqli ravishda mehnatga haq to‘lash miqdori yashash minimumi darajasi-gacha pasayadi deb atalmish qonuniyatni inkor etgan. Buning ustiga, A.Smit mehnatga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish maqsadida ish haqini oshirish tarafdori bo‘lgan. Uningcha, past ish haqidan ko‘ra, yuqori ish haqi amal qilib turgan paytda faol faoliyat yurituvchi ishchilarni doimo topish, ishga jalg etish mumkin bo‘ladi.


Foyda nazariyasi. A.Smit bo‘yicha, tovar qiymatining bir qismi ish haqi sifatida ishchiga tegadi, qo‘srimcha mehnat bilan yaratilgan qiymatning qolgan qismi tadbirkorning daromadi ko‘rinishida uning foydasini tashkil etadi. A.Smit foydani tadbirkorlik tavakkalchiligi uchun, ishchiga yashash vositalarini avanslagani uchun tadbirkorga to‘lanadigan haq deb hisobladi. Foyda miqdori, A.Smit bo‘yicha, “kapital qiymati bilan aniqlanadi va foydaning ko‘p yoki kam bo‘lishi ushbu kapital miqdoriga bog‘liq bo‘ladi”. Foyda me’yorining pasayish moyilligi qayd qilib o‘tiladi, bunday moyillik iqtisodiy rivojlanish bilan

bog‘lab tushuntiriladi, negaki ancha rivojlangan mamlakatlarda foyda me’yori hamisha past bo‘ladi.

U foyda miqdoriga 3 ta omil ta’sir ko‘rsatishi mumkin deb taxmin qiladi:

1. Mehnat bozorlaridagi raqobat. Buning natijasida maoshlar ko‘tariladi.
2. Mahsulot bozori o‘rtasidagi raqobat. Ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat ortadi, mahsulot narxlari tushadi, foyda ham kamayadi.
3. Investitsiya bozorlarida raqobat, investitsiya imkoniyatlari soni cheklangan, kapital miqdori oshganda foyda kamayadi.

Renta nazariyasi. A.Smit nazariyasiga ko‘ra, renta ishchining haq to‘lanmagan mehnati bilan yaratiladi, uning mehnati mahsulotning bir qismi hisoblanadi. U rentada yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi unsurlarini ko‘rgan, lekin absolut va differensial renta



tushunchalari ajratib ko‘rsatib bermagan. Yer uchastkalari ham unumdorligi, ham joylashishi bo‘yicha farq qilishi, bu farqlarning ikkalasi ham turli tavsif va miqdordagi rentaning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkinligi qayd qilib o‘tilgan. Smit rentaning eng kamida 4 ta nazariyasini taklif etadi, Rentaning kelib chiqishi:

- 1) yer egalari tomonidan talab;
- 2) monopoliya;
- 3) turli xil afzalliklari;
- 4) tabiat saxiyligi bilan belgilanadi deb hisoblagan.

8.2. D.RIKARDONING IQTISODIY TA’LIMOTI

David Rikardo (1772–1823) klassik iqtisodiy maktabining atoqli vakillaridan biri hisoblanadi¹³¹. U Londonda badavlat birja makleri yahudiy Avraam Rikardo oilasida tug‘ilgan. Oiladagi o‘n yyyetti farzandning uchinchisi bo‘lgan David yoshligida muntazam ta’lim olgan emas va u hech qachon kollej va universitetlarda ham o‘qimagan. Lekin u otasi yordamida tijorat sirlarini yaxshi o‘rgangan va 16 yoshidayoq idora va birjada otasiga yordamchi bo‘lib ishlagan.

D.Rikardo 21 yoshida otasi bilan aloqani uzishga majbur bo‘ldi. Chunki otasi uning xristian dinidagi qiz bilan bo‘ladigan nikohiga qarshi edi. Oradan 5–6 yil o‘tgach, D.Rikardo birjada o‘ynab yirik boylik orttirdi. (bu davrga kelib uning oilasida uchinchi farzand tug‘iladi, keyinchalik bu oila yana beshta farzand ko‘radi). D.Rikardo 1810-yilga kelib, London moliya dunyosidagi yirik shaxslarning biriga aylanadi.

1799-yili Bat kurortida D.Rikardo A.Smitning “Xalqlar boyligi...” asarini o‘qib chiqqach, unda birinchi bor siyosiy iqtisodga bo‘lgan jiddiy qiziqish paydo bo‘ladi. Shundan keyin u siyosiy iqtisod bilan shug‘ullana boshladi.

Tadqiqotchilarining guvohlik berishicha, D.Rikardo o‘sha davrdagi iqtisodchi-olimlarning ko‘pchiligi bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Ayniqsa, Jeyms Mill (Jon Styuart Millning otasi) bilan D.Rikardo qalin do‘sit bo‘lgan va unga qattiq ishongan. U D.Rikardoning dastlabki nashrlariga yordam bergen. P.Samuelsonning yozishicha

¹³¹ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 121–126-б.

“...Katta Mill deyarli tahlika ostida D.Rikardoni “Siyosiy iqtisod tamoyillari va soliq solish”ni (1817) asarini yozishga majbur etdi va u Rikardoga shuhrat keltirdi”. Lekin D.Rikardoga A.Smitning ta’limotini va o‘z zamondoshlari T.Maltus, J.B.Sey va boshqa “klassik maktab” iqtisodchilarining iqtisodiy qarashlarini “tushunishga” yordam bergan, har holda, J.Mill emas, balki uning iste’dodi va amaliy tajribasi hisoblanadi. Bunda uning asarlari, ayniqsa, **“Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi” (1817)** asaridagi mohirona mulohazalar, ilmiylik tamoyillari D.Rikardoni bugungi kunda ham hurmatga sazovor o‘ziga xos olim sifatida ko‘rsatib turadi.

Quyida biz D.Rikardonning nazariy qarashlarini ko‘rib chiqamiz.

Rikardo uslubiyoti¹³² D.Rikardogacha Adam Smit siyosiy iqtisodni tahlil qilishda ikki yo‘nalishda: (1) o‘z davrining iqtisodiyotini deduktiv nazariya tahlili orqali va (2) zamonaviy va tarixiy institutlar to‘g‘risidagi tasvir orqali amalga oshirgan. Smitning bu usuli “tarixiy tavsiflovchi materiallar” nazariyasi sifatida tan olinadi. Rikardo, aksincha, o‘z ishida sof nazariy yondashuvga asoslandi. U o‘z davrining iqtisodiyotini o‘rganishda abstraksiyalash va deduktiv usulni qo‘llash bilan amalga oshirdi. Rikardonning usuli, yuzaki va sof nazariy bo‘lsa ham, amaliy iqtisod, siyosiy iqtisodiyot uning kuchli tomonlari bo‘lgan. Jumladan, uning eng ko‘tarilgan savollardan biri don masalasi Angliyada bug‘doy importi va undan olinadigan daromadni taqsimlashda o‘z ta’sirini o‘rgangan. Keyinchalik bu nazariya unga real dunyo siyosati masalalarini aniq tahlil qilish uchun zamin bo‘ldi.

Rikardo va iqtisodiy siyosat¹³³ Rikardo o‘z davridagi iqtisodiy muammolarni yechishga harakat qildi, bug‘doyni narxini tushirishi, ijara narxlarining ko‘tarilishi, Angliyadagi ishlab chiqarish va qishloq xo‘jalik o‘rtasidagi nisbiylikni asoslab berishni tarafdori bo‘ldi. Uning o‘zgaruvchan iqtisodiy tuzilma ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida siyosiy kuch hamda ochiq-oydin oqibatlariga ega. Ushu holatda eng asosiy savol bu xalqaro savdoni nazorat qilishda siyosiy manfaatdor taraflarni taqqoslashga ham yordam berdi. Yer egalari erkin savdo,

¹³² Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 122-б.

¹³³ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 122–123-б.

unda xarajatlarni erkinligi tarafdori bo‘lgan bo‘lsa, Britaniya sanoat vakillari esa ko‘plab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va/yoki arzon xomashyoni import qilish tarafdori bo‘ldi.

Rikardo siyosati keyinchalik faqatgina sog‘lom iqtisodiy rivojlanishgagina emas, balki qator iqtisodchilarining siyosiy qarashlarining shakllanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Rikardo modelini o‘ziga o‘rnak qilib olganlar tuzilmalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarni yuqori nazariy modelini qurishida yaxshi amaliyot bo‘ldi. Kuchli nazariy xulosalarga erishish uchun u abstrakt darajada bo‘lsada nazariy natijalarni chiqardi.

Rikardo uslubi (yuqori abstrakt darajadagi) va uning siyosatga nisbatan yondashuvlari oxir-oqibatda keingi iqtisodchilar dasturulamal vazifani o‘tadi. Ular qatorida XX asr boshlarigacha bo‘lgan D.S.Mill, Alfred Marshal kabi olimlarning abstrakt uslubiyotini ko‘rsatish mumkin.

Rikardoning g‘oyalari bo‘lgan tobora yuqorilashib borayotgan don narxi, ijara, sanoat va qishloq xo‘jaligida nisbiy pasayishni qo‘llash xalqaro miqyosda savdo – bular hammasi Angliya iqtisodiyoti uchun o‘zgartirish lozim davrida vujudga keldi.

Uning siyosati tavsiyaviy xarakterda bo‘lib, shunchaki ortiq nazariy xulosalar bilan bog‘liq bo‘lmashdan, balki o‘sha davrdagi zamonaviy institutsional tuzilmalarni tubdan rivojlanishiga sabab bo‘ldi¹³⁴.

Qo‘llanish sohasi. Rikardo iqtisodiy siyosatni tub burilish davrida yashab o‘tganligi sababli u Adam Smitning boylikni yaratilishi to‘g‘risidagi nazariyani kengroq yoritishga erishgan. Rikardo feodallar, kapitalistlar va ishchilarining iqtisodiyotning taqsimot jarayonidagi rolini tasdiqlab, “Siyosiy iqtisodda taqsimot (foyda taqsimoti) asosiy rol o‘ynaydi” deydi. Bu bilan Rikardo aynan boylikni taqsimlash jarayoniga aniqlik kiritish kerakligini uqtiradi. Rikardo funksional foyda taqsimoti tushunchasini kiritib, bu bilan u hozirgi iqtisodiyotimizda qo‘llaniladigan iqtisodiyotning yalpi ishlab chiqarish nazariyasi yaratilishiga sababchi bo‘ldi¹³⁵.

¹³⁴ History of Economic Thought. Harry Landreth, David C. Colander. Fourth edition Houghton Mifflin Company Boston Toronto. P 120

¹³⁵ History of Economic Thought. Harry Landreth, David C. Colander. Fourth edition Houghton Mifflin Company Boston Toronto. P 121-122

Rikardo modeli¹³⁶. U mantiqiy abstraksiya metodidan foydalandi, ijtimoiy fanlarda ilmiy deduksiyani keng qo'lladi. U o'z konsepsiysi asosiga qiymat qonunini, ya'ni tovarlarning qiymatini sarflangan mehnat bilan aniqlashni o'rtaqa tashladi. Faqat bir omil – «*Mehnat*» qiymatining asosida yotadi, deb yozadi olim.

Rikardo kapitalizmni jamiyatni tashkil etishning yakkayu-yagona tabiiy va abadiy shakli deb o'ylagan. Rikardo modelida asosan 3 sinf ko'rib o'tiladi, bular: kapitalistlar, ishchilar va katta yer egalari. Kapitalistlar iqtisodiyotda asosiy rol o'ynaydi, ular ishlab chiqaruvchilar, direktorlar va asosiy harakatdagi kuchlardir. Ular iqtisodiyotda 2 ta asosiy funksiyani bajaradi. Birinchidan ular resurslarni samarali taqsimlashda o'zlarini kapitalini ma'lum bir hududga yo'naltiradi. Ikkinchidan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va investitsiya oqimining kirib kelishiga sharoit yaratdi.

Rikardo o'zining izlanishlarini qiymatning mehnat nazariyasini o'rganish bilan o'tkazdi, u ish haqi fondi va Maltus aholi nazariyalarini real ish haqi tushuntirish uchun ishlatdi. Ish haqi fondi kapital jamg'arishga nisbatan ziyoda bo'lsa, unda real ish haqi qisqa muddatda ko'tariladi, u real ish haqi oshishi hamda aholining o'sishiga olib keladi deb hisoblagan. Rikardo tizimida ijara beruvchilarni tekinoxorlar deb atadi. Biz buni Rikardonning yer rentasi nazariyasida yaqqolroq ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Rikardo uchun yerning egri taklifini elastik emas va yerning ijtimoiy alternativ narxi nolga tengdir. Yer egalari faqat, bir daromadni, ya'ni rentani topish bilan hech qanday ijtimoiy foydali vazifani bajarmaydilar. Undan keyin ham klassik iqtisodchilar industrial jamiyatni rivojlanish va o'sishida mulk egasi sinflarini befoyda ekanligini ta'kidlaydi.

Davriy muammolar: **Don qonuni** 1800-yil boshlarida ro'y bergan eng qiziqarli iqtisodiy jarayonlardan biri bu Angliyada (Amerika – Hindiston o'rtasidagi don masalasi emas) donni import qilishda ta'rif o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan savolining Don qonunida aks etishidir. Don qonuni aholining oziq-ovqat bilan ta'minlash masalasi turgan davrda yuzaga keldi. Bu davrda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi, renta to'lovlari va yerlarga investitsiya jalb qilish darajasi yuqori edi. Yana bir o'sib borayotgan masala tariflar, yer

¹³⁶ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 124-б.

ijarasi va oziq-ovqat narxlaridan ko‘ra donlarning narxi o‘sib borishi bo‘ldi. O‘sha davrda yashab ijod qilgan Edvin Kanan o‘z “Ishlab chiqarish va taqsimot” asarida bu davridagi o‘rtacha narxlarni (bir tonna uchun) quyidagicha tasvirlagan:

1770–1779	45 shilling
1780–1789	45 shilling
1790–1799	55 shilling
1800–1809	82 shilling
1810–1813	106 shilling

5-rasm. Bug‘doy narxinining o‘lchanishi

1801-yilda bug‘doyning eng yuqori narxi bir tonna uchun 177 shilling tashkil etdi¹³⁷.

Rikardo yuqori ta’riflar Britaniya qishloq xo‘jaligiga katta investitsiyalar oqimining kirib kelishiga sabab bo‘ladi va natijada ta’midot oshib, don narxi tushishiga sababchi bo‘ladi degan nazariyaga rozi bo‘lmadi. Chunki donning yuqori narxi o‘sayotgan ijara natijasi edi. Renta bu o‘rinda narxni shakllantiruvchi vosita sifatida chiqdi. Rikardonni Don Qonuni daromad taqsimoti bo‘ldi. Uningcha yuqori tariflar daromad taqsimotini o‘zgartirib, pomeshiklar manfaatiga xizmat qila boshlaydi. Daromad taqsimotida Adam Smitning muhokamasi to‘liq bo‘lmaganligi sababli, Rikardo iqtisodni shu savolga qaratdi¹³⁸.


Mahsulot hosil qilishda renta hissasi. Rikardo birinchi o‘rinda katta yer egalari va kapitalistlarning uzoq muddatli istiqboldagi o‘zgarishlarni tushuntirib berishga qiziqqan; shuning uchun uning nazariyasida ijara va foyda o‘rtasida aniq farq muhim ahamiyatga ega.

Shubhasiz, bu farqni amaliyotdan ko‘ra nazariyada amalgalashirish osonroq. Rikardo kundalik tilida ishlataladigan atamalar aniq emasligini tan oldi. Fermer tijorat yerdan foydalanish uchun ijarachiga pul to‘laydi, buni renta deb atadi, lekin bu to‘lov ehtimol foyda va renta elementlarini o‘z ichiga oladi. Agar yer, to‘siqlar, drenaj yoki

¹³⁷ Edvin Cannan, Ingliz Siyosiy iqtisodda ishlab chiqarish va taqsimlash nazariyasi tarixi. 3-nashr (London: D. S. King va O‘g‘il 1917), p. 117.

¹³⁸ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 127-132 b.

binolarni qo'shish hisobiga yaxshilangan bo'lsa, unda renta deb atalmish to'lov, bir qismi, tomorqani yaxshilash uchun uy egasiga qaytishi lozim. Bu bilan Rikardo ijara uchun unumdor yer (1) va unumsiz yer (2) qonuni mavjud ekanligini aytadi.



6-rasm. Rikardo bo'yicha renta hisob kitobi

Agar unumdor yer darajasi aholi soniga o'xshab ko'payish xarakteriga ega bo'lganda unda ortiqcha ishlov berishning keragi yo'q bo'lardi. Yer unumdorligi ishchi kuchiga nisbatan teskari proportsionallikda¹³⁹ o'sadi deb hisoblaydi.

Rikardo rentani ijarachiga turli unumdorlikka ega yer uchun to'lov sifatida ko'rdi. 6-rasmda ikki yer uchastkalari tahlil qilinadi, har biriga sarmoya va mehnat birligi jihatidan qarasak, unumdor yerda u 100 bushels bug'doyni va unumsiz yerda u 90 bushelga ega umumiyl jismoniy kuchni talab qiladi deb aytadi.

¹³⁹ Ricardo, Principles, p. 72

4-jadval

Intensiv va ekstensiv unumdorlikdagi yer (brushelda o'Ichangan unumdor mahsulot)

ekstensiv unumdorlik

	<i>Intensiv unumdorlik</i>	<i>A yer</i>	<i>B yer</i>	<i>C yer</i>
		100	90	80
		90	80	
		80		

Raqobat bozorida, ikki yer sinf vakillari foydasi darajasini tenglashtirish uchun kurashadilar. Rentani B yerda ishlayotgan fermer sinfi A yerda ishlayotgan sinf bilan bir hil to'lashga tayyor. Har qanday A yer rentasi B yer rentasidan 10 bushelga ortiq, ammo A dehqonchilikdan bug'doy uchun yuqori foyda keladi. Shunday qilib, A yer egasi ijarasi B yer egasiga nisbatan 10 ga yuqori ijara hosil qiladi.

Rikardo konsepsiyasini to'liq tushunish uchun, keling, biz yer ijarasi uchun uch sinfli qilib tahlil kengaytiramiz va ayni paytda biz intensiv va ekstensiv unumdorlik to'g'risida tushuncha beramiz. Mahsulot ishlab chiqarish unumdorligini 3 yer egaligi sinfi asosida ko'rib chiqamiz, bu yerda kapital va mehnat A sinfda 3, B sinfda 2, C sinfda bir birlikda sarflangan.

Intensiv unumdorlik berilgan yer uchastkalarida kapital va mehnat sarfining izchil birliklarida ko'rsatilgan. Agar A yer sinfi bir birligini ishlab chiqarish uchun 100 bushels ketsa; ikkinchi birlik uchun 190 bushel qo'llaniladigan bo'lsa, unda ikkinchi birlik mahsulot 90 bushelga ko'proq; va hokazo. Intensiv unumdorlik bizning misolimizda unmdor resurslarni kamayib boruvchi tamoyiliga asoslanadi. A yerning kamligini hisobga olgan holda, iqtisodiy nuqtayi nazardan quyi unumdorlikka ega B yerga ishlov berishga kirishildi. A sinfdagi yer uchastkasi unumdorligi past, shu sababli B sinfdagi yer uchastkasiga qaraganda yanada ko'proq ishlovn ni talab qiladi. Agar bizning misolimizda ko'rsatilganidek, B sinfdagi yerlarga o'tmaganimizda, unda A sinf yerlaridan bir birlik mehnat va kapital evaziga katta foydaga ega ishlab chiqarishni tashkil etar edik. Xuddi shunday, C sinf yerlari A va B sinfni foydalanish kamayib bormaganida ishlatmas edik. Har bir yer sinfidan olinadigan unumdor mahsulot mehnat va

kapitalining oxirgi birligiga tengdir. Agar qo'shimcha yer sinflari bo'limganida edi, unda mehnat va kapitalni yuqori unumdorlikka ega boshqa mamlakatlar yerlariga ko'chirgan ma'qul bo'lar edi.

Endi biz Rikardo konsepsiyasini tushunish uchun bu sinflarning renta to'lovlarini ko'rib o'tamiz. Turli yer sinflari oladigan renta har xil bo'ladi: A yerda 30 bushel, B yerda 10 bushel, C yerda esa renta to'lanmaydi.

Raqobatli bozorda renta to'lovi quyidagicha bo'ladi. C sinf yerda kapital va mehnat bir birligi qo'llaniladigan bo'lsa, jami mahsulot 240 bushel donga teng bo'ladi. A yer sinfida bir birlik mehnat va kapital uch ko'rinishda 270 bushel ($100 + 90 + 80$) jami mahsulot hosilini beradi. Shu davgacha ikkala yer sinf fermerlari g'allaga rentani teng narxi (ijara) 30 bushel to'lovni to'lashgan, chunki ular buning uchun kurashmaganlar. Xuddi shunday B sinf ijarasi 10 bushelga (160-170) teng deb ko'rsatadi. Biz, shuningdek, mehnat va kapital birligi evaziga marginal mahsulot orasidagi farqni va ma'lum chegaradagi unumdorlik birligini ishlab chiqarishda intensiv unumdorlikni qo'llagan holda o'lchashimiz mumkin. Misol uchun, A yer sinf rentasi 30 bushel [$(100 - 80) + (90 - 80)$] bo'lib, B sinf uchun 10 bushel (90-80) renta olinadi¹⁴⁰.

“Agar hatto, yer egalari barcha rentalardan voz kechganlarida ham nonning bahosi hech kamaymagan bo'lar edi», – deb yozadi D.Rikardo. Rentani tashkil etuvchi omillarni ham ishonarli qilib ko'rsatib berdi. Bunday omillar: tuproq unumdorligining har xilligi va yer uchastkasining bozorga uzoq yaqin joylashishi hisoblanadi.

Aholi soni oshib borishi bilan milliy daromadda renta hissasining ko'payib borish moyilligi amal qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshib borishi va milliy daromadda renta miqdorining ko'payib borish moyilligi D.Rikardoni juda tashvishga solgan. U, bundan qutulishning yo'li, xuddi T.Maltusga o'xshab, tug'ilishni kamaytirish deb bilgan. D.Rikardo fikri bo'yicha, yomon yerlarni ishlamaslikka imkon beruvchi yana bir vosita xalqaro savdoni rivojlantirish, aholisi zinch bo'limgan mamlakatlardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olib kelish deb bilgan. Nihoyat, D.Rikardo ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon beruvchi texnik taraqqiyotga ishonch hosil qilgan.

¹⁴⁰ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 133-136 b.

Qiymat nazariyasi. D.Rikardo, eng avvalo, qiymat nazariyasiga alohida e'tibor qaratdi. Bu kategoriyani talqin qilishdagi noaniqlikni tugatish, D.Rikardo bo'yicha, siyosiy iqtisod uchun muhim ahamiyatga ega. Bu muammoni ko'rib chiqishda u A.Smit xulosalariga asoslandi va ularni tanqidiy rivojlantirishga harakat qildi. D.Rikardo A.Smitning mazkur kategoriyaga bo'lgan ikki xil qarashini inkor etadi va qiymat tovar ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan aniqlanishi kerakligini yozadi. U, qiymat birlamchi, shu bois daromadlar bilan aniqlanishi mumkin emas, deb hisoblaydi. Bu bilan D.Rikardo o'zini *qiymatning mehnat nazariyasi tarafdoi ekanligini* namoyish etadi.

Qiymatni bunday sarfli tamoyil asosida tadqiq qilish, klassik iqtisodiy maktabining boshqa vakillariga ham xos. Lekin D.Rikardoda e'tiborga molik jihat shundaki, u ayrim hollarda tovar qiymati nafaqat unga sarflangan jonli mehnat bilan, balki kapital va xomashyoni ishlab chiqarish uchun ketgan oldingi mehnat sarflari bilan ham aniqlanishini qayd qilib o'tadi. Erkin takror ishlab chiqarilmaydigan tovarlar qiymati esa nafaqat mehnat sarflariga, balki noyoblikka ham bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, D.Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan qiymatning mehnat nazariyasi sarfli tamoyillarga asoslangan. Uning bu nazariyasini birinchi bo'lib tanqid qilgan o'zining do'sti T.Maltus hisoblanadi. U, birinchidan, savol qo'yadi: agar qiymatning mehnat nazariyasini to'g'ri deb faraz qilsak, unda mehnatga haq to'lash qanday bo'ladi: qiymat bo'yichami yoki qiymatdan past baho bo'yichami? Agar baho qiymatdan past bo'lsa, unda ekvivalentli ayrboshlash tamoyili buziladi (foydaliligi har xil, lekin bir xil qiymatga ega bo'lgan tovarlar ayrboshlanadi) – bu klassik iqtisodiy nazariyaning va D.Rikardonning asosiy tamoyili. Ikkinchidan, T.Maltus qiymatning mehnat nazariyasi real amaliyot bilan mos tushmasligini ko'rsatib beradi: agar qiymatning yagona manbayi haqiqatan ham mehnat bo'lsa, unda mehnat ko'p sarflanadigan tarmoqlardagi tadbirkorlar, kapital ko'p sarflanadigan tarmoqlardagi tadbirkorlarga nisbatan ko'proq foyda olishlari kerak. Amaliyotda esa barcha tarmoqlarda foyda me'yori deyarli bir xil. Demak, D.Rikardo nazariyasi xato, tovar qiymati faqat mehnat bilan emas, balki boshqa ishlab chiqarish omillari sarflari bilan ham aniqlanadi, deb xulosa qiladi T.Maltus. D.Rikardo o'limidan sal avval, o'zining qiymat faqat mehnat sarflari bilan

o‘lchanadi deb tushuntirishga qilgan harakati noto‘g‘ri ekanligini tan olgan.

Ish haqi va foyda nazariyalari. D.Rikardonning ish haqi nazariyasi yoki uning yozishi bo‘yicha “*mehnatning tabiiy bahosi*” va “*mehnatning bozor bahosi*” T.Maltusning nazariy qoidalariga asoslanadi. “*Mehnatning tabiiy bahosi*” bu ishchining yashashi va o‘z naslini davom ettirishi uchun zarur bo‘lgan baho hisoblanadi. U olinadigan pul miqdoriga emas, balki unga sotib olinishi mumkin bo‘lgan zaruriy vositalar miqdoriga bog‘liq. “*Mehnatning bozor bahosi*” mehnatga bo‘lgan talab va taklifning real nisbati asosida shakllanadigan haq sifatida tavsiflanadi. D.Rikardo bo‘yicha, ish haqi dinamikasi ishlovchi aholining soniga bog‘liq, negaki ishlovchi aholining soni ishchi kuchi taklifiga ta’sir ko‘rsatadi. Ishlovchi aholining tabiiy o‘sishiga bog‘liq holda mehnatga bo‘lgan talab va taklif shakllanadi, demak ish haqi ham tebranib turadi. Aholining o‘sish sur’atidan kelib chiqqan holda, ish haqi pasayish moyilligiga ega deb hisoblaydi, uningcha, ish haqi talab va taklif bilan tartiblanib turiladi, ishchilarning soni esa doimo ko‘payib boradi, ularga bo‘lgan talab esa sekin oshadi. D.Rikardo o‘zining bu pessimistik qarashlarini tasdiqlashga urinib, ish haqining oshishi tovarlar bahosining oshishidan sekin yuz beradi, natijada ishchi ish haqi va baho oshgan davrgacha xarid qilishi mumkin bo‘lgan tovarlarga qaraganda kamroq tovar sotib olishga majburligini qo‘srimcha ham qiladi. Lekin ish haqini tartibga soluvchi turuvchi “*omillarini*” tadqiq qilgach, ish haqining pasayish moyilligi faqat uning davlat tomonidan tartibga solinmaydigan “xususiy va erkin raqobat bozori” sharoitida amal qilishi mumkinligiga izoh berib o‘tadi.

D.Rikardoda *foyda* ishchining haq to‘lanmagan mehnati natijasi sifatida tavsiflanadi. Erkin *raqobat sharoitida* foyda, xuddi ish haqiga o‘xshab, pasayish moyilligiga ega, chunki *jamiyatning rivojlanib va boyib borishi bilan qo‘srimcha talab qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ketadigan mehnat sarflari ko‘payib boradi*. Lekin shu yerda u haqli ravishda, foydaning pasayish moyilligi muayyan vaqt o‘tgandan keyin ishlab chiqarishda foydalanayotgan mashinalarni takomillashtirish, agronomiya yutuqlaridan foydalanish tufayli yuz beradi, deb qayd qilib o‘tadi.

Kapital nazariyasi. D.Rikardo bo'yicha, kapital ishlab chiqarishda foydalilaniladigan mamlakat boyligining bir qismi bo'lib, u oziq-ovqat, kiyim-kechak, asbob-uskunalar, xomashyo, mashinalar va boshqalardan iborat. Uning kapital to'g'risidagi qarashlari bu muammo bilan shug'ullangan klassik iqtisodiy maktabning boshqa vakillarining iqtisodiy qarashlari bilan hamohang bo'lsada, ulardan farqli ravishda, bir xil kapital qo'yilmasidan keladigan daromadning har xilligi sababli kapital bir kasb turidan boshqasiga o'tib turishini ko'rsatib berdi. Har bir kishi ko'proq foyda olishga intiladi, shuning uchun u kam foydali ish joyini tashlab ko'p foyda keladigan joyga o'tishga harakat qiladi.

Tayanch so'z va iboralar: kapital, foiz, jamg'arish, markentilizm, fiziokratlar, pul, boylik, millat daromadi, ish unumдорлиги, samarali va samarasiz mehnat, mehnat, soliq, foyda, raqobat, qiymat, baho, sinf, daromad, taqsimot.

8-bob BO'YICHA XULOSALAR

Jahon iqtisodchilari klassik (mumtoz) maktabning eng buyuk vakillari Adam Smit va David Rikardoni liberal iqtisodiyotni shakllantirgan olimlari sifatida taniydi. "Laissyer faire" (lase fyer) fransuzchadan to'la erkinlik ma'nosini bildirib, iqtisodiyotga davlat aralashuvini umuman yo'l qo'ymaslikni bildiradi. A.Smit va D.Rikardo o'z g'oyalarida uni to'lig'icha qo'llashni ma'qul ko'rishgan. Mazkur bobda biz mumtoz maktabning shakllanishida A.Smit va D.Rikardolarning liberalizm sharoitida yaratilgan iqtisodiy ta'limotlarini ko'rib o'tamiz.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida kllassik iqtisodiy maktab to'la shakllandı, bu britanyalik olim A.Smit tomonidan amalgalashuvini oshirildi. Bu tasodifiy voqiya bo'lmay shu davrida Angliyada obyektiv shart-sharoitlar mavjud edi: burjua inqilobi manufakturadan fabrikaga o'tilishi, agrar islohot, kapitalning dastlabki jamg'arilishi, sinfiy va mulkiy differensiatsiya va boshqalar.

Mantiqiy abstraksiya uslubi asosida iqtisodiy voqealari va xarajatlarning mohiyati asosan talqin etib berildi. Yangi burjua jamiyati har tomonlama obyektiv asosida tahlil qilinib, uning progressiv tomonlari ko'rsatib berildi. Xususiy mulkning abadiyligi va daxlsizligi qo'llab-quvvatlandi.

Klassik maktab vakillari inson xohishiga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini tan oladilar. Bu qonunlar iqtisodiy tizimda tabiiy turg‘unlikni ta’minlashga, o‘z-o‘zini boshqarishiga qodir ekanligini tan olinadi, shu sababliy davlatning iqtisodiyotga aralashuvi iloji boricha imkor etiladi va erkin savdo-sotiq qo‘llanadi. «Ko‘rinmas qo‘l» yordamida avtomatik iqtisodiyot erkin bozor munosabatlari doimo rivojlanish qobiliyatiga egadir.

Birinchi bor erkin bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy tamoyillari aniqlab berildi. Mehnat taqsimoti iqtisodiy taraqqiyot asosi sifatida to‘g‘ri ko‘rib chiqilgan.

Mehnat taqsimoti faqat tarmoqlararo emas, balki mamlakatlar o‘rtasida ham katta naf keltirishi isbotlab berildi (D.Rekardo), mutloq va nisbiy ustunlik tamoyillari ishlab chiqildi. Ishlab chiqarish sohasidan qat’iy nazar (sanoat, qishloq, xo‘jaligi, savdo va xizmat...), mehnat jamiyatni boyligining asosi ekanligi. Jamiyatning sinfiy tuzilishi asosan to‘g‘ri ko‘rib chiqildi, ular o‘rtasida keskin qarama-qarshilik yo‘qligi ko‘rsatilgan, bu jamiyatda iqtisodiyot avtomatik boshqarilgani tufayli iqtisodiy inqirozlar inkor etildi.

Iqtisodiyotning muhim kategoriyalari bo‘lgan qiymat, pul, baho, foyda, ish haqi, renta, kapital va boshqalarga asosan to‘lav yo‘ri tarif berilgan.

Yangi jamiyatning progressiv tomonlari bilan birga bozor iqtisodiyotining bekamu-ko‘st emasligi, uning bir qancha jiddiy kamchiliklari borligi ham qayd etilgan.

NAZORAT SAVOLLARI


1. Klassik iqtisodiy mактабning Angliyada vujudga kelishi qanday ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda ro‘y berdi?
2. Sanoat to‘ntarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar nimalardan iborat?
3. A.Smitning bosh iqtisodiy asari qachon yozib tugallandi va undagi asosiy iqtisodiy g‘oyalar nima? Olimning tadqiqot metodologiyasi nimaga asoslanadi?
4. Nima uchun A.Smit manufaktura ishlab chiqarishining mafkurachisi bo‘lib qoldi?

5. Mehnat taqsimotining ustunlik tomonlari nima va kamchiligi nimada?
6. A.Smitning pul, qiymat, daromadlar, ish haqi, kapital va takror ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ta’limotlariga qisqacha izoh bering.
7. «Smit dogmasi» nima? Uning kamchiligi nima?
8. «Lassez faire» va «ko‘rinmas qo‘l» tamoyillari nimani anglatadi?
9. Xalq boyligi qanday omillarga bog‘liq?
10. Nochor ahvolga tushgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun nima qilmoq kerak?

9-bob. KLASSIK IQTISODIY MAKTABGA MUQOBIL G‘OYALARING MOHIYADTI

9.1. TOMAS MALTUSNING “NUFUZ NAZARIYASI”

Marksistik iqtisodiy fanda «marksist» bo‘lman mualliflarni sharmanda qilish «an‘anasi» bor edi. Ehtimol, eng ashaddiy va qattiq tanqidga uchragan ingliz olimi Tomas Robert Maltus¹⁴¹ g‘oyalari bo‘lsa kerak. Uni nimalar deb atashmadi: kapitalizm himoyachisi (apologeti), odamlarning dushmani, fashizm ideologi. Eng qiziqarli joyi shundaki, T.Maltus nafaqat turli toifadagi sotsialistlarning, balki ularning asosiy muxolifatlari bo‘lgan erkin bozor va xususiy tadbirkorlikning mutlaq ustunliklariga ishongan liberallarning ham g‘azabini qo‘zg‘atgan. Nega T.Maltusni shunchalik yomon ko‘rishgan? Pessimizmi uchun, aholi farovonligini ancha oshirish mumkinligiga ishonmaganligi uchun. Axir sotsialistlar ham, liberallar ham «baxtli kelajakka» ishongan. Birinchisi, xo‘jalik jarayonlarini ongli ravishda ijtimoiy tartibga solish tufayli umumiy farovonlikka erishishga umid qilgan bo‘lsalar, ikkinchisi, turmush darajasini oshirish bozor mexanizmining amal qilishi va xususiy manfaatdorlik kuchi bilan ta’milanishiga ishongan. Unisiga ham, bunisiga ham pessimizm yet bo‘lgan.



Tomas Robert Maltus (1766–1834)

Ingliz iqtisodchisi **Tomas Robert Maltus (1766–1834)** dvoryan oilasida

tug‘ilgan. Kembrij universitetini tamomlagach, qishloq ruhoniysi, 1807-yildan esa siyosiy iqtisod professori bo‘ldi. Uning asosiy asarlari **«Aholi nufus qonuni to‘g‘risida tajriba» (1798)**, **«Yer rentasining tabiati va o‘sishi to‘g‘risida tadqiqot» (1815)**, **«Siyosiy iqtisodning prinsiplari» (1820)** hisoblanadi¹⁴².

«Nufus qonuni». T.Maltus resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi sharoitida aholi ehtiyojlarini qondirish

¹⁴¹ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 127–132-б.

¹⁴² А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 137–143-б.

muammosiga o‘ziga xos tarzda yondashdi. U o‘zining “Nufus qonuni to‘g‘risida tajriba” asarida aholi soni juda tez ko‘payib boradi, oziq-ovqat mahsulotlarning o‘sishi esa, ancha orqada qolib ketadi deb ishontirishga uringan. T.Maltus aholining ko‘payishini cheklovchi muayyan chora-tadbirlar qo‘llanilmasa, insoniyat ocharchilikka duch keladi deb xulosa qiladi va bunday vaziyatdan chiqishning ikki yo‘lini taklif etadi: **birinchisi** – epidemiyalar, urushlar, kasalliklar natijasida aholining kamayishi, bunda tabiatning o‘zi kishilar bilan ularning yashash vositalari o‘rtasida me’yorl nisbatning o‘rnatalishiga qisman yordam beradi, **ikkinchi yo‘l** – nikohdan voz kechish yoki kech turmush ko‘rish, tug‘ilishni kamaytirish.

Rikardo¹⁴³ taklif qilgan iqtisodiy tamoyillariga amal qilinayotgan bir paytda iqtisodchilar uchun aholining ko‘payishi muammosi dolzab hisoblanar edi, ular aholi sonining oshib ketishining dahshatliliklaridan qutulish uchun Maltusning nazariyasida keltirilgan oilalarda homiladorlikdan saqlanish vositalaridan foydalanishni taklif qila boshladilar.

D.Rikardoda daromad taqsimlanishi va qiymatning ma’lum vaqt oralig‘ida vujudga kelishidagi g‘oyalar Tomas Maltusni o‘ylantirgan. Masalan, Rikardonning taqsimot nazariyasi va yashash darajasi minimumi Maltusning aholi nazariyasida keltirilgan. Agar ish haqi darajasi va yashash minimumini aniqlash imkon bo‘lmasa, unda uzoq vaqt davomida daromadlar taqsimotini aniqlash imkon bo‘lmaydi. Shunday qilib, Rikardonning taqsimot nazariyasi Maltusning aholi nazariyasiga butunlay bog‘liqdir. 1830-yilning ikkinchi yarmiga kelib Rikardonning iqtisodiy ta’limotlarini rad etuvchi ko‘plab ma’lumotlar yig‘ildi, o‘sha vaqtarda Rikardo ta’limotining asosiy g‘oyasi bo‘lmish uzoq muddatga mo‘ljallangan davrda daromadlar taqsimotidagi o‘zgarishlarni tushuntirishga ojizlik qildi¹⁴⁴.

T. Maltus o‘z nazariyasini asoslab berishda tuproq unumdorligining pasayib borish konsepsiyasidan foydalangan. Agar bitta yer uchastkasining o‘ziga ustma-ust mehnat sarflansa, u xuddi shunday nisbatda hosildorlikning o‘sishiga olib kelmaydi, chunki hosildorlik

¹⁴³ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 128–130-б.

¹⁴⁴ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 175–176-b.

faqat mehnatga emas, balki tuproqning tabiiy unumdorligiga ham bog‘liq bo‘ladi. U berishi mumkin bo‘lgan narsadan ortiqchasini undan olib bo‘lmaydi. Hisoblab chiqqach, T.Maltus xulosa qiladi: insoniyat qancha harakat qilmasin, qishloq xo‘jaligidan u oladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori faqat arifmetik progressiyada o‘sadi (eslatib o‘tamiz, arifmetik progressiyada o‘sish 1,2,3,4,5 ... ko‘rinishda, ya’ni har bir keyingi son oldingisidan bir xil absolut miqdorga oshib boradi), aholining soni esa geometrik progressiyada o‘sadi va 25 yilda ikki barobar ko‘payadi (eslatib o‘tamiz, geometrik progressiyada o‘sish 1,2,4,8,16 ... ko‘rinishda, ya’ni har bir keyingi son oldingisidan 2 barobar ko‘p bo‘ladi). Agar yer aholisi asr boshida 1 mlrd. bo‘lsa, asr oxiriga kelib u 8 mlrd. tashkil etadi, yashash vositalari esa to‘rtadan birga ko‘payadi.

T.Maltus esa ijtimoiy siyosatning hukumat va boshqa jamiyat tashkilotlar tomonidan olib borilishiga qat’iy qarshi bo‘lgan. Uning fikricha, kambag‘allarga bo‘lgan xayrixohlik ularning ahvolini yaxshilashga qodir emas, balki faqat vaziyatni keskinlashtiradi. Aholining quyi tabaqalariga ko‘rsatiladigan moliyaviy yordam qisqa muddatli samara beradi va shu bilan aholining o‘sishini rag‘batlantiradi. Ammo bu unga muvofiq ravishda oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘payishiga olib kelmaydi. Demak, umuman olganda, jamiyat kambag‘allahadi. T.Maltusning fikricha, qashshoqlikning asosiy sababi boshqaruv yoki notejis taqsimotga bog‘liq emas, balki u «tabiiy qonunlar va inson ehtiroslari», tabiatning xasisligi va odamlarning juda tez ko‘payishi bilan bog‘liqdir. Shu bois, «xalq o‘z azob-uqubatlari uchun, birinchi navbatda, o‘zini ayblashi kerak». Unga hech qanday inqilob va ijtimoiy islohotlar yordam bera olmaydi. Shuning uchun aholining o‘sishini va tekinxo‘rlikni rag‘batlantiruvchi ijtimoiy va xususiy xayrixohlikdan voz kechish zarur.

Bu nazariya barcha iqtisodiy ta’limotlar ichida eng qayg‘ulisi, eng ma’yusi hisoblanadi. T.Maltusdan keyingi davrdagi iqtisodchilar uning xulosa va prognozlari asossiz ekanligini isbotlab berdilar. Buning uchun odamlarga tuproq unumdorligini oshirish, T.Maltus tasavvur qila olmagan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish imkonini yaratib beruvchi fan-texnika yutuqlari asos bo‘ldi. Amerika iqtisodchisi J.L.Saymonning tasdiqlashicha, insonning ijodkorligi va uning mevasi – texnik jarayon yer sayorasidagi aholining har qanday

o'sishini kompensatsiyalashi va uning yuqori hayot darajasini ta'minlashi mumkin.

Hozirgi zamon iqtisodchilari T.Maltusning ijtimoiy siyosatning ahamiyatiga bergan bahosiga qo'shilmaydilar. Mehnatga yaroqsiz va kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash hozirgi zamonaviy jamiyat iqtisodiy siyosatning zarur qismidir. Bundan tashqari, xayriya faoliyati ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ushlab turish uchun ham zarur: kambag'allarning ko'payishi bunday barqarorlikka xavf solishi mumkin. Biroq bunda faol ijtimoiy siyosatning salbiy tomonini ham hisobga olish zarur: u mehnatga va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishni susaytiradi.

T.Maltus o'zining «Nufus nazariyasi»ni tarixiy material va faktlardan foydalangan holda asoslab berishga harakat qilgan. Ammo u unumdorlikning pasayishi savoli bo'yicha o'z dalillarida jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini muttasil kengaytirib boruvchi texnika taraqqiyotining ahamiyatini inkor etdi. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida AQSH aholisi deyarli to'rt barobar ko'paydi, lekin shu bilan birga jamiyat a'zolarining o'rtacha daromadlari ham to'rt marta o'sdi. T.Maltus aholi zich joylashgan mamlakatlarga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun tabiiy sharoiti yaxshi bo'lgan mamlakatlardan oziq-ovqat mahsulotlarini olib kelish imkonini beruvchi transport vositalarining tez rivojiana borishini ko'ra olmagan. Nihoyat, ingлиз олими о'lim darajasiga e'tibor bermagan (o'lim darajasi bilan aholining ko'payish darajasi nisbatan bir xil) va jamiyat farovonligining o'sishi tug'ilishning kamayishiga olib kelishini ham hisobga olmagan.

Rivojlangan mamlakatlarda aholining ko'payishiga bo'lgan moyillik yuqori emas. Nimaga? Buning asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, hozirgi davrda yosh bolalar o'limi darajasining pasayishi ko'p bolalik bo'lish zarurligini bekor qiladi. Oldingi davrda yosh bolalar o'limi ko'p bo'lganidan ehtiyyot shartdan ularning tug'ilishi ko'p bo'lgan. Ikkinci asosiy sababi (Nobel mukofotining sohibi G.Bekker fikriga asosan), ko'pchilik ziyoli ayollar uyda bola boqib o'tirishdan ko'ra, muayyan mansabdagi ijtimoiy ish bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar. Oila ma'lum ma'noda ikkinchi o'ringa suriladi. Tug'ilishning kamayishiga ta'sir etuvchi uchinchi sabab urbanizatsiya – jamiyatning rivojlanishida shaharning ahamiyati oshib borishi hisoblanadi. Shahar hayot tarzi ko'p bolali oilalarning

ko‘payishini keltirib chiqarmaydi. Agar qishloqda bola yoshligidan yordamchi hisoblansa, shaharda esa o‘z tarbiyasi uchun katta mablag‘ va vaqt sarflashni talab qiluvchi iste’molchi hisoblanadi.

Ammo, qancha ajablanarli bo‘lmasin, XX asrning oxiriga kelib industrial rivojlanish ijtimoiy pessimizmning kelajagi yo‘qligiga barchada ishonch tuyg‘usini uyg‘otgan bir paytda, T. Maltusning ko‘plab g‘oyalari yana faollashdi. Real hayotdan olingan ba’zi bir faktlarni ko‘rib chiqamiz.

Qayerda ishlab chiqarish, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi yomon tashkil etilgan bo‘lsa, qayerda hosildorlik past, yig‘ib olingani esa omborlarning yetishmasligidan chirayotgan bo‘lsa, o‘sha yerda T.Maltusning qayg‘uli xulosalari o‘z kuchini saqlab qolgan. Buni bugungi kunda ham ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar xalqlari his etib turibdi. Shu narsani hisobga olish kerakki, 83 % jahon iste’moli 20 % aholiga to‘g‘ri keladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar farovonligi darajasidagi farq kuchayib bormoqda. XX asr 70-yillarning boshida ocharchilikdan qiynalganlar 400 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 80-yillari – 500 mln., 90-yillari esa 700 mln. kishidan ko‘pini tashkil etdi. Kam rivojlangan mamlakatlar turmush darajasini «jahon andozasi»ga «ko‘tarish» uchun resurslardan foydalanishni 40 baravar ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi.

9.2. J.S. MILL IQTISODIY QARASHLARI

Djon Styuard Millning otasi Djeyms Mill (1773–1836)¹⁴⁵ David Rikardonning do‘sti va izdoshi edi. Angliyalik falsafachi, tarixchi va iqtisodchi, klassik iqtisod maktabi vakili, “rikardochi”dir. 1798-yili Edingburg universitetining Bogoslov fakultetini tugatgan, keyinchalik o‘z lavozimidan voz kechdi. Ost-Indiya kompaniyasida ishlagan. Millning fikricha, siyosiy iqtisod bu oila xo‘jaligini yuritish bilan barobar. Siyosiy iqtisodning ikki asosiy obyekti, uning fikricha, jamiyatning ehtiyojlari va uni qondirishga qaratilgan taklifdir. O‘zining “Vesministr obozreniya” jurnalida bergen maqolasida angliya konstitutsiyasining tanqidiy tahlilini berib, uni qaytadan ko‘rib chiqishni bildirdi. Asosiy asarlari: “Angliya tomonidan yaratilgan


¹⁴⁵ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 132–141-б.

Indiya tarixi” (1817), “Siyosiy iqtisod omillari” (1821) va “Inson aqlining hodisalarini tahlil qilish jarayoni” (1826).

Uning o‘g‘li **Djon Styuard Mill** (1806–1873) faqatgina iqtisodiyotga emas, shuningdek, siyosiy fanga va filosofiyaga sezilarli darajada hissasini qo‘sghan eng g‘ayrioddiy va tug‘ma qobiliyat faylasuf edi. Uning ulkan zakovatli kuchlarini yakka keng va shiddatli ta’lim orqali to‘ldirdi. Uning otasi James Mill bolaga ta’limning roli qay darajada ekanligini ko‘rsatdi. U 3 yoshligida grek tilini va 8 yoshligida lotin tilini o‘rgandi. Matematika, kimyo, fizika, logika ilmini o‘rgangandan so‘ng u 13 yoshida siyosiy iqtisodiyotni o‘rganishni boshladi. Uning rasmiy ta’limi 15 yoshigacha tugallandi va keyingi 4 yilini Benhamning 5 tomli asarini yozish bilan kechdi.

J.S.Mill o‘zining birinchi siyosiy iqtisod bo‘yicha «tajriba»sini 23 yoshida, ya’ni 1829-yil nashr etdi. 1843-yili unga shuhrat keltirgan «**Mantiq tizimi**» nomli falsafiy asari vujudga keldi. Asosiy asari «**Siyosiy iqtisod asoslari...**» bo‘lib, u 1848-yili chop etilgan. Bu asar beshta kitobdan iborat: (1) “Ishlab chiqarish”, (2) “Taqsimot”, (3) “Ayirboshlash”, (4) “Jamiyat rivojlanishining ishlab chiqarish va taqsimotga ta’siri”, (5) “Davlatning bozor iqtisodiyotiga ta’siri to‘g‘risida”. Bu asarning so‘zboshida yozilishicha, J.S.Mill iqtisodiy bilimlar darajasining yuksalib borishini va ilg‘or zamonaviy g‘oyalarni hisobga olgan holda A.Smitning “Odamlar boyligi ...” va D.Rikardonning “Siyosiy iqtisodning boshlanishi”ning yangilangan variantini yaratishni o‘ziga maqsad qilib qo‘yan. Asarning ushbu yuqorida ko‘rinishda tuzilishi esa, muallifning fikricha, Smit-Rikardo iqtisodiy nazariyalarini izohlashda muayyan tartib va aniqlik kiritadi. J.S.Mill nafaqat iqtisodiy bilimlarni tizimlashtirdi va ommaviylashtirdi, balki uning tomonidan bir qator qoidalar rivojlantirildi va ularga aniqlik kiritildi, xulosa va yakun dalillar bilan yana ham ishonarli qilib asoslab berildi.

J.S.Mill siyosiy iqtisodni boylikning mohiyatini, uni ishlab chiqarish va taqsimlash qonunlarini tadqiqot qiluvchi fan sifatida ta’riflaydi. Shu bilan birga, uning fikricha, taqsimot tarixiy xarakterga



Djon Styuard Mill (1806 - 1873)

ega bo‘lib, ishlab chiqarish qonunlari esa abadiy hisoblanadi.

Ko‘pchilik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, iqtisodiy fanning metodologiyasini takomillashtirish J.S.Millning asosiy xizmati hisoblanadi. U nazariy xulosalar faqat muayyan sharoitda to‘g‘ri bo‘lishidan kelib chiqqan holda, har qanday nazariy sxemaning nisbiyligini doimo ta‘kidlagan va ko‘p omilli tahlilning zarurligini ko‘rsatib bergen. Tadqiqot metodi J.S.Millning tavsiyasiga ko‘ra, ikki asosiy narsaga asoslanadi: 1) xulosa va yakun, odatda, faqat muayyan sharoitda to‘g‘ridir; 2) ular har tomonlama (universal) bo‘lishi mumkin emas. Iqtisodiy hayotda bitta emas, balki juda ko‘p sabablar amal qiladi. Ularni anglash, asosini ajratib olish juda qiyin, shuning uchun ularni chalkashtirib yubormaslik, sabab va oqibatni bir-biridan ajrata bilish lozim.

O‘zgarib turuvchi sharoitlarni va o‘zaro aloqalarni hisobga olgan holda turli konsepsiya va qarashlarni, yondashuv va tavsiyalarni taqqoslash, to‘g‘ri xulosa chiqara bilish iqtisodiy bilimlarning meros bo‘lib qolishini ta‘minlaydi.

J.S.Mill klassik iqtisodiy maktabni yakunlovchilardan biri sifatida iqtisodiy ta‘limotlarning rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shdi. Biz uning asosiy iqtisodiy nazariyalarini quyida ko‘rib chiqamiz.

Unumli mehnat nazariyasi. J.S.Millning bu nazariyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra A.Smit nazariyasi bilan hamohang. J.S.Millning ta‘kidlashicha, *faqat unumli mehnat* (natijasi ko‘rinib turadigan mehnat) “*boylik*” ya’ni “*moddiy ne’matlar*”ni yaratadi. Uning nazariyasidagi yangilik shundan iboratki, mulkni muhofaza qiluvchi mehnatni va jamg‘armalarni ko‘paytirishga imkon beruvchi malakaga ega bo‘lish uchun sarflanadigan mehnatni ham unumli deb hisoblaydi. J.S.Millning tasdiqlashicha, agar bu iste’mol “jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini qo‘llab-quvvatlasa va ko‘paytirsa”, unumli mehnatdan keladigan daromadlar unumli iste’mol hisoblanadi. Uningcha, *unumsiz mehnatdan keladigan har qanday daromad bu-faqat unumli mehnat bilan yaratilgan daromadning oddiy qayta taqsimlanishidir*. Agar u ishchining va uning oilasining yashashi uchun zarur bo‘lgan vositalar minimumini ta‘minlasa, hatto ish haqi iste’moli unumli hisoblanadi, uning “zeb-ziyнат” keltiradigan qismi esa unumsiz hisoblanadi.

J.S.Mill qiyomat, almashuv qiyomat, iste'mol qiyomat tushunchalarini ko'rib chiqadi. Uningcha, qiyomat ishlab chiqarish sohasiga emas, balki muomala sohasiga xos hodisa hisoblanadi va bir tovarni boshqa tovarga, shu jumladan, pulga ayirboshlash uchun xarakterli bo'lgan o'rtadagi nisbat hisoblanadi; bunday nisbat bozorda o'rnatiladi. Qiymat (qimmat) nisbiy tushuncha bo'lganligi sababli, u barcha tovarlar bo'yicha birdaniga oshishi mumkin emas. Almashuv qiyomat (tovar bahosi) talab va taklif muvozanatlashgan nuqtada o'rnatiladi, ya'ni talab va taklifga qarab o'rnatiladi, ishlab chiqarish xarajatlari esa taklifni aniqlab beruvchi omil sifatida tavsiflanadi. Tovar qiyamatning puldag'i ifodasi uning bahosi hisoblanadi. Bahos bevosita raqobat asosida o'rnatiladi. Raqobat esa xaridor arzon olishga, sotuvchi esa qimmat sotishga intilishi sababli kelib chiqadi. Erkin raqobatda bozor bahosi talab va taklif darajasiga qarab o'rnatiladi. Aksincha, «monopolist o'z ixtiyoricha xohlagan yuqori bahoni o'rnatishi mumkin, faqat u xaridor sotib olishi yoki xohishi mumkin bo'lgan bahodan yuqori bo'lmasa bas; ammo bunga u faqat taklifni kamaytirish yo'li bilan erishishi mumkin».

Uzoq davr mobaynida tovar bahosi uning ishlab chiqarish xarajatlardan past bo'lishi mumkin emas, negaki hech kim o'z zarariga ishlashni xohlamaydi. Shuning uchun talab va taklif o'rtasidagi barqaror muvozanat «qachonki buyumlar bir-biriga faqat ularning ishlab chiqarish xarajatlariga mos ravishda ayirboshlangandagina o'rnatiladi».

Kapital va foyda nazariyasi. J.S.Mill jamg'arish natijasida vujudga keladigan mehnat mahsulotlari zaxirasini kapital deb atagan. Ishlab chiqarish faoliyati kapital miqdori bilan chegaralanadi. Kapitalning har bir ko'payishi ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi. Agar mehnat qilishga qobiliyatli kishilar topilsa va ular yeishi uchun ovqat bo'lsa, ulardan qandaydir ishlab chiqarishda doimo foydalanish mumkin. Chunki investitsiyaning asosi sifatida kapitalning tashkil topishi ish bilan bandlik doirasini kengaytirish imkonini beradi va agar «boylarning unumsiz xarajatlari» hisobga olinmasa, ishsizlikka barham berishi mumkin.

Ammo J.S.Millning ta'kidlashicha, kapitalning rivojlanishiga boshqa cheklanishlar ham xos. Ularning biri – kapitaldan keladigan daromadlarning kamayishidir. Uni J.S.Mill kapitalning me'yorli

unumdorligining pasayishi sababli kelib chiqadi, deb tushuntiradi. Masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari miqdorini ko‘paytirish ushbu miqdor ekvivalentiga nisbatan ko‘proq mehnat sarflash evazigagina bo‘lishi mumkin. Boshqacha bo‘lishi aslo mumkin emas.

Umuman, foyda to‘g‘risidagi savolni tushuntirib berishda J.S.Mill D.Rikardo qarashlariga asoslanadi. O‘rtacha foyda me’yorining vujudga kelishi shunga olib keladiki, bunda foyda ishlatilayotgan kapitalga mutanosib bo‘ladi, baho esa – xarajatlarga. «Sarf-xarajatlar, ya’ni ishlab chiqarish xarajatlari bir xil bo‘lgan joyda foyda ham bir xil bo‘lishi uchun, narsalar bir-biriga mutanosib tarzda ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha ayrboshlanishi kerak, ishlab chiqarish xarajatlari bir xil bo‘lgan narsalar bir xil qiymatga ega bo‘lishlari kerak, shuning uchun faqatgina bir xil xarajatlar bir xil daromad olib keladi».

J.S.Millning yozishicha, rentaga o‘xshagan, maxsus ko‘rinishga ega bo‘lgan foyda ham amal qiladi. Gap amalda nisbatan ustunlikka ega bo‘lgan ishlab chiqaruvchi yoki savdogar to‘g‘risida boradi. Modomiki, uning raqobatchilari bunday ustunlikka ega emas ekan, unda «u mahsulot qiymatini aniqlab beruvchi ishlab chiqarish xarajatlariga qaraganda kam xarajat sarflab bozorga tovar chiqarishi mumkin. Bunda ... ustunlikka ega bo‘lgan kishi renta oluvchiga o‘xshab ketadi».

J.S.Mill foydaning vujudga kelish sababini xuddi A.Smit va D.Rikardo kabi tushuntiradi: «Foyda ayrboshlash natijasida emas..., balki mehnatning unumdorlik kuchi natijasida vujudga keladi... Agar mamlakatdagi barcha mehnatkashlar tomonidan yaratilgan mahsulot, mehnatkashlar ish haqi ko‘rinishida iste’mol qiladigan mahsulotdan 20 foizga ko‘p bo‘lsa, unda bahoning qanday bo‘lishidan qat’i nazar, foyda 20 foizni tashkil etadi».

Pul, kredit va savdo inqirozi nazariyalari. Pulning mohiyatini J.S.Mill pulning miqdoriy nazariyasidan kelib chiqqan holda tahlil qiladi. U bu bilan o‘zini pulning miqdoriy nazariyasi tarafdori ekanligini ko‘rsatadi. Bu nazariyaga muvofiq, pul miqdorining ko‘payishi yoki kamayishi tovarlar bahosining nisbiy o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo agar uning miqdorining ko‘payishi oldi-sotdi miqdorining ko‘payishiga (yoki yalpi daromadga) muvofiq kelsa, faqat birgina pul miqdorining ko‘payishi bahoning oshishiga olib kelmaydi. Uningcha, boshqa barcha sharoitlar bir xil bo‘lganda, “*pulning qiymati*

pul miqdoriga teskari mutanosiblikda o‘zgaradi: pul miqdorining har qanaqasiga ko‘payishi uning qiymatini pasaytiradi, pulning har qanaqasiga kamayishi esa, uning qiymatini bir xil mutanosiblikda oshiradi... Bu – pulning maxsus xususiyati”. Qachonki pul mexanizmi buzilsa, faqat shundagina iqtisodiyotda pulning ahamiyati sezila boshlaydi.

So‘ngra J.S.Mill kreditning tabiatini va uning iqtisodiyotdagi o‘rnini tadqiq qilishga o‘tadi. Bu yerda J.S.Mill o‘zini A.Smit va D.Rikardo g‘oyalarini ommaviylashtiruvchi oddiy iste’dod egasi sifatida emas, balki chuqur o‘ziga xos tadqiqotchi ekanligini namoyon etadi: «Kredit mamlakatning ishlab chiqarish resurslarini ko‘paytirmaydi, lekin kredit tufayli ular ishlab chiqarish faoliyatida ancha to‘liq ishlatiladi». Kredit manbayi ayni chog‘da unumli iste’molda bo‘limgan pul shaklidagi kapital hisoblanadi. Foiz to‘lash evaziga kredit beruvchi asosiy instrument sifatida depozitli banklar tashkil topadi. Bunda bank krediti bahoga taklifning o‘sishi qanday ta’sir ko‘rsatsa, xuddi shunday ta’sir ko‘rsatadi.

Kredit to‘lovga qobil talabni kengaytirgach va subyektlarning istaklariga ta’sir ko‘rsatgach, savdo konyunkturasini keskin o‘zgartirib yuboradi. Muayyan tovarning bahosi oshishi kutilsa, savdogarlar bundan foyda olishga bo‘lgan o‘z moyilliklarini namoyish etadilar. Agar bunda bahoning oshishi yuqori va uzoqqa cho‘ziladigan bo‘lsa, unda u boshqa chayqovchilarni ham o‘ziga tortadi. Ular tovarlar xaridini kuchaytiradilar, bu esa beriladigan ssuda miqdorini ko‘paytiradi, bahoni oshiradi. Bir oz vaqt o‘tgandan keyin bahoning o‘sishi to‘xtaydi va tovarlarni o‘z qo‘llarida ushlab turganlar foyda olish vaqt kelganini his qiladilar va ularni sotishga kirishadilar. Bahpasaya boshlaydi, tovar egalari katta zarar ko‘rmaslik uchun bozorga shoshiladilar, bunday vaziyatdagi bozorda xaridorlar unchalik ko‘p bo‘limganligi sababli, baho oldin oshganiga qaraganda, ancha tez pasayib boradi.

Shunga o‘xshagan bir oz tebranishlar kredit bo‘limgan paytda ham bo‘lib turadi. Ammo pul miqdori o‘zgarmagan vaqtida bir xil tovarlarga bo‘lgan ajiotaj talab boshqa tovarlarning bahosini pasaytiradi. Lekin kreditdan foydalanilganda, iqtisodiy subyektlar qo‘sishimcha pul manbayiga ega bo‘ladilar. Bunday vaziyatda

chayqovchilik barcha tovarlarni birdaniga qamrab olishi mumkin. Natijada savdo inqirozi kelib chiqadi.

Savdo inqirozi uchun «chayqovchilikning jonlanishi ta'sirida oldin oshgan baholarning tez pasayib borishi tipik hol hisoblanadi. Baholar qaysi nuqtadan oshishiga boshlagan bo'lsa, shu nuqtagacha pasayishi mumkindek tuyuladi yoki iste'mol va taklif o'zini oqlaydigan darajagacha pasayadigandek bilinadi. Ammo ularning pasayishi ancha chuqur bo'ladi, negaki har bir kishi zarar ko'rayotgan paytda, ko'pchilik esa bankrotga uchragan bir davrda, hatto ishonchli va atoqli firmalar o'zlar o'r ganib qolgan kreditni zo'rg'a olishlari mumkin. Bunday vaziyat shuning uchun sodir bo'ladiki, hech kimda qarzga bergen mablag'ini o'z vaqtida qaytarib olishga ishonch bo'lmaydi. Favqulodda sharoitda bunga vahimachilik kelib qo'shiladi. Pul qisqa muddatga deyarli har qanday foiz to'lash sharti bilan qarzga olinadi, tovarlarni sotishda esa, darhol naqd pulga xarid qiluvchilar shartlaridan ko'rildigan har qanday zararga e'tibor berilmaydi. Demak, savdo inqirozi davrida baholarning umumiylar darajasi shu qadar pasayadiki, oldingi inqirozgacha bo'lgan chayqovchilik davri mobaynida osha boshlagan darajadan ham past bo'ladi». O'z mohiyatiga ko'ra, bu iqtisodiy fikrlar tarixida birinchi marta iqtisodiyotning pasayish dinamikasining pulli jihatlarining ifoda etilishidir.

Bu yerda J.S.Mill S.Sismondi taklif qilgan iqtisodiy pasayish (inqiroz) tushunchasiga qo'shilmadi. Uning fikricha, inqiroz umumiylar ortiqcha ishlab chiqarish natijasi hisoblanadi deyish, katta xatodir. «Bu faqat ortiqcha chayqovchilik xaridining oqibatidir... Uning bevosita sababi kreditning qisqarishi hisoblanadi, bartaraf qilish vositasi esa – taklifni kamaytirish emas, balki ishonchni tiklashdir». Bu ma'noda J.S.Mill J.M.Keynsning o'tmishdoshidir.

J.S.Millning tasdiqlashicha, konvertatsiyalashgan qog'oz valutalar sharoitida oltinning chetga chiqib ketishi yuzaga kelishi sababli baholar uzoq vaqt oshishi mumkin emas. Biroq qog'oz pullar konvertatsiyalashmaganda (ularni oltinga almashtirish mexanizmi yo'q) baholarning oshishi chayqovchilik shov-shuv (bum)i ning kelib chiqishiga olib kelishi va inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. 1825-yildagi inqiroz bunga misol bo'la oladi. Ammo keyingi 1847-yildagi inqiroz esa foiz stavkasining keskin o'sishi natijasi hisoblanadi. Savdo inqirozlari davrida «pul talabidan ko'ra,

tovarlarning ortiqchaligi yuzaga keladi, ya’ni pul taklifining yetishmasligi kelib chiqadi».

Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi. Iqtisodiy taraqqiyot, J.S. Mill ta’limoti bo‘yicha, fan-texnika taraqqiyoti, shaxsning va mulkning rivojlanishi bilan bog‘liq. Ishlab chiqarish va jamg‘arish ko‘payadi, soliqlar ancha erkinlashadi, ko‘pchilik kishilarning ishbilarmonligi oshadi, kooperatsiya takomillashib va rivojlanib boradi. Bularning barchasi samaradorlikning o‘sishiga, ya’ni ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga va qiymatning pasayishiga olib keladi (oziq-ovqat va xom ashyo qiymatidan tashqari).

J.S.Millda kapital evolyutsiyasi D.Rikardo nazariyasiga o‘xshab ketadi. Foyda me’yori pasayib boradi, asta-sekin minimum darajaga intiladi, lekin bu holat hali ham kapitalni jamg‘arishga va jamg‘arilgan vositalardan unumli foydalanishga undaydi. Foiz me’yorining minimum darajasiga bo‘lgan intilishni chetga kapital chiqarish va eksportni ko‘paytirish bilan sekinlashtirish mumkin. Bunda foyda me’yorini pasaytiruvchi kapitalning ortiqcha qismi chetga chiqib ketadi; bu yerda kapital yo‘qolmaydi, balki u yangi bozorlarni tashkil etish va chetdan arzon tovarlarni olib kelish uchun ishlatiladi. Kapitalning bir qismining chetga chiqib ketishi foydani va foiz me’yorini oshirib, jamg‘armaga bo‘lgan yangi intilishni keltirib chiqaradi. U, shuningdek, foyda me’yorining pasayish moyilligi davlat xarajatlarini oshirishga qarshi bo‘lgan dalillarni kuchsizlantiradi, deb hisoblaydi.

Ko‘rilayotgan kapital harakatning oxirgi natijasi – bu iqtisodiy yuksalish uchun kurash to‘xtagan paytdagi turg‘unlik holati hisoblanadi. Ammo J.S.Mill, agar turg‘unlik holati ishlab chiqarishning yuqori darajasida yuzaga kelgan bo‘lsa, unga ijobiy munosabatda bo‘lgan «Faqat dunyodagi qoloq mamlakatlarda ishlab chiqarishni ko‘paytirish eng asosiy vazifa hisoblanadi. Ancha rivojlangan mamlakatlarda taqsimotni takomillashtirish iqtisodiy zaruratga aylandi». Uning fikriga ko‘ra, hech kim kambag‘al bo‘lmagan, hech kim boylikka intilmagan va birovlarning oldinga chiqib olishga qilgan harakati tufayli boshqalarning orqaga surib tashlanishi xavfi bo‘lmagan vaziyatdagi jamiyat, odamlar uchun eng yaxshi yashaydigan jamiyat hisoblanadi. Bunday turg‘unlik davrida madaniyatning barcha

shakllarini rivojlantirish uchun, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyot uchun imkoniyatlar hech cheklanmagan bo‘ladi.

Odam o‘zi yaratmagan narsalarga uning egalik qilish huquqiniadolatsizlik deb hisoblovchi xususiy mulk tanqidiga J.S.Mill qarshi chiqdi. Masalan, ishchilar fabrikada barcha mahsulotni yaratadi, lekin uning ko‘pchilik qismi boshqa birovga tegadi. «Bu e’tirozga javob shundan iboratki, fabrikada mehnat tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarning biri hisoblanadi, xolos. Ishni materialgarsiz, asbob-uskunalarsiz hamda ishlab chiqarish paytida ishchilarni ta’minalash uchun oldindan tayyorlangan yashash vositalari zaxiralarisiz bajarib bo‘lmaydi. Bu narsalarning hammasi o’tgan mehnat mahsuli hisoblanadi. Agar ishchilar bu narsalarga ega bo‘lganda, ularda mahsulotni boshqa birovlar bilan bo‘lishishga zarurat bo‘lmas edi. Ammo ishchilarda bu narsalar bo‘lmasligi uchun ular ekvivalentning bir qanchasini (mahsulotlarning bir qismini–muallif) ushbu narsalarga egalik qiluvchi kishilarga berishi kerak». Ammo xususiy mulk doirasidan yer chiqarib tashlanishi lozim (chunki u mehnat mahsuli hisoblanmaydi).

Ijtimoiy masalalar. Ko‘pchilik klassiklarning konsepsiyasida mehnatning qiymati ishchining hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan narsalarning qiymati bilan aniqlanadi. Ish haqi talab va taklif nisbatiga bog‘liq holda mehnat qiymati atrofida tebranib turadi. Bu qonunning amal qilishi kishilarning xohishiga bog‘liq bo‘lmaydi va shuning uchun yollanma ishchilarning ahvolini yaxshilash uchun yo‘naltirilgan har qanday ijtimoiy chora-tadbirlar befoyda. Ishchilarning ahvolini yaxshilash iqtisodiyotda kapital qo‘yilmasini kengaytirish (mehnatga talab oshadi) yoki aholi o‘sishini kamaytirish (mehnat taklifi qisqaradi) bilan amalga oshirilishi mumkin. J.S.Mill dastlab ushbu tamoyillarni yoqlab chiqqan bo‘lsada, ammo keyinchalik undan voz kechadi.

Sotsialistlar g‘oyasining ta’siri va taqsimot qonunlarining tarixiy xarakterini tan olishi (tarixiy bo‘lganidan ularni o‘zgartirish mumkin), ingliz iqtisodchisini klassik matabning qator qoidalaridan voz kechishga majbur etdi. U ijtimoiy islohotlarning keng dasturini ilgari surdi va o‘z takliflarini bildirdi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish yo‘li bilan yollanma mehnatni tugatish, J.S.Mill fikricha, mehnatga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotadi. Shuning uchun kapitalistik korxonalar o‘rniga kooperativ birlashmalarni tashkil etish zarur, unda ishchilar bir vaqtning o‘zida mulk egasi ham hisoblanadi. U kasaba uyushmalarining rivojlanishi, kapitalistik korxonalarning foydasini taqsimlashda ishchilarning ishtirok etishi tarafdori bo‘lgan.

2. Yer rentasini yer solig‘i yordamida umumlashtirish. Renta yollanma mehnat kabi iqtisodiy erkinlik tamoyillariga zid. Renta yer egasiga emas, balki jamoaga (qishloq kooperativlariga) yoki barcha jamiyatga tegishli bo‘lishi kerak.

3. J.S. Mill mayda yer egalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, o‘z yerida ishlovchi ko‘pchilik dehqonlar renta to‘lashdan ozod, ular mustaqil va tashabbuskor, shuningdek, yollanma ishchilardan farqli ravishda haddan tashqari o‘z oilasini kengaytirishga moyil emas.

J.S. Mill o‘zining ijtimoiy islohotlar dasturida «amaldagi individual erkinlik bilan yer sharidagi tabiiy boyliklarga egalik qilishning umumiyligini va mehnat daromadlarida barchaning baravar ishtirok etishini birlashtirish»ga harakat qildi. Bunda u go‘yoki bir-biriga qarshi ikki yo‘nalish: iqtisodiy erkinlik prinsipi bilan ijtimoiy adolat prinsipini birlashtirmoqchi bo‘lgandek tuyuladi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tajribasi buning mumkin ekanligini ko‘rsatib berdi.

XIX asrning 40–50-yillarida fransuz va xalqaro ishbilarmonlar orasida F.Bastianing (1801–1850) nomi va uning iqtisodiy qarashlari keng ommalashdi. U boy fransuz ishbilarmoni oilasida tug‘ildi. Bastiya 40-yillari bir qancha pamfletlar chiqarib, ularda erkin savdo foydasiga proteksionizmni inkor etuvchi, vino ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qiluvchi, sotsialistik g‘oyalarga qarshi bo‘lgan qarashlarni faol targ‘ib etdi. Bu pamfletlar g‘oyasi mazmun jihatdan original bo‘lmasa-da, yorqin yozilish shakli bilan ajralib turadi.

9.3. F. BASTIA VA G.CH. KERINING IQTISODIY QARASHLARI

XIX asrning 40–50-yillarida fransuz va xalqaro ishbilarmonlar orasida **Frederik Bastia (1801-1850)**¹⁴⁶ nomi va iqtisodiy qarashlari keng ommalashdi. U boy fransuz ishbilarmonlari oilasida tug‘ildi. Bastiya 40-yillari bir qancha pamfletlar (risolalar) chiqarib, ularda erkin savdo foydasiga proteksionizmni inkor etuvchi, vino ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qiluvchi, sotsialistik g‘oyalarga qarshi bo‘lgan qarashlarni faol targ‘ib etdi.



Frederik Bastia (1801-1850)

F.Bastianing eng asosiy g‘oyasi jamiyatdagi ijtimoiy antagonizmning mavjudligini inkor etishdir. Uningcha, o‘scha davrdagi jamiyat dunyodagi «eng go‘zal, mukammal, mustahkam butunjahon assosiasiyalaridandir. Barcha qonuniy manfaatlar uyg‘unlashgandir». F.Bastia 1850 yilda «Iqtisodiy garmoniyalar» kitobini chop etdi. Unda u garmoniya (uyg‘unlik)ning asosini almashuv va sof, hech narsa bilan cheklanmagan raqobatda ko‘radi. F.Bastia o‘z g‘oyasini isbotlashda Seyning fikridan foydalangan bo‘lib, xizmatlar nazariyasi bunga mos keladi deydi, ya’ni almashuv, xarid – savdo o‘zaro teng «xizmatlar»ni almashishi demakdir. Sey bo‘yicha bu «xizmatlar» nafaqat odamlar, balki buyumlar va tabiat kuchlari tomonidan ko‘rsatilsa ham, jamiyat hayotining qanday sohasida bo‘lmasin Bastia faqat shaxsiy xizmatlarni ustun qo‘yadi. «Xizmat» deganda ishlab chiqarish davomida real mehnat sarfinigina emas, balki shu xizmatdan foyda keltiruvchi har qanday harakat, faoliyat va kuch tushuniladi. Bundan shu narsa aniq bo‘lib qoladiki, qimmat yaratishda ishlab chiqarishga faqat ishchilar emas, balki kapitalist va yer egalari ham katta «xizmat» ko‘rsatadilar. F.Bastia kapitalistning «xizmati»ni shunday ko‘radiki, unga foiz olish imkoniyatini berishini, kapitalist kapitalni avans yoki ssuda tarzida sarflab, iste’molni orqaga suradi. Bu Seniorning tiyilish nazariyasining

¹⁴⁶ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 144–146-б.

o‘zidir. Bastia «Tiyilish» so‘zi o‘rniga «orqaga surish» so‘zi qo‘yilgan, xolos.

Mehnat va kapital o‘rtasidagi uyg‘unlik, ya’ni garmoniyani yanada to‘lar oq isbotlash maqsadida Bastia o‘zining kapital jamg‘arilishi «qonuni»ni yaratdi va unda Rikardonning foyda va ish haqining bir-biriga qarama-qarshi ekanligi to‘g‘risidagi ta’limotini inkor etishga harakat qildi. F.Bastianing bu «qonuni»ga ko‘ra, mehnat va kapital manfaatlari oliy darajada hamohangdir. Oqibatda kapitalistning foydasi va ishchining maoshi bir vaqtida va bir miqdorda oshib boradi, hatto ishchilarning hissasi kapitalistlarnikidan tezroq o‘sishini ko‘rsatib, bu bilan kapitalistning foydasi nisbatan kamayishini aytadi. U bu fikrni isbotlashga urinib ham o‘tirmaydi. Uningcha, foyda normasi va kapitalistlarning milliy daromaddagi hissasi masalalari qorishtirib yuborilgan. Foyda normasining pasayib borish tendensiyasi ishchilarni ekspluatatsiya qilishning kuchayishi bilan mos kelishi mumkin, demak kapitalistlarning milliy daromaddagi hissasi ham oshib borishini kutish mumkin.

F.Bastia o‘zining bu nazariyasi yordamida kapitalistlar va yer egalari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etadi. U yer rentasini yer egasining yoki uning ota-bobolarining shu yerni ishslash va yaxshilash xizmati uchun berilgan mukofot deb hisoblaydi. Shunday qilib, kapital va yer egaligi o‘rtasidagi uyg‘unlik shu bilan hal etiladiki, yer rentasi yerga qo‘yilgan kapital foizining bir ko‘rinishiga aylantiriladi. Bunday izohlash yer rentasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatini inkor etadi, uning foydadan hech qanday farqi qolmaydi. Ishlanmagan yerlardan olinadigan renta umuman bu tizimga mos kelmaydi deyiladi.

Demak, Bastianing izohi bo‘yicha o‘sha davrdagi burjua jamiyatni turli sinflar o‘rtasidagi o‘z xizmatlari bilan almashib turuvchi «uyg‘unlashgan hamkorlik» jamiyatni tarzida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy erkinlik bu xizmatlar almashuvining ekvivalentligining garovi hisoblanadi, chunki bu erkinlik nomutanosib harakatlarning oldini oladi. Proteksionizmni cheklanmagan erkin raqobat bilan almashtirishi esa sosialistlarning jamiyatni mukammalroq iqtisodiy jamiyatga aylantirish to‘g‘risidagi chaqiriqlariga qarama-qarshi qo‘yiladi.

1775–85-yillardagi mustaqillik uchun Shimoliy Amerika va Angliya o‘rtasidagi kurashda qozonilgan g‘alaba tufayli AQSH davlati vujudga keldi. Hokimiyat tepasiga yangi sinf – burjuaziya o‘tirdi.

AQSH burjuaziyasi ingliz burjuaziyasidan anchagina farq qilar edi. AQSHdagi hukmron sinf 1865-yilgacha qullikni saqlab qoldi va ingliz siyosiy iqtisodiga zid ravishda o‘z siyosiy iqtisodini yaratishga tayyor edi. Biroq AQSHda siyosiy iqtisod klassik asosda vujudga kelmadi. Buning sababi shuki, XIX asrning 20–30-yillarida AQSHda kapitalizmning nisbatan tez rivojlanishi ishchilar harakatining vujudga kelishiga va tez o‘sishiga olib keldi.

Ayni vaqtda ish tashlashlar bo‘lib turdi. Siyosiy kurashning keskinlashuvi vulgar siyosiy iqtisod uchun zamin yaratdi. Bundan tashqari klassik siyosiy iqtisod AQSHda qulchilikning saqlanib qolishini tanqid qilar edi. Shu sababli AQSHda yuzaga kela boshlagan iqtisodiy fikr klassik maktabga qarshi chiqdi. Bu g‘oyalar Genri Charlz Keri (1793–1879) tadqiqotlarida o‘z aksini topdi¹⁴⁷.


Yirik noshirning o‘g‘li bo‘lgan G.Keri kommersiya sohasida katta yutuqlarga erishdi. Boyib olgach, yirik fabrikantga aylandi va iqtisodiy tadqiqotlarga kirishdi. U bir qancha iqtisodiy asarlar muallifi edi.

1837–40-yillarda uning «Siyosiy iqtisod tamoyillari» va 1857–59-yillarda «Ijtimoiy fanlarning asoslari» nomli asarlari chop etildi. Bu asarning qisqacha varianti 1865-yilda «Ijtimoiy fanlar uchun qo‘llanma» nomi bilan chop etildi. Yuqorida eslangan F.Bastia shu Amerikalik olimdan ilhomlandi.

Genri Charlz Keri (1793–1879) ingliz siyosiy iqtisodiga keskin qarshi chiqib, AQSH kapitalizmini madh etdi. Uning asosiy asari «Manfaatlar uyg‘unligi» (1872) kitobidir. G.Kerining qarashlari Angliyaga qarshi ruhda edi. U Rikardonning ta’limoti va Maltus aqidalarini rad qildi.

G.Kerining metodologiyasi subyektiv idealizm va mexanisizm bilan obyektiv iqtisodiy qonunlarni tabiat qonunlariga almashtirish bilan xarakterlanadi.

G.Keri hamma iqtisodiy kategoriyalarni ta’riflab berishga intildi. U qiyomatni insonning tabiatga hukmronligi o‘lchovi deb, predmetga



Genri Charlz Keri (1793-1879)

¹⁴⁷ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 146–148-б.

ega bo‘lish uchun bartaraf qilish zarur bo‘lgan qarshi harakat deb ta’rif berdi. U narxni predmetning o‘zini ayirboshlash evaziga pul olish qobiliyati deb hisobladi. Kapital odamlarning tabiat kuchlarini boshqarish imkoniyatini olishlarida yordam beradigan buyum yoki qurol deb tushundi.

G.Keri D.Rikardoning yer rentasi nazariyasini tanqid qilib, uni yalpi kurash nazariyasi (ya’ni Rikardo shu nazariya yo‘li bilan go‘yo sinflar o‘rtasida urushni avj oldirdi), deb hisobladi va Rikardoni «kommunizm otasi» deb, unga xuruj qildi. G.Kerining o‘zi esa rentani yer egalarining mehnati uchun mukofot deb hisoblab, uni foiz bilan aynan bir narsa deb tushundi. Kerining iqtisodiy ta’limotida burjua jamiyatida «barcha chin va haqiqiy manfaatlarining to‘la-to‘kis uyg‘unligi» mavjudligini isbotlamoqchi bo‘ldi. U taqsimot qonunini o‘z nazariyasiga asos qilib oldi.

G.Keri proletariat bilan burjuaziya manfaatlarining bir xilligini go‘yo kapitalistik jamiyatda mehnat unumдорligi oshishi bilan ish haqi ham oshib boraveradi, shuning natijasida ishchi bilan kapitalistning iqtisodiy ahvolidagi tafovut asta-sekin kamayadi, degan qoida bilan asoslamoqchi bo‘ldi. G.Keri kapitalistik jamiyatda aholining nisbiy ko‘payishi va ekspluatatsiya kuchayishi faktlarini mutlaqo inkor qilib, ishchilar sinfi farovonligining oshib borishi texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq.

XIX asrda Kerining qarashlari, uning antagonistik jamiyatdagi manfaatlar uyg‘unligi nazariyasi ko‘pchilikka ma’lum bo‘lib, burjuaziya siyosiy iqtisodini yuksaltirishga katta ta’sir ko‘rsatdi. «Manfaatlar uyg‘unligi» nazariyasining asosiy qoidalarini hozirgi zamon siyosiy iqtisodi olimlari qaytadan tiklamoqdalar.

G.Keri yuqorida biz bayon etgan kapitalistik munosabatlarning bekamu-ko‘stligi, sinfiy manfaatlarning hamohangligi va boshqa «uyg‘unliklar» to‘g‘risida ko‘p yozdi. Lekin uning g‘oyalari Bastiadan biroz farq qiladi. Keri qullikni qo‘lladi (bu davrda AQSHning janubida hali qul plantasiyalari mavjud edi).

Proteksionizm siyosati ham himoya qilindi, chunki AQSH hali yosh davlat sifatida sanoati pastligi tufayli unga muhtoj edi, chunki Angliya sanoati bilan ochiq raqobatda yengishi qiyin bo‘lgan. Shular tufayli Smit va Rikardolarning fritrederlik (erkin savdo) siyosati to‘g‘ri kelmay qoldi. Ayniqsa, Rikardoning burjua jamiyatidagi sinflar

o‘rtasidagi manfaatlarning qarama-qarshi ekanligi ko‘pchilikka ma’qul bo‘lmay qoldi.

Kerining fikricha, Rikardonning tuzumida dushmanlik ruhi bo‘lib, millat, sinf, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida urush keltirib chiqaradi. Vaholanki, bu guruhlar o‘rtasida bekamu-ko‘st uyg‘unlik mavjud emish. Kerining «Manfaatlar uyg‘unligi nazariyasi» asosida uning «taqsimot qonuni» yotadi, unga ko‘ra mehnat unumdorligining o‘sishi bilan ishchilar hissasi absolut va nisbiy jihatdan o‘ssa, kapitalistlarniki esa aksincha pasayadi. Shunday yo‘l bilan mehnat va kapital o‘rtasidagi antagonizm yo‘q qilinadi. Bunda yaxshi ma’lum tezis – unumli kapital g‘oyasidan foydalaniladi (unga ko‘ra tadbirkor qonuniy foyda olishi kerak).

G.Kerining g‘oyasi bo‘yicha tovarning qiymati uni ishlab chiqarishga ketgan amaliy mehnat miqdori bilan emas, balki ma’lum sharoitda sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi. Ammo mehnat unumdorligining o‘sishi bilan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun, shu jumladan ishlab chiqarish vositalariga sarf-xarajatlarni kamaytirish lozim.

Bu esa, G.Keri bo‘yicha kapitalning qimmati pasayishiga olib keladi. Ishlab chiqarish vositalari kapital bilan bir deb qaraladi. Oqibatda foiz ham, kapital egasi oladigan mahsulot hissasi ham pasayadi, shunga mos ravishda mehnat qimmati va uning mahsulotdagi hissasi oshib boradi. Bu g‘oyalarning hammasini qo‘llash qiyin (bu haqda yuqorida ham aytilgan), chunki foiz qiymatning bir qismi bo‘lib, avvalgi mehnatga hech qanday aloqasi yo‘q. Mehnat unumdorligining o‘sishi ishchilarning tirikchilik vositalari qiymati pasayishi bilan bog‘liq, bunda ishchi kuchi qiymati ham pasayadi, kapitalistning milliy daromaddagi hissasi esa oshib boradi.

Keri kapitalist va yer egasi «manfaatlari uyg‘unligi»ni isbotlab berishga intiladi. Bunda ham u Rikardoga qarshi chiqadi, ayniqsa unumdorligi past yerlarni ishga tushirishga mone’lik bildiradi.

Keri Bastia kabi rentani aslida kapitalga foiz shakli sifatida qaraydi, dehqonchilik xususiyatlarini inkor etadi. Keri «millatlar uyg‘unligi» haqida ham gapirib, jahon ishlab chiqarishini mahalliy markazlarga taqsimlash zarurligini aytadi, chunki bu yerlarda qishloq xo‘jaligi va sanoat tabiiy holda uyg‘unlashgan.

Shularni hisobga olib, Keri Buyuk Britaniyaning sanoat va mustamlakachilik monopoliyasiga qat’iy qarshi chiqadi, boshqa davlatlarni agrar xomashyo manbayiga aylantirish siyosatini inkor qiladi va shu maqsadda proteksionizmni keng qo‘llash kerak, deydi. Shunisi qiziqqi, burjuaziya manfaatlarini himoya qilib, gohida fritrederlik (F.Bastia), ba’zida proteksionizm (G.Keri) «uyg‘unlik»ning doimiy sharti deb e’lon qilinaveradi.


9.4. J.B.SEYNING IQTISODIY TA’LIMOTI

Yevropadagi ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda va AQSHda butun XIX asr davomida, ya’ni klassik siyosiy iqtisodning marjinalizm bilan o‘rin almashish davriga qadar, klassik maktab g‘oyalarining va konsepsiyalarining keyingi rivojlanishida A.Smit ta’limoti asos bo‘lib keldi. Shu ma’noda Fransiyada A.Smit g‘oyalarini ancha izchil va ijodiy davom ettirgan **Jan Batist Sey (1767–1832)** hisoblanadi¹⁴⁸.

U 1767-yil, 5-yanvarda Lionda savdogar oilasida tug‘ildi. Oilaviy tadbirkorlik an’analarini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan bilimni olish bilan birga, J.B.Sey o‘z bilimini mustaqil oshirish, ayniqsa, siyosiy iqtisodni o‘rganish bilan shug‘ullandi.

Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, u A.Smitning “Odamlar boyligi” asariga asosiy e’tibor qaratgan. Undagi g‘oyalarni ommaviylashtirish, uning fikricha, Fransiya manfaatlariga ham, shuningdek, barcha insoniyat manfaatlariga ham xizmat qiladi.

J.B. Sey hayotda har xil mashg‘ulot turlari bilan shug‘ullandi. U savdo kontorasida nazoratchi bo‘lib ishladi, Fransiya armiyasida xizmat qildi, nufuzli jurnal muharriri bo‘ldi, davlat muassasalarida ishladi. Ammo uning hayotidagi asosiy ishi – iqtisodiy bilim sohasidagi tadqiqotidir. U o‘zining «**Siyosiy iqtisod traktati**» (1803) asarida A.Smit konsepsiyasini tizimlashtirishga, uni keng xalq ommasi



Жан Батист Сэй
(1767-1832)

¹⁴⁸ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иктисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 142–147-б.

uchun tushunarli qilib berishga harakat qildi. Unda J.B.Sey sanoatning yuksalishiga va xalq boyligini ko‘paytirishga to‘sinqinlik qiluvchi “man etuvchi tizim”ga qarshi chiqdi. «Traktatdagi» iqtisodiy liberalizm to‘g‘risidagi g‘oya, xususan, davlatning iqtisodiyotga va xo‘jalik hayotini qayta qurishga aralashmasligi to‘g‘risida g‘oyaning amalga oshirilishi harbiy-sanoat boshqaruvini o‘sha davrdagi Fransiya hukumatidagi real hukmronlikdan mahrum qilgan bo‘lar edi.

Napoleon “Traktat” bilan tanishib chiqqach, uning muallifini suhbatga chaqirgan va unga o‘z asarini tubdan qayta ishlashni taklif qilgan. J.B.Sey bu taklifni rad etdi va siyosiy “sahnadan” ketishga majbur bo‘ldi.

Ammo tinib-tinchimas J.B.Sey o‘zining xususiy ip yigirish fabrikasini ochdi. Keyinchalik, 1813-yili uni sotib, topgan puliga «Traktat»ni ikkinchi nashrdan chiqarish uchun Parijga qaytib keldi. Asar 1814-yili chop etiladi, so‘ngra qisqa vaqt ichida yana uch marta 1817, 1819 va 1826-yillarda qayta nashr etildi. Bu asar tez orada juda ko‘p tillarga tarjima qilindi.

Fransiyada Napoleon tuzumining yemirilishi bilan vujudga kelgan o‘zgarishlar J.B. Seyning iqtisodchi-olim va jamiyat arbobi sifatidagi nomini oqladi. U ruhlanib, siyosiy iqtisod bo‘yicha o‘z asarlari ustida ishlashni davom ettirdi, ko‘p ma’ruzalar o‘qidi va ularda iqtisodiy nazariya qoidalarini tizimlashtirish va ommaviylashtirish mahoratini namoyish etdi. J.B.Sey asarlarida iqtisodiy fan sof nazariy va tavsifiy fanga aylandi. U iqtisodiy nazariyadan siyosatning, ideologiyaning va statistikaning ajralib chiqishini ma’qulladi.

«*Sey qonuni*». J.B.Sey A.Smitning erkin bozor, bahoning erkin shakllanishi, ichki va tashqi savdo, tadbirkorlarning cheklanmagan erkin raqobati va proteksionizmning har qanday ko‘rinishiga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillarini qo‘llab-quvvatladi va ularni ko‘klarga ko‘tardi. Agar bu tamoyillar qo‘llanilsa, J.B.Sey bashoratiga ko‘ra, ortiqcha ishlab chiqarish ham, ijtimoiy mahsulotni to‘la iste’mol qilmaslik ham bo‘lmaydi, ya’ni iqtisodiy inqirozlarning obyektiv zarurligi kelib chiqmaydi. U bu g‘oyani rivojlantirib, o‘zining «bozor qonuni»ni yaratdi. U “*Sey qonuni*” deb ataladi. Bu qonunning mohiyatiga ko‘ra, har qanday ishlab chiqarish daromadlarni keltirib chiqaradi, bu daromadlarga qiymati ularga teng bo‘lgan tovarlar sotib

olinadi, yalpi talab esa hamisha yalpi taklifga teng bo‘ladi¹⁴⁹. Boshqacha qilib aytganda, tovarlar taklifi o‘zi uchun shaxsiy talabni yaratadi, ya’ni o‘z tovarini sotib daromad olgan har bir kishi ushbu daromadga mos ravishda talabni keltirib chiqaradi (boshqa tovarlar sotib olinadi).

Demak, jamiyat miqyosida taklif va talab muvozanatlashadi, ortiqcha ishlab chiqarish bo‘lmaydi. Ortiqcha ishlab chiqarish faqat ayrim tarmoqlarda boshqa tarmoqlardagi kam ishlab chiqarish hisobiga vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ko‘p ishlab chiqarishdan qo‘rmaslik kerak, faqat ayrim tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilish xavfi tug‘ilishi mumkin. «Sey qonuni» nomini olgan bu qoida klassiklarning makroiqtisodiy nazariyasining asosini tashkil etdi va keyinchalik J.M.Keyns tomonidan inkor etildi. J.M. Keynsning tasdiqlashicha, odamlar daromadlarning barchasini iste’molga sarflamaydilar, balki ularning bir qismini jamg‘arib boradilar. Bu esa shunga muvofiq ravishda yalpi talabni kamaytiradi, ish bilan bandlikni qisqartiradi. Pirovard natijada bunday holat Sey qonunining noto‘g‘ri ekanligini keltirib chiqaradi. Chunki bu qonunga muvofiq iste’molga sarflanishi kerak bo‘lgan daromadning bir qismi jamg‘armaga ajratiladi. Demak, yalpi taklif bilan u keltirib chiqaradigan yalpi talab o‘rtasidagi muvozanat buziladi.

Ammo «Sey qonuni»ning muhim tomoni shundan iboratki, iqtisodiy liberalizmning barcha printsiplariga jamiyat tomonidan rioya qilinsa, ishlab chiqarish (taklif) o‘ziga mos ravishda iste’molni (talabni) keltirib chiqaradi, ya’ni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish A.Smitning «tabiiy tartib» (pulning passiv roliga asoslangan mehnat natijalarini ayrboshlash) sharoitida, albatta, shunday daromadlarni keltirib chiqaradiki, ularga bu tovar va xizmatlar erkin amalgalashiriladi. Iqtisodiy liberalizm konsepsiyasining barcha tarafдорлари tomonidan «Sey qonuni» shu ko‘rinishda qabul qilingan va bozorda bahoning erkin tashkil topishi xo‘jalik konyunkturasidagi o‘zgarishga darhol moslasha oladi, iqtisodiyotning o‘zini-o‘zi tartibga solib turishini kafolatlaydi, deb hisoblagan.

Haqiqatan ham, agar pul faqat hisob-kitob birligi hisoblangan barterli iqtisodiyot amal qiladi desak, unda taklif miqdori talab

¹⁴⁹ Раззоков А., Ташматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи.–Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.134-6.

miqdoriga teng bo‘ladi, ortiqcha ishlab chiqarish bo‘lmaydi. Bu Sey qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Qiymat va ishlab chiqarish omillari nazariyalari. Klassik iqtisodiy maktab vakillari ichida J.B.Seyning qiymat nazariyasi o‘ziga hosligi bilan ajralib turiladi. A.Smit, D.Rikardo, ijtimoiyist-utopistlar, S.Sismondi, K.Marks va boshqa bir qator iqtisodchilar tovar qiymatining yagona manbayi mehnat deb hisoblaganlar. J.B.Seyda bu muammoga ikki xil yondashuv mavjud: u bir joyda, tovar qiymati kapitalga, ish haqiga va yer rentasiga bo‘lgan xarajatlaridan tashkil topadi degan bo‘lsa, ikkinchi bir joyda, qiymat foydalilik bilan aniqlanadi deydi. J.B.Sey foydalilik bilan buyumning (tovarning) qimmati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniq qilib ko‘rsatib berdi. «Foydalilik – bu qimmat o‘lchovidir», – deb yozadi J.B.Sey. Bu bilan u tovar qiymati nafaqat mehnat sarflari bilan, balki mahsulotning foydalilik darajasi bilan ham o‘lchanishi mumkinligini aytib berdi. Lekin bu xususda iqtisodiy ta’limotlar tarixi bo‘yicha yirik mutaxassis M.Blaugning yozishicha, «talabning to‘yinish darajasini izohlab berishda foydalilikning pasayib borishi tushunchasi ishlatilmagan foydalilikka asoslangan qimmat konsepsiyasini bahoning shakllanish nazariyasi hisoblash noo‘rin».

J.B.Sey tovar qiymatining yaratilishida ishlab chiqarishning uch omiliga (mehnat, kapital, yer) alohida e’tibor bergan. Uning tasdiqlashicha bu omillar tovar qiymatini yaratishda bir xil ishtirok etadi, barcha mahsulotning umumiyligi esa uch sinf – ishchilar, kapitalistlar va yer egalarini daromadlaridan tashkil topadi.

J.B.Seyning uch omil nazariyasiga muvofiq «mehnat» omili ishchilarning daromadi sifatida ish haqi yaratadi, «kapital» omili kapitalistlarning daromadi sifatida foya yaratadi, «yer» omili yer egalarining daromadi sifatida renta yaratadi. Demak, boylik yaratishda ishlab chiqarishning har bir omili qatnashadi. (Smitda faqat unumli mehnat boylik yaratadi deyiladi.) J.B.Sey yuqorida ko‘rsatilgan omillar (mehnat, kapital, yer) ishchilar, kapitalistlar va yer egalarining daromadlarini yaratishda mustaqillikka ega ekanligini qayd qilib o‘tadi.

Demak, J.B. Sey nazariyasida tadbirkorlarning cheklanmagan erkin raqobati sharoitida ishlab chiqarish omillarini va jamiyatdagi sinflarni ekspluatatsiya qilish inkor etiladi. Uningcha, ishlab chiqarishda tadbirkorlar (ular ishlab chiqarishni tashkil etadilar va

boshqaradilar), yer egalari (tovar ishlab chiqarish uchun tabiiy materiallarni beradilar) va ishchilar (tayyor mahsulot yaratadilar) o‘zaro ta’sirda bo‘ladilar va bir-birlarini to‘ldirib boradilar. Ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilari bir birlariga qarshi turmaydilar, aksincha, bir-birlarini to‘ldirib turadilar.

Ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymati ushbu omil egalariga daromad sifatida taqsimlanadi, xususan, tadbirkor daromadi, J.B.Seyning aniqlab berishicha, bu uning qobiliyati, iste’dodi, faoliyati va boshqaruvi uchun to‘lanadigan haq. Uning fikricha, kapitalning oshib borishi bilan «quyi sinflarning» ahvoli yaxshilanib boradi va ularning ko‘pchiligi «yuqori sinf» safini to‘ldirib boradi. J.B.Sey kompensatsiya nazariyasiga asos soldi.

Mashinalar dastlab ishchilarni ishlab chiqarishdan siqib chiqaradi, keyinchalik pirovard natijada esa ish bilan bandlikni oshiradi va mahsulot ishlab chiqarishni arzonlashtirish hisobiga ularga katta foyda keltiradi. Uning ifoda etishicha, «ishlab chiqarishdagi texnik yangiliklardan boshqalarga nisbatan ishchilar sinfi ko‘proq manfaatdor». Umuman, iqtisodiy ta’limotlar tarixida J.B.Seyning nomi bozor iqtisodiyoti sharoitida sinflar manfaati uyg‘unligiga cheksiz ishongan olim sifatida tilga olinadi.

J.B.Seyning o‘tmishdoshlari «haqiqiy» boylik yaratadigan iqtisodiyot tarmoqlarini (merkantilistlar tashqi savdoni, fiziokratlar qishloq xo‘jaligini) ajratib ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Hatto A.Smit xizmat ko‘rsatish sohasidagi mehnatni unumsiz mehnat, sanoat va savdodagi mehnatni esa kam unumli mehnat, qishloq xo‘jaligidagi mehnatni yuqori unumli mehnat hisoblangan, negaki unga tabiat «yordam« beradi.

J.B. Sey iqtisodiyotning asosiy sohalari – sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish o‘rtasidagi «tenglikni» ko‘rsatib berdi. Uning fikriga ko‘ra, to‘rtta sohaning barchasida boylik yaratiladi, chunki sanoatda ham, qishloq xo‘jaligida ham, savdoda ham, xizmat ko‘rsatishda ham foydalilik ishlab chiqariladi.

Hozirgi zamon g‘arb iqtisodchilari o‘tmishdoshlaridan, birinchi navbatda J.B. Seydan, ishlab chiqarishning har xil, teng huquqli omillari milliy daromad yaratadi, degan tushunchani meros qilib olgan. Bunday yondashuvning ma’nosi shundan iboratki, har bir daromad

oluvchi kasbi va faoliyat sohasidan qat'i nazar bir vaqtning o'zida uni yaratuvchi hisoblanadi.


9.5. S. SISMONDINING IQTISODIY QARASHLARI

Jan Sharl Leonardi Sismondi¹⁵⁰(1773–1842) Shveysariyada tug'ilgan, fransuz klassik siyosiy iqtisodini nihoyasiga yetkazuvchi va ayni vaqtda mayda siyosiy iqtisodning asoschilaridan biridir. U protestant pastor oilasida tug'ilib voyaga yetdi. Protestantlar kollegiyasini bitirib chiqdi, Jeneva universitetida o'qidi. Siyosat bilan unchalik ko'p vaqt shug'ullangani yo'q, Fransiya ma'naviy va siyosiy fanlar akademiyasining a'zosi etib saylandi.

S.Sismondi iqtisod va tarix fanlari sohasida katta ishlarni amalga oshirib, boy ilmiy adabiy meros qoldirdi. “Tosqani qishloq xo'jaligining ko'rinishi” (1801), “Savdo boyligi yoki siyosiy iqtisod tamoyillari va ularni savdo qonunchiligidagi qullanish to'g'risida” (1803), “Italiya respublikalarining tarixi” (1807), 1818 yilda esa Edinburg ensiklopediyasi uchun “siyosiy iqtisod” maqolasini tayyorladi. Lekin “Siyosiy iqtisod yangi ibtidolari yoki boylikning axoli nufusiga munosabatlari to'g'risida” (1819) kitobining nashr qilinishi uning shuxratini keskin oshirdi. Keyingi yillarda “Siyosiy iqtisoddan etyudlar” (1837) va fundamental tarixiy asarlar “Fratsuzlar tarixi” (31 tom), “Rim imperiyasi qulashining tarixi” va boshqa asarlari nashr qilindi.

S.Sismondi g'oyalarining shakllanishi, sanoat inqilobi davri bilan, shuningdek mayda ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy kuchsizlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu esa o'z navbatida kapitalizmning feodalizm ustidan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning mayda ishlab chiqarish ustidan g'alabasini anglatar edi.

S.Sismondi mayda ishlab chiqarish pozitsiyalarida turib, kapitalizmni tanqid qilib, mayda tovar ishlab chiqarishga qaytishni orzu qildi. Sismondi odamlar baxt va tenglikni ta'minlash uchun birlashadilar,



Jan Sharl Leonardi Sismondi

¹⁵⁰ “Iqtisodiy ta'limotlar tarixi” fani bo'yicha ma'ruzalar matni. Toshkent kimyo texnologiyalari instituti. –T.: 2004. 36–40-betlar.

degan fikrga asoslandi. Olim klassik maktab g‘oyalarini qo‘llaydi, ammo taqsimotning ko‘pdan-ko‘p muammolari xususida o‘z fikrini bildirdi. Kapitalni, inqirozlarni, mahsulotni realizatsiya qilish masalalarini tadqiq etadi, jamiyatni o‘zgartirishni mayda burjuacha dasturini ilgari suradi. A. Smitning ta’limotida qiymat va boylikning birdan-bir manbai mehnat deb tahlil qilingan edi. Zarur ish vaqtin tushunchasi u tufayli birinchi bor joriy etildi. Sismondi pul-ichki qiymatga ega bo‘lgan mehnat mahsuloti va shu sababli u qiymatning umumiy mezoni tarzida namoyon bo‘ladi, degan to‘g‘ri xulosa chiqaradi. Pulning qadrsizlanishi ortiqcha qogoz pullar muomalaga chiqarilishi xaddan ortib ketishining natijasi, deb talqin etiladi. Ammo u pulning vujudga kelish jarayonini, uning vazifasini tadqiq etmaydi. Sismondi iste’mol qiymati bilan qiymat o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘ra bilgan bo‘lsa ham, ammo uning mohiyatini tushunmadni. U qiymatdan chetga chiqishni qiymat qonunining buzilishi deb hisoblaydi. S.Sismondi ta’biricha, ijtimoy fan ikki qismdan: oliv siyosat va siyosiy iqtisoddan iborat. Agar siyosat davlat tarkibini qanday vujudga kelishini o‘rgatsa, fuqarolarni diyonat va din to‘g‘risida tarbiyalash, siyosiy iqtisod xo‘jalikni qanday boshqarishni, ijtimoy tartibni saqlashni xukumatga tavsiya qilishi kerak.

Umuman, siyosiy iqtisod ma’naviy fan bo‘lib, u odamlarni his tuyg‘ulari, ehtiyojlarini va ehtiroslarini o‘rganishi kerak.

S.Simondining fikricha “Odamlarning moddiy farovonligi, inson tabiat” siyosiy iqtisod predmeti bo‘lishi kerak, “Odamlarning moddiy farovonligi esa” davlatga bog‘liq, S. Sismondi siyosiy iqtisod predmetini davlatning iqtisodiy siyosati bilan aini bir narsa deb biladi, uni sinflardan ustun turadigan fan deb talkin etdi. U ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy qonunlarni bilish zarurligini inkor qiladi. U insonning fe‘l-atvorini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Uning qarashlari rivojida ikki bosqich ko‘zga tashlanadi. Avval boshda S.Sismondi A.Smit ta’limotining, klassik siyosiy iqtisodning tarafdori bo‘lib chiqdi. U o‘zining dastlabki asarlaridan biri – «Savdo boyligi to‘g‘risida...» kitobida (1803) sanoat inqilobining ijtimoiy iqtisodiy mazmuni va imkoniyatlarini yuksak baholadi.

S.Sismondi metodologiyasi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni subyektiv-idealistik talqin etish.
2. Ilmiy abstraksiya usulining yo‘qligi.

3. Tarixdan tashqari yondashuv.

4. Ayirboshlash konsepsiysi.

Mayda burjua nazariyotchisi bo‘lgan S.Sismondi iqtisodiy qonunlarning obyektiv xarakterini tan olmadi. S.Sismondi kapitalizmni antagonistik jamiyat deb bildi. U kapitalizmning o‘ziga xos xususiyatini – boylikning oz sonli kishilar qo‘lida to‘planishi va ko‘pchilik mehnatkash aholining chor-nochor kun kechirishini, jamiyat bilan xususiy sohibkorning manfaatlari bir-biriga mos emasligini, qishloq xo‘jaligining savdodan va sanoatdan orqada qolayotganini ko‘rsatdi.

S.Sismondi klassik maktabga qarama-qarshi o‘larоq, mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo‘layotganligini va “ortiqcha” aholi paydo bo‘layotganini, mashinalar ishchilarni siqib chiqarayotganini ko‘rsatdi. S.Sismondi klassik maktab vakillarining inqirozlar bo‘lishi mumkin emas va kapitalizm ziddiyatlar nima ekanligini bilmaydi degan mulohazalarini tanqid qildi. Uning tarixiy xizmati ham mana shundan iborat bo‘ldi.

Olim o‘z g‘oyasini isbotlashda ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi tafovutni 1-o‘ringa qo‘yadi. Yirik ishlab chiqaruvchilar iste’moli pasayishi oqibatda mamlakat va dunyoda inqiroz ro‘y beradi, deydi u. Shuning uchun yirik ishlab chiqarishni to‘xtatish va mayda ishlab chiqarishga qaytishni taklif etadi, shu orqali kapitalizmni inkor etadi.

S.Sismondi yakka tartibdagi daromadlardan, boyliklardan olingan foyda va ishchi ish haqining yigindisi bo‘lgan daromad muammosiga o‘tadi. U milliy daromad bilan yalpi maxsulot bilan aynan bir narsa deb bilganligi uning asosiy nazariy xatosidir. Kapital deganda S.Sismondi ishlab chiqarish zaxiralarini (ishlab chiqarish vositalarini) tushunadi. U kapital jamgarilishini tejamkorlik bilan bog‘laydi. Asosiy (mashinalar, ish qurollari) va aylanma (uruglik, xomash’yo, ish xaqi) kapitalini bir-biridan ajratib, bu bilan A.Smitning hamma xatolari va yutuqlarini takrorlaydi. U kapitalni doimiy va o‘zgaruvchi kapitalga ajrata bildi. Oxir oqibatda Sismondi kapitalni milliy daromaddan farqini izohlay olmadi. Uning o‘stiga Smitning shu ikki o‘rtadagi tafovutni nazariy jihatdan isbotlash yo‘lidagi intilishlarini pisand qilmay, orqaga qadam tashladi.

Ishlab chiqarish bilan taqsimot o‘rtasidagi ziddiyatni hamda shaxsiy iste’molning takror ishlab chiqarish jarayonlari uchun muhimligini tan olganini Sismondi konsepsiyaning ijobiy jihatidir. Sismondi kapitalistik yo‘ldan voz kechishni taklif qildi. Kapitalizmni tartibga solishga, ishchilar bilan kapitalistlar o‘rtasidagi patriarxalchilik munosabatlarini o‘rganishga, ishchilarni foydani taqsimlashda qatnashishi ishsizlar, nogironlar haqida gamxo‘rlik qilishda maxsus fondlarni vujudga keltirishga, mayda ishlab chiqarishni saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlashga, manufaktura sifatida shakllangan yirik mulkchilikni ko‘p sonli kapitalistlar o‘rtasida taqsimlashga chaqirdi. U yollanma ishchilarni ham mulkdorlar safiga qo‘sishni orzu qildi. Bunga S.Sismondi davlatning yordamiga umid qildi¹⁵¹.

Bu g‘oyalar insoniy jihatdan sog‘lom, ammo amalga oshmas fikr edi.

Uning ijtimoiy tadbirlar dasturi reaksiyon – xayolparastlik xarakteriga ega. S.Sismondi obyektiv tarixiy jarayonga to‘sqinlik qilishga urinadi. O‘z mulohazalarini Fransiyada hali ham kuchli bo‘lgan feodal tuzum himoyachilariga qo‘l kelishini sezmadи.

Milliy daromad va kapital S.Sismondining iqtisodiy qarashlari tizimida yetakchi muammodir. U o‘zining «Siyosiy iqtisodning yangi ibtidolari» asarining dastlabki uch bobini ayni shu muammoga bag‘ishlaydi. A.Smitdan keyin S.Sismondi ham daromadlarning uch turini: foyda, renta va ish haqini alohida ajratib ko‘rsatadi, dastlabki ikki turni umumlashtirib, ustama qiymat tushunchasi orqali ifodalab, ularni ichki mahsulotdan chegirma deb hisoblaydi.

S.Sismondi iqtisodiy inqirozni daromadlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik deb tushunadi, chunki ayrim olimlar chinakam ilmiy nazariyani kapitalizm sharoitida ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli deb hisoblagan.

¹⁵¹ “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani bo‘yicha ma’ruzalar matni. Toshkent kimyo texnologiyalari instituti. –T.: 2004. 36–40-betlar.

9.6. GERMANIYA TARIXIY MAKTABI

Milliy qalb, milliy xarakter, milliy taqdir – shu va shunga o‘xshash tushunchalar XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Germaniya jamoatchiligi fikriga singib kirmoqda edi. Tarixiy maktab vakillari tarixdan bo‘lak yana nima milliy bo‘lishi mumkin, degan fikrlarga asoslanib siyosiy iqtisoddan tarixiy usul o‘rnini ko‘rsatishga harakat qildilar. Ular milliy fan sifatida siyosiy iqtisod orqali tabiiy xususiyatlarga va xalq harakatlariga bog‘liq holda rivojlanadigan milliy xo‘jalikni o‘rganishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.

Fridrix List¹⁵² (1789–1846) Janubiy Germaniyaning Reydlingen shahrida boy hunarmand oilasida tug‘ildi. U o‘qishni 15 yoshda tugatib, hunarmandchilik ustaxonasida otasiga shogird bo‘lib ikki yil ishladi. Keyinchalik Vyurtemberg qirolligida turli lavozimlarda ishlab, bir vaqtning o‘zida Tyubingen universitetini huquq mutaxassisligi bo‘yicha tugatdi. 1817-yildan shu universitetning Davlat boshqaruvi amaliyoti kafedrasi professori bo‘lib ishladi. List 28 yoshida liberal yo‘nalishdagi taniqli publisist, radikal burjua-demokratik islohotlarning qat’iy tarafdoi sifatida tanildi. U 1847-yil Bryussel shahrida bo‘lib o‘tgan iqtisodchilar kongressida o‘zining aniq ehtirosli fikrlari, siyosiy etukligi va kuchli notiklik qobiliyati bilan ko‘pchilikning e’tiborini o‘ziga qaratdi. List 1819-yilda Germaniya iqtisodiy birligini ta’minlash maqsadida «Savdo-sanoat ittifoqi»ni tuzdi.

F.List 30 yoshida Vyurtemberg parlamenti a’zosi bo‘lib, o‘zining keng demokratik islohotlar dasturi bilan hukumatga murojaat qildi. Bunday siyosiy chiqish Listga qarshi kuchlar shakllanishiga sabab bo‘ldi. Natijada u 1825-yilda Germaniyani tark etib, AQSHga doimiy yashash uchun ketdi. Dastlab u fermerlik bilan shug‘ullandi, keyinchalik nemis gazetalarining muharriri bo‘ldi hamda sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini olib bordi. F.List Angliya sanoati bilan



Fridrix List (1789-1846 yy.)

¹⁵² Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 147–150-б.

raqobat qiluvchi Germaniya va AQSHda sanoat rivojlanishi xususiyatlarini chuqur o‘rganib, Amerika taraqqiyoti uchun iqtisodiy dasturni tayyorladi.

1832-yildan F.List Yevropaga qaytib AQSHning Leypsigdagi elchisi bo‘lib ishladi. Shuningdek, u Leypsig-Drezden temir yo‘lini qurish maqsadida Germaniyada birinchi bo‘lib hissadorlik uyushmasini tashkil etdi. F.List o‘zining uchinchi va oxirgi emigrasiyasidan so‘ng Parijda uch yil yashadi. U o‘zining bor kuchini, idroki va iqtidorini iqtisodiy muammolarni keng o‘rganishga qaratdi. Sanoat burjuaziyasi manfaatlarining ifodachisi bo‘lgan F.List iqtisodiy birlik uchun birinchilar qatori maydonga chiqdi. U o‘zining «Siyosiy iqtisodning milliy tizimi» (1841) nomli asosiy asarida milliy siyosiy iqtisodni yaratish vazifasini o‘rtaga qo‘ydi. Mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlari to‘g‘risidagi ta’limot unga asos bo‘lishi kerak edi. F.List davlatning faoliyatini, dinni, axloqni, ma’naviyatni va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi kuchlar jumlasiga qo‘shdi.

F.Listning ta’limotiga ko‘ra, qiymatni ishlab chiqaruvchi kuchlar, «millatning ruhi» (toj-taxtning meros bo‘lib qolishi, huquq, sud, armiya, polisiya va shu kabilar) yaratadi. F.List ta’limotida xo‘jalik taraqqiyotining tarixiy bosqichlari to‘g‘risidagi g‘oyalar katta o‘rin egallaydi. U tarixiy taraqqiyotni beshta bosqichga: badaviylik, cho‘ponlik, dehqonchilik, dehqonchilik-manufaktura, dehqonchilik – manufaktura – savdo bosqichlariga bo‘ladi. Bunday bo‘lishdan kuzatilgan maqsad Germaniyada sanoatning o‘sishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bir yoqlama rivojlanishdan – qishloq xo‘jaligining ustunligidan voz kechish kerak, degan fikrni isbotlashdan iborat edi.

F.Listning asosiy iqtisodiy asari Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi va savdo siyosati atrofidagi qizg‘in tortishuvlarda alohida o‘rin egallab, nemis iqtisodiy fikriga katta ta’sir ko‘rsatdi. F.List o‘zining g‘oyalarini rivojlantirar ekan, Germaniyaning gullab-yashnashi sanoat taraqqiyoti orqali bo‘lishi mumkinligini va shuning uchun uni chet el raqobatidan himoya qilish zarur ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu asar o‘z davrida demokratik ziyorilar tomonidan qizg‘in qabul qilinib, katta qiziqish bilan o‘qildi.

Germaniyaga qaytgandan so‘ng olim Augsburg shahrida yashab, ilmiy ishini davom ettirdi. U xuddi ana shu buyuk davlatchilik, shovinistik kayfiyatdagi asarlarini yaratib, nemis imperializmining

dastlabki himoyachilariga yo‘l ochib berdi. List urushlar va bosqinchilikning tarafdori bo‘lib, dehqonchilik holatidan dehqonchilik-sanoat holatiga o‘tishga ko‘maklashadigan urushlarni yoqlaydi. U Janubiy-Sharqiy Yevropadagi bo‘sh yerlarni Germaniya bosib olishi zarur, deb hisoblaydi. List hayotining so‘nggi yillarida Angliyaga bo‘lgan o‘z munosabatini o‘zgartiradi, chunki u doim Angliyani Germaniyaning birlashishiga va sanoat rivojiga qarshi deb hisoblardi. Endi uning fikricha, Angliya Germaniyaning qit’a qo‘snnisi hisoblangan Fransiya va Rossiyaga qarshi harakatlarda qo‘llashi mumkin edi.

List iqtisodiy fanda klassik mакtabni, ayniqsa uning yirik namoyandasi bo‘lgan A.Smit iqtisodiyotini tanqid qiluvchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi, lekin u klassik maktabning asosi bo‘lgan qiymat va daromadlar nazariyasini mutlaqo tahrir qilmadi. Iqtisodiyotning bu kategoriyalari olimni qiziqtirmadi. Asosiy e’tibor iqtisodiy siyosatning asosiy masalalariga va ayniqsa tashqi savdo siyosatiga qaratildi. F.List Smit iqtisodiy tizimsini kosmopolitizmda ayblab, uni ayrim mamlakatlar xo‘jalik rivojlanishining milliy xususiyatlarini ko‘rmasdan, barchasiga umumiyl «tabiiy» qonun-qoidalarni dogmatik ravishda majbur kiritilmoqda, deydi. «Turli millatlar, – deb yozadi List, turli bosqichda bo‘ladilar. Bunday sharoitda ular o‘rtasidagi to‘liq erkin savdo ayriboshlash qiymati nuqtai nazaridan jahon xo‘jaligi uchun ma’lum mavhum foydani keltirishi mumkin bo‘ladi». Lekin bu holat qolgan mamlakatlar ishlab chiqarish kuchlari rivojiga to‘sinqlik qiladi. U o‘z konsepsiyasini ishlab chiqarish kuchlari nazariyasi deb yuritib, Smitning ayriboshlash qiymati nazariyasiga qarshi qo‘yadi. Lekin shuni aytish zarurki, ishlab chiqarish kuchlari deganda List ijtimoiy sharoitlar majmuasini tushunadi va ularsiz millat boyligi bo‘lmaydi, deb yozadi. Shuningdek, u faqatgina qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan millat bir qo‘l bilan mehnat qiladigan kishi kabitdir, deydi. List ishlab chiqarish unumdoorligini oshirishni proteksionizm tarbiyasi yordamida amalga oshirishni o‘rtaga tashlaydi. Davlat tizimsidagi tadbirlar milliy ishlab chiqarishni chet el raqobatidan to o‘zini tiklab olguncha va teng raqobatdosh bo‘lguncha himoya qilishi kerak deyiladi. Erkin savdoni amalga oshirishni esa u keyinroq, ya’ni hamma millatlar bir xil rivojlanish darajasiga yetgunicha qoldirishni tavsiya qiladi. Hozirgi davrga kelib Listning bunday qarashlarining

ayrimlari dolzarb bo‘lib, hayotda o‘z o‘rnini topmoqda. Masalan, millatning boy, qudratli bo‘lib borishi uning qanchalik ko‘p sanoat mahsulotini eksport qilishi bilan va kam mahsulotni import qilishi bilan belgilanadi. Bu o‘rinda Yaponiya tajribasini ko‘rsatishimiz kifoyadir. Bu davlat so‘nggi yillarda tez iqtisodiy rivojlanish hisobiga, ya’ni tashqi savdoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yganligi uchun rivojlangan mamlakatlar qatorida oldingi o‘ringa chiqib oldi.

Listning iqtisodiy nazariyasi asosiy masalalardan hisoblangan kapitalizm taraqqiyoti doirasida o‘z tarixi va xo‘jaligining xususiyatiga ko‘ra jahon hamjamiyatining so‘nggi qatorlaridan o‘rin olgan mamlakatlarning iqtisodiy qoloqligini bartaraf etish yo‘lidagi dastlabki urinish edi. Hozirgi davrda milliy sanoatni rivojlantirish uchun harakat qilayotgan yosh, rivojlanayotgan mamlakatlarning List ta’limotiga katta e’tibor berayotganliklari tabiiy holdir. Chunki ularning oldida jahon bozorida hukmronlik qilayotgan rivojlangan mamlakatlar monopoliyasi sharoitida o‘z sanoatlarini himoya qilish vazifasi turibdi.


Germaniyada tarixiy maktablar shakllanishi va evolyutsiyasini ilmiy-iqtisodiy adabiyotda uch asosiy davrga ajratiladi. Birinchi davr XIX asrning 40–60-yillarini o‘z ichiga olib «Eski tarixiy maktab» yoki oddiygina «Tarixiy maktab» davri deb nomlanadi. V.Rosheo, K.Knis va B.Gildebrand bu davrning asosiy mualliflaridir. Ikkinci davr XIX asrning 70–90-yillariga to‘g‘ri kelib «yangi tarixiy maktab» davri deb nomlanadi. G.Shmoller va L.Brentano bu davrning asosiy ijodkorlaridir. Uchinchi davr XX asrning 30-yillarigacha davom etib «Eng yangi tarixiy maktab» davri yoki qisqacha «ijtimoiy yo‘nalish» nomini oldi. V.Zombart va M.Veberlar uning asosiy mualliflari edilar. Biz ushbu maktablar namoyandalarining qarashlarini o‘rganishdan boshlaymiz. «yangi tarixiy maktab» va «ijtimoiy yo‘nalish»ni esa ularning ko‘pgina qarash va fikrlarining yaqinligi sababli birgalikda ko‘rib chiqamiz.

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanida tarixiy maktabni uch taniqli olimlar: Rosher, Knis va Gildebrandlarnng ijodi bilan bog‘lab o‘rganilsa-da, bu yo‘nalishda yana boshqa ko‘pgina olimlar ham ish olib borganliklarini aytishimiz zarurdir. Shunday bo‘lsa ham, bu professorlar tarixiy maktabning asosiy namoyandalari bo‘lib, iqtisodiy nazariyaga katta hissa qo‘shdilar.

Gettingem va Leypsig dorilfununlarining professori **Vilgelm Georg Fridrix Rosher** (1817–1894) Germaniyadagi tarixiy maktabning asoschisi hisoblanadi. 1843-yilda u «Tarixiy usul nuqtai nazaridan siyosiy iqtisod kursining qisqa asoslari» kitobini chiqardi. Iqtisodiy qonunlarning obyektivligini rad qilish bu ta’limotning o‘zagidir. V.Rosher ijtimoiy iqtisodiyotning umumiy qonuniyati yo‘q, balki faqat iqtisodiy omillar taraqqiyotininggina qonunlari bor, deb da’vo qilgan edi. Siyosiy iqtisod millat oldida burch tuyg‘usiga ega bo‘lgan ma’naviy fandir. V.Rosher siyosiy iqtisod predmetini ta’riflashda Listning tizimsini to‘la-to‘kis qabul qilib olib, jamiyat asta-sekin rivojlanadi deb hisobladi va sinfiy kurash mavjudligini inkor etdi. Rosher urushning madhiyachisi edi, u urushni tabiiy holat deb hisobladi va Germaniyani mustamlakalar va ta’sir doiralarini bosib olishga chaqirdi.

Rosher tarixiy fiziologik deb ataladigan usulni ishlab chiqdi. Bu usul kapitalizm taraqqiyotining prusscha yo‘lini, unga xos bo‘lgan feodal sarqitlarni (dehqonlarning yer egalariga bo‘ysunishi, hunarmandlarning uyushmalariga va tabaqalariga xos cheklashlarini) tarixan oqlash va ko‘klarga ko‘tarib maqtash, faktlarni to‘plashga asoslandi.

O‘zining nazariy qoidalarida Rosher qiymatni iste’mol qiymatidan (foydalilikdan) iborat deb bildi, kapital deganda unumli iste’mol uchun mo‘ljallangan har qanday mehnatni tushundi. J.V.Seyning ishlab chiqarishning uch omili nazariyasini V.Rosher tarixiy usul yondashuvda talqin etdi. Foydani kapitalistlar mehnatining natijasi deb e’lon qilib, daromadlarni taqsimlashda uyg‘unlik hukmronlik qiladi, tenglik esa iqtisodiy taraqqiyot omili bo‘lib xizmat qiladi deb hisobladi. Iqtisodiy kategoriyalarni talqin etishda Rosher aslida odamlarning buyumga bo‘lgan munosabatini ko‘rdi. Garchi u klassik maktab qoidalarini o‘zgartirgan bo‘lsa ham, ammo rasman hali bu maktabning merosi bilan aloqani uza olmagan edi. Uning izdoshlari va maslakdoshlari undan ilgarilab ketishdi.




Tarixiy maktab g‘oyalarini **Karl Knis** (1821–1892) jon-jahdi bilan o‘rgandi. 1853-yilda uning «Tarixiy usul nuqtai nazaridan siyosiy iqtisod» kitobi bosilib chiqdi. K.Knis alohida iqtisodiy qonunlar yo‘q, faqat doimo va hamma joyda amal qiladigan tabiiy qonunlar bor deb da’vo qildi. Shunga asoslanib u xususiy mulkchilik va kapitalizmning abadiyligi to‘g‘risida qisqacha xulosalar chiqardi.

Knis siyosiy iqtisodni tarixiy usulga yondashib tez qayta qurish mumkinligini asoslamoqchi bo‘ldi. Uning fikricha, siyosiy iqtisod faqat iqtisodiy hodisalarni tasvirlab berishi mumkin, u nazariy umumlashmalarni berishga qodir emas. Knis iqtisodiy hodisalarni bilib olish hodisalari deb statistika va tarixiy bayonni tan oldi. U iqtisodiy siyosatga katta ahamiyat berdi. Bu siyosatni amalga oshirish uchun turli xalqlarning iqtisodiy turmushiga oid kuzatuvlardan olingan aniq-ravshan shart-sharoitlarni bilish zarurligini uqtirdi. Knis millat turmushining iqtisodiy sharoitlari uchun individ (shaxs), jamiyat va davlatning mas’uliyatini eklektik (qorishma) tarzda birlashtirmoqchi bo‘ldi, pulni talqin etishda metallchilar konsepsiysi yondashuvida qoldi.

1848-yilda **Bruno Gildebrand** (1812–1878) «Hozirgi zamon va kelajakning siyosiy iqtisodi» kitobini e’lon qildi. Bu kitobda u F.Engelsning «Angliyada ishchilar sinfining ahvoli» asariga qarshi chiqdi. B.Gildebrand kapitalizm ishchilar sinfining ahvolini yaxshilaydi va bu tuzumga qarshi kurashdan ma’no yo‘q, deb hisoblaydi. B.Gildebrand iqtisodiy hodisalarni tadqiq qilishning o‘z tarixiy usulini ilgari surdi, bu usul jamiyat tizimining iqtisodiy qonunlarini tahlil etishga statistika va tarixiy ma’lumotlarni yuzaki tarzda to‘plashni qarama-qarshi qo‘ydi. U qiymatni foydalilikdan iborat deb bildi va xususiy mulkchilikning himoyachisi bo‘lib maydonga chiqdi. Xususiy mulkchilikni har qanday ta’na qilishni tarixiy qonuniyatlarni halokatli ravishda buzish deb ta’rifladi.



Karl Knis (1821-1892.)




Bruno Gildebrand (1812-1878)

B.Gildebrand taklif etgan insoniyat taraqqiyotining tizimi natura, pul va kredit xo‘jaligini o‘z ichiga oladi. U ayrboshlash konsepsiyasiga asoslanib ish tutadi va ishlab chiqarish vositalarining bu xarakterini tan olmaydi, holbuki uning xarakteri iqtisodiy formasiyaning ijtimoiy tabiatini va jamiyatning sinfiy tuzilishini xizmatini tashkil qildi. 1861-yilda B.Gildebrand Germaniyaga qaytib, hayotining oxirigacha Yen universitetida faoliyat ko‘rsatdi. U o‘z asarlarining maqsadi qilib millat xo‘jalik rivojlanishi qonunlarini o‘rganishga e’tiborni qaratdi, turli xalqlar iqtisodiy tarixini o‘rganishda taqqoslash usulini qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi.

9.7. P.J. PRUDONNING IQTISODIY KONSEPSIYASI

Pyer Jozef Prudon¹⁵³ (1809–1865) – fransuz publisisti, mayda ishlab chiqarish nazariyotchisi, kambag‘al kosib oilasida tug‘ilgan. Moddiy jihatdan nochorligi sababli kollejdagi o‘qishni tugatmagan, sherik hamkorining mablag‘i hisobiga kichik bir bosmaxonani ishlatib, zo‘r berib o‘z ma’lumotini oshirish bilan shug‘ullangan. Ilmu-fanni o‘rganishni avvalo muhtojlikdan qutulish usuli deb bilgan.

1838-yilda P.Prudon Bezanson akademiyasi tomonidan kam ta’minlangan yosh olimlarga ajratilgan uch yillik stipendiyani olib Parijga ko‘chib o‘tdi. Parijda u J.B.Sey, S.Sismondi, T.Maltus, K.Sen-Simon, Sh.Fure va boshqa iqtisodchi olimlar asarlari bilan yaqindan tanishdi. 1840-yilda P.Prudonning «Mulkchilik nima?» nomli mashhur asari e’lon qilindi. Ushbu asarda kapitalizmni tanqid bosh bob bo‘lsada, hali olimning amaliy dasturi bayon qilinmagan edi. 1846-yilda P.Prudonning «Iqtisodiy ziddiyatlar tizimi yoki qoshshoqlik falsafasi» nomli yana bir asari e’lon qilindi. Asarda olim kapitalizmni isloh qilishning amaliy dasturini ishlab chiqishga, siyosiy kurashning behudaligini asoslashga urindi. 1848-



Pyer Jozef Prudon
(1809-1865)

¹⁵³ Д.Джумонов, З.Аллаберганов. Иктисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 150–155-б

yilda nashrdan chiqqan «Ijtimoiy masalalarining xal etilishi» nomli yangi asarida olim har qanday inqilobiy chiqishlarni keskin qoralaydi.

P.J. Prudon Xalq banklari konsepsiyasini e'lon qilib xalqni ijtimoiy islohotlarga chorlaydi. P.Prudon siyosiy iqtisodni «aql-zakovatning abadiy qonunlari» to‘g‘risidagi fan deb biladi. P.Prudon va S.Sismondi nazariy qarashlarida biz juda yaqinlik va o‘xshashlik hollarini uchratishimiz mumkin. Ayniqsa ularning uslubiyotlarida bu holat quyidagicha aks etadi:

Birinchidan, iqtisodiyotda cheksiz erkin raqobatni inkor etib, boshqarish mumkin bo‘lgan raqobatni topib tashkil etish.

Ikkinchidan, xo‘jalik hayotini tahlil qilish jaranida iqtisodiy ko‘rsatkich va manbalarni asosiy deb hisoblamasdan, balki mehribonlik, axloq, ijtimoiyadolat, etika va boshqa kategoriyalarni, shuningdek, inson hayotining eng oliy ne’mati tenglik va tinchlikni asosiy deb hisoblash.

Uchinchidan, ko‘p yillar davomida yaratilgan ilmiy asarlarda iqtisodiy hodisalarga nemis faylasufi Gegel dialektikasi asosiy uslub qilib olinib, unga alohida e’tibor berildi.

P.Prudon o‘zining mayda ishlab chiqarish manfaatlaridan kelib chiqqan islohotchilik konsepsiyasini maydonga tashlar ekan, juda ko‘p masalalar xususidagi fikrlarni bayon etadi. Mehnat taqsimoti, tovarning xususiyati, ish haqi, mulkchilik, daromad va takror ishlab chiqarish kabilarni ilmiy izohlashga harakat qiladi. P.Prudon o‘zining eng muhim asarlaridan biri – «Iqtisodiy ziddiyatlar tizimi....»da avvalgi mehnat taqsimotini tahlil qiladi. Mehnat taqsimoti bir tomonidan boylikning ko‘payishiga imkon bersa, ikkinchi tomonidan qashshoqlikka, kambag‘allikka olib boradi. P.Prudonning mulohazalariga qaraganda, mehnat taqsimotining naf keltiradigan xususiyatlarini saqlab qolish va zararli xususiyatlarini tugatish kerak. Metodologiya jihatidan bu o‘rinda ijtimoiy jarayonlar dialektikasining ilmiy tahlilida tarixdan tashqari yondashuv sezilib turadi. Prudon tovarning xususiyatini ham mana shunday yondashuvlardan turib «tadqiq» qiladi. Uning fikricha, qiymatning abadiy g‘oyasi mavjud, bu g‘oya iste’mol qiymati talab va kamchilik bilan, ayirboshlash qiymati esa taklif va mo‘l-ko‘lchilik bilan belgilanadi. Talab bilan taklif o‘rtasidagi kurashda tovarning qiymati yoki narxi belgilanadi. Nazariy

jihatdan olganda bu haddan tashqari vulgar konstruksiyadir: qiymat ayrboshlashda vujudga keladi, u obyektiv asosdan mahrum.

U ish haqining harakati qonuniyatlarini ham oddiy va g‘ayriilmiy yondashuvdan turib bayon etadi. Prudon ishchilarning ish haqini oshirish uchun kurashiga qarshi chiqadi, chunki bu narsa narxnavoning yoppasiga ko‘tarilishiga yoki muhtojlikning kuchayishiga olib boradi deb hisoblaydi.

P.Prudon yollanma ishchini ekspluatatsiya qilish mexanizmini tushuna olmaydi. U kapital bilan mahsulotni aynan bir narsa deb talqin etib, butun kapitalning harakatini uning protsent keltiradigan qismi harakatidan iborat deb talqin etadi. Ssuda kapitalning harakatini Prudon qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o‘rtasidagi bitim deb hisobladi. U mahsulotning bir qismini kapitalist o‘zlashtirib olishini ishlab chiqarish chiqimlari eniga kapitaldan foydalanganlik uchun prosent qo‘sish zarurligi bilan izohlaydi. Prudonning nazariy tizimsida prosent mehnatni ekspluatatsiya qilishning asosiy shakli tarzida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga u prosent bilan yollanma ishchini ekspluatatsiya qilish mexanizmi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunmaydi.

P.Prudon «belgilangan qiymat» nazariyasini o‘zining butun iqtisodiy negizi deb hisobladi. Bunda klassik maktabdan o‘zib ketish pinhona istagagina emas, shu bilan birga ijtimoiy o‘zgartirishlarning yo‘llarini belgilash istagi ham namoyon bo‘ldi. Tovar ishlab chiqarishini Prudon insoniy ozodlikning va har bir kishi shaxsiy mustaqilligining cho‘qqisi deb biladi, mayda burjua nazariyotchisi bo‘lgan Prudon bozor mexanizmining ba’zi bir salbiy jihatlarini: mollarning qalashib ketishini, nomunosiblikni, xonavayron bo‘lish va shu kabilarni tan oladi. Prudon asosiy iqtisodiy ziddiyatlarni «qiymat»ning ichki ziddiyatlaridan: iste’mol va ayrboshlash qiymati g‘oyalaridan iborat deb biladi. «Belgilangan yoki sun’iy» qiymat murosaga keltiruvchi timsol bo‘lib ko‘rinadi. Bunday qiymat ayrboshlashda vujudga keladi. U tovarning ijtimoiy boylik tarkibiga bemalol kirib borishini bildiradi.

Binobarin tovar ishlab chiqarishining hamma qiyinchiliklarini bartaraf qilish uchun har bir tovarga yo belgilangan qiymat qo‘yib qo‘yish, yoki uning bozorda sotilishiga kafolat berish, tovar bilan pul

o‘rtasidagi ziddiyatni tugatish zarur. Prudon tilla bilan kumushni «belgilangan» qiyomatga ega bo‘lgan dastlabki tovarlar deb ataydi.

P.Prudon daromad to‘g‘risidagi nazariyani siyosiy iqtisodda daromadning asosiy manbai deb qabul qilingan mehnat, kapital va yerning mazmunini ko‘rib chiqishdan boshlaydi. Uning fikricha, ishlab chiqarish jarayonining o‘zi har uchchaloa elementning ishga tushurilishi natijasida yuz beradi. Lekin yer yoki kapital egasi o‘zi hech narsa ishlab chiqarmasdan o‘z daromadini olishini va ayni vaqtda ishchi o‘z mehnati natijasida hosil bo‘lgan daromadining faqat kichkina bir qismini ish haqi sifatida olishniadolatsizlik deb baholaydi. P.Prudonning takror ishlab chiqarish nazariyasi uning daromadlar to‘g‘risidagi fikrlari asosida rivojlantiriladi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni olimning fikricha, hamjamiyatdagi ishlab chiqarish va iste’molning muvozanati asosida bo‘ladi. Lekin amaliyotda mulkchilarning ishlamay qo‘yanligi bu tamoyilning buzilishiga va natijada J.B.Sey ko‘rsatib o‘tgan «iqtisodiy qonunni» ham buzilishi olib kelmoqda.

P. Prudon ijtimoiy masalalarni hal qilishi zarur bo‘lgan kapitalizmni isloq qilish loyihamalarini o‘zining ko‘pgina asarlarida e’lon qiladi. Ushbu asarlarda ijtimoiy adolat konsepsiyasini asoslash bilan birga inqilobiy chiqishlar haqidagi har qanday fikrni inkor etadi. Olimning islohotchilik g‘oyalarning ayrimlari S.Sismondi qarashlariga o‘xhash bo‘lib ular quyidagilarda o‘z aksini topdi:

- «uchinchi shaxslar» ya’ni dehqonlar, hunarmandlar va mayda ishlab chiqaruvchilarning jamiyatdagi o‘rniga rahmdillik bilan hayrihohlik bildirish;

- «mayda mulkchilik va mayda ishlab chiqarishni» iqtisodiyotdagi etakchilik o‘rmini e’tirof etish bilan ularning shart-sharoitlari, ta’limotlarida to‘liq tenglikka erishish;

- ijtimoiy adolat tamoyillariga mos ravishda jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib ishlab chiqarish ishtirokchilariga teng daromad berish;

- kapital va daromadlar bir kishi qo‘li ostida konsentratsiya qilinishiga va ayniqsa mehnatni ekspluatatsiya qilishga yo‘l qo‘ymaslik.

Bundan tashqari faqat P.Prudon islohotchiligiga xos quyidagi g‘oyalarni alohida ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- pulni muomalada haraktini bekor qilib, uning o‘rniga ishchi pullari banklarni muomalaga kiritish;
- foizni yo‘q qilish hisobiga foizsiz kreditlarni tashkil qilish;
- xalq banklarini tashkil etish;
- islohotlar amalga oshirish jarayonining xotimasi sifatida hukumatni bekor qilish.

Islohotchilik konsepsiyalarida P.Prudon Xalq bankiga katta umid bog‘laydi. Uning banki sotsialist-rikardochilar taklif qilgan banklardan 3 xil o‘ziga xoslik bilan farq qilar edi:

Birinchidan, undagi metall pullar dastlabki bonlar chiqarilishi sababli, pulga va tijorat voqealariga almashtirish yo‘li bilan sekin-asta muomaladan chiqarilar edi.


Ikkinchidan, foizni birdaniga yo‘q qilmasdan, balki yuqori qayd qilingan bosqichni amalga oshirishni 2%dan eng kam daraja-0,25% tushirish hamda sotilmagan tovarlarga oldindan ssuda berilishi.

Uchinchidan Xalq banki kapitalni o‘ziga jalb qilmay yuzaga kelmasdan, balki aksincha kapital bilan yuzaga keladi.

P.Prudonning hukumatni bekor qilish g‘oyasi islohotlarni amalga oshirish davrida sinflarning umumlashuvi va yagona mehnatkashlar, o‘z mehnatinini haqiqiy haqini oladigan sinfini yuzaga kelishi o‘z navbatida hukumat faoliyatini keraksiz qilib qo‘yadi (anarxizm g‘oyasi).

Prudon kapitalizmni isloh qilish loyihasida mayda tovar ishlab chiqaruvchining o‘z moli sotilishiga kafolat olish, mayda do‘kondorning foizsiz kreditning olish to‘g‘risidagi asriy orzusini, burjua ziyolisining kapitalizm sharoitida mutlaq mehnat erkinligi, qiymat qonuni asosida tenglik imkoniyati to‘g‘risidagi xomxayollarini ifodalagan edi. Prudonning «sosializm»i tovar bilan pul o‘rtasidagi aloqani soxtalashtirishga asoslangan. Shu loyihaning muallifi xususiy ishlab chiqarishni tovarni saqlab qolishga, ammo pulni, ayrboshlashni, ayrboshlash qiymatini yo‘q qilib tashlashga intilgan edi.

Prudon va prudonizm o‘z davrida ishchilar harakatiga jiddiy hatar solganligi sababli proletar ta’limotining asoschilari Prudonning mayda ishlab chiqarish reformizmiga (islohotchiliga) qarshi murosasiz



kurashdi. Uni proletariatga dushman va revolyutsion harakatga halaqit beruvchi bir oqim deb fosh qildilar. Bu kurashni K.Marks XIX asrning 40-yillari o‘rtalaridayoq «Falsafa qashshoqligi» asarini tayyorlashdan boshladi va marksizm rivojining keyingi davrlarida ham shu kurash davom etdi.

Prudon falsafada Gegeldan, siyosiy iqtisodda esa A.Smit bilan D.Rikardodan yuqori ko‘tarila olmadi. Uning ijtimoiy dasturlarida mafkuraviy yo‘nalishni fosh qilishda alohida vazifalar kelib chiqdi. Prudonizm mayda ishlab chiqarish muhitiga va uning puch xayollariga tayanib, uzluksiz ravishda o‘zgarib boruvchi sharoitlarga moslashaverdi.

9.8. K.RODBERTUSNING IQTISODIY G‘OYALARI

Karl Iogann Rodbertus¹⁵⁴ (1805–1875) Germaniyada, Shimoliy Greyfsvoldda 1805-yilda tug‘ildi. Gettingem va Berlin universitetlarida huquqdan tahsil olib, shu mutaxassislik bo‘yicha ma’lum vaqt ishladi. Burjua demokratik revolyutsiyasi yillarida parlament a’zosi, keyinchalik vazir (ministr) lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. K.Rodbertus Germaniya mayda burjua iqtisodiy ta’limoti vakili bo‘lib, Sen-Simon va sotsialist-rikardochilar g‘oyalari ta’sirida edi. U xayoliy sosializm va konservativ reformizm g‘oyalari asosida o‘zining eklektik konsepsiyasini yaratdi.

1842-yilda K.Rodbertus «Davlat-xo‘jalik tizimimizni bilish yo‘lida» deb nomlangan kitobini nashrdan chiqardi. Uning asarlari «sotsial xatlar» shaklida yozilgan. U aynan shu kitobida qo‘srimcha qiymat nazariyasini ko‘rsatib o‘tdi. U o‘z fikrlarini yakunlab, shunday deb yozadi: «Agar ishlab chiqarish qanchalik yuqori bo‘lsa, ishchining yashashi uchun zarur vositalardan tashqari ko‘pgina iste’mol buyumlarini yaratishi mumkindir. Bu chegirtma yerga xususiy mulkchilik va kapital mavjud sharoitda renta holiga aylanadi va kishilar tomonidan mehnatsiz o‘zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, renta olishning asosiy usuli yerga xususiy mulkchilik va kapitaldir» (К.Робертус «К познанию нашего государственно-хозяйственного строя. Пять теорем». М.,1935, стр.115).

¹⁵⁴ Джумонов Д., Аллаберганов З.. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2017. 155-157 б.

K.Rodbertusning nazariyasi va qisqacha xulosalarlariga yuqori baho berish mumkin, chunki u A.Smit va D.Rikardo iqtisodiy ta'limotlar bilan yaqindan tanish va bu ta'limotlarni chuqur ilmiy tahlil qilgan edi.

Shuningdek, olim o‘z xatlarining birida qo‘srimcha qiymat va uning vujudga kelishini Marksdan oldinroq ko‘rsatganligini va aniq qilib tushuntirganligini yozadi. Bu bilan u o‘zining qo‘srimcha qiymat nazariyasidan Marks ijodiy foydalanganligini va hatto «o‘g‘irlab» o‘ziniki qilganligini isbotlamoqchi bo‘ladi. Shuni aytish zarurki, Marks ta’limotiga nisbatan aytilgan bu tanqidlar Marksning o‘ziga ham ma’lum edi. Marksning vafotidan keyin nemis kateder-sotsialistlari bu masalani yana qayta ko‘tardilar. Ularning asosiy maqsadlari Marks ta’limotini kuchsizlantirish va uning ta’sir doirasini kamaytirish edi. O‘z davrida F.Engels bu fikrlar uydirma ekanligini va Rikardonning qiymat nazariyasidan so‘l rikardochilar sotsalistik qisqacha xulosalarlar uchun K.Rodbertusdan oldinroq ko‘rsatib foydalanganliklarini aytdi. Shuningdek u K.Rodbertus qo‘srimcha qiymatning foyda va yer rentasiga aylanish qonunini, kapitalistik sinflar o‘rtasida qo‘srimcha qiymatning taqsimlanishi, qonunni to‘liq tushunmay, faqat renta nazariyasi bilan cheklanib qolganligini ham ko‘rsatib o‘tdi.

Haqiqatan ham foyda va yer rentasini ishchilarga haq to‘lamaslik samarasi deb hisoblash, bu hali qo‘srimcha qiymatning ilmiy nazariyasini yaratish degan gap emas edi. Ingliz sotsalist-rikardochilar bu masalada K.Rodbertusdan ancha ilgarilab ketdilar (biz bu haqda keyingi boblarda to‘xtalib o‘tamiz).

K.Rodbertusning iqtisodiy g‘oyalari yuqorida qayd etilgan asosiy asaridan tashqari, katta tommi tashkil etgan to‘rtta «ijtimoiy xati»da bayon etilgandir. Unda u qiymatning mehnat nazariyasini sodda ko‘rinishda tahlil qildi. Qiymat ijtimoiy zaruriy mehnat bilan aniqlanmasdan, balki barcha mehnat xarajatlari bilan aniqlanib, bu o‘rinda bir xil mehnat harajatlari har qanday ishlab chiqarishdan qat’i nazar bir xil qiymat hosil qiladi deb ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, mehnat doimo qiymat vujudga keltirishi alohida ta’kidlanadi. F.Engels «Falsafa qashshoqligi» asarining so‘zboshisida K.Rodbertus qarashlaridagi bu holatni keskin tanqid qilib, o‘zining qiymat nazariyasida mehnatning ijtimoiy zaruriy xarakterini inkor etadi, deb yozadi.

K.Rodbertusning fikricha, mehnat qiymat o‘lchovi sifatida oltin va kumushdan yuqori turadi, chunki u ish kunini o‘zgarmas o‘lchov deb hisoblaydi. Bu o‘rinda «mehnat kunlari» ham izohlanadi. Lekin olim xayoliy fikrlarga berilib, kapitalistik tovar xo‘jaligi sharoitida pulning zaruriyatini to‘g‘ri tushuntirib bera olmadi. K.Rodbertus o‘zining taqsimot nazariyasida klassik maktab vakillari yo‘l qo‘ygan xatolarni takrorlaydi. Taqsimot nazariyasi quyidagi tartibda tahlil qilinadi va uch bosqichdan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqichda K.Rodbertus ijtimoiy (milliy) mahsulotni ish haqi va rentaga bo‘linishini ko‘rib chiqadi. Ikkinci bosqichda u rentani kapital va yer rentasiga bo‘lishga o‘tadi. Va nihoyat, uchinchi bosqichda K.Rodbertus barcha foyda va yer rentasining kapitalist va yer egalari o‘rtasidagi taqsimotini ko‘rib chiqadi. K.Rodbertus ijodiy faoliyatining so‘nggi yillari qiymatning mehnat nazariyasidan uzoqlashib mayda ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga mos tushuvchi jamiyatni qayta qurish loyihalarini e’lon qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Kapitalizmni Rodbertuschasiga isloh qilish sinfiy kurashsiz evolyutsion yo‘l bilan amalga oshirishni ko‘zda tutar edi. Bu yo‘l keyingi islohotchilik yo‘nalishidagi nazariy maktab tomonidan qo‘llaniladi. Bu olimning asarlari rus tilida to‘la chop etilgan.

9.9. IQTISODIYOTDA ILK MATEMATIK USLUBLAR

Tarixda ilk matematik uslublarni qo‘llagan iqtisodchilar XIX asrning nemis va fransuz injener va matematiklari I.G. fon Tyunen, A.O.Kurno, J.Dpyuilar¹⁵⁵ bo‘ladi. O‘z zamondoshlari ularni ishlarini baholay olmadi, lekin ularni tadqiqoti keyinchalik marjinalizm maktabining rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Nemis olim **Logann Genrix fon Tyunen** (1783–1850) chegaraviy tahlilning ilk asoschisi sifatida tarixga kirib keldi. Uning avval 1826-yili, keyinchalik 1850 va 1863-yillar “Milliy iqtisodiyot va qishloq xo‘jaligiga munosabatni davlatdan holi qilish” asari nashrdan chiqdi. Bu asarda ishlab chiqarish omillari




Johann Heinrich von Thunen

¹⁵⁵ История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. – СПб.:/Питер, 2008, 139-140 б.

(yer, kapital va ishchi kuchi) bilan bog‘liq ishlab chiqarish funksiyasini yaratdi. Chegaraviy ishlab chiqarish samarasi va uni taqsimoti Tyunen kitobining tahliliy qismining asosi bo‘ldi.

Fransiyalik matematik va iqtisodchi **Antuan Ogyusten Kurno** (1801–1877) iqtisodda matematik usullarni keng qo‘llagan olim sifatida tarixga kirib keldi. U “Boylik nazariyasini matematik tadqiqoti” (1838) asarida talab funksiyasi tahlilini amalga oshirilib, birinchilardan bo‘lib “talab egri chizig‘i”ni grafik orqali o‘rgandi, shuningdek, bu asarda yalpi va chegaraviy daromad funksiyasini, yalpi va chegaraviy xarajat funksiyasi tahlilini amalga oshirdi. Kurno birinchilardan bo‘lib talab elastikligi haqida gapirdi (undan so‘ng bu atama A.Marshall ta’limotida aks etdi). Kurno xizmatlariga shuningdek, iqtisodiy muvozanatlilik, sof monopoliya, duopoliya (bozorda ikki raqobatchi mavjud bo‘lishi), erkin raqobatni ham kirgizish mumkin.



Antuan Ogyusten Kurno

Marjinalizmning ilk namoyandalariga, shuningdek fransiyalik injiner **Jiyol Dyupyui** (1804–1866) kirgizamiz. U o‘zining “Jamoaviy ishlarning naflilagini o‘lchash” maqolasida Kurnodan erkin holda talab funksiyasini tahlil qildi. Dyupyui asarlarida naflilikni muammolarini rivojlantirish ham kirgan.

Nemis yuristi **German Genrix Gossen** (1810–1858) 1854-yili “Jamiyat ayiriboshlash qonuniyatları va undan kelib chiqadigan inson faoliyati qoidalari” ishida iqtisodiy fanga juda zurur bo‘lgan Gossen qonunlarini olib kirdi. Gossen ta’limoti bu chegaraviy naflilik nazariyası ishlanmasi va subyektiv qimmatilik nazariyasining umumiylashtirish asoslari hisoblanadi. U naflilikni maksimallashtirish insonning xatti-harakatining asosini tashkil qiladi deb bilgan. Gossenning ikki qonuniyatı mavjud. Gossenning birinchi qonuni aytadiki, agar biror mahsulotning qo‘sishicha birligining iste’moli darjasini ortsa, u mahsulotga bo‘lgan naflilikni kamaytiradi va oxir oqiqat naflilik nolga teng bo‘ladi. Gossenning ikkinchi qonuni aytadiki, iste’molni



German Genrix Gossen

faoliyati qoidalari” ishida iqtisodiy fanga juda zurur bo‘lgan Gossen qonunlarini olib kirdi. Gossen ta’limoti bu chegaraviy naflilik nazariyası ishlanmasi va subyektiv qimmatilik nazariyasining umumiylashtirish asoslari hisoblanadi. U naflilikni maksimallashtirish insonning xatti-harakatining asosini tashkil qiladi deb bilgan. Gossenning ikki qonuniyatı mavjud. Gossenning birinchi qonuni aytadiki, agar biror mahsulotning qo‘sishicha birligining iste’moli darjasini ortsa, u mahsulotga bo‘lgan naflilikni kamaytiradi va oxir oqiqat naflilik nolga teng bo‘ladi. Gossenning ikkinchi qonuni aytadiki, iste’molni

optimal darajasi turli mahsulotlarni sotib olishda ularning nafliligi tenglashsa va unga ishlatilgan oxirgi pul birligi tenglashstirilsagina qondiriladi.

9.10. KARL MARKS VA UNING “KAPITAL” ASARI

Karl Marks (1818–1883) asosan iqtisod sohasida tanilgan bo‘lsada, u shuningdek, faylasuf, sotsiolog, bashoratchi va iqtisodiy g‘oyalarning dolzarbligini isbotlay olgan – revolyutsioner edi. Uning g‘oyalari iqtisodiyot mutaffakkirlari avlodlarini ilhomlantirdi, o‘z navbatida jamiyatdagi o‘zgarishlarga olib keldi. Bu o‘zgarish sezilarli darajadagi tartibsizliklarga sabab bo‘ldi, ba’zi jamiyatlar esa o‘rtadagi yo‘lni (marksizm va kapitalizm) izlay boshlashdi. Bu ta’limotlar biz uchun bugungi kunda muhim saboq bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham – Karl Marks g‘oyalarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu ma’noni quyidagi taqqoslashdan foydalanamiz¹⁵⁶.


5-jadval

Klassik va Marks ta’limoti solishtirma jadvali

Klassik maktab vaqillari va ularning tarafdorlari iqtisodiy g‘oyalarida (A.Smit)	Marks va Engels g‘oyalari
1.Kapitalizmni tartibga solish mumkin va u taraqqiy eta boradi	1.Kapitalizm qobig‘i jamiyatdagi ziddiyatlar va illatlar tufayli portlaydi.
2.Insoniyat ovchilik va balikchilikning ilk va sodda ko‘rinishidan oliy jamiyat sari boradigan yo‘lni bosib o‘tdi	2.Insoniyat tarixi sinflarning to‘xtovsiz ko‘rashi zolim va mazlum sinflarning raqobati hisobiga rivojlanadi.
3.Kapitalizm uzoq vaqt davomida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uygunligini ta’minlaydi.	3.Sinfiy ko‘rash, antagonistik ziddiyatlar ish xaqi va foyda o‘rtasida qarama-qarshiliklar kapitalizmni o‘zgartiradi va yakson qiladi

¹⁵⁶ “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani boyicha ma’ruzalar matni. Toshkent kimyo texnologiyalari institute. –T.: 2004. 52–53-betlar.

K.Marks o‘zining ko‘p sonli asarlarini, jumladan, hayotining mazmunini tashkil etgan “Kapital”ni yozdi. K.Marksning iqtisodiy konsepsiyalari asosan uning ushbu mashhur asarida berilgan. Uning bu asari to‘rt tomdan iborat bo‘lib, birinchi tom 1867-yili nashr etildi, ikkinchi va uchinchi tomlar K.Marks o‘limidan keyin F.Engels tomonidan (ikkinchi tom 1885-yil, uchinchi tom 1894-yil) chop etildi. To‘rtinchi tom tugallanmasdan qolib ketdi. Unda K.Marks siyosiy iqtisod tarixini ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan. Kapital ishlab chiqarish jarayoni «Kapital»ning birinchi tomining mazmunini tashkil etadi.



Karl Marks (1818-1883)

Ikkinci tomda kapitalning muomala jarayoni tadqiqot etiladi. Uchinchi tomda yaxlit olingan kapitalistik ishlab chiqarish jarayoniga tavsif beriladi. To‘rtinchi tom («Qo‘sishimcha qiymat nazariyasi») iqtisodiy ta’limotlar tarixiga bag‘ishlangan.

K.Marks «Kapital»ga yozgan so‘zboshida: «Asarimning tub maqsadi hozirgi zamon jamiyatni, ya’ni kapitalistik jamiyatni harakatining iqtisodiy qonunini ochib berishdir», – deydi. Ushbu tarixiy jihatdan muayyan jamiyatning ishlab chiqarish

munosabatlarini va bu munosabatlarning paydo bo‘lishini, taraqqiy qilishini va tanazzulga yuz tutishini ko‘rsatib berish K.Marks iqtisodiy ta’limotining mazmunidir. Kapitalistik jamiyatda tovar ishlab chiqarish umumiylashtirishiga sababli K.Marksning tadqiqoti ham tovarni tahlil qilishdan boshlanadi.

Qiymat nazariyasi. Marks ta’limotiga binoan, har bir tovarning qiymati uni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat bilan o‘lchanadi. Bir turdag'i tovarni ishlab chiqarish uchun turli miqdorda mehnat sarflanadi. Buning natijasida tovarlar har xil individual qiymatga ega bo‘ladi. Lekin qiymat o‘zida ijtimoiy mehnatni mujassamlashtirganligi sababli, uning miqdori individual mehnat sarflari bilan emas, balki ijtimoiy zarur mehnat bilan o‘lchanadi, ijtimoiy zarur ish vaqtini bilan belgilanadi. «Iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan qiymat miqdori, – deb yozadi K.Marks, – uni ishlab chiqarish uchun kerak bo‘lgan ijtimoiy zarur mehnat miqdori bilangina, ya’ni

ijtimoiy zarur ish vaqtি bilangina belgilanadi. Har bir ayrim tovar o‘z jinsidan bo‘lgan tovarlarning faqat o‘rtacha nusxasi sifatida ahamiyatga egadir». *Ijtimoiy zarur ish vaqtি me’yoriy ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyatdagi mehnat malakasi va intensiv-ligining darajasi o‘rtacha bo‘lgan sharoitda biron-bir tovar tayyorlash uchun sarflanadigan vaqtdir.* Ushbu tushunchalar yordamida qiymat qonuni shakllanadi: almashuv jarayonida (ekvivalent ekvivalentga singari) tovarlar o‘zining qiymati bo‘yicha ayrboshlanadi (Ularda mujassamlashgan ijtimoiy zarur ish vaqtি bo‘yicha). K.Marksning tasdiqlashicha, har qanday jamiyatda qiymat qonuniga amal qilmagan ayrboshlashning bo‘lishi mumkin emas. Qiymat esa, yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, ayni jamiyatda o‘rtacha mehnat sarflari bilan o‘lchanadi. Bu ayrboshlanadigan tovarlarni taqqoslashning yagona o‘lchovi mehnat ekanligini bildiradi. Tovarlarning foydaliligi bunday umumiy o‘lchov bo‘la olmaydi, negaki ular miqdor jihatidan taqqoslanmaydi.

K.Marksning qiymat nazariyasining D.Rikardoning qiymat nazariyasidan farqlanishiga e’tibor berish zarur. D.Rikardo tovarlarning nisbiy qiymati to‘g‘risida so‘z yuritadi: A va B tovarlar bir-biriga ayrboshlanadi, chunki ularni ishlab chiqarish taxminan bir xil mehnat sarflarini taqozo etadi. K.Marksda esa qiymat tovarga xos obyektiv xususiyatdir.

Qo‘srimcha qiymat nazariyasi. Qiymatni aniqlab va qiymat qonunini ta’riflab bergach, K.Marks qo‘srimcha qiymatni tahlil qilishga o‘tdi. Bu uning nazariyasida markaziy tushuncha hisoblanadi. Bu yerda asosiy savol tug‘iladi: agar «ekvivalentli ayrboshlash» tamoyili bo‘yicha barcha mahsulotlar o‘z qiymatiga olinsa va sotilsa, unda qo‘srimcha qiymat qanday hosil bo‘ladi? Marks ta’limoti bo‘yicha, u quyidagicha ishlab chiqariladi.

Tovar ishlab chiqarish taraqqiyotining ma’lum bosqichida pul kapitalga aylanadi. Tovar muomalasining formulasi T-P-T (tovar-pultovar), ya’ni boshqa bir tovarni sotib olish uchun tovar sotishdir. Kapitalning umumiy formulasi P-T-P, ya’ni sotish uchun tovarni sotib olishdir. T-P-T mazmuni: odamlar o‘rtasida har xil foydalilik ayrbosh qilinadi. P-T-P doiraviy aylanishda maqsad foyda olish hisoblanadi. Demak, P>P bo‘lishi kerak. Bu o‘sish qayerdan keladi? (Marks uni «*qo‘srimcha qiymat*» deb ataydi). Qo‘srimcha qiymat tovarlar

muomalasida paydo bo‘lmaydi, chunki tovar ekvivalentli ayirboshlanadi, qo‘srimcha qiymat baho-ning ustiga qo‘shib sotishdan ham kelib chiqmaydi, chunki bunday bo‘lganda xaridor va sotuvchilarning o‘zaro yutqiziqlari bir-birini qoplagan bo‘lar edi, holbuki gap ayrim hodisa ustida emas, balki ommaviy, o‘rtacha, ijtimoiy hodisa ustida boradi. Qo‘srimcha qiymat olish uchun «pul egasi bozordan shunday bir tovar topish baxtiga erishmog‘i kerakki, bu tovar iste’mol qiyamatining o‘zi qiymat manbai bo‘lishdek orginal bir xususiyatga ega bo‘lsin», u shunday tovar bo‘lishi kerakki, bu tovarni iste’mol qilish jarayoni ayni paytda qiymat yaratish jarayoni ham bo‘lsin. Bunday tovar – ishchi kuchidir. Ishchi kuchining iste’mol qilinishi mehnatdir, mehnat esa qiymat yaratadi. Pul egasi ishchi kuchini uning o‘z qiymati bo‘yicha sotib oladi. Ishchi kuchi tovarining qiymati ishchining va uning oilasining yashashi uchun zarur bo‘lgan tirikchilik vositalari qiymati bilan belgilanadi. Ishchi o‘z ishchi kuchi qiymatidan ortiqcha qiymat yaratish xususiyatiga ega. Faraz qilaylik, ishchi kun bo‘yi 10 soat ishlaydi. Holbuki, ishchi 5 soat mobaynida (Marks atamasi bo‘yicha «*zarur ish vaqtida*») o‘z qiymatiga teng qiymat yaratadi, keyingi 5 soat mobaynida («*qo‘srimcha ish vaqtida*») esa qo‘srimcha mahsulot yoki qo‘srimcha qiymat yaratiladi. Kapitalist bu qo‘srimcha qiymatni haq to‘lamasdan o‘zlashtirib oladi. K.Marks bo‘yicha, kapitalist tomonidan qo‘srimcha qiymatning o‘zlashtirib olinishi mehnatning ekspluatatsiya qilinishidir. K.Marks o‘zi ishlab chiqqan «formula» yordamida ushbu ekspluatatsiya darajasini, ya’ni ekspluatatsiya me’yorini ko‘rsatib berdi. Qo‘srimcha qiymatning ishchi kuchi qiymatiga – o‘zgaruvchi kapitalga bo‘lgan nisbatini (mashinalar va xom ashyoda ifodalangan doimiy kapital esa o‘z qiymatini faqat yangi mahsulotga o‘tkazishi mumkin, lekin qo‘srimcha qiymat yaratmaydi) u *qo‘srimcha qiymat me’yori* deb atadi. Uning yozishicha, «*qo‘srimcha qiymat me’yori* ishchi kuchining kapital tomonidan, yoki ishchining kapitalist tomonidan ekspluatatsiya qilinish darajasining aniq ifodasidir». Qo‘srimcha qiymat me’yori yangidan yaratilgan qiymatning kapitalist bilan yollanma mehnat o‘rtasida qanday taqsimlanishini, shuningdek, ish kunining qancha qismida ishchi o‘zi uchun va qancha qismida kapitalist uchun ishlashini ko‘rsatib beradi.

Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, ishchi «zarur ish vaqt»da o‘z ishchi kuchi qiymatiga teng qiymat yaratadi, «qo‘srimcha ish vaqt»da esa qo‘srimcha qiymat yaratadi, ya’ni kapitalist uchun ishlaydi: kapitalist qo‘srimcha ish vaqtini uzaytirishga harakat qiladi. Unga erishishning ikki yo‘li mavjud: ish kunini uzaytirish va zarur ish vaqtini qisqartirish. Ish kunini mutlaq uzaytirish yo‘li bilan olinadigan qo‘srimcha qiymatni K.Marks «*absolut qo‘srimcha qiymat*» deb atadi. «*Absolut qo‘srimcha qiymat* hosil qilish, – deb yozadi u, – ish kunini ishchi faqat o‘z ishchi qiymatining ekvivalentini ishlab chiqara oladigan chegaradan nariga uzaytirishdan va bu qo‘srimcha mehnatni kapitalning o‘zlashtirib olishdan iborat».

Zarur ish vaqtini qisqartirish va shunga muvofiq qo‘srimcha ish vaqtini uzaytirish yo‘li bilan olinadigan qo‘srimcha qiymatni K.Marks “*nisbiy qo‘srimcha qiymat*” deb atadi. Bu yerda shu narsaga e’tibor berish kerakki, ya’ni qiymat qonuniga xilof ish qilmaslik uchun, ekvivalentli ayriboshlashning buzilmasligi uchun kapitalist ishchi kuchi qiymatiga nisbatan ish haqini kamaytirish hisobiga zarur ish vaqtini qisqartirishi mumkin emas. Ammo ishlab chiqarishni yaxshi tashkil etish va samarali texnika va texnologiyani qo‘llash tufayli mehnat unumdorligini oshirish yo‘li bilan bunga erishish mumkin.

Kapitalist o‘z foydasini ko‘paytirish maqsadida fan va texnika yutuqlaridan ishlab chiqarishda ko‘proq foydalanishga harakat qiladi. Ayrim kapitalistlar tomonidan fan-texnika taraqqiyoti natijalarini amaliyotda qo‘llash o‘rtacha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi, bu esa unga foydani ko‘paytirish imkonini beradi. Bu yerda «*ortiqcha qo‘srimcha qiymat*» vujudga keladi. Ammo raqobat qonuni asosida boshqa kapitalistlar tomonidan ham yangiliklarning ishlab chiqarishda qo‘llanilishi natijasida bozor bahosi pasayadi va ortiqcha qo‘srimcha qiymat yo‘q bo‘lib ketadi. Demak, qo‘srimcha qiymat ishlab chiqarish tadbirkorlarni yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llashga undaydi.

Ish haqi. K.Marks ish haqini, klassik siyosiy iqtisod asoschilariga o‘xshab, mehnat uchun to‘lanadigan haq deb emas, balki *ishchi kuchi uchun to‘lanadigan haq* deb talqin qiladi. Uning nazariyasiga muvofiq, ish haqi ishchining va uning oilasining hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan tovarlar miqdoriga teng bo‘ladi. Ish haqi darajasi mehnat unumdorligiga bog‘liq bo‘lib, u, o‘z navbatida, ishlab chiqarishning

mexanizatsiyalashuvi va texnologik jihatdan ta'minlanishi sababli ro'y beradi. Bu hol pirovard natijada ish haqining o'sishiga to'sqinlik qiladi, negaki texnik-iqtisodiy taraqqiyot ishchi kuchining doimiy ortiqchaligini keltirib chiqaradi. Ishchi kuchining ortiqchaligi esa, ishchilar bilan kapitalistlar o'rtasidagi munosabatda keyingisiga ustunlik beradi va ishchi kuchi o'z qiymatidan past bahoda sotiladi.

Demak, K.Marks bo'yicha, ishchi mehnatini emas, balki ishchi kuchini sotdi, bunda «haq to'lanmagan mehnat»ning (aniqlash va o'lhash mumkin bo'lgan) ish haqiga aloqasi bo'lmaydi, «haq to'lanmagan ishchi kuchi»ni esa aniqlash mumkin emas, negaki bitim (kelishuv) bir butun ishchi kuchi qimmatini ayirboshlash yuzasidan tuziladi. Kapitalist ish haqini «bitim» tuzilgandan keyin emas, balki mehnat jarayoni tugagandan keyin to'laydi. Ishchi o'z ishchi kuchining qiymatini ish haqi shaklida olishdan avval kapitalistga ma'lum miqdorda mehnat, shu jumladan, qo'shimcha mehnat ham qilishi kerak. Mehnat sarfi esa, uning nazariyasiga ko'ra, ish vaqt bilan o'lchanadi. Binobarin, ishchi kuchining ma'lum muddat davomida unumli mehnat qilishi uning qiymatiga haq to'lash sharti bo'lib qoladi.

K.Marks fikri bo'yicha, real ish haqi «hech qachon mehnat unumdorligi kuchining oshishi bilan mutanosib tarzda o'smaydi» va natijada ishchilarning kambag'allik va ma'naviy qashshoqligi kelib chiqadi. Lekin tajriba bunday qarashlarning mutloq noto'g'ri ekanligini ko'rsatib berdi. Kapitalizm nafaqat texnologiyalar darajasini takomillashtirib bordi (buni Marks tan olgan) balki ijtimoiy masalalar bo'yicha ham katta yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Foyda va foyda me'yori. K.Marksning foyda nazariyasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, daromadning bu turi, tadbirkorlarning har qanday daromadi singari, ishchi kuchini ekspluatatsiya qilish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha qiymatning tashqi, ya'ni o'zgargan shakli hisoblanadi. Bu yerda, D.Rikardodan farqli o'laroq, gap nafaqat foyda me'yori to'g'risida, balki uning qo'shimcha qiymat me'yоридан farqi, o'ziga xosligi to'g'risida boradi. «Avanslangan butun kapitalning mahsuli bo'lib ko'ringan qo'shimcha qiymat foydaning o'zgargan shakliga kiradi».

«Kapital» I tomining mazmuniga ko'ra, korxonalarda yoki iqtisodiyot tarmoqlarida o'zgaruvchi kapital va mehnatning hissasi qancha ko'p bo'lsa, qo'shimcha qiymat miqdori shuncha ko'p bo'ladi,

lekin kapitalning uzviy tuzilishi qancha yuqori bo'lsa, ya'ni korxonalarning mexanizatsiyalashuvi yoki tarmoqlarning mashina va asbob-uskunalar bilan qurollanish darajasi yuqori bo'lsa, qo'shimcha qiymat miqdori shuncha kam bo'ladi. «Kapital» III tomida esa, K.Marks «*qo'shimcha qiymat me'yori*» va «*foyda me'yori*» tushunchalarining farqini bilishni tavsiya etadi. Agar birinchisi, uning tomonidan, qo'shimcha qiymatning o'zgaruvchi kapitalga bo'lgan nisbati sifatida ko'rilsa, ikkinchisi esa (gap qo'shimcha qiymatning «o'zgargan shakli» to'g'risida borar ekan) qo'shimcha qiymatning jami kapitalga, ya'ni o'zgaruvchi va doimiy kapitalga bo'lgan nisbati sifatida qaraladi.

K.Marks ta'limotiga binoan foyda me'yori pasayishga moyil. Bunday moyillik, uningcha, Rikardo-Mill ko'rsatib bergenidek, demografik omillar va tuproq unumdorligining pasayishi «qonuni» keltirib chiqaradigan hayotiy zaruriy mahsulotlar bahosining oshishi sababli emas, balki kapitalning uzviy tuzilishidagi umumiyligida o'zgaruvchi kapital hissasining pasayishi tufayli kelib chiqadi.

Bundan tashqari, «*qo'shimcha qiymat me'yori*» va «*foyda me'yori*» tushunchalaridan foydalangan holda, K.Marks erkin raqobat sharoitidagi bozor iqtisodiyoti xo'jalik mexanizmi «sir-asrorlarini» yaxshi tushunganligini namoyish etdi. Masalan, qo'shimcha qiymat nazariyasi «mantig'i» bo'yicha, ish kuni qancha uzun bo'lsa, qo'shimcha qiymat massasi va ekspluatatsiya me'yori shuncha yuqori bo'lishi kerak. Lekin «*qo'shimcha ish vaqtini*» uzaytirish yo'li bilan qo'shimcha qiymatni ko'paytirish usulini K.Marks yaxshi va to'g'ri usul deb hisoblamaydi. «Absolut qo'shimcha qiymat» olib keluvchi bunday usul, boshqa barcha sharoitlar bir xil bo'lganda, ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqarishi, har bir ish soati unumini pasaytirishi mumkin, ishchilar noroziligining muqarrarligi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Buning ustiga, «Kapital» muallifi, ish kunining faqat oxirgi soatida kapitalist uchun foyda yaratiladi degan N.Seniorning «oxirgi soat nazariyasini» qattiq tanqid qildi. Uning tasdiqlashicha, zaruriy ish vaqtining qisqarishiga qaramasdan, mehnat unumdorligining oshishi «nibiy qo'shimcha qiymatni» olib kelgach, bir vaqtning o'zida qo'shimcha qiymat me'yorining pasayish tendensiyasini kuchaytiradi. Shunday bo'lsada, har bir kapitalist intuitiv tarzda foyda me'yorini ko'paytirishga intiladi. «Foyda me'yori,

– deb yozadi K.Marks, – kapitalistik ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi kuchdir; foyda olib ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan narsagina ishlab chiqariladi».

Foyda me’yori hamisha qo‘srimcha qiymat me’yordan kam bo‘ladi. Buning sababi shundaki, uni hisoblaganda qo‘srimcha qiymat butun kapitalga nisbatan olinadi, qo‘srimcha qiymat me’yorini hisoblaganda esa, qo‘srimcha qiymatning faqat o‘zgaruvchi kapitalga bo‘lgan nisbati olinadi. Chunki qo‘srimcha qiymat, K.Marks ta’limotiga ko‘ra, faqat o‘zgaruvchi kapitalning funksiyasi hisoblanadi.

«Yuqori uzviy tuzilishdagi» kapital (ya’ni doimiy kapitalning o‘zgaruvchi kapitaldan ko‘pligi o‘rtacha ijtimoiy me’yordan oshiq bo‘lsa) o‘rtachadan kamroq foyda me’yori beradi. «Past uzviy tuzilishdagi» kapital esa o‘rtachadan oshiqroq foyda me’yorini beradi. Kapital o‘rtasidagi raqobat, kapitalning erkin sur’atda bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa (kam foyda beradigan tarmoqdan yuqori foyda beradigan tarmoqqa) oqib o‘tishi har ikki holda ham o‘rtacha foyda me’yorini keltirib chiqaradi. Muayyan jamiyatdagi barcha tovarlar qiymati miqdori tovarlar bahosining miqdoriga to‘g‘ri keladi. Lekin ayrim vaziyatlarda tovarlar raqobat ta’siri ostida o‘z qiymati bilan sotilmaydi, balki *ishlab chiqarish bahosi* bilan sotiladi.

«Ishlab chiqarish bahosi sarf qilingan kapital plyus o‘rtacha foydani o‘z ichiga oladigan bahodir».

Renta nazariyasi. K.Marks renta to‘g‘risida nazariya yaratdi. Uningcha, renta yerga bo‘lgan mulkchilikni amalga oshirish shaklidir. Yer maydoni cheklanganligi, uning yer egalari qo‘lida bo‘lganligi sababli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bahosi o‘rtacha yerdagi ishlab chiqarish xarajatlariga qarab emas, balki eng yomon yerdagi ishlab chiqarish xarajatlariga qarab belgilanadi. Bu baho bilan yaxshi yerdagi (yoki eng yaxshi sharoitdagi) ishlab chiqarish bahosi o‘rtasidagi farq differensial rentani bildiradi. K.Marks differensial rentani tahlil qilib, bu renta ayrim yer maydonlarining hosildorligi bir-biridan farq qilganda, yerga sarf qilingan kapital miqdori bir-biridan farq qilganda hosil bo‘lishini ko‘rsatib berdi. Differensial renta ikki shaklda – differensial renta I va differensial renta II shaklida mavjud bo‘ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish bahosini belgilovchi eng yomon yerdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish bahosi bilan eng yaxshi va o‘rtacha yerdagi mahsulotlarning individual ishlab chiqarish bahosi

o‘rtasidagi tafovut differensial yer renta I ning negizi hisoblanadi. Yerga qo‘srimcha ishlov berish evaziga olinadigan renta differensial renta II ni tashkil etadi.

K.Marks differensial renta bilan birga absolut rentaning ham amal qilishini ko‘rsatib beradi. U, absolut rentaning paydo bo‘lishini qishloq xo‘jaligida kapital uzviy tuzilishining ancha past bo‘lishi bilan va yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik bilan bog‘lab tushuntiradi. Birinchi omil tufayli, uning fikricha, qishloq xo‘jaligi mahsuloti qimmati uning «ishlab chiqarish bahosidan» hamisha ustun bo‘ladi, ikkinchi omil ta’sir kuchiga ko‘ra esa, foyda me’yorini o‘rtacha darajaga keltiruvchi «kapital oqimi» mexanizmi qishloq xo‘jaligida amal qilishi mumkin emas. Binobarin, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘z ishlab chiqarish baholaridan (qo‘srimcha qiymatning o‘rtacha foydadan) ortiqchasi kapitalistlar o‘rtasida taqsimlanmaydi (sanoatdagi kabi) balki dehqonchilikda qoladi va yer egalari tomonidan absolut renta shaklida o‘zlashtiriladi. M.Blaugning yozishicha, markscha absolut renta nazariyasi uning qo‘srimcha qimmat nazariyasi doirasidan tashqarida, qimmatning (qiymatning) bahoga aylanish zarurligi kelib chiqqan sharoitda hech qanday kuchga ega emas.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish sxemasi. F.Kenening «Iqtisodiy jadvaliga» yuqori baho bergan K.Marks, o‘zining takror ishlab chiqarish sxemasini ishlab chiqdi. A.Smit, J.B.Sey ijtimoiy mahsulotni daromadlarga bo‘lib (moddiy sarflarni mavhumlashtirgan holda) ko‘rsatgan bo‘lsa, K.Marksda esa ijtimoiy mahsulot uch qismga bo‘linadi: doimiy kapitalga (s) – moddiy sarflarga (amortizatsiya, xom ashyo, yoqilg‘i va boshqalar qiymati), o‘zgaruvchi kapitalga (v) – ishchi kuchini sotib olishga bo‘lgan sarflar va qo‘srimcha qiymatga (m).

Takror ishlab chiqarish muammosini yechib berishda K.Marks iqtisodiyotni ikki bo‘linmaga bo‘ladi. I bo‘linma ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, II bo‘linma iste’mol buyumlarini ishlab chiqarish. Keyin u oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib beradi. «Oddiy takror ishlab chiqarish» o‘zgarmas bo‘lib, unda sof investitsiya nolga teng. Oddiy takror ishlab chiqarish bir xil hajmda, o‘zgarmas bo‘lib qolishi uchun qanday shartlar bo‘lishi kerak? K.Marks buning uchun quyidagi shartlarni ko‘rsatib beradi. Oddiy takror ishlab chiqarishda I bo‘linmaning barcha

mahsuloti har ikkala bo‘linmadagi kapitalni qoplash uchun sarflanishi kerak: I (c+v+m) = I_c+I_{lc}. Shu bilan birga, II bo‘linma mahsuloti ish haqi fondi plyus mulkdan keladigan daromadga – sof milliy mahsulotga teng (ekvivalent) bo‘lishi kerak: II (c+v+m)=I (v+m)+II (v+m). Bu ikkala tenglamadan natijada I (v+m) = I_{lc} kelib chiqadi, ya’ni I bo‘linmaning sof mahsuloti II bo‘linmada yil davomida iste’mol qilingan kapitalni qoplash uchun zarur bo‘lgan talab miqdoriga teng bo‘lishi kerak. Agar I (v+m)>I_{lc} bo‘lsa, unda doimiy kapitalni qoplashga bo‘lgan investitsiya sarflari amortizatsiya ajratmalarini miqdoridan oshib ketadi, ya’ni sof investitsiya ijobiy bo‘ladi. Lekin amortizatsiya jamg‘armalari iste’mol qilingan kapitalni qoplashga ishlatalmasligi, albatta, ishlab chiqarishning pasayishini keltirib chiqaradi. Keltirilgan dalillar ancha puxta makroiqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik borligini tasdiqlaydi.

Keyin K.Marks kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tahlil qiladi. Uning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sxemasini fantarixidagi iqtisodiy o‘sishning birinchi matematik modeli hisoblash mumkin. Lekin uning kamchiliklari yo‘q emas. Xususan, «kengaytirilgan takror ishlab chiqarish»ning bir tekisda rivojlanib borishining shartlarini aniq ko‘rsatib berilmagan. Bundan tashqari, u sur’at o‘zgarmagan iqtisodiy o‘sishni tahlil qiladi, bunday vaziyatda esa, o‘sish Q (mahsulot miqdori) da hech qanday o‘zgarish bo‘lishini taqozo etmaydi. K.Marks ko‘rsatib bergen iqtisodiy o‘sishning zarur bo‘lgan shartlari: I bo‘linmaning milliy daromadi ushbu bo‘linmadagi ishchi va tadbirkorlarning ehtiyojlarini qondirish uchun II bo‘linmadan sotib olinadigan iste’mol buyumlaridan ko‘p bo‘lishi kerak – milliy daromadning bir qismi ishlab chiqarishni kengaytirishga ketadi, ya’ni I(v+m)>I_s. Shunday qilib, I bo‘linmaning mahsuloti yil boshidagi har ikkala bo‘linmaning ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan talabidan ko‘p bo‘lishi kerak, ya’ni I(c+v+m)>I_c+I_{lc}. Shunga muvofiq, jamiyatning barcha milliy daromadi iste’molga sarflanmaydi, ya’ni I(v+m)+II(v+m)>II(c+v+m).

Takror ishlab chiqarishning bunday talqini ayrim masalalarga oydinlik kiritishda qo‘llanishi mumkin. Lekin u shu qadar cheklanishlarga asoslanganki, bu undagi barcha dalillarni kuchsizlantiradi. Yopiq iqtisodiyot: barcha mahsulotlar «me’yorl bahoda» sotiladi; har ikkala bo‘linmada kapital aylanish tezligi bir xil;

faqat kapitalistlar jamg‘aradi; texnika taraqqiyoti yo‘q; real ish haqi doimiy; bir ishchiga bo‘lgan real mahsulot doimiy va boshqalar. Bundan tashqari, ikki bo‘linmadan iborat bo‘lgan model o‘zgaruvchan real iqtisodiyotni tahlil qilishda ishonchli vosita hisoblanmaydi. Kapital buyumlarni ham iste’mol buyumlarini ham ishlab chiqaruvchi ko‘pchilik tarmoqlar – masalan, tosh ko‘mir qazib olish, transport, ximiya – u yoki bu kategoriya tushunchasiga to‘liq kirmaydi. Buning ustiga, bunday tarmoqlar ichida kapital va iste’mol buyumlarini kategoriyalarga bo‘lish vaqtiga bilan talab strukturasidagi o‘zgarishga qarab o‘zgarib turadi. Natijada kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning markscha shartlari deyarli o‘z kuchini yo‘qotadi. Shunday bo‘lsa-da, tenglama K.Marks tizimida alohida o‘rin tutadi. U iqtisodiy o‘sish bir tekisda borishi mumkin emasligi, ishlab chiqarishning davriy bo‘lishi to‘g‘risida fikr yuritishga imkon beradi.

Iqtisodiy sikllar. K.Marks tugallangan, yaxlit iqtisodiy sikllar nazariyasini yaratgan emas. Uningcha, inqirozlar – bu «kapitalizmning asosiy ziddiyatlarining» namoyon bo‘lishidir. Xo‘jalikdagi anarxiya ishlab chiqarish strukturasi bilan iste’mol strukturasi doimo mos kelmasligini keltirib chiqaradi. Rivojlanishning siklli xarakterda bo‘lishi, ortiqcha ishlab chiqarish inqirozining muqarrarligi kapitalistik iqtisodiyotga xos xislatdir. Markscha iqtisodiy sikllar nazariyasi uning kapital jamg‘arilishi tahlili asosida ko‘rilgan. Siklli jarayon, K.Marks bo‘yicha, yuksalishdan boshlanadi. Yuksalish davrida mehnatga bo‘lgan talab (jamg‘arish sababli) uning taklifidan oshib ketadi; ishsizlik tugatiladi va ishchi kuchining nisbatan yetishmasligi ish haqining oshishiga olib keladi; natijada foyda kamayadi va jamg‘arish sekinlashadi. Kapital jamg‘arilishi me’yorining pasayishi yalpi talabning kamayishiga va shunga muvofiq bozor konyunkturasining pasayishiga olib keladi. Bunday inqirozli vaziyatda kapital qimmati qadrsizlanadi, ishsizlik esa qaytadan ko‘payadi va u ish haqining pasayishini keltirib chiqaradi. Bu hol ishlab chiqarishning foydalilagini qayta tiklaydi, jamg‘arishni qaytadan boshlash uchun sharoit yaratib beradi; inqiroz bir vaqtning o‘zida ham buzadi, ham tuzatadi. Inqirozlar «hamma vaqt mavjud ziddiyatlarning faqat vaqtincha zo‘rma-zo‘raki hal qilinishidan, zo‘rma-zo‘raki portlashlardan iborat bo‘lib, ular buzilgan muvozanatni bir lahzada tiklaydi». Inqiroz siklni tugallaydi va yangi navbatdagi sikl boshlanadi. Bu sikl davri mobaynida innovatsiya

va yangi ish joylarini tashkil etish bilan birga iqtisodiyot tarkibini qayta qurish, jamg‘arish jarayonida foyda me’yorining pasayish tendensiyasi va kapital qimmatining qadrsizlanishi, ishsizlar armiyasining ko‘payishi va ish haqining pasayishi qaytadan kelib chiqquncha va inqirozli vaziyat yuzaga kelguncha davom etadi.

K.Marks Sey qonunini tanqid qiladi. Bu qonunga muvofiq tovarlar taklifi avtomatik tarzda o‘ziga talabni keltirib chiqaradi Boshqacha aytganda, tovarlarni sotishdan tushgan daromad ularni sotib olish uchun xarajatga aylanadi. K Marks tovarlarni sotish (T-P) va sotib olish (P-T) aktlari makon va zamonda mos tushmasligini ko‘rsatib berdi (tovar qiymati pulda saqlanadi). «Hech kim zudlik bilan sotib olishga majbur emas, chunki uning o‘zi nimanidir sotgan». Demak, yalpi xarajatlar yalpi daromadlardan kam bo‘lganda ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi mumkinligi kelib chiqadi, ya’ni siklli rivojlanishga olib keladi.

K.Marksning ko‘rsatib berishicha, iqtisodiy sikllarning moddiy asosi kapitalning vaqtı-vaqtı bilan yangilanib turishi zarurligi hisoblanadi (har 5-10 yilda). Bunda texnika taraqqiyoti asosiy kapitalning ma’naviy eskirishi natijasida yangilanib turish muddatini qisqartirishi mumkin. Texnik kashfiyotlar va innovatsiyalar davriyligining xo‘jalik jarayoniga bo‘lgan ta’siri tahlili sikllar nazariyasining keyingi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Iqtisodiy deatamaizm. K.Marksning iqtisodiy nazariyasi uning ijtimoiy qarashlari bilan, ayniqsa, ijtimoiy rivojlanish konsepsiysi bilan bevosita bog‘liq. Bu g‘oyani shakllanishi jarayonida u uch asosiy ilmiy manbara: Smit-Rikardoning ingliz klassik siyosiy iqtisodiga, Gegel-Feyrbaxning nemis klassik falsafasiga va fransuz utopik sotsializmiga asoslanadi. Markscha ijtimoiy rivojlanish sxemasida markaziy o‘rinda iqtisodiy deatamaizm («tarixni materialistik tushunchasi») turadi. K.Marks ijtimoiy rivojlanishga va uning tarixiga tatbiq etilgan deatamaizmning asosiy qoidalarini «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir» asarida quyidagicha aniq va to‘liq ifodalab beradi:

«Kishilar o‘z hayotlarida ijtimoiy jihatdan ishlab chiqarishda muayyan, zarur o‘zlarining irodalariga bog‘liq bo‘lmagan munosabatlarda – ishlab chiqarish munosabatlarida bo‘ladilar, bu munosabatlar ularning moddiy ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyotining muayyan bosqichiga muvofiq keladi. Bu ishlab

chiqarish munosabatlarining yig‘indisi jamiyatning iqtisodiy tuzilmasini, real bazisini tashkil etadi, yuridik va siyosiy ustqurma shu real bazis ustiga quriladi hamda ijtimoiy ongning muayyan shakllari shu bazisga muvofiq keladi. Moddiy hayotni ishlab chiqarish usuli umuman hayotning ijtimoiy, siyosiy va ruhiy jarayonlariga sababchi bo‘ladi. Kishilarning ongi ularning borlig‘ini belgilamaydi, balki aksincha ularning ijtimoiy borlig‘i ularning ongini belgilaydi. Jamiyatning moddiy ishlab chiqaruvchi kuchlari o‘z taraqqiyotining ma’lum bosqichida mavjud ishlab chiqarish munosabatlariga yoki – buning yuridik ifodasigina bo‘lgan – mulkchilik munosabatlariga zid bo‘lib qoladi; ular shu paytgacha mazkur munosabatlar bag‘rida rivojlanib kelgan edi. Bu munosabatlar ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish shakllaridan ularning kishaniga aylanadi. Ana shu vaqtda ijtimoiy inqilob davri boshlanadi. Iqtisodiy asos o‘zgarishi bilan butun bir g‘oyat katta ustqurmada ham ozmi-ko‘pmi tezlik bilan tub o‘zgarish yuz beradi... Ayrim odam haqida uning o‘zi to‘g‘risidagi fikriga qarab xulosa chiqarish mumkin bo‘lmagani singari, bunday o‘zgarish davri to‘g‘risida ham shu davrning ongiga qarab hukm chiqarish mumkin emas. Aksincha, bu ongning sababini moddiy hayot ziddiyatlaridan, ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasida bo‘ladigan ixtiloflardan topmoq kerak... Burjua ishlab chiqarish munosabatlari ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining so‘nggi antagonistik shakli hisoblanadi,... lekin burjua jamiyatning bag‘rida rivojlanayotgan ishlab chiqaruvchi kuchlari shu bilan birga bu antagonizmni yechish uchun moddiy sharoit yaratadi».

Demak, K.Marksning nazariy konsepsiyasida ishlab chiqarish shakli o‘zining maxsus xususiyatiga, o‘zining ichki mantig‘iga ega. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan yangi munosabatlar kelib chiqadi. Ishlab chiqarish munosabatlari yig‘indisi jamiyatning moddiy bazisini tashkil etadi, unga jamiyat ustqurmasi: huquq, ideologiya, siyosat, din va boshqalar bog‘liq bo‘ladi. Huquq, siyosat, din bazis tomonidan boshqarilib turiladi. Ishlab chiqarish omillari yig‘indisi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tashkil etadi. Industrial tizimi ishlab chiqaruvchi kuchlarining muhim elementi deb K.Marks ishlab chiqarish vositalarini, eng avvalo, mehnat qurollarini, mashina va asbob-uskunalarni hisoblagan. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi (ya’ni hozirgi zamon tushunchasida iqtisodiy

o'sish) ishlab chiqarish munosabatlarining (yoki ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning) takomillashuvini taqozo etadi. U, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga faol aks ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiy o'sishiga imkon berishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin. Ijtimoiy organizmning ikki tomoni o'rtasidagi o'zaro aloqa juda murakkab, ko'p qirrali va ziddiyatlidir. Iqtisodiyot yagona aniqlovchi omil hisoblanmaydi.

Jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy qonunlar ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi hamda ideologik va siyosiy ustqurma bilan bazis o'rtasidagi muvofiqlik tamoyilni ifodalab beradi. Bunday muvofiqlik tamoyilning amal qilishi iqtisodiy o'sishga olib keladi, ishlab chiqarish munosabatlarining iqtisodiy o'sishiga to'sqinlik qilishi esa bunday tamoyilning buzilganligini bildiradi. Shu bois, K.Marks fikricha, ular ijtimoiy taraqqiyot dialektikasiga muvofiq o'z o'rnini boshqa progressiv ishlab chiqarish munosabatlariga bo'shatib berishi kerak.

Ijtimoiy formatsiyalar nazariyasи. K.Marksning asosiy ilmiy yutuqlaridan biri shundan iboratki, u ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularni tashkil etuvchi elementlar, formatsiyalarning almashuv sabablari to'g'risida ta'limot yaratdi. U uch yirik (ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani) ijtimoiy taraqqiyot bosqichini ko'rsatib berdi.

1. Arxaik (birlamchi) formatsiya: sinfiy jamiyatgacha bo'lган jamoa.

2. Iqtisodiy (ikkilamchi) formatsiya: sinfiy jamiyat; xususiy mulkchilikka asoslangan antik, feodal va kapitalistik ishlab chiqarish usuli.

3. Kommunistik formatsiya: kishining kishi tomonidan zulm va ekspluatatsiya qilinishi muammoсини hal qiluvchi sifatsiz jamiyat.

K.Marks ta'limotiga ko'ra, bir formatsiyadan ikkinchisiga o'tish ijtimoiy inqilob orqali amalga oshadi, ya'ni «kapitalizm qobig'i portlaydi», eski ishlab chiqarish munosabatlari yemirilib, ijtimoiy tizimning yangi iqtisodiy bazisi shakllanadi.

Agar industrial jamiyatning dastlabki bosqichlarida kapitalistik munosabatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirsa, keyinchalik bu munosabatlar iqtisodiy o'sishning «kishaniga» aylanadi, zamon talabiga javob bera olmaydi. Uning nazariyasiga ko'ra kapitalizm

halokatga yuz tutadi. Chunki u o‘zining ichki ziddiyatlarini yechishga qodir emas.

Uningcha, kapitalizm o‘rniga dolzarb muammolarni yecha oladigan, sanoat sivilizatsiyasi yutuqlaridan unumli foydalanish imkonini beradigan yangi, ancha takomillashgan jamiyat kelishi kerak. K.Marks ortiqcha ishlab chiqarish, ishsizlik va kambag‘allikni stixiyali bozor iqtisodiyotining muqarrar hamrohi hisoblangan bo‘lsa, kelajakda bo‘ladigan ancha takomillashgan iqtisodiyot esa, ijtimoiylik asosida tashkil etilgan bo‘lishi, yagona reja bo‘yicha ishlashi kerak. Uning tasdiqlashicha, bunday jamiyatda «oldindan ongli tarzda tuzilgan reja bo‘yicha ijtimoiy ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun imkon tug‘iladi».

Shuni qayd qilib o‘tish kerakki, kapitalizmning muqarrar halokati to‘g‘risidagi K.Marks dalillarida jamiyatdagi sinflar o‘rtasida daromadlar taqsimotining bozor tamoyili buzilganligida emas, balki bu tizimning to‘la ish bilan bandlikni ta’minlay olmasligi, mustamlakadagi ekspluatatsiyaga va urishlarga bo‘lgan moyilligi hisoblanadi. U, sotsializm va kommunizmni ijtimoiy jihatdan ideal hisobladi, ularni noantagonistik kommunistik jamiyatning fazalari deb atadi. K.Marks nazariyasiga binoan, kommunizm – ishlab chiqarish vositalari bir butun umumxalq mulki hisoblangan, jamiyatning barcha a’zolari ijtimoiy jihatdan batamom teng bo‘lgan sinsiz tuzum.

Ammo K.Marksning sinsiz jamiyat ideallari tantanasiga bo‘lgan qat’iy ishonchi, eng avvalo, klassik iqtisodiy mакtabning sinflar nazariyasiga asoslanadi. U o‘zini klassiklarning davomchisi hisoblagan holda, haqiqatan ham, iqtisodiy o‘sish muammosi bilan, xususan, farovonlikning va daromadlarning o‘sishi hamda daromadlarning mehnat, kapital va yer egalari o‘rtasida, ya’ni sinflar o‘rtasida taqsimlanish muammosi bilan shug‘ullandi. Lekin uning sinflar nazariyasidagi markaziy g‘oya sinfiy kurash hisoblanadi. «Hozirga qadar o‘tgan hamma jamiyatlar tarixi, – deb yozadi K.Marks, – sinflar kurashi tarixidir. Hur va qul, patritsiy va plebey, pomeshchik va krepostnoy, usta va xalfa, qisqasi, zolim va mazlum o‘rtasida doim antagonizm bo‘lib keldi; ular har doim goh yashirin, goh ochiq bir-biriga qarshi kurash olib bordi. Bu kurash har safar butun jamiyatni inqilob asosda boshqatdan qurish bilan yoxud kurashuvchi sinflarning umumiyl halokati bilan tugadi». Markscha, o‘zining kuchayib

borayotgan ziddiyatlari bilan kapitalistik jamiyat ham istisno hisoblanmaydi: turmush darajasi muttasil pasayib borayotgan sanoat ishchilari sinfi kapitalizm «go‘rkoviga» aylanib boradi. K.Marksning bashorati to‘g‘ri chiqmaganligini hayotning o‘zi ko‘rsatdi. Kapitalizm yangi real hayotga moslasha bildi va ancha yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlay oldi.

Tayanch tushuncha va iboralar. Mayda ishlab chiqarish va uning imkoniyatlari; yollanma mehnatning kengayishi; Sismondi uslubiyoti; Sismondi milliy daromad va kapital to‘g‘risida; “Uchinchi shaxslar” nazariyasi; Prudonning kapitalizmni isloh qilish konsepsiysi; qiymatning abadiy g‘oyasi (talab va taklif); belgilangan qiymat.

9-bob BO‘YICHA XULOSALAR

XIX asrning ikkinchi yarmida klassik iqtisodiy maktabga muqobil bo‘lgan g‘oyalar paydo bo‘ldi. Ular Adam Smit va David Rikardo g‘oyalarini yo takomillashtirish, yo yana yangiroq ko‘rinishga ega bo‘lgan “Nufuz qonunidek” g‘oyalarni tashkil etdi. Bu g‘oyalarda qiymat nazariyasi va foyda masalari (nufuz qonuni), xizmat ko‘rsatish nazariyalari (F.Bastia va G.Keri), ishlab chiqarishning uch omili (J.B.Sey), kapitalizmni isloh qilish konsepsiysi (R.Prudon), iqtisodiyotda matematik usullar (O.Kurno) tahlil etildi.

Syon Simonizm ta’limoti o‘z rivojida to‘rtta bosqichni bosib o‘tdi. Birinchi bosqich uning 1815-yilgacha yozilgan asarlarida yoritilib, olimning ijtimoiy-iqtisodiy tafakkuri endi shakllanib borayotgan edi. Ikkinci bosqich Sen-Simon hayotining so‘nggi o‘n yilligida yozilgan asarlarni o‘z ichiga olib, ularda kapitalizm tabiiy va abadiy degan fikrdan qaytib, yangi, qarama-qarshilik va raqobat o‘rniga birodarlik va hamkorlikka asoslangan jamiyat vujudga kelishi ko‘rsatiladi. Bu almashinuv tinch yo‘l bilan, «industriallar jamiyati»ning rivojlanishi va feodallarni tugatish asosida olib boriladi. Sen-Simon umuman xususiy mulkchilikka qarshi chiqqan emas, u faqat jamiyatda ma’lum nazorat o‘rnatilganligi maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaydi.

Uchinchi bosqichga Sen-Simonning vafotidan keyin olti yil ichida uning shogirdlari yaratgan asarlar hamda ularning tashviqot va

amaliy faoliyati kiradi. Bu bochkichda Sen-Simonizm sotsialistik ta’limotga aylanib, xususiy mulkchilikni bartaraf etishni, boylikni har kimning mehnati va layoqatiga qarab taqsim qilishni, ishlab chiqarishni esa rejalarshirishni talab qiladi. Bu g‘oyalar to‘liq ravishda 1829-yillarda Sen-Simonning yaqin shogirdlari S.A.Bazar, B.P. Anfonten, B.O.Rodrig tomonidan Parijda o‘qilgan ommaviy ma’ruzalarda o‘z aksini topdi.

Sen-Simon va uning shogirdlari asarlarida siyosiy iqtisodning asosiy toifalarining ilmiy tahlilini uchratmaymiz. Ular qiymat shakllarini, ish haqi, fonda va yer rentasining xususiyatlarini o‘rganishni maqsad qilganlari yo‘q balki, siyosiy iqtisod fani oldiga yangi vazifalarni: kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi va rivojlanishi, undagi qarama-qarshiliklar, nima uchun va qanday ko‘rinishda sotsializmga o‘rin bo‘shatishi kerakligini o‘rganishni qo‘yadi

1831-yilda boshlangan to‘rtinchchi bosqich Sen-Simonizm inqirozi bosqichidir. Ishchilar orasida mustaxkam o‘rin egallamagan sensimonchilar dastlabki revolyutsiyalar davrida ancha o‘zlarini yo‘qotib qo‘yidilar. Natijada ular orasida kelishmovchiliklar vujudga kelib, ikkiga bo‘linishga, keyinchalik esa umuman Sen-Simonizmning oqim sifatida tarqalib ketishiga sabab bo‘ldi.

Sen-Simon agar yangi jamiyatning umumiy qiyofasini, ya’ni eskizini yaratgan bo‘lsa, Fure o‘z navbatida undagi mehnatni va hayotni tashkil qiluvchi aloqida yacheykalarining mohiyatlarini o‘rgandi. Fure asarlari va g‘oyalarining ahamiyati shundan iboratki, olimning o‘zi kapitalizm qonuniyatlarini o‘rganishga harakat qildi. Uning mehnatni tashkil qilish, mehnatni tabiiy zarurat o‘rnida bilish va musobaqalar to‘g‘risidagi g‘oyalari hozirgi davrda ham katta ahamiyatga egadir.

Xayoliy-sotsialistlar ichida Ouen birinchi bo‘lib klassik iqtisodiy maktab tamoyillari asosida kapitalizmga qarshi xulosalarni chiqardi. U o‘z qarashlarini Rikardonning qiymatning mehnat nazariyasi asosida yaratib, ayrim hollarda Buagilber qarashlaridan ham keng foydalandi.

Sen-Simon va Fure ta’limotlari bilan tanishgan chog‘imizda ularning g‘oyalari to‘lik sotsialistik bo‘lmay, hali xususiy mulkni saqlab qolganliklari, kapitalistlarning sinf sifatida saqlab qolinishi va ularning ishlab chiqarish vositalaridan foydalanib, foyda olishlari

mumkinligini kuzatamiz. Ouen tizimi esa ulardan farq qilib, nafaqat sotsialistik qarashlarni rivojlantirdi, shu bilan birga ikkinchi yuqori faza bo‘lmish kommunizmni ham tasvirladi.

Lekin Ouen ta’limoti ham qarama-qarshiliklar va tartibsizliklardan xoli emas edi. Chunki sinfii munosabatlarning yetilmaganligi jamiyatni qayta kurit imkoniyatini bermas edi. Garchand Ouen ishchilar sinfining tutgan urnini tugri tushunmagan bo‘lsada, o‘z g‘oyalari bilan marksistik iqtisodiy ta’limotning vujudga kelishida aloqida o‘rin egallagan edi.

R.Ouen tashviqotlaridan ruxlangan klassik iqisodchilar Smit va Rikardo ta’limotlari bilan yaqindan tanish bulgan va siyosiy iqtisodda ishchilar manfaatlarini birinchi bor ifoda etgan kishilar sotsialist-rikardochilar edi. Ularning iqtisodiy g‘oyalari Ouennikiga nisbatan ancha mukammal bo‘lib, Rikardo ta’limotini ilmiy rivojlantirishga urindilar.

Sotsalistlar Rikardonning «qiymatning mehnat nazariyasi»ni chuqur o‘rganib, uni mantiqiy nihoyasiga yetkazdilar. Ular mehnat bilan kapital o‘rtasidagi ayirboshlashni mavjud qonunlarga zid deb fonda foydani ilmiy izohlash zarur deb ko‘rsatdilar. Lekin o‘zlar bunga haqiqiy ilmiy ta’rif bera olmadilar.

XIX asrning 20–30-yillarida sotsialist-rikardochilar ilk ishchilar harakatlari shakllanayotgan davrda katta ijobiy yutuqlarga erishdilar va iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani rivojiga ma’lum hissa qo‘shdilar.

XIX asrning o‘rtalarida marksizm iqtisodiy ta’limoti vujudga keldi. Bu ta’limot buyicha kapitalizmning o‘z davri uchun (avvalgi formatsiyalarga nisbatan ustunligi ijobiy tomonlari ko‘rsatib berildi. Lekin bu jamiyatning kelajagi yo‘q ekanligi, o‘z o‘rnini yangi jamiyatga bo‘shatib berishi «isbotlandi»), qiymatning mehnat nazariyasi asosida ishchilarning ishlab chiqarish vositasidan mahrum qilinishi (yoki kapitalistlar tomonidan egallanishi) natijasida kapitalistlar qo‘shimcha qiymat olish yo‘li bilan doimo boyib borishi, ishchilarning «ekspluatatsiya qilinishi va qashshoqlashib borishi» qonuni ochildi.

Kapitalizm ichki qarama-qarshiliklarining chuqurlashuvi tufayli bozor mexanizmi ularni tartibga sola olmadi. Korxonalarning hajmi inqirozlar tufayli doimo o‘sib borishi, firmalarning yiriklashuv tendensiyasi kapitalizm xususiyatidir. Ayrim odamlar tomonidan mulkning monopolizatsiyasi ro‘y beradi, ishchi kuchi tovarga aylanadi, ommaning proletarlashuvi kuchayadi, ularning ko‘pchiligida ishsizlik va boshqa negativ holatlar tufayli norozilik ortadi, oxir-oqibatda kapitalistik jamiyat yemiriladi. Bu jarayon dastlab eng rivojlangan bir qancha

mamlakatlarda bir vaqtning o‘zida ro‘y beradi, deb bashorat qilindi. Yangi jamiyatda xususiy mulk o‘rniga umumxalq mulkining ustun bo‘lishi ko‘rsatildi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshida kapitalizmning monopoliyalashgan davrida leninizm ta’limoti yuzaga kelgan bo‘lib, marksizm to‘ldirildi va rivojlantirildi. Bu ta’limotga ko‘ra kapitalizmning yemirilishi va inqilob nisbatan past rivojlangan, imperializm zanjirlari bo‘sh bo‘lgan ayrim mamlakatlarda ham ro‘y berishi mumkinligi ko‘rsatildi. Bu bashorat XX asr boshida qisman Rossiya, Mongoliya, II jahon urushidan keyin bir qancha Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlarida oqlandi. Yetmish yildan ortiq davom etgan «sotsialistik» jamiyat qurish tajribasi o‘zini to‘la oqlamadi. Ayniqsa, sof bozor munosabatlaridan voz kechish, davlat mulkining yetakchi bo‘lib olishi va davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi, xususiy mulk va xususiy savdoning inkor etilishi, yerga davlat monopoliyasi, erkin raqbatning musobaqa bilan almashtirilishi, baholarning yuqorida qat’iy belgilanishi, rejalashtirishning yuqorida qat’iy joriy qapinishi, erkin tanlash huquqining cheklanganligi va boshqalar bozor munosabatlarining yangi shakli — ma’muriy buyruqbozlik asosidagi iqtisodiyotni keltirib chiqardi, erkin bozorga zid iqtisodiyotni vujudga keltirdi. Oqibatda sobiq SSSR va boshqa «sotsialistik» deb atalgan mamlakatlarda iqtisodiy va siyosiy inqiroz ro‘y berdi, ular parchalandi va bozor iqaisodiyoti yo‘liga o‘tishga majbur bo‘ldi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. T.Maltus «aholi nufusi nazariyasi»dagi asosiy g‘oya nima?
3. J.Millning iqtisodiy qarashlari qanday?
4. J.Mill ishlab chiqarish qonunlari bilan taqsimot qonunlarini qanday baholaydi?
5. J.B.Seyning asosiy qonuni nimani bildiradi? Izohlab bering.
6. Sey fikricha inqirozlar bo‘lishi mumkinmi?
7. S.Sismondining iqtisodiy bobdagagi qanday asarlarini bilasiz?
8. S.Sismondi daromadni nechta turga bo‘ldi?
9. Prudonning qaysi asarlarini bilasiz va u bu asarlarda qanday nazariyalarni ilgari surgan?
10. Prudon o‘z ta’limotida qanday iqtisodiy muammolarga e’tibor bergen?

10-bob. MARJINALIZM TA'LIMOTI VA NEOKLASSIK IQTISODIY MAKTABLAR

10.1. IQTISODIY TA'LIMOTLARDA MARJINALIZM VA NEOKLASSIK YO'NALISHNING SHAKLLANISHI VA UMUMIY TA'RIFI

XIX asrning 70-yillari klassik iqtisodiy matabning inqiroziy davri va neoklassik matabning vujudga kelishi bilan bog'liq¹⁵⁷. Bu davrda Iqtisodiy fan taraqqiyotida katta o'zgarish yuz berdi. O'sha davrda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga yangicha subyektiv yondashuv assosini solgan (bir-biridan mustaqil holda) uch iqtisodchining asarlari birdaniga vujudga keldi. Ular ingлиз **Stenli Jevons (1835–1882)**, avstriyalik **Karl Menger (1840–1921)**, asosan Shveysariyada yashagan fransuz **Leon Valras (1834–1910)**. Ulardan ikkitasi Leon Valras va Karl Menger me'yoriy tahlilni korxona nazariyasiga nisbatan qo'lllashdi. Valras hattoki me'yoriy tahlil nazariyasini qo'llagan holda umumiy muvozanatlik nazariyasini shakllantirdi¹⁵⁸. Ularning tahlili asosida ne'matlarni ishlab chiqarish jarayoni (taklif) emas, balki talabning shakllanishi, tovar va xizmatlarning foydaliligi tadqiqoti yotadi. Subyektiv yo'naliш vakillarining tadqiqotidagi asosiy dastak – bu me'yorli (marginal) tahlil bo'lib, mazkur matabning nomi ham aynan (marjinalizm) shundan kelib chiqqan. Marjinalizm so'zi fransuz tilidan marginal – chegaraviy, qo'shimcha qiymat deb tarjima qilinadi. F.Vizer, E.Bem-Baverk, A.Marshall, K.Viksell va ko'plab boshqa atoqli iqtisodchilar marjinalizm metodologiyasidan foydalanadilar va uni rivojlantiradilar. Ular qo'llagan me'yorli tahlil hanuzgacha iqtisodiy fanda keng qo'llanib kelinmoqda.

Marjinalizm quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan boshqa ta'limalardan ajralib turadi¹⁵⁹:

- cheklangan resurslarni ratsional taqsimotini iqtisodiy fan predmetiga aylantirish;

¹⁵⁷ История экономической мысли/ Под ред.В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. –СПб.: Питер, 2008. 138 с.

¹⁵⁸ History of economic thought. Harry Landreth, David C. Colander 237-238 b.

¹⁵⁹ История экономической мысли/ Под ред.В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. –СПб.: Питер, 2008. 138 с.

- tadqiqotlarni mikromuhit darajasiga o‘tkazish, diqqatni firma va iste’molchi xatti-harakatiga qaratish;
- tadqiqotlarda subyektiv yondashuvni qo‘llash;
- matematik vositalar: chegaraviy ko‘rsatkich, differensial tahlil, optimal yechim izlash, grafik va rasmlardan foydalanish;
- qisqa muddatli davrga ega bo‘lgan statistik masalalarni yechish.

“Marjinalizm inqilobi” tarixda ikki bosqichda shakllandi. bular¹⁶⁰:

1. XIX asrning 70–80-yillar oralig‘i. Bu bosqich K.Menger va uning shogirdlari hamda U.S.Djevons, L.Valras nomlari bilan bog‘liq. Bu bosqichni *iqtisodiy nazariya subyektiv yo‘nalishi* deb atashadi, chunki bu davrda inson psixologiyasini birinchi o‘ringa qo‘yish, individual iqtisodiy tahlillarni qo‘llash amalga oshirilgan.

2. XIX asrning 90-yillari oralig‘i. Bu davr A.Marshall, Dj.Klark va V.Paretto nomlari bilan bog‘liq. Uni *neoklassik iqtisodiy nazariya* deb ham atashadi.

Metodologiya. Marjinalizm nazariyasiga iqtisodiy jarayonlarni subyektiv – psixologik metod asosida tahlil qilish xosdir. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar kishilarning psixologiyasi, subyektiv talqingga asoslanib tushuntirilib beriladi. Masalan, klassiklar bo‘yicha, tovar qiymati kishilarning ongi va xohishiga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv miqdor hisoblansa, marjinalistlar bo‘yicha, qiymat subyektiv talqin, istak, hissiyot bilan aniqlanadi. Marjinalizmning asosiy kategoriyalari: me’yorli foydalilik, me’yorli unumdarlik, me’yorli xarajatlar va boshqalar. Bu nazariya ishlab chiqarish xarajatlarini, talab, taklif, narx va boshqalarni subyektiv baho berish asosida tushuntiradi.

Bozor xo‘jaligida ishlab chiqaruvchi tovar ishlab chiqarishda turli resurslardan har birining me’yorli foydaliliga baho bergan holda eng keraklisini tanlaydi. Iste’molchi o‘zining cheklangan daromadlarini ehtiyojlarni ko‘proq qondiradigan qilib tovarlarni sotib olishga taqsimlaydi. Demak, marjinalizm nazariyasi markazida o‘z foydasini maksimallashtirishga intiluvchi firma (ishlab chiqaruvchi) va xarid qilingan ne’matlardan maksimal foydalilik olishga intiluvchi alohida iste’molchi turadi.

Me’yorli foydalilik nazariyasi va buyumning subyektiv qimmati. Asosiy e’tibor ishlab chiqarish va taklifni o‘rganishga qaratilgan

¹⁶⁰ История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. –СПб.: Питер, 2008. 139 стр

klassik iqtisodiy nazariyadan farqli o‘larоq, marjinalistlar, eng avvalo, iste’mol va talabni tahlil qildilar. Shu bois, ular iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishni kishilarning ehtiyojini o‘rganishdan, buyumning foydalilik mezonini qidirishdan boshladilar. Buyumning qimmatini aniqlashda marjinalistlar klassiklarga nisbatan butunlay boshqacha yondashdilar. Agar klassiklar tovar qiymatini (qimmatini) uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar bilan aniqlagan bo‘lsalar, marjinalistlar tovar qimmati asosida ikki omil – foydalilik va buyumlarning kamyobligi yotadi deb hisobladilar. Bu bilan A.Smitning buyumning qiymatini (qimmatini) foydalilik bilan aniqlash mumkin emas, negaki hayotda eng foydali bo‘lgan havo va suvning qiymati yo‘q, degan «Smitcha ziddiyat»ga barham berildi. «Hech bir narsa suvdan ko‘ra foydali emas, – deb yozadi A.Smit, – lekin unga u – bu narsani sotib olish amri mahol... Brilliant esa, aksincha, uni bevosita foydalanish nuqtayi nazardan nihoyatda qimmati kam, ammo unga juda katta miqdordagi boshqa tovarlarni olish mumkin». Marjinalistlarning aytishicha, haqiqatan ham, havo yoki suvning umumiyligi brilliantning umumiyligi foydaliligidan tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada ko‘p. Lekin havo va suvga qaraganda qimmatli toshlar ancha kamyob. Shuning uchun uning qimmati ancha yuqori. «Qimmat, – deb yozadi E.Byom Baverk, – narsalarning aynan cheklangan miqdorda bo‘lishini taqozo etadi, qimmatning yo‘qligi esa, ularning mo‘lko‘lligini taqozo etadi». Qimmat esa buyumning umumiyligi foydaliligi bilan emas, balki «oxirgi birlik» foydaliligi bilan aniqlanadi.

Foydalilikka asoslangan bu nazariyaning boshlang‘ich nuqtasi – ehtiyojlarning to‘yinish qonuni (Gossenning birinchi qonuni)ni bildiradi: inson ehtiyojining to‘yinish darajasi oshib borishi bilan iste’moldan bo‘lgan qoniqish pasayib boradi yoki iste’mol qilinadigan tovar miqdori ko‘payib borishi bilan uning foydaliligi kamayib boradi. Shunga muvofiq iste’mol qilinadigan mazkur buyumning oxirgi qismining iste’mol uchun bo‘lgan foydaliligi boshqa qismlariga nisbatan ancha past. Buyumning oxirgi qismining foydaliligi – bu *me’yorli* foydalilikdir. Aynan u, marjinalistlarning fikriga ko‘ra, tovar qiymati shakllanishining asosini tashkil etuvchi ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar xatti-harakatini tartibga solib turuvchi kuch hisoblanadi. E.Byom Baverkning yozishicha: «Me’yorli foydalilik g‘oyasi – bu iqtisodiy hayotning eng murakkab ko‘rinishlarini yechishga kalit va

ilmning eng chigal muammolarini hal etishga imkon beruvchi formula – «Ochil dasturxonadir».

Me'yorli foydalilik nazariyasiga binoan tovarlar narxi asosida mehnat sarflari bilan aniqlanadigan qiymat emas, balki ushbu buyumning foydaliligi yotadi. Me'yorli foydalilik nazariyasi tarafdarlari tovarda mujassamlashgan mehnat natijasi sifatidagi qiymatga foydalilik kategoriyasini, odamning narsaga bo'lgan munosabatini ifodalovchi subyektiv baholashni qarshi qo'yadi.

Qiymatning mehnat nazariyasida mehnat sarflarining bevosita o'Ichovi ish vaqtি hisoblanadi. Tovar qiymati individual ish vaqtি bilan emas, balki ijtimoiy zaruriy atalmish ish vaqtি bilan o'lchanadi. Ijtimoiy zaruriy ish vaqtি me'yorl ishlab chiqarish sharoitda, o'rtacha mahorat va mehnat intensivligida muayyan iste'mol qiymatni ishlab chiqarishga ketgan vaqt bilan ifodalanadi.

Qiymatning mehnat nazariyasiga muvofiq, faqat bozorda, ayirboshlash jarayonida ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari darajasi ro'yobga chiqadi. Faqat bozorda qiymat almashuv qiymat shaklida namoyon bo'ladi. Oddiy qilib aytganda, qiymat ishlab chiqarishda yaratiladi, bozorda esa namoyon bo'ladi. Mana shu yerda me'yorli foydalilik nazariyachilar e'tiroz bildiradilar. Uning ma'nosi nimadan iborat? Agar tovar bozorda xarid qilingan bo'lsa, bu jarayon o'sha tovarni ishlab chiqarishga kimdir sarflagan ijtimoiy zaruriy mehnat xarajatlarini baholash uchun amalga oshirilmaydi, balki bu tovar xaridor uchun muayyan foydali samaraga ega bo'lganligi uchun, xaridor bu tovarning qadr-qimmatini bilganligi uchun amalga oshiriladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida «qiymat» so'zi nemischadan aynan «qimmat» deb tarjima qilinishi ham bejiz emas edi. Qimmat – bu ko'p jihatidan subyektiv kategoriya. Shunga muvofiq, avstriya maktabi ta'limotiga ko'ra, qiymat (qimmat) hech qachon buyumga xos bo'lgan obyektiv xususiyat bo'lishi mumkin emas. Faqat xaridor ko'z o'ngida qimmatli bo'lgan narsalargina qimmatga ega. Xaridorning subyektiv bahosi yaratilgan buyumga qiymat xossasini beradi. Demak, qiymat faqat bozorda yuzaga keladi, undan tashqarida amal qilmaydi.

Odamlar tomonidan turli moddiy va ma'naviy boylik va xizmatlarning qimmatiga baho berilishi, bu ularni ishlab chiqarishga ijtimoiy zaruriy mehnat sarflangani uchun emas, balki bu

buyumlarning foydalilikka ega bo‘lgani sababidandir. Odamlar foydalilikka ehtiyoj sezganligi uchun ham u yoki bu tovarni ishlab chiqarishga mehnat sarflarini amalga oshiradilar. U yoki bu mehnat sarflarining ijtimoiy zaruriyigini kim yoki nima aniqlab beradi. Oddiy qilib bozor desak – bu to‘g‘ri, lekin u juda umumiyl tushuncha, shuning uchun yetarli emas. Me’yorli foydalilik nazariyasi tarafdorlari fikri bo‘yicha, faqat tovarning foydaliligi mehnat sarflariga ijtimoiy zaruriylik xarakterini berishi mumkin. Me’yorli foydalilik nazariyasi namoyandalari, qimmatni foydalilikdan keltirib chiqarar ekan, foydalilikni ikki turga bo‘lib ko‘rsatishni zarur deb hisoblaydilar.


Birinchisi tovarlarning (don, olmos, neft) o‘z xususiyatiga ko‘ra – umumiyl foydaliligi. Ikkinchisi iste’molchi ehtiyoj sezadigan tovarning konkret foydaliligi. Konkret foydalilik doimo bir xil bo‘lavermaydi, u har xil baholanadi. Bu yerdagi farq unga bo‘lgan yondashuvda. Agar u yoki bu buyumlarni erkin va xohlagancha olish mumkin bo‘lsa, unda ularning foydaliligi, cheklangan miqdordagi bunday buyumlarning foydaliligichalik baholanmaydi («Smitcha ziddiyat»ni yana bir bor eslang).

Buyumning umumiyl (yalpi) foydaliligi bilan konkret (me’yorli) foydaliligi o‘rtasidagi farq iste’molchilar xatti-harakatini tahlil qilish uchun zarur.

Me’yorli foydalilik muammosini tushunish uchun marjinalistlar ko‘rsatib bergen o‘rmonda yashovchi qariya darvish qo‘lidagi besh qop donni misol qilib olamiz. Qariya uchun ularning ahamiyati qanday? Birinchi qopdagagi don ochdan o‘lmaslik uchun kerak, ikkinchisi oziq-ovqat sifatini yaxshilash uchun ishlatiladi, uchinchisi – uy parrandalarini boqish uchun, to‘rtinchisi – pivo tayyorlash uchun, beshinchisi esa vaqtushlik (to‘ti qushlarga ovqat berish) uchun ishlatiladi. Barcha qoplar bir xil qimmatga ega. Ammo lekin ularni qariya uchun foydaliligi pasayib borish tartibida joylashtirsak, unda birinchi qopdagagi bug‘doy eng yuqori qimmatga ega: u qariyaning hayot kechirishi uchun zarur. Qariya uchun oxirgi, to‘tiquchlarni boqish uchun mo‘ljallangan qop eng kam qimmatga ega. Agar unga ayirboshlash taklif qilinsa (aytaylik, bir qop don boltaga) u aynan shu beshinchi qopning foydaliliga qarab ish tutadi.

Shunday qilib, iste’mol qilinadigan tovar (don)ning miqdori ko‘payib borishi bilan uning oxirgi, me’yorli foydaliligi pasayib boradi

(me'yorli foydalilikning pasayish qonuni). Mazkur tovar miqdorining ko'payib borishi bilan me'yorli foydalilikning (TU) pasayib borishini quyidagi grafik ko'rinishida aks ettirish mumkin (7-rasm).



7-rasm. Me'yoriy foydalilik

Demak, xulosa qilish mumkinki, me'yorli foydalilik miqdori mazkur tovar miqdoriga va unga bo'lgan iste'mol darajasiga bog'liq. Har bir alohida buyum (tovar)ning me'yorli foydaliligi konkret va shu bilan birga subyektivdir. Birinchi ko'zadagi suvning foydaliligi juda yuqori: agar chanqovni qondirishga boshqa biron ta ko'zada suv bo'lmasa. Beshinchi yoki oltinchi ko'zadagi suvning foydaliligi ancha kam: u gullarga suv quyish yoki pol yuvishga ishlatiladi. O'ninchи ko'zaga kelsak, u umuman ortiqcha bo'lishi mumkin. Uy javonida uning egasiga, misol uchun, yetti juft yetik yetarli; qolganlari javonda faqat joyni band qiladi va ularni kiyib ulgurmasdanoq modadan chiqib qolishi mumkin.

Foydalilikning pasayib borishi buyumning haqiqiy qimmati nima bilan (uning eng ko'p, o'rtacha yoki eng kam foydaliligi bilan) aniqlanishini tushunishda yordam beradi. Avstriya maktabi vakillari nazariyasiga ko'ra, konkret qimmat eng kam yoki me'yorli foydalilik bilan aniqlanadi.

Xaridor o'zi uchun yagona bo'lgan, bir juft etik uchun yettinchi etikka qaraganda ko'p haq to'lashga tayyor. Unga birinchi juft etikka qaraganda, yettinchisining foydasi ancha kam. Demak, foydalilikka subyektiv baho beriladi, tovar miqdori ko'payib borgan sari foydalilik pasayib boradi va bu miqdorning kamayib borishi bilan foydalilik oshib boradi. Bozorning tovarlar bilan to'yinish darajasini o'rganayotgan ishlab chiqaruvchi ham ushbu xususiyatni hisobga olgan holda ish yuritadi.

Marjinal nazariyachilarning birinchi avlodlari Jevons, Menger, Valras marjinal analizni tanishtirish orqali iqtisodiyot metodologiyasini o‘zgartirdi. Intellektual tarixda ko‘plab rivojlanishlarga o‘xshab 1870-yil boshlarining yangi iqtisodiyoti o‘tgan zamon metodi va asosiy g‘oyalarini diqqat bilan tinglab, xususan J.S. Millning klassik iqtisodiyotini sindirib, davomiylik va o‘zgarish bilan isbotladi. Bu yozuvchilar uning foydasini faqatgina qisman tasavvur qila oladigan marjinal analiz deb atalgan qoidani kashf qildi. Ularning kashfiyotining butun og‘irligi ularni o‘zini chetga olishga majbur qildi: ularning hammasi o‘z nazariyalarining mohiyati va klassik metoddan ularning chetga chiqishidan ko‘ra klassik maktablari o‘rtasidagi farq ularning butun diqqat-e’tiborini jalg qildi.

10.2. AVSTRIYA MAKTABI: K.MENGER, F.VIZER VA E.BYOM-BAVERK

Avstriya maktabi vakillariga marjinalizmning barcha xususiyatlarini kiritish mumkin, chunki ular marjinalizmning barcha tahliliy tadqiqotlarini to‘liq qo‘llashgan. Ular axborotni barcha savollarga javob beruvchi omil sifatida qaradilar. Subyektiv naflilik nazariyasiga asoslanib, “avstriyaliklar” resurslar omborini bilgan holatda daromad va ishlab chiqarish o‘rtasidagi chegarani aniqladilar. Ularning tanqidiga absolut noelastik taklif uchradi, chunki talab bo‘limgan joyda taklifni ko‘pligi inqirozga olib kelishini tushunib yetdilar. Subyektiv tahlilga muvofiq holda narx va daromadlar darajasi solishtirib chiqildi.

Avstriyalik **Karl Menger** (1840–1921) o‘zining “Siyosiy iqtisod asoslari” (1871) asari bilan birinchi marjinalistlar safidan joy oldi. U insonlarning ehtiyojlarini o‘rganish orqali mahsulotga talabini qondirish yo‘llarini, hamda ehtiyojlarni qondira oladigan mahsulotlarni tahlil qila oldi. Menger insonning individual qiziqishini emas, balki uning buyumlarga munosabatini iqtisodiy kategoriya sifatida qaradi. Qimmatlilik uning g‘oyasida subyektiv, chunki ma’lum biror shaxs tomonidan ma’lum buyumning individual bahosi bu uning naflilagini anglashidir. Bu inson ongidan tashqarisida buyumning qimmatligi yo‘q bo‘lsa ham, ammo u inson ongida qimmatga ega bo‘ladi.

Buyum foydaliligin Menger ikki ko‘rinishda



Karl Menger (1840-1921)

aks etdi: birinchisi iqtisodiy mahsulotlar – bu ehtiyojlarning yuqoriligi bilan o‘z qimmatiga ega noyob mahsulotlardir, noiqtisodiy mahsulotlar – keng tarqalgan va shu sababli ularning inson uchun qimmati past buyumlardir. Ular o‘rtasidagi chegara egiluvchan: biror bir buyumning kamayishi yoki ko‘payishi bir kategoriyan dan ikkinchi kategoriya ga o‘tishga sabab bo‘ladi. Menger shuningdek mahsulotlarni ketma – ketligini ham ajratgan: birinchi tartibdagi mahsulotlar – bu natijaviy mahsulotlar, ikkinchi tartibdagi mahsulotlar bu birinchisini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan mahsulotlardir (hozirgi til bilan aytganda aylanma vositalardir). Menger aytadiki, ishlab chiqarishni kengayishi va murakkablashishi oqibatida lag (ya’ni ishlab chiqarish vaqt) bosqichlari ko‘payadi, bu natijaviy mahsulotni ishlab chiqarish vaqt ni uzaytiradi¹⁶¹.

Menger tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi jadval orqali uni fikrini to‘liq tushuntirish mumkin.

Rim raqamlari tovarlarning muhimligiga qarab darajalarga ajratilishini bildiradi. Raqam qancha katta bo‘lsa, tovarlar muhimligi darjasini shuncha kam bo‘ladi. Shu tufayli suv 1-darajali, transport esa 5-darajali bo‘lishi mumkin. Kamayib boruvchi arab raqamlari esa tovarlarni qancha ko‘p iste’mol qilgan sari shunchalik me’yoriy nafliligining kamayishini ko‘rsatadi. Birinchi darajali tovarning birinchi birligining me’yoriy naflili 10 ga teng, ammo keyingi iste’mol qilingan birliklar uchun me’yoriy naflilik kamayib boradi.

6-jadval

Menger jadvali (me’yoriy naflilik miqdori) Tovarlar toifasi

	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
Marginal Utility	10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
Меърий нафлилик	9	8	7	6	5	4	3	2	1	0
	8	7	6	5	4	3	2	1	0	
	7	6	5	4	3	2	1	0		
	6	5	4	3	2	1	0			
	5	4	3	2	1	0				
	4	3	2	1	0					
	3	2	1	0						
	2	1	0							
	1	0								
	0									

Faraz qiling, suv 1-darajali tovar, olmos esa 8-darajali tovar. Agar iste’molchi suvning 8 birligini, olmosning esa 0 birligini iste’mol qilgan

¹⁶¹ История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой.- СПб.: Питер, 2008. С.140–141.


bo‘lsa, suvning yana bir birligini iste’mol qilish 2 birlik me’yoriy naflilik beradi, olmosning 1-birligini iste’mol qilish esa 3 birlik me’yoriy naflilik berishi mumkin. Suvning umumiyligi me’yoriy nafliliklar yig‘indisi bo‘lgani uchun olmosning umumiyligi nafliligidan ko‘proqdir, ammo olmosning 1-birligining (me’yoriy) qiymati suvning 8-birligining qiymatidan ko‘ra ko‘proqdir.

Aytish mumkinki, yuqoridagi jadval Gossenning ikkala qonunini ham aks ettira olgan. Menger bir buyumning turli ehtiyojlarni qondira olish holatini ham ko‘ra olgan. Bunday holatda, bir buyum turli individlar (insonlar) tomonidan bildirilgan ehtiyojlarni ham birlamchi, ham ikkilamchi qondiriluvchi buyum sifatida chiqishi mumkin.

Ayir boshlash holatini tahlil qilib, Menger ikkala tomon uchun foydalilik darajasi bir xillashganda muvozanatga erishiladi degan. Demak, tovar bu o‘rinda ikki tomon uchun qimmatligi tenglashadi.

Menger ishlab chiqarish omillarini oxirgi mahsulotni olishdagi nafliligini aniqladi. Uningcha, ishlab chiqarish natijasi xarajatlarga bog‘liq emas, aksincha unga sarflangan omillar nafliligiga bog‘liqdir. Ishlab chiqarishda sarflanadigan barcha omillar bir-birini to‘ldiruvchidir, birining yo‘q bo‘lishi qolgan omillarining o‘rnini ham yo‘qqa chiqaradi degan.

Fridrix fon Vizer (1851–1926) “Asosiy xo‘jalik qimmatliklari qonuniyatları va kelib chiqishi” (1884), “Tabiiy qimmatlik” (1889), “Jamoa xo‘jaligining nazariyasi” (1914) asarlari orqali birinchilardan bo‘lib “me’yoriy naflilik” iborasini ishlatdi. U, shuningdek, “tabiiy qimmatlik” tushunchani ham kiritib, tovar hajmi va jamiyat uchun naflilik munosabatlarining me’yoriy nafliligini o‘lchash lozimligini aytib o‘tadi.



Fridrix fon Vizer (1851–1926)

Menger ketidan Vizer ishlab chiqarish xarajatlarini subyektiv-psixologik yondashuv asosida tahlil qilib, ishlab chiqarish omillarini kelajakda yaratishi mumkin bo‘lgan iste’mol buyumning foydalilagini aniqlagan. U xarajalarning subyektiv nazariyasiga tayanimib, ishlab chiqarish omillarini foydalanishda inson uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy resurs jarayoni kechishini aytadi. Raqobat sharoitida ishlab chiqarish omillari shunday taqsimlanadiki, u jamiyat uchun zarur bo‘lgan

tovarni yarata oladi deb hisoblagan.

Xuddi Mengerga o‘xshab Vizer ishlab chiqarish omillarini bir-birini to‘ldiruvchi deb hisoblaydi. Ular ichida asosiysi ishchi kuchi deb bilib, qolganlari uni to‘ldiruvchilari deb hisobladi, lekin daromad taqsimlanishida har bir omilning hissasini aniqlash lozim deb hisobladi. U ishlab chiqarishda har bir omilning qimmatligini aniqlash lozim deb aytdi. Har bir omilning hissasini hisoblash, ishlab chiqarishda undan foydalanishning turli variantlarini qo‘llash lozimligini ta’kidladi.

Menger shogirdi **Oygen fon Byom-Baverk** (1851–1914) hisoblanadi. U ham marjinalizmga o‘z xissasini qo‘shtagan. Uning “Xo‘jalik buyumlarining qimmatliliği nazariyasi asoslari” (1886) va “Kapital va foiz” (1884–1889) asarlari mashhurdir. Uning nazariyalari ichida qimmatlilik tamoyili va foizning psixologik nazariyasi jamiyatda o‘z o‘rniga ega.

Byom-Baverk o‘zining qimmatlilik tamoyili orqali buyumning qimmati, foydaliligi va noyoblilagini tahlil qilib, “me’yoriy foydalilik” (ma’lum hajmdagi buyumlarning me’yoriy foydaliligi)ni aniqlagan. Bu o‘rinda qimmatlikni u hajm nuqtayi nazaridan qaragan. Zaxira qimmatini hisobga olib, olim uning turli me’yoriy naflilik holatini tahlil qila olgan. Mengerga qaraganda Byom Baverk obyektiv va subyektiv naflilikni ajrata olgan. Uningcha obyektiv naflilik – bu inson farovonligiga xizmat qiladi hamda bozorda shakllanadi (boshqacha aytganda, talab va taklif asosida shakllangan narxdir). Subyektiv naflilik esa – bu ma’lum bir shaxs uchun buyumning zarurlilik holatidir. Byom Baverk subyektiv naflilik asosida bozor munosabatlari sharoitida narxlar shakllanishi va ularni vaqt bilan bog‘liqligini ko‘rsata olgan.

Foizning psixologik nazariyasi Byom Baverkda kapital to‘g‘risida tushuncha bilan bog‘liq. U foizni kapital sarmoyasi deb bilmagan, balki kapitalni ishchi kuchi va yer omillari bilan barobar ishlab chiqarishning mustaqil omili deb tushungan. Lekin mahsulot ishlab chiqarishda kapitalni asosiy hissasi borligini tushuntirib o‘tgan. Yer va ishchi kuchi ishlab chiqarishning birlamchi omillari bo‘lsa, kapital yer va ishchi kuchi o‘rtasidagi oraliq mahsulot deb bilgan. Foizni mavjud bo‘lishi vaqt bilan



Oygen fon Byom-Baverk
(1851-1914)


bog‘liq, u insonlarning o‘z buyum va daromadlarini ko‘paytirishi mumkin bo‘lgan psixologik qarash natijasi deb bildi. Shu sababli kreditor tomonidan bugun olishi mumkin bo‘lgan manfaatdan voz kechishi, kelajakda foiz ko‘rinishida bo‘lishi lozim deb bildi. Oxirgi natijaviy mahsulot unga sarflangan kapitalga (ya’ni yer va ishchi kuchi omili egalari olishi mumkin bo‘lgan daromaddan), ya’ni kapital egasiga foiz ko‘rinishida qaytib kelishi lozim deb bildi¹⁶².

10.3. LOZAN MAK TABI VAKILLARI

Lozan maktabi vakillari iqtisodiy jarayonlarni matematik tahlillar asosida tushuntirishgan. Bu maktabning asoschisi shveysariyalik **Leon Valras** (1834–1910) hisoblanadi. U o‘zining “Sof siyosiy iqtisod elementlari, yoki jamoaviy boylik nazariyasi” (1874–1877) orqali marjinalizm g‘oyalarini olib chiqqan. Valrasni o‘rganish predmeti bo‘lib iqtisodiy ayriboshlash va xo‘jalik subyektlari o‘rtasida boylikni taqsimlash bo‘ldi. U tomonidan milliy iqtisodiyotning umumiyligi iqtisodiy matematik modeli tuzilib, “umumiyligi iqtisodiy muvozanat tizimi” rasmsi berildi¹⁶³.

Iqtisodiy subyektlar unga ko‘ra ikki guruhga ajratilgan: ishlab chiqarish omillari (yer, ishchi kuchi va kapital) egalari bo‘lgan uy xo‘jaliklari hamda mazkur omillarni sotib olib ishlab chiqarishga jalb etadigan korxonalar. Valras korxonalar va uy xo‘jaliklari o‘rtasida bog‘liqlikni tenglamalar tizimi orqali tushintirishga harakat qildi.

Valras o‘zining nazariyalarida mulk egalarini va ularni sotib oluvchi ishbilarmonlarni xatti-harakatini o‘rganishga qaratildi. Uy xo‘jaliklari ishlab chiqarish omillarini sotadi, undan tushgan tushumni tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflaydi, ishlab chiqaruvchi korxonalar esa iqtisodiy resurslarni ishlab chiqarishga jalb etib, tovarlarning takror ishlab chiqarishdagi doiraviy aylanishni vujudga keltiradi. Hamma xo‘jalik echimlari ma’lum bozorlardagi narxlarga bog‘liq deb hisoblaniladi. Mazkur narxlar ikkala tomon uchun naflilikni maksimallashtirishga




Leon Valras (1834-1910)

¹⁶² История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой.- СПб.: Питер, 2008. 142-144 стр

¹⁶³ История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой.- СПб.: Питер, 2008. 145 стр

qaratilgan. Bu jarayonda iste'molchi yoki uy xo'jaligi uchun tovarlar foydaliligi bir tomonda tursa, ikkinchi tomonda ishlab chiqaruvchi korxona uchun sotishdan tushgan daromad o'rinni ahamiyatga ega.




8-rasm. L.Valrasning “Takror ishlab chiqarish jadvali”

Umumiyligi muvozanatlilik ishlab chiqarish omillari va tayyor tovarlar narxi mos kelganda yerishiladi. Narxlar o'zgarishidagi nomuvozanatsizlikni olib tashlash uchun ma'lum turdag'i tovarlarning narxi bir xil bo'lishi talab etiladi; ishlab chiqarish omillari va iste'mol tovarlariga bo'lgan talab va taklif teng bo'lishi; mahsulot narxi unga sarflangan xarajatlarga teng bo'lishi lozim deb hisoblaydi Valras.

Valrasning modelidagi bozor muvozanati to'liq bandlik sharoitiga mos tushadi, ya'ni bu aholining barcha ishchi kuchi ish bilan ta'minlangan holatidir. Ammo bu model juda abstraktdir, u real iqtisodda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni (ishsizlik kabi) o'z ichiga olmaydi. Shu bilan birga iqtisodiyotdagi jamg'arishni, mahsulotlar zaxirasini, erkin raqobat sharoitidagi taklifni ham inobatga olmagan.

Valras g‘oyalarini italiyalik iqtisodchi **Vilfredo Pareto** (1848–1923) tomonidan rivojlantirildi. Uning asosiy asarlari “Siyosiy iqtisod yo‘nalishi” (1896–1897) va “Siyosiy iqtisod darsligi” (1900) hisoblanadi. Logik-tajriba usuli uning asosiy g‘oyasini tashkil qildi. Valrasning nazariyalaridagi “qimmatlilik” mohiyatini Pareto “afzallik” tushunchasi bilan almashtirdi. Uningcha ba’zi tovarlarning emas, balki ularning yig‘indisining afzalligini solishtirish lozim. Bu g‘oya keyinchalik Frencis Isidro Edjuor (1845–1926) tomonidan befarqlilik egri chizig‘ini ilgari surilishiga sabab bo‘ldi. Pareto fikricha, iste’molchi uchun iste’mol qilishi mumkin bo‘lgan ikki befarq buyum mavjuddir, ularning iste’moli iste’molchi uchun ehtiyojini qondirishiga olib kelsa bas. Zamonaviy iste’molchi xatti-harakati nazariyasi ham aynan Parettoning mazkur g‘oyasiga asoslanadi.

Parettoning optimallik tamoyili Prettoga (“Pareto bo‘yicha optimallik”, “Pareto – samaradorligi” g‘oyalari) mashhurlikni olib keldi. Unga ko‘ra, iqtisodning shunday optimal holat mavjudki, bunda bir tarafda turgan iqtisodiy subyektlarning farovonligi ikkinchi tarafda turgan iqtisodiy subyektlarning hisobiga yaxshilanishi mumkin. Iste’molchi uchun bu iste’molchilik buyumlaridan oladigan foydaliligining maksimal holati, korxonalar uchun esa qilingan xarajat va daromad orasidagi farqdan maksimal olishi mumkin bo‘lgan foydadir.



Vilfredo Pareto (1848–1923)

Pareto modellari abstrakt, chunki undagi vaziyatlar prognoz ko‘rinishidagi aniq ma’lumotni chiqarmaydi, ammo iqtisodiy tahlil asosida tadqiq qilinadi. Hozirgi kunda Pareto yutuqlaridan biri bo‘lgan logik tajriba usuli amaliy iqtisodiy nazariyada ishlataladi¹⁶⁴.

¹⁶⁴ История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. – СПб.: Питер, 2008. 146–147-стр


10.4. MARJINALIZMNING ANGLO-AMERIKA MAKTABI

1862-yil marjinalizmning ilk g‘oyalari bilan angliyalik **Uilyam Stenli Jevons** (1835–1882) chiqdi. Jevons “Siyosiy iqtisod nazariyasi” (1871) va “Fan tamoyillari – logika va ilmiy uslub qoidalari” (1874) nomli asarlarini yozgan. U iste’mol nazariyasini ishlab chiqish lozimligii aytgan birinchi shaxsdir. Jevons o‘z uslubida diqqat e’tiborni inviduallik va subyektivlik, insonning ehtiyojlari va xohishlariga qaratdi. Inson xulq-atvori haqidagi fikrlarni insonning huzr-halovati va lazzatlanishga intilishi bilan bog‘ladi. Insonning lazzatlanishni his qilishi bu minimum harajaat evaziga yuqori foydalilikka erishishidir, demak, u iqtisodiyotning predmeti bo‘lib chiqishi mumkin degan.

Jevons angliyalik iqtisodchilaridan birinchi bo‘lib subyektiv (foydali) qimmatlik nazariyasini yaratdi. Tovar qimmati inson undan olishi mumkin bo‘lgan lazzatidan kelib chiqadi deb hisobladi. U foydalililikning funksional bog‘liqlik orqali tadqiq etib, uni inson iste’mol qilishi mumkin bo‘lgan hajm bilan bog‘ladi. Iste’mol hajmi o‘sishi bilan uning foydalilik darajasi kamayishini ta’kidladi.

Jevons iste’molchining nafliligini maksimallashtirishda: iste’mol faqat bir shaxs tomonidan amalga oshganda yoki ikki shaxs o‘rtasida kechayotganda ularning manfaatiga mos kelishi kerak deb hisoblagan. U iste’molchilar ularning mazkur tovardan oladigan nafliliyi va narx o‘rtasida muvozanat bo‘lgan holdagina amalga oshadi degan.

Jevons mehnatni qiymat manbayi ekanligini rad etdi, ammo qiymat shakllanishida uni rolini inkor etmadni. Uningcha har qanday iqtisodiy resursning tovardagi xissasini aniqlash qiyin, lekin ishlab chiqarish omillari har qanday mahsulot yaratilishida qatnashishi shartli holat deb hisoblagan. Mehnat uchun to‘lanadigan haq renta, soliq va kapital uchun foiz to‘lagandan so‘ng qoladigan pul hajmini tashkil etadi degan¹⁶⁵.




Uilyam Stenli Jevons (1835–1882)

¹⁶⁵ История экономической мысли/ Под ред. В.В.Круглова, Е.В.Балахоновой. – СПб.: Питер, 2008. 147–148-стр

Marjinalistlar, davlatning iqtisodiyotga aralashmaslik qoidalari orqali iqtisodiy fanda yangi klassik yo‘nalishning boshlanishiga asos soldilar. Bu yangi klassik yo‘nalishdir. Yangi klassiklarning tasdiqlashicha, bozor mexanizmi xo‘jalik jarayonlarini o‘zi tartiblashga, ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasida muvozanat o‘rnatishga qodir, erkin bozorning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadigan munosabatlarga davlatning aralashuvi esa, muvozanatning buzilishiga, iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yangi klassik yo‘nalish vakillari xususiy tadbirkorlik va bozor imkoniyatlaridan to‘la foydalanish uchun kurashdilar. A.Smit an‘analarini davom ettirgan holda, yangi klassiklar universal iqtisodiy qonuniyatlarni keltirib chiqarishga harakat qildilar. Ular marjinalizm metodologiyasiga suyangan holda, iqtisodiy fanning asosiy bo‘limlarini o‘z ichiga oluvchi bir butun nazariy tizim yaratdilar. Xususan, firma daromadlarni taqsimlash, bozor muvozanati nazariyalari ancha takomillashtirildi, iste’mol tanlovi, umumiyligi (barcha bozorlar uchun) muvozanat nazariyalari yaratildi.

O‘sha davrdagi yangi klassiklarning ilmiy qarashlari uning atoqli vakillaridan biri, Kembrij mакtabining rahnamosi **Alfred Marshallning (1842–1924) «Ekonomiks tamoyillari» (1890)** kitobida

ancha tizimlashtirilgan ko‘rinishda ifodalangan. Mazkur asar birinchi katta darslik vazifasini o‘tagan. Unda talab va taklif to‘g‘risidagi konsepsiyalar birlashtirilgan va ayrim bozorlarni o‘rganish uchun matematik dastaklar keng qo‘llanilgan. A.Marshall va uning hamfikrlari xizmati tufayli yangi klassik nazariya XX asrning 30 - yillarigacha iqtisodiy fanda yetakchi o‘rinni egallab keldi.



Alfred Marshall (1842–1924)

A.Marshall marjinalizm g‘oyalarini mustaqil (Jevonsga bog‘liq bo‘lmagan holda) va o‘ziga xos uslubda rivojlantirdi. Klassik mакtab (Smit, Rikardo, Mill) va marjinalizm (Mengerdan Valrasgacha) yutuqlarini birlashtiruvchi nazariy tizim yaratdi.

Qiymat (qimmat) va narxning shakllanishi nazariyasi. Iqtisodiy fikrlar tarixida eng qiyin va murakkab muammolardan biri – qiymat muammosi hisoblanadi. A.Marshallning asari vujudga kelgunga qadar

tovar qiymati muammosiga bo‘lgan ikki xil yondashuv mavjud bo‘lgan: qiymat yo ishlab chiqarish xarajatlari bilan, yoki tovarning foydaliligi va noyobligi bilan aniqlangan. Birinchi yondashuvga muvofiq, boylikning o‘sishi yo resurslar (mehnat, kapital va yer)ning unumdorligi natijasi yoki ishlab chiqarish omillari egalarining kelgusida daromadlarni ko‘paytirish maqsadida bugungi ne’matlardan voz kechishi oqibatidir. Ikkinci yondashuvga (me’yorli foydalilik nazariyasi) ko‘ra, qiymatning asosida bozor qatnashchilari tomonidan buyumning foydaliligiga berilgan subyektiv baho yotadi. Bu borada turli yondashuv vakillari o‘rtasidagi bahslar ko‘pincha abstrakt, behuda, samarasiz bo‘lgan.

Ko‘pchilik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, A.Marshall bu bahslarga nuqta qo‘ydi va zamonaviy mikroiqtisodiy tahlil asosini yaratdi (iqtisodiy fikrlar tarixi bo‘yicha ba’zi kitoblarda esa, hatto fandagi «*marshall inqilobi*» to‘g‘risida ham gap yuritiladi). Uning xizmati shundan iboratki, u qiymatning birinchi (asosiy) sababini qidirishni tahlil qilishdan talab va taklifning shakllanish va o‘zaro ta’sir ko‘rsatish qonuniyatlarini o‘rganishni tahlil qilishga o‘tishning zarurligini asoslab berdi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, A.Marshall qiymat nazariyasini baho nazariyasi (yoki bozor muvozanati nazariyasi)ga turlantirdi.

A.Marshall marjinalistlar yutug‘iga yuqori baho bergan holda, ularning klassik maktabni va D.Rikardonning xarajatlar nazariyasini bir tomonlama tanqid qilganini ko‘rsatib o‘tdi. Marjinalistlar qiymatni ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog‘lab tushuntirishni rad etgach, tovar qiymatining (qimmat) asosini uning foydaliligi tashkil etadi deb, mazkur muammoga bir tomonlama yondashdilar (ular qimmatni faqat me’yorli foydalilik bilan tushuntirdilar). A.Marshall me’yorli foydalilik nazariyasini talab va taklif nazariyasi bilan va ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi bilan birlashtirdi. A.Marshallning tasdiqlashicha, ishlab chiqarish xarajatlari tamoyillari va me’yorli foydalilik – talab va taklif qonunnining tarkibiy qismlaridir. Ularning har qaysisini «qaychining tig‘laridan biriga qiyoslash mumkin. Agar bir tig‘ qo‘zg‘almas bo‘lib va qirqish ikkinchisining harakati tufayli amalgalashishiga bo‘lsa, biz beparvolik bilan lo‘nda qilib, ikkinchisi qirqayapti deb aytishimiz mumkin...». Marjinalistlarning xatosi talab va taklif simmetriyasiga yetarlicha baho bermaslikdan iborat, yutug‘i

esa ulargacha chetda qolib ketgan talab muammosiga e'tiborni qaratganligidir.

O'z mohiyatiga ko'ra, A.Marshall bo'yicha, real qiymat – bu talab va taklif ta'sirida shakllanadigan muvozanat baho. Bunda talab ham, taklif ham teng huquqli omil sifatida qatnashadi. A.Marshall taklifni (klassik nazariya), yoki talabni (me'yorli foydalilik nazariyasi) hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatishga bo'lgan klassiklar va marjinalistlar urinishlarning har ikkalasi noto'g'ri ekanligini ko'rsatib berdi. Shu asosida A.Marshall oldingi qiymat nazariyalaridan eng muhim qoida va konsepsiyalarni olib bir butun tamoyilga birlashtirdi. Masalan, sarfli qiymat nazariyasi bozor taklifining shakllanish qonuniyatlarini tushuntirib berish uchun foydalanildi, me'yorli foydalilik nazariyasi esa bozor talabining shakllanish qonuniyatlarini tushuntirib berish uchun ishlatildi. A.Marshall tovar qiymati (bahosi)ni aniqlashda me'yorli foydalilik va ishlab chiqarish xarajatlarini sintezlashtirdi. A.Marshall bo'yicha, tovar qiymati (bahosi) ikki omil: foydalilik va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi.

Talab va taklif muvozanati va vaqt omili. A. Marshall talab va taklif qonunini va shunga muvofiq bahoni tahlil qilishga alohida e'tiborni qaratdi. U tahlilni talabdan boshladi: «Sotilishi ko'zda tutilgan tovar miqdori qancha ko'p bo'lsa, unga qo'yiladigan baho shuncha past bo'lishi kerakki, u o'z xaridorlarini topa olsin... Baho pasayganda talab qilinadigan tovarlar miqdori ko'payadi, baho oshganda esa – kamayadi. Bunda bahoning pasayishi bilan talabning oshishi o'rtasida qat'iy o'rnatilgan nisbat bo'lmaydi».

O'z mohiyatiga ko'ra A.Marshall me'yorli foydaliliklar tengligi qonuniga asoslangan holda, foydalilik funksiyasidan talab egri chizig'ini keltirib chiqargan birinchi iqtisodchi hisoblanadi. U quyidagi ko'rinishda aks ettiriladi:

$$MU_x/P_x = MU_y/P_y = \dots MU_e$$

Bunda, $MU_x - x$ tovarning me'yorli foydaliligi, $R_x - o'sha$ tovarning bahosi, $MU_e - pulning me'yorli foydaliligi$. Bu qonunni uch xil ekvivalentli shaklda ifodalash mumkin. Iste'molchi o'z ehtiyojini qondirishni maksimallashtiradi, agar u 1) xarid qilingan barcha tovarlarning me'yorli foydaliliklarini tenglashtirsa; 2) iste'mol qilinadigan har bir juft tovarning me'yorli foydaliliklari nisbatini va


baholar nisbatini tenglashtirsa; 3) muayyan bozor narxida sotib olingen har bir tovarni pul qiymatining me'yoriy foydaliligin tenglashtirsa.

Iste'molchi muvozanatga erishdi, Rx bahosi esa pasaymoqda, deb faraz qilaylik. Unda MUx>PxMUe va muvozanatni qaytadan tiklash uchun, MUx miqdorini kamaytirish maqsadida x tovarni ko'proq sotib olish kerak bo'ladi. Haqiqatan ham, tovarning bahosi pasaysa, iste'molchi uni sotib olishni ko'paytiradi, negaki bunday tovarning bahosi pasayganda iste'molchi bir so'mga har qanday boshqa tovarga qaraganda ushbu x tovardan ko'proq foydalilik oladi. X tovarning xaridi ko'paygan sari me'yorli foydalilikning pasayishi MUx pasayishini kafolatlaydi. Demak, iste'molchi o'zining cheklangan daromadlari va joriy narx doirasida o'z ehtiyojini doimo maksimal darajada qondirishga intilgan sharoitda talab egri chizig'ining teskari nishabligi kelib chiqadi.

Bu dalil – isbotlar shu narsani ko'zda tutadiki, x tovarning narxi pasayishi natijasida individning daromadi ko'paymaydi, buning natijasida MUxning miqdori uyg'unlashish jarayoni davomida doimiyligi saqlanib qoladi. Lekin individ o'zining barcha xarajatlarining me'yorli foydaliligin yana tenglashtirishi bilanoq, uning real daromadi oshadi. Bu saqlanayotgan pul mablag'larining me'yorli foydaliligin pasaytiradi va shu bilan barcha tovarlarning, jumladan x tovarning ham xaridining ko'payishga olib keladi. Bunda daromad samarasi ijobiy hisoblanadi va biz x ga teskari nishabli talab egri chizig'iga va daromadga bog'liq bo'lgan ijobiy talabga ega bo'lamiz.

Bundan tashqari, bu yerda foydalilik funksiyalarining additivligi¹⁶⁶ taqozo etiladi: individ sotib olayotgan har bir tovarning foydaliligi boshqa tovarlarning foydaliligiga bog'liq bo'lmaydi. Haqiqatda esa ularning o'rtasida bog'liqlik amal qilishi mumkin, bunday bog'liqlik natijasida U – miqdori ko'payganda MUx ko'payadi yoki kamayadi. Bu tahlilni yana ham murakkablashtiradi.

¹⁶⁶ Addiktivlik (lat), obyektning miqdor xossasi: uni qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bir necha bo'lakka bo'lganda, shu bo'laklar yig'indisiga teng bo'ladi. Masalan, A ning hajmi uning bo'laklari hajmi yig'indisiga teng.



9-rasm. A.Marshall qaychisi

Agar yuqorida aytilganlarni grafik ko‘rinishida ifodalasak, unda koordinatlarda (baho, tovar miqdori) Marshall «kresti» kelib chiqadi: pastga yo‘naltirilgan D talab egri chizig‘i bilan yuqoriga yo‘naltirilgan S taklif egri chizig‘ining kesishishi (9-rasm). D egri chizig‘i iste’molchi uchun mazkur tovarning me’yorli foydaliligining pasayish qonunini ifodalasa, S egri chizig‘i me’yorli xarajatlarning oshib borishini ifodalaydi. Ularning kesishgan nuqtasi muvozanat bahoni bildiradi va ushbu baho xaridorlar sotib olishni, sotuvchilar esa sotishni xohlaydigan tovar miqdorini aniqlab beradi. Bu ikki miqdor faqat muvozanat baho paytida bir-biriga to‘g‘ri keladi. Agar taklif bahosi talab bahosi bilan tenglashsa, muvozanat baho vujudga keladi. Rasmdagi P1 – muvozanat baho.

Ushbu bahoda sotuvchilar bir xil Q1 miqdordagi tovarni sotishni xohlaydilar, xaridorlar esa sotib olishni.

Agar baho muvozanat bahodan yuqori bo‘lsa, sotuvchilar ko‘p miqdorda tovar sotishga tayyor, lekin xaridorlar shuncha miqdorda tovar sotib olmaydilar va natijada baho pasayadi. Agar baho muvozanat bahodan past bo‘lsa, unda xaridorlar sotib olishni xohlaydigan hajmdagi tovarni sotish sotuvchilar uchun foydasi yo‘q va natijada baho pasayadi. Bu jarayon sotish bahosi muvozanat bahoga teng bo‘lganda tugallanadi. Avval ko‘rib chiqqanimizdek, bozor qiymati me’yorli foydalilik va me’yorli xarajatlar bilan aniqlanadi.

Demak, D talab egri chizig‘i teskari nishablikka ega, negaki baho oshib borishi bilan, odatda, tovarga bo‘lgan talab kamayadi. Lekin qanday darajada kamayadi? A.Marshall bu savolga javob berish uchun baho bo‘yicha talab elastikasi tushunchasini kiritadi. Baho bo‘yicha


talab elastikasi (TE) baho muayyan darajada pasayganda, talab qanday miqdorda o'sishini yoki baho muayyan darajada oshganda talab qanday miqdorda pasayishini ifodalaydi. TE=1 bo'ladi, agar baho 1 % ga pasayganda sotish 1 % ga oshsa; TE=2,5 bo'ladi, agar bahoning 1 % ga pasayishi sotishni 2,5 % oshirsa va hokazo.

Agar talab egri chizig'inining muayyan bir uchastkasida TE=1 bo'lsa, unda ushbu uchastkada bahoning hech qanaqa o'zgarishi mazkur tovarni sotishga ta'sir ko'rsatmaydi. Agar shu uchastkada TE<1 bo'lsa, unda sotish miqdorining ancha kamayib ketishdan qo'rmasdan bahoni pasaytirish mumkin, agar TE>1 bo'lsa, unda bahoning bir oz pasayishi sotish miqdorini ancha ko'paytirishi mumkin. Boshqacha aytganda, talab noelastik bo'lganda foyda bahoning o'sishi hisobiga ko'payishi mumkin, talab elastikasi paytida esa bahoni pasaytirish hisobiga foydani oshirish mumkin.

Talabning elastikligi iste'moldagi tovarlarning bir-birlarining o'rnini osongina bosa olishiga bog'liq. Shuning uchun ommaviy iste'mol tovarlariga bo'lgan talab kam elastik bo'ladi.


Ammo bu bilan talab va taklif qonuni tahlili tugashi mumkin emas, negaki talab va taklifga vaqt tushunchasi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va shu bois uni tahlil qilish taqozo etiladi. Tekshirilayotgan davr qancha qisqa bo'lsa, talabning qiymatga bo'lgan ta'siri shuncha kuchli bo'ladi, bu davr qancha uzoq bo'lsa, ishlab chiqarish xarajatlarining qiymatga bo'lgan ta'siri shuncha kuchayib boradi.

Shu sababli A.Marshall **bir zumli, qisqa muddatli** va **uzoq muddatli** muvozanat turlarini ajratib ko'rsatib beradi. Bir zumli muvozanatda taklif o'zgarmaydi. Bunday sharoitda keskin oshgan talab qondirilishi mumkin emas (band bo'limgan quvvatlardan foydalanish yoki yangi quvvatlarni ishga tushirish uchun vaqt kerak bo'ladi). Bu vaqt ichida tanqis (defitsit) mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan tadbirkor bahoni oshirish hisobiga qo'shimcha daromad olishi mumkin. Masalan, tirik baliq bozorida baliqqa bo'lgan talab oshdi deylik. Baho ko'tarildi, lekin o'sha kuni sotuvchilar taklifni ko'paytira olmaydilar (yangisini olib kelishga ulgurmaydilar). Shuning uchun taklif egri chizig'i to'g'ri chiziq (S) ko'rinishida bo'ladi. Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, baho oshadi (P1dan P2ga, 9-rasm).



10-rasm. Bir zumli muvozanat


Qisqa muddatli muvozanat amal qilib turgan ishlab chiqarish quvvatlari hisobiga o'sgan talabni qondirish uchun taklifni ko'paytirish imkonini beradi. Agar bozorda baliqqa bo'lgan talab bir necha kun davomida ancha yuqori bo'lsa, unda baliqchilar qo'shimcha ishchi kuchi, ortiqcha to'r va boshqa anjomlar hisobiga baliq tutishni ko'paytirishga harakat qiladilar. Natijada taklif Q_1 dan Q_3 ga oshadi (10-rasm). Baho qanday bo'ladi? U pasayishga intiladi ($P_3 < P_2$) (10, 11-rasmlarga qarang).



11-rasm. Qisqa muddatli muvozanat

Uzoq muddatli muvozanatda taklif talabning oshishiga moslasha oladi, negaki uning uchun vaqt yetarli bo'ladi. Bu davr ichida ishlab chiqarish quvvatini, ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubini o'zgartirish, yangi korxonalarini ochish, yangi texnologiyalarni qo'llash

mumkin. Sotuvchilarga ustama foyda keltiruvchi yuqori talab (D2 egri chizig‘i) va shunga muvofiq yuqori narx (P4) uzoq muddat saqlanib turgan sharoitda baliqchilar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatini kuchaytirishga kirishadilar (yangi baliq tutish kemalari, omborxonalar va boshqalar quriladi). Bu tarmoqqa yuqori daromad tufayli yangi ishlab chiqaruvchilar kirib keladi. Taklif (Q3 dan Q4 ga) ko‘payadi, baho esa (P3 dan P4 ga) pasayadi (11, 12-rasmlarga qarang).



12-rasm. Uzoq muddatli davr

Bu yerda A.Marshall shunday xulosaga keladi: qisqa muddatli davrda bahoni shakllantiruvchi asosiy kuch talab (negaki taklif o‘zgaruvchan emas), uzoq muddatli davrda esa taklif hisoblanadi. Tovar qiymati qisqa muddatli davrda, haqiqatan ham, eng avvalo, xaridorlarning xatti-harakati bilan aniqlanadi (marjinalizm). Lekin uzoq muddatli davr mobaynida baho o‘rtacha ishlab chiqarish xarajatlari miqdoriga yaqinlashadi va taxminan bir xil darajada bo‘ladi (klassik maktab). Klassiklarning bu nazariyasi faqat uzoq muddatli davr mobaynida to‘g‘ri amal qilishini ularning o‘zlarini ham yaxshi anglamaganlar va bu haqda o‘z tadqiqotlarida qayd qilib o‘tmaganlar.

Jan Batis Klark¹⁶⁷ (1847–1938) marjinalizmning “Amerika maktabi” vakili bo‘lib, XIX asr oxirida iqtisodiy ta’limotlarda neoklassik yo‘nalish shakllanishiga muhim hissa qo‘shdi. AQSHda tug‘ilgan bo‘lajak olim keyinchalik Yevropa universitetlarida ta’lim oldi, Karl Knis (Germaniyada “Tarixiy maktab” asoschilaridan biri)

¹⁶⁷ А.Раззоков, Ш.Тошматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 218–220-б.

uning ustozi bo‘lgan. AQSHga qaytgach, o‘qituvchilik qildi. T.Veblen uning qo‘lida ta’lim olgan. Klark Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasining tashkilotchisi edi va 1893–1895-yillarda uning uchinchi prezidenti bo‘lgan.

“Boylik falsafasi” (1889) va “Boylik taqsimoti” (1899) nomli asosiy asarlarida (ayniqsa, 2-sida) iqtisodiyot fanining uch tabiy bo‘limlari, “Ishlab chiqarish omillarining eng yuqori unumdarligi to‘g‘risidagi qonun” masalalari yoritilgan. Klarkning yozishicha, iqtisodiyot fanida barcha daromadlarini turli shakldagi daromadlarga ajratish muhim (ish haqi, foiz, foyda), bular, o‘z mos ravishda “ish bajarilganligi uchun”, “kapitalni berib turgani uchun” va “ish haqi va foizni koordinatsiya qilgani uchun” olinadi.

“Ijtimoiy daromadlarni taqsimlash” ijtimoiy qonun orqali tartibga solinadi, bu qonun “eng mukammal erkin raqobat” sharoitida har bir ishlab chiqarish omili u hosil qilgan daromad summasi bilan ta’minalashi lozim. Albatta, bu daromad miqdoriy jihatdan inson farovonligini ta’minalashdagi manbalarning cheklanganligi bilan ham xarakterlanadi. “Har bir ishlab chiqarish omili” ijtimoiy mahsulotda bevosita o‘zi ishlab chiqarishga qo‘shtan hissasiga bog‘liq.

Klark iqtisodiyotni statika va dinamika qismlariga bo‘ladi (mexanika fani kabi). Avvalgi tadqiqotlarda statika qo‘llanilgan bo‘lsa, endilikda tabiiy-dinamik usul taklif etildi. U iqtisodiyot fanini uch qism (bo‘lim)ga bo‘ladi: 1) daromadning universal hodisalari; 2) ijtimoiy-iqtisodiy statika (daromad sarfi to‘g‘risida gap yuritiladi); 3) ijtimoiy-iqtisodiy dinamika (agar jamiyat faoliyat shakli va usulini o‘zgartiradigan bo‘lsa, bu sharoitda daromad va jamiyatning farovonligi haqida fikr yuritiladi).

Klark fikricha, statik holatda ijtimoiy ishlab chiqarishga operatsiyalarning o‘zgarmas xarakteri xosdir, bunda doimiy texnologik jarayonlar kechib, birga yaxshi ma’lum daromadlar yaratilaveradi, daromad hajmi bunda o‘smanydi va kamaymaydi ham. Yer ham bir xil mehnat qurollari yordamida ishlanadi, bir hil xosil olinadi, boshqacha aytganda, ishlab chiqarish o‘z shaklini o‘zgartirmaydi. Demak, bu holatda harakat yopiq tizimda boradi, iqtisodiyot barqaror va muvozanatli bo‘ladi. Klarkning yozishicha, “iqtisodiy dinamikada” aholining normal daromadidan ko‘proq bo‘ladi va ish haqining tabiiy darjasini ancha baland bo‘ladi. U iqtisodiyotni dinamik shart-

sharoitlarni barqarorlashtirishga qaratilgan holatlarni keltiriladi, bu: 1) aholining o'sishi; 2) kapitalning o'sishi; 3) ishlab chiqarish metodlarining yaxshilanishi; 4) sanoat korxonalari shaklining o'zgarishi; 5) nisbatan past unumli korxonalar o'rniga nisbatan yuqori unumli korxonalarning yashovchanligi va boshqalar. Xatto har bir omil o'zicha jamiyatni dinamik holatda saqlashi va ijtimoiy tarkibga ta'sir etish qudratiga ega bo'lar ekan.

Klarkning yuqoridagi metodologik g'oyalari keynchalik N.Kondratev (Rossiya), Y.Shumpeter va boshqa olimlar tomonidan to'ldirilgan.

Klark tadqiqotida "eng yuqori unumdorlik qonuni" muhimdir. Bu qonun erkin raqobat sharoitida, iqtisodiy muvozanatli holatda amal qiladi. Ishlab chiqarish omillari eng yuqori samaradorlikka ega bo'lgan sharoitda unumdorlikning pasayib borishi masalasi marjinal tamoyilga asoslangan deydi. Kapital bilan ta'minlanganlik o'zgarmas deb olingan taqdirda, mehnatning unumdorligi har bir yangi ishga jalb etilgan xodim bilan pasayib boradi va aksincha. Xodimlar soni o'zgarmas bo'lgan holatda mehnatning eng yuqori unumdorligi faqat kapital bilan ta'minlanganlikda o'sishi mumkin bo'ladi.

Qimmatni taqsimlanishidagi hissalar oxirgi unumdorlikka bog'liq bo'ladi, ya'ni foiz kapitalning so'nggi o'sishidan hosil bo'lgan mahsulot bilan aniqlanadi, ish haqi esa mehnatning oxirgi ish haqining oshishidan hosil bo'lgan daromad bilan belgilanadi.

Tayanch so'z va iboralar: marjinalizm, me'yorlilik, foydalilik, unumdorlik, narx, tahlil, buyumning subyektiv va obyektiv qiymati, naflilik, me'yorli foydalilik, buyum.

10-bob YUZASIDAN XULOSALAR

XIX asrning 70-yillarida G'arb siyosiy iqtisodda marjinalizm oqimi vujudga keldi. Uning vakillari subyektiv-psixologik tahlilni iqtisodning yetakchi konsepsiysi sifatida ta'rifladilar. Marjinalizm vakillari sifatida Avstriya maktabi Karl Menger, Fridrix Fon Vizer, Byom-Baverk, Shveysariya (Lozan) maktabi Leon Valras, Vilfredo Pareto, Angliya-Amerika maktabi Uilyam Stenli Jevons, Alfred Marshall va Djon Beyts Klark g'oyalari bilan qatnashdi. Mazkur bobda

biz marjinalizm iqtisodchilarni va ularning g‘oyalarini yoritishga harakat qilamiz.

XIX asrning 70-yillaridan boshlab iqtisodiy ta’limotlarda prinsipial yangi yo‘nalish *marjinalizm* g‘oyalari ustundir, avvalgi klassik maktab vakillarining fikrlari keskin tanqilga uchradi, chunki amaliy iqtisodiyotda o‘zgarishlar ro‘y berdi. XX asrning boshlarida esa neoklassik (ya’ni yangi klassik) g‘oyalari shakllana boshladi, bu marjinalizm g‘oyalari rivojining 2-bosqichi deb qaralishi mumkin. «*Siyosiy iqtisod*»dan ancha farq qiluvchi «*Ekonomiks*» tushunchasi kiritiladi va iqtisodiyotga yondashuv keskin o‘zgarli.

Neoklassik yo‘nalishning asosiy mafkurachisi A.Marshall hisoblanadi, u «*Ekonomiks*» iborasini birinchi bo‘lib muomalaga kiritli. Iqtisodiyot fanining asosiy vazifasini «insoniyatning me’yoriy xayot faoliyati to‘grisidagi ta’limot», deb baholaydi. Klassik matabning print=sipial (asosiy) g‘oyalari himoya qilinadi (erkin baho, raqobat, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi va boshqa) ammo unga marjinalistik qoidalar qo‘llaniladi. Qimmat va baho shakllanishi nihoyatda original ravishda ko‘rsatib berilgan, «qaychi tig‘i» effekti muqimdir. Talab va taklif chiziqlarining kesishgan joyida baho aniqlanishi, «Marshall hochi» nihoyatda katta ahamiyatga ega va hozir bu koida doimo qo‘llaniladi.

«Iste’mol ortiqchaligi», mo‘tadil baho, talabning elastikligi, «reprzentativ firma» to‘g‘risidagi g‘oyalari fundamental ahamiyatga ega.

Amerikalik J.B.Klarkning qarashlarida fanning asosiy predmeti «jamiatning barcha daromadlarini turli shakldagi daromadlarga ajratishdan iborat» deb qaraladi.

Fanni statika va dinamikaga ajratadi, «eng yuqori (chegaraviy) mehnat unumdarligi qonuni»ni kiritadi.

Italiyalik V.Pareto iqtisodietda umumiyluvozanat muammolar tadqiqotiga e’tibor beradi. Matematik apparatdan unumli foydalanib, «befarqlik egri chizig‘i»ni yaratdi.

NAZORAT SAVOLLAR

1. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga kelgan iqtisodiy ta’limotlarga xos xususiyatlar nimadan iborat?

2. XIX asrning 70-yillarida shakllangan qaysi nazariy maktablarni bilasiz?
3. Bu davrda yangicha ilmiy tahlilni maydonga tashlagan olimlar kimlar?
4. Avstriya maktabining asoschilari kimlar?
5. Marjinalizmning iqtisodiyot fanida tutgan o'rni haqida aytib bering.
6. K.Menger, E.Byom-Baverk va V.Fizerning asosiy asarlari qaysilar?
7. U.Jevonsning iqtisodiy bobdagi asosiy asarlarini aytib bering.
8. L.Valrasning iqtisodiy g'oyasiga qanday tushunchalar asos qilib olingan? Miqdor iste'molining kamayuvchi funksiyasini izohlab bering.
9. Bozorning iqtisodiy muvozanati nimani anglatadi?
10. L.Valras qonunini izohlab bering.

11-bob. INSTITUTSIONALIZM YO‘NALISHINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

11.1. INSTITUTSIONALIZMNING KELIB CHIQISHI VA UNDAGI YANGI RAHNAMOLAR

XIX asrning oxiri XX asrning boshida yuzaga kelgan konkret-tarixiy sharoit ta’sirida AQSH ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyoda eng rivojlangan mamlakatga aylandi. Aynan Amerikada birinchi bo‘lib erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotning monopolistik iqtisodiyotga o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar ancha keskin shaklda namoyon bo‘la boshladi. Bu AQSHda ilk bor antimonopol chora-tadbirlarning ishlab chiqilishiga, ularning XIX asrning oxirida mamlakatda qo‘llanilishiga asosiy sabablardan biri bo‘ldi. Keyinchalik dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar bunday chora-tadbirlardan keng foydalana boshladi.

XX asrning boshida AQSH iqtisodchi-olimlari iqtisodiyotda kuchayib borayotgan monopolistik tendensiyalarini tahlil qilgach va o‘z mamlakatining «antitrest» siyosatiga ta’sir ko‘rsatgach, iqtisodiyot ustidan ijtimoiy nazorat qilish konsepsiyasiga asos soldi. Ularning nazariyasi hozirgi kunda iqtisodiy fonda ijtimoiy institutsional yoki oddiy qilib aytganda institutsionalizm deb ataluvchi yangi yo‘nalishni boshlab berdi.

«Institutsionalizm» atamasi assosida «institut» tushunchasi yotadi. Institut institutsionalistlar tomonidan jamiyatning rivojlanishida asosiy kuch sifatida ko‘riladi. Institutsionalizm tarafdorlari «institut»larga har xil kategoriya va tushunchalarni, masalan, davlat, oila, tadbirkorlik, monopoliyalar, xususiy mulkchilik, kasaba uyushmalari, huquqiy qoidalar, din, axloq va shu kabilarni kiritadilar.

Institutsionalizm – bu ma’lum ma’noda *iqtisodiy nazariyadagi yangi klassik yo‘nalishga muqobil nazariyadir*. Agar yangi klassiklar A.Smitning bozor xo‘jaligi mexanizmining takomillashganligi va iqtisodiyotning o‘zini-o‘zi tartiblashi to‘g‘risidagi tezisiga va «sof iqtisodiy fan»ga amal qilsalar, *institutsionalistlar esa moddiy omillar bilan birga iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi deb ruhiy, ma’naviy, huquqiy va boshqa omillarni ham hisoblaydilar*. Boshqacha aytganda, institutsionalizm o‘zi tahlil qiladigan predmet sifatida

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ham iqtisodiy, ham noiqtisodiy muammolarni ilgari surdi. Bunda tadqiqot obyekti institutlar – birlamchi yoki ikkilamchi turlarga ajratilmaydi va bir-birlariga qarshi qo‘yilmaydi.

Institutsionalizmga xos bo‘lgan uslubiy xususiyatlar quyida-gilardir¹⁶⁸:

1) neoklassikaga xos absraksiyaning yuqori darajasi, ayniqsa, baho nazariyasining ortodoksal statik xarakteridan qoniqmaslik;

2) iqtisodiyot nazariyani boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyaga intilish yoki fanlararo yondashuv ustunligiga ishonch;

3) klassik va neoklassik nazariyalarda empirizm (tajribaga suyanish) etishmasligidan norozilik, chuqur miqdoriy tadqiqotlar o‘tkazishga chorlash.

Institutsionalizm evolyutsiyasi (rivoji)ni uch davrga bo‘lish mumkin:

1. XX asrning 20–30-yillarida instituzionazmning keng tarqalishi. Bu davrning bosh mafkurachisi T.Veblendir (1857–1920), uni J.R.Kommons (1862–1945), U.Mitchell (1874–1948), J.Gobson (1858–1940), U.Gamiltonlar faol himoya qildilar.

2. Urushdan keyingi kechki institutsionalizm. Bu davr mafkurachilari iqtisodiyotdagi qarama-qarshiliklarni izohlab berish bilan birga F.Ruzvelt tomonidan ilgari surilgan “yangi kurs” islohotlarini amalga oshirish bo‘yicha tavsiyanomalarini ham ilgari surdilar. Ular demografiya va antropologiyani o‘rgandilar, ishchilar harakatining asosi bo‘lgan kasaba uyushmalari nazariyalarini ishlab chiqdilar. 50-yillarda J.M.Klark “Iqtisodiy institutlar va insonlar farovonligi”, A.Verli “Mulksiz hokimiyat” va “XX asr kapitalistik inqirozi” kitoblarini chop etdilar. J.Minz o‘zining maqolalarida aksionerlar sonining ortishi, kapital mulkini kapital funksiyasidan ajratish lozimligini qayd etdi.

3. 60-70 yillarda ijtimoiy-institutsional yo‘nalish, ya’ni neoinstitutsionalizm paydo bo‘ldi. 60-yillardagi institutsionalizm asoslari Amerikalik nazariyotchi A.Lou va Shvesiyalik iqtisodchi J.Myurdal tomonidan ishlab chiqildi. Hozirgi davrdagi ijtimoiy-

¹⁶⁸ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 225–226-б.


institutsional yo‘nalish ta’limoti J.K.Gelbreyt va R.Xeylbronerlar tomonidan davom ettirilgan.

Amerikalik neoinstitutsionalizm nazariyotchilarini iqtisodiy jarayonlarni industriya rivoji va texnokratiya rolining o‘sishi bilan bog‘lamoqdalar, shuningdek, bu jarayonlarning borishini tushuntirishda jamiyat ijtimoiy institutsional yo‘nalish ichida turli oqim va maktablarni vujudga keltirdi. Institutsionalizmdagi ana shunday uchta asosiy: ijtimoiy-psixologik; ijtimoiy-huquqiy; empirik yoki knyuktur-statistik oqimni ajratish mumkin.

T.Veblen g‘oyalari

T.Veblen – institutsionalizm asoschisi. Instituttsionalizmning vatani AQSH, uning asoschisi **Torsten Veblen** (1857–1929) hisoblanadi.

Zamonaviy institutsionalizm yo‘nalishining dastlabki ko‘rinishlari T.Veblenning **«Bekorchi sinf» nazariyasi** asarida izohlab berilgan.



Torsteyn Veblen (1857–1929)

Mazkur kitob muallifining fikriga ko‘ra, iqtisodiy nazariya bilan iqtisodiy reallik o‘rtasida juda katta uzilish mavjud. Birinchisi, garmoniyaga (muvozanatga) asoslanadi, ikkinchisida uzlusiz evolyutsiya sodir bo‘ladi, yashash uchun keskin kurash ketadi. Buyumning foydaliligi

va unga erishishning qiyin va mushkulligini doimo taqqoslab boruvchi «iqtisodiy odam» modeli shak-shubhasiz eskirdi. Haqiqatda esa insonning xatti-harakati juda ko‘p omillarga ko‘pincha ichki qarama-qarshiliklarga bog‘liq. Taqlid qilishga va raqiblikka bo‘lgan tug‘ma moyillik bilan birga, uning xatti-harakatiga an‘ana, axloq, urf-odat, shuningdek, obro‘ga bo‘lgan intilish juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun iqtisodiy tahlil qilishda har xil «institutlarni» (ular yuqorida ko‘rib chiqildi) hisobga olish zarur.

T.Veblenning fikriga ko‘ra, alohida subyektlarning xatti-harakatini emas, balki kasaba uyushmalarining, siyosiy partiyalarning ish harakatini o‘rganish kerak. Iqtisodiy nazariya bilan iqtisodiy subyektlarning asosiy unsurlari (yer egalari, ishchilar, kapitalistlar va

injener-texnik ishchilar) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotda ularning roli har xildir.

Bozor xo‘jaligi amal qilishining dastlabki bosqichida hokimiyat va mulk tadbirkorlar qo‘lida bo‘ladi. Oldin yagona bo‘lgan bu sinf keyinchalik kapital egalariga va ishlab chiqarishni tashkil etuvchilarga ajraladi. Kapital egalarini faqat o‘z kapitallariga keladigan foyda qiziqtiradi, ular o‘z kapitallarini ishlab chiqarishga qo‘ymaydilar, balki faqatgina kreditga beradilar. Ularning daromad manbayi bo‘lib real sektor emas, balki moliya sohasida aylanib turuvchi qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi. Bu ma’noda kapital egalari *bekorchi sinfni* tashkil etadi. Ishchilar, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etuvchilar va texnik mutaxassislar *unumli sinf* hisoblanadilar, ular o‘z kapitallariga ega emas va bekorchi sinf kreditga qo‘ygan vositalardan foydalanib ish yuritadilar.

Bekorchi sinfning hukmronlik mavqeい butun bir iqtisodiyotning amal qilishida kredit rolining haddan tashqari oshib ketishiga olib keladi. Kapitalning anchagina qismi chayqovchilik maqsadlarga foydalaniladi va ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirilmaydi. Kredit inflyatsiyasi vujudga keladi, uning orqasidan ssudani zudlik bilan qoplash talabi zarurligi kelib chiqadi. Natijada ommaviy bankrotlik va turg‘unlik yuzaga chiqadi, ular o‘zining davom etishi muddati bo‘yicha iqtisodiy yuksalish davridan ancha ortib ketadi.

Bekorchi sinf bilan unumli sinf o‘rtasidagi antagonizmning yechilishi shunga olib keladiki, hokimiyat texnokratlar qo‘liga o‘tadi. Kapitalga bo‘lgan mulkchilik aksionerlik shaklini oladi va shu bilan xususiy mulk bo‘lishdan to‘xtaydi.

Vasley Klar Mitchel (1874–1948) 1896-yilda Yunon va lotin adabiyotini o‘rganish uchun Chikago Universitetiga o‘qishga kirdi. Jon Devey va Torsten Veblenning darslarini olgandan so‘ng, falsafa va iqtisodiyotga ko‘proq qiziqqa boshladi va nihoyat iqtisodiyotni davom ettirishga qaror qildi. Mitchel Veblenning g‘oyalarini to‘lig‘icha qabul qilmagan bo‘lsada, uning iqtisodiyoti ortodoksal emas, balki odatda,



Vasley Klar Mitchel (1874–1948)

institutsionalitlar maktabi bilan bir xil deb qaraladi. U Veblenning ba’zi ortodoksal iqtisodiy nazariya tanqidlarini qabul qildi va ularni to‘ldirdi, lekin u sanoat iqtisodiyotini tushuntirib beruvchi to‘liq nazariy tizim yaratishga harakat qilmadi. Mitchel tadqiqodchi va olim sifatidagi misollari va uning makroiqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilish va to‘plash uchun tashkil etgan Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi uning asl nazariya uchun qo‘shtan hissasiga nisbatan ancha muhim edi.


Mitchell fikriga ko‘ra, kishilar faoliyatida asosiy harakatlantiruvchi kuch – pul hisoblanadi. Aynan moliyaviy institutlar inson xatti-harakatining xarakterini aniqlab beradi. U *iqtisodiy* (moliya, kredit, pul muomalasi) va *noiqtisodiy* (psixologik, ijtimoiy, axloq, xulq, fe’l-atvor) *omillarining o‘zaro bog‘liqligini va o‘zaro ta’sirini ko‘rsatib berdi*. Madaniy va ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olgan holda davlatning pul, kredit va moliya sohalariga aralashuvini zarur deb hisobladi.

Mitchellga katta shuhrat keltirgan uning iqtisodiy sikl nazariyasi hisoblanadi. Uning bir qator asarlari, jumladan “**Iqtisodiy sikllar**”, “**Iqtisodiy sikl: muammo va uning yo‘lga qo‘yilishi**”, “**Iqtisodiy sikllarni o‘lchash**” ushbu muammoga bag‘ishlangan. U o‘z asarlarida axborotlarni ishlashda statistik tahlil vositalaridan va matematik uslublardan keng qo‘llandi. Mazkur uslub bozor konyunkturasi dinamikasini empirik (tajribaga asoslangan) tadqiqot qilishga, kapitalistik xo‘jalikning bir qator siklli tebranish qonuniyatlarini ochib berishga imkon berdi. Uningcha, har bir sikl o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, ularning asosida juda ko‘p sabablar yotadi, ular betakror hisoblanadi. Shuning uchun bitta universal sikllar nazariyasi bo‘lishi mumkin emas.

U.Mitchell o‘z tadqiqotlariga asoslangan holda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yordamida inqirozsiz sikl konsepsiyasini asoslab berishga harakat qildi. Maxsus davlat rejalashtiruvchi organlarini tuzish, uning fikriga ko‘ra, siklli tebranishni yumshatish va qulay iqtisodiy konyunkturaga erishish vositasi bo‘lishi kerak. Bunda rejalashtirish majburiy emas, balki tavsiyali xarakterda bo‘lib, u real, erishish mumkin bo‘lgan pirovard maqsadlar ko‘zda tutilgan ilmiy prognozlashtirishga asoslanadi.

Jon Rodjer Kommons o‘zining «Institutsional iqtisodiyot» kitobida xo‘jalik jarayonlarga ta’sir etuvchi har xil noiqtisodiy (avvalo huquqiy) omillarni tadqiq qildi. U Amerika ishchilar harakatini, kasaba uyushmalarining va tadbirkorlar ittifoqining tashkil topish tarixini o‘rgandi, mehnat huquqini tahlil qildi. J.Kommons fikriga ko‘ra, jamiyatning huquqiy tizimi xo‘jalik hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uningcha, bitishuv (ya’ni huquqiy akt) iqtisodiy tizimning bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. Bitishuv o‘z tabiatiga ko‘ra uning ishtirokchilari manfaatlari ixtiloflilagini, ushbu ixtilofli manfaatlarning o‘zaro bog‘liqlilagini bildiradi. Bitishuv ishtirokchilari sifatida ko‘proq individlar emas, balki kasaba uyushmalari va tadbirkorlar ittifoqlari qatnashadilar. Jamiyat vujudga keladigan qarama-qarshiliklarni yechib beradigan huquqiy mexanizmni ishlab chiqishi lozim. Masalan, yollanma ishchilar bilan tadbirkorlar o‘rtasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklar kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning maqsadga muvofiq o‘zaro ta’siri, samarali mehnat huquqi va maxsus hukumat hay’ati faoliyati tufayli yechilishi mumkin.

J.Kommons o‘zining ijtimoiy hayotga bo‘lgan qarashlarini tajribada amalga oshirish maqsadida Amerika mehnat federatsiyasi bilan faol hamkorlikda ish yuritdi. 1935-yili uning ta’siri asosida AQSHda pensiya ta’minotiga asos solgan «Sotsial himoya to‘g‘risida akt» qabul qilindi.




Jon Kommons (1862-1945)

11.2. URUSHDAN KEYINGI INSTITUTSIONALIZM (XX ASRNING 40–70-YILLARI)

Institutsionalistlar asta-sekin boshqa iqtisodiy maktablar talqin qila boshlagan iqtisodiy muammolarni tahlil qila boshladilar. Lekin bunda ular o‘z tahlilini har xil siyosiy, ijtimoiy, madaniy institutlarni hisobga olgan holda olib bordilar. Asosiy e’tibor ijtimoiy samaradorlik va ijtimoiy xarajatlar tushunchalariga berila boshladi.

a) “Yangi industrial jamiyat” kontse‘tsiyasi



Jon Kennet Gelbreyt (1908–2006)

Ikkinci jahon urushidan keyin sof institutsionalizm biroz susaydi, ammo **Jon Kennet Gelbreyt (1908–2006)** asarlarida bir muncha o‘zgargan shaklda qayta tiklandi. Uning «**Yangi industrial jamiyat**» nomli asosiy asari iqtisodiyotda «texnostruktura»ning tahlili va roliga bag‘ishlangan.

J.K. Gelbreyt fikri bo‘yicha, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti xatti-harakati murakkab texnikalarni ishlab chiqaruvchi

yirik korporatsiyalar bilan aniqlanadi. Zamonaviy korporatsiyalarda real iqtisodiy hokimiyat kapital egalariga emas va hatto menejerlarga ham emas, balki texnologik bilim egalari – texnostrukturaga tegishli bo‘ladi. Texnostruktura vakillari ishlab chiqarish to‘g‘risida o‘ziga xos professional bilimga va qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotlarga ega. Albatta, rasmiy jihatdan muhim qarorlar, qoidaga ko‘ra, kompaniyaning yetakchi menejerlari – direktor va uning o‘rindbosarlarining alohida huquqi hisoblanadi. Lekin barcha qarorlarni qabul qilish deyarli 100 foiz axborotlarga bog‘liq. Axborotlar esa texnostruktura «nazorati» ostida bo‘ladi.

Texnostrukturaning hukmronlik qilish sababini J.K. Gelbreyt tarixiy o‘xshashlik nuqtayi nazaridan asoslab berishga harakat qiladi. Industrial jamiyatgacha bo‘lgan davrda asosiy ishlab chiqarish omili yer hisoblangan, negaki u ancha noyob resurs sifatida bo‘lgan. Shuning uchun real hokimiyat yer egalariga qarashli bo‘lgan. Buyuk geografik kashfiyotlar va sanoat to‘ntarilishi natijasida yer resurslari o‘zining noyoblik xususiyatini yo‘qotadi va ishlab chiqarishning hal qiluvchi omili kapital kelib chiqadi. Hokimiyat kapital egalari qo‘liga o‘tadi. Zamonaviy jamiyatda eng noyob resurs – axborot, fan-texnika bilimi. Shuning uchun real hokimiyat texnostruktura qo‘lida.

T.Veblen o‘z nazariyasida, texnokratiya jamiyatda oldingi qatorlarda bo‘lishi kerak deb aytgan bo‘lsa, J.K. Gelbreyt esa, u amalga oshirildi deb tasdiqlaydi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining barcha eng muhim hodisalarini J.K. Gelbreyt zamonaviy texnika taraqqiyotining

to‘g‘ridan to‘g‘ri va bevosita natijasi deb tushuntiradi. Texnika va texnologiya, uning fikriga ko‘ra, hozirgi zamon kapitalizmi uchun xarakterli bo‘lgan yangi iqtisodiy belgilarni vujudga keltiradi. Ulardan eng muhimi rejashtirishdir. Korporatsiyalarni boshqaruvchi texnostruktura ularning ish faoliyatini bir necha yil oldinga rejashtiradi. Rejashtirish va bitimlar tizimi (xomashyo, asbob uskunalar, ilmiy va konstruktorlik ishlamalarni yetkazib berish bo‘yicha) barqarorlikni keltirib chiqaradi, raqobatni esa bartaraf etadi. Chunki reja raqobat bilan unchalik «chiqisha olmaydi». Shuning uchun hozirgi zamon iqtisodiyotida muttasil va har tomonlama korporatsiyalararo shartnomalar tuziladiki, ular bozorning boshqarilib turilishini, barqaror bo‘lishini ta’minlaydi. Stixiyali bozor va erkin raqobat faqat darsliklarda qolib ketadi, zamonaviy rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti esa, uzoq muddatli rejashtirish asosida texnostruktura bilan boshqarilib turiladi.


J.K. Gelbreyt o‘zining keyingi asarlarida texnostrukturaga nisbatan tanqidiy fikrlarni bildirgan. U texnostrukturani «bozor tizimini» ekspluatatsiya qilishda (mayda va o‘rta biznesni), davlat amaldorlari bilan qo‘silib ketishda, qurollanish ketidan quvishda, tabiiy resurslardan foydalanishdagi isrofgarchilikda, bozorga ta’sir ko‘rsatishning monopolistik uslublarini qo‘llashda aybladi. Yirik korporatsiyalar davlat mashinasi bilan uzviy bog‘langan va undan naf ko‘radi: qulay buyurtmalarni va soliq imtiyozlarini oladi, raqobat kurashida siyosiy mexanizmlardan foydalanadi. J.K. Gelbreyt davlat va jamiyat tomonidan texnostruktura faoliyati tartibga solinib turilishini qayd qilib o‘tadi.

U, shuningdek, mayda va o‘rta tadbirkorlikni va ijtimoiy texnostrukturani (uy-joy qurilishini, ijtimoiy transportni, tibbiy xizmatni, qishloq xo‘jaligini, san’atni) davlatning qo‘llab-quvvatlashini talab qilib chiqdi. «Bozor tizimida» bahoni va ish haqini bevosita tartiblash, uning fikricha, tadbirkorlarda va ishchilarda kelgusidagi baho va daromadlarga bo‘lgan ishonchini uyg‘otadi. Bu ishlab chiqarish va xususiy investitsiyalarning barqarorlashuviga olib keladi. Davlatning aralashuvi, eng avvalo, «bozor tizimi» zarar ko‘radigan infliyatsiyani to‘xtatish uchun ham zarur. Hukumat korporatsiyalar bilan nufuzli kasaba uyushmalarining o‘zaro ta’sir

ko'rsatish jarayoniga aralashuvi va yirik biznesdagi baho va mehnat haqi darajasini bevosita nazorat qilib turishi kerak.

b) Konvergensiya konsepsiysi

Nobel mukofoti sohibi, gollandiyalik olim **Yan Tinbergen** XX asrning 60-yillari ilgari surgan konvergensiya konsepsiysi ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ushbu konsepsiya ko'ra kapitalizm bilan sotsializm rivojiana borgan sari har ikkalasida o'xhash belgilar yuzaga keladi (kapitalizmda rejali ish roli oshib boradi, sotsializmda bozor munosabatlari rivojlanadi), tafovutlar astasekin yo'qolib boradi. Ishlab chiqarish sharoitlari, madaniyat va fan-texnikaning rivojlanishi umumiylara taraqqiyot natijasida har ikkalasida tobora bir xillashib boradi. Kapitalizm ham, sotsializm ham ayni bir xil muammolarni hal qilishga, ularni hal etishning bir xil uslublarini qo'llashga intiladi.



Yan Tinbergen (1903-1994)

Yan Tinbergen hozirgi paytda hech qayerda «sof kapitalizm» yo'q deb hisoblaydi. Bu borada fikr yuritgan J.K. Gelbreyt texnika taraqqiyotini kapitalizm va sotsializmning yaqinlashuvi negizi sifatida ilgari suradi. U konvergensiya moyilligini yirik ishlab chiqarishning o'sishida, jami talabning davlat tomonidan tartibga

solinib turishi va hokazolarda ko'radi. «Biz, – deb xulosa qiladi Gelbreyt, – go'yo turlicha bo'lgan ikkita industrial tizimning konvergensiysi hamma eng muhim sohalarda sodir bo'layotganligini ko'rib turibmiz».

Iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib turishni birinchi o'ringa qo'ygan A.Bergson «har ikkala tizim unchalik xilma-xil emas va keyinchalik ular o'rtasidagi tafovut yanada ko'proq kamayib borishi mumkin», – deb yozadi.

Amerika sotsiologi P.Sorokin barcha asosiy yo'nalishlar bo'yicha – tabiatshunoslik va texnika, ijtimoiy fanlar, maorif, san'at, din, nikoh va oila, iqtisodiy tizim, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy tizim sohalarida kapitalizm bilan sotsializmning yaqinlashuvini targ'ib qiladi. Uning

fikricha, kapitalizm va sotsializmning o‘zaro konvergensiysi oqibatida ulardan farq qiladigan qandaydir oraliq jamiyat yuzaga keladi.

d) «Xalq kapitalizmi»

Ikkinchi Jahon urushidan keyin institutsionistlar o‘zlari oldin taklif qilgan «boshqaruvchilar inqilobi» va «jamoa kapitalizmi» konsepsiyanini davom ettirdilar. Mazkur konsepsiya binoan hozirgi zamon g‘arb mamlakatlarida hokimiyat ayrim shaxslar qo‘lida emas, balki jamoalar, eng avvalo, texnokratlar va menejerlar qo‘lida bo‘ladi. Bu mulkning juda ko‘p mayda aksionerlar o‘rtasida bo‘linib ketishi bilan va ishlab chiqarish jarayonining qiyinlashi bilan bog‘liq. Institutsiyalar tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy fandagi boshqa yo‘nalish – iqtisodiy rivojlanish nazariyasidir. Bunda asosiy e’tibor iqtisodiy o‘sishning texnikaviy-xo‘jalik omillariga (texnikaning rivojlanishi darajasi, ijtimoiy mahsulotdagi investitsiyalar ulushi va b.) qaratilgan.

XX asrning 40-yillari «xalq kapitalizmi» konsepsiyasini shakllandı, unda XIX asr oxiridan boshlab kapitalistik tizimda yuz bergen o‘zgarishlar qayd etiladi. Yirik korporatsiyalar va davlat tomonidan bozorning tartibga solinib turilishi bozordagi beqarorlikni va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozini bartaraf etishga imkon beradi. Aksiyalarning keng tarzda tarqalishi yollanma ishchilarni kapital egalariga aylantiradi, bu hol asta-sekin kapitalistlar bilan yollanma ishchilar o‘rtasidagi qarama-qarshilikka barham beradi. Davlatning faol qayta taqsimlash siyosati, keng aholi qatlaming mulkchilikda va kichik biznesda qatnashishi, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari tufayli umumiylar farovonlik darajasining oshishi – bular hammasi ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotadi, sinfiy ixtilof asosini bartaraf etadi.

Mazkur o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy-psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va iqtisodiy rivojlanishga imkoniyat yaratib berdi. Bu xususda R.Xeylbruner tasdiqlaganidek: «kapitalizm yangi tizim tufayli ancha diqqatga sazovor va hech qachon boshidan kechirmagan uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish yo‘liga o‘tdi... Ushbu tizim tufayli sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholining keng qatlamini o‘z ichiga olgan mislsiz gullab yashnash qo‘lga kiritildi».

e) «*Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat*»

XX asr 60-yillarning oxiriga kelib aholi turmush darajasining o'sishi, xizmat ko'rsatish sohasining va iqtisodiyotda axborot sektorining roli kuchayib borishi bilan jahon iqtisodiy adabiyotlarida «Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat» konsepsiysi keng tarqala boshladi.

Amerika sotsiologi **Deniel Bell** (1919–2011) hozirgi zamon ijtimoiy tizimini asosiy harakatlantiruvchi va qayta tashkil etuvchi kuch fan-texnika inqilobi deb hisoblaydi.


Fan-texnika inqilobi ta'sirida iqtisodiy jarayonlarda, mulkchilik munosabatlarida, hokimiyatning tuzilishida, madaniyat, ma'naviyat va mafkura sohasida juda katta o'zgarishlar amalga oshiriladi. «Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat» tizimining o'ziga xosligi shundan iboratki, u, eng avvalo – xizmat ko'rsatish jamiyatni bo'lib, aholining ko'pchiligi shu sohada ish bilan band bo'ladi. Bu jamiyat yana shu bilan ifodalanadiki, iqtisodiyot «uyg'unlashgan xarakter» kasb etadi, uning rivojlanish sur'ati oshadi, umumiylar farovonlik, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning yuksak darajasi ta'minlandi, axborot hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Axborot umumxalq boyligi hisoblanadi, uni monopolashtirish juda qiyin. Agar industrial jamiyatning asosiy muammosi sanoat korporatsiyalarining ishini tashkil qilish hisoblansa, unda industrial jamiyatdan keyingi jamiyatning asosiy xo'jalik muammosi “axborot iqtisodiyoti” uchun mahsulot yaratuvchi – universitetlar va ilmiytadqiqot markazlari faoliyatini tashkil qilish hisoblanadi. Insonning jamiyatdagi o'rni, mavqeい va nufuzi endi uning mulkiy boyligidan ko'ra, uning malakasi va bilim darajasiga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Haqiqatan ham jamiyatda xizmat ko'rsatish va axborot sohasining yuksak darajada rivojlanishi bunday jamiyatda sifat o'zgarishlar yuz bergenligidan dalolat beradi.

f) *Iqtisodiy o'sish bosqichlari*

Amerika olimi **Uolter Rostou** (1916–2003) o'zining «*Iqtisodiy o'sish bosqichlari*» (1960) kitobida jamiyatning xo'jalik rivojlanishi



Deniel Bell (1919–2011)

bosqichlarini ko'rsatib berishga harakat qildi. Unda ijtimoiy omillar ikkinchi o'ringa suriladi va ular texnologik sharoitlarni ta'minlash uchun qancha zarur bo'lsa, faqat shuncha darajada tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish qonuniyatlarini iqtisodiy tizim xususiyatlariga bog'liq emas, ular bozor va shuningdek, buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotda bir xil hisoblanadi.

U.Rostou iqtisodiy taraqqiyotning beshta bosqichini ko'rsatib beradi:


1. **An'anaviy jamiyat**: «Nyutongacha bo'lgan fan va texnika» bilan hamda qishloq xo'jaligining ustunligi bilan ifodalanadi.

2. **O'tkinchi jamiyat**. Bu yerda iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi: fan yutuqlari ishlab chiqarishga tatbiq etiladi, banklar paydo bo'ladi, ishlab chiqarishni investitsiyalash kuchayadi.

3. **Yuksalish davri** (sanoat inqilobi): eski an'anaviy uklad asosan tugatiladi, iqtisodiy o'sish me'yori holat hisoblanadi, ishlab chiqaruvchi sanoatning asosiy tarmoqlarining jadal rivojlanishi amalga oshiriladi, davlat eksportni rag'batlantiradi.

4. **Yetuklik bosqichi**: aholining o'sishga qaraganda mahsulot ishlab chiqarishning doimo ortiq bo'lishi ta'minlanadi, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi kuchayadi, an'anaviy jamiyat batamom tugatiladi.

5. **Ommaviy iste'mol bosqichi**: uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari va xizmat ko'rsatish asosiy ahamiyat kasb etadi.



Uoltyer Rostou (1916–2003)

U.Rostou AQSH iqtisodiy tizimini ijtimoiy evolyutsianing yuqori bosqichi, ommaviy iste'molning yuqori darajasi bosqichi, barcha boshqa mamlakatlarning kelajakdagi rivoji uchun model deb tasvirlaydi. Uningcha, kommunizm – bu industrlashtirishni jadallashtirish zarurati tug'ilgan hollarda «o'tkinchi davrning kasali», «yagona industrial jamiyat»ga o'tishning mumkin bo'lgan yo'llaridan

biridir. Sotsializm yuksalish bosqichiga yaqinlashganda va yuksalish bosqichining o'zida jamiyatni jadallashtirishga qodir. «Ammo

kommunizm o‘z mohiyatiga ko‘ra yuqori ommaviy iste’mol davrida barham topishi kerak». Hozir hammaga ayonki, bu bashorat amalga oshdi.

Tayanch so‘z va iboralar: institutsionalizm, bekorchi sinf, texnokratlar, yangi industrial jamiyat, konvergensiya konsepsiysi, xalq kapitalizmi, industrial jamiyatdan keyingi jamiyat, iqtisodiy o‘sish.

11-bob. YUZASIDAN XULOSALAR

XIX–XX asrlarda AQSH davlatida iqtisodiy nazariya fanining yana bir echilmagan muammosi sifatida institutsionalizm ta’limoti paydo bo‘ldi. U boshqa iqtisodiy yo‘nalish va maktablarga o‘xshamagan holda, ya’ni individuallikni emas, balki jamoaviylikni targ‘ib qiluvchi kuch sifatida yuzaga keldi. Institutsonlizm vakillarning tadqiqoti turlicha bo‘lsa ham, aynan har qanday iqtisodiy savol jamoaviy tarzda hal qilinishi kerakligi ularni birlashtirib turdi. Institutsonalist vakillaridan biz T.Veblen, R.Kommons, U.Mitchell, K.Gelbreyt kabi olimlarning iqtisodiy qarashlarini o‘rganamiz.

Hozirgi iqtisodiy ta’limotlar taxrida institutsonlizm muhim o‘rinni egallaydi. Bu yo‘nalish tub ma’nosи bo‘yicha klassik maktabga muhofil deb qaralishi mumkin, chunki bu ta’limotda iqtisodi kategoriylar ikkinchi darajali bo‘lib, asosiy e’tibor institut (davlat, oila, monopoliya, urf-odatlar, huquq kasaba qo‘italari va b.)larga qaratildi, noiqtisodiy omillar yetakchidir. Tadqiqot usulida germaniya tarixiy maktabi qoidalari keng qo‘llaniladi, ammo to‘la yakdillik yo‘q institutsonlizm uch oqimga bo‘linadi, bular ijtimoiy-psixolog (yuridik, J.Kommonc), konyunktur-statistik (empiric-pragnozn (bashorat), U Mitchell). Bu taqqiqlardan islohotlarga, ilmiy texnika taraqiyotiga (1-oqim), omma fikriga qulq soluvchi hukumat, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, ma’muriy kapitalizmni yaratish, huquq sohasini takomillashtirish (2-oqim), iqtisodiyotning rivojini aniq raqamlar asosida o‘rganish, uning o‘zgarishi, siklik holati, matematik apparatini keng qo‘llash, keyingi taraqqiyot bo‘yicha prognozlash (bashorat qilish) (3-oqim) xosdir. Bu yo‘nalish qonun-qoidalari hayotda o‘z tatbiqni topmoqda, amma prognozlar doim ham aniq emas. Masalan, AQSH da 1929-yil sharq yili deb bashorat


qilingan edi, ammo amalda «buyuk depressiya» boshlandi.

NAZORAT SAVOLLAR

1. Institutsionalizmning kelib chiqishini ta‘riflang.
2. Institutsionalizmning yangi rahnamolari kimlar?
3. “Bekorchi sinf” deganda T.Veblen kimlarni inobatga olgan?
4. Kasaba uyushmalari shakllanishida institutsionalizmning roli qanday bo‘ldi?
5. Urushdan keyingi institutsionalizmda qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
6. “Yangi industrial jamiyat” konseptsiyasi nimada?
7. Konvergensiya konseptsiyasi deganda nima tushunasiz?
8. Xalq kapitalizmi hozirgi ko‘rinishlari qaysilar?
9. Industrial jamiyatdan keyingi jamiyatning qanday xususiyatlari mavjud?
10. U.Rostou iqtisodiy taraqqiyot kategoriylarida qaysi bosqich ahamiyatli?

12-bob. DJON MEYNARD KEYNS TA'LIMOTI VA NEOKEYNSCHILIK

12.1. KEYNS MAKROIQTISODIYOTI



J.M. Keyns (1883–1946)

Djon Meynard Keyns (1883–1946) hozirgi zamonning buyuk iqtisodchi olimi. Uning dunyoqarashi o‘zi oldin bilim olgan, keyin o‘qituvchilik qilgan Kembrij universitetida shakllandi. U bu yerda ikkinchi bir atoqli olim – Kembrij iqtisodiy maktabining asoschisi A.Marshall qo‘lida ta’lim oldi. Ammo uning izidan bormadi, o‘ziga xos yo‘nalishda nazariya yaratdi.

Birinchi Jahon urushi davrida va urushdan keyingi yillarda u pul muomalasi muammosiga alohida e’tiborni qaratdi va oltin standartni tartiblanadigan valuta bilan almashtirish g‘oyasini ilgari surdi. Bunday tadbirning amalga oshirilishi davlatning makroiqtisodiy jarayonga ta’sir ko‘rsatish dastagiga ega bo‘lish imkonini beradi. J.M.Keyns pul birligini mustahkamlashning ashaddiy tarafdori bo‘lgan. U shunday yozadi: «Ulyanov Lenin kapitalistik tizimni yo‘qotishning eng yaxshi usuli – bu inflyatsiya vositasida uning valutasini obro‘sizlantirish va kuchsizlantirish deb tasdiqlagan edi. Lenin mutlaq haq bo‘lgan. Amal qilib turgan jamiyatni to‘ntarishning bundan nozik va to‘g‘ri usul yo‘q».

Ingliz iqtisodchisi inflyatsiya keltirib chiqaradigan «inflyatsiya solig‘i» (pul qadrsizlanganda uning egasi o‘z jamg‘armasi qiymatining bir qismini yo‘qotadi) va uning salbiy oqibatlarini ko‘rsatib berdi. Surunkali inflyatsiya sharoitida ishlab chiqarish faoliyati bilan, ayniqla, uzoq muddatli investitsiya loyihalari bilan shug‘ullanish, oddiy qilib aytganda, befoya: pul juda sekin aylanadi va o‘zining sotib olish qobiliyatini yo‘qotadi. Shuning uchun chayqovchilik faol tadbirkorlik faoliyati sohasiga aylanadi. U turli bozorlarda baholar o‘rtasidagi farq hisobiga foydani ko‘paytirishga imkon beradi.

J.M.Keyns o‘z tadqiqotlari asosida bir qator asarlarni nashr etdi. Ular «Ehtimollar to‘g‘risida traktat» (1921), «Erkin tadbirkorlikning tugatilishi» (1926), «Pul to‘g‘risida traktat» (1930) va boshqalar. Uning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» nomli asosiy asari 1936-yili chop etildi.

J.M.Keyns ilmiy ishlar bilan birga faol amaliy va siyosiy faoliyat bilan ham shug‘ullandi. U yirik sug‘urta kompaniyasining raisi, investitsiya kompaniyasining boshqaruvchisi, «Iqtisodiy jurnal» muharriri, davlat amaldori, moliya vazirligining iqtisod bo‘yicha maslahatchisi lavozimlarida ishladi.

Buyuk turg‘unlik davrining boshidan boshlab J.M.Keyns iqtisodiy inqiroz va ish bilan bandlik savollari bilan yaqindan shug‘ullana boshladi. 1929-yili u ishsizlik muammolari bo‘yicha iqtisodiy kengash raisi etib tayinlandi. Ikkinci jahon urushi yillari (1940) u Britaniya xazinachiligi maslahatchisi qilib tayinlandi. 1941-yili u AQSH hukumati bilan lend-liz kelishuvi bo‘yicha materiallarni va boshqa moliyaviy hujjatlarni tayyorlash uchun ingliz hukumati delegatsiyasi tarkibiga kiritildi. 1942-yilda Angliya banki direktorlaridan biri etib tayinlandi. J.M.Keyns 1944-yilda Xalqaro valuta fondi va Xalqaro tiklanish va rivojlanish bankini tashkil etish rejasini ishlab chiqqan Bretton-Vuds valuta konferensiyasiga o‘z mamlakatining bosh vakili qilib tasdiqlandi. Keyin esa ushbu xalqaro moliyaviy tashkilotlarining boshqaruv a’zolaridan biri etib tayinlandi.

Buyuk turg‘unlik va iqtisodiyot fanining rivojlanishi. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni larzaga solgan 1929–1933-yillardagi buyuk turg‘unlik davri iqtisodiyot fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. 1929-yildan 1933-yilgacha AQSHda ishsizlik darajasi 3 foizdan 25 foizgacha oshdi. 1941-yilga qadar u 14,3 foizdan (1937 yil) pastga tushmadi. 1937–1938-yillarda yangi iqtisodiy pasayish kuzatildi va u II Jahon urushiga kelib to‘xtatildi. Faqat 1942-yili ishsizlik darajasi 5 foizdan pastga tushdi. Bunday holatni dunyo hali ko‘rgan emas.

Yevropada ham inqiroz juda katta salbiy oqibatlarga olib keldi. Faol ish faoliyatining pasayishi, taxminan, 1929-yil avgust oyidan boshlandi, sentabrdan esa u fond bozorida o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Oktabrda fond bozori halokatga uchradi. Bu vaziyat bank vahimasiga, o‘z aktivining asosiy qismini qimmatli qog‘ozlarda saqlab

turgan banklarning ommaviy bankrotlikka uchrashiga olib keldi va natijada muomalada pul massasining keskin kamayishi kelib chiqdi. Bularning hammasi ish faoliyatining pasayishini ancha kuchaytirdi. Ishlab chiqarishning real hajmi keskin pasaydi.

Buyuk turg'unlik nafaqat erkin raqobatga va davlatning passiv roliga assoslangan eski iqtisodiy tizimni halokatga olib keldi, balki yangi klassik makroiqtisodiy nazariyani ham inqirozga uchratdi. Iqtisodiyotda vujudga kelgan bunday keskin vaziyat cheklangan resurslar sharoitida tanlov muammosini emas, balki ularning nisbiy ortiqchaligini (ommaviy ishsizlik, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari) muammosini keltirib chiqardi. Bu ziddiyatli vaziyatdan chiqish uchun keng qamrovli "umumiylazariya" ishlab chiqarilishi zarurligini J.M.Keyns yaxshi tushungan. U iqtisodiyotni tartib solishning yangi nazariyasini yaratdi, unga ko'ra *bozor iqtisodiy munosabatlari takomillashgan, o'zini-o'zi tartiblovchi tizim hisoblanmaydi, faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi yuqori ish bilan bandlikni, iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin.*

J.M.Keyns va uning izdoshlari tavsiya etgan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chora-tadbirlari iqtisodiyotda alohida yo'naliш sifatida – keynschilik deb ataladi.

1929–1933-yillardagi buyuk turg'unlik davri klassiklarning bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi tartiblovchi iqtisodiyot degan g'oyasi ayni sharoitda noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining zarurligi va uning yordamida iqtisodiyotni tartibga soilsh mumkinligini J.M.Keyns ilmiy jihatdan asoslab berdi. Uning 1936-yili chop etilgan «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiylazariysi» asari iqtisodiyotni makro darajada tahlil qilishda inqilobiy to'ntarish yasadi. Ko'pchilik iqtisodchilarning aytishicha, J.M. Keynsning bu asari XX asr iqtisodiy fanida burilish yasadi va ko'p jihatdan hozirgi davrda ham ayrim mamlakatlar iqtisodiy siyosatni ifodalaydi.

O'rganish predmeti va uslubi. J.M.Keynsgacha bo'lgan iqtisodiy nazariyada xo'jalik jarayonlarini tahlil qilishning mikroiqtisodiy yondashuvi hukmronlik qilib kelgan. Firmalarning samarali amal qilishi bir butun iqtisodiyotning samarali amal qilishi bilan deyarli bir narsa deb qaralgan. Xo'jalik faoliyatini milliy iqtisodiyot darajasida tahlil qilish faqat pul massasi va bahoning umumiylazariyi darajasining o'zaro

aloqasi muammosigagina kelib taqalgan, xolos. Buning ustiga, e'tibor faqat uzoq muddatli jihtlarga qaratilgan. J.M. Keyns birinchi bo'lib makroiqtisodiy uslubni qo'lladi, ya'ni xalq xo'jaligi yalpi miqdorlari (ijtimoiy mahsulot, yalpi jamg'arma, yalpi investitsiya, yalpi iste'mol xarajatlari va b.) o'rtasidagi bog'liqlik va nisbatlarni tadqiqot qildi. Makroiqtisodiy uslub ayrim firmalarning rivojlanish sharoitlari bir butun iqtisodiyotning rivojlanish sharoitlari bilan mos tushmasligini taqozo etadi.

O'rganish predmeti va uslubiy jihatdan J.M. Keyns iqtisodiy ta'limotidagi novatorlik, birinchidan, ana shu mikroiqtisodiy yondashuvdan ko'ra makroiqtisodiy tahlilga ustunlik berishida, ikkinchidan, «psixologik qonunga» asoslangan holda «samarali talab» (talabning davlat tomonidan rag'batlantirilishi) konsepsiyasini asoslab berishida o'z aksini topadi.

J.M.Keyns o'z tahlilining boshlang'ich nuqtasi qilib ish bilan bandlik muammosini tanladi. Chunki ishsizlik o'sha paytda nihoyatda ko'paygan edi. U yuqori rivojlangan bozor iqtisodiyotida hayotiy zarur muammolar (shu jumladan, ish bilan bandlik muammosi) yechimini taklifdan emas, balki *talabdan* qidirish kerak degan xulosaga keldi. Aynan iste'mol buyumlariga va ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan talabning kamligi bahoning pasayishini va taklifning qisqarishini keltirib chiqaradi, bu esa ish joylarining kamayishiga olib keladi. Yalpi talabning yalpi taklifdan orqada qolib ketishi – bu kapitalistik jamiyatning surunkali kasalligidir. Yalpi talab harakati va ijtimoiy mahsulot miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlik keynschilik tadqiqotinig markaziy obyektini tashkil etadi.

Agar yalpi talab kamaysa, unda u ishlab chiqarishning pasayishiga va mehnatga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Buning natijasida majburiy ishsizlik vujudga keladi. Nega talab taklifdan orqada qolib ketadi, jami xarajatlar va jami daromadlarning doimiy muvofiqligini ta'minlovchi Sey qonuni amal qilmaydimi? J.M. Keyns "Sey qonuni"ning dogmatik qoidalari tarafdarlarini keskin va dalillar asosida tanqid qildi. Bu borada u shunday yozadi: «Sey va Rikardo davridan boshlab iqtisodchi – klassiklar o'rgatdilar: taklif o'zi talabni keltirib chiqaradi... mahsulotning barcha qiymati bevosita yoki bilvosita mahsulot sotib olishga sarflangan bo'lishi kerak». J.M.Keyns klassiklarning bu tezisini tanqid qilib, u faqat iqtisodiy hayotda pul

hech qanday mustaqil rol o‘ynamaydigan natural ayrboshlash sharoitida amal qilishi mumkinligini ko‘rsatib berdi. Shuning uchun, uning ta’kidlashicha, «Sey qonuni... to‘la ish bilan bandlikka erishishda hech qanday to‘siq yo‘q degan taxmin bilan bir narsadir».

J.M.Keyns o‘zining o‘sha davrdagi «inqilobiy» metodologik tadqiqotiga asoslangan holda o‘tmishdoshlaridan farqli o‘laroq va hukmronlik qilib turgan iqtisodiy qarashlarga zid tarzda davlat yordamida ishsizlikni kamaytirishning asosiy sharti sifatidagi ish haqini pasaytirishga yo‘l qo‘ymaslikning zarurligini, shuningdek, insonning jamg‘armaga bo‘lgan moyilligi tufayli daromadlardan ko‘ra iste’molning ancha sekin o‘sishini tasdiqlab berdi.

Makroiqtisodiy g‘oyalarning shakllanish bosqichi makroiqtisodiyotni analistik baza bilan ta’minlash uchun Keyns ko‘makchi bo‘ldi. Keyns davriy o‘zgarishlar jarayonida pulning miqdoriylik nazariyasini qo‘llash haqida fikr yuritgan ikki jildli *Treatise on Money (Pulga oid izohlar)* nomli kitobi ustida ish olib borgach, *Umumiylilik nazariyasi* ustida ish olib bordi. Umumiylilik nazariyasida Keyns oldinlari birgalikda yaqindan ish olib borgan hamkasbi Denis Robertsonga achinish hissi borligi sababli bu yo‘nalishni tark etdi. U buning o‘rniga oddiy hamda yangi yo‘nalish, jamg‘arma va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratdi. Murakkab maqsadga erishish yo‘lida Keyns neoklassik monetar tengsizlik yo‘nalishini hamda “klassik nazariya” deb nomlangan va iqtisodiy g‘oyalar bo‘rttirib ko‘rsatilgan qadimiy klassik yo‘nalishlarni birlashtirib o‘tdi. Buning natijasida u o‘zining yangi yo‘nalishidan tubdan farqlanuvchi klassik ta’limotning karikaturasini yaratdi. Keynchilik iqtisodiyoti multiplikatorlik modeli (ba’zida AE/AP modeli deb ham ataladi), IS/LM modeli va AS/AD modeli kabi turli xil modellar orqali gavdalantirildi. Bu modellar 1980-yillar mobaynida makroiqtisodiyot sohasining asosini tashkil etgan va haligacha nashrdan chiqqan qo‘llanmalarda o‘z aksini topib kelmoqda. Lekin Keynschilik iqtisodiyoti o‘z ahamiyatini yo‘qotib borgani sayin zamonaviy makroiqtisodiyot turli xil yo‘nalishlarda davom etmoqda.

12.2. SAMARALI TALAB

J.M.Keyns «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiylilik nazariyasi» asarida o‘z tadqiqotlarini klassiklar nazariyasini, jumladan, Sey qonunini tanqid qilishdan va samarali talab nazariyasini isbotlab

berishdan boshladi. Sey qonuni klassiklar o‘rtasida to‘g‘ri deb e‘tirof etilgan va unga amal qilib kelingan. Bu qonunga ko‘ra taklif avtomatik tarzda o‘z talabini yuzaga keltiradi. J.M. Keyns esa unga qarshi yalpi talab o‘z taklifini yuzaga keltirish g‘oyasini ilgari suradi va o‘zining samarali talab nazariyasini ishlab chiqadi.

Nega samarali talab hal qiluvchi omil ekanligini tushuntirib berish uchun J.M. Keyns *yalpi taklif* va *yalpi talab* tushunchalarini kiritdi. Yalpi taklif yalpi xarajatlar va yalpi mahsulot (yoki bandlik) hajmi o‘rtasidagi nisbat bilan aniqlanadi. Qisqa vaqt ichida bu nisbat o‘zgarmaydi. Ma’lumki, tadbirkor muayyan mahsulotni sotgandan keyin daromad olishi mumkin. Yalpi talab kutilayotgan daromadlar (jamiyat miqyosida) va yalpi mahsulot (bandlik) o‘rtasidagi nisbatni aks ettiradi. Bu nisbat o‘zgaruvchan bo‘ladi. Shuning uchun yalpi mahsulot, bandlik dinamikasi yalpi talab omillariga bog‘liq bo‘ladi.

Yalpi talab bu iste’mol talabi va investitsiya talabini (ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan talab) o‘z ichiga oladigan talab hisoblanadi. J.M. Keyns bo‘yicha, ish bilan bandlik va milliy daromad ishlab chiqarish, uning dinamikasi taklif omillari (ishlatilayotgan mehnat, kapital miqdori, ularning unumdarligi) bilan emas, balki talab omillari bilan aniqlanadi. U o‘z tadqiqoti markaziga talab muammosini qo‘yadi. Uning bu nazariyasi samarali talab nazariyasi deyiladi.

Yalpi talab iste’molchilar, korxonalar, hukumat sotib olishga rozi bo‘lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmi bilan narxlar darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Bu to‘lovga qobil talab bilan ta’minlangan tovar va xizmatlar summasi. Narxlar bilan milliy mahsulot ishlab chiqarish o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud.

Yalpi taklif va yalpi talab kesishgan nuqta narx darajasining va milliy ishlab chiqarishning real hajmining muvozanatlashganini bildiradi, shuningdek, bandlik darajasini tavsiflab beradi. J.M.Keyns uni samarali talab nuqtasi deb atadi. Samarali talab bu – bandlik darajasini ifodalovchi yalpi to‘lovga qodir talab.

Bu yerda yalpi talabni qanday rag‘batlantirish asosiy muammo hisoblanadi. J.M. Keyns XX asrning 30-yillari ko‘pchilik mamlakatlarda yalpi talabning (iste’mol talabi ham, investitsiya talabi ham) samarali bo‘limganligini asoslab berdi:

a) iste’molga bo‘lgan talabning yetarli darajada samarali bo‘lmasligiga asosiy sabab, ish haqi oshganda kishilar iste’molining

oshib borishi pul daromadining o‘sish sur’atidan doimo orqada qoladi, bu holat “asosiy psixologik qonun”ning amal qilishi bilan bog‘lab tushuntiriladi, *bu qonunga ko‘ra, inson daromadlari oshib borganda oldingiga qaraganda daromadlarning ko‘proq qismi jamg‘arila boriladi;*

b) investitsiyaga bo‘lgan talab ikkita sababga ko‘ra samarali bo‘lman:

- o‘sha “asosiy psixologik qonunning” amal qilishi tufayli iste’molchining sarflagan investitsiyasiga foyda ololmay qolishdan qo‘rqishi;

- kredit uchun yuqori ssuda foizining amal qilishi.

J.Keyns yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish uchun davlat va hukumatning quyidagi faoliyat yo‘nalishlarini taklif qiladi:

- davlat uncha yuqori bo‘lman iste’mol talabini davlat hujjatlarini va iste’molini ko‘paytirish orqali kompensatsiyalashi kerak;

- hukumat ssuda foizini ilmiy asosda tartibga solish yo‘li bilan xususiy investitsiyani rag‘batlantirish siyosatini yurgizishi kerak;

- bozordagi vaziyatga qarab, ayrim hollarda, aholi jamg‘armasining haddan tashqari ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, aholidan olinadigan soliqlarni ko‘paytirish zarur; shu maqsadda vaqtı-vaqtı bilan ish haqi darajasini muzlatib qo‘yish o‘rinli hisoblanadi;

- makroiqtisodiy darajada qaror qabul qilishda “**multiplikator**”dan foydalanish zarur.

12.3. INSONNING PSIXOLOGIK MOYILLIGI

J.M.Keyns ochib bergan psixologik qonunga ko‘ra, inson daromadlari oshib borishi bilan iste’mol va jamg‘armani ko‘paytirib borishga moyil. Shuning uchun iste’mol va jamg‘armaning milliy daromadga bog‘liqligi, ularning nisbati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nisbat iste’molga bo‘lgan me’yorli moyillikni tavsiflab beradi. Nega “me’yorli”? Chunki gap qo‘shimcha daromad (Y) va uning iste’molga (S) va jamg‘armaga (S) taqsimlanishi to‘g‘risida boradi, shuningdek, gap qo‘shimcha (me’yorli) ortib boruvchi iste’mol to‘g‘risida ham boradi. «Asosiy psixologik qonun, – deb yozadi J.M. Keyns, – shundan iboratki, kishilar, odatda, daromadlari ortib borishi bilan o‘z iste’molini

ko‘paytirishga moyildirlar, lekin bunda iste’mol daromad ortgan darajada oshmaydi».

Bu hol shu narsani bildiradiki, agar daromad o‘zgarsa, iste’mol ham shu yo‘nalishda o‘zgaradi, lekin iste’mol o‘zgarishi daromad o‘zgarishi darajasidan past bo‘ladi. J.M. Keyns iste’mol o‘zgarishi bilan ushbu o‘zgarishni keltirib chiqargan daromad o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbatni iste’molga bo‘lgan me’yorli moyillik deb atadi va uni quyidagi formula bilan ifodaladi:

$$MPC = \frac{\Delta C}{\Delta Y}$$

Iste’mol va umumiy daromad o‘rtasidagi nisbatni esa, u iste’molga bo‘lgan o‘rtacha moyillik deb atadi:

$$APC = \frac{C}{Y}$$

Yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, J.M. Keyns o‘z nazariyasida iste’molga bo‘lgan moyillik tushunchasi bilan birga jamg‘armaga bo‘lgan moyillik tushunchasini ham ilgari surdi. Jamg‘armaga bo‘lgan me’yorli moyillik – bu jamg‘arma miqdori o‘zgarishi bilan daromad o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbatadir:

$$MPS = \frac{\Delta S}{\Delta Y}$$

Jamg‘armaga bo‘lgan o‘rtacha moyillik esa jamg‘armaning umumiy daromadga bo‘lgan nisbati bilan ifodalanadi:

$$APS = \frac{S}{Y}$$

Bu yerda shu narsani qayd qilib o‘tish kerakki, agar umumiy daromad oshsa, unda kishilar ushbu oshgan daromadning bir qismini iste’molga sarflasalar, ikkinchi qismini jamg‘aradilar. Shuning uchun jamg‘arma va iste’mol o‘zgarishlari yig‘indisi daromad o‘zgarishiga teng, ya’ni:

$$\Delta C + \Delta S = \Delta Y$$

unda, $\Delta C / \Delta Y + \Delta S / \Delta Y = 1$

Masalan, daromad 3 ming so‘mga ko‘paydi, bunda iste’mol 2100 so‘mga, jamg‘arma esa 900 so‘mga ortdi deylik. Unda MRS = 2100 : 3000 = 0,7, MRS = 900 : 3000 = 0,3. Bu qo‘sishimcha har bir so‘mlik daromadning 70 tiyini iste’molga, 30 tiyini esa jamg‘armaga sarflanayotganini biddiradi.

Daromadlarning ko‘payib borishi bilan iste’molning ham,

jamg‘armaning ham umumiy miqdori ko‘payib boradi, lekin iste’molning nisbiy hissasi kamayib boradi, jamg‘armaning hissasi esa oshib boradi. Masalan, $MRS + MRS = 0,7 + 0,3 = 1$; bir oz vaqt o‘tgandan keyin $0,6 + 0,4 = 1$ keltirib chiqarishi mumkin. J.M. Keyns daromadlar ko‘payib borishi bilan iste’mol xarajatlari hissasining nisbatan pasayib borishini inson xatti-harakatidagi sabablarga bog‘lab tushuntiradi. Bunday sabablar hammasi bo‘lib – xasislik, ehtiyotkorlik, tejab-tergab sarflash va b. Natijada, iste’molga bo‘lgan me’yorli moyillik jamiyatda pasayib boradi. Iste’mol talabi aynan o‘sha me’yorli moyillikka bog‘liq. Ko‘payib borayotgan jamg‘arma miqdorining investitsiya tovarlariga bo‘lgan talabga aylanishi qiyinlashadi.

Bu aytilganlar shu narsadan dalolat beradiki, J.M. Keynsning tadqiqot metodologiyasida noiqtisodiy omillar – davlat (ishlab chiqarish vositalariga va yangi investitsiyalarga bo‘lgan iste’mol talabni rag‘batlantiruvchi sifatida) va odamlarning psixologiyasi (xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro munosabatlarini oldindan belgilab beruvchi sifatida) ham iqtisodiy o‘sishda muhim ahamiyat kasb etadi.

12.4. JAMG‘ARMALARING INVESTITSIYALARGA AYLANISHI MUAMMOSI VA INVESTITSIYALARGA TA’SIR ETUVCHI BOSHQA OMILLAR

J.M. Keyns nazariyasida yuqori ish bilan bandlikni ta’minalashda, milliy daromadni ko‘paytirishda investitsiyalarning roliga katta e’tibor beriladi. Investitsiyalar muammosi asosiy muammo hisoblanadi. Investitsiyalar muammosi bu – jamg‘armalarning investitsiyalarga aylanishi muammosidir.

Agar investitsiyalar hajmi jamg‘armalar hajmidan ortiq bo‘lsa, u holda yalpi talab taklifdan ortiqdir va milliy daromad o‘sish tamoyiliga ega bo‘ladi. Agar investitsiyalar jamg‘armalardan kam bo‘lsa, u holda yalpi talab taklifdan kamdir va daromad kamaya boradi. Va nihoyat, agar investitsiyalar jamg‘armalarga teng bo‘lsa, yalpi talab taklifga teng va milliy daromad darajasi o‘zgarmay

qoladi¹⁶⁹.

Jamg‘armalar jiddiy to‘sqliarsiz investitsiyalarga aylanishi uchun nima qilish kerak?

J.M. Keyns klassiklarning tejamkorlik, joriy iste’moldan o‘zini tiyish iqtisodiy o‘sishning asosi degan tushunchasini inkor etadi va asosiy e’tiborni «tejamkorlik uddaburonliksiz bo‘lishi mumkin emas», «tejamkorlik uddaburonlikdan oshib ketishi bilanoq, u oxirgisining jonlanishiga halaqit beradi» degan qoidaga qaratdi. Haqiqatan ham, jamg‘armalarning ko‘payishi investitsiyalarning ko‘payishidan ustun bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish ertami-kechmi to‘xtaydi: samarali talab yalpi taklifdan orqada qoladi va ortiqcha ishlab chiqarish vujudga keladi.

J.M. Keyns bo‘yicha, jamg‘arma va investitsiyalar, yangi klassiklar hisoblaganlaridek, moliya bozorida avtomatik tarzda tenglashmaydi. Jamg‘armalar va investitsiyalar dinamikasi har xil omillarga bog‘liq bo‘ladi. Jamg‘armalar daromad o‘sishiga qarab ko‘payib boradi. Investitsiyalar kapital qo‘yilmalaridan keladigan foydaga va foiz stavkasiga bog‘liq. Bu bilan J.M. Keyns bozor tizimining eng zaif bo‘g‘inini ko‘rsatib beradi: investor iqtisodiyotda kelajakda bo‘ladigan vaziyatni mo‘ljallab qaror qabul qiladi, jamg‘aruvchi qo‘lga kiritilgan daromad darajasidan kelib chiqqan holda, ya’ni iqtisodiyotning avvalgi holatiga qarab ish yuritadi.

Jamg‘arma miqdori foiz stavkasiga qarab emas, balki yalpi daromadning o‘sishiga qarab o‘zgarib turadi.

Investitsiyalar hajmi, J.M. Keyns bo‘yicha, kapital qo‘yilmalaridan keladigan daromad miqdoriga yoki ularning me’yorli unumdoorligiga va foiz me’yoriga bog‘liq bo‘ladi (kutiladigan daromad qancha yuqori va foiz stavkasi qancha past bo‘lsa, kredit olish va investitsiyalar hajmini ko‘paytirish shuncha foydali). Tadbirkorlar kapital qo‘yilmasining me’yorli foydaliligi foiz me’yорidan pasayib ketmaguncha investitsiyalar jarayonini davom ettiradilar. Agar foiz me’yori yuqori bo‘lsa, jamg‘arma egalari o‘z mablag‘larini investitsiyalarga, kapital qo‘yilmasiga sarflamaydilar. Negaki pulni qarzga berish, obligatsiyalarni sotib olish yo‘li bilan ancha oson daromad topishi mumkin.

¹⁶⁹ Пезенти А. Очерки политической экономии капитализма. В 2-х томах.: Перевод с итальянского. –М.: «Прогресс», 1976, ст. 628–629.

Investitsiyadan keladigan foyda darajasining pasayishi va foiz me'yoriga yaqinlashib borishi kuzatilayotgan vaziyatda investitsion faoliyat to'xtatiladi, turg'unlik kelib chiqadi. Foiz me'yori bo'lajak investitsiyalar foydasining quyi chegarasini aniqlab beradi. Foiz me'yori qancha past bo'lsa, investitsiya jarayoni shuncha jonli bo'ladi va aksincha.

12.5. MULTIPLIKATOR

J.M. Keysn investitsiyalarning ko'payishi bilan milliy daromadning ko'payishi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qildi. Uning ko'rsatib berishicha, investitsiyalarning ko'payishi milliy daromadning o'sishiga olib keladi va u quyidagi formula ko'rinishida ifodalanadi:

$$K = \Delta Y / \Delta I,$$

bu yerda, K – multiplikator, ΔY – milliy daromadning o'sishi, ΔI – investitsiyalarning o'sishi.

Investitsiyalarning ko'payishi va uning natijasida milliy daromad va aholining ish bilan bandligining o'sishi maqsadga muvofiq iqtisodiy samara sifatida ko'rildi. Ana shu iqtisodiy samara iqtisodiy adabiyotlarda multiplikator samarasi deb ataladi. Multiplikator – bu son koeffitsiyenti bo'lib, daromad o'sishi bilan, ushbu o'sishni yuzaga keltirgan investitsiyalar o'simi o'rtasidagi nisbatni ifodalab beradi. Multiplikator atamasini birinchi marta ingliz iqtisodchisi R. Kan 1931-yili ishlatgan. Unda ish bilan bandlik sohasidagi multiplikator samarasi to'g'risida so'z yuritiladi. R.Kanning «ish bilan bandlik multiplikatori» investitsiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tarmoqlarda ish bilan bandlikning ko'payishi o'rtasidagi nisbatni ifodalab beradi.

J.M. Keysnsning «Investitsiyalar multiplikatori» nazariyasiga ko'ra, «qachonki investitsiyalarning umumiy summasi o'ssa, unda daromadlarning ko'payishi investitsiyalar o'simidan K marta ortiq bo'ladi». J.M. Keysnsning ta'kidlashicha, bunday holatning sababi «psixologik qonundan» kelib chiqadi, unga ko'ra «real daromadning o'sib borishi bilan jamiyat doimo uning kamayib boruvchi qismini iste'mol qilishni xohlaydi».

Multiplikator samarasi, yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, investitsiyalarning ko'payishi daromadning ortishiga olib kelishini

ko'rsatadi va bu ortgan daromad (jamg'armani chiqarib tashlagandan keyin) yalpi talabning bir qismiga aylanadi. Daromadlarning multiplikatsiyalashuvi jarayoni to'xtamaguncha shunday davom etib boraveradi. Bu yerda shu narsani qayd qilib o'tish kerakki, kishilarning jamg'armaga bo'lган moyilligi qancha ko'p (shunga muvofiq MRS miqdori kam) bo'lsa, multiplikatorning ahamiyati shuncha kam bo'ladi. To'la ish bilan bandlik sharoitida multiplikator amal qilmaydi, negaki bo'sh turgan resurslarning bo'lmanligi sababli ishlab chiqarishini ortiqcha kengaytirib bo'lmaydi. Real ijtimoiy mahsulot ko'paymagan holda resurslarni faqat tarmoqlararo qayta taqsimlash yuzaga keladi. Multiplikatsiyalashgan iste'molning kengayishi baholarning o'sishida ifodalanadi.

12.6. LIKVIDLIK USTUNLIGI, PUL MASSASI VA FOIZ STAVKASI NAZARIYALARI

Odamlar o'zida naqd pul bo'lishini xohlashi tushunchasini J.M. Keyns "likvidlik ustunligi" deb atagan. Agar yangi klassiklarda pul zaxirasini jamg'arish noratsional hisoblansa, J.M. Keyns bo'yicha esa, bunday jamg'arma bo'lajak xo'jalik vaziyatini prognozlashtirib bo'lmasligi, xo'jalik xatari mavjudligining muqarrar natijasidir. O'z ishlarining yurishmay qolishidan xavotirlanish, kelajakka ishonmaslik kishilarni naqd pul saqlashga undaydi. Bundan tashqari, yuqori likvidlik moliyaviy aktivlar moliya bozoridagi «o'yinda» muayyan ustunlik berishi mumkin: qimmatli qog'ozlarning kursi pasayganda ularni tezda sotib olish uchun naqd pullar asqotadi.

Kishilarning o'z uylarida naqd pul zaxiralarini ushlab turishi, J.M. Keyns bo'yicha, quyidagi sabablarga bog'liq:

- xarid qilish zarurligi (transaksion motiv);
- kutilmagan vaziyat uchun (ehtiyyot shartdan);
- chayqovchilik sababi (motivi).

Birinchi ikkita sababni pulning miqdoriy nazariyasining Kembrij varianti tarafdorlari ko'rsatib o'tgan. J.M. Keyns bo'yicha birinchi ikkita sababdan boshqa, chayqovchilik motivi ham naqd pulga bo'lган talabni kuchaytiradi.

Odamlar qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun ularning kursi pasayishini kutadi. Bunday vaziyat odamlarni o‘z qo‘llarida ancha likvidli mablag‘ – naqd pullarni ushlab turishga undaydi.

Foiz stavkasi past bo‘lganda qimmatli qog‘ozlar kursi yuqori bo‘ladi. Foiz stavkasi ko‘tarilishi bilan obligatsiyalar kursi pasaydi. Demak, chayqovchilik funksiyasi likvidligi foiz me’yoriga bog‘liq.

Foiz me’yori qancha past bo‘lsa, chayqovchilik motivi bo‘yicha naqd mablag‘larga talab shuncha yuqori bo‘ladi. Foiz me’yori qancha yuqori bo‘lsa, naqd pulga talab shuncha past bo‘ladi (yuqorida ko‘rsatilgan sababga ko‘ra).

Shunday qilib, pulga bo‘lgan yalpi talab ikki qismdan tashkil topadi: a) oldi-sotdi (sdelka) uchun talab (milliy daromad darajasidan kelib chiqadigan funksiya), b) chayqovchilik uchun talab (foiz stavkasi funksiyasi):

$$Dm = f(Y, R)$$


Ehtiyyotkorlik ham likvidlik ustunligini keltirib chiqaruvchi sabablardan biri hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar – jamg‘arma to‘plashning xatarli shaklidir. Shuning uchun odamlarga aktivlari bexatar hisoblangan naqd ko‘rinishdagi o‘ziga xos sug‘urta fondi zarur.

Pul massasi va foiz stavkasi. Keynscha modelda baholar o‘zgaruvchan emas. Shuning uchun pul massasining ko‘payishi ishlab chiqarish darajasiga baholarning o‘sishi orqali emas, balki foiz stavkasi orqali ta’sir ko‘rsatadi.


Agar yangi klassiklar pul massasi makroiqtisodiy jarayonlarga faqat «to‘g‘ri» ta’sir ko‘rsatish mexanizmini, Viksell – ham «to‘g‘ri» ham «egri» mexanizmlarini tadqiqot qilgan bo‘lsalar, J.M.Keyns esa e’tiborni faqat «egri» mexanizmga qaratdi.

Foiz stavkasi ikkita sababga ko‘ra o‘zgarishi mumkin: yo o‘z aktivlarining bir qismini pul shaklida ushlab turgan kishilarning psixologik kayfiyatidagi o‘zgarishlar oqibatida (pulga bo‘lgan talab egri chizig‘ining siljishi), yoki pul massasining o‘zgarishi natijasida (pul taklifi egri chizig‘ining siljishi).

Agar foiz stavkasi R_1 darajada o‘rnatilgan bo‘lsa (13-rasmga qarang), unda uning R_2 darajaga pasayishi faqat pulga bo‘lgan talab egri chizig‘i chapga (D_2) siljigandagina yoki pul taklifi egri chizig‘ining o‘ngga (S_2) siljishi natijasida sodir bo‘ladi.



13-rasm.



14-rasm.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilib, pul taklifi miqdori foiz stavkasiga va demak, investitsiyalar hajmiga ham ta'sir ko'rsatadi deyish mumkin. Masalan, muomaladagi pul miqdorining M_1 dan M_2 ga o'sishi foiz stavkasini R_1 dan R_2 ga pasaytirdi va investitsiyalar darajasini I_1 dan I_2 ga oshirdi (13-14-rasmga qarang).

Bu yerda bir muammo bor. Uni J.M. Keyns "likvidlik tuzog'i" deb atagan. Uning mazmuniga ko'ra, pul massasi ko'payib boradi, lekin muayyan (foiz juda past) davrga kelib foiz me'yorining pasayishi to'xtaydi. Pulni ko'paytirish foydasiz bo'lib qoladi.

J.M. Keyns asarida likvidlik tuzog'inining ikki sababini ko'rish mumkin.

Birinchidan, foiz stavkasi past bo'lganda (va demak, obligatsiya qiymati yuqori bo'lganda) qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari uning oshishini kutadilar (obligatsiyalar qiymatining pasayishini). Shuning uchun ular bugungi kunda qimmat obligatsiyalarni sotib olmaydilar va o'z aktivlarini likvidli shaklda saqlaydilar (chayqovchilik sababi).

Ikkinchidan, past foiz stavkasi pulni qimmatli qog'ozlar ko'rinishida saqlash xatarini qoplamataydi va ehtiyyotkorlik sababidan kelib chiqqan holda odamlar o'z jamg'armalarini xavfsiz bo'lgan naqd pul ko'rinishida ushlab turishni afzal ko'radilar.

12.7. YANGI KEYNSCHILIK NAZARIYASI VA MAKROIQTISODIY MUVOFIQLASHTIRISH MUAMMOLARI

50-yillarda keynschilik g‘oyalari rivojlantirilib, yangi g‘oyalari ilgar surildi¹⁷⁰. Ularning asosiy mohiyati iqtisodiy o‘sish sur’atlari doimiyligini ta’minlovchi mexanizmlarni aniqlash va isbotlashdan iboratdir. Oqibatda «mulsipirikator-akselerator» tizimini hisoblashga asoslangan va o‘ziga xos keynschilikning o‘sish nazariyalarini, jamg‘arish va iste’mol o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish holatidan foydalanib, fanga iqtisodiy dinamikani modellashtirishni kirdizishdi.

Demak, yangi keynschilikning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari E.Xansen (1887–1975), P.Samuelson (1915–2009), E.Domar (1914–1997), S.Xarris (1897–1974), R.Salou (1924), ingliz R.Xarrod (1900–1978)lar hisoblanadi. Yangi keynschilikning asosiy tadqiqot obyekti makroiqtisodiy miqdorlarning (yalpi talab, yalpi taklif, jamg‘arma kabilalar) o‘zaro ta’siri hisoblanadi.



E.Domar (1914 - 1997)

Yuqorida tilga olingan iqtisodiy o‘sish nazariyalarining asosiy vakillari Massachusett texnologiya instituti professor **Evsey Domar** (1914–1997) va Oksford universiteti professori **Robert Xarrod** (1890–1978) hisoblanadi. Ularning modelida iqtisodiyotning doim (mo‘tadil) sur’atlarda o‘sishi dinamik barqarorlik (ilgarilab borish) ning asosiy sharti hisoblanadi. Shu holatda ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat resurslaridan to‘la

foydalaniladi. Harrod-Domar modelining boshqa bir qoidasi bo‘yicha ayrim parametrlar, chunonchi daromadlardagi jamg‘arma hissasi va kapital quyilmalari uzoq davr mobaynida doimiy deb tan olinishi lozim. Mualliflar dinamik barqarorlik va doimiy o‘sishga erishish avtomatik ravishda bo‘lmasligi, balki davlatning shunga muvofiq siyosati natijasida, ya’ni



R.Xarrod (1900-1978)

¹⁷⁰ А.Раззоков, Ш.Ташматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. 243–244-б.

davlatning iqtisodiyotga faol ishtiroki tufayli ro'y berish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Domar va Harrod modellaridagi farq –boshlang'ich yondashuvlardagi ayrim ko'rsatkichlardir. Masalan, Harrod modelida investitsiya va jamg'armalar tengligi g'oyasi, Domarda esa pul daromadlari (talab) va ishlab chiqarish quvvatlari (taklif) tengligi qabul qilinadi. Ikkala olim shunga ishonchları komilki, daromad o'sishini ta'minlashda investitsiyalar roli yuqori, ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishda faoldir deb biladi. Bunda shu narsa ko'zda tutiladiki, investitsiya o'sishi bandlikka yordam beradi, bu esa o'z yo'lida, korxonalarning yarim quvvat bilan ishlashini va ishsizlikning oldini oladi. Bu Keynsning shu sohadagi konsepsiyasining so'zsiz tan olishdir; chunki Keyns bo'yicha, iqtisodiy jarayonlar investitsiya va jamg'armalar orasidagi proporsiyalar xarakteri va dinamikasiga bog'liq, aniqroq aytilsa, investitsiyalarning ildam o'sishi, baholar darajasi o'sishiga sabab bo'ladi, jamg'armalar o'sishi esa korxonalarning to'la ishlamasligi va ishsizlikning sababidir.

Shuni aniq qilib aytish kerakki, Keyns ta'limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyingi davrlar uchun samarali bo'ldi, chunki favqulodda holatlar davrida davlatning roli kuchli bo'lishi kerak. Amalda esa, ayniqsa 2-jahon urushidan so'ng G'arb mamlakatlarini sotsialistik yonalishi kuchaydi (davlat mulki oshib bordi), davlat budgeti qarzları ko'payib, ishsizlik ham o'sdi, inflyatsiya kuchaydi. Bu ijtimoiy ishlarni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar oqibatidir deb tan olinmoqda. Ishsizlikning ish haqini pasaytirish yo'li bilan hal etish mumkin deganlarning tarafдорлари ham mavjud, ammo pul massasini ko'paytirish inflyatsiyaga olib keladi. Bu konsepsiya ma'lum davr mobaynida inflyatsiya bo'lmagan holda minimal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon berdi.

Iqtisodiy o'sish nazariyalari rivojlanishida neokeynschilik, neoklassik va institutsionalizm yo'nalishlarini alohida ko'rsatib o'tish muhim. Ushbu yo'nalishlar doirasida iqtisodiy o'sishning turli modellari yaratildi. Amerikalik iqtisodchi olim Robert Solouning iqtisodiy o'sish nazariy modeli zamonaviy makroiqtisodiy nazariyani ishlab chiqishda asos qilib olingan va iqtisodiy tahlilda keng qo'llanilib kelinmoqda. Solou modeliga ko'ra, doimiy texnik taraqqiyot va

resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning belgilovchi omillari hisoblanadi.

Robert Merton Solou 1924-yilda Bruklinda, Nyu-Yorkda tug'iladi. Kambag'al immigrantlar oilasida Robert to'ng'ich farzand bo'lgan, undan keyin ikki singlisi dunyoga keladi. O'zlari o'qimaganliklari tufayli ota-onasi ularni o'qitishga harakat qilishadi va natijada uchala farzand ham oliy ma'lumotli bo'lib yetishadi.


Solou boshlang'ich o'rta maktabda eng yaxshi o'quvchilardan biri edi, biroq o'zining ta'kidlashicha, yuqori salohiyat bilan boshqalardan deyarli ajralib turmasdi. O'rta maktabning oxirgi sinflarida o'qigan kezlarida o'qituvchilardan birining maslahatiga ko'ra, XIX asr fransuz va rus mumtoz yozuvchilarining asarlarini yoppasiga o'qishga kirishadi va bu mashg'uloti uni shaxs sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'rta maktabni tugatib, Solou tanlov imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tdi va Garvard universitetida ta'lim olish uchun imtiyozli stipendiyaga ega bo'ldi. 1940-yilda o'qishni boshlagan paytida u sotsiologiya, antropologiya va iqtisodiyotning boshlang'ich kurslarini o'rganadi.

Ikkinchi jahon urushi avj olgan 1942-yilda Solou 18 yoshni qarshiladi va universitetdagi mashg'ulotlarini to'xtatishga majbur bo'ldi. U avvaliga AQSH qurolli kuchlarida oddiy askar bo'lib, keyinchalik esa biroz muddat Shimoliy Afrika va Sitsiliyada xizmat qildi. 1945-yilda ingлиз-Amerika qo'shinlari tarkibida Italiyani fashistlar istilosidan ozod qilishda ishtirok etdi.

1945-yili Solou harbiy xizmatdan bo'shaydi va Garvardga qaytgach, o'qishni davom ettiradi. Tahsil davomida iqtisodiyot bilan qiziqib, V.Leontev qo'lida saboq oldi, u Solou uchun ustoz va do'st bo'lib qoldi.

Solou 1947-yilda bakalavr, 1948-yilda esa magistr darajasini oladi. V. Leontev rahbarligida Solou assistent-tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritadi va uning xarajatlar-ishlab chiqarish modelini tuzishda ishtirok etadi. Keyinchalik u iqtisodiyotning statistika va ehtimollik modellari bilan qiziqib qoladi. Biroq Garvardda o'tilayotgan statistika fanining



R.Salou (1924)

saviyasi uni qoniqtirmaydi va ijtimoiy munosabatlar bo‘limida ishlaydigan F. Mostellerning maslahatiga ko‘ra 1949/50 o‘quv yilini Kolumbiya universitetida aspirant sifatida davom ettiradi. Mazkur o‘quv yili mobaynida Solou intensiv tarzda olib borilayotgan o‘qishi davomida doktorlik dissertatsiyasining tezislari ustida ishlaydi. Bu tadqiqotida u bandlik, ishsizlik va ish haqini belgilab beruvchi mavjud normalarni qo‘llagan holda ish haqini taqsimlashdagi o‘zgarishlarni modellashtirishga urinib ko‘radi. Bu ilmiy ishi uchun 1951-yili Garvard universiteti uni Devid Uells mukofoti bilan taqdirlaydi va tadqiqotni tugatish uchun 500 dollarlik chek topshiriladi. Biroq Robert Solou noma’lum sabablarga ko‘ra bu tadqiqot ishiga qaytmaydi, tezislari esa chop etilmay qoladi.

Robert Solou Kolumbiya universitetini tugatgach, Massachusetts texnologiya instituti iqtisodiyot bo‘limida statistika va ekonometrika bo‘yicha professor assistenti sifatida ma‘ruzalar o‘qiy boshladi. Pol Samuelson (u ham shu yerda dars bergen) uni o‘ziga ishga taklif etadi. Deyarlik 40 yil davom etgan bu hamkorlik mobaynida u sof holdagi iqtisodiyot nazariyalari bilan shug‘ullandi.

Katta hajmdagi tadqiqot ishlarini Solou o‘qituvchilik faoliyati bilan chambarchas olib bordi. Olimning so‘zlariga qaraganda, agar u talabalarni o‘qitmaganda, ehtimol 25 foiz ko‘proq ilmiy ish yozgan bo‘lardi. Biroq Solou o‘z tanlovini qilib bo‘lgan edi va o‘zi aytganidek, hech qachon bundan afsuslanmagan. Solouning ilmiy qiziqishlari iqtisodiyotni yaxlit bir butun fan sifatida tahlil qilish bilan bog‘liq. U umumiyligi iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiy tahlil va nazariy hamda amaliy sohalarda ixtisoslashadi. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasiga qo‘sishgan asosiy hissasi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, iqtisodiy o‘sishning neoklassik modelini yaratganidir.

Robert Solou g‘oyalari yangi keynschilik ta’limotini tanqid qilish asosida yuzaga keladi. Neokeynschilik nazariyasining bo‘sh g‘oyalari quyidagicha izohlanadi:

1) bu modellarda ishlab chiqarishning o‘sishi faqat yangi kapital qo‘yilmalar funksiyasi sifatida qaraladi, vaholanki, bu o‘sish yangi ishchi kuchlarini jalb qilish orqali mavjud, ammo jarayon foydalanilmayotgan ishlab chiqarish kuchlarini ishga solish bilan ham ta’minlanishi mumkin;

2) modellarda ishlab chiqarishdagi kapital hajmi o‘zgarmas deb qabul qilinadi, bu esa ishlab chiqarishda turli kapital hajmlarini tanlab olishga imkon bermaydi. R.Solou va ingliz olimi J.Mid iqtisodiy o‘sishning neoklassik nazariyasini rivojlantirdilar, bunday nomlanish Alfred Marshallga borib taqaladi. Unga ko‘ra, erkin raqobat saqlangan holda ishlab chiqarish omillari (kapital, yer, mehnat) egalari chegaraviy (eng yuqori) mahsulot olish bilan taqdirlanadilar.

Ishlab chiqarishning asosiy omillaridan to‘la foydalaniladi. Bunga erkin raqobat mexanizmi imkon yaratadi va omillar narxiga ta’sir etadi. Masalan, agar kapital qo‘yilmalar sur’ati juda yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarish vositalarining narxi ko‘tariladi. Bu esa ishbilarmonlardan kapital hajmini kamaytirish yo‘lini axtarishga undaydi, oqibatda kapital narxi pasayadi.

Bu nazariyada boshqa komponentlar, ya’ni mehnat, tabiiy resurslar, texnika progressi ham hisobga olinadi. Asosiy xulosa shundan iborat ediki, uzoq davr oralig‘ida ko‘rib chiqilgan iqtisodiy o‘sish sur’atlari kapital qo‘yilmalar o‘sish sur’atlariga bog‘liq emas. Uzoq muddatli istiqbolda aynan texnik rivojlanish iqtisodiy o‘sish uchun asosiy zamin yaratadi.

Iqtisodiy o‘sish modelini Solou birinchi bor 1956-yilda “Iqtisodiy o‘sish nazariyasiga hissa” (“A Contribution to the Theory of Economic Growth”) deb nomlangan maqolada ta’riflaydi. Bu matematik model bo‘lib, differential tenglamalar tizimi shaklida aks ettirilgan edi. Amerikalik mutaxassislarning fikricha, hech bir iqtisodchi olim o‘sish nazariyasida “mehnatni kapital bilan almashtirish” tushunchasini bu qadar oddiy va tushunarli qilib ishlatmagan.

Robert Solou Massachusetts institutida o‘qituvchilik va ilmiy faoliyat bilan birga makroiqtisodiy tahlilning turli yo‘nalishlari, shu jumladan, bandlik muammosi va uning ahamiyati bilan shug‘ullangan. U zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining yaxlit bir yo‘nalishi bo‘yicha shuhrat qozongan, zamonamizning salohiyatlari va eng bilimdon olimlaridan biri sifatida tan olinadi. Salou nafaqat iqtisodiyot faniga, balki turli ijtimoiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi bilan ham boshqalardan ajralib turadi. 1950–1987-yillar davomida iqtisodiy журнallarda, monografiya va to‘plamlarda chop etgan asarlarining umumiy soni 165 taga etadi.

Robert Merton Solou “iqtisodiy o’sish nazariyasiga qo’shgan katta hissasi uchun” 1987-yilgi Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi. Taqdirlash marosimida Shvetsiya Qirollik fanlar akademiyasi a’zosi K.G. Myoller so‘zga chiqib: “Professor Solou tomonidan yaratilgan model katta ahamiyat kasb etib, uning yordamida o’zgaruvchan voqelikni tushunish va tahlil etish mumkin”, degan edi.

Tayanch so‘z va iboralar: makroiqtisodiyot, makroiqtiodiy tahlil, inqiroz, ishsizlik, samarali talab, jamg‘arma, investitsiya, multiplikator, pulning likvidliligi, likvidlilik, pul massasi, foiz stavkasi

12-bob YUZASIDAN XULOSALAR

1929–1933-yillari klassik maktab g‘oyalari tamomila tanazzulga uchrab, dunyo yangi iqtisodiy g‘oyaga muxtoj edi. Bu davrda bozor iqtisodiyotini muvozanatli holatini buzadigan insonlarning psixologik moyilligi bo‘lgan jamg‘arish bilan bog‘liq bo‘lib, aynan shu moyillik buyuk depressiyani keltirib chiqardi. U iqtisodiy fanni yana qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. Mana shunday davr, ya’ni XX asrning o‘ttizinchi yillarda makroiqtisodiy nazariya bo‘lgan Keynschilik ta’limoti iqtisodiy tarixga kirib keldi. Mazkur bobda biz Keyns ta’limoti hamda postkeynschilik g‘oyalari bilan tanishamiz.

1929–1933-yillardagi jahon iqisodiy inqirozi avvalgi «sof ta’limot» nazariyotchilarining fikriga qo’shimcha kiritishni talab etdi. Iqisodiy ta’limotlar tarixida Keyns inqilobi deb nom olgan o’zgarish ro‘y berdi. Agar avvallari bozor iqtisodiyoti barcha muammolarni avtomatik ravishda hal qiladi degan g‘oya ustun bo‘lsa, Keyns ularga boshqacha qarab, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini zarur deb hisobladi. Bandlik foiz, milliy daromad, investitsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilib, «aralash iqtisodiyot», multiplikator tushunchalari kiritildi. Keynschi va Neokeynschilar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qo’llab, «akselerator koeffitsiyenti»ni qo’lladilar, unga ko‘ra daromadlarning investitsiyalarga ta’sirini ko‘rish mumkin. Keynschilikning ayrim shakllarida indikativ rejalahtirish ham qo’llab-quvvatlanadi. Ishsizlik va inflyatsiyani bandlik yo‘li bilan hal etish mumkin degan g‘oya ustun.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Keyns makroiqtisodiyoti nimada namyon bo‘ldi?
2. Keynsning multiplikator modelining shakllanishi bosqichlari qaysilar?
3. Yangi keynschilik nazariyasi va muvofiqlashtirishda muammolar nimalarda namoyon bo‘ldi?
4. Postkeynschilik iqtisodiyotini ta’riflang.
5. Samarali talab deganda nima tushunasiz?
6. Insonning psixologik moyilligi nimada?
7. Jamg‘armalarning investitsiyalarga aylanishi muammosi va investitsiyalarga ta’sir etuvchi boshqa omillar.
8. Multiplikator nima?
9. Postkeynschilar kimlar?
10. Keyns g‘oyalarining hozirgi davridagi ahamiyati nimada?

13-bob. NEOLIBERALIZM G‘OYALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

13.1. NEOLIBERALIZM KONSEPSIYASI

Liberalizmning asosiy belgilari erkin raqobat davridagi tovarli iqtisodiyotning o‘ziga xosligini aks ettirgan. Liberalizm, iqtisodiy siyosat sifatida, erkin tadbirkorlik tizimini xo‘jalikni tashkil etishning ancha qulay shakli deb qaragan.

Erkin bozor mexanizmi iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlash va foydalanishi bilan iqtisodiy nazariyada va amaliyotda liberal yo‘nalish inqirozi namoyon bo‘la boshladi. Uning natijasida: bir guruh iqtisodchilar o‘zlarining qarashlaridan voz kechgan holda keynschilikka qo‘silib ketdi va bu yangi ta’limotni ancha to‘g‘ri deb hisobladi; ikkinchi guruh iqtisodchilar bozor munosabatlarda davlatning xarakteri, o‘rni va roli to‘g‘risidagi o‘zlarining ko‘z qarashlarini himoya qildi va ularni qayta o‘zgartirgan holda neoliberalizm guruhini tashkil etdi. Keyinchalik iqtisodiy fanda neoliberal konsepsiyasining asosiy tamoyillari ishlab chiqildi va ularning amaliyotda amal qilishi ko‘rsatib berildi, neoliberalizm oqimi va maktabi shakllantirildi, shuningdek, mazkur konsepsiyaning mohiyati va mazmuni to‘g‘risida bir butun tushunchalar yaratildi.

Neoliberalizm: xususiyati va asosiy belgilari. Neoliberalizm, bozor munosabatlari tizimi xo‘jalik yuritishning ancha samarali shakli ekanligi, u iqtisodiy rivojlanish va o‘sish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib berishi to‘g‘risidagi qoidaga asoslanadi. Neoliberallar iqtisodiyotni erkinlashtirish, bahoning erkin shakllanish tamoyillaridan, iqtisodiyotda xususiy mulkning va nodavlat xo‘jalik tuzilmalarining yetakchilik rolidan foydalanish tarafdori hisoblanadi. Bunda ular davlatning iqtisodiyotni tartiblashdagi rolini futbolni boshqarib boradigan, lekin o‘yinda ishtiroy etishga haqqi bo‘lmagan hakamga o‘xshatadi.

Iqtisodiyotni davlat tartiblashining neoliberal konsepsiysi vakillari L.Erxardning – “mumkin bo‘lgan barcha joyda – raqobat, qayerda zarur bo‘lsa o‘sha yerda – tartiblash” qoidasiga amal qilgan holda, iqtisodiy jarayonlarda davlat ishtirokini kamaytirish va iqtisodiyotdagi nomuvozanatlilikni bartaraf etishning sharti sifatida tadbirkorlarning erkin va barqaror amal qilishga ko‘maklash zarurligini isbotlab berdi.

Neoliberalizmning asosiy belgilari:


- bozor mexanizmi va erkin raqobat ustunligini e‘tirof etgach, neoliberallar raqobat muhitini shakllantirish va unga amal qilishni nazorat qilish bo‘yicha davlatning iqtisodiyotga aralashuvini mumkin deb hisoblaydi;
- zamonaviy iqtisodiyotning samaradorligini ta’minlashda iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining erkin amal qilishini qo‘llab-quvvatlaydi;
- monopoliyani milliy xo‘jalikning har tomonlama rivojlanish yo‘lidagi to‘siq deb e’lon qiladi va iqtisodiyotdagi monopol moyillik bilan kurashning zarurligini asoslab beradi;
- o‘zini keynschilikka va xo‘jalik hayotiga faol aralashuv tamoyiliga asoslangan totalitarizmga qarshi raqib deb hisoblaydi.

XX asrning 30-yillaridayoq erkin raqobat tizimini cheklovchi iqtisodiyotni davlat tartiblashining keynschilik g‘oyalari qarshi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining muqobil neoliberal chora-tadbirlari turli mamlakatlarda ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi zamon sharoitida “neoliberallar” nomi bilan ataluvchi bir qancha maktablar amal qiladi. Unga Chikago (M.Fridman), London (F.Xaek), Frayburg (V.Oyken, L.Erxard) maktablarini kiritish mumkin.

“*Ordoliberalism*” nima? Ikkinchi jahon urushidan keyin neoliberalizm g‘oyalari, eng avvalo G‘arbiy Germaniya amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanila boshladi. Bu yerda 1948-yildan neoliberalizm Bonning rasmiy doktrinasiga aylandi. O‘sha yili V.Oykenning muharirligi ostida xo‘jalik va ijtimoiy tuzum to‘g‘risidagi neoliberallarning yillik jurnalining birinchi soni “Ordo” nomi bilan chop etildi. V.Oyken ishlatgan “Ordo” so‘zi “Tabiiy tuzum ... Erkin

bozor xo‘jaligi” tushunchasini bildiradi. Germaniyada neoliberalizm doktrinasi “Oyken maktabi” ta’sirida, hatto “ordoliberalizm” deb atala boshladi.

Ordoliberal konsepsiysi asosida “ijtimoiy bozor xo‘jaligi” konsepsiysi ishlab chiqildi. Uni ishlab chiqqan iqtisodchi professorlar Alfred Myollyer-Armak, Aleksandr Ryustov, Vilgelm Repke va Lyudvig Erxardlar hisoblanadi.



Fridrix fon Xaek (1899–1992)

13.2. F.XAEK VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY G‘OYALARI

Fridrix fon Xaek (1899–1992) neoliberalizmning otasi hisoblanadi. U juda ko‘p iqtisodiy va ijtimoiy-falsafiy mazmundagi asarlarning muallifi, ularning ichida asosiyлari: “**Baholar va ishlab chiqarish**” (1929), “**Pul nazariyasi va iqtisodiy siki**” (1933), “**Foyda, foiz va investitsiyalar**” (1939), “**Kapitalning sof nazariyasi**” (1941), “**Qullikka yo‘l**” (1944), “**Erkinlik konstitutsiyasi**” (1960), “**Sof pullar**” (1976), “**Erkin kishilarning siyosiy tuzumi**” (1973–1979).

Inson erkinligining ustunligini F.Xaek bosh tamoyil sifatida ko‘rsatadi. Erkinlik – bu davlat tomonidan har qanday majbur qilishning bo‘lmashligi. F.Xaek fikriga ko‘ra, davlat maorifni tashkil qilish bilan ham, ijtimoiy sug‘urtani tashkil qilish bilan ham, kvartira haqi stavkasini tartiblash bilan ham shug‘ullanmasligi kerak, bunday xatti-harakatlar “ma’muriy despotizm”dan boshqa hech narsa emas; davlatni pul emissiyasini amalga oshirishdagi monopol huquqidan ham mahrum etish kerak; davlatga ishonib topshirish mumkin bo‘lgan maksimum narsa – bu qarilik pensiyalarini, ishsizlik bo‘yicha nafaqalarni to‘lash.

F.Xaek “o‘z-o‘zidan bo‘ladigan tartib” konsepsiyasini qattiq turib himoya qildi. Unga ko‘ra, zamonaviy jamiyatni tavsiflovchi uning barcha elementlari yig‘indisi hech vaqt inson tomonidan ongli ravishda tashkil etilishi mumkin emas (chunki uning bilimi, ongi cheklangan),

aksincha ular o‘z-o‘zidan yuz beradigan tartib doirasida rivojlanib boradi. “Biz hodisalar o‘rtasidagi aloqani muayyan darajada tushunishimiz mumkin, lekin ularni boshqara olmaymiz”, – deb yozadi F.Xaek. Ijtimoiy tartib ongli xatti-harakat natijasi bo‘lishi mumkin emas. Jamiyatda o‘rnatilgan tartib o‘z-o‘zidan bo‘ladigan xatti-harakat natijasidir.

F.Xaek makroiqtisodiy tahlilga salbiy munosabatda bo‘lgan. Uningcha, mikroiqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish bir butun iqtisodiyotning amal qilishini tushuntirib berish uchun zarur va yetarli hisoblanadi. Alovida xo‘jalik subyektlarining xatti-harakatining muvofiqlashuvi muammosi axborot yordamida hal etilib turiladi. Axborot bozor bahosi mexanizmi orqali kelib tushadi, u xo‘jalik ishtirokchilariga ustunlik beradi.

Bozorning samaradorligi shunda ko‘rinadiki, unda aniq axborotlar yetarli va ular tez tarqaladi. Natijada ideal emas, lekin shunga yaqin muvozanat o‘rnatiladi.

F.Xaek ijtimoiyizmni tanqid qiluvchilardan biri sifatida, to‘liq va operativ axborotga ega bo‘lmagan markaziy rejalashtirish bozor iqtisodiyotiga o‘xshab samarali amal qila olmasligini ko‘rsatib berdi. Baholarning bir markazdan o‘rnatilishi, ularning ustidan nazorat qilib turilishi, F.Xaekning fikri bo‘yicha, axborotning buzilishiga, noto‘g‘ri tarqalishiga olib keladi. Baho talab va taklifni to‘g‘ri aks ettirmaydi, mahsulotlarga bo‘lgan talab to‘g‘risida ishlab chiqaruvchi aniq tasavvurga ega bo‘lmaydi.


F.Xaek bo‘yicha, pul emissiyasiga bo‘lgan davlat monopoliyasi erkin jamiyat uchun zararli, negaki hukumat bunday monopoliya yordamida o‘z fuqarolari hisobiga davlat muammolarini yechishga urinadi (masalan, davlat qarzi muammosi, davlat xarajatlarining ko‘payib ketishi va b.). U davlat emissiyasini xususiy emission banklarning erkin raqobati bilan almashtirishni taklif qiladi. Xususiy valutalarni chiqarayotgan banklar o‘rtasidagi erkin raqobat natijasida odamlar kundalik hayotda foydalanish qo‘l keladigan ancha barqaror valutani tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

13.3. V.OYKEN “IQTISODIY TIZIM” TIPLARI TO‘G‘RISIDA

Valter Oyken (1891–1950) o‘zining “milliy iqtisodiyot asoslari” (1947) kitobida xo‘jalikni tashkil etish shakllarining asosiy tiplarini (turlarini) ko‘rsatib beradi. Mazkur kitobning “Iqtisodiy tizimlar” bobida “xo‘jalikning ideal tiplari” to‘g‘risidagi g‘oya ilgari suriladi. Uning mohiyati V.Oykenning quyidagi mulohazalarida ochib beriladi: har qanday mamlakatning iqtisodiyoti juda ko‘p bir xil elementlardan tashkil topgan, ya’ni pul, baho, foyda, kapital, foiz, mehnat, ish haqi va shu kabilar. Nega bo‘lmasa turli mamlakatlarning iqtisodiyoti turlicha? V.Oyken bo‘yicha, buning sababi bosh elementlarda yashiringan. Bunday elementlar, bir tomondan – bu erkin bozor xo‘jaligi, ikkinchi tomondan – markaziy boshqaruv xo‘jaligi hisoblanadi. Bu bosh elementlar ideal yoki sof xo‘jalik tiplari hisoblanadi va **boshqaruv uslublari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi**. Birinchi xo‘jalik tipida buyruq berishga, o‘z hukmini o‘tkazishga hech kimning haqi yo‘q. Ikkinchisida – barcha qarorlar yuqorida qabul qilinadi. Demak, o‘z-o‘zidan yuzaga kelish holatlari bo‘lmaydi.

V.Oykenning keyinchalik qayd qilishicha, real voqelikda bunday ideal xo‘jalik tiplari amal qilmaydi. Shuning uchun “xo‘jalikning ideal tipi” tushunchasi bilan birga, u iqtisodiy hayotda doimo amal qiladigan “xo‘jalikning real tipi” tushunchasini kiritadi.

Lekin har xil iqtisodiy tizim xo‘jalikning ideal tipiga intiladi. Bu yerda xo‘jalik tiplari nima bilan aniqlanadi degan savol tug‘iladi? Buning sababi, V.Oykenning fikricha, mamlakatning milliy-mintaqaviy xususiyatlariga, ya’ni an’ana, urf-odat, axloq, din, madaniyat darajasi, odamlar ongingin shakllanishi va shu kabilardan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, xo‘jalik tiplari xalqning o‘z tanloviga bog‘liq. V.Oykenning fikriga ko‘ra, ibridoiy jamoa, quldorlik, feodal yer egaligi, totalitar davlatlar, shu jumladan, sotsialistik iqtisodiyot markazdan boshqariladigan xo‘jalikka intiladi.



Valter Oyken (1891–1950)

Xalq qancha madaniylashgan bo‘lsa, u shuncha markazlashmagan iqtisodiyotni tanlaydi.

Bunday vaziyatda davlat o‘zini qanday tutishi kerak? Neoklassiklar nuqtayi nazariga ko‘ra, bozorni tanlash – tabiiy jarayon, chunki ular iqtisodiyotning faqat bir tipini – erkin bozor xo‘jaligini tan oladi. V. Oyken bo‘yicha esa, insoniyat uchun iqtisodiyotning ikki tipi tabiiy; markaziy-boshqaruv xo‘jaligi o‘zining amal qilishida hatto ancha uzoq tarixiga ega. Shuning uchun, xalqning xo‘jalik tipini tanlashida davlat uning istagiga qulq solishi, ijtimoiy institatlarni tashkil etishda yordam berishi kerak. Masalan, agar bozor bo‘lmasa, bozorni tashkil etish. Keyin davlat bir chetga chiqib turishi va bozor ishtirokchilarining o‘yin qoidalarini kuzatib borishi kerak. Bu yerda neoliberallar futbol komandasini misol tariqasida ko‘rsatadi. Ularning nuqtai nazariga ko‘ra, davlat – bu futbol hakami, neoklassiklar esa davlatni hakamsiz ko‘cha futbol komandasiga o‘xshatadi.

Neoliberallar fikriga ko‘ra, ular iqtisodiy tizimni tanlash to‘g‘risidagi ta’limotni shakllantirdi. Agar neoklassiklar sotsialistik tizimni ko‘zi bog‘langan, ertami-kechmi o‘raga qulab tushadigan tizim sifatida tarixning qisqa muddatli xatosi deb hisoblangan bo‘lsalar, neoliberallar esa, markaziy-boshqaruv xo‘jaligini iqtisodiyotning tabiiy varianti deb hisoblaydi. U (iqtisodiyot) istibdod tartibotidan kelib chiqqanku (Rossiyada – podshoh, Sharq xalqlarida – xon va b.). Shuning uchun neoliberallar fikriga ko‘ra, markaziy-boshqaruv xo‘jaligi tarixning xatosi hisoblanmaydi, balki uzoq tarixga ega, o‘zida erkin tadbirkorlik unsurlarini, albatta, mujassam-lashtiruvchi qonuniyatli jarayon hisoblanadi.



Lyudvig Erxard (1897–1977)

13.4. L.ERXARDNING IQTISODIY ISLOHOTLARI

G‘arbda neoliberal yo‘nalish tarafдорлари ichida **Lyudvig Erxard** (1897–1977) alohida ajralib turadi. Uning bevosita ishtirokida 1950-yilga kelib G‘arbiy Germaniya krizis holatidan olib chiqildi va unda pul va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. L.Erxard

– iqtisodchi va yangi xo‘jalik tartibi asoschisi hisoblanadi. 1945-yilning oxirida Bavariya iqtisodiyot vaziri etib tayinlangan L.Erxard Germaniya iqtisodiyoti «jiddiy tuzilmaviy qayta qurishga muhtoj» deb ko‘rsatib beradi va real vaziyatdan kelib chiqqan holda to‘g‘ri ish yuritish zarurligini uqtirib o‘tadi.

Uning takidlashicha, bozor iqtisodiyotidan rejali iqtisodiyotga o‘tish asosiy muammo hisoblanmaydi, chunki «balanslashuvga moyil iqtisodiyotdan qaytish oson», ammo «rejali iqtisodiyotni erkin bozor xo‘jaligiga aylantirish juda katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq», chunki tabiiy muvozanatdan chetga chiqqan iqtisodiyotga birdan, o‘tish davrisiz, erkin bozor imkoniyatlarini yaratib berish qiyin.

Urushdan keyingi Germaniya iqtisodiyoti juda qiyin ahvolga tushib qolgan. Ishlab chiqarish quvvatining uchdan ikkisi ishlamasdi. Narxlar muttasil oshib borgan, mamlakatda «qora bozor» hukmronlik qilgan. Aholining qo‘lidagi pul vositalari milliy mahsulot miqdoridan deyarli o‘n barobar ortiq bo‘lgan.

Birinchi chora-tadbir 1948-yili iyunda o‘tkazilgan pul islohoti bo‘ldi va u bir butun Germaniya iqtisodiyotini isloh qilishda katta rol o‘ynadi. Yangi nemis markalarini eski, muomaladan chiqarilayotganlari bilan almashtirish birga (yangi marka) o‘n (eski marka) nisbatda amalga oshirildi. Ish haqi, pensiya, kvartira haqi to‘lash birga bir nisbatida amalga oshirildi.

Har bir kishi qirq markadan oldi. Almashtirishdan keyin qolgan pulning bir qismi maxsus schyotlarda muzlatib qo‘yildi. Bank tizimi isloh qilindi. Qo‘srimcha ko‘rilgan chora-tadbirlar yangi inflyatsiya kelib chiqishining oldini oldi: dastlab eski valutani yangi valutaga almashtirish kursi amalda bir yangi marka o‘n besh eski markani tashkil etdi. Pirovard natijada pul massasi (naqd mablag‘lar va bank depozitlari) 14 martadan ko‘proq kamaydi.

Islohot puxta tayyorlangan bo‘lib, u keskin va izchillik bilan o‘tkazildi. Islohotni tayyorlash va o‘tkazish ikki yilga yaqin davom etdi. Narx-navoning oshishi taxminan olti oy ichida to‘xtatildi. 1950-yil boshiga kelib ishlab chiqarish urushdan oldingi darajadan oshib ketdi.

Iqtisodiy islohotning muvaffaqiyatli chiqishiga sabab nima? Uning asosiy sababi saqlanib qoligan moddiy bazaning mavjudligi, nisbatan arzon ishchi kuchi, aholining qondirilmagan talabining ishlab

chiqarishga faol ta'sir ko'rsatishi bo'ldi. Moliya va pul-kredit tizimining barqarorlashuvi muvaffaqiyatga erishishning zarur shart-sharoiti hisoblandi. Keyin AQSH va G'arbdagi boshqa rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi islohotning muvaffaqiyatli chiqishiga turki bo'ldi. Iqtisodiy yordam Marshall rejasi bo'yicha amalga oshirildi, shuningdek, oziq-ovqat, yoqilg'i, urug'lik, o'g'it boshqa yo'llar bilan ham yetkazib turildi. Germaniya iqtisodiyotiga Amerika transporti va Amerika armiyasining boshqa anjomlari keltirib berildi. Imtiyozli shartlar bilan Yevropa qayta tiklash dasturi Fondidan kreditlar ajratildi.



Alfred Myoller-Armak
(1901–1978)

Hukumatning boshqaruvi tizimini o'z qo'lida ushlab turishi, o'z vaqtida iqtisodiy kursni o'zgartira bilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Garchi o'zining iqtisodiy liberalizmga moyilligini yashirmagan bo'lsa ham, L.Erxard «sof» liberal bo'lgan emas. U tanlab olingen yo'ldan og'ib ketmaslik uchun davlat dastaklaridan keng foydalandi.

Davlat qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan tarmoqlarni, ayniqsa, toshko'mir sanoatini, metallurgiya, elektroenergetikani qo'llab-quvvatladi. Investorlarga va tadbirdorlarga soliq imtiyozlari yaratib berildi.

L.Erxard va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan islohot, Germaniya iqtisodiy taraqqiyoti uchun shart-sharoit yaratib berdi. U iqtisodiy qo'llanmalarga kiritildi va qarorlarni realizatsiya qilish, qayta tashkil etish vositalaridan va metodlaridan samarali foydalanish uchun qulay paytni topish namunasi sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, hech bir namuna real shart-sharoitlarni, maxsus xususiyatlarni hisobga olmagan holda universal yechim yoki tayyor sxema vazifasini o'tashi mumkin emas.

13.5. IJTIMOIY BOZOR XO'JALIGI KONSEPSIYASI

“Ijtimoiy bozor xo'jaligi” atamasini birinchi bor Kyoln universiteti qoshidagi iqtisodiy siyosat instituti direktori Alfred Myoller-Armak o'zining “Iqtisodiyotni tartiblash va bozor xo'jaligi” (1947)

asarida ishlatgan. Myoller-Armak “ijtimoiy tenglik” prinsipi bo‘yicha “bozor erkinligi” printsipini vaadolatli taqsimlashni birga qo‘sib olib borish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Unda raqobat kurashi natijasida qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan yuqori unum dorlik natijalari, ijtimoiy-siyosiy tadbirlar yordamida ham qo‘lga kiritilishi mumkinligi to‘g‘risidagi g‘oya ilgari suriladi. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi bo‘yicha tadqiqotlar V. Repke, L. Erxard, V. Oyken va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

Ijtimoiy bozor xo‘jaligi modelining keng tarqalishiga asosiy sabab, yuqori o‘sish sur’atini ta’milagan Erxardning samarali iqtisodiy siyosati hisoblanadi. Ikkinci jahon urushidan keyin GFR da olib borilgan bu siyosat o‘rtacha yo‘l atalmish siyosat hisoblanardi. U ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatishga, tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga, aholining o‘rtacha qatlamining turmush sharoitini yaxshilash uchun sharoit yaratib berishga yo‘naltirilgan.

V. Repke tavsifiga ko‘ra “ijtimoiy bozor xo‘jaligi” – bu “iqtisodiy insonparvarlik” tomon qo‘yilgan qadam. U o‘zining “insonparvarlik jamiyat” kitobida yozishicha, xo‘jalik yuritishning bu shakli kollektivizmga – personalizmni, hokimiyatning to‘planuviga – erkinlikni, markazlashuvga – markazlashmagan tizimni, tashkil etishga – o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishni qarshi qo‘yadi. V. Repkening fikriga qo‘silgan holda, L. Erxard xristian-demokratik ittifoqi (XDI) syezdida (1957 y.) GFRda “ijtimoiy bozor xo‘jaligining” ikkinchi bosqichi boshlanganligini tasdiqlab o‘tadi. Sal keyinroq 60-yillarning boshida o‘z nashrlarining birida L. Erxard aynan “erkin musobaqa, eng avvalo, ijtimoiy bozor xo‘jaligining asosiy unsuri hisoblanadi”, deb qayd qilib o‘tadi. 1965-yili XDI ning navbatdagi majlisida esa, L. Erxard GFRda “ijtimoiy bozor xo‘jaligini” yaratish dasturi tugallanganini, u mamlakatni “shakllangan jamiyatga” aylantirgani to‘g‘risida e’lon qiladi.

“Shakllangan jamiyat” doktrinasi L. Erxard va uning maslak-doshlarining fikriga ko‘ra, bu “ijtimoiy bozor xo‘jaligini” yaratish orqali erishish mumkin bo‘lgan eng qulay “tabiiy iqtisodiy tartib”ni topish. Unda ijtimoiy tuzum va ishlab chiqarish munosabatlarining beshta formasi (tipi) va sinfiy antagonizm to‘g‘risidagi marksistik g‘oyalar qat’iyan inkor etiladi. Mazkur doktrina V. Oykenning kishilik

jamiyatiga faqat “markaziy boshqaruv” va “erkin bozor xo‘jaligi” tiplari xos degan qoidaga asoslanadi.

Ijtimoiy bozor xo‘jaligida davlatning roli. Raqobat sharoitlari avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi, balki muayyan shart-sharoitlarning bo‘lishini taqozo etadi. Iqtisodiy tartib, Oykenning tasdiqlashicha, o‘zo‘zidan o‘rnatilmaydi, uni iqtisodiy faoliyat o‘zi keltirib chiqarmaydi. Uni davlat o‘rnatadi.

Iqtisodiy siyosat printsiplarini asoslab bergach, V.Oyken, davlat xo‘jalik – ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanmasligini, balki amal qilish qoidalariini o‘rnatishi va ularni hayotga tatbiq etishi kerakligini ko‘rsatib o‘tadi. Davlat to‘g‘ridan to‘g‘ri tartiblash yo‘li bilan hal qilib bo‘lmaydigan vazifalarini, iqtisodiyotga doimo aralashishni o‘z zimmasiga olmasligi kerak.

Bu yerda asosiy narsa, L.Erxard qayd qilib o‘tganidek, davlatning iqtisodiy faoliyati bilan xususiy tadbirkorlik o‘rtasida optimal nisbatni topishdir. Davlatning azaliy va bosh vazifasi fuqarolarga erkin amal qilish huquqini beruvchi qoidalarni ishlab chiqish. Davlatning roli, Repke-Erxard obrazli qilib ko‘rsatib bergenidek, futbor maydonidagi hakamga o‘xshaydi, u o‘yinchilar muayyan qoidaga amal qilyaptimi, yo‘qmi kuzatib boradi, lekin o‘zi bevosita o‘yinda ishtirok etishga haqi yo‘q. Boshqacha aytganda, davlat “ijtimoiy bozor xo‘jaligining” amal qilish shart-sharoitlarini qo‘llab-quvvatlab turishi uchun, erkin raqobat “qidalarini” kuzatib turishi, narxning tashkil topish shart-sharoitlarini nazorat qilib turishi, monopol narxlarning o‘rnatilishining oldini olishi, xususiy mulk muhofazasini kafolatlashi kerak.

Neoliberalizmning “ijtimoiy bozor xo‘jaligi” modeli barcha fuqarolarining ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda, farovonligini oshirishda ularga teng huquq va teng imkoniyatlarni yaratib berish bo‘yicha davlatning faol ijtimoiy funksiyasi g‘oyasiga asoslanadi. Bunda nafaqat jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasida aksionerlar sonining oshishi, balki barcha ijtimoiy institutlarning yuksak barqarorligi, mehnatkashlarning ertangi kunga bo‘lgan ishonchi va boshqalar nazarda tutiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy siyosat. Raqobatning ijtimoiy roli. Ijtimoiy bozor xo‘jaligida uyg‘un iqtisodiy va ijtimoiy siyosat amal qiladi. Ijtimoiy siyosatni qolgan barcha iqtisodiy siyosatning oddiy ilovasi sifatida qarash kerak emas, deb yozadi V.Oyken. Bu siyosat, eng

avvalo, iqtisodiy tartib siyosati bo‘lishi kerak. O‘z fikrini ifodalab, u ijtimoiy nuqtayi nazardan kerakli bo‘lmaidan narsaning o‘zi yo‘q, deb ta’kidlab o‘tadi. “Iqtisodiy siyosatning hech bir chora-tadbirlari yo‘qki, ular birdaniga bevosita yoki bilvosita ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarmagan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmaidan bo‘lsin”.

Iqtisodiy siyosatning vazifalari yuksak darajada faol va ular boshqa omillar bilan bir qatorda iqtisodiy hayotda aniqlovchi omil bo‘lishi kerak.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari o‘sib borishi bilan birga ijtimoiy siyosat (bozor iqtisodiyotining shart-sharoitlari va xususiyatlariga muvofiq) ish bilan bandlikni ta’minalash, mintaqalarda daromadlar tengsizligini tugatish, ancha yuqori ijtimoiy ta’minton, ishchilarining korxonalarini boshqarishda qatnashish tartibini takomillashtirish va boshqa muammolarni ilgari surdi.

Tartib tizimini takomillashtirish sifatida raqobat har tomonlama rivojlantirib boriladi. Raqobatni rivojlantirish muayyan institutsional shart-sharoitlarning bo‘lishini taqozo etadi. Bu shartlar monopolizm bilan kurashish, mayda va o‘rtta tadbirkorlikka ko‘maklashish, har bir kishiga o‘z qobiliyatini, ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlarni yaratib berish orqali qo‘llab-quvvatlab turiladi.

Raqobat iqtisodiy o‘sishga, mehnat unumdorligini oshirishga, texnika taraqqiyotiga olib keladi. Raqobat u mustaqil xo‘jalik yuritish vositasi, turli sohalarda optimal yechimlarini topishga rag‘batlan-tiruvchi kuch, kundalik turmush va dam olishni tashkil etish shakli sifatida ijtimoiy funksiyani ham bajaradi.

Klassik maktab va keyingi avlod vakillari “iqtisodiy jarayonlar “siyosiy” iqtisod sohasida kechishini, u boshqa, shu jumladan, siyosiy omillar ta’siriga uchrashini” unchalik hisobga olmagan, unga yetarlicha baholamagan.

Hozirgi davrda iqtisodiy erkinlik va ijtimoiyadolat to‘g‘risidagi tasavvur butunlay o‘zgargan. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi uchun, L.Erxard fikriga ko‘ra, “bozorda mutanosiblikni ushlab turishda nafaqat texnik, avtomatik mexanizmlar, balki ma’naviy, axloqiy tushunchalar ham muayyan ahamiyatga ega. Faqat erkin shakllanadigan baho orqali talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni ushlab turish ijtimoiy tuzumni oqlash yoki uning g‘oyaviy boyligini to‘ldirish uchun yetarli emas”.

Germaniya iqtisodiyoti rahbarlari o‘zlari olib borayotgan yo‘ning to‘g‘ri ekanligini asoslab berish uchun, shu jumladan neoliberallarning konsepsiya va takliflariga umuman mos kelmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun ijtimoiy bozor xo‘jaligining g‘oya va shiorlaridan keng va mohirona foydalandilar.

Hozirgi davrda Germaniyada ijtimoiy siyosatning quyidagi maqsadlari rasman shakllanmoqda:

- 1) ijtimoiy adolatni ta’minalash: yaratilgan boyliklarni jamiyat a’zolari o‘rtasida adolatli taqsimlash;
- 2) ijtimoiy himoya, ya’ni aholini ishsizlik, kasallik, baxtsiz voqealari ijtimoiy xatarlardan saqlash;
- 3) barcha ijtimoiy guruhlarning amal qilib turgan (ijtimoiy) tartibning bilan hamjihatligiga erishish.

13.6. MONETARIZM KONSEPSIYASI VA UNING ASOSIY QOIDALARI

1950–1960-yillar davomida keynschilik ta’limotiga qarshi monetarizm ta’limoti yuzaga keldi. Uning asosiy vakillaridan biri bu – Milton Fridmen. Uning ta’limoti keynschilikka qarama-qarshi go‘yadir. Keyns tomonidan yaratilgan konsepsiya pulga hech qanday rol o‘ynamagan va narxlarning tushishi uchun hech qanday ahamiyat kasb etmagan. Pulni yetkazib berish va narxlarning shakllanishi Keynsning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Ikkinchi jahon urushi davomida rivojlangan davlat g‘aznasi va qayta ta’minalash o‘rtasidagi kelishuvlarning birida shu narsaga kelishib olindi, ya’ni narxlarni eng past darajada saqlab turish uchun har qanday turdagini bondlarni sotib olish. Fidman buni bajarish uchun har qanday turdagini o‘zgarishlarni amalga oshirgan. Monetaristlar shuni ta’kidlab o‘tdiki, davlatning iqtisodiyotda pulni yetkazib berish siyosati muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun monetaristlarning asosiy muomosi pul hisoblangan.¹⁷¹



Milton Fridmen (1912-2006)

¹⁷¹ History of Economic Thought. Harry Landreth, David C. Colander. Fourth edition Houghton Mifflin Company Boston Toronto. P. 440.

Monetarizm iqtisodiy ta’limotlar tarixida keng tarqalgan mashhur va nufuzli oqimdir. Bu oqimning atoqli namoyandasi Chikago universitetining professori, iqtisodiy sohasida Nobel mukofoti sohibi **Milton Fridmen (1912–2006)** hisoblanadi. Monetaristlar ularni pul massasi bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun tadqiq qildilar. Monetarizm keynschilar ta’limotiga muqobil tarzda yuzaga kelgan bozor iqtisodiyotida pulni olqishlovchi nazariyadir.

Bozor mexanizmi ustunligiga asoslangan M.Fridmen nazariyasiga ko‘ra, erkinlik va xususiy tadbirkorlik o‘rtasida ichki bog‘liqlik mavjud. Faqat xo‘jalik erkinligi sharoitida siyosiy erkinlikka, iqtisodiy samaradorlikka va tenglikka erishish mumkin. Iqtisodiyotda nima qilish kerakligini millionlab kishilardan ko‘ra davlat amaldorlarining yaxshi bilishi dargumon, deydi M.Fridmen. Davlatning xo‘jalik jarayonlarga aralashuvi iqtisodiyotning o‘zini-o‘zi tartiblash tizimini buzishga olib keladi. Shuning uchun davlat pul va ishlab chiqarish barqarorligini ta’milagan holda, pul muomalasini nazorat qilish bilan cheklanmog‘i lozim.

Monetarizmning asosiy qoidalari. M. Fridmen konsepsiyasini tasavvur qilish uchun, uning tarafdorlari u yoki bu darajada qo‘llab-quvvatlagan asosiy qoidalarni ko‘rib chiqamiz.

Monetaristlar fikricha, bozor iqtisodiyoti o‘zining ichki xususiyatiga ko‘ra barqarorlikka, o‘zini o‘zi tartiblashga intiladi. Bozor raqobati tizimi mustahkam barqarorlikni ta’milaydi. Mabodo muvozanat buzilsa, baholar uni tuzatishning bosh vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nomutanosibliklarning vujudga kelishi, odatda, ichki sabablar natijasida emas, balki tashqaridan bo‘ladigan arashuvlar, davlat tartiblashidagi xatolar natijasi hisoblanadi.

Bozor xo‘jalingining barqarorligi to‘g‘risidagi ushbu qoida J.M. Keynsning iqtisodiyotiga davlat aralashuvining zarurligi to‘g‘risidagi tasdig‘iga qarshi qaratilgandir. Aynan ular (ma’muriy, baholar dastaklari emas, soliq tizimi emas) iqtisodiyotni a‘lo darajada barqarorlashtirishga qodir.

Agar J.M. Keyns budget siyosatini ancha aniq, tezkor va natijasini oldindan bilish mumkin bo‘lgan dastaklar sifatida baholagan bo‘lsa, M. Fridmen undan farqli ravishda, pul-kredit siyosatini ana shunday tavsiflaydi. Uningcha, (Keynsga qaraganda), pul–kredit siyosati iqtisodiy faollikni ancha kuchaytiradi. U pulni ishlab chiqarish, ish

bilan bandlik va baholarni aniqlashda yagona bosh omil sifatida qaraydi.


Pulning asosiy xususiyati uning likvidligida. Pulni xohlagan paytda almashtirish, unga har qanday tovarni sotib olish mumkin. M. Fridmen pul harakati (pul massasining o'sish sur'ati) va yalpi ichki mahsulot o'rtasida o'zaro chambarchas bog'liqlik amal qilishiga asoslanadi. Pul massasining o'sish sur'atining tezlashuvi yoki sekinlashuvi faol ish yuritishda, ishlab chiqarishning sikli tebranishida aks etiladi.

Gap shundaki, pul massasidagi o'zgarishlar natijasi asosiy iqtisodiy parametrlarda birdan aks ettirilmaydi, balki biroz vaqtidan keyin ta'siri bilinadi. Odatda, lag (vaqtincha o'zilish) bir necha oyni tashkil etadi. U shu narsani bildiradiki, pul massasidagi o'zgarishlar yalpi ichki mahsulotga birdan emas, balki bir oz vaqtidan (oydan) keyin ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun pul siyosati joriy tartibdagi samaraga va qisqa muddatli o'zgarishlarga mo'ljallangan bo'lmay, balki uzoq muddatli xarakterga ega.

13.7. IS-LM MODELI

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta'sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS-LM modeli yordamida bajariladi. IS-LM modeli birinchi marta 1937-yilda J.Xiks tomonidan Keynsning makroiqtisodiy konsepsiyasini izohlash uchun taklif etildi hamda 1949-yilda A.Xansenning "Monetar nazariya va fiskal siyosat" nomli kitobi nashr qilingandan so'ng keng yoyildi. Shu sababli bu model Xiks modeli yoki Xiks-Xansen modeli deb ham yuritiladi.

IS-LM modeli qisqa muddatli davrda ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste'mol, ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi. U makroko'lama milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga narxlar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqliknii tadqiq qilish, nima uchun ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishi izohlab berish uchun ishlatiladi.




15-rasm. IS-LM egri chizig‘i

IS egri chiziq – bu tovarlar bozoridagi muvozanat egri chizig‘idir. U o‘zida tovarlar bozoridagi muvozanatni ta’minlovchi, foiz stavkasi r ning va daromad Y ning barcha o‘zaro birlashuvini ko‘rsatadi, LM egri chizig‘i esa pul bozoridagi muvozanat shartlarini qondiruvchi r va Y ning o‘zaro birlashuvini beradi. IS va LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta **IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanatlilik** holatidir. Bu nuqta o‘zida shunday foiz stavkasi r ni va daromad darajasi V ni aniqlaydiki, qachonki ularda real xarajatlar rejalashtirilayotganligiga, real pul mablag‘lariga bo‘lgan talab ularning taklifiga baravar bo‘lgan bo‘lsa. Ya’ni mahsulotlar pul bozorida ham muvozanat shartlariga rioya qilinsa.

Keynschilar ko‘p o‘tmay monetaristlar bilan fikrimiz bir xil bo‘lib chiqadi deb o‘ylagan edi, lekin monetaristlar o‘zlarining tushunishlari bo‘yicha ulardan farq qilishgan. Bu muammo keyns-neoklassik tizimida qayta yechilgan va monetaristlar elastik bo‘lmagan LM egri chizig‘ini aytgan bo‘lsalar keynschilar esa elastik LM egri chizig‘ini tatbiq etganlar. Natijada, oxir oqibat bu atama taqdimotlarda, monetaristik va keynschilik ta’limoti birga keladigan neo-keynschilik IS-LM modeli deb yuritilib, ular faqatgina bir necha o‘lchovlar bilan farq qiladigan bo‘ldi.

13.8. AYIRBOSHLASH TENGLAMASI



M. Fridmen konsepsiyasi garchi o‘ziga xosligi bilan ajralib tursa ham, u pulning miqdoriy nazariyasiga asoslanadi. Pul massasi ko‘paysa, baholar o‘sadi, va aksincha, pul massasi kamaysa, baholar pasayadi, ya’ni boshqa barcha sharoitlar bir xil bo‘lganda tovarlarning baholari pul miqdoriga mutanosib tarzda o‘zgaradi.

Tovar aylanishini ta’minovchi naqd pul taxminan bir yillik daromadning o‘ndan bir qismini tashkil etadi, deb faraz qilaylik. Boshqacha aytganda, pul yiliga o’n marta aylanadi. Pul bir yilda 10 marta aylansa, unda misol uchun 10 mln. so‘mlik bir yillik daromadni (mahsulotni) sotish uchun muomalada 1 mln. so‘m bo‘lishi kerak. Agar muomaladagi pul miqdori 1 mln. so‘mdan 2 mln. so‘mga ortsa, unda (boshqa shartlar o‘zgarmagan holda) baholar ham ikki barobar oshadi.

Bunday bog‘liqlik, ya’ni muomaladagi pulning miqdori bilan mamlakat doirasida sotilgan tovar va xizmatlarning umumiyligi miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlik **Irving Fisherning ayirboshlash tenglamasida** ifodalanadi:

$$M \cdot V = P \cdot Q,$$

bu yerda, M – pul miqdori; V – muomaladagi pulning aylanish tezligi; R – baholar darajasi; Q – ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning miqdori.

Tenglamaning chap tomonidagi $M \cdot V$ jami ishlab chiqarilgan tovarni sotib olishga ketgan xaridorlarning umumiyligi sarflarini va pulning aylanish tezligini bildirsa, o‘ng tomonidagi $P \cdot Q$ esa, ushbu ayirboshlanadigan tovarlar miqdori va baholar darajasini bildirdi. Agar $M \cdot V$ bir yilda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarga sarflangan umumiyligi xarajatlar bo‘lsa, unda u nominal so‘f milliy mahsulotga (SMM) teng bo‘lishi kerak, ya’ni

$$SMM = P \cdot Q.$$

Ayirboshlash tenglamasi funksional bog‘liqliklarni ancha aniq tasavvur etishga imkon beradi. Agar pul massasi ortsasi yo (R) baholar, yo (Q) ishlab chiqarish miqdori o‘zgaradi.

Klassiklar muomaladagi pulning aylanish tezligi (V), va ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori (Q) pul massasi (M) o‘zgarishiga bog‘liq emas deb hisoblaganlar. Ularning fikriga ko‘ra, ishlab chiqarishning real miqdori davlatning mehnat resurslari holati bilan, ishlab chiqarish quvvatlari bilan aniqlanadi, pulning aylanish tezligi esa ishchilarga har yili to‘lanadigan ish haqi miqdoriga o‘xhash omillar bilan ifodalanadi.

Monetaristlar juda ko‘p amaliy materiallarga asoslangan holda (bu haqida yuqorida aytib o‘tildi) pul taklifi nominal SMM ishlab chiqarishda hal qiluvchi omil hisoblanadi, deb xulosa qiladilar.

Pulga bo‘lgan talab va taklif. Kishi bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z boyliklarini har xil shakllarda (pul, qimmatli qog‘ozlar, yer uchastkasi, ko‘chmas mulk va boshqa ko‘rinishlarda) saqlashi mumkin. Har kim o‘z boyligini ko‘paytirishga va aynan qaysi shaklda saqlash maqsadga muvofiq kelishiga intiladi.

Boylikning bir qismini pul shaklida ushlab turish maqsadga muvofiq. Negaki pul likvidli, unga har qanday tovar sotib olish mumkin.

M.Fridmen boylikning beshta asosiy shakllarini ajratib ko‘rsatib beradi: pullar, obligatsiyalar, aksiyalar, moddiy ne’matlar, inson kapitali. Bir shakldagi boylikning qimmati oshishi, ikkinchisining pasayishi mumkin. Shu bois, boylik shakllarining almashtirib turilishi, ularni sotish va sotib olish operatsiyalari doimo bo‘lib turadi. Odamlar o‘z boyliklarini ancha likvidli aktiv – pul shakllarida ushlab turishga harakat qiladilar. Pulga egalik qilish o‘z-o‘zidan daromad olib kelmaydi. Pul zaxirasi, bir tomondan, kundalik xarajatlar uchun kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aktivlarni pul shaklida saqlash muqobil daromad olish imkoniyatini yo‘qotadi. Yostiqning tagida, sandiqning tagida yotgan pullar ularning egalarini obligatsiyalarni sotib olish, tadbirkorlikka pul qo‘yish va boshqa yo‘llar bilan daromad topishdan mahrum etadi.

Keynschilardan farqli ravishda, monetaristlarning tasdiqlashicha, pulga bo‘lgan talab asosan ayirboshlash ehtiyojlari, boshqacha aytganda, transaksion sabablar bilan aniqlanadi. Savol tug‘iladi:

odamlar o‘z aktivlarining qancha qismini likvidli shaklida ushlab turishlari kerak? M.Fridmen bo‘yicha, tovar va xizmatlarni sotib olish uchun zarur bo‘lgan qismini. Kassa zaxirasisiz bo‘lishi mumkin emas, lekin kassada kamroq pul saqlash maqsadga muvofiqdir. Agar kassada pullari ko‘payib ketsa, odamlar ularni ko‘proq foiz yoki foyda keltiradigan aktivlarga aylantiradilar.

Agar baholarning (inflyatsiya) oshishi kutilsa, pulga talab kamayadi, aksincha, baholarning pasayishi kutilsa, pulga bo‘lgan talab kuchaydi. Pulga bo‘lgan talab foizga ham bog‘liq. Foiz oshganda pulga talab pasayadi. Lekin pulga bo‘lgan talab nafaqat foiz stavkasiga, balki M.Fridmen bo‘yicha, boshqa aktivlarning daromadlariga nisbatan pulning me’yorli foydaliligi ham bog‘liq. Uning me’yorli foydaliligi qancha yuqori bo‘lsa, pul talabi ham ko‘payadi.

Pulning muomaladagi miqdori uning taklifini bildiradi. Pul taklifi ancha o‘zgaruvchan bo‘ladi, u iqtisodiy omillar bilan aniqlanmaydi, balki tashqi ta’sirdan yuzaga keladi. Pul taklifi markaziy bank tomonidan, tijorat banklari beradigan kreditlar miqdori, qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bilan tartibga solinib turiladi. Pulga bo‘lgan talab va pul taklifi monetar muvozanatni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Bunda muvozanat ajralgan holda shakllanmaydi. Pul sektoridagi muvozanat tovar sektorida bo‘ladigan jarayonlar bilan uzviy bog‘langan.

Pul taklididagi o‘zgarishlarning YaIM bo‘lgan ta’sirini monetaristlar va keynschilar har xil tushuntiradi. Keyns bo‘yicha, pul-kredit siyosati (pul miqdorining o‘zgarishi) asosida foiz stavkasi yotadi, u investitsiyaga va yalpi talabga ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, u foiz stavkasi rolini juda oshirib yubormaslik kerakligini qayd qilib o‘tadi. Bundan tashqari, foiz stavkasining pasayishi investitsion talabning doimo o‘sishini keltirib chiqarmaydi (“investitsion tuzog‘i” sababli), pul massasining ko‘payishi esa foiz stavkasining pasayishini keltirib chiqarmasligi mumkin (“likvidlik tuzog‘i” sababli).

Monetar nazariyada pul talabi va taklifi asosiy hisoblanadi. Ular tovarlarga va investitsiyalarga bo‘lgan talabni pul oqimi (pul miqdori massasi)ga bog‘lab tushuntiradi. Pul massasining bir oz ko‘payishi tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni oshiradi, lekin pul talabining me’yordan oshib ketishi baholarning oshib ketishiga olib keladi.

Shuning uchun iqtisodiyotni tartiblovchi dastak sifatidagi baho mexanizmining amal qilishiga halaqit bermaslik kerak.

13.9. PUL MASSASI VA IQTISODIY SIKLLAR

M. Fridmen, Anna Shvarts bilan birga yozgan «Qo'shma Shtatlarning monetar tarixi (1867–1960 yil)» asarida katta hajmdagi materiallar yordamida pul massasining kuchayishi bilan iqtisodiy sikl fazalari o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatib berdi. U pul massasi o'sishning tezlashuvi yoki sekinlashuvini kuzatib, deyarli 100 yil mobaynida AQSH ning barcha xo'jalik dinamikasi pul massasi harakati bilan aniqlanib kelingan, degan xulosaga kelgan. Pul massasining o'sish sur'atining o'zgarishi ijtimoiy mahsulot o'sishida o'zgarish keltirib chiqaradi. Pul massasining yuqori o'sish choqqisi ishlab chiqarishning o'sishini, pul massasining quyi nuqtasi ishlab chiqarishning pasayishini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, pul massasi (muomaladagi pul miqdori) iqtisodiy hayotga iste'molchilar va firmalar sarf-xarajatlari orqali bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pul taklifining ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar faqat miqdor ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topmaydi. Pulning aylanishi va mahsulotlar miqdori doimiy bo'lganda pul taklifining o'zgarishi bahoga to'g'ri ta'sir ko'rsatadi: pul taklifi kuchayganda uning xarid qobiliyati pasayadi, ya'ni baho oshadi. Agar pul taklifining ko'payishi YaIM ko'payishi bilan birga olib borilsa, baholar oshmaydi.

Baholarning o'zini-o'zi tartiblab turishi va pullarning sotib olish qobiliyatining tenglashuvi natijasida pul sektori bilan tovar sektori o'rtasida zaruriy aloqa o'rnatiladi.

Pul massasini tartiblash (ko'paytirish) banklar tizimi orqali resurslarning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi, texnika taraqqiyotiga «yordam beradi», iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi.

Pul dastaklaridan nihoyatda ehtiyojkorlik bilan foydalanish kerak. Pul massasi bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida muvozanat bo'lishi zarur. Shu bois, M. Fridmen monetar qoidalarni qonun yo'li bilan belgilash taklifi bilan chiqdi, unga ko'ra real yalpi ichki mahsulotning o'sishi bir yilda 3 foizni tashkil etganda (AQSH uchun) pul massasining o'rtacha o'sish sur'ati 3–5 foiz miqdorida belgilanishi lozim. Bu iqtisodiyotda

faollikni keltirib chiqaradi. Agar pul taklifining ko‘payishi yiliga 3–5 foizdan oshib ketsa, inflyatsiyaning kuchayishiga olib keladi, agar pulning ko‘payishi 3–5 foizdan past bo‘lsa YaIM o‘sishi pasayadi.

M. Fridmen fikri bo‘yicha, Buyuk turg‘unlik davri qiyinchiliklari, eng avvalo, fedyeral rezerv tizimining (FRT) iqtisodiyotda pul miqdorining kamayib ketishini bartaraf etishga qurbi yetmaganligi bilan bog‘liq (fond bozorining sinishi va banklarning xonavayron bo‘lishi sababli). Pul massasining yetishmasligi esa talabga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, real ishlab chiqarish hajmi esa pasayib bordi. Bu yerda shu narsani aytish kerakki, monetaristlarning tanqidi behuda bo‘lgani yo‘q, u keyinchalik o‘z foydasini ko‘rsatadi. 1987-yil 19-oktabrda jahon miqqosida fond bozori sinishi kuzatildi. Ammo FRT va boshqa markaziy banklarning qat’iy xatti-harakati tezda o‘z samarasini berdi. Rag‘batlantiruvchi pul siyosati amalga oshirildi. Foiz stavkasi pasaydi, bu bank ishidagi sarosimani to‘xtatdi.

Monetar konsepsiyasining keynschilikdan farqi. Yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, pul siyosati pul talabi va uning taklifi o‘rtasida nisbat o‘rnatishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Pul taklifining o‘sishi (pulning o‘sish foizi), baholar barqarorlikni ta’minlaydigan darajada bo‘lishi lozim. M. Fridmen fikriga ko‘ra, bunday darajani aniqlash juda murakkab. Markaziy bank prognozlarida xatolar tez-tez uchrab turadi. Iqtisodiy rivojlanishga aynan qaysi omillar ta’sir ko‘rsatayotganligini aniqlash qiyin va hatto mumkin emas. Qabul qilinayotgan qarorlar kechikkan bo‘lishi va ba’zida qarama-qarshi natijalarni keltirib chiqarishi ham mumkin: masalan, ba‘zan ishlab chiqarishning o‘sishini rag‘batlantirish ko‘zda tutilganda, pasayish kelib chiqadi, ya’ni qabul qilingan qaror o‘sishga to‘sinqlik qiladi.

Markaziy bank qisqa muddatli tartiblashning konyunkturali siyosatdan voz kechishi va iqtisodiyotga o‘zoq muddatli ta’sir ko‘rsatish, pul massasini asta-sekin ko‘paytirib borish siyosatiga o‘tishi kerak. Pul massasi nominal YaIM ga ta’sir ko‘rsatadi.

Monetar konsepsiya va monetar tavsiyalar keynschilikdan farq qiladi, ba‘zan esa unga qarama-qarshidir. Shu bilan birga iqtisodiyotni tartiblash muammosidagi bu ikki yondashuv o‘rtasiga katta chegara qo‘yish ham noto‘g‘ri. Har ikkala nazariya, eng avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida qo‘llanishga qurilgan. Ma’lum ma’noda har ikkala nazariya birbirini o‘zaro to‘ldirib turadi (umumiyl daromadni

aniqlash nazariyasini tashkil etadi). J.M.Keyns daromadlarining xarajatlarga miqdoriy bog‘liqligini asoslab berdi, M.Fridmen esa daromadlarning pulga bog‘liqligini ko‘rsatib berdi. Shu bilan birga, J.M. Keyns va M.Fridmen yondashuvlari o‘rtasida ayrim farqlar mavjud. Ularning ba’zilarini umumiy sxemali ko‘rinishda aks ettirish mumkin:

7-jadval

Keyns va Fridman ta’limoti farqlanishi

Keyns	Fridmen
Davlatning bozor xo‘jaligiga aralashuvi zarur	Bozor o‘zini o‘zi tartiblashga qodir
Ish bilan bandlik yalpi talabga bog‘liq	Iqtisodiyot o‘zi ishlab chiqarish va ish bilan bandlik darajasini o‘rnatadi
Pul massasi ishlab chiqarishga nisbatan xolis (yomon ham, yaxshi ham ta’sir etmaydi)	Pul massasi – baholarning o‘sishi va konyunkturaning o‘zgarishi sababchisidir
Asosiy muammo – ishsizlik	Asosiy muammo – inflyatsiya
O‘zgaruvchan pul siyosati lozim	Barqaror pul siyosati zarur
Budget kamomadi – talabni rag‘batlantirish vositasi	Budget kamomadi – inflyatsiya sababchisi

Monetarizm ham, Keyschilik ham iqtisodiyotni tartiblash zarurligidan kelib chiqadi. Ularning nazariy tavsiyalari muayyan bir davrda qo‘l kelsa, boshqa davrda ish bermaydi. Shu bois, iqtisodiy vaziyat va sharoitlarga qarab ulardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

13.10. MONOPOLIYALARING SHAKLLANISHI

Monopoliyalarning vujudga kelishi qadimiy davrlarda qo‘l mehnatiga asoslangan manufakturalarning shakllanishi bilan bog‘liq. Sanoat sohasining paydo bo‘lishi va bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan barobar monopoliyalar turli shakllarda va turli darajalarda rivojlanib, o‘zlarini namoyon qildilar. Monopoliyaning yaqin tarixi XIX asrning uchinchi yarmiga (1873-yilda) to‘g‘ri keladi. Bu davr shu bilan ham tavsiflanadiki aynan monopoliyalashtirish

sababli iqtisodiyot inqiroz degan tushunchaga borligini anglatdi. Iqtisodiy adabiyotlarda shundan so‘ng monopoliyalarni “inqiroz farzandlari” deb atay boshlashgan.

Demak, XIX asrning oxirida bozor iqtisodiyoti birinchi marta monopoliya degan baloga qarshi turdi. U raqobat uchun haqiqiy xavf-xatar tug‘dirdi, u tufayli monopolistik shakldagi to‘silalar paydo bo‘ldi. XIX asrda monopoliya iqtisodiyotda monopoliashtirish jarayonining o‘sishi, va eng achinarlisi ularni tashkil etishda sherikchilik asosida olib borilishi bilan kechdi. Banklarning roli va ishtiroki, tizimlarining takomillashuvi, kapitalning markazlashtirilishi, kapitalistik uyushmalarning shakllanishi bular hammasi monopolianing yangi ko‘rinishlari bo‘ldi. Ushbu holatlarning barchasi zamonaviy kapitalizmning rivojlanishida mustaqil ahamiyatga ega edi.

Monopoliyalarni shakllantirishning ikki yo‘li mavjud: daromadlarni kapitalizatsiya qilish yoki qo‘shilish va sotib olish yo‘li bilan. So‘nggi paytlarda oxirgi usulning ustunligi mavjud.

XIX asrda kapitalni to‘planishi va markazlashtirishi usullari, ommaviy ishlab chiqarish uchun kapitalning samarali yo‘nalishini ta’minladi. Ishlab chiqarishning bir joyga to‘planishi, yangi yirik zavodlar va fabrikalar qurilishi kapitalistik mulkning chegaralarini keskin kengayishni talab qildi. Umumiy holda kapitalistik mulkning hajmini bunday tezkor ravishda kengaytirish yo‘llari oldin ham mavjud edi, lekin ishlab chiqarish kuchlarining jadal o‘sishi ta’siri ostida ular yanada kengaydi. Hatto ularning bugungi kungacha ahamiyati bor. Hozirda ular kapitalistik kompaniyalarning asosiy shakli bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlardir.

Monopoliyalarni rivojlantirishning banklar va boshqa moliyaviy institutlarning ishtiroki bilan bog‘liq. Ishlab chiqarish va kapitalning o‘sib borayotgan vaqtda banklarning rolini kengaytirish zarurati vujudga keldi, u muntazam takomillashib, sanoat korxonalarini uzoq muddatli kredit olish uchun mustahkam poydevorga aylandi. Banklar bilan mustahkam aloqalar iqtisodiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan taqdirda korxonalarini bankdan kredit olishga majbur qildi. Oddiy vositachilar rolini bajargan banklar kuchli monopolistlarga aylantirdi. Bu “ishlab chiqarish vositalarini taqsimlash”ning rasmiy shakli bo‘lgan monopoliyani yaratdi. Bank faoliyati monopolist kapitali manfaatiga mos keldi. Bank va sanoat kapitalining birlashishi moliyaviy kapitalni

yanada takomillashuviga va moliyaviy oligarxiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Kapitalning jadal o‘sishi, shuningdek, mustaqil kompaniyalarning birlashishi, markazlashuvning kuchayishini ta’minlandi. Kapitalni markazlashtirishning ushbu shakli ayniqsa AQSHda keng qo‘llanildi. AQSHda monopolistik birlashmalarning birinchi katta to‘lqinlari XIX asrning 90-yillarida va XX asrning boshlariga to‘g‘ri keldi. AQSHda shu davrda eng yirik kompaniyalar shakllanib, o‘ziga mamlakatdagi butun sanoatni bo‘ysundirishdi. Jumladan, metallurgiyada – “Standard Oil”, avtomobilsozlik sohasida – “General Motors” va boshqalar. 1929-33 yillardagi iqtisodiy inqiroz arafasida Qo‘shma Shtatlarda monopolistik birlashishning ikkinchi yirik to‘lqini paydo bo‘ldi. Alyuminiy sanoatida, shisha idishlar ishlab chiqarishda monopoliyalar shakllandi. Yevropa mamlakatlarida esa monopolizatsiyaning boshqa shakllari tashkil topdi. Bu davrda kartellar va sindikatlarning shakllanishi ayniqsa xarakterli bo‘ldi. Kartellar monopoliya shakli sifatida xalqaro maydonda keng tarqaldi. Bunday kapitalistik uyushmalar eng avvalo bozordagi ishtirok tizimiga asoslanib trest va konsernlar deb nom olishdi. Ularning boshida moliya institutlari (banklar, investitsiya kompaniyalari) turdi.

Konsernlarning shakllanishi turli ishlab chiqaruvchilarining birlashuvi tufayli yuzaga keldi. 1939-45 yilgi Ikkinchi jahon urushidan keyin ularning vujudga kelishi tasodif emas. Ko‘pgina amerikalik monopoliyalar sobiq filiallarni o‘z ichiga oldi, ya’ni ishtiroknii to‘g‘ridan to‘g‘ri markaziy nazorat bilan almashtirishdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin monopolistik uyushmalarining yangi shakllari, ya’ni konglomeratlar tashkil etish jarayoni yuzaga keldi. Qo‘shma Shtatlarda tashkil topgan konglomeratlarda sanoatning turli xil turlari birlashib, ular o‘rtasida yagona savdo shartlari tuzildi. Konglomeratlarning yaratilishi shuningdek XX asrning o‘rtalaridan boshlab olib borilgan tadqiqot va boshqaruva birlashmasining natijasi hamdir. Konglomeratlarda an’anaviy kapital bozorini to‘sib turadigan kapital oqimini bir sanoatdan ikkinchisiga o‘tkazish uchun shart-sharoitlar mavjuddir.

XX asrning ikkinchi yarmidagi monopoliyalarning muhim xarakteristikalaridan yana biri – bu ularning nafaqat mamlakat ichki savdo sohasida, balki xorijiy davlatlarda ham ishlab chiqarish

sohalarini o‘zida mujassamlashtirgan filiallarda bo‘ldi. Demak, monopoliyalar xalqaro maydonga chiqdilar. Bu milliy monopoliyalarning transmilliy korporatsiyalarga (TMK) aylantirilishidir. TMK larning iqtisodiy va moliyaviy kuchi jadal sur’atlar bilan o‘sib bordi: 1980-yillarning o‘rtalarida rivojlangan davlatlarning umumiylar yalpi mahsulotidagi ulushi 1/3 ni, jahon eksportida 40%, texnologik ayirboshlashda esa 80% ni tashkil etdi. Ba’zi TMKlar yillik aylanmasi bo‘yicha kichik davlatlarning yalpi ichki mahsulotidan ham oshdi. Bu ularning global iqtisodiyotdagi rolini orttirdi.

Monopolistik birlashmalarning barcha turlarini rivojlanishi barqaror ravishda mamlakatning milliy daromadlari va milliy boyliklarining ko‘p qismini yirik monopoliyalarning qo‘liga topshirilishiga olib keldi. Bu 1948-yilda ishlab chiqarish aktivlarining 48,3% va 1969-yilda 60,1% bo‘lgan eng yirik 200 AQSH ishlab chiqarish korporatsiyasining asosiy kapitallari ulushi to‘g‘risida statistika ma’lumotlari bilan tasdiqlanadi. Buyuk Britaniyada ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi 100 yirik firma qo‘lidagi kapital aktivlarining ulushi 1953-yilda 44 foizdan 1963-yilda jami aktivlarning 62 foizigacha o‘sdi.

“Mahsulot differensiatsiyasi” tushunchasining mohiyati. Mahsulotni differensiatsiya qilish – bu mutlaqo o‘xhash mahsulotlarni ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi, uni o‘rnini bosuvchi boshqa mahsulotlardan biron-bir jihat bilan mukammal ekanligi. Misol uchun, kimdir “Levis” jinsilarini, yana kimdir “Lee” ning jinsilarini afzal ko‘radi. Mahsulotni bozordan sotib olishda xaridorlar undan o‘zi istalgan iste’mol xususiyatini ko‘rishni istaydilar. Farqlanish – bu raqobat uchun kuchli iqtisodiy to‘siqdir, u huquqiy cheklovlar bilan birga ham kelishi mumkin.

Bir xil mahsulotni ishlab chiqaruvchi firma monopolistik raqobat sharoitida faoliyat yuritadi va uning mahsulotlariga bo‘lgan talabning gorizontal emas, vertikal chiziqli holatini yuzaga keltirishni xohlaydi, bu bilan u har bir tovarni qo‘srimcha boshqalardan ajratib turadigan belgini ishlab chiqarishga undaydi. Differensiya manbalari tabiiy bo‘lishi mumkin, masalan, rulonning o‘ng qirrali joylashuvindir. 50-yillarda Amerika avtoulovlarida baliq quyuqlariga o‘xhash mashhur orqa qanot kabi rasmlarni mavjud bo‘lishi kabidir.

E.Chemberlinning “Monopolistik raqobat nazariyasi” g‘oyasi.

Eduard Xastingz Chamberlin (1899–1967), mahsulotni ishlab chiqarishda monopoliya mavjudligidan kelib chiqqan holda “monopolistik raqobat” tushunchasini iqtisodiyot faniga taqdim etdi. Biz bilamizki, mahsulotni differensiallashtirish bo‘yicha monopoliya, boshqa firmalarning mahsulotlaridan farqli muayyan mahsulotni ishlab chiqarishga, bozorda qisman bo‘lsa ham vaziyatni o‘ziga burishga harakatida namoyon bo‘ladi. Bu mahsulotlarining narxini ko‘tarilishi davrida ham mijozlarni yo‘qotmaslik harakatida namoyon bo‘ladi (bu mukammal raqobat sharoitida nazariy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin).



E.Chamberlin (1899-1967)

Mahsulot bozorda turli xususiyatlar bilan emas, balki sotish shartlari, shuningdek, u bilan bog‘liq xizmatlar hamda joylashtirishga ko‘ra differensiatsiyalanish ham mavjud. Agar biz bunday monopoliyani ta’riflasak, unda u butun bozor tizimida mahsulot narxlarini o‘zi boshqarishi bilan ham e’tiborli. Ushbu guruh monopolistlarining kuchi chegaralangan, chunki tovarlarni yetkazib berishni nazorat qilish, qisman, o‘rnini bosadigan mahsulotlarning mavjudligi bilan amalga oshadi. Bu mahsulotning narxi bozor talab qilayotgan moslashuvchanlik bilan kechadi. Boshqacha aytganda, mahsulotni farqlanishdan kelib chiqib, biznes muvaffaqiyati faqat mahsulot bahosi va iste’mol sifati bilan emas, balki sotuvchining bozorda imtiyozli mavqega ega bo‘lishi bilan ham kechadi. Ya’ni monopolistik foyda, raqobatchilarning ishg‘ol qilinishidan himoyalanish va o‘zining mahsulotlariga mavjud bo‘lgan talabni oshirishi bilan ham kechishi mumkin.

Chamberlin muammoni yangi usulda beradi. Uning modelida talabning hajmi, uning mahsulotidan iste’molchilarning lazzatlanishi va oladigan nafliligini maksimallashtirish orqali amalga oshishi kabi parametrlarni oladi. Uning fikriga ko‘ra, deyarli barcha mahsulotlar ijtimoiy, ya’ni jamoatchilik fikri asosida yaratiladi. Shunday qilib, Chamberlin, narx, raqobatning hal qiluvchi vositasi emas, degan xulosaga keladi, chunki talabni yuzaga kelishida asosiy e’tibor bu reklama, mahsulot sifati va mijozlarni undan qoniqishidir.

Chamberlin narx va qiymatga yangicha yondashadi. Uning modelida ishlab chiqarishning optimal hajmi va shunga mos ravishda kompaniyani maksimal foyda bilan ta'minlaydigan narx darajasidir.

Chamberlin, monopolistik raqobat sharoitida firmalarning yuqori texnologik samaradorlikka ega bo'lishi va ishlab chiqarish hajmidan kamroq daromad olishini e'tirof etadi. Buning sababi shundaki, qo'shimcha mahsulotlarni sotish uchun kompaniya narxni pasaytirishi yoki ko'proq sotish uchun xarajatlarni oshirishga majbur bo'ladi.

Chemberlin "savdo xarajatlari" degan tushunchani kiritadiki, bu bilan u talabga moslashgan mahsulotni sotishda odatiy ishlab chiqarish xarajatlariga qaraganda boshqacha yo'naliшhga ega bo'lishini tushuntiradi. Bu xarajaatlarni biz hozirda reklama xarajatlari sifatida ta'riflaymiz.

J.Robinson "Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi" (1933 y.) Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi – bu ingliz iqtisodchisi Joan Robinsonning kitobi hisoblanadi. J. Robinson bu kitobda mukammal raqobat real iqtisodiyotni ideallashtiradi, deb ta'kidlaydi. Robinson konsepsiyasida ishlab chiqaruvchilar mahsulot narxlarini qo'yishda o'z ta'sir qilish qobiliyatiga ega ekanligi aytildi. Bu imkoniyat kompaniyaning o'ziga xos mavqeidan kelib chiqadi. Bu jarayonda boshqa firmalar bozorga kirishda "huquqiy to'siqlari" (bu atama Robinson tomonidan kiritilgan) tufayliadolatsiz raqobatga uchraydi. Robinson iqtisodni monopollashtirish ijtimoiyadolatsizdir, deb hisoblaydi. U ishlab chiqarish omillaridan foydalanganda, omillar tomonidan yaratilgan marginal qiymat nisbatan past qiymatda narxlanishini qayd etadi. Sanoat qanchalik monopollashtirilgan bo'lsa, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan omillar eksplutatsiyasi shunchalik darajada kuchli bo'ladi. Robinson ommaviy monopol ishlab chiqarishda omillarning nisbatan tejamkorlik darajasini ta'minlashini tan oladi. Ingliz iqtisodchisi, shuningdek, monopoliyada "narx diskriminatsiyasi" (bu atama ham Robinson tomonidan kiritilgan) ham mavjudligini tan oladi.

Tayanch so'z va iboralar: neoliberalizm, invidualizm, erkin iqtiodiyot, ijtimoyi bozor xo'jaligi, foiz, pul, ish haqi, iqtisodiy tizim, erkin raqobat, liberalizm, monetarism, pul, pulning likvidliligi, bozor erkinligi, ayrboshlash, foiz stavkasi, narx, pul massasi, pulga bo'lgan talab va taklif.

13-bob YUZASIDAN XULOSALAR

Keynschilik bilan barobar shakllangan nazariyalardan yana biri neoliberalizm nazariyasidir. Keynschilik ta’limoti davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini oqlagan bo‘lsa, neoliberalizm esa liberal g‘oya bilan davlatning uyg‘un holatda iqtisodiyotga aralashishini oqlagan oqimdir. Mazkur g‘oyalar hozirda ko‘p davlatlarda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishiga sababchi bo‘lgan deb aytsak bo‘ladi. Mazkur bobda biz neoliberalizmning Chikago (M.Fridman), London (F.Xaek), Frayburg (V.Oyken, L.Exard) maktablarini yoritib o‘tamiz.

Neoliberalizm keynschilik ta’limoti davrida yuzaga keldi, ammo davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ancha boshqacha talqin etiladi. Davlat «sport sudyasi» vazifasini bajarishi, ya’ni erkin iqtisodiyot qonun-qoidalarini tartibga solishi kerak xolos. Bu yo‘nalishning yirik uch markazi Germaniya, AKD1 va Angliya paydo bo‘ldi. Germaniya ijtimoiy bozor xo‘jaligi konsepsiysi ilgari surildi va amalda yaxshi natijalar berdi, davlat iqdisodiy siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ijtimoiy va boshqa mamlakatlarda, xususan, mustaqil Uzbekistonda ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Chikagoda paydo bo‘lgan monetarizm maktabi M. Fridman nomi bilan mashhur bo‘ldi, uning konsepsiyasidagi asosiy masala davlatning qattiqqo‘l pul siyosatidir, har yili konyunkturaga bog‘lanmagan holda pul massasini 3-4% oshirish taklif etiladi, bu yo‘l AKD1da yaxshi natija berdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Neoliberalizm nima ma’noni anglatadi?
2. Neoliberalizm konsepsiysi boshqa ta’limotlardan farqli jihatni nimada?
3. F.Xaek ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalarida asosiy o‘rinni nima egalladi?
4. V.Oyken “iqtisodiy tizim” tiplari qaysilar?
5. V.Oyken bozor xo‘jaligi ta’rafdoi edimi?
6. L.Exardning iqtisodiy islohotlari nimalarda namoyon bo‘ldi?
7. Ijtimoiy bozor xo‘jaligi konsepsiyasining hozirgi kundagi ahamiyati?
8. Monetarizm konsepsiysi nimada?
9. Monetarizmning asosiy qoidalarini aytib bering.

14-bob. HOZIRGI ZAMON IQTISODIY TA'LIMOTLAR EVOLYUTSIYASI

14.1. ISHSIZLIK, INFLYATSIYA VA INQIROZ MUAMMOLARINING IQTISODIY G'YALARDADA AKS ETTIRILISHI

Ishsizlik muammolarini ilmiy o'rganmasdan mehnat bozori va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Ishsizlik – bu, bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir.

Shunday ekan, ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad – aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Odatda, jahon mamlakatlari ishsizlik tushunchasini BMT, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish jamiyatni talablariga ko'ra ishlab chiqishadi. Xalqaro mehnat tashkilotining 13-konvensiyasi ta'rifiga ko'ra «ishsiz shaxslar» deganda, – ish joylariga ega bo'lmagan, ishlashga tayyor va ish izlayotgan fuqarolar tushuniladi. Mana shu asosiy shartlarga rioya qilgan holda, turli mamlakatlarda fuqaroni ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun qo'shimcha shartlar talab qilinadi.

Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida so'nggi bir hafta mobaynida ish bilan band bo'lmagan, so'nggi to'rt hafta davomida ishga joylashishga (bevosita ish beruvchiga yoki ish bilan ta'minlash davlat xizmatiga murojaat etish orqali) harakat qilgan, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lган fuqarolar ishsiz shaxs deb e'tirof etiladilar¹⁷².

Yaponiyada ishsiz shaxs deb so'nggi bir hafta davomida bir soat ham ishlamagan, Buyuk Britaniyada esa, so'nggi bir hafta mobaynida ishlamagan, shu davr mobaynida ish qidirgan yoki kasalligi tufayli ish qidirish imkoniyatiga ega bo'lmagan fuqarolar tushuniladi.

Ayrim mamlakatlarning qonun hujjalari binoan ishsiz deb, ishdan bo'shatilgan va mehnat stajiga ega bo'lганlar tushuniladi.

Bandlik va ishsizlik muammolarini D.Keyns, P.Samuelson, A.Ouen, R.Kempbell, Makkonel Stenli, L.Bryu, A.Fisher va boshqalar o'rgangan.

Keyns bo'yicha ishsizlik tovar va xizmatlarga samarali talabning yo'qligi sababli ishlab chiqarishning to'xtab qolish holida yuz beradi deb

¹⁷² Manba: Internet tarmog'ining <http://www.ilo.org> va <http://www.indexmundi.com> veb saytlari ma'lumotlaridan olindi.

hisoblagan. Ishsizlik pul-kredit yoki davlatning soliq-budget siyosati orqali pasaytirish mumkin deb hisoblaydi¹⁷³.

Amerikalik iqtisodchi olim Artur Ouken notabiyy yoki davriy ishsizlikning salbiy ta'sirga ega ekanligini matematik holda isbotlab berdi. A.Ouchen qonuniga ko'ra, ishsizlikning tabiiy darajasi 1 foizga oshganda yalpi milliy mahsulot 2,5 foizga kamayadi¹⁷⁴.

Inqiroz bo'yicha nazariyalar. Inqiroz Avstriya iqtisodiy maktabi vakillari tomonidan o'rganilgan bo'lib, u "xato amalga oshirilgan investitsiyalar" deb tan olinib, ortiqcha investitsiya takror ishlab chiqarishning zo'riqishiga olib kelishini aytib o'tishgan. Bunday xatoliklarni investorlar asosan xato axborot tufayli amalga oshiradi. Bunday axborotlar qatorida birinchi o'rinda resurslar bozoridagi narxlarning noto'g'ri talqin qilinishidir. Ishlab chiqarishni kengaytirishning yagona yo'li kredit evaziga uni tashkil qilishdir. Kredit ish faoliyatini o'ylab amalga oshirishga sababchi bo'ladi, shu sababli u xatolarni ko'ra olmaydi deb hisoblanadi. Demak, inqiroz pul bozoridagi konyunkturaning nostabil holatidir.

Karl Marks, XVIII asrning oxirigacha hech qanday ishlab chiqarish revolyutsiyasi bo'lмаган, shu sababli hech qanday inqiroz yuz bermagan deydi. Marks inqiroz kapitalistik iqtisodning oqibatidir deydi. Inqiroz sababi sifatida u talabdan ko'ra ishlab chiqarish mahsulotlarining ko'p bo'lishi holatini aytib o'tgan. Chunki ishlab chiqaruvchi ko'proq foyda olaman deb ishlab chiqarish hajmini oshirib yuboradi.

Shu bilan birga iqtisodiy fanda inqirozning sababi psixologik omillar bo'lishi mumkinligini ta'kidlovchilar ham topiladi. Ular qatorida XIX asrda ijod qilgan Dj.Mill ham bor, uningcha insonning ruhiy holati inqirozga olib keladi¹⁷⁵. Insonlar vahimasi tufayli kredit olish darajasi pasayadi va uning oqibatida iqtisodda inqiroz holati yuz beradi deb hisoblaydi. A.Grinspen bo'lsa insonning noratsional optimizm xarakteri aktivlar qiymatini ko'tarib yuboradi, bu bilan to'satdan va uzoq muddatli pasayish kuzatilishini aytadi¹⁷⁶.

¹⁷³ Manba https://dic.academic.ru/dic.nsf/econ_dict/20585 sayti


¹⁷⁴ Xolmo'minov Sh.R., Shoyusupova N.T., Xolmurotov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti. (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2006. 78–79-betlar.

¹⁷⁵ Mills, J. 1868. On Credit Cycles and the Origin of Commercial Panics. Transactions of the Manchester Statistical Society 1867—1868: 5-40.

¹⁷⁶ Гринспен, А. 2009. Эпоха потрясений. Проблемы и перспективы ми-ровой финансовой системы. –М.: Альпина Бизнес Букс.2009. С. 441—442.

14.2. INFLYATSIYA VA ISHSIZLIK O'RTASIDAGI BOG'LQLIK. FILLIPS EGRI CHIZIG'I


Iqtisodiyot o'z rivojlanishini potensial darajada ushlab turish uchun bandlilik darajasini oshirish yoxud inflyatsiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo'ladi. Chunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasida teskari bog'lilik mavjud. Ishsizlikni pasaytirish ish joylarini yaratish uchun qo'shimcha mablag'lar ajratilishini anglatadi. Ayni paytda bu ish haqi miqdorining oshishiga ham olib keladi. Har ikkala holatda ham baholar darajasining ko'tarilishiga olib keladi, ya'ni talab inflyatsiyasi ro'y beradi.



O.Fillips (1914-1975)

Ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'lilik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan va **Fillips egri chizig'i** (16-rasm) deb ataladi.

Fillips egri chizig'i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasidagi teskari bog'lilikni xarakterlaydi.



16-rasm. Fillips egri chizig'i

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko'ra, shuningdek, inflyatsiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig'idagi

inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilish mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflyatsiyaning sur'atiga bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlikning har qanday darajasida (sur'ati past bo'lgan inflyatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyatsiya darajasi yuqori bo'ladi. Ishsizlik darajasi va inflyatsiya sur'atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\pi = \pi_{\text{kut}} + f \left(\frac{Y_h - Y_p}{Y_p} \right) + \epsilon$$

Bu yerda: π – inflyatsiyaning haqiqiy darajasi; π_{kut} – inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi;

$$f \left(\frac{Y_h - Y_p}{Y_p} \right) + \epsilon \text{ – talab inflyatsiyasi;}$$

f – Fillips egri chizig'inining og'ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsent;

ϵ – tashqi baho shoki (taklif inflyatsiyasi).

Oukan qonuniga ko'ra YaIMning uzilishi, ya'ni $(Y_h - Y_p) / Y_p$ miqdor davriy ishsizlikning o'zgarishiga bog'liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig'ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\pi = \pi_{\text{kut}} - \beta [u - u^*] + \epsilon$$

Keltirilgan tenglamadan ko'rilib turibdiki, haqiqiy inflyatsiya darajasi miqdori kutilayotgan inflyatsiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog'liqlikka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlash mumkin.

14.3. P.SAMUELSONNING IQTISODIY G‘OYALARI VA “NEOKLASSIK SINTEZ” KONSEPSIYASI. “EKONOMIKS” ASARI

Pol Entoni Samuelson (1915–2009) – Amerika iqtisodchisi, iqtisodiy fanlar sohasida tahlil qilishning umumiylar darajasini rivojlantirish qaratilgan statik va dinamik iqtisodiy nazariyani ishlab chiqish bo‘yicha iqtisod bo‘yicha Nobel mukofoti (1970) lauriyati¹⁷⁷.

U 1948-yilda nashr etilgan “Iqtisodiyot: kirish tahlili” deb nomlangan eng mashhur kitobning muallifi. Bu asar keynsianizm tamoyillarini tushuntiruvchi ikkinchi Amerika kitobi edi. Hozirgi kunga qadar bu kitob 19 marta nashrdan chiqib, butun dunyo bo‘ylab sotuvlar soni 4 million nusxaga etdi, kitob 40 tilga tarjima qilindi. Massachusetts Texnologiyalar Institutining iqtisod professori Jeyms Poterbaru enning ta’kidlashicha, Samuelson o‘zining kitoblari bilan zamonaviy iqtisod nazariyasida buyuk tadqiqotchi va pedagog sifatida "katta meros qoldirdi".

Pol Samuelson Indiana Shtatining Gari shahridagi po‘lat temir shaharchasida, yahudiy immigrantlardan bo‘lgan polshalik dorixonachi Frank Samuelson va Pola Ella Lipton oilasida tug‘ilgan. 1935-yilda Chikago universitetida o‘qib, bakalavr darajasini oldi. 1936-yilda magistr darajasiga, 1941-yilda esa Garvard universitetida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Massachusetts Texnologiya Instituti professori bo‘lib ishladi. 1948-yilda u Guggenheim stipendiyasini oldi. 1960-yillarda u prezident J.Kennedi va L.Jonsonning iqtisodiy maslahatchisi bo‘lib ishladi.

1965-68-yillar xalqaro iqtisodiy assotsiatsiya prezidenti. 1952-yili ekonometrik jamiyatning prezidenti. 1960-yili Britaniya akademiyasining a’zosi. 1961-yil Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi prezidenti. 1947-yili J. B. Klark, 1996-yili Amerika Qo‘shma Shtatlarining Milliy medallari bilan taqdirlangan.



Pol Entoni Samuelson (1915–2009)

¹⁷⁷ Winners of the Nobel Prize for Economics. Encyclopædia Britannica.

2009-yil 13-dekabrda Massachusetts Shtatidagi Belmont shahrida o‘z uyda olamdan o‘tdi.

“Neoklassik sintez” (neoklassik mikroekonomika va keynesianlik makroiqtisodiyotni bir-biriga birlashtirishi natijasida vujudga kelgan) va neo-keyneschilik yo‘nalishlarining asoschilaridan biri hisoblanadi.

1961-yilda Samuelson 1984-yildan 1997-yilgacha Sovet Ittifoqi iqtisodiyoti hajmi bo‘yicha Amerika Qo‘shma Shtatlaridan o‘zib ketishini taxmin qilgandi (prognoz oqlanmadi).

P.Samuelsonning “Ekonomiks” asari. Pol Samuelson “Ekonomiks” asari ikki qismga bo‘lingan: Birinchi qismda iqtisodchilarning iqtisodiyot nazariyalari sharhi. Bunda qadimgi davrdan to hozirgi davrgacha bo‘lgan iqtisodiyot g‘oyalari yoritilgan. Ikkinci qismda esa o‘zining shaxsiy iqtisodiy qarashlari.

“Ekonomiks” asarining birinchi qismida iqtisodiy tarixni sof va tizimli tahlilini amalga oshirgan. Jumladan, uningcha iqtisodiyotning vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Zamonlar osha iqtisodiy evolyutsiya yuzaga kelgan, u sekin-asta murakkablashib hozirgi zamon ko‘rinishiga kelgan. Boshqa iqtisodchilarga qaraganda Samuelson o‘z iqtisodiy nazariyasini logik mazmunga egaligini tan oladi. Samuelson biror-bir nazariyaga ustunroq qaramaydi, balki amaliy yechimlarda barchasini birqalikda ko‘rib chiqish tarafdoi bo‘lgan.

Samuelson “Ekonomiks”ning ikkinchi qismda zamonaviy jahon iqtisodiyotini tahlilini amalga oshirdi. Iqtisodiyotni tartibga solishdagi to‘sinqilik qiluvchi muammolari sifatida quyidagilarni keltiradi: inflyatsiya (uni o‘sish darajasini pasaytirish lozim); ishsizlik (uni ham o‘sish darajasini pasaytirish lozim); iqtisodiy taraqqiyotning muvozanatli va tezlashtirgan rivojlanishiga erishish. Ularning yechimi bo‘yicha barcha ishlab chiqilgan g‘oyalarni – monetarizmdan keynschilikka qadar ko‘rib o‘tish lozim deb hisoblaydi. U g‘oylarni sintez qilish lozimligini aytadi, chunki ularni alohida alohida ishlashi hech qanday natija bermasligini aytadi. Samuelson tahlilda keng miqyosda turli usullarni: fiskaldan tortib siyosiy usulgacha qo‘llash lozimligini aytadi. Bunda eng asosiysi inflyatsiya oqibatlarini kamaytirish, qayta ishlab chiqarish inqirozini va ishsizlik oqibatlarini pasaytirishni amalga oshirish lozimligini aytadi. Demak, u barqaror rivojlanish konsepsiysi tarafdoi bo‘lgan. Mikro va makroiqtisodiyot

qo'shilmasi iqtisodiyot tizimini butunligini ta'minlaydi degan. Faqat ularning birgalikdagi tahlili kechayotgan iqtisodiy jarayonlarga javob bo'la oladi, deb hisoblagan. Iqtisodiyot o'z o'zini tartiblovchi tizim ekanligiga qaramasdan, davlat aralashuvi zarurligini aytadi.

"Ekonomiks" asarining xulosa qismida iqtisodiyotni fan sifatida rivojlantirish lozimligini aytadi. Asosiy maqsad xalq farovonligini ta'minlash deb belgilangan. Ilmiy-texnik taraqqiyot va fan-texnika inqilobining yuz berishi, hayot darajasini ko'tarilishi va o'lim darajasining kamayishi iqtisodiyotning maqsadidir deydi. P.Samuelsonning asosiy yutug'i uni turli iqtisodiy nazariyalarni birlashtirgani va neoklassik tahlil nazariyasini fanga kiritgani hisoblanadi. Bu bilan u zamonaviy iqtisodiyotga baza yaratdi¹⁷⁸.

Neoklassik sintez (neoklassik sintez) – neoklassik va Keynes mакtablarining nazariy qarashlarini birlashtirgan iqtisodiyotdagи ilmiy yo'naliш. Sintezning mikroekonomik tarkibiy qismi neoklassik ta'limga asoslansa va makroiqtisodiy konsepsiya J.M. Keynnesning g'oyalariga tayanadi. Bu yo'naliш XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga keldi va hozirgi vaqtدا iqtisodiy yo'naliшlarda dominant rolga egadir.

Neoklassik sintez nazariyasi dualistik yondashuv sifatida, ya'ni neoklassik mikroanaliz va Keys makroanalizi tamoyillari qo'shilmasi deb qaraladi. Mikrotahlilda erkin raqobatli bozorda iste'molchi hal qiluvchi rol o'ynashi tan oladi. Bundan tashqari, mikroanalizda narxlarning moslashuvchanligiga yo'l qo'yiladi.

Yakka tartibda bu nazariyalar bir-biriga zid edi: neoklassiklar bozor iqtisodiyoti resurslarni to'g'ri taqsimlanishiga sababchi bo'ladi desa, Keys, davlat tartibga solmagan bozor resurslari optimal taqsimlanmaydi yoki to'la ish bilan bandlikni ta'minlay olmaydi, deydi. Biroq, qarama-qarshi nazariyalar (Keys va neoklassik nazariya) mакtabining har biri mahorati bo'yicha juda istiqbolli edi. Neoklassik nazariya aniq bir tizimga ega bilimlar manbai, Keynschilik nazariyasi esa inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun retseptlarga boy mакtab bo'lган.

Neoklassik sintezga ko'ra, ish bilan to'liq band bo'lmасlikning asosiy sababi ish haqining moslashuvchan emasligidir. To'liq bandlikni

¹⁷⁸ А.Н.Кошелев. Краткий курс по истории экономических учений: учебное пособие. М.: Издательство «Окей-книга», 2008. Стр.138-140.

ta'minlashga erishish uchun ish haqi miqdorini tadbirkorlar yollashi mumkin bo'lgan darajagacha tushirish kerak. Bunda narxlarni oshirish, nominal ish haqini oshirish va real ish haqini pasaytirish orqali erishish mumkin. Biroq, bunday ssenariyni amalga oshirish faqat xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan nomutanosiblik va haqiqiy qiymatlar o'rtaсидаги farqni ajratmagan holda, ratsionallik va xabardorlik prinsipiga zid kelmagan hollardagina qo'llash mumkin.

14.4. ZAMONAVIY INSTITUTSIONALIZM

Zamonaviy institutsionalizm dastlabki institutsionalizmning yo'nalishini metodologik xususiyatlarini va o'rganayotgan muammolarini saqlab qoldi. Dastlabki va keyingi institutsionalizmning o'xshash jihatlari bo'lib:

- tadqiqotga evolyutsion yondashuv, tarixiylik tamoyilini qo'llanilishi, jamoaviy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlarini sifatida qaralishi bo'ldi;
- iqtisodiy fanni kengroq yoritish. Bunda har qanday vaziyat iqtisodiy bo'lмаган (psixologik, huquqiy, ijtimoiy, siyosiy) omillar evaziga xo'jalik yuritish sohasiga ta'sirining tahlilini oshirish. Demak, iqtisodiyot nazariyasini turli fanlar yutuqlarini qo'shgan holda qo'llash lozimligi ta'kidlanadi;
- “iqtisodiy odamga” emas, balki real iqtisodiyotga diqqatni qaratish, demak individual emas, balki jamoaviy faoliyatni tadqiq etish;
- resurslar bozoridagi mexanizmlarni universal holatda emas, balki neytral qarashni shakllanishini ta'kidlanadi;
- iqtisodiyot ustida ijtimoiy nazaratni olib borishni talab qilish, davlat nazaratidagi muammolarining tahlilini amalga oshirish.


Zamonaviy institutsionalizmning esa o'ziga xos xususiyatlari bo'lib:

- XIX–XX asrga nisbatan o'zgargan iqtisodiy va ijtimoiy borliq tahlili;
- xukumat va siyosat savollariga qiziqishning kengayishi. Ungacha iqtisod boshqa fanlardan xoli deb hisoblangan;
- kapitalizmni tanqid qilish ikkinchi darajali bo'lib qolganligi;
- industrial, postindustrial, axborot, texnologik jamiyatni keng targ'ib qilinishi;

– texnika taraqqiyotidagi o‘zgarishlarga diqqatni qaratish.

Demak, zamonaviy institutsonalizm oldingisiga qaraganda ancha o‘zgargan, uning konsepsiyalari texnokrat jamiyatga, kapitalizmdan yangi jamiyatga o‘tishga, ijtimoiy yo‘nalganlikda deb ko‘rsatsa bo‘ladi.

Zamonaviy institutsiolist vakillari. Amerikalik iqtisodchi **Elvin Toffler** (1928–2016) o‘zining “Kelajak bilan to‘qnashuv” (1970), “Uchinchi to‘lqin” (1980 y.) asarlari bilan superindustrial jamiyat nazariyasini yaratdi. U o‘z asarida jamiyat rivojlanishining “to‘lqin”lari: birinchisi – qishloq xo‘jaligi, ikkinchisi – sanoat, uchinchisi – ilmiy-texnik inqilobni tahlil qildi. Bunda u “uchinchi to‘lqin” industrial jamiyatdan superindustrial hisoblanilgan sifatiy bosqichga ko‘chishini aytib, bunda ilmiy va axborot o‘zgarishlari ijtimoiy hayotni qayta tashkil etilishiga sababchi bo‘ladi, deydi. Toffler, G‘arbning rivojlangan davlatlari superindustrial jamiyatning birinchi bosqichida deb hisoblagan.



Elvin Toffler (1928–2016)

Ilmiy-texnik va axborot taraqqiyotining keyingi rivojlanishi hayot tezligini yanada oshiradi, ya’ni ular o‘rtasidagi munosabatlар (internet rivojlanishi sababli) qisqaradi, kasblarning o‘zgarishi odatiy holga aylanadi, mahsulotlarning hayotiylik sikli qisqaradi, bir martalik ishlatiladigan tovarlar ko‘payadi, xizmatlar sohasi yetakchilik qiladi deb hisoblagan. Buning oqibatida shaxsiy o‘zgarishlar yangi shartlarni kasb etadi, insonlar o‘z kasblarini o‘zgartirishi tezlashadi degan. Eng asosiysi psixologik qoniqish, foydalilikni maksimallashtirishga qaratiladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot, Toffler fikricha, yangi global va ijtimoiy ziddiyatlar o‘zgarishlariga olib keladi. “Ekspazm” atamaning ishlatilishi inqiroz holatlarga ijtimoiy hayotning javobidir deb hisobladi. Bunda ijodiy kuchlar jamiyat hayotida o‘zgarishlarni vujudga keltiradi va iqtisodiy rivojlanish darajasi yangisi bilan almashishiga olib keladi. Toffler milliy xo‘jalik hayotidagi barcha o‘zgarishlar rejali va davlat nazorati ostida bo‘ladi deb hisoblaydi. U transnatsional siyosiy harakatlar yuzaga kelayotgan jarayonlarni

nazoratga ola olishini, tabiatni ochlik va kasalliklar kabi zararli holatlari bilan kurashishiga sababchi bo‘lishini aytadi.

Ijtimoiy-institutsional analizni fransiyalik iqtisodchi va jamiyatshunos **Fransua Perru** (1903–1987) “XX asr iqtisodiyoti” (1961) asari orqali davom ettirdi. U uch iqtisod tamoyilini shakllantirdi, ularni milliy xo‘jalikning keyingi rivojlanish davri deb bilgan. Uning dominant iqtisodiyoti zamonaviy kapitalizmdir. Garmoniyalashgan (har taraflama moslashgan) jamiyat zamonaviy kapitalizm tizimining yangi ko‘rinishi deb bildi, unda ishlab chiqarish har qanday odamning ehtiyojlarini qondiradi deb hisoblaydi.


Fransua Perru
(1903–1987)

Perru fikricha, birinchi davrda iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi munosabat shakli va mohiyatini o‘zgartira oladigan dominant iqtisodiyot vujudga kelgan. Reallikda erkin ishlab chiqarish va raqobat yo‘q, faqat dominant bo‘lgan ishlab chiqarishlar mavjud, ular doimiy o‘sishga ega, uning ta’siri jahon iqtisodiyotiga qaratiladi. Tajovuzkor raqobat yengib o‘tiladi, xo‘jalik faoliyati globallashuv tomon siljiydi. Dominant korxonalar mayda korxonalarni o‘z domiga tortib, ularni o‘z ehtiyojlari yo‘lida ishlatsishadi. Natijada mikrobirlik vujudga keladi. Dominant korxonalar atrofida ularga yordamchi rivojlanayotgan tarmoqlar to‘planadi, ular milliy iqtisodiyotni o‘zgartira oladigan darajada bo‘ladi.

Dominant iqtisodiyot keyinchalik garmonik o‘sish iqtisodiyoti bilan almashadi. U iqtisodiyot rivojlanishida va taraqqiyot yo‘lidagi yechimlarni (derektiv, indikativ, dasturiy rejalarini bajarishda) qabul qilishda davlatning etakchilik rolini tan oladi. Perru bu o‘rinda iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyati davlat tomonidan o‘tkazilayotgan siyosatda deb bildi. Mazkur rivojlanish bosqichida real YaIMning hajmini maksimallashtirish, tarmoqlar orasidagi taqsimotlarni kamaytirish va iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar uchun xizmat qilishida deb bildi.

Keyingi bosqich global iqtisodiyotdir. Unda jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy kelishmovchiliklari yo‘qoladi, har bir insonning qiziqish va ehtiyojlarini qondiradigan xo‘jalik tashkil qilinadi. Bu bosqichda xo‘jalik va huquqiy institutlarning asosiy yo‘nalishlarida o‘zgarishlar

yuz beradi, davlatning sud qiluvchi roli oshadi. Perru ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni foyda tabiatini (xususiy mulkdan olinadigan foyda asosan tashkiliy, ijodiy yangilanishga sarflanadi) va iqtisodiy faoliyat motivlarni (o‘z-o‘zini yaxshi ko‘rish boshqalarga yordam berish bilan o‘zgaradi) o‘zgartirish orqali tekislash kerakligini ta’kidlaydi.

14.5. IQTISODIY TARAQQIYOTNING TO‘RT G‘ILDIRAGI

Nima uchun ayrim mamlakatlar kambag‘alligicha qolmoqda, boshqalari esa boyib bormoqda? Bu savolga javobni biz asosan davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar, millionlab odamlarning turush darajasi orqali qidiramiz. Bu savol logik xarakterga ega. Ba’zi kuzatishlar bilan boshlaylik. Agar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning traektoriyalarini qarasangiz, ular ikki omilda bir-biridan farq qilganligini ko‘rasiz. Birinchisi, o‘sish sur’ati. Ikkinchisi, islohotlarning o‘zgaruvchanligi, hajmi va miqdori. Iqtisodiy o‘sish ikkala omilga chambarchas bog‘liq. Bu yerda iqtisodiy o‘sish uchun mas’ul bo‘lgan ikki asosiy kuchni ajratish kerak. Birinchisi, deyarli har doim ishlaydigan tizimli kuchlardir. Ikkinchisi esa vaqtiga bilan ro‘y bergen shok yoki inqiroz, ular orasidagi vaqt oralig‘i turlicha bo‘lishi mumkin, turli davrlar va muddatlarda sodir bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ular iqtisodiy o‘sish sur’atlarini kamaytiradigan holda ham bo‘lishi mumkin.

Tizimli kuchlaridan boshlaylik. Potensial, universal va uzoq muddatli o‘sish impulsi bu innovatsiyalardir. Tizimli innovatsiyalarsiz uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish bo‘lmaydi. Tizimli innovatsiyalarning boshlanishi Buyuk Britaniyada 300 yil oldin – iqtisodiy o‘sishning boshlanishida qayd etildi. Lekin nima sababdan ayrim mamlakatlar alohida innovatsiyalar bilan ajralib turadi, boshqalari esa iqtisodda innovatsiyalarga murojaat qilmaydi? Bu bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borildi va bizga umumiy xulosalar chiqarishga yordam berdi.

Iqtisodiyotni Rossiya, Polsha, Xitoy iqtisodiyoti deb ajratish mumkin emas. Chunki u inson tabiatini bilan bog‘liq. Va u ko‘pgina asosiy jarayon, hodisa va tushunchalarda mavjud. Iqtisodiyotni, uni taraqqiyotini ta’minlovchi to‘rtta asosiy omilni ko‘rib chiqamiz.

Birinchisi. Iqtisodiyotning yuksak va innovatsion bo‘lishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarning mayjudligi. Ular, shuningdek, iqtisodiy o‘sish uzoq va barqaror bo‘lishiga xizmat qilishi lozim. Agar iqtisodiyot ma’muriy-buyruqbozli bo‘lsa, unda ko‘p foydali natijalarni kutmang. Ma’muriy-buyruqbozlik tizimga ega davlatda juda ko‘p davlat korxonalarini bo‘ladi va ular faoliyati samarasizdir. Ularga juda katta miqdorda mablag‘ ajratiladi va lekin natija nolga teng. Shu sababli, eng avvalo, bu iqtisodiyotda yaratilgan shart-sharoitdir.

Ikkinchisi. Xususiy mulkni yuqori darajada muhofaza qilinishi kerak, chunki investorlar yomon himoyalangan mulklarga sarmoya kiritmaydilar. Ushbu himoya teng sharoitga ega bo‘lgan raqobatli bozorda bo‘lishi kerak. Agar tenglik bo‘lmasa, va yuqori himoyalangan mulk egalari mavjud bo‘lmasa, monopoliya yuzaga keladi va samarali faoliyat yuritadigan xususiy mulk tizimi bo‘lmaydi.

Shu sababli – xususiy mulk kerak. Ammo bu yetarli emas, shu bilan birga raqobat ham kerak. Agar bozor munosabatlari sharoitida ziyon ko‘rganlar subsidiyalansa, unda samarali iqtisod bo‘lmaydi. Shu sababli, uchinchi omil – raqobat juda muhimdir.

To‘rtinchisi: davlatning moliyaviy holati. Agar davlatda katta xarajatlar bo‘lsa, va YaIM yuqori soliqlarni talab qilsa, unda investitsiyalar bundan aziyat chekadi. Shu sababli, iqtisodiyotning innovatsion bo‘lishi uchun kamida yuqoridagi shartlar bajarilishi kerak. Bu uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosiy omili. Agar ushbu shartlarning faqat bittasi kuzatilsa, u iqtisodiyotning innovatsiyalanish holatini cheklaydi. Iqtisodiy taraqqiyot uchun barcha asosiy shartlar bo‘lishi kerak. Bu xuddi iqtisodiyotning to‘rt g‘ildiragi kabi. Birini yo‘q bo‘lishi mashinani (iqtisodiyotni) izdan chiqaradi.

Iqtisodiy barqarorlik siyosiy tizimning shakli bilan chambarchas bog‘liq. Bu eng asosiy tamoyil. Agar bu shart mavjud bo‘lmasa, ya’ni agar siyosiy kuch cheklanilgan bo‘lsa va nazorat ostida bo‘lsa, siz eng yomon holatlarni ko‘rishingiz mumkin. Masalan, fiskal tizimning cheklovlarini nima? Bu juda muhim siyosiy institutsional masaladir. Bu yerda birinchi darajada nima talab qilinadi? Albatta institutsional himoya chora-tadbirlar. Va, ehtimol, eng asosiysi mustaqil markaziy bank tizimidir.

Milliy banklar, xuddi AQSHda bo‘lgani kabi, katta xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Ammo siyosiylashgan markaziy bank undan ham

yomon. Milliy bank, markaziy bank bunday holatda zaif va kuchsizdir. Bank mustaqil va o‘z ishida professional bo‘lishi kerak.

Shuning uchun iqtisodiyot uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishi uchun siyosiy bo‘lishi mumkin bo‘lmaydigan muayyan shartlarga rioya qilishi lozim.

Tayanch so‘z va iboralar: ishsizlik, inflyatsiya, inqiroz, neoklassik sintez, monetarizm, keynschilik, institutsionalizm, iqtisodiy taraqqiyotning “to‘rt g‘ildiragi”.

14-bob YUZASIDAN XULOSALAR

Zamonaviy iqtisod o‘zining “Ekonomiks” fani yo‘nalishi, “neoklassik sintez” konsepsiyanini tahlili, iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilash bilan ajralib turadi. Zamonaviy iqtisodchi o‘z nazariyalarini iqtisodiyotdagi inqiroz, inflyatsiya va ishsizlik kabi muammolarni tadqiq etishga qaratishgan. Ular ichida keynschilik, monetarizm va institutsionalizm g‘oyalarining qorishmasi uchrab turadi. Shu sababli bu bobda biz P.Samuelson kabi iqtisodiy taraqqiyot g‘oyalarini ko‘rib o‘tamiz.

Eng so‘nggi davrdagi iqdisodiy ta’limotlarda neoklassik sintez yetakchi bo‘lib qoldi, bu yangi yo‘nalish, odatda, amerikalik P.Samuelson va uning «Ekonomiks» kitobidagi g‘oyalar bilan bog‘liq. Shunga ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bu kitobning boshqa mualliflar tomonidan chiqarilgan variantlari ham mavjud bolib, ularda ham aynan shu masalalar tahlil etiladi. Yangi qarashdagi o‘ziga xos asosiy xususiyat shuki, unda avvalgi davrda paydo bo‘lgan iqdisodiy g‘oya, nazariya va ta’limotlar har tomonlama o‘rganilib, ularning barchasidagi ratsional fikrlar jamlanadi, bunda eng asosiy maqsad «foyda maksimumga erishganda, optimal hajm qancha bo‘lishi kerakligi» tahlil etiladi. Buni boshqacha talqin etiladigan bo‘linsa, «cheklangan resusrlardan foydalanimi, doimo o‘sib boruvchi ehtiyojlarni to‘laroq qondirish» masalasi ko‘rib chiqladi.

Neoklassik sintezda keynschilik neoliberal g‘oyalarning ijodiy qorishmasidan foydalanimi. Ayniqsa, iqdisodiyotga ekonometrika uslublari tobora chuqur kirib bormoqda. Ekonometrika uslublari barcha iqdisodiy ta’limot yo‘nalishlari tomonidan amaliyotda

keng qo‘llanilmoqda. Bu borada Respublikamizda ham yaxshi natija to‘plangan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishsizlik deganda nima tushunasiz? Inflyatsiya, inqiroz deganda-chi?
2. Pol Samuelsonning g‘oyalari qaysi kitobda aks etdi?
3. Neoklassik sintez konsepsiysi nimani anglatadi?
4. Keynschilik va monetarizm nazariyalari qorishmasi iqtisodga nimani beradi?
5. Zamonaviy institutsionalizmning qanday xususiyatlarini bilasiz?
6. Elvin Tofler g‘oyalarida institutsionalizm qanday aks etdi?
7. Superindustrializm nima?
8. Fransua Perru qanday iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini ta’riflagan?
9. Samuelson iqtisodiy tafakkur tarixida asosiy g‘oya nima bo‘ldi?
10. Iqtisodiy taraqqiyotning qanday to‘rt g‘ildiragi mavjud?

15-bob. IQTISODIYOT BO‘YICHA NOBEL MUKOFOTI LAURIATLARINING G‘OYALARI

15.1. IQTISODIYOT BO‘YICHA NOBEL MUKOFOTINING TA’SIS ETILISHI

Nobel mukofoti (Nobel Prize) – mashhur ilmiy tadqiqotlar yoki madaniyat va jamiyat rivojlanishiga qo‘sghan yirik hissasi uchun har yili beriladigan eng obro‘li xalqaro mukofotlardan biridir. Mukofot Alfred Nobelning 1895-yildagi vasiyatnomasiga muvofiq ta’sis etilgan hamda fizika, kimyo, fiziologiya va tibbiyot, adabiyot sohasida, shuningdek, butun jahonda tinchlik o‘rnatish borasida «yil davomida insoniyatga eng katta foyda keltirishga muvaffaq bo‘lgan shaxslarni har yili pul mukofoti bilan taqdirlash uchun» mablag‘ ajratilishini nazarda tutadi. 1969-yilda Shvetsiya banki tashabbusi bilan iqtisodiyot sohasida eng obro‘li mukofot – «Alfred Nobel xotirasiga bag‘ishlangan Shvetsiya davlat bankining iqtisodiy fanlar bo‘yicha mukofoti» tavsiya etildi.

Shunisi qiziqarlikni, Nobel jamg‘armasi nizomiga binoan, Shvetsiya Qirolligining Fanlar akademiyasi a’zolari; Iqtisodiyot bo‘yicha A.Nobel xotirasi mukofoti qo‘mitasi a’zolari; Shvetsiya, Daniya, Finlyandiya, Islandiya va Norvegiya universitetlari hamda oliy o‘quv yurtlarining doimiy asosda ishlovchi tegishli fanlar bo‘yicha professorlari; Fanlar akademiyasi tomonidan tanlangan, kamida oltita universitet va institutning tegishli kafedra mudirlari; Akademiya taklifi bilan boshqa olimlar ushbu nufuzli mukofotga nomzodlar ko‘rsatishlari mumkin.

2011-yilgacha 67 nafar iqtisodchi ushbu mukofot bilan taqdirlangan. Eng qiziqarlisi, shundaki, hozirgi vaqtga kelib ularning orasida faqat birgina ayol Elinor Ostromxonim (Elinor Ostrom), Blumingtondagi Indiana universiteti professori sifatida faoliyat yuritadi. U 2009-yilda Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel xotirasi mukofotiga “iqtisodiy tashkilot sohasidagi tadqiqotlari uchun” sazovor bo‘lgan edi. Jumladan, 2010-yilda Amerikalik Piter Daymond, Deyl Mortensen va Kiprda yashovchi, britaniyalik Kristofer Pissarides Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel xotirasi mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Bunday yuksak mukofot mehnat bozoridagi mavjud tadqiqotlar uchun ularga topshirildi.

Ularning ilmiy ishlari mehnat bozorida bo'sh o'rinlar borligiga qaramasdan ishsizlik mavjudligi, bunday holatga qanday qilib ta'sir qilishi mumkin, degan savollarga javob berdi.

Laureatlarning mukofot topshirilgan paytdagi o'rtacha yoshi 66,5 yosh bo'lib, ushbu muammo mualliflarining o'rtacha yoshi 51 yoshga to'lgan. 2007-yildagi laureat Leonid Gurvits 90 yoshga kirgan qariya hisoblanadi. Hozirgi paytda yashayotgan laureatlar orasida eng yoshi Pol Krugman (1953-yil 28-fevralda tug'ilgan)¹⁷⁹.

Shu o'rinda Nobel mukofotini olgan olimlar va ularni ishlari bilan tanishtirib o'tamiz.

8-jadval

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlari¹⁸⁰

Yil	Iqtisodchi olim	Qaysi xizmati uchun
1969	Yan Tinbergen (1903–1994-yy. Gollandiya); Ragnar Frish (1895–1973-yy. Norvegiya)	iqtisodiyotni matematik usullar asosida tahlil qilishni ishlab chiqqanlari uchun.
1970	Pol Samuelson (1915-2009 y. AQSH)	iqtisodiy fanlarda ilmiy tahlilni chuqurlashtirish usullarini ishlab chiqqani uchun.
1971	Saymon Kuznets (1901–1985-yy. AQSH)	iqtisodiy o'sish muammolarining amaliy tadqiqoti uchun.
1972	Kennet Yerrou (1912-2017 AQSH), Jon Xiks (1904–1989-yy. Buyuk Britaniya)	umumiqtisodiy muvozanat va barqarorlik nazariyalari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.
1973	Vasiliy Leontev (1906–1999-yy. AQSH)	Xarajat – ishlab chiqarish usulini ishlab chiqqani uchun.
1974	Fridrix Avgust fon Xaek (1899–1992-yy. Avstriya, AQSH). Gunnar Myurdal (1899–1987 yy. Shvetsiya)	bir-biriga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jarayonlar, pul va o'zgaruvchan Konyunktura nazariyalari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

¹⁷⁹ Biznes-ekspert jurnali №9. 2012-yil.

¹⁸⁰ T.Jo'rayev, D.Tojiboyeva. Iqtisodiyot nazariyasi. (2 qism). Ko'rgazmali va tarqatma materiallar. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 367–372-betlar.

1975	Leonid Kantorovich (1912–1986-yy. Sobiq SSSR); Tyalling Kupmans (1910–1985-yy. AQSH)	resurslardan optimal foydalanish nazariyasiga qo'shgan hissalari uchun.
1976	Milton Fridmen (1912–2006-AQSH)	iste'mol nazariyasi, pul muomalasining tarixi va nazariyasi tahlili uchun.
1977	Jeyms Mid (1907–1995 yy. Buyuk Britaniya); Bertil Ulin (Olin 1899–1979 yy., Shvetsiya)	kapitalning xalqaro harakati va jahon savdosini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga qo'shgan hissalari uchun.
1978	Gerbert Saymon (1916–2001-AQSH)	iqtisodiy tashkilotlarda qaror qabul qilish tizimi tahlili uchun.
1979	Artur Lyuis (1915-1991-AQSH); Teodor Shuls (1902-y. AQSH)	rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy muammolar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.
1980	Lorens Kleyn (1920-2013 y. AQSH)	iqtisodiy modellar, ular asosida iqtisodiy sikllar va hukumatning iqtisodiy siyosatini tahlil qilish borasidagi ishlari uchun.
1981	Jeyms Tobin (1918–2002-yy. AQSH)	moliya bozorlari va ularning sarflar, bandlik, ishlab chiqarish, narxlar bo'yicha qaror qabul qilishga ta'sirining tahlili uchun.
1982	Jorj Stigler (1911–1991-yy. AQSH)	sanoatning tarkibi, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi va bozorning amal qilishi borasidagi tadqiqotlari uchun.
1983	Jerar Debre (1921–2004-AQSH)	umumiqtisodiy muvozanat nazariyasi muammolari bo'yicha ishlari uchun.
1984	Richard Stoun (1913–1991-yy. Buyuk Britaniya)	milliy hisob tizimini ishlab chiqqani uchun.
1985	Franko Modilyani (1918–2003-AQSH)	moliyaviy bozorlar va jamg'arish jarayoni tahlili uchun.
1986	Jeyms Byukenen (1919–2013-AQSH)	iqtisodiyot va siyosatda qaror qabul qilish nazariyasi uchun kelishuv va konstitutsion

		asoslarni rivojlantirgani uchun.
1987	Robert Solou (1924-AQSH)	iqtisodiy o'sish nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun.
1988	Moris Alle (1911–2010-Fransiya)	resurslardan samarali foydalanish va bozor nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun.
1989	Tryugve Xaavelmo (1911–1999-Norvegiya)	ekonometrik tahlilni rivojlantirgani uchun.
1990	Garri Markovits (1927-y. AQSH); Merton Millyer (1923–2000-yy. AQSH); Uilyam Sharp (1934-y. AQSH)	moliya bozorlarining fundamental muammolari tahlili uchun.
1991	Ronald Kouz (1910–2013 yy. Buyuk Britaniya)	mulk huquqi va transaksion xarajatlardagi muammolar tadqiqoti uchun.
1992	Gyeri Bekker (1930–2014 yy. AQSH)	insonlarning sa'y-harakati, tanlovi muammolari va ijtimoiy munosabatlarni mikroiqtisodiy tahlil nuqtayi nazaridan tadqiqoti uchun.
1993	Duglas Nort (1920–2015 yy. AQSH); Robert Fogel (1926-y. AQSH)	iqtisodiyot tarixida yangi yo'nallish yaratganlari uchun («kliometriya»).
1994	Jon Nesh (1928-2015y. AQSH); Jon Xarsani (1920-2000 y. AQSH); Reynxard Zelten (1930-y. Germaniya)	o'yinlar nazariyasidagi xizmatlari, ya'ni raqobatchilik va uning strategiyasining nazariy tahlili uchun.
1995	Robert Lukas (1937-y. AQSH)	iqtisodiy siyosat tushunchasini chuqurlashtirgan ratsional kutish gipotezalarini ishlab chiqqani va qo'llagani uchun.
1996	Uilyam Vikri (1914–1996-yy. AQSH); Jeyms Mirrliz (1936–2018-yy. Buyuk Britaniya)	axborotlarni asimmetrik tarqalishi sharoitida iqtisodiy agentlarning tanlovi (harakati) nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalari uchun.

1997	Robert Merton (1944-y. AQSH); Mayron Shoulz (1941-y. AQSH)	qimmatbaho qog‘ozlarning qimmatini aniqlashning yangi usulini ishlab chiqqani uchun.
1998	Amatriya Sen (1934-y. hind fuqarosi, AQSH va Buyuk Britaniya universitetlarida dars beradi)	farovonlik nazariyasi fundamental muammolari tadqiqotiga qo‘sghan hissasi uchun.
1999	Robert Mandell (1932-y. AQSH)	optimal valuta zonalari hamda ayirboshlash kurslarining har xil jarayonlardagi pul va fiskal siyosatining tahlillari uchun.
2000	Jeyms Xekman (1944-y. AQSH); Deniel Makfadden (1937-y. AQSH)	iqtisodiyotdagи tanlov muammolari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan xizmatlari uchun.
2001	Jorj Akerlof (1940-y. AQSH); Jozef Stiglits (1943-y. AQSH); Maykl Spens (1943-y. AQSH)	axborotlarni asimetrik tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan bozorlar tahlili uchun.
2002	Deniel Kaneman (1934 y. AQSH, Isroil)	iqtisodiy fandagi psixologik tadqiqotning integratsion natijasi, ayniqsa insonning noaniqlik sharoitida fikrlash, ishonchsizlik bilan qaror qabul qilish borasidagi tadqiqotlari uchun.
	Vernon Smit (1927 y. AQSH)	iqtisodiyotda empirik tahlilning quroli sifatida laboratoriya eksperimentlari o‘tgazgani, ayniqsa, bozorning muqobil (alternativ) me-xanizmlarini o‘rganish borasidagi xizmatlari uchun.
2003	Robert F. Engel (1942-y. AQSH)	matematik model hamda iqtisodiy vaqt qatorlarini tahlil qilish usullarini ishlab chiqqani uchun.
	Klayv V. Grenger (1934-2009 y. AQSH, Buyuk Britaniya)	iqtisodiyotda vaqt qatorlarini umumiy tendensiyalari bilan tahlil qilish uchun kointegratsiya metodini yaratganligi uchun.

2004	Finn Kidlend (1943-y. Norvegiya), Edvard S. Preskott (1940-y. AQSH)	dynamik makroiqtisodiyotni rivojlantirishga qo'shgan hissalari, biznes sikllarini harakatga keltiruvchi kuchlar va iqtisodiy siyosatda vaqt omili tadqiqotlari uchun.
2005	Robert Aumann (1930-y. Isroil), Tomas Shelling (1921–2016 yy. AQSH)	o'yinlar nazariyasi orqali hamkorlik va nizoli (ziddiyat) hodisalarini o'rganishga qo'shgan ulkan hissalari uchun.
2006	Edmund Felps (1933-y. AQSH)	makroiqtisodiy siyosatda vaqtlar oralig'idagi ayirboshlash tahlili uchun.
2007	Leonid Gurvich (1917–2008-yy. AQSH), Erik Meskin (1950-y. AQSH), Rodjer Maerson (1951-y. AQSH)	optimal mexanizmlar nazariyasi asoslarini yaratganlari uchun.
2008	Pol Krugman (1953-y. AQSH)	savdo tarkibi, modellari, xalqaro savdo mexanizmi tahlili va iqtisodiy geografiya muammolari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun
2009	Elinor Ostrom (1933–2012-yy. AQSH), Oliver Uilyamson (1932-y. AQSH)	jamoa resurslari va o'z-o'zini boshqarish, kompaniya resurslarini boshqarishni tashkil etish sohasidagi tadqiqotlari uchun
2010	Piter A. Daymond (1940-y. AQSH), Deyl Mortensen (1939–2014-yy. AQSH), Kristofer Pissarides (1948-y. Buyuk Britaniya)	mehnat bozori va boshqa bozorlar muhitini nazariy asoslarini qidiruv modellarini yaratish orqali o'rganishdagi tadqiqotlari uchun
2011	Tomas Sardjentga (1943-y. Nyu-York universiteti), Kristofer Simsga (1942-y. Princeton universiteti)	o'z tajribalarida makroiqtisodiyotdagi sabab va natijalar bog'liqligiga oid tadqiqotlari uchun
2012	Lloyd Stauell Shepli (1923–2016-yy. AQSH),	barqaror taqsimot nazariyasi va bozor tashkillashtirish amaliyoti

	Elvin Eliot Rot (1951-y. AQSH)	uchun
2013	Yudjin Fama (1939 AQSH), Lars Piter Xansen (1952-y. AQSH), Robert Shiller (1946-y. AQSH)	aktivlar narxining o‘zgarishini empirik tahlili uchun
2014	Jan Tirol (1953-y. Fransiya)	bozor hukmronligi va uning o‘z o‘zini tartibga solishini tahlili uchun
2015	Angus Diton (1945-y. Buyuk Britaniya, AQSH)	iste’mol, kambag‘allik va ijtimoiy ta’minot muammosini tahlili uchun
2016	Oliver Xart (1948-y. Buyuk Britaniya, AQSH), Bengt Xolmstryom (1949-y. Finlandiya)	shartnomalar nazariyasini rivojlantirganligi uchun
2017	Richard Taler (1945-y. AQSH)	iqtisodiyotni psixologiya bilan uyg‘unlashtirganligi uchun
2018	Uilyam Nordxaus (1941- y. AQSH), Pol Romer (1955-y. AQSH)	Nordxaus «uzoq muddatli makroiqtisodiy tahlilning iqlim o‘zgarishi bilan integratsiyasi» uchun mukofotga loyiq deb topilgan bo‘lsa, Romyer «uzoq muddatli makroiqtisodiy tahlilga texnologik innovatsiyalarni integratsiyalaganligi uchun»
2019	Abhidjit Banerji, Ester Duflo, Maykl Kremer (AQSH)	Global qashshoqlikni engillashtirish bo‘yicha eksperimental yondashuvlari uchun


Umumiyl ravishda ularni yetti yo‘nalishga bo‘lish mumkin. Bu:

- iqtisodiy modellar bo‘yicha mukofotlanganlar (Leontev, Kleyn, Frish, Tinbergen va boshqalar);
- resurslarni optimal joylashtirish (Kantirovich, Kupmans, Alle, Gurevich va boshqalar);
- monetarizm va pul siyosati masalalari (Fridman, Myurdal, Mandell, Merton, Xaek);

- iqtisodiy muvozanat masalalari (Xiks, Debre, Yerrou va boshqalar);
- iqtisodiy o'sish muammolari (Salou, Kuznets);
- xalqaro bozor va savdo masalalari (Olin, Krugman);
- asimmetrik axborotning iqtisodiyotdagi roli (Vikri, Mirrlis, Akerlof, Stiglits va boshqalar).

15.2. NOBEL MUKOFOTINING BIRINCHI LAURIATLARI: RAGNAR FRISH VA YAN TINBERGEN, POL A.SAMUELSON, SIMON KUZNETS

1969-yili Nobel mukofoti birdaniga – norvegiyalik (Oslo universiteti xodimi) **Ragnar Frish** (1895–1973) va niderlandiyalik (Rotterdamdagi Niderlandiya iqtisodiyot markazi xodimi) **Yan Tinbergen** (1903–1994)lar sozovor bo'ldilar¹⁸¹. Ularga bu mukofot olimlarning “iqtisodiy jarayonlarni matematik tahlil etishda dinamik modellarni rivojlantirish va qo'llash bo'yicha tadqiqotlari uchun) berildi.



Ragnar Frish (1895–1973)

Ragnar Anton Kittil Frish (03.03.1985 Oslo- 31.01.1973, o'sha yerda) norvegiyalik iqtisodchi, Norvegiya fanlar akademiyasining a'zosi (1931). Oslodagi universitetda ta'lif oldi, 1921–1923-yy. Fransiyada o'qigan, 1925–1965-yy. O'qituvchi, 1923-y. Buyuk Britaniyada ta'lif oldi, 1926 y. Matematik statistika bo'yicha doktorlik darajasini oldi. AQSH, Fransiya va Italiyada ham o'qidi. 1931 yildan Osloda professor, 1933–1935-yy. “Ekonomist” jurnali redaktori, Oslo universiteti iqtisodiyot instituti direktori (1931–1965). Iqtisodiyot bo'yicha Yel universiteti (1930-y.) va Sarbonnada (1933) ma'ruzalar o'qigan, bir qancha universitetlarda faxriy doktor (Kembrij, Stokgolm, Vimbergen). Ragnar Frish iqtisodiyotda matematik yo'nalish ta'rafdoi bo'lgan. Ekonometriya rivojiga muhim hissa qo'shdi (foydalilik, ishlab chiqarish funksiyalarini o'lchash, indeksatsiyalar va boshqa). Uning ekonometriya iqtisodiyot nazariyasi, statistika va matematika sintezi

¹⁸¹ А.А.Раззоков. Иқтисодиёт бўйича Нобель мукофоти лауриатлари. –Т.: ТДИУ, 2004. 8 – 10-6.

sifatidagi tushunchasi ko‘pgina iqtisodchilar tomonidan tan olinadi. U birinchilardan bo‘lib mikro va makroiqtisodiyot tahlili sohalarini ajratib ko‘rsatdi, o‘zining dinamik makroiqtisodiy davr modelida akseleratsiya tamoyilini qo‘lladi (J.MKeynsda multiplikator tushunchasi bor edi), iqtisodiy dasturlash masalalariga katta e’tibor bergen. Olim tomonidan taklif etilgan iqtisodiy rivojlanish usullari va modellari, shuningdek, milliy schyotlar tuzish tamoyili Norvegiya va boshqa davlatlar budjet, statistik tashkilotlari tomonidan amalda keng qo‘llaniladi. Asosiy asarlari ekonometrikani amaliyot bilan bog‘lashga bag‘ishlangan.

Gollandiyalik iqtisodchi **Yan Tinbergen** hozirgi zamon matematik iqtisodiyot namoyandalaridan biridir, Niderlandiya Fanlar akademiyasi a’zosi, Leyder universitetida ta’lim oldi. 1929-yili doktorlik darajasiga

ega bo‘ldi. 1945–1955-yillari Rejalashtirish byurosi markazi boshlig‘i, 196–1972-yillari BMT rejalashtirish komiteti raisi bo‘lgan. Asosiy asarlari iqtisodiy siyosat nazariyalari, iqtisodiy rivojlanish modellari (tovar ixtisoslashuvi modelini optimallashtirish – bandlik meonlari bilan bog‘liq ixtisoslashuvini tanlash va boshqalar). Konvergensiya nazariyasining variantlaridan biri bo‘lgan “optimal tuzum” nazariyasini ilgari surdi.




Yan Tinbergen (1903–1994)

Tinbergen fikricha, hozirgi kapitalizm sotsializm tomon transformatsiya bo‘lmoqda, bu holat kapital egalari quvvatining ancha pasayganligi, boshqaruvchilar va kasaba ko‘mitalarining roli oshganligi, sotsialistik g‘oyalarning ko‘pgina sohalarga singib borganligi (ijtimoiy sug‘urta, davlat korxonalari, rejalashtirishning turli shakllari va boshqalar), sotsializmning o‘zida ham kapitalizm tomon siljishlar ro‘y berayotganligi markaziy boshqaruv ma’lum chegarada ekanligi, markaziy organ o‘tkazilayotganligani) qayd etiladi. “Optimal tuzum” deganda ikkala tizimning sintezi tushuniladi – bunda “kapitalistik samaradorlik” va “sotsialistik tenglik”ning ayrim elementlari o‘zaro birlashuvi tushuniladi. Bunda sintez xususiy mulk asosida bo‘lishi zarur, chunki bu bozor iqtisodiyoti asosidir. Tinbergen davlatlarning tinch-totuv yashash tamoyili va iqtisodiy hamkorligini qo‘llab-quvvatlaydi.


U 1954-yildan boshlab, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan shug‘ullanadi. Tinbergen tomonidan “xarajatlar-ishlab chiqarish” modeli tahlil etiladi, mehnat taqsimotini optimallashtirish modelini yaratadi, tovar-valuta zaxiralari to‘g‘risidagi takliflarni beradi (N.Kaldor va A.Xarm bilan birga) insonparvarroq jamiyat yaratishda “kichik qadamlar” va me’yorni bilish nazariyalarini tarafdori sifatida tanilgan.

1970 yili bu mukofotga taniqli amerikalik olim, Massechusets texnologiya instituti (Kembridj) xodimi **Pol A.Samuelson**¹⁸²

(1915–2009) sazovor bo‘ldi. Unga bu mukofot “statistik va dinamik iqtisodiy nazariyani rivojlantirganligi va shu bilan iqtisodiyot fani tahlilini yanada yuqoriroq ko‘tarishga hissa qo‘sghan ilmiy ish uchun” berildi. Chikago universitetida ta’lim olgan (1932-1935 yy.). Garvard Oliy maktabida A.Xansen, V.Leontev, Y.Shumpeterlardan ilm o‘rgandi. 1941-yilda Massachusets texnologik institutida ishlay boshladи. Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi (1961), Ekonometrik jamiyat (1951), Xalqaro iqtisodiy assotsiatsiyada Pol (1965-1968) prezidenti bo‘lib saylangan. Olim nazariyotchi bo‘lish bilan birga AQSH Prezidenti yordamchisi, “Newsweek” jurnalida faol ishtirokchi ham edi. Biz bu olimni asosan “Ekonomiks” kitobi muallifi sifatida yaxshi taniymiz. Uning neosintez nazariyasini oldingi bobda ko‘rib chiqdik.



Simon Kuznets (1901-1985)



P.Samuelson (1915-2009)

1971-yili Nobel mukofoti **Simon Kuznets**¹⁸³ (1901–1985) ga nasib etdi. Asli Belorus, Ukraina, Rossiyada, keyinchalik AQSHda yashab, ijod etgan (Garvard universiteti, Kembridj). U “iqtisodiy va sotsial struktura rivojlanish jarayoniga yangicha va yanada chuqurroq qarashga olib kelgan, iqtisodiy o‘sishni talqin qilishning empirik tadqiq qiluvchi ishi uchun” Nobel mukofoti oldi.

¹⁸² А.А.Раззоков. Иқтисодиёт бўйича Нобель мукофоти лауриатлари. –Т.: ТДИУ, 2004. 10 – 11-6.

¹⁸³ А.А.Раззоков. Иқтисодиёт бўйича Нобель мукофоти лауриатлари.–Т.: ТДИУ, 2004. 11 – 13-6.

Asli Saymon (keyinchalik Simon) Smit Kuznets Belorusiyaning Pinsk shahrida tug‘ilgan, avval gimnaziyada, keyin Xarkov (Ukraina) universitetida tahlil oldi, mahalliy sovet statistik tashkilotlarda ishladi. 1914-yili Amerikaga ko‘chib o‘tgan. Kuznets ingliz tilini tez o‘zlashtirib, Nyu-Yorkning Kolumbiya universitetiga o‘qishga kiradi va qisqa vaqt ichida magistrlik va doktorlik darajasiga erishdi. U iqtisodiy jarayonlarni empirik va statistik tahlil an’analarini izchillik bilan davom ettirdi. Milliy iqtisodiy tadqiqotlar byurosi a’zosi (1927–1961), Pensilvaniya (1930–1954), Jon Xopkins (1954–1960) va Garvard (1960–1871) universitetlarida professor lavozimlarida ishlagan. S.Kuznets Amerika statistika assotsiatsiyasi (1949) va Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi (1954) prezidentligiga saylangan.

“Kunets qonuni” deb nom olgan nazariya bo‘yicha intensiv rivojlanish yo‘liga o‘tgan davlatlarda birinchi o‘n yillikda daromadlar va boyliklarning notekis o‘sishi taqsimlanishga xos bo‘ladi, undan keyin esa daromadlarning ma’lum me’yor atrofida bo‘lishi kuzatiladi. Bu g‘oyaning hozirgi davrda mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan mamlakatlar uchun ahamiyati juda katta. Haqiqatan erkin bozor munosabatlariga kirib kelayotgan davlatlarda davlat mulkini boshqa mulk shakllariga o‘zgartirish ketyapti, xususiylashtirish oqibatida ko‘p xollarda yangi boydar paydo bo‘layapti, qutbiy bo‘linish kuchaymoqda, bu esa har doim ham tinchlik bilan o‘tavermaydi. Olim, shuningdek, iqtisodiy o‘sishning qiyosiy tahliliga katta hissa qo‘shti, bu bilan hozirgi zamon iqtisodiy belgilovchi mezonlarni aniqladi. Ular quyidagilar:

- daromadning aholi jon boshiga qarab o‘sish suratlari;
- ishchi kuchining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti;
- aholining hududlar bo‘yicha joylashuvi.

15.3. ASIMMETRIK AXBOROT NAZARIYASI HAQIDA DJ. AKERLOF, M. SPENS VA DJ. STIGLETS

2001-yili Shvetsiya qirollik akademiyasi Nobel mukofotini Djordj Akerlof, Maykl Spens va Djozef Stigletsga iqtisodiyotda yangi yo‘nalish bo‘lgan asimmetrik axborot nazariyasini (unga ko‘ra

iste'molchi va sotuvchi mazkur tovar bo'yicha turlicha ma'lumotga ega) ishlab chiqqanlari uchun oldilar¹⁸⁴.

Akerlof Djordj (1940) Berkli shaxrida joylashgan Kaliforniya universiteti iqtisodchisi, professori. O'zining bakalavr diplomini 1962- yili Eslk universitetida, falsafa doktori nomzodligini 1966-yilda Massachusetts texnologik universitetida olgan. Bruklin institutida kengashining faxriy a'zosi, Kanada assotsiatsiyasi institutining kengash a'zosi, Amerika fanlar va madaniyat akademiyasi a'zosi.




Akerlof Djordj (1940)

Dj.Akerlof birinchi marta Kaliforniya universitetida psixologiya, antrologiya, jamiyatshunoslik va boshqa tarmoqlarning iqtisodiyotga ta'sirini o'rganayotganda ko'zga tashlangan. Akerfold ilmiy qiziqishlari sohasi keng va xilma-xil: makroekonomika, mikro ekonomika, kambag'allik, oila muammolari, kriminalistika va boshqalar. Dj.Akerlof sotsiologiya, psixologiyani iqtisodiy nazariya va amaliyotga qo'llash orqali iqtisodni boyitishga va rivojlanishga o'z ta'sirini ko'rsatib o'tdi. A.Averbax¹⁸⁵ Akerlof o'zining keng ilmiy izlanishlari bilan ekstraordinar qarashini isbotlab bergan olim deb ta'riflagan. Bu o'rinda aynan Akerlof assimetrik axborot nazariyasini ishlab chiqishda boshchilik qilgani beziz emas.

Dj.Akerlof, M.Spens va A.Stiglits o'zlarining to'liq axborotga ega bo'limgan bozorni tadqiqotida 1974-yil Nobel mukofoti lauriyati Fridrix fon Xaykning "jamiyatda bilimlarning qo'llanilishi" maqolasiga asoslanib amalga oshirganlar. 12 betdan iborat bu ish o'z ichiga ko'pgina assimetrik axborot bo'yicha qilingan chuqr izlanishlarni qamrab olgan.

Akerlofdan tashqari assimetrik axborotga ega bozorlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan shug'ullangan olim Maykl Spens hisoblanadi. **Maykl Spens** (1943) Stenford universiteti professori. Gumanitar fanlar bo'yicha bakalavr unvonini 1966-yil, falsafa doktorligini 1972-yil



Maykl Spens (1943)

¹⁸⁴ Вечканов Г.С. Экономическая теория. 2-е издание. – СПб.; Питер, 2010 г. Ст.193-195

¹⁸⁵ Берклидаги Калифорния университети иқтисодиёт департаменти раиси.

olgan. Doktorlik dissertatsiyasi uchun, a'lo darajadagi ta'limi uchun mukofotlar, Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi tomonidan ta'sis etiladigan Djordj Beyts Klark nomidagi medalga ega bo'lgan. 1981-yildan 1983-yilgacha Biznes iqtisodiyoti falsafa doktorlari dasturlari assotsiatsiyasi raisi, 1984 yildan 1990-yilgacha Garvard universiteti fakulteti dekani, 1990-yildan 1999-yilgacha Stenford universiteti dekani vazifalarini bajargan.


Spens "investitsiya, strategiya va yangi bozorda o'sish" (1979), "Bozor signallari: axborot oqimi, axborot savdosi va nisbiy jarayonlar" (1974) ilmiy ishlarning muallifi.

2001-yil Nobel mukofoti bo'yicha laureatlari ichida Djozef Stiglets ajralib turadi. **Stiglets Djozef** (1943) Kolumbiya universiteti professori, gumanitar fanlar bakalavri (1964), falsafa doktori (1967). Stiglets iqtisodiy fanning "axborot iqtisodiyoti" deb nom olgan yangi yo'naliш tadqiqotchisi va o'qituvchisidir. U dunyoda mashhur va ko'p tillarga tarjima qilingan ko'pgina kitoblar muallifi. Dj.Stiglets tavakkalchiliklar va noqulay tanlovlari nazariyasi bo'yicha izlanuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida ham tanilgan.

Dj.Stiglets asimmetrik axborot bozor muammolarni o'rganishda katta hissa qo'shgan. U tomonidan to'liq bo'lmanan axborot sharoitida iqtisodiyot muammolarini (ishsizlikdan to ijaraga berishda yer egalarining taqchilligi) kelib chiqishi bo'yicha ko'pgina maqolalar yozgan.

Stiglets asimmetrik axborot sharoitida bir tomonda ishsizlik va ikkinchi tomonda mehnat taqsimoti o'rtasidagi muammolarini, yoki noto'g'ri axborotni mahsulot sotib olishga ta'sirini o'rgandi. Misol uchun, kredit bozorini tadqiq etishda iqtisodiyot nazariyasida kredit olishda hech qanday to'siq yo'q degan tushunchaga duch keladi. Ammo, real holatda u bo'yicha chegaralar mavjud. Bu hato nazariy yondashuvga kredit bo'yicha asimmetrik axborot mavjudligi bilan ko'rsatiladi.

Stiglets rivojlanayotgan davlatlardagi moliyaviy bozorning majburiy tashkillashtirishga qarshi chiqdi, chunki bu bozorlar faqat



Stiglets Djozef (1943)

to‘liq va ishonchli axborot mavjud bo‘lgandagina ishlay oladi. Ammo bunday davlatlarda hatto barqaror qonuniy tizim yo‘qligini aytadi.

Daniel Makfidden¹⁸⁶ Dj.Akerlof, M.Spens va Dj.Stiglets tomonidan ishlab chiqqan nazariyani yuqori baholab, ular ilmda asimmetrik axborot nazariyasini ochib iqtisodda katta inqilob qilganliklarini aytish mumkin. Ularning tadqiqotida tovarlar sifati, ishchi kuchi bozorini tashkil qilishni yaxshilash, tibbiy sug‘urta, moliya va boshqalar bo‘yicha kafil bo‘lgan mexanizmlar o‘rin olgan. Ular o‘z ishlari bilan bozorda mavjud “ko‘rinmas qo‘l”ning zaif tomonlarini ko‘rsatib berishdi¹⁸⁷.

15.4. D.KANEMANNING IQTISODIYOTDA PSIXOLOGIK TADQIQOT USULLARI HAQIDA

2002-yili Shvetsiyaning Nobel bo‘yicha Qirollik akademiyasi amerikalik Daniel Kaneman va Vernon Smitni mukofotladi. Unda iqtisodiy psixologiya muammolarini tadqiqoti uchun D.Kanemanga, iqtisodiy qiziqishlar sohasi bo‘yicha tadqiqoti uchun V.Smitni mukofotladi.



Daniel Kahneman (1934)

Daniel Kahneman¹⁸⁸ (1934) Priston universiteti professori, 2002-yil psixologiya tadqiqotlari uchun Nobel mukofoti sovrindori. Isroil va AQSH fuqaroligiga ega. Boshlang‘ich ta’limni 1954-yili Yevrey universitet (Isroil)da olgan, u yerda unga psixologiya va metematika sohasi bo‘yicha bakalavr darajasi berilgan.

Xebrev universitetida (Isroil) psixologiya fani o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi va keyinchalik adyuktant professor lavozimida ishlagan. 1989–2002- yillar Kaliforniya va Prinston universiteti (AQSH) psixologiya professori, hamda Vudro Vilson nomidagi maktabda (AQSH) jamiyatshunoslik bo‘yicha professor bo‘lib ishladi.

¹⁸⁶ 2000-yil Nobel mukofoti sovrindori

¹⁸⁷ Вечканов Г.С. Экономическая теория. 2-е издание. – СПб.; Питер, 2010. Ст.193-195.

¹⁸⁸ Вечканов Г.С. Экономическая теория. 2-е издание. – СПб.; Питер, 2010. Ст.195-197.

Kaneman iqtisodiyotda psixologik usullarni qo'llagan tadqiqotlar uchun yangi sohaning ochilishiga sababchi bo'ldi. Kaneman ilmiy fikrlari noaniqliklar sharoitida individ tomonidan qarorlarni qabul qilishini ko'rsatib, bu bilan iqtisodiy nazariyada umum qabul qilingan qonuniyatlar hayotga mos kelmasligini ko'rsatib berdi. Kaneman Amos Tverskiy bilan birgalikda individning qaror qabul qilish konsepsiyasini ishlab chiqib, uni ehtimoliy bo'lishi mumkin bo'lgan holat bilan mos tushmasligini asoslab berdi. Ular iqtisodiyotda inson motivatsiyasini o'rganishda qo'llaniladigan psixologik usullarni qo'llab ko'rdilar. Chunki kognitiv psixologiya insonni murakkab tizim sifatida ko'rish kerakligini, undagi xis qilish, diqqat, xotira, xissiyotlar va boshqa tarkibiy elementlar iqtisodiy jarayonlarda ham borligini isbotshdi. Kaneman fikri bo'yicha aqliy faoliyatni aks ettiruvchi elementlar doimo bir holatda turmaydi, balki ular turli xil omillar evaziga o'zgarib turish xarakteriga ega. Kaneman insonning ma'lum bir qarorni qabul qilishi individning psixologiyasidagi konsepsiya bilan tushintirdi. Bu o'rinda kognitiv nazariya insonning xatti harakati uning aqliy jarayonlar ta'sirida natijasi bo'lishini aytadi.

U o'zining iqtisodiyotdagi psixologik muammolarini XX asrning 60-yillarida boshladi. Kaneman va Tverskiy insonlarni qaror qabul qilishda samarasiz va xato bo'lib ko'ringan holatlarni individ psixologiyasidagi o'zgarishlar bilan bog'lashdi. Ular insonning psixologik algoritmini yaratdilar, unga ko'ra iqtisodni va bozorda insonning xatti-harakatini obyektiv baholash mumkin bo'ldi. Tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida inson qaror qabul qilishda o'zi uchun samarali deb hisoblagan xatti-harakatni amalga oshiradi deb ko'rsatdilar.

“Tavakkalchilik” tushunchasi XVIII asrda fransuz tilidan ingliz adabiyotiga o'tgan bo'lib, “tavakkal”, “shubhali” ma'nosini bildiradi. Bu tushuncha shu davrdan boshlab iqtisodiy adabiyot va ishbilarmon muhitda keng ishlatila boshladi.

D.Kaneman¹⁸⁹ tavakkalchilikni ikki holatda ko'radi:

- 1) kutilayotgan natijaga erishish jarayonidagi ehtimoliy chegara;
- 2) iqtisodiy subyektning faoliyatida. Iqtisodiy subyekt bir qator tavakkalchiliklar asosida iqtisodiy munosabatlarga kirishadi va shu


¹⁸⁹ Kahneman D., Tversky A. (1979) Prospect theory: An analysis of decision under risk. *Econometrica*, 47. — 313—327.

asosda o‘z faoliyatini quradi. Ikkala yondashuv iqtisodiy jarayonlardagi tavakkalchilik holatlarini qamrab oladi. Tavakkalchilik quyidagi funksiyalarni bajaradi: a) analitik, ya’ni tavakkalchilik holatini kamaytirishga qaratilgan choralarini tahlil qilish; b) innovatsion – ya’ni noan’aviy qarorlarni qabul qilish; d) stimulyatsion – individning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Iqtisodiyotda ,shuningdek, Keneman bilan birga tavakkalchilik va noaniqlik holati F.Nayt¹⁹⁰ tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib, o‘zining “Tavakkalchilik, noaniqlik va daromad” asarida iqtisodiyotning muvozanatlashgan sharoitidagina emas, balki turg‘unlik sharoitida ham daromad va noaniqlik doimiy mavjud bo‘lishini isbotlashgan¹⁹¹.

15.5. O‘YINLAR NAZARIYASI TADQIQOTCHISI

Amerikalik iqtisodchi olim **Jon Xarsani** asli vengriyalik bo‘lib, uning ilmiy ishlari o‘yinlar nazariyasiga bag‘ishlangan (nokooperativ o‘yinlar, to‘la bo‘limgan axborotlar sharoitidagi o‘yinlar). “Axborot iqtisodiyoti” asoschisi, 1994-yilgi Nobel mukofoti sovrindori.



Jon Xarsani (1920 y)

Jon Xarsani 1920-yil 29-mayda Vengriyada, Budapesht shahrida tug‘ildi. U shahardagi Lyuteran gimnaziyasida tahsil oldi. Olimning aytishicha, gimnaziya Vengriyaning eng yaxshi maktablaridan bo‘lib, bu yerdagi ta’lim tartibi unga juda yoqqan. Maktabni bitirish pallasida, ya’ni 1937-yilda Jon Xarsani maktab o‘quvchilari uchun matematikadan har yili o‘tkaziladigan musobaqadan birinchi o‘rinni egallaydi.

Uning ota-onasi dorixonaga egalik qilishar, bu ular uchun yagona daromad manbayi bo‘lib, mo‘maygina foyda keltirardi. Xarsani oilada yolg‘iz farzand bo‘lgani uchun ota-onasi uni oilaviy biznesga – farmatsevt kasbiga tayyorlaydi. Jon falsafa va matematikaga qiziqishiga qaramay, ota-onasining gapini ikki qilmaydi, ular istagini inobatga olib, dorixonada ishlashni boshlaydi.

¹⁹⁰ Найт Ф. Х. Риск, неопределенность и прибыль / пер. с англ. - М.: Дело, 2003. - 360 с.

¹⁹¹ Вечканов Г.С. Экономическая теория. 2-е издание. – СПб.; Питер, 2010 г. Ст.195-197.

“O‘sha paytda Gitler Germaniyada hokimiyat boshqaruvida edi va Vengriyada uning ta’siri tobora oshib borardi. Men bu sohani tanlashimga yana bir sabab shuki, farmatsevt talabalar harbiy xizmatdan ozod etilardi. Dorixonani tanlamaganimda, millatim yahudiy bo‘lgani uchun meni Vengriya armiyasiga majburiy mehnat bo‘limiga xizmatga chaqirib olishar edi”, – deydi Xarsani.

Dorixonada Jon 1944-yil may oyigacha tinch faoliyat yuritadi, keyin esa nemis qo‘sishnari Vengriyani bosib olishadi. U maydan to noyabr oyigacha ishchi guruh tarkibida xizmat qilishga majbur bo‘ldi. Noyabrdan esa fashistlar Budapeshtni ishg‘ol qilib, bu guruhni Avstriyadagi konslagerga jo‘natadi. U yerda Jonning aksariyat tanishlari halok bo‘lishgan. Xarsani esa Budapesht temir yo‘l vokzalidan, poyezd Avstriyaga jo‘nab ketmasidan avval qochadi va tanishi bo‘lmish Iezuit rohibi faoliyat yuritgan ibodatxona yerto‘lasiga yashirinadi.

Urush tugagandan so‘ng, 1946-yilda Xarsani Budapesht universitetiga o‘qishga kiradi va doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi. 1947-yil sentabrdan to 1948-yil iyun oyigacha u Sotsiologiya institutida kichik o‘qituvchi sifatida ishlaydi. U yerda o‘zi dars bergen talaba Anna Klauber bilan yaqindan tanishadi va kelajakda ular turmush qurishadi.

Jon marksizmga ochiqchasiga qarshi chiqadi, bu siyosiy qarashi u ishlayotgan institut siyosatiga tamomila zid edi, shuning uchun u institutdan ketishga majbur bo‘ladi.

Anna institutda qolib, o‘qishni davom ettiradi, biroq communist kursdoshlari uni tazyiq ostiga olib, Jon bilan munosabatlarini uzishni talab qilishadi. U bu ishni qilmaydi, ammo biroz vaqt o‘tib, Vengriyada sotsializm tuzumi to‘laligicha o‘rnatilgandan keyin, 1950-yil aprel oyida Jon bilan birga mamlakatni tark etishga majbur bo‘ladi.

Ikki yosh pinhona, kam qo‘riqlanadigan serbotqoq hududdagi chegaradan hayotlarini xavf ostiga solib mamlakatdan qochishadi. Ular Avstriyaga yetib borishadi va Avstraliyaga ketish uchun ruxsatnomani oylab kutishadi. Nihoyat 1950-yil 30-dekabr kuni Sidney shahriga yetib kelishadi. 1951-yil 2-yanvarda Jon va Anna turmush qurishadi. “Annaning ruhiy holati, amaliy ko‘magi va raso aqli menga doimo dalda bo‘lgan”, – deb eslaydi Jon Xarsani.

Jonning diplomlari va ilmiy unvonlari Avstraliyada tan olinmaydi. Ingliz tilini yaxshi bilmagani uchun u o‘ziga mos ish topa olmaydi va avvaliga fabrikada oddiy ishchi sifatida mehnat qilishga majbur bo‘ladi. Ammo Jon taqdirga tan bermaydi, Sidney universiteti kechki bo‘limi iqtisodiyot kursiga o‘qishga kirib, u yerda 1953-yilda magistr darajasini egallaydi.

1954-yilda Jon Brisbendagi Kvinslend universitetida iqtisodiyot bo‘yicha ma’ruzalar o‘qiy boshlaydi. Jon Xarsaniga bu gal ham omad kulib boqadi: u 1956 yilda Rokfeller stipendiyasiga sazovor bo‘ladi va bu imkoniyat tufayli Anna bilan birgalikda AQSHdagi Stenford universitetida ikki yil davomida tahsil oladi. Natijada u iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha PhD – falsafa doktori ilmiy darajasiga, Anna esa psixologiya magistri darajasiga erishadi. Stenford universitetida unga Kennet Yerrou ilmiy rahbarlik qiladi va buni Jon katta muvaffaqiyat deb biladi: “Men Yerrou bilan iqtisodiyot nazariyasini ikir-chikirlarigacha muhokama qilardim va bu mashg‘ulot menga katta zavq keltirardi. Uning maslahatiga kirib, men Stenforddagi o‘qish mobaynida vaqtimning salmoqli qismini matematika va statistikani o‘zlashtirishga sarfladim. Bu tadqiqotlarim menga keyinchalik o‘yin nazariyasi bilan bog‘liq ilmiy ishlarimda katta foyda keltirdi”.

1958-yilda Jon oilasi bilan Avstraliyaga qaytib keladi va Kanberradagi Avstraliya milliy universitetiga ishga kiradi. Jonning ilmiy ishi, ya’ni o‘yin nazariyasi ustida olib borgan tadqiqoti Avstraliyada deyarli ma’lum bo‘limgani uchun u Kennet Yerrouga murojaat qiladi. Natijada K.Yerrou va J.Tobinning yordami bilan Detroytdagi (AQSH) Ueyn davlat universitetiga iqtisodiyot professori etib tayinlanadi. Keyinchalik 1964-yili Jon Xarsani Berkliyadagi Kaliforniya universiteti biznes maktabida ishlaydi. Uning yakkayu yolg‘iz Tom ismli o‘g‘li shu yerda, Berkliida tug‘iladi.

1950-yillar boshida Xarsani fon Neyman-Morgenshtyern funksiyasining farovonlik iqtisodiyotida qo‘llanilishi haqida maqolalar chop etadi. Jon Neshning 1950–53-yillar davomida nashr qilingan to‘rtta mashhur asari ta’siri ostida Jonda o‘yin nazariyасining tor ma’nодаги тушunchalariga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi. Aniqrog‘i, kooperativ va nokooperativ o‘yinlar, ustun strategiyali muvozanat, Nesh bo‘yicha muvozanat kabi mavzular ustida ish boshlaydi.

1956-yilda Jon Seyten va Nesh modellarining matematik ekvivalentlilagini ko'rsatib o'tadi va optimal xavf strategiyalar uchun algebraik mezonlarni ishlab chiqadi.

1967–68-yillar davomida chop etgan uch qismli asarida ma'lumoti to'liq berilmagan o'yinni yaxlit, biroq nomukammal o'yinga aylantirish yo'lini ko'rsatib beradi. Bu ilmiy ish nazariy-o'yinli tahlil uchun muhim sanaladi.

1973-yilda olim Nesh muvozanati aralash strategiyalarining deyarli barchasi yutuq funksiyalari tasodifiy tebranishli tegishli o'yinning toza strategik muvozanati sifatida qabul qilinishi mumkinligini isbotlab beradi.

Bundan tashqari, Jon utilitar etika bo'yicha qator kitoblarni chop etadi. Shuningdek, 1977-yilda uning "Ratsional xatti-harakat hamda o'yinlardagi muzokaralar va ijtimoiy holatlardagi muvozanat", 1976-yilda "Etika, ijtimoiy xatti-harakat va ilmiy tushunchalar bo'yicha esse", 1982-yilda "O'yinlar nazariyasidan maqolalar" va 1988-yilda Reynxard Selten bilan hamkorlikda yozilgan "O'yinlarda muvozanatni tanlash umumiy nazariyasi" deb nomlangan kitoblari chop etiladi. 1994-yilga kelib "nokooperativ o'yinlar" nazariyasidagi muvozanatni birinchi bor tahlil qilib chiqqanligi uchun iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga Jon Xarsani bilan birga yana ikki tadqiqotchi – Reynxard Selten (Germaniya) va Jon Nesh (AQSH) sazovor bo'ldilar.

Ushbu tadqiqot usulining o'ziga xos asosiy belgilari ichida quyidagilarni ajratish lozim:

1) o'yinlar nazariyasi individlarning o'zaro shartlashilgan xatti-harakatlari vaziyatini tahlil qilish bilan shug'ullanadi: har bir shartning hal etilishi o'zaro hamkorlik natijasiga va, o'z navbatida, qolgan individlarning qarorlariga ta'sir ko'rsatadi. Individ o'z harakatlari masalasini hal etayotib, o'zini kontragentlar o'rniga qo'yib ko'rishi kerak;

2) o'yinlar nazariyasi, mukammal kalkulyator sifatidagi individdan tortib to robot sifatidagi individgacha qator modellardan foydalangan holda, individlarning to'liq ratsionalligini talab qilmaydi;

3) o'yinlar nazariyasi o'zaro hamkorliklardagi muvozanatning mavjudligi, yagonaligi va Pareto optimalligini nazarda tutmaydi.


Ushbu sabablar o'yinlar nazariyasi yordamida qurilgan institutlarning formal modellariga bo'lgan qiziqishni orttiradi¹⁹².

¹⁹² Biznes-ekpert jurnali. №8, 2018-y.

15.6. NOBEL MUKOFOTIGA SAZOVOR MAKROIQTISODIY NAZARIYALAR

K.Grendjer va R.Engl vaqtli qatorlar tahlili usullari. 8-oktabr 2003-yil Shvetsiya Qirollik akademiyasi 10 million Shvetsiya kronini (1,3 mln. dollar) Nobel mukofotini iqtisodiy ma'lumotlarni statistik tahlili usullarini ishlab chiqqanliklari uchun ikki olimga, ya'ni angliyalik Klav Grendjer va Amerikalik Robert Englga beridi.

Iqtisodiy beqarorlik sharoitida bu ikki olimning nazariyalarini juda



K.Grendjer (1934 - 2009.)

zarur hisoblaniladi, chunki, ular mavjud iqtisodiy ma'lumotlar asosida ilmiy gipotezalarni baholash va kelajakni bashoratlash imkonini beradigan konsepsiyanı yaratishdi. Nobel ko'mitasi hisobotida aytishicha ularning ushbu modellari narxning, foiz stavkasining, aksiya narxining rivoj-lanish tendensiyasini, umuman moliyaviy bozor tizimini tahlilida katta ahamiyatga ega. Ularning kashfiyoti moliyaviy bozordagi tebranishlarni, o'zgarishlarni prognozlashtirish imkoniyatini, moliyaviy tavakkalchilikni amalga oshirishga yordam beradi.

K.Gendjer statistik usullar orqali vaqtli qatorlarni qo'llash absolut natijaga erishish uchun juda zarur ma'lumotlarni beradi degan. Bunda dinamik qatorlar vaqtlar oralig'ida o'zgarmas bo'lishi mumkin, bu esa statistik xulosalar berishda qulaylik beradi. Bu xodisa Grendjer tomonidan kontegratsiya degan nomni oldi.


R.Engl statistik modellashtirishda vaqtli o'zgarishlarni volativligi usulini rivojlantirdi. Uning bu modeli moliyaviy bozorlarda aktivlarni baholashda va investitsiya portfeli tavakkalchiliginini aniqlashda juda zarur g'oya bo'lib chiqdi.

Volativlik tasodifiy xato davri, ya'ni kutilayotgan xatolikni xarakterlab beradi. Standart bo'lgan statistik modellarda ma'lum bir davrda xatolik o'zgarmas ko'rinishga ega bo'ladi. Engl tasodifiy og'ish ehtimoli iqtisodiy statistik modelda boshlang'ich yuzaga kelgan xatolik tufayli bo'ladi, ya'ni birlamchi kichik og'ish keyinchalik katta og'ishga olib kelishi mumkinligini aytadi.

Grendjer Klavv (1934–2009-y.y.) angliyalik iqtisodchi, San Diego, AQSH Kaliforniya universiteti sharaflı professori. 1959-yili

Nottingem universitetini tamomlagan. Qisqa va uzoq muddatli davrlarda nazariy va tahliliy modellar sohasi bo'yicha mutaxassis. Gendjer mehnatining mahsullari qatorida "umumiyl o'zgaruvchilar nazariyasini ishlab chiqish" va "moliyaviy bozorlar o'zgaruvchanligini rivojlantirish"ni ko'rish mumkin.

Engl Robert Fray (1942-y. tug'ilgan) Amerikalik iqtisodchi, Nyu Yo'rk universiteti professori, moliyaviy xizmatlar sohasida menejmentdan dars beradi, 2003-yil iqtisodiyot sohasi bo'yicha Nobel mukofoti laureati. 1969-yil Kornel universitetini tugatgan.



Engl Robert (1942)

Makroiqtisodiyotda vaqtli qatorlar bilan XX asrning 80-yillaridan boshlab shug'ullangan. Engl "Amaliy iqtisodiyotda ARCH/GARCH modellarini ishlatish" (1986) ishida vaqtli qatorlarni ilmiy ishlanmalarida foydalanishni to'liqligicha ochib beradi.

Vaqtli qatorlar YaIM, narx, foiz stavkasi, qimmatli qog'ozlar narxining o'zgarishini ko'rsatadi. Moliyaviy bozorlarda fluktuatsiya (tebranish, siljish) juda aniq ko'rindi, chunki aksiya kabi moliyaviy vositalar tavakkalchilik bilan bog'liq. Fluktuatsiyalar davrlarda o'zgarish ehtimoli mavjud: tartibsizlik davrida kuchli o'zgarish uncha sezilmagan fluktuatsiyalarga almashishiga sababchi bo'ladi. Bu o'zgarishlar ikki qismga bo'linadi: ulardan biri trend deb nomlanib, muayyan tartibga ko'ra o'zgarishlarni o'z ichiga olsa, ikkinchisi esa tasodifiy o'zgaruvchanlikni bildiradi. Iqtisodiy prognozlar sharoitida aksiyalar bahosini o'rtacha darajadagi o'zgarishni emas, balki kutilgan davrda o'rtacha o'zgarishdan qancha darajada og'ishi mumkinligini bilish muhimdir. Qimmatli qog'ozlar bozorida trenddagи tasodifiy og'ishlarning keskinligini bilish muhimdir. Moliyaviy bozorlarda kuchli o'zgarishlar davri vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgarmas davrlar bilan almashadi.

Haqiqiy voliativlik o'zgaruvchan bo'lsada, iqtisodchilar uzoq yillar davomida ularning barqarorligini tahmin qilishga asoslangan statistik metodlarni qo'llashgan. Qimmatli qog'ozlarga moliyaviy bozorlarda investorlar ular investitsiya qilgan kundan keyingi kun, hafta, oy, yilda qimmatli qog'ozlar kursidagi qanday o'zgarish bo'lishi mumkinligini bilishni xohlaydi. Buni bilgan holatda 1982-yilda Engl autoregressiv heteroscedast (ya'ni o'zgarmagan tarqalish) modelini



F.Kidland (1943 y)

(Autoregressive Conditional Heteroskedasticity – ARCH) ishlab chiqdiki, buning asosida volativlik o‘zgarishlarni tahmin qilish imkonini paydo bo‘ldi.


Grendjer va Englning bu tahlillari nafaqat iqtisodiyotning umumiyligi ko‘rsatkichlarda, balki aynan moliyaviy bozorlarda o‘z faoliyatini yurituvchilar uchun foydali bo‘ldi. Bank va boshqa moliyaviy muassasalar ma’lum bir davr o‘tgandan keyin moliyaviy aktivning qaysidir minimal darajadan tushib ketmasligining kafolatini olishni xohlaydi. Aynan Engl modeli ba’zi xatoliklar, og‘ishlar tufayli vaqtli qatorlar bilan uni baholay boshladidi. Ushbu modeldagi prognozlarning yuqori aniqligi, xususan quyidagi misol orqali ko‘ramiz: AQSH va Buyuk Britaniya iqtisodiy statistika tahlil qilinib, o‘tgan yillar ko‘rsatkichlari asosida kelgusi yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlar berildi.

1996-yili xalqaro kelishuv (Bazel qonuni bo‘yicha) bank kapitali evaziga moliyaviy bozorda tavakkalchilik asosida moliyaviy mablag‘lar bilan narx indekatoriga aralashishni majbur qilib qo‘ydi. Bu o‘rinda Engl tomonidan ishlab chiqilgan ARCH moliyaviy sohada tavakkalchilikni baholash uchun zarur vosita bo‘lib qoldi.

Englning birinchi ishida inflatsion jarayonlardagi o‘zgarishlar asosiy o‘rinda edi, ammo keyinchalik u moliyaviy bozordagi turli tavakkalchiliklarni boshqarish va ularni oldindan ko‘ra bilishga qaratildi.

F.Kidlan va E.Preskottlarning makroiqtisodiy dinamika nazariyasi. 2004-yili Shved Qirollik akademiyasi “makroiqtisodiy dinamikaning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi va iqtisodiy siyosatni biznes sikllari bilan bog‘laganlari uchun” ikki Amerikalik Finn I.Kidland va Edvard S.Preskottga makroiqtisodiy sohasidagi tadqiqoti uchun Nobel mukofotini topshirdi.

Kidland Finn Irling (1943-yil tug‘ilgan) Norvegiya fuqarosi, AQSHda doimiy yashaydi, Karnegi-Mellon universiteti iqtisodiyot bo‘yicha professori (Pitsburg, AQSH) va Santa-Barbara universiteti (Kaliforniya, AQSH), Dallas va Klivland federal rezerv banklarining maslahatchisi.



E.Preskott (1940)

1968-yili Norvegiya iqtisodiyot va menedjment mактабида taxsil олган. 1973-yili falsafa doktori unvonini олган. AQSH va turli davlatlarda 50 dan ortiq iqtisodiy журнallarda маqolalari mavjud, 1966-yildan “Macroeconomic Dynamics” журнaling hay’at a’zosi, 1992-yildan AQSH davlatining Ekonometrik jamiyati a’zosi, 1982–1983-yillarda Guver instituti tadqiqot grantini олган, 1973-yili Aleksandr Xenderson mukofoti sovrindori.

F.Kidland dinamik makroiqtisodiyot, iqtisodiy siyosat, biznes-sikl nazariyasi, iqtisodiy o’sishga, moliya, pul-kredit va soliq siyosatiga o‘z xissasini qo‘shgan.

Preskott Edvard (1940-yil tug‘ilgan) AQSH fuqarosi, Arizona universiteti iqtisodiyot bo‘yicha professori, Minniapolis federal rezerv bank yetakchi tahlilchisi.

Keys universitetida ta’lim олган (1963), falsafa doktorligini 1967 yil yoqlagan. AQSH va boshqa davlatlarning etakchi журнallarida 80 dan ortiq маqolalar muallifi, “Boylit topish yo‘lida chegaralar” monografiyasi hammuallifi, 1991-yildan “Economic theory” журнaling muharriri, 1976–1990-yillar orasida bir necha ilmiy журнallar muxarrirlar a’zosi, 1980-yildn AQSH iqtisodiyot jamiyati a’zosi, 1992 yildan esa Amerika fanlar akademiyasi a’zosi, 1969–1970- yillar va 1974–1975-yillarda Bruklin fondi va Guggenzaym fondidan tadqiqot grantlarini олган, 2002-yil Yervin Pleyn Nammers nomidagi iqtisodiyot bo‘yicha mukofot sohibi, 2002-yildan Rim (Italiya) universiteti iqtisodiyot bo‘yicha professori sifatida tan olingan.

E.Preskot makroiqtisodiyot muammolari tadqiqotiga fundamental hissa qo‘shgan: ular qatorida iqtisodiy sikllarni vujudga kelishi tahlili, iqtisodiy siyosat, moliyaviy, pul-kredit va soliq siyosatidagi ishlanmalar.

Kidland va Preskot ilmiy yangiliklarini umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

- makroiqtisodiyot fan sifatida shakllanishida iqtisodiy siyosat va iqtisodiy sikllar genezisi (kelib chiqishi) ishlanmasi;
- ishbilarmon sikllar nazariyasining iqtisodiy o‘sish nazariyasi ta’siri ostida o‘zgarishi;
- davlat amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosat asosida aholi va iqtisodiy subyektlarning kafolati mavjud bo‘lishi tezisini asoslanishi;

- texnologiyalarni notekis rivojlanishi tufayli iqtisodiyotda qiqsa muddatli turg‘unlikllar mavjud bo‘lishini asoslanishi;
- mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga tayangan davlatning iqtisodiy siyosatining yuritish algoritmini yaratilishi;
- nazariy va amaliy makroiqtisodiy siyosatning bog‘liqligini aniqlash;
- iqtisodiy subyektlarning kutishini iqtisodiy siyosatning ko‘p omillarini qo‘llagan holda prognozlash;
- ratsional kutishlar konsepsiyasini rivojlantirish orqali makroiqtisodiy darajada yechimlarni topishga yordamlashish.

E.Preskot va F.Kidlandning mazkur konsepsiyalari ularni birgalikda yozgan ikkita maqolalari asosiy tayanch bo‘ldi. Ular “Ehtiyyotkorlik o‘rniga qoidalar: maqbul rejalarning nomuvofiqligi” (1977) maqolasida iqtisodiy siyosatning turli ko‘rinishlari (moliyaviy, pul-kredit, soliq va boshqalar) ko‘rib chiqdilar. Bu maqolaning asosiy mohiyati davlatning iqtisodiy qarori vaqt omili bilan qarama-qarshilikda rivojlanishida ekanligida. Davlatning samaradorlikni ko‘tarishga bo‘lgan intilishi, mualliflarning fikricha, real vaziyatni yanada yomonlashishiga, davlat va aholi o‘rtasidagi munosabatni shikastlanishiga, xususiy sektor faoliyatini to‘xtatib turishiga sababchi bo‘ladi. Aholiga davlat tomonidan berilgan va‘dalari va real holat o‘rtasidagi tafovut iqtisodiy subyektlarning ishonch holatini yanada qiyinlashtiradi. Buni yechimi sifatida mualliflar, subyektlarning erkin harakatiga asoslangan modelni tashkil etishni taklif qilishadi. Bu o‘rinda o‘yin ishtirokchisi boshqa ishtirokchilarning mumkin bo‘lgan harakatini aniqlab, o‘zini faoliyatini shunga mos harakat qilinishini ko‘rsatadi. Kidland va Preskot fikricha agar davlat faqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichga tayanib ishni amalga oshirsa, unda hech qanday natijaga erisha olmaydi, ammo agar iqtisodiy subyektlar bilan hamkorlikda amalga oshirilsa, unda natija yuqori bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatishadi.

Aytish lozimki, ularning ishlari makroiqtisodiy nazariyaga yaxshi ta’sir ko‘rsatdi, jumladan, stagflyasiya kabi yangi atamani kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Mualliflar, yuqori darajadagi inflyatsiya pul-kredit siyosatining noto‘g‘ri qo‘llanilishidan deb bilishdi. Bu o‘rinda qarorlani qabul qilishni emas, balki iqtisodiy siyosat ta’siri ostida bo‘lgan iqtisodiy institutlar faoliyati bilan muvofiq harakat qilish

lozimligini aytishadi. Kidland va Preskot g‘oyalari XX asrning 90-yillarida markaziy bank islohotlarida keng qo‘llanildi, va natijada Yevropa va Shimoliy Amerikada inflatsiya darajasi pasayishiga sabab bo‘ldi.

Kidland va Preskotning ikkinchi maqolasi bu “Tebranishlarni yaratish va qurish uchun vaqt” (1982) bo‘lib, u iqtisodiy sikllar konsepsiyasiga bag‘ishlangan. Bu konsepsiyaning ajralib turuvchi xususiyati bu uzoq muddatli va qisqa muddatli makroiqtisodiy inqiroz va o‘sishlarni tahlilida bo‘ldi. Ular tomonidan ilgari surilgan asosiy g‘oya shunda bo‘ldiki, unga ko‘ra ilmiy-texnik taraqqiyot aholini yashash darajasini oshishiga sabab bo‘ladigan omil deb baholanildi. Lekin, ular o‘z qarashlarida ijtimoiy omillardan yiroq bo‘ldilar. Ularning nazariyasi nafaqat talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat, balki mikroiqtisodiy mexanizmlar (narx, oylk maosh, iste’mol talabi)ni ham chetga chiqaradilar, bu bilan bozor muvozanatini ta’minlash holatini o‘ylamasligini ko‘rsatdilar. Ularning fikricha, iqtisodiyotning o‘sishini pasayishi – bu bozor muammosi emas, balki ishlab chiqarishning texnologik o‘zgarishlari pastligidir. Mualliflar fikricha makroiqtisodiy o‘zgarishlarni faqat texnologik shoklarni amalga oshiribgina erishish mumkin.

F.Kidland va E.Preskotning mazkur ishi metodologik nuqtayi nazardan judayam muhimdir. Ularning tadqiqotida iqtisodiy sikllar holatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan makroiqtisodiy omillarni qamrab oladi. Ularning yondashuvi bozor jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan savolga, yani kutilayotgan inflyatsiya holatida iste’molchilar, savdogarlar iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda davlatning iqtisodiy siyosatida maqbul bo‘ladimi degan savolga javob bermadilar.

Kidland va Preskot tadqiqotlari iqtisodiy sikllar haqida yangi ilmiy metodologik ishlanmalarni yaratilishiga turtki bo‘ldi. Ularning tadqiqotlari Amerika va Yevropa kabi rivojlangan bozor holati asosida yaratilgan bo‘lsa ham, rivojlanayotgan mamlakatlar ham ulardan foydalanish ehtimoli kuchlidir.

Har ikkala maqolada makroiqtisodiyot dinamik tizim sifatida qaralib, xususiy sektor va davlat ratsional iqtisodiy tanlovni amalga oshiradi deb olingan. Mualliflar davlat institutlarining iqtisodiy

siyosatini qayta ko‘rib chiqishni va o‘z ishiga mas’uliyatning oshishiga undaydi.


Bu maqolalardan tashqari iqtisodiy sikllar, iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy siyosat (moliyaviy, pul kredit va soliq) ga doir 130 dan ortiq ishlar mavjud. Ular ichida asosiy o‘rinni, shuningdek, E.Preskot va S.Parente bilan birgalikda yozilgan “Boylik topish yo‘lidagi chegaralar” monografiyasi ham o‘ynaydi.

Mazkur monografiyada mualliflar AQSH kabi boshqa davlatlar nimaga boy emas? degan savolga javob izlashga urinishadi. Bu savolga javob, ularning fikricha kapital qo‘yilmalarni to‘g‘ri yo‘naltira olmaganligida. Ularning fikricha iqtisodiy o‘sish va aholi turmush darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik ishlab chiqarishda texnologik samaradorlikni ishlata olmaganligida, bunday korxonalar tashqi raqobatdan o‘zini himoyalayman deb qayta texnologiyalashtirishni unitib qo‘yganligida. Agar ularni ishlata olganlarida unda hatto kam rivojlangan davlatlar ham boy bo‘lishi ehtimoli mavjud bo‘lar edi.

F.Kidland va E.Preskot makroiqtisodiy fandagi yutug‘i birinchi navbatda iqtisodiy va moliyaviy siyosat sohasida, qilgan ishlarida deb bilsak bo‘ladi.

Makroiqtisodiyotdagi sabab va natijalar bog‘liqligiga oid tadqiqotlar. 2012-yildagi Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga Elvin Rot va Lloyd Shepli sazovor bo‘ldilar. Ularning ikkalasi tibbiyot xodimlari va donorlarni tanlash bo‘yicha Amerika milliy tizimining islohotchilari hisoblanadi. Alovida amaliyot bilan shug‘ullanuvchi va oilaviy shifokorlarni ishga joylashtirish misolida iqtisodchilar asosiy iqtisodiy muammoni, ya’ni turli subyektlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish masalasini tadqiq qilganligini yuksak bahoga loyiq, deb topildi.

Alfred Nobel xotirasiga bag‘ishlangan Shvetsiya banki mukofoti ikkita amerikalik iqtisodchiga – Elvin Rot va Lloyd Shepliga «barqaror ishga joylashtirish nazariyasi va bozor iqtisodiyotida rejorashtirilish amaliyoti uchun» berildi. Elvin Rot Garvard biznes-maktabida, Lloyd Shepli esa Kaliforniya universitetida ishlaydi.



E.Rot (1951)


“O‘yinlar nazariyasi” Rot va Shepli umumiy ilmiy qiziqishlarining asosini tashkil etadi. Shepli tadqiqotlari, resurslarni taqsimlashning turli usullarini o‘rganishga qaratilgan. Shepli nomi bilan Geyl–Shepli (shu jumladan, maryaj qurish) algoritmi bog‘liq. Jumladan, u oilaviy munosabatlarda va mehnat bozorida barqaror aloqalar paydo bo‘lishini ilgari surgan. 1962--yilda Geyl va Shepli metodologiyasi asosida Amerika Qo‘shma Shtatlarida tibbiyot xodimlarini tanlash tizimi qayta ko‘rib chiqilib, yangidan tuzildi. U ish beruvchi hamda xodim talablarini maksimal tarzda uyg‘unlashtirishni nazarda tutgan.

O‘z navbatida, Rot mazkur tizim faqat oilaviy bo‘lмаган shifokorlar uchun amal qilishini 1984-yilda isbotlab berdi. 1999-yilda esa, u ushbu tizim metodologiyasini oilasi bo‘lgan shifokorlar uchun taklif qildi.

Nobel mukofoti bo‘yicha qo‘mita ta’kidlaganidek, Rot va Shepli ilmiy tadqiqotlari turli iqtisodiy subyektlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish kabi muhim muammolarga taalluqlidir. Maktab va o‘quvchilar bir-birini tanlashi, bemorlar muhtoj bo‘lgan va transplantatsiya qilinadigan inson organizmi qismlari bo‘yicha donorlarni izlash kabi misollarda o‘z aksini topishi mumkin. Nobel mukofoti bo‘yicha tashkiliy qo‘mita hisoblaganidek, Rotning xizmati aynan “Geyl–Shepli algoritmi” bo‘yicha amal qiladigan tizimlarni modernizatsiya qilish va ularni hayotga tatbiq etishdan iboratdir.

Resurslarni taqsimlash nazariyasiga ko‘ra, ayrim aloqalar iqtisodiy omil vazifasi bilan belgilanadi. Masalan, pul xodimlarni ish haqi baland bo‘lgan ish joylariga chorlaydi. Ammo bunday yondashuv gohida ishlamay qolishi mumkin, ana shuning uchun ham resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va ularning boshqarishiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda shuningdek donorlarning organlarini transplantatsiya qilish jarayoni ham kiradi. Rot Tayfun Sonmez va Utku Unver bilan birga, Angliyada jigarni transplantatsiya qilish bo‘yicha dastur mualliflaridan biri bo‘ldi. Ushbu tizim donorlar va retsipientlarning maqbul ikkilikni tanlashga qaratilgan.


Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, ko‘pchilik ekspertlarning fikriga qaraganda, joriy yilda iqtisodiyot bo‘yicha Alfred Nobel xotirasi



mukofotiga sazovor bo‘lgan ikkala Amerikalik olim Rot va Shepli fan olamida tadqiqotlari amaliyotga qaratilganligi bilan mashhur bo‘lgan.

15.7. POL KRUGMANNING MEGAIQTISODIYOT BILAN BOG‘LIQ MODELI

Oltmish birinchi sonli Nobel mukofoti laureati Pристон университети профессори **Pol Krugman** (1953-yil 28-fevral) ga “savdo tarkibining tahlili va iqtisodiy faollikning geografik taqsimoti” uchun oldi. Уning mukofotlanishi jahon moliyaviy tizimida yirik inqiroz bilan barobar keldi. У iqtisodiy geografiya kashfiyoti bilan tanilgan Nobelchilar orasidagi eng yosh olimdir. 1991-yili u Klark nomidagi iqtisodiy unvon sohibi. 1995-yil Adam Smit mukofoti laureatiyati. 2000-yil Rektenvald, 2004-yil Austriya shahzodasi mukofotlari sovrindori.



P.Krugman (1953)

1997-yildan beri Myunxen iqtisodiy tadqiqotlar Markazining doimiy a’zosi. Iqtisodiy va moliyaviy masalalarini tadqiq qiluvchi “O’ttizlik guruhi” a’zosi. 2000-yildan beri “New York times” jurnalida doimiy iqtisodiy maqolalari bilan qatnashuvchi kolumnist hisoblanadi.

Massachusett texnologiya universitetida yigirma to‘rt yoshida filosofiya doktorligini (PhD) olgan Pol 1979-yili “o’sib boruvchi qaytim, monopolistik raqobat va xalqaro savdo” (“Increasing Returns, Monopolistic Competition and International Trade”) katta hajmga ega bo‘lmagan maqolasida nima sababdan mamlakatlar bir xil tovarlarni eksporti bilan, bir xil tovarlarni importi bilan shug‘ullanishini oddiy model orqali tushuntirib bergen. Уning mulohazalariga ko‘ra, bir-biriga o‘xshash tovarlar bilan almashuvni amalga oshirganda, sekin astalik bilan iste’molchilar o‘zlarining bu boradagi mutaxassisliklarini oshirib boradi. Iste’molchilar turli ko‘rinishdagi tovarlarni sotib olishni xohlaydi, shu jumladan maxalliy tovarlarga o‘xshab ketadigan import tovaralarini ham. Masalan, Amerikaliklarning ba’zilari “Audi”, ba’zilari nemislarni “Ford” moshinalarini sotib olishni xohlaydi. Polning qarashlari David Rikardo, Eli Xeksher va Bertil Olinlarning xalqaro mehnat taqsimoti haqidagi g‘oylarining davomiy ko‘rinishidir. Chunki XX asr o‘rtalariga

kelib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yangicha yondashuv olimlar o‘rtasida izlanshlarga sabab bo‘lmoqda bo‘ldi.

Krugman tomonidan taklif qilingan model oddiy, ammo yirik hajmdagi murakkablikka egadir. Uning bu yutug‘i The New York Times gazetasida kolumnist (doimo bir kolonkada o‘z maqolalari bilan qatnashuvchi) sifatida olib borayotgan ilmiy qarashlari sabab bo‘ldi.

Priston universiteti professori Krugman siyosiy fikrlarda liberal, iqtisodiy fikrlarlarda esa keynschidir. Umuman sotsial-demokratdir. Pol Djord Bushni tanqidga olgan eng ashaddiy tahlilchidir. Gazeta, jurnal va o‘z kitoblarida Bushni iqtisodiy siyosatini tanqidga olib, iqtisodiy taraqqiyotga qanday erishish mumkin bo‘lgan yo‘lni ko‘rsatib bergen.

Krugman 1930–31-yillardagi inqiroz holati yana takrorlanishi mumkinligi, ammo sug‘urta va FRS bunga oldindan tayyor bo‘lishi lozimligi aytganligi uning 2008-yildagi inqirozini oldindan ko‘ra olganligida deb aytishimiz mumkin.

Prinston universiteti professori bo‘lgan Pol Krugmanneng eng asosiy modeli bu ikkinchi jahon urishidan keyin AQSH, Yaponiya va Yevropa kabi rivojlangan davlatlar o‘rtasida xalqaro aloqalarning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Xeksher-Olin nazariyalari 1920-yillarda yaratilgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faqat ishlab chiqarish omillari ustun bo‘lishi ta’kidlangan. Ularning nazariyasida bir xil omillarga ega mamlakatlar o‘rtasida xalqaro iqtisodiy munosabat bo‘lmasligi aytilgan. Ammo o‘tgan asrning oltmishinchiyetmishinchisi yillarda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda bir xil ko‘rinishdagi tovarlar ishlab chiqaruvchi mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar yanada kuchaya bordi. Bu esa Xeksher – Olin nazariyasini yo‘qqa chiqardi. Bu davrda bir xil omillarga ega AQSH va Kanada, G‘arbiy Yevropa va Yaponiya kabi mamlakatlar o‘rtasida aloqa kuchaya boshladi. Bir xil ko‘rinishdagi tovarlar ham eksport qilinardi, ham import qilinardi. Bu nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni keltirib chiqardi.

Pol Krugmannning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi modeli ayni vaqtda yaratildi. Uning nazariyasi quyidagi takliflarga asoslandi: hajm orqali tejamkorlikka erishish (unga ko‘ra yirik korxonalar tovarlarni yirik xajmda chiqarishi oqibatida tovar arzonga tushadi); monopolistik raqobat (har bir raqobatchi korxona boshqasidan sal o‘zgarish bilan

tovar ishlab chiqaradi) iste'molchilarni ehtiyoji uchun zarur tovar assortimentini ko'paytiradi. Bu takliflardan shu ma'lum bo'ladiki har qanday mamlakatda turli davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar assortimentiga talabi kuchli, bu o'rinda ishlab chiqaruvchi ham o'z tovarini boshqa davlatlarga sotishga intiladi, bunda iste'molchi o'z didiga mos tovarni sotib olishga haqli bo'lib chiqadi. Demak, jahon bozorida o'xhash xususiyatga ega tovarlar bilan turli mamlakatlar savdo qilishga haqli.

Krugman tomonidan taklif qilingan model oddiy, egiluvchan va asosan bugungi kun amaliyotiga to'la mos keladi. Bu model jahonda turli soha vakillariga to'g'ri kelib, uni to'ldirishga, kengaytirishga har qanday mamlakat ishlab chiqaruvchisi yoki xizmat ko'rsatuvchisi intila boshladi. Demak, xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi g'oyasi uchun Pol Krugman to'liq haqlidir.

15.8. IQTISODIYOTNI PSIXOLOGIYA BILAN UYG'UNLASHTIRISH

2017-yilda Nobel mukofotining laureati Richard Talyer bo'ldi. Shvetsiya qirollik akademisining bayonnomasida yozilishicha, olim o'z ishlarida «Iqtisodiyotni psixologiya bilan uyg'unlashtirgan».

Richard Taler (1945-yil 12-sentabr) Sharqiy Oranj (Nyu Jersi Shtati, Ekses okrugi)da tug'ilgan, u yaxudiy oilasidan uch o'g'lonning biri edi. Uning otasi Alan Moris Taler (1917-2004) "Prudential" sug'urta kompaniyasida sug'urta matematikasi bo'yicha mutaxassis, onasi Rozlin Melnikov (1921–2008) maktab o'quvchisi bo'lib ishlagan. O'rta maxsus ta'limni xususiy Nyuark akademiyasida olgan, bakalavr darajasini Case Western Reserve universitetida (Klivlend, 1967), magistrlik darajasini va falsafa fanlari darajasini Rocherster universitetida Shervin Rozin rahbarligida oladi. Rocherd, Karnelli va Chikago universitetlarida dars bergan. 2005-yil Samuelson mukofoti lauriyati. Daniel Keneman va Amos Tverskiy bilan hamkorlikda moliyaviy va iqtisodiy xulq atvor sohasidagi tadqiqotlarni olib borgan. Sobiq AQSH Prezidenti Barak Obamaning maslahatchilaridan biri edi.

Iqtisodiyotchilar an'anaviy tarzda insonlar va tashkilotlar ratsional harakat qiladi degan fikrda bo'ladi. Taler o'z ishlarida odamlar xatti-harakati bo'yicha akademiya nazariyasidan farq qiluvchi fikrlarni

keltirib o‘tdi. U «ratsionallikni cheklash, ijtimoiy afzalliklar va o‘z o‘zini nazorat qilish etishmovchiligi» oqibatlaridir deydi.

Unga mukofot taqdim etilayotganda «u insonning ma’lum bir xususiyat va fe‘l-atvori qaror qabul qilish va, o‘z navbatida, bozor natijalariga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatdi», – deb izoh berishdi Nobel qo‘mitasida.

Taler 73 yoshda. U AQSHning Chikago universitetida dars beradi. Iqtisodiy aktivlarni nazorat qiluvchi Fuller & Thaler Asset Management firmasiga rahbarlik qiladi. 2015-yilda u «Igra na ponijenie» nomli filmida suratga tushdi.

Xatti-harakat iqtisodiyoti nima va u nimaga kerak? Taler butun bir yangi yo‘nalish asoschisi bo‘ldi desak adashmaymiz. U insonning ba’zi xatti-harakatlari moliyaviy bozorlarga qanday ta’sir qilishini o‘rgandi.


Masalan, bir tadqiqotida Taler odamlar o‘ziga tegishli bo‘lmagan narsadan ko‘ra, o‘z buyumlarini ko‘proq qadrlashini aniqladi. Bunga o‘zida bor narsani yo‘qotish hissi turtki bo‘ladi deydi. Aslida odamlar buyumning qiymatini nimagadir bog‘lab anglaydi. Nobel qo‘mitasining bayonotida Talerning chegirmalni sotuv tadqiqoti misol qilib keltiriladi.

Chegirma so‘zining o‘zi odamlarda shu narsaga nisbatan qiziqishni uyg‘otadi. Vaholanki xuddi shu narsani ma’lum narxda chegirmsiz ko‘rgan xaridor unga e’tibor qilmasligi mumkin.

Yana bir misolda taksichining kun tartibi ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra haydovchi o‘z oldiga ma’lum bir daromadni yig‘ib, so‘ng uyiga qaytishi va o‘z oilasiga vaqt ajratishi ko‘rsatilgan. Bu vaziyatda haydovchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sababli har xil vaqtida ishlay bo‘shaydi. Negaki mijoz oqimi har kuni bir xil bo‘lmaydi. Mijoz etarli bo‘lgan kunlari u uyiga erta, aksincha bo‘lsa kech qaytishi mumkin.

Vaziyatni o‘zgartirish uchun taksichi qarorni o‘zgartirishi va kun tartibini boshqa qulay yo‘sinda belgilashi lozim. Taler tadqiqotlarining yana bir e’tiborli qismi – iste’molchilarining odillik haqidagi tushunchasi va bu tushunchalarning biznesga ta’siri yo‘nalishidir.

Misol uchun, yomg‘ir boshlanganida yo‘lovchilar do‘konlarga otlanib soyabon xarid qiladi. Mahsulotga talab ortsa do‘kon narxlarni oshirishi odatiy hol deyishimiz mumkin. Biroq aksariyat do‘konlar bu



R.Taler (1945 y)

fikrni qo'llamaydi. Bunday harakat iste'molchida salbiy taassurot uyg'otishi va «boshqa bu yerdan narsa olmayman» qabilidagi salbiy qarorga olib kelishi mumkin. Shu sababli do'kon egalari narxni ko'tarmaydilar.

Hozirgi kunda xatti-harakat va moliyaviy iqtisodiyotga oid ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar chop etilmoqda. Ilmiy ishlarning aksariyati marketing aksiyalari va chegirmalari tajribasiga tayanadi.

Tayanch so'z va iboralar. Iqtisodiy modellar, resurslarni optimal joylashtirish, monetarizm, iqtisodiy muvozanat, xalqaro bozor va savdo, assimetrik axborot, iqtisodiy psixologiya

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nobel mukofoti qachondan joriy etildi? Maqsadi nimadan bo'ldi?
2. Iqtisodiy muvozanat masalalari Nobel mukofoti sovrindorlarida qanday yoritilgan?
3. Assimetrik axborot nazariyasi nimani anglatadi?
4. Iqtisod va psixologiyani bog'lagan Nobel mukofoti sovrindorlari kimlar?
5. Iqtisodiy psixologiya Kaneman ijodida qanday aks etdi?
6. O'yinlar nazariyasi iqtisod uchun nimani ochib berdi?
7. Makroiqtisodiyotda sabab va natijalar bog'liqligi nimada?
8. Stiglets nazariyasi nimaga asoslandi?
9. Kimlar iqtisodiy axborotlarni statistika asosida vaqtinchalik qatorlar o'zgarishlari tahlili usulini qo'llagan?
10. Nokoperativ o'yinlar nazariyasi nimaga tayandi?

16-bob. JAHON XO‘JALIGI TO‘G‘RISIDAGI IQTISODIY G‘OYALAR

16.1. MUTLAQ USTUNLIK NAZARIYASI

Adam Smitning Xalqlar boyligi g‘oyasining asosiy maqsadlaridan biri hozirda merkantalizm deb atalgan g‘oyalar yig‘indisining yolg‘on tomonini ko‘rsatib berish edi – bu kitobning taxminan 25 foizi merkantalizm ta’limoti va amaliyotini tekshirishga bag‘ishlangan edi. Ba’zi merkantalistlar eksport importdan yuqori bo‘lgan tashqi savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi mamlakat savdoning qulay balansiga ega bo‘lishi uchun zarur deb hisoblardi va shuning uchun boshqa mamlakatlar kabi qimmatbaxo metallarni ko‘paytirish tufayli eksport importdan oshib ketdi. Adam Smit turli mamlakatlarda tovarlarni ishlab chiqarishda mutlaq xarajatlardagi farq xalqaro savdo rivojlanishining asosini tashkil etadi degan tezisni asoslab berdi. Unga ko‘ra, ba’zi mamlakatlar boshqa mamlakatlarga nisbatan tovarlarni kam xarajat sarflab, samarali ishlab chiqaradi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu mamlakatlar mazkur tovarlarni ishlab chiqarishda

mutloq ustunlikka ega. Mutlaq ustunlik yuqori mehnat unumдорligida va tovarlarni ishlab chiqarishga ketadigan kam xarajatlarda namoyon bo‘ladi.



Savdoni sun‘iy ravishda cheklab quyishga A. Smit qarshi chiqdi va qaysi mamlakatning mahsuloti arzon bo‘lsa o‘sha mamlakat bilan savdo qilishning avzalligi to‘g‘risida aytib o‘tadi. Masalan, A.Smit qayd qilib o‘tganidek: “Agar Fransiyaning vinosi Portugaliya vinosidan

yaxshi va arzon bo‘lsa yoki uning gazlamasi Germaniya gazlamasidan yaxshi bo‘lsa, unda Buyuk Britaniya uchun o‘ziga kerakli chet el vinosi va gazlamasini Portugaliya yoki Germaniyadan emas, balki Fransiyadan sotib olish foydali”. Shuningdek, Shotlandiyada uzum etishtirish shart emas, chunki u yerda vino Portugaliyaga nisbatan 30 barobar qimmat. Vino qayerda arzon bo‘lsa o‘sha yerdan sotib olish maqsadga muvofiq.

A.Smitning asosiy g‘oyasi – *mutlaq xarajatlar* g‘oyasidir. Unga ko‘ra, mutlaq xarajatlari kam bo‘lgan mamlakatlardan tovarlarni import qilish, ishlab chiqarish xarajatlari past tovarlarni esa (ularni xarid qilayotganlarga nisbatan) eksport qilish kerak.

A.Smitning tasdiqlashicha, har xil suniy ta’sir ko‘rsatish va qarshiliklarga qaramasdan ikki mamlakat o‘rtasida savdo aloqalarning olib borilishi tabiiy, normal hol hisoblanadi, u doimo foydali, garchi har ikkilasi uchun foyda hamisha bir hil bo‘lmasa ham. “Har bir aqli oila boshlig‘ining qoyidasi shundan iboratki, chetdan sotib olishdan ko‘ra, uyda tayyorlash qimmatga tushidagan narsalarini uyda tayyorlamaslikka harakat qiladi. Tikuvchi o‘ziga etik tikishga harakat qilmaydi, balki uni etikdo‘zdan sotib oladi. Etikdo‘z o‘ziga kiyim tikishga urinmaydi, balki tikuvchining xizmatiga murojaat qiladi”.

A.Smit bo‘yicha, bu qoida bir butun mamlakat uchun qo‘llanilishi kerak. Agar qandaydir bir xorijiy mamlakat bizni muayyan tovar bilan, uni o‘zimizda ishlab chiqarishga nisbatan ancha arzon narxda ta’minlashi mumkin bo‘lsa, biz birmuncha ustunlikka ega bo‘lgan sohalarda ishlatilayotgan sanoat mehnati mahsulotining ma’lum qismi uchun ushbu tovarni undan sotib olish ancha foydali. Aynan shuning uchun, mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini tanlashda, A.Smit bozorning roliga katta e’tibor bergen bo‘lishiga qaramay, u ushbu masalani ko‘rib chiqishda mamlakatning tabiiy (ob-havo sharoiti, ba’zi bir tabiiy resurslarga ega bo‘lish va b.) va qo‘lga kiritilgan (odatda, texnologik ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan) ustunliklarini hisobga olishni zarur deb hisoblanadi. Eksport qiluvchi mamlakat qachonki mutlaq ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lgandagina tashqi savdodan yuqori foyda ko‘rishi mumkin.


Lekin A.Smitning bu nazariyasida barcha tovarlarni ishlab chiqarishda bir yoki bir necha mamlakatlar mutlaq ustunlikka ega bo‘lsa, bunday vaziyatda qanday bo‘ladi degan savol ko‘rib chiqilmagan. Mazkur nazariya, agar mamlakatlar tovarlarni ishlab chiqarishda hech qanday mutlaq ustunlikka ega bo‘lmasa, ular xalqaro savdoda qatnashishi mumkinmi degan savolga ham javob bermaydi.

Smit qiziqish bildirgan xalqaro savdo-sotiq nuqtayi nazariyasi shubhasiz qisman to‘g‘ri, chunki uning kuchli jihat, bu nazariya emas, balki iqtisodiy siyosat nuqtai nazardan yoritilganligida edi.

16.2. QIYOSLI USTUNLIK NAZARIYASI

Xalqaro savdoga doir qiyosiy ustunlik nazariyasi bilan o‘z davrida Rikardoni naqadar donishmand ekanligi namoyon etildi. A.Smitdan farqli o‘laroq, **David Rikardo** mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlashda mutlaq xarajatlardagi farq muhim emas, deb hisobladi. Yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek xarajatlarda mutlaq ustunlikka ega bo‘lmagan mamlakatlar nima qilishlari kerak?

Bir qator misollar bilan D.Rikardo “xarajatlardagi mutlaq ustunlik” mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlashning zarur sharti emasligini isbotlab berdi. Savdo qilayotgan mamlakatlar o‘rtasida qiyosli xarajatlar farq qilishi kifoya.



Shu asosda D.Rikardo qiyosli ustunlik nazariyasini yaratdi. Bu nazariya butun dunyo ilm-fani va savdosida hamma tan olgan nazariya hisoblanadi. Mazkur nazariyaning asosiy qoidasi Shundan iboratki, har bir mamlakat o‘zining muayyan tovarni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlari bilan uni sotib olishga ketadigan xarajatlari o‘rtasidagi farqni qiyoslab ko‘rgan holda tashqi savdoda ishtirok etadi. Muayyan tovarni ishlab chiqarish bir mamlakat uchun boshqa mamlakatlarga nisbatan qulayroq bo‘lishi mumkin. Shu bois, qiyosli ustunlik nazariyasiga binoan, mamlakatlar xarajatlarni hisobga olgan holda u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak.

D.Rikardo shunday misol keltiradi. Portugaliyada muayyan miqdordagi vinoni tayyorlash uchun 80 kishilik mehnat, gazlama ishlab chiqarish uchun esa 90 kishilik mehnat talab qilinadi (bir yilga). Angliyada shu miqdordagi vinoni ishlab chiqarish uchun 120 kishilik mehnat, gazlamani ishlab chiqarish uchun 100 kishilik mehnat sarflash zarur. Garchi olib kelingan gazlama Portugaliyaning o‘zida Angliyaga nisbatan kam xarajat evaziga ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lsa ham, bu sharoitda portugaliya uchun vinoni gazlamaga ayirboshlash foydali. Gap shundaki, resurslarni gazlama ishlab chiqarishdan, Angliyaga nisbatan katta qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan, vino tayyorlash tarmog‘iga o‘tkazib, Portugaliya vinoni ayirboshlash yo‘li bilan 80 kishilik mehnat sarflari hisobiga, ya’ni 10 kishilik mehnatni tejash

evaziga, gazlama olishi mumkin. Bunday ayrboshlash Angliya uchun ham foydali, negaki u o‘z kuchini gazlama ishlab chiqarishga sarflab, gazlamani sotish yo‘li bilan muayyan miqdordagi vinoni 120 kishining mehnati hisobiga emas, balki faqat 100 kishilik mehnat evaziga olishi mumkin (ya’ni 20 kishilik mehnatni tejash hisobiga). Bu misoldan shu narsa ko‘rinadiki, qiyosiy ustunlik mavjud bo‘lsa, ixtisoslashuv va ayrboshlash ikkala mamlakat uchun ham foydalidir. Bundan mamlakatlar o‘rtasida mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi zarurligi kelib chiqadi.


Qiyosli xarajatlar g‘oyasi – bu o‘zaro foyda ko‘rish g‘oyasidir. Unga ko‘ra “... Fransiya va Portugaliyada vino tayyorlanishi, Amerika va Polshada don etishtirilishi, Angliyada metall buyumlari va boshqa tovarlar ishlab chiqarilishi kerak”

Lekin qiyosli xarajatlar nazariyasida bir qator soddalashtirishlar mavjud bo‘lib, tashqi iqtisodiy aloqalarda bo‘ladigan qiyinchiliklar aks ettirilmagan. D. Rikardo modeli – bu ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo modelidir. Mazkur model qiyosli xarajatlarning o‘zgarishini, savdo qilayotgan mamlakatlarning unumдорлик imkoniyatlaridagi farqlarni ham hisobga olmaydi.


16.3. ISHLAB CHIQARISH OMILLARI NISBATI NAZARIYASI

Qiyosli ustunlik nazariyasining zamonaviy turlanishi (ko‘rinishi) shved iqtisodchilari eli **Xeksher (1879–1952)** va **Bertil Olin (1899–1979)** ishlab chiqqan **ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi** hisoblanadi.

D.Rikardo ishlab chiqarish xarajatlaridagi farqlarni tabiiy va geografik sharoitlar tufayli kelib chiqadigan farqlar bilan aniqlanishi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqan. Bu prinsip umuman to‘g‘ri, lekin yetarli emas. Jahon bozorida faqat neft, paxta, apelsin bilan savdo qilinmaydi. Tashqi savdo ayrboshlanishida ishlab chiqarish sanoati tovarlari va xizmatlarning hissasi tobora ortib borayapti. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishda, jahon narxining shakllanishida tabiiy sharoitlardan ko‘ra boshqa omillar ko‘proq rol o‘ynaydi.



E.Xeksher(1879-1952)



ishlab chiqarish omillari (kapital, ishchi kuchi, yer) bilan bir xil darajada ta'minlanmaganligiga asoslanadi.



B.Olin (1899-1979)

Qiyosli xarajatlar konsepsiyasiga asoslangan holda, shved iqtisodchilari Xeksher va Olin bunday xarajatlar asosida nima yotishini tushuntirib berishga harakat qildi. Ular, savdo qilayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish omillari kombinatsiyasi umuman o'xshash bo'lgan sharoitda xarajatlar

darajasidagi farq asosan ularning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanligiga bog'liq, deb xulosa qiladi.

Xeksher-Olin tadqiqotida tashqi savdoda xarajatlari nafaqat tabiiy sharoitlardagi farq bilan, balki savdo ishtirokchilari ta'minlangan har xil omillar narxi bilan ham aniqlanadi. Bir xil omillar ortiqcha, boshqa bir omillar yetishmaydi. Bir turdag'i omillarning narxi nisbatan yuqori, boshqa turdag'i omillarning – nisbatan past. Omillarning narxi ularning kamyobligi bilan aniqlanadi: odatda, tanqis omillar – qimmat, ortiqcha omillar – arzon. Agar mamlakatda qandaydir bir omil boshqa omillarga nisbatan ortiqcha bo'lsa, masalan, arzon ishchi kuchi ko'p bo'lsa, unda bu mamlakat mehnat talab mahsulotlarni (to'qimachilik, kiyim-kechak va b.) ishlab chiqarishga va ularning savdosiga ixtisoslashadi. Agar mamlakatda kapital ortiqcha bo'lsa, unda bu mamlakatga kapital sig'imli mahsulotlarni (mashinalar, asbob-uskunalar) eksport qilish foydali.

Masalan, arzon ishchi kuchiga ega bo'lgan Janubiy Koreya mehnat talab mahsulotlarni (kiyim-kechak, avtompbil, kundalik turmush elektr

Masalan, Shvetsiya tashqi bozorga murakkab sanoat mahsulotlarini – avtomobillar va rolikli podshipniklarni, tog'-kon uskunalarini va dengizda ishlatiladigan motorlarni – yetkazib berish bilan samarali savdo qiladi. Ko'p sohalarda raqobat ustunligini qo'llda ushlab turgan aynan shu mamlakatda tashqi savdo nazariyasining yaratilishi bejiz emas. Mazkur nazariya texnologiyasi deyarli bir xil bo'lgan savdo qilayotgan mamlakatlar

Masalan, Shvetsiya tashqi bozorga murakkab sanoat mahsulotlarini – avtomobillar va rolikli podshipniklarni, tog'-kon uskunalarini va dengizda ishlatiladigan motorlarni – yetkazib berish bilan samarali savdo qiladi. Ko'p sohalarda raqobat ustunligini qo'llda ushlab turgan aynan shu mamlakatda tashqi savdo nazariyasining yaratilishi bejiz emas. Mazkur nazariya texnologiyasi deyarli bir xil bo'lgan savdo qilayotgan mamlakatlar

asboblarini) eksport qiladi: Xitoya kiyim-kechak, to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilish qo‘l keladi. Shvetsiya po‘lati va metall mahsulotlarining raqobatdagi ustunligi shundaki, mamlakatda qazib olinadigan temir rudasi yuqori sifatli po‘lat eritish xususiyatiga ega.


Demak, Xeksher-Olinning tashqi savdo modeli asosida xarajatlarning tuzilishi, ortiqcha ishlab chiqarish omillarining past narxi yotadi. Mamlakat ortiqcha ishlab chiqarish omillaridan intensiv foydalanib ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksport qiladi, ishlab chiqarish omillari tanqis bo‘lgan tovarlarni esa import qiladi.

“Leontevcha ziddiyat”

Amaliyot shu narsani ko‘rsatib berdiki, ishlab chiqarish omillari konsepsiysi tashqi savdoga, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta’sir etuvchi turli xil omillarning hammasini hisobga olishga qodir emas. Masalan, Xeksher-Olin modeli, nega, Shveytsariya farmatsevtik tovarlarni eksport qilishga ixtisoslashgan, Amerika personal kompyuterlarni ishlab chiqarishda yetakchilik qiladi, Yaponiya kundalik elektronika buyumlarining yirik eksportchisi hisoblanadi kabi savollarga javob bera olmaydi.

Mazkur nazariyaning to‘g‘riligini AQSH iqtisodchisi **V.Leontev** tekshirib ko‘rdi. Ma’lumki, Amerika kapitali ko‘p mamlakat hisoblanadi. Shu bois u kapital sig‘imli tovarlarni eksport, mehnat sig‘imli tovarlarni import qiladi deb taxmin qilingan. Natija uning teskarisini, ya’ni AQSH kapital sig‘imli tovarlarni emas, balki ko‘proq mehnat sig‘imli tovarlarni eksport qilishini, kapital sig‘imli tovarlarni esa ko‘proq import qilinishi ko‘rsatdi. Bu holat “Leontevcha ziddiyat” nomini olgan.

Leontev olib borgan hisob-kitoblarning to‘g‘riligini boshqa iqtisodchilar ham tasdiqlashgan. Ma’lum bo‘lishicha, tashqi savdo tuzilmasida bunday mos kelmaslik boshqa mamlakatlarga ham xos bo‘lgan. Tashqi savdo sohasi mutaxassislari, alohida mamlakatlar savdosiga va bir butun jahon savdosiga tuzilmasiga ta’sir etuvchi omillar



V.Leontev (1905-1999)

juda ko‘p, xilma-xil va o‘zgaruvchan bo‘ladi, degan fikrga kelishgan. Ularning ta’sir ko‘rsatish ahamiyati ham har xil.

16.4. MAHSULOTNING HAYOTIY SIKLI

Klassiklarning qiyosiy ustunlik nazariyasida ba’zi bir savollar o‘z echimini to‘maganligi (masalan, eksport tuzilmasi dinamikasi qonuniyatlari qanday, nega bir xil tarmoqlar oldinga siljisa, ikkinchisi orqaga surilib ketadi) xalqaro mehnat taqsimoti muammosiga bo‘lgan yangi yondashuvlarning kelib chiqishini taqozo etdi. Shunday yondashuvlardan biri “Mahsulotning hayotiy sikli” konsepsiysi hisoblanadi. Bu nazariyani ishlab chiqishda **M.Poznyer, G.Xufbaujr, L.Uells** va boshqa iqtisodchilar qatnashdi. Lekin birinchi marta bu nazariyaning tasnifiy bayoni 1966-yilda atoqli Amerika olimi R.Varronning **“Mahsulotning hayotiy sikli nuqtayi nazaridan ko‘rilgan xalqaro investitsiyalar va xalqaro savdo”** maqolasida e’lon qilingan.

AQSH eksport tuzilmasini tahlil qilish natijalari mazkur nazariyaning yaratilishiga bevosita turtki bo‘ladi. Tahlil natijalari jahon bozorida raqobatbardoshlik asosini tashkil etuvchi tarmoqlar majmuining o‘zgarib turishini ko‘rsatib berdi. XX asr boshiga kelib bunday tarmoqlar jumlasiga to‘qimachilik va o‘rmontexnik sanoati, qora metallurgiya, mashinasozlik kiritilgan. 30-yillarning oxiriga kelib tarmoqlar majmui va tartibi o‘zgardi (birinchi o‘ringa mashinasozlik chiqdi, oziq-ovqat sanoati ilg‘or ekport qiluvchi tarmoqlar qatoriga qo‘sildi), 60-yillarning boshiga kelib esa, transport vositalarini, asbob-uskunalarini, kimyoviy tovarlarni, elektr uskunalarini va boshqa mashinalarni ishlab chiqarish tarmoqlari Amerikaning asosiy eksport qiluvchi tarmoqlari majmuuni tashkil etdi.

Urushdan keyingi tashqi savdo tuzulmasi tahlili natijalari eksport tarmoqlarida ilmsig‘imli mahsulotlarni ishlab chiqaradigan tarmoqlarning roli ortib borayotganligini aniqlab berdi. Shu sababli “ilmsig‘imli tarmoqlar” atamasi kiritilidi. Hozir ilmsig‘imli tarmoqlar oldingi qatorga ko‘tarildi va ular mamlakatning jaxon bozorida raqobat qudratini belgilab bermoqda.

“Ilmsig‘imli” atamaning muomilaga kiritilishi ishlab chiqarish omillari to‘g‘risidagi tushunchani qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Ilmsig‘imli mahsulot – mehnat sig‘imli mahsulotning o‘zgargan shaklidan boshqa narsa emas. Ko‘pchilik ilmiy-texnik xodimlari (barcha yollanma ishchilarining 50 foiziga yaqini) ish haqining yuqoriligi va ko‘p sonli yuqori malakali ishchilarining mavjudligi tufayli ilmsig‘imli mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi umumiylar sarflarda ishchi kuchiga to‘g‘ri keladigan sarflar hissasi ham yuqori. Bundan tashqari turli ishlab chiqarish bosqichlarida har bir yollanma mehnat egasining hissasi ham har xil bo‘ladi. Demak, mehnat omilini tarkibiy tuzilishi jihatdan bir xil deb qaragan Xeksher-Olin nazariyasini qo‘llash xatodan xoli emas. Shu bois “mahsulotning hayotiy sikl” nazariyasi mualliflari mehnatni bir qancha turlarga ajratadi: yuqori malakali mehnat, boshqaruv mehnati, malakasiz mehnat va b. shunday qilib, ikki omilli model ko‘p omilga aylandi, ya’ni kapital omili bilan birga mehnatning har xil turlari amal qiladi.

Har bir omil ahamiyatining o‘zgarishiga muvofiq ravishda ishlab chiqarishning uch fazaga (ular “mahsulotning hayotiy sikli”ga mos tushadi) bo‘linishi mazkur nazariyaning kelib chiqishiga yana bir sabab bo‘ldi.

Birinchi fazada – yangi mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etishda – yutuq eng avvalo fan-texnika darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun yuqori malakali mehnat asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinci o‘rinda boshqaruv mehnati turadi, uning asosiy vazifasi tovarlarni keng miqyosda ishlab chiqarishga o‘tishning eng qulay yo‘lini qidirib topish hisoblanadi, mazkur bosqichda ishlab chiqarish kichik ko‘lamda olib borilishi tufayli kapital oxirgi o‘rinda qoladi. “Mahsulotning hayotiy sikli” nazariyasiga ko‘ra, yangi mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etish eng kuchli ilmiy kadrlar va yuqori malakali ishchi kuchi to‘plangan rivojlangan mamlakatlarda amalgalashiriladi.

Ikkinci fazada ommaviy ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Bunday ishlab chiqarish industrial baza quvvatiga, ishlab chiqarish strategiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda kapital va boshqaruv mehnati asosiy rol o‘ynaydi. Yuqori malakali mehnat esa, endi faqat texnologik ishlab chiqarishning muayyan sur’atini ushlab turish vazifasini o‘taydi, o‘rtalig‘i va past malakali ishchilar mehnati bilan birga ikkinchi o‘rinni egallaydi. Demak, fan-texnika jihatdan yetakchi bo‘lmagan, lekin

ortiqcha kapitali ko‘p bo‘lgan o‘rtacha rivojlangan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarishning ikkinchi “hayotiy sikli” davom etadi.

Uchinchi faza uchun bir xil texnologik asosda mahsulotlarni ommaviy tarzda ishlab chiqarish xos. Malakasiz mehnat birinchi o‘ringa suriladi, u o‘z mavqeini saqlab qolgan kapital bilan bir qatorda turadi. Olimlar, muhandislar va menejerlar mehnatining ahamiyati keskin pasayadi. Bundan shu narsani ko‘rish qiyin emaski, bu fazada mahsulot ishlab chiqarish soddalashib, malakasiz ishchilar zaxirasi ko‘p bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ommaviy tus oladi.

Keyinchalik mazkur mahsulotga talab, uni ishlab chiqarish pasayadi, uning o‘rnini qo‘llovchi yangi mahsulot ishlab chiqarish fazasi qaytadan boshlanadi.

16.5. XALQARO MEHNAT TAQSIMOTINI TADQIQ ETISHNING TANQIDIY YO‘NALISHI

Xalqaro mehnat taqsimoti tadqiqotlari bo‘yicha tanqidiy yo‘nalishning kelib chiqishi odatda argentinalik R.Prebish va Amerikalik G.Zingyer nomi bilan bog‘lab tushuntiriladi. Ular haqiqatdan ham birinchi bo‘lib xalqaro mehnat taqsimotining o‘zaro foydali xarakteri to‘g‘risidagi tezisga qarshi chiqqan va sanoati rivojlangan mamlakatlar agrar mamlakatlar hisobiga boyib borishini ko‘rsatib bergen tadqiqotchilar hisoblanadi. Lekin aynan shunday g‘oyalarni boshqa atoqli iqtisodchilar – shvetsiyalik G.Myurdal, angliyalik T.Balog, fransiyalik F.Perru, braziliyalik S.Furtado, amerikalik U.Lyuis va Xirshmanlar ham ilgari surgan.

Bu iqtisodchilarning qiyosli ustunlik nazariyasiga tanqidi qarashlari asosan uning metodologiyasiga qaratilgan. Ularni mazkur nazariyadagi ikkita jihat qanoatlantirmagan.

Birinchidan, qiyosli ustunlik nazariyasi muvozanatlik prinsipi asosida qurilgan. Uning tarafdarlari tadqiqotida iqtisodiy jarayonlar mayatnik harakatiga o‘xshatiladi, ya’ni muvozanat kuchlarining buzilishi ertami, kechmi uning avvalgi yoki ancha yuqori darajada qayta tiklanishi bilan tugallanadi. Haqiqatda esa unday emas, deb hisoblaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan iqtisodchilar va muvozanatlik yondashuviga kumulyativ (harakatning bir tomonga yo‘naltirilishi) printsipini qarshi qo‘yadi. “Agar bir omil o‘zgarsa, – deb yozadi

G.Myurdal, – unda ikkinchi bir omilda albatta o‘zgarish bo‘ladi. Natijada o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning kumulyativ jarayoni kuchaydi... yoki qandaydir bir omilning o‘zgarishi, qanday sababdan bo‘lishidan qat’i nazar, kumulyativ samaraning yalpi ta’siri tufayli barcha tizimni muayyan yo‘nalishda harakatga keltiradi”. Boshqacha qilib aytganda, buzilgan muvozanat avtomatik tarzda qayta tiklanmaydi, balki namuvozanatlikni kuchaytiruvchi va tizimda sifat o‘zgarishiga olib keluvchi kuchlarni keltirib chiqaradi.

T.Balogning “Teng huquqli bo‘lmagan sheriklar” asarida nomuvozanatlikning kuchayishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Unda xalqaro savdo jarayonida rivojlangan va qaloq mamlakatlar o‘rtasidagi uzilishning kuchayib borishi, bunday savdo ishtirokchi mamlakatlar iqtisodiyotini o‘zaro to‘ldirib borishiga ta’sir ko‘rsatmasligi, balki daromadlar va resurslarni jamg‘arish va taqsimlash imkoniyatlaridagi kumulyativ tengsizlikning kuchayishini keltirib chiqarishi ko‘rsatib beriladi. Garchi xalqaro savdo natijasida jahon daromadlari ko‘payib borishi mumkin bo‘lsada, shunga qaramay, kambag‘al hududlarning qashshoqlashuvi kuchayib bormoqda. Ancha rivojlangan mamlakatlarga kelsak, savdo ularning resurslarini ko‘paytirib, ustunligini yana ham oshirmoqda.

T.Balogning mulohazalarini mantiqan oxiriga yetkazgan S.Furtado hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tengsizlik huquqi shu darajaga borib yetdiki, rivojlanayotgan mamlakatlarni xo‘jalik subyektlari sifatida gapirish biron ma’no kasb etishi qiyin. Xalqaro milliy korporatsiyalarning paydo bo‘lishi bilan qoloq mamlakatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra iqtisodiy suverenligini yo‘qotdi, jahon kapitalistik xo‘jaligining “qaram podtizimsiga” aylandi. Furtado qayd qilib o‘tganidek: “Qoloq iqtisodiyotda rivojlanish ko‘pincha xorijiy korxonalarning keng tarqalishiga bog‘liq bo‘ladi va shu ma’noda bunday rivojlanish “xalqaro” hisoblanadi. Ushbu xorijiy korxonalarning faoliyati ko‘rilayotgan podtizim tashqarisida qabul qilinadigan qarorlarga asoslanadi”.

Qiyosli ustunlik nazariyasi metodologiyasi tanqidining ikkinchi, asosiy yo‘nalishi iqtisodiyotning ijtimoiy o‘lchamiga qaratilgan. Xalqaro mehnat taqsimotining neoklassik konsepsiysi tarafdarlarli ham, “mahsulotning hayotiy sikl” nazariyachilarli ham xo‘jalik yuritishning ijtimoiy masalalarini nazardan chetda qoladirishgan.

Ijtimoiy masalalar esa, tanqidiy yo‘nalish vakillarining ta’kidlashicha, “sof iqtisodiy” faoliyatga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida aytilganlarni U.Lyus quyidagi misolda tasdiqlab beradi.

Ikki mamlakat – rivojlangan va qoloq – tayyor mahsulot va xom ashyo ayrbosh qilyapti deb faraz qilamiz. Agar “sof” neoklassik nazariya nuqtayi nazaridan olib qarasak, unda ayrboshlash shashubhasiz o‘zaro foydali deb tan olinadi. Lekin kam rivojlangan iqtisodiyotning o‘ziga xosligini hisobga olib salgina o‘zgartirish kirtsak, xulosa butunlay boshqacha chiqadi. Ko‘pchilik qoloq mamlakatlarda juda past mehnat unumdarligiga asoslangan ancha ko‘p natural xo‘jalik sektori amal qiladi. U yerda ish haqi past bo‘lganligi sababli ortiqcha ishchi kuchi eksport sektoriga doimo oqib o‘tadi. Shuning uchun rivojlanayotgan mamlakatlar eksport sektorida unumdarlik qanchalik oshmasin, undagi ish haqi darajasi baribir natural xo‘jalikdagi past mehnat unumdarligi bilan aniqlanadi. Modomiki eksport sektor tadbirkorlarning foydasi, U.Lyus bo‘yicha, xalqaro miqyosda tenglashar ekan, mehnat unumdarligining o‘sishi natijalaridan rivojlangan mamlakatlar iste’molchilari foyda ko‘radi. Birining ikkinchisi tomonidan ekspluatatsiya qilinishi ko‘rinib turibdi.

Xo‘jalikni boshqarishning ijtimoiy jihatlari tahlili, tanqidiy yo‘nalish tarafdarlarining ta’kidlashicha, o‘zaro tartib yondashuvini taqozo etadi, ya’ni iqtisodiy jarayonlarning huquqiy, siyosiy, madaniy an‘analar, psixologiya va shu kabilar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish talab qilinadi. Bunday metodologik ko‘rsatma ba’zi bir ijobiy natijalarga erishishga imkon berdi. Masalan, mustamlakachilik hukmronligi va mustamlakachilikning yemirilishi davridagi jahondagi yetuk mamlakatlar siyosatini konkret tadqiqot qilish asosida G.Myurdal, F.Perru va ularning hamkasblari qaram mamlakatlarda aniq maqsadga yo‘naltirilgan asimmetrik (muvozanat buzilgan) iqtisodiyotni shakllantirish mexanizmini ochib berdi va shu bilan “uchinchi dunyodagi” og‘ir, mushkul ahvol uchun javobgarlikning bir qismi kimning bo‘yniga tushishini ishonarli qilib ko‘rsatib berdi.

G.Zinger, T.Balog, S.Furtadolarning “namoyish samarasi” atalmish tahlili o‘zaro tartib yondashuvini unumli qo‘llashga yana bir misol bo‘la oladi. Bu iqtisodchilarining kuzatishi bo‘yicha, qoloq mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar bu yerda nafaqat iste’mol buyumlari vazifasini o‘taydi, balki yuqori rivojlangan mamlakatlar

turmush tarzi to‘g‘risida axborot tarqatish vazifasini ham o‘taydi va bu mahalliy aholining ancha boy qatlamiga “namoyish ta’sirini” o‘tkazadi. Yer egalari, burjuaziya va amaldorlar rivojlangan mamlakatlarning iste’mol andozalarini qabul qilishga kirishadi. Natijada avvalari ko‘yilgan daromad egalarining iste’moli uchun import qilinadigan tovarlar endi mahalliy sanoat tomonidan ishlab chiqarilishi kuchayadi. Shu bilan zaruriy buyumlarni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan kapital qo‘yilmalari qisqaradi. Nega bunday jadal “rivojlanish” ko‘pincha aholi turmush darajasining pasayishiga olib kelishi shunday ko‘rinib turibdi.

Tanqidiy yo‘nalish vakillari qiyosli ustunlik nazariyasining kamchiliklarini ishonarli qilib ko‘rsatib bersada, ular mazkur nazariyaga qarshi muqobil raqobatbob nazariya tavsiya eta olmadi. Ularning bat afsil ishlab chiqilgan konsepsiyasi bo‘lmanligi sababli, ular dan faqat ayrim metodologik elementlarni, nazariy g‘oyalarni olish mumkin. Masalan, G.Zinger bo‘yicha, xomashyo va mehnatni iqtisod qiluvchi yangi texnika yuqori rivojlangan mamlakatlar muammosini yechish uchun mo‘ljallangan. Demak, uni rivojlanayotgan mamlakatlarda qo‘llash, ularning manfaatlariga javob bermaydi.

16.6. RAQOBAT USTUNLIGI NAZARIYASI

Hozirgi davrda xalqaro savdo nazariyasida raqobatda ustunlikka erishish, uni ushlab turish muammosi birinchi o‘rinda turadi. Jahon bozorida peshqadamlilikni qo‘ldan bermaslik uchun yuqori sifatli mahsulotlarni taklif qilish va baholi raqobatga bardosh berish qurbiga ega bo‘lish kerak.

Shu narsa ayonki, hech bir mamlakat tovar va xizmatlarning barcha turlari bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi mumkin emas. Hech bir mamlakat o‘zi uchun mumkin bo‘lgan raqobatdagi ustunlikni doimo saqlab turishga kafolat bera olmaydi. Raqobatdagi ustunlikka erishish ilm-fan, texnika, texnologik yangiliklar asosida qo‘lga kiritiladi va keskinlashib boradi.

Alovida firmalar qo‘lga kiritilgan ustunlikni yangi texnologiyalardan foydalanish, yangi ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, ishni samarali olib borish yo‘li bilan ushlab turadi.

Raqobat ustunligini ushlab turishda davlatning qo'llab-quvvatlashi, o'zgaruvchan va samarasi tashqi siyosatning roli katta. Bunday siyosat korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va rag'batlantirishga, qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Chet el raqobatchilari oldida ustunlikni qo'lga kiritish va ushlab turishni korxonalar o'zlarini amalga oshirishi kerak.

Ishlab chiqarish omillariga suyangan holda jahon bozorida u yoki bu mamlakatning ustunlikni qo'lga kiritishi o'ziga xos xususiyatga ega. Ishlab chiqarish omillarining o'zi borgan sari o'zgaruvchan, ko'chib yuruvchan bo'lib boradi. Kapital investitsiya qilinadi va boshqa mamlakatlarga oqib o'tadi; ishchi kuchi ish haqi ancha yuqori, mehnat sharoiti ancha yaxshi mamlakatlarga ko'chib o'tadi; fan-texnika yangiliklari ham eksport, ham import qilinadi. Ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati nazariyasi o'zining maxsus xususiyatga ega. Shu bilan birga bu yerda ham xalqaro tovar va xizmatlar savdosi sohasidagi rag'batlantirish va qonuniyatlar deyarli bir xil amal qiladi.

Tashqi savdo munosabatlari va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati konsepsiyanida va olib borayotgan siyosatda asosiy qoidalar hisobga olinadi. Odatda, mamlakat iqtisodiyoti eksport kvotasi miqdoriga bog'liqligi nazarda tutiladi. Kichkina mamlakatlarda odatda bunday kvota yuqori, negaki bu mamlakatlarning iqtisodiyoti tashqi savdoga ancha katta darajada bog'liq bo'ladi. Shu narsa ham ayonki, har qanday mamlakat milliy xo'jaligining holati tashqi savdo va to'lov balansini aniqlab beradi. Agar eksport importdan ancha ortib ketsa mamlakatning to'lov balansi tanqisligi kuchayadi, bu uni tashqaridan qarz olishga majbur etadi. Natijada bunday mamlakatning qarzlari ko'paydi, har xil salbiy oqibatlar kuchayadi.

Shu narsani qayd qilib o'tish kerakki, tashqi savdo va tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini bir xil baholab bo'lmaydi. Bu yerda universal mezon amal qilmaydi. Samaradorlik va foydalilik nafaqat tashqi valuta tushumlariga bog'liq, balki jahon va ichki narxlar dinamikasiga, savdo operatsiyalari miqqyosiga, hisob-kitob tizimiga ham bog'liq. Tashqi savdo nazariyalari va siyosati ildizi, odatda, to'lov balansi holatiga borib taqaladi. To'lov balansi milliy valutaning ishonchli va barqarorligini, mamlakatning moliyaviy majburiyatlarini va qarzlari bo'yicha hisob-kitob qilish qurbiga ega ekanligini, iqtisodiy

siyosat samaradorligini baholashni, tashqi iqtisodiy aloqalarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Hozirgi davrda jahon savdosining xalqaro kapital harakatiga bog‘liqligi kuchayib bormoqda. Jahon kapitali oqimi tovarlar oqimidan oshib borayapti. Xalqaro kapital oqimining kuchayishi yevrovaluta bozori va xalqaro obligatsiyalar bozorida namoyon bo‘lmoqda, bu bozorlarning ko‘lami ancha kengaymoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilib shuni aytish mumkinki, samarali tashqi savdoga, uning dinamikasi va tuzilishiga ta’sir etuvchi turli-tuman omillarning barchasini hisobga oladigan amaliyotda bironta ta’limot amal qilmaydi. Iqtisodiy nazariyalarda tajribalar umumlashtiriladi, tamoyillar shakllantiriladi, kerakli xulosalar chiqariladi, lekin tayyor andozalar yo‘q. Hamma qabul qilgan, yagona xalqaro ayirboshlash nazariyasi amal qilmaydi.


Garvard universitetining professori **Maykl Porter** tarmoqdagi raqobatchi kuchlarni quyidagicha guruuhlagan:

1. Tarmoq ichida sotuvchilar o‘rtasidagi raqobat.
2. Boshqa tarmoqdagi kompaniyalarning o‘z tovarlari bilan bu tarmoqdagi xaridorlarni egallab olishga harakat qilishi.
3. Tarmoq ichida yangi raqobatchilarning paydo bo‘lishi.
4. Xomashyo va butlovchi qismlar yetkazib beruvchilarning o‘z shartlarini o‘tkazishga urinishlari.
5. Xaridorlarning o‘z shartlarini o‘tkazishga urinishlari.

Bu tahlil firma mazkur tarmovda duch kelishi mumkin bo‘lgan qulay shartlar va xavf-xatarlarni aniqlab olish maqsadida amalga oshiriladi.

Porter «beshta kuch» modelini taklif qilgan. U mazkur modelni asoslab berar ekan, bu ko‘rsatkichlarning ta’sir kuchi qanchalik yuqori bo‘lsa, mavjud kompaniyalarda narx va daromadni oshirish imkoniyati shunchalik kam bo‘lishini ta’kidlagan edi. Buning zaiflashishi esa kompaniyalar uchun qulay imkoniyatlar vujudga keltiradi. Kompaniya o‘z strategiyasini o‘zgartirib, ushbu ko‘rsatkichlarni o‘z foydasiga o‘zgartirishi mumkin.

Potensial raqobatchilarning kirish xavfi (Porterning birinchi kuchi) kompaniyaning daromadlariga tahdid solishi mumkin. Ikkinchi



M. Porter (1947)

tomondan, agar bu xavf kichik bo‘lsa, kompaniya narxlarni oshirib, o‘z daromadlarini ko‘paytirishi mumkin. Bu omil raqobatchilik kuchi to‘siqdarining (tarmoqqa kirish qiymatining) balandligiga kuchli darajada bog‘liq. Bunday to‘siqlarning uch asosiy manbayi bor.

– xaridorlarning savdo markasiga sodiqligi (kirib kelayotgan kompaniyalar buni katta investitsiyalar evaziga bartaraf qilishlari mumkin);

– xarajatlar buyicha mutlaq ustunliklar (ishlab chiqarish xarajatlarining yanada kamligi mavjud kompaniyalar uchun, yangi kompaniyalar erishishi qiyin bo‘lgan katta ustunliklarni beradi);

– ko‘lamdan tejash (bunday ustunlikka, odatda, katta kompaniyalar ega bo‘ladilar). U, ya’ni standartlashtirilgan mahsulotni yoppasiga ishlab chiqarishda xarajatlarning kamaytirilishi, xomashyo, material va tarkibiy qismlarni katta miqdorlarda sotib olishdagi chegirmalar, reklamaga sarflanadigan xarajatlarning kamaytirilishi va hokazolar bilan bog‘liq. Bularning barchasi ishlab chiqarishni endi boshlayotgan kompaniyalar uchun katta qiyinchiliklar tug‘diradi.

Porter nazariyasi bo‘yicha ikkinchi raqobatchi kuch tarmoqda mavjud bo‘lgan kompaniyalarning raqobatlashuvidan. Bu yerda ham to‘rt omilning ta’sirini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- tarmoqdagi;
- raqobat tuzilmasi;
- talabning shart-sharoitlari;
- tarmoqqa kirish to‘siqlarning mavjudligi.

Tarmoqdagi raqobatning tuzilmasi tarmoqdagi konsolidatsiya darajasiga (uning fragmentlanganligi, oligopoliya yoki monopoliya sharoitlari mavjudligi) bog‘liq. Fragmentlangan tarmoqda potensial xatarlar qulay imkoniyatlarga qaraganda ko‘proq bo‘ladi, chunki bunday tarmoqlarga kirib kelish nisbatan yengil.

Konsolidatsiyalangan tarmoqlarda, odatda, katta va mustaqil kompaniyalar faoliyat ko‘rsatadilar. Binobarin, bir kompaniyaning raqobatchilik faoliyati boshqa raqobatchilarning bozordagi ulushiga bevosita ta’sir qiladi, natijada ular tezda bunga javoban harakat qiladi va raqobat kuchayadi. Bunday kompaniyalarning «narx urushi» olib borish imkoniyati raqobatning asosiy xatarli kuchidir. Bunday hollarda kompaniyalar sifat ustunliklari bo‘yicha raqobatlashishga intiladilar, ya’ni «raqobatchilik urushi» savdo markasiga sodiqlik va «narx

urushi» ehtimolini kamaytirish mavqelaridan olib boriladi. Bunday taktikaning muvaffaqiyati tarmoqda mahsulotni tabaqlash imkoniyatlariga bog‘liq.

Tarmoqda talabning o‘sib borishi raqobatning susayishiga va ayni paytda ekspansiya uchun katta imkoniyatlar vujudga kelishiga olib keladi. Talab bozor bilan birga o‘sib boradi. Kompaniyalar investitsiyalarning qaytish tezligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ularga bo‘lgan e’tiborni kuchaytiradi. Aksincha, o’sishning sekinlashuvi raqobatni kuchaytirib yuboradi, natijada, kompaniyalar sotish bozorlarini faqat boshqa kompaniyalardan tortib olish hisobigagina qo‘lga kiritishlari mumkin bo‘lib qoladi. Shunday qilib, talabning kamayishi raqobatning kuchayishiga olib keladigan asosiy xavfdir.

Tarmoqda talab kamaygan paytda chiqish to‘sqliari jiddiy xavfga aylanadi. Chiqish to‘sqliari iqdisodiy va hissiy omillar bo‘lib, ular kompaniyaning daromadi juda oz bo‘lgan hollarda ham qo‘llab-quvvatlab turadi. Natijada ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari paydo bo‘ladi, bu esa narx raqobatining jonlanishiga olib keladi, chunki kompaniyalar bekor turgan quvvatlardan foydalanishga urinib, narxni pasaytirib yuboradilar.

Odatda chiqish to‘sqliari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asbob-uskunalarga ajratilgan investitsiyalarni boshqa muqobil ishlarga ishlatib bo‘lmaydi va agar kompaniya bu sohani tark etsa, uskunalarni tashlab yuborishga to‘g‘ri keladi;
- chiqish qiymatining ishdan bo‘shatiladigan ishchilarga to‘lanadigan mablag‘lar hisobiga qatiy belgilab qo‘yilganligi;
- xo‘jalikning o‘rta bo‘g‘inlari o‘rtasidagi strategik o‘zaro munosabatlar, masalan, senergizm yoki ular o‘rtasidagi integratsiya;
- tarmoqga iqtisodiy bog‘liqlik; masalan, agar kompaniya divyessiyalanmagan bo‘lsa, u tarmoqda qolishga majbur bo‘ladi.

Tarmoqdagi firmaga ta’sir qilayotgan raqobat kuchlari tarmoqning sikli mobaynida o‘zgarib, rivojlanib boradi. Tarmoqning jadal sur’atlar bilan o‘sishi raqobat kuchlarini zaiflashtirib qo‘yadi. Bu bosqichda ekspansiya va bozor sohalarini egallab olish uchun qulay imkoniyatlar vujudga keladi. O‘sish sekinlashgan paytda raqobatning va ayniqsa, narx raqobatining xavfi kuchayib ketadi. Yetuklik bosqichida raqobat xavfi kamayadi, narx raqobatini narx peshqadamlarining kelishuvi

hisobiga cheklash imkoniyati vujudga keladi. Shuning uchun bu bosqichda daromadlar nisbatan yuqori bo‘ladi. Bu bosqichda narxga bog‘liq bo‘laman raqobat katta rol o‘ynashi mumkin bo‘lib, u mahsulotlarni tabaqlash ustunliklaridan foydalanadigan kompaniyalar uchun juda muhimdir. Tanazzul bosqichida vaziyat o‘zgaradi. Chiqish to‘sqliari yuqori bo‘lsa, raqobat juda kuchayadi, daromad kamayadi va narx urushi xavfi vujudga keladi.

Porterning «uchinchchi kuchi» xaridorlarning «savdolashish» imkoniyatidir. U eng yaxshi sifat yoki xizmat ko‘rsatishga bo‘lgan talab tufayli narxlarga tazyiq ko‘rsatish xavfini vujudga keltiradi. Zaif xaridorlar esa, aksincha, narxlarning o‘sishiga va daromadning ortishiga yo‘l qo‘yadilar. Xaridorlar quyidagi hollarda, ayniqsa, kuchli bo‘ladi:

- yetkazib beruvchi soha bir necha kichik kompaniyalardan tarkib topgan bo‘lib, xaridorlar kam bo‘lganda;
- xaridorlar tovarlarni katta miqdorda sotib olganda;
- tarmoq o‘z faoliyat turidan kelib chiqqan holda xaridorlarga kuchli darajada bog‘liq bo‘lganda;
- xaridorlar bir necha yetkazib beruvchi tarmoqlar ichidan eng past taklif qilayotgan bittasini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lganda (bu tarmoqda narx raqobatini kuchaytiradi);
- xaridorlar uchun turli kompaniyalardan tovar sotib olishni oddiy jihatdan yaxlit bitta xarid deb qarash mumkin bo‘lganda va hokazo.

To‘rtinchi raqobat kuchi – yetkazib beruvchilarning tazyiq ko‘rsatishidir. Bu tazyiq natijasida yetkazib beruvchilar narxlarni ko‘tarish bilan taxdid solib, kompaniyalarni yetkazib berilayotgan mahsulot miqdorini kamaytirishga majbur qiladi va daromadni pasaytiradi. Bunga muqobil ravishda 010 zaif yetkazib beruvchilar o‘z mahsulotlariga bo‘lgan narxni pasaytirishga va yuqoriroq sifatni talab qilishga imkon beradilar. Quyidagi hollarda yetkazib beruvchilar tomonidan ko‘rsatiladigan tayziq ayniqsa, kuchli bo‘ladi:

- yetkazib berilayotgan mahsulotning o‘rnini bosa oladigan tovarlar kam bo‘lib, u kompaniyaning ishonchli mahsuloti bo‘ladi;
- tarmoqdagi kompaniyalar ta’minotchi firmalar bilan bog‘liq bo‘lganda;

- yetkazib berilayotgan mahsulotlarning sifati yuqoriligi tufayli kompaniyalarning boshqa mahsulotga o‘tishi qimmatga tushganda;
- yetkazib beruvchilar oldinga intilishda vertikal integratsiyalanish xavfidan foydalanganda;
- sotib oluvchi kompaniyalar orqaga tomon vertikal integratsiyalanish xavfidan foydalana olmaganda.

Beshinchi raqobatchi kuch – tovarning o‘rnini bosuvchi mahsulotlarning paydo bo‘lish xavfidir. Tovarning o‘rnini to‘liq egallaydigan mahsulotlarning mavjudligi jiddiy xavf tug‘diradi va kompaniya narxlarini hamda daromadlarini cheklab qo‘yadi. Ammo kompaniya mahsulotlarining xavfnini bosa oladigan tovarlar kam bo‘lsa kompaniya narxlarni oshirishi va qo‘srimcha daromad olishi mumkin. Kompaniyaning strategiyasi bu dalildan foydalana olishi lozim.

Tarmoqdagi raqobat darajasiga ko‘ra quyidagi ***turlarga*** bo‘linadi:

- shaqatsiz raqobat;
- jadal raqobat;
- me’yordagi raqobat;
- jalb qiluvchi raqobat.

Bozorga yangi kirib kelgan firma yangi ishlab chiqarish quvvatiga, ayrim hollarda kattagina resurslarga ham ega bo‘lish mumkin. Bunday firmalar bozorda o‘z o‘rnini topib egallah uchun kurashadi. Bozorda yangi raqobatchining paydo bo‘lishi quyidagi omillarga bog‘liq:

- bozorga kirish borasidagi to‘siqlar;
- bozorda ishlayotgan kompaniyalarning reaksiyasi;
- ishlab chiqarish miqyosining tejamkorligi (bunday usuli bozorda ishlayotgan katta hajmga ega bo‘lgan kompaniyalarda bo‘ladi. Yangi firma esa bozorga birdaniga katta hajm bilan chiqolmaydi);
- texnologiya va nou-xauga erishish imkoniyatining yo‘qligi;
- «o‘qitish-tajriba» egri chizig‘ining samarasi;
- xaridorlarning ma’lum tovar markalariga moyilligi;
- korxona hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarning teng emasligi;
- sotish kanallariga kira olish;
- nazorat qiluvchi organlarning harakatlari (litsenziya ruxsatnomalar);

– tariflar va tarifdan tashqari cheklashlar (dempingga qarshi qonunchilik, mahalliy firmalarning majburiy ishtiroki).

Bozordagi vaziyat tez-tez o‘zgarib turadi, chunki bozorda ishlayotgan kompaniyalar bozorga kirib kelayotgan yangi firmalarni o‘z siyosatini o‘zgartirishga majbur qiladi. Bozorda eng ko‘p ta’sir qiladigan kuchlar «raqobatni harakatlantiruvchi kuchlar» deb ataladi. Bu kuchlarni tahlil qilish ikki bosqichdan iborat:

1) harakatlantiruvchi kuchlarni aniqlash.

2) ushbu kuchlar ta’sirini aniqlash.

Bozorda eng ko‘p uchraydigan harakatlantiruvchi kuchlar quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli tendensiyalidagi o‘zgarish;
- iste’molchilar tarkibi va tovarlardan foydalanish usullarining o‘zgarishi;
- yangi mahsulotlarni joriy qilish;
- texnologik o‘zgarishlar;
- marketing tizimidagi o‘zgarishlar;
- yirik firmalarning bozorga kirishi yoki chiqishi;
- nou-xauning tarqalish darajasi;
- tarmoqlar keng qamrovligining o‘sishi;
- unumdarlik va xarajatlar tarkibining o‘zgarishi;
- xaridorlar moyilligining tabaqalangan tovarlardan standart tovarlarga o‘tishi;
- davlat qonunchiligi va siyosatidagi o‘zgarishlarning ta’siri;
- ijobjiy qadriyatlar, moyilliklar va turmush tarzining o‘zgarishi;
- tavakkalchilik omillari ta’sirining kamayishi.

16.7. VALUTA KURSI NAZARIYALARI

Valuta kursini belgilashda har bir mamlakat o‘z iqtisodiy holatidan kelib chiqib hozirgi kunda tadqiq qilinayotgan valuta kursi nazariyasiga suyanadi. Valuta kursi nazariyasi turli valutalar orasidagi nisbat, uning omillar ta’sirida o‘zgarish darajasini o‘rganadi.

Aniq va ishonchli xulosalar, tadqiqotlar natijasi mamlakatda qanday valuta kursi rejimini tanlash, ya’ni valuta kursini o‘rnatalish

usulini hamda uni tartibga solish yo'llarini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Valuta kursini o'rnatalishi hozirgi amaliyotda valutaning to'lov qobiliyati paritetiga asoslangandir. Valuta kursi ilgari oltin standart va qat'iy belgilangan kursslari pariteti orqali o'rnatalan.

To'lovga qobiliyatlilik pariteti asosida o'rnatalgan kurs valutaning real kursini ifoda etadi. Shuningdek, to'lovga qobiliyatlilik pariteti ko'rsatkichi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni (YaIM va boshqalar) bir valutada hajmini hisoblash orqali xalqaro taqqoslashda keng qo'llaniladi.

50-yillar o'rtalaridan boshlab to'lovga qobiliyatlilik pariteti asosida mamlakatlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlari yagona valutada hisoblanadi va taqqoslanadi.

To'lovga qobiliyatlilik pariteti – bu V mamlakatning bir birlik valutasida sotib olish mumkin bo'lgan ma'lum bir mahsulotlar va xizmatlar majmuini A mamlakat valutasi sotib olish uchun yetarli bo'lgan pul miqdori.

Ammo biz bilamizki hozirgi kunda valutalar kursi to'lovga qobiliyatlilik paritetiga nisbatan haqiqiy baho kasb etmaydi.

90-yillarga kelib to'lovga qobiliyatlilik pariteti va haqiqiy valuta kursi orasidagi nisbatni o'rganish keng miqyosda amalga oshirila boshlandi. Sababi shu paytga kelib bu ko'rsatkichlar orasidagi nisbat keskin o'zgara boshladi. Natijada mamlakatalarning iqtisodiy holatini baholovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslash birmuncha noaniqliklarni keltirib chiqardi. Bu taqqoslashlarni amalga oshirish uchun nazariy valuta kursi funksiyasini bajaruvchi to'lovga qobiliyatlilik pariteti foydalanila boshlandi. Shuningdek, bu paritetning o'zgarishi orqali valuta kursini o'zgarishi darajasi ham aniqlana boshlandi. Erkin suzib yuruvchi valuta kursi rejimida valuta kursi muvozanatini ta'minlash shu paritet orqali amalga oshirilishi mumkin.

Hozirgi xalqaro iqtisodiyotda valuta kursi va to'lovga qobiliyatlilik pariteti orasidagi nisbat rivojlangan mamlakatlar uchun saqlanib qolmoqda. Boshqa mamlakatlarda bu nisbat birmuncha farq qiladi. To'lovga qobiliyatlilik pariteti AQSH dollariga nisbatan belgilanadi.

Uzoq muddatli rejada tashqi iqtisodiy aloqalar yordamida aniqlangan davlatlararo to'lovga qobiliyatlilik pariteti valuta kursslarda akslanadi va ularning o'zgarishiga olib keladi. Shu munosabat bilan

to‘lovga qobiliyatlilik pariteti valuta kursining muvozanat nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Erkin suzib yuruvchi valuta kursi rejimiga o‘tish davlatning to‘lovga qobiliyatlilik pariteti orqali ifodalangan iqtisodiy potentsiallarini muvofiqlashtirish uchun xizmat qiladi. Ammo bugungi dune bozori sharoitida valuta kursining muvozanat nuqtasi paritet bilan muvofiqlashuvi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad yuqori bo‘lgan davlatlarda saqlanmoqda. Jon boshiga daromad o‘rtada va past bo‘lgan davlatlarda mazkur muvozanat nuqta surilgan. Ya’ni o‘rtacha rivojlangan davlatlarda valuta kursi undagi paritetning ikki baravari yoki undan ortiq darajada belgilanmoqda. Boshqacha qilib aytganda, milliy valutaning mos ravishda 50% va 25% darajasida belgilanmoqda. Unda valuta kursi undagi paritetning ikki, to‘rt baravari darajasida belgilanadi. Ana shu yangi nuqtalar atrofida valuta kurslari o‘zgarmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiyotga bo‘lgan ta’sirining o‘sib borishi har bir davlat tomonidan valuta kursi va to‘lovga qobiliyatlilik pariteti o‘rtasidagi munosabatni, uning boshqa davlatlar bilan farqini o‘rganishni taqozo etadi.

To‘lovga qobiliyatlilik pariteti va valuta kursi orasidagi tafovut asosida guruhlangan mamlakatlar o‘rnii iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rniga, yoki jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadiga ko‘ra o‘rniga nisbatan mos tushadi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromad yuqori bo‘lgan davlatlar uchun valuta kursini to‘lovga qobiliyatlilik paritetiga nisbatining qiymati 1 dan kichik yoki teng. Bu davlatlar valutalarining xarid qobiliyati ichki bozorga nisbatan tashqi bozorda yuqoridir. Bu holat kuchli valutaga ega davlatlarning tashqi bozordagi xaridorlik o‘rnini ta’minlaydi.

Shunday qilib, iqtisodiy rivojlanish darajasining valuta kursi darajasiga bo‘lgan ta’ siri kuzatilmoqda: paritetining asosi bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish darjasini valuta kursining paritetdan farqini ifodalaydi.

Milliy valuta kursini to‘lovga qobiliyatlilik paritetiga nisbatan past darajadaligiga ega davlatlar quyidagi xususiyatlarga ega. Birinchidan, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM hajmi rivojlangan mamlakatlarda rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yuqori, AQSH darajasiga nisbatan 80-85 % ni tashkil qiladi. O‘tish iqtisodiyotidagi davlatlarda bu ko‘rsatkich past bo‘lib, AQSH darajasining 20-25%ini

tashkil qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida bu ko'rsatkich juda ham past bo'lib 10-15% ni tashkil qiladi.

Tabiiyki, milliy valutani dollar ekvivalenti darajasida belgilasak, yuqoridagi ko'rsatkichlarda o'zgarish yuz beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki valutani tartibga solishning turli usullarini qo'llash orqali ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar (Xitoy, Malayziya va boshqalar) milliy valutani barqarorligini oshirishga erishmoqdalar.

Rivojlanish orqasidan borayotgan O'zbekiston va boshqa davlatlarda valuta kursiga bo'lgan ta'sir ikki yo'nalishda bo'lmoqda. Devalvatsiyaga undovchi faktorlar ikki tomonlama, ya'ni ijobiy va salbiy jihatdan ta'sir etadi. Bunda salbiy ta'sir qarzning oshishini hisoblashsa, ijobiy faktor bo'lib kelajakda raqobatning va eksportning milliy valutaning arzonlashuvi asosida amalga oshirilishi hisoblanadi.

Eksportni oshirish ijobiy savdo balansini ta'minlash, ichki jamg'armani to'ldirishga, oltin valuta rezervlarini ko'paytirishga yordam beradi. O'zbekistonda eksport hajmi YaIMga nisbatan 23% (2008-yilda). Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda savdo balansini ijobiy saldosiga erishish uchun xomashyo resurslari eksport qilinmoqda. Ammo xomashyoning eksportiga asoslangan iqtisodiy siyosat natijasida davlat tashqi bozordagi o'zgarishlarga va narx-navo dinamikasiga bog'liq bo'ladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida xomashyo narxlari haddan ziyod pasaydi va bu holat arzon xomashyo eksportini vujudga keltirdi.

Valuta kursini o'rnatishda to'lovga qobiliyatilik bilan birga quyidagi nazariyalar ham qo'llaniladi.

1. Boshqariladigan valuta nazariyasi.

Bu nazariya 1929–1933-yillardagi xalqaro iqtisodiy krizis davrida, davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi tarafdarlarining nazariyalariga qarshi holatda vujudga keldi. Bunda valuta davlat tomonidan tartibga solinish nazariyasi ilgari surilgan. Bu ikki yo'nalishda mavjud bo'lgan.

Birinchi yo'nalish – suriladigan paritet yoki boshqariladigan standart nazariyasi. Bu nazariya I.Fisher va J.M. Keyns tomonidan yaratilgan. I.Fisherning fikricha, pul birligini oltin pariteti asosida boshqarish pulning to'lovga qobiliyatini barqarorlashtiradi. Keyns esa egiluvchan paritetni tarafdori bo'lgan. U milliy valuta kursini tushirib

bahoga ta'sir o'tkazish va shu orqali eksportni, mamlakatdagi ishlab chiqarish va bandlikni yaxshilash, shuningdek, tashqi bozor uchun kurashni taklif qilgan.

Ikkinchi yo'nalish – muvozanat yoki neytral valuta kursi nazariyasi, bunda to'lovga qobiliyatilik pariteti o'rniga milliy iqtisodiyot uchun mos neytral valuta kursini o'rnatish ilgari surilgan.

2. Yetakchi valutalar nazariyasi.

Bu nazariyaning asoschilari amerikalik iqtisodchilari J.Vilyams, A Xansen, ingliz iqtisodchilari R.Xoutri, F.Grexem va boshqalardir. Bu nazariyaning mohiyati quyidagilarni e'tirof etadi:

1) valutalarni yetakchi (dollar va funt sterling), qattiq (boshqa rivojlangan mamlakatlar valutalari: Yaponiya eni, Shveysariya franki va boshqalar) va yumshoq, ya'ni xalqaro iqtisodiy munosabatlarda aktiv bo'limgan valutalarga bo'linishi lozimligi;

2) dollarning oltinga qaraganda yetakchi roldaligi;

3) barcha mamlakatlarning valuta siyosatida dollarga tayanishi va uni rezerv valutaligini mamlakatning milliy manfaatiga teskari bo'lgan taqdirda ham qo'llab-quvvatlashi zarurligi.

Bretton-Vuds tizimi inqirozi dollarning yetakchiligidagi bir oz bo'lsa ham putur yetkazdi. Shuningdek, AQSH valutasi ham boshqa valutalar singari barqaror emasligi o'z tasdig'ini to'di.

3. Qat'iy belgilangan paritet va kurslar nazariyasi.

Bu nazariya tarafдорлари (J.Robinson, J. Bikerdayk, A.Braun, F.Grexem) qat'iy belgilangan paritet rejimini qo'llashni taklif qilishgan. Bunda to'lov balansi muovazanatini saqlash uchungina kursning o'zgarishiga yo'l qo'yilgan. Ularning fikricha, valuta kursining o'zgarishi – to'lov balansini tartibga soluvchi samarali vosita emas, chunki tashqi bozordagi narxlarning o'zgarishiga valuta kursining o'zgarishi yetarlicha ta'sir qilmaydi. Bu nazariya Bretton-Vuds tizimi prinsiplarida o'z ifodasini topgan.

4. Suzib yuruvchi valuta kurslari nazariyasi.

Bu nazariyaning mohiyati qat'iy belgilangan valuta kursiga nisbatan suzib yuruvchi valuta kursi rejimining quyidagi ustunliklarini asoslashdan iboratdir:

- to'lov balansining avtomatik tekislanishi;
- tashqi muhitga bog'liq bo'limgan holda milliy iqtisodiy siyosat usullarini erkin tanlanishi;

- valuta spekulyatsisi oldini olish, chunki suzib yuruvchi valuta kursida valuta operatsiyasida qatnashuvchi tomonlar foydasi nolga teng bo‘ladi, ya’ni biri foyda qilsa, ikkinchisi shu miqdorda zarar ko‘radi;
- xalqaro savdoni rag‘batlantirishi;
- davlatning valuta kursini o‘rnatishiga ko‘ra valuta bozorining o‘rnatgan valuta kursi yaxshiligi.

Monetar iqtisodchilar fikriga ko‘ra, valuta kursi bozordagi talab va taklifga asosan erkin tebranib turishi lozim, davlat esa kursni tartibga solishi lozim emas.

5. Valuta kursi normativligi nazariyasi.

Bu nazariyaga ko‘ra valuta kursi iqtisodiyotni tartibga soluvchi qo‘srimcha vositadir. Bunda egiluvchan kurs rejimi taklif qilingan bo‘lib, bu kursni davlat nazorat qilishi lozim. Bu nazariyaning normativ nazariya deb atalishiga sabab, bunda valuta kursi paritetga va xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan kelishuvlarga asoslanadi.

Barcha valuta kursi nazariyalari tarafdarlarini ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruhdagilar eksportyorlar manfaatini himoyalash maqsadida valuta kursini pasaytirishga qaratilgan davlat valuta siyosatini yuritishni xohlasalar, ikkinchi guruhdagilar iqtisodiy qonun-qoidalar asosida valuta kursini erkin tebranishini tarafdarlidir.

Ikkinci guruhdagilar iqtisodiy muvozanatga davlatning aralashuviz erishishni ko‘zda tutadilar. Bunda valuta kursi nazariyalari valuta kursini oshishiga hamda iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi degan fikrni ma‘qullaydilar. Shuningdek, bu valuta kursi nazariyalari asosida mamlakat iqtisodiyoti uchun to‘lovga qobiliyatlilik paritetiga nisbatan valuta kursini tushirish davlat uchun foydali emasligini isbotlashgan.

Eksporterlar tarafdarları fikrlarini davlatning valuta kursini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarini (devolvatsiya) ma‘qulaydilar. Buning asosiy maqsadi eksportni rivojlantrish va to‘lov balansining ijobjiy saldosini ta’minlashdir. Lekin valuta kursini o‘rnatishda barcha makroiqtisodiy parametrлarni (YaIM o‘sish darajasi, inflyatsiya va boshqalar) hisobga olish lozim.

16.8. BMTNING INSON RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA MING YILLIK DEKLARATSIYASI

Jahon amaliyotidan faqat YaIM ortishining o‘zi ta’lim darajasi yuksalishi, odamlar salomatligi mustahkamlanishi, inson huquq va erkinliklari ta’minlanishiga olib kelmasligiga doir ko‘plab misollar keltirish mumkin. Hatto daromadlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari deyarli bir xil bo‘lgan mamlakatlarda turmush sifati ko‘rsatkichlari bir-biridan jiddiy ravishda farq qilishi mumkin.

Insonni rivojlantirish konsepsiyasida an’anavaiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, shu jumladan YaIM hajmi va jon boshiga o‘rtacha daromad ijtimoiy resurslarni taqsimlashda yoki mamlakatlarni rivojlantirish darajasi bo‘yicha tasniflashda universal mezon vazifasini o‘ta olmaydi. Tobora ko‘proq miqdorda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish turmush darajasini oshirish hamda boshqa umummilliy vazifalarni eng oqilona hal etish vositasi ekanligi to‘g‘risidagi tasavvurlar muayyan darajada bir yoqlama yondashuvdir. Bunday qarashlar noiqtisodiy hisoblangan ko‘pgina boshqa rivojlantirish mezonlariga yetarli darajada baho bermaslikka sabab bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari rasmiy jihatdan yuqori bo‘lganda ham odamlarning turmush darajasi nisbatan past bo‘lishi mumkin. Buning aksi – iqtisodiy o‘sishdagi natijalar salmoqli bo‘lmaganda ham turmush darjasining nisbatan yuqoriligi kuzatiladi.

Ijtimoiy rivojlanishda insonga faqat ma’naviy sohadagina emas, balki takror hosil qilish aloqalarida ham markaziy o‘rin ajratila boshlandi. Zero, bevosita inson avloddan avlodga meros bo‘lib qoladigan bilimlarni egallash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga egadir. “Inson kapitali” iqtisodiy kategoriyasida o‘z ifodasini topgan bu g‘oya jahon BMT ekspertlari tomonidan inson salohiyatining insonni rivojlantirish dinamikasiga ta’sirini aniqlaydigan modellar yordamida ishlab chiqilgan yangi “Insoniyatni barqaror rivojlantirish” nazariyalari, “Milliy boylik konsepsiyasi” kabi ijtimoiy tafakkur negizini tashkil etadi.

Insonni rivojlantirish – odamlarning uzoq va sog‘lom, munosib turmush kechirishlari, ma’lumotli bo‘lishlari uchun vositalardan foydalanishlari imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ammo bu imkoniyatlarni odamlarning o‘zлari tanlaydilar. Rivojlantirish jarayoni

insonga uning ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq ravishda o‘zini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi kerak.

Insonni rivojlantirishning asosiy mezoni umr ko‘rish davomiyligi, savodxonlik darajasi va resurslardan foydalanish imkoniyatini ifoda etadigan Insonni rivojlantirish indeksidir. Davlatning farovonligi faqat daromad darajasiga emas, balki bu daromaddan qanday foydalanishiga ham bog‘liqdir. Daromadlar mo‘may bo‘lishining o‘zi insonni rivojlantirishni kafolatlamaydi. Shunday ekan, insonni rivojlantirishning ikki xususiyati – imkoniyatlarni shakllantirish va ulardan foydalanishni farqlash kerak. Insonni barqaror rivojlantirish faqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlabgina qolmasdan, uning natijalarini adolatli taqsimlashni ham nazarda tutadi. Bunday rivojlanish aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalariga birinchi darajali ahamiyat berilishini, ular imkoniyatlarini kengaytirishni, ularning o‘z turmushlariga ta’sir ko‘rsatadigan qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishlarini ta’minalashni nazarda tutadi. Bunday rivojlanish insonlar manfaatini ko‘zlaydi, ular uchun ish joylarni ko‘paytirishga, jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab taraqqiy etgan davlatlarda insonga va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasiga xarajatlar moddiy jamg‘armalar miqdoriga qaraganda yuqoriqoq bo‘lmoqda. Ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritish qanchalik muhim bo‘lmisin, insonni rivojlantirishga sarmoyalarga tobora ko‘proq ustuvorlik berilmoqda. Ya’ni mazkur mamlakatlarda takror hosil qilish jarayonidagi eng jiddiy o‘zgarishlar moddiy ishlab chiqarish sohasidan tashqarida sodir bo‘lmoqda.

Insonni rivojlantirish konsepsiysi nihoyatda ko‘p qirrali, uning inson va jamiyat hayotining turli tomonlarida qo‘llanilishi imkoniyatlari keng. BMT Rivojlanish dasturining har yilgi insonni rivojlantirish to‘g‘risidagi ma’ruzalari va turli mamlakatlarning milliy ma’ruzalari xuddi shundan dalolat beradi. BMT Rivojlanish dasturining 1990-yildagi bunday birinchi ma’ruzasida insonni rivojlantirish nazariyasi va uni o‘lchash indikatorlari chuqur ishlab chiqilishi bilan bir qatorda urbanizatsiya muammolariga bag‘ishlangan qism ham mavjud edi. Ana shundan keyingi ma’ruzalar boblari hayotiy ehtiyojlar, odamlar xavfsizligining turli mezonlari, harbiy xarajatlarni qisqartirish hisobiga ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlari, hamkorlikning

yangi yo‘nalishlari, qashshoqlik bilan kurash, ish biland bandlikka globallashuvning ta’siri, iste’mol modellari, insonni rivojlantirish bilan barqaror ekologik rivojlanish mezonlari o‘rtasidagi bog‘liqlik kabi ko‘pgina masalalarni qamrab olgan.

Shu tariqa ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi insonni fakat ijtimoiy hayotning an’anaviy ma’naviy sohasidagina emas, takror hosil qilish jarayonlarida ham insonga markaziy o‘rinni ajratadi. Bunda inson ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning birlamchi va pirovard maqsadi ekanligi e‘tirof etiladi. Ya’ni rivojlantirishning insoniy yoki ijtimoiy mezoni dominanta bo‘lib, moddiy-ashyoviy salohiyat esa bu rivojlanishning sharti deb belgilanmoqda.

2000-yilning sentabrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining *Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi e’lon* qilindi. 189 mamlakat tomonidan qabul qilingan ushbu Deklaratsiyada davlatlar o‘z zimmasiga qashshoqlikka barham berish uchun yangi global sheriklini yo‘lga qo‘yish majburiyatini oldilar. Shuningdek, 2015-yilga borib erishilishi kerak bo‘lgan boshqa maqsadlar ham belgilandi. Ular *Mingyillik rivojlanish maqsadlari* nomini oldi.

Rivojlanish soxasidagi maqsadlar BMT tomonidan qator yillar davomida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalarning bitimlari va rezolyutsiyalari asosida ishlab chiqildi. Ushbu maqsadlar 1996-yilda “*Rivojlanish sohasidagi xalqaro maqsadlar*” sifatida shakllantirilgan edi. Shundan keyin bu maqsadlarni takomillashtirish davom ettirildi.

Mingyillik rivojlanish deklaratsiyada insonni global rivojlantirish va inson xavfsizligini ta’minlashga erishish uchun umumiy harakat rejasi o‘z ifodasini topdi. Shu bilan bir qatorda mazkur maqsadlarda ko‘zda tutilgan hal qiluvchi yo‘nalishlar bo‘yicha jahonda erishilgan muvaffaqiyatlarni o‘lchash va ular monitoringini o‘tkazishning miqdor mezonlari taklif etildi. Mingyillik rivojlanish maqsadlari 8 maqsad, 18 vazifa va 48 ko‘rsatkichdan iborat (9-jadval). Mazkur vazifalarining aksariyat ko‘pchiligi 1990-yillarda jahonda tarkib topgan ahvolni hisobga olgan holda 2015-yilga qadar hal qilinishi rejalandi.

9-jadval

Mingyillik rivojlanish maqsadlari va vazifalari

Maqsadlar	Vazifalar
<u>1-MAQSAD.</u> Nihoyatda qashshoqlik va ochlikka barham berish	<ul style="list-style-type: none"> • 1990–2015-yillar davomida kuniga 1 AQSH dollari miqdorida daromadga ega bo‘lgan aholi ulushini ikki baravarga kamaytirish. • Hamma uchun, shu jumladan ayollar va yoshlar uchun to‘la va samarali ish bilan bandlikni hamda munosib ishga ega bo‘lishni ta’minlash. • 1990–2015-yillar davomida ochlikdan azob chekayotganlar sonini ikki baravarga kamaytirish
<u>2-MAQSAD.</u> Umumiy boshlang‘ich ta’limni ta’minlash	<ul style="list-style-type: none"> • 2015-yilga kelib jahondagi barcha bolalar – ham o‘g‘il bolalar, ham qizlar to‘la hajmda boshlang‘ich ta’lim olish imkoniyatlariga ega bo‘lishlarini ta’minlash
<u>3-MAQSAD.</u> Erkaklar va ayollar tengligini rag‘batlantirish hamda ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish	<ul style="list-style-type: none"> • 2005-yilda boshlang‘ich va o‘rta ta’lim sohasida, 2015-yildan kechiktirmasdan esa ta’limning barcha darajalarida jinslar o‘rtasidagi tengsizlikka barham berish
<u>4-MAQSAD.</u> Bolalar o‘limini kamaytirish	<ul style="list-style-type: none"> • 1990–2015-yillar davomida 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida o‘limni uchdan ikki barobarga kamaytirish
<u>5-MAQSAD.</u> Onalikni muhofaza qilishni yaxshilash	<ul style="list-style-type: none"> • 1990–2015-yillar davomida onalar o‘limini to‘rtadan uch baravarga kamaytirish. • 2015–yilga borib reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlardan hammaning foydalanishini ta’minlash.
<u>6-MAQSAD.</u> VICH/SPID, bezgak va boshqa kasalliklar bilan kurashish	<ul style="list-style-type: none"> • 2015-yilga borib VICH/SPID tarqalishini to‘xtatish va kasalliklarni kamaytirish tendensiyasi boshlanishiga erishish. • 2010-yilga borib SPIDdan davolanishni xohlagan hammaga bu imkoniyatni yaratish. • 2015-yilga borib bezgak va boshqa asosiy kasalliklar

	tarqalishini to‘xtatish hamda kasallik kamayishi tendensiyasi boshlanishiga erishish
<u>7-MAQSAD.</u> <u>Ekologik barqarorlikni ta’minlash</u>	<ul style="list-style-type: none"> • Barqaror rivojlanish tamoyillarini mamlakat strategiyalari va dasturlariga qo‘sish hamda tabiiy resurslar yo‘qotilishi jarayonlarini to‘xtatish. • 2010-yilga borib biologik xilma-xillik yo‘qotilishi sur’atlarini sezilarli darajada kamaytirish orqali biologik xilma-xillik kamayishi ko‘lmlarini kamaytirish. • 2015-yilga borib toza ichimlik suvi va asosiy sanitariya-gigiyena vositalariga doimiy ega bo‘lmagan aholi ulushini ikki baravarga kamaytirish. • 2020-yilga borib vayrona kulbalarda yashayotgan kamida 100 million kishining turmush sharoitlari jiddiy ravishda yaxshilanishini ta’minlash
<u>8-MAQSAD.</u> <u>Rivojlanish maqsadlarida global sherikchilikni shakllantirish</u>	<ul style="list-style-type: none"> • eng rivojlanmagan mamlakatlar, dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mamlakatlar va orollardagi kichik rivojlanayotgan mamlakatlar alohida ehtiyojlarini qondirish. • Ochiq, tartibga solinadigan, barqaror va kamsitmaydigan savdo va moliya tizimini yaratishni davom ettirish. • Rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzdorlik muammolarini kompleks hal etish. • Farmatsevtika kompaniyalari bilan hamkorlikda rivojlanayotgan mamlakatlarni arzon dorilar bilan ta’minlash. • Xususiy sektor bilan hamkorlikda hamma yangi texnologiyalar, ayniqsa axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari afzalliklaridan foydalana olishi uchun choralar ko‘rish

Mingyillik rivojlanish global maqsadlari doirasida mamlakatlar o‘z milliy muammolarini hal etishga qaratilgan maqsadlarini belgilab olishlari mumkin edi. Ayni paytda Mingyillik rivojlanish maqsadlari faqat rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidangina emas, shuningdek rivojlangan davlatlar tomonidan ham aniq choralar ko‘rilishini talab etadi. Rivojlangan davlatlar belgilangan global maqsadlarda erishishga o‘z hissalarini qo‘sishlari ko‘zda tutilgan.

Mingyillik rivojlanish maqsadlarining monitoringi umuman BMT tizimi bo'yicha ham, shuningdek, ayrim davlatlar darajasida ham amalga oshiriladi. Umumiylar darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi BMTning Bosh Assambleyalarida Mingyillik rivojlanish maqsadlari ayrim vazifalarining bajaralishi to'g'risida har yili hisob berishi shart. Mingyillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi hisobot mamlakatlar tomonidan har 5 yilda bir marta taqdim etiladi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlarining dastlabki yetti maqsadi bir-birini o'zaro to'ldiradi hamda kambag'allikning barcha ko'rinishlarini kamaytirishga qaratilgan. Mazkur muammolarga ochlik, tirikchilik uchun mablag'ning yetishmasligi, ta'lim va sog'liqni saqlash darajasining pastligi, erkak va ayollarning tengsizligi hamda atrof-muhit ahvolining yomonlashishi kiradi. Ushbu har bir maqsad o'zicha muhim bo'lishiga qaramasdan ular jamlanma holda kambag'allik muammosini hal etishga kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Masalan, sog'liqni saqlash samaradorligini oshirish maktab o'quvchilarining soni ko'payishiga va kambag'allik darajasi pasayishiga olib keladi. Aholining ta'lim darajasini oshirish odamlar sog'lig'ini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Daromadlarning ortishi insonga o'z ta'limi darajasini oshirish, sog'lig'ini mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, atrof-muhitni sog'lomlashtirishga yordam beradi. Mingyillik rivojlanish maqsadlarining sakkizinchisi maqsadi rivojlanish maqsadlarida global sherikchilikni shakllantirishni nazarda tutadi. Umohiyat jihatidan yuqoridagi dastlabki yettita maqsadga erishish vositalarini belgilab beradi. Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishish boy davlatlardan qo'shimcha yordamni, shu jumladan, kambag'al mamlakatlar qarzlarini kamaytirish va o'zaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etish orqali yordam ko'rsatishni talab qilishi mumkin.

1990-yilgi Insonni rivojlantirish to'g'risidagi birinchi ma'ruzada insonni rivojlantirish o'z ko'lami va yalpi qamrovi tufayli barcha mamlakatlar uchun xos ekanligi alohida ta'kidlanadi: "Insonni rivojlantirish ishlab chiqarish bilan tovarlarni taqsimlashni birlashtiradi, inson qobiliyatlarini kengaytiradi va undan foydalanishni yaxshilaydi. Bu, shuningdek, odamlar nimaga ega bo'lishi kerak,

tirikchilik o‘tkazishga mablag‘ topish uchun nima qilish lozimligi muammosiga ham e’tiborni qaratadi. Bundan tashqari insonni rivojlantirish faqat uning asosiy ehtiyojlarini qondirishnigina emas, balki insonni umumiy va jo‘shqin jarayon sifatida rivojlantirishga ham taalluqlidir. Bu ham kamroq rivojlangan, ham yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar uchun bir tarzda qo‘llanila oladi”.

BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari qabul qilingan davrdan o‘tgan yillar davomida ko‘p narsalarga erishildi. Jahon hamjamiyati 2015-yilda 1990-yilga nisbatan kuniga 1 AQSH dollaridan kam daromadga ega aholi salmog‘ini ikki barobarga qisqartirish vazifasini bajarish yo‘lidadir. Xalqaro e‘tirof etilgan kambag‘allik darajasi – kuniga 1,25 AQSH dollari miqdorida daromad hisobiga yashayotgan odamlar soni 1990 yildagi 1,8 milliard kishidan 2005-yilga kelib 1,4 milliard kishiga kamaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nihoyatda qashshoq yashayotgan aholining ulushi 46,0 % dan 27,0 % gacha kamaydi. Ya’ni jahonda bu vazifa muvaffaqiyatli hal etilishi kutilmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar: xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillari, mahsulotning hayotiy sikli, mutlaq ustunlik nazariyasi, qiyosli ustunlik nazariyasi, xalqaro mehnat taqsimoti, raqobat ustunligi, valuta kursi nazariyalari.

16-bob YUZASIDAN XULOSALAR

Xalqaro savdo orqali dunyo mamlakatlari ma’lum bir tovarlar yoki tovarlar guruhini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ularni jahon bozoriga olib chiqish orqali undan munosib o‘rinni egallashga harakat qiladi. Savdoni rivojlantirish va savdo yo‘lidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq muammolar, bugungi kunda dunyo mamlakatlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mazkur bob xalqaro savdoning mohiyati, rivojlanish tendensiyalari va asosiy yo‘nalishlarini nazariy jihatdan asoslab beradi. Bundan tashqari xalqaro savdoning klassik nazariyalari, tashqi savdo operatsiyalarini tashkil etish, tashqi savdo va xalqaro savdo siyosatini amalga oshirish masalalari mazkur bob orqali har taraflama chuqr o‘rganish mumkin.

Jahon xo‘jaligi, jahon bozori va integratsion jarayonlarning uzoq tarixi bor.

Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘li (m.a. II asrda) davrida aniq namoyon bo‘lgan bu jarayon XVI asrda buyuk geografik kashfiyotlar tufayli kuchaydi. II jahon urushidan keyingi davrda esa bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar maxsus tashkilotlar orqali amalga oshirilib, hozirgi davrni ularsiz tasavvur etish mumkin emas. «Benilyuks» (1944), Umumiy bozor (1957), Yevropa ittifoqi, OPEK (1960), NAFTA, EKO, Xalqaro valuta fondi, Jahon banki va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bu aloqalarni ma’lum tartibga solib kelmoqdalar.

A.Smit mehnat taqsimoti ishlab chiqarishsa taraqqiyot asosi ekanligini isbotlab bergen bo‘lsa, D.Rikardo... bu mehnat taqsimoti faqat ma’lum mamlakat doirasidagina emas, balki dunyo miqyosida bo‘lishi kerak, degan g‘oyani ilgari surdi. Chunki har bir davlat ma’lum sohada nisbiy ustunlikka ega bo‘ladi. «Nisbiy ustunlik», «solishtirma chiqimlar» nazariyasi xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv zarurligini isbotlab berdi.

Bu borada bir qancha iqtisodiy ta’limot, nazariya va konsepsiylar ilgari surildi.

Xalkaro iqtisodiy aloqalar bo‘yicha neoklassik (sof ta’limot) va neokeynschilik nazariyalari keng tarqagan. «Sof» ta’limot tarafdorlari fikricha, iqtisodiy aloqalar xalqaro maydonda ham erkin bozor tamoyillari asosida rivojlanishini qo‘llaydilar (erkin raqobat, hamma uchun bir xil imkoniyat, taklif doimo talabni vujudga keltiradi, savdo balansi uzuzini tartibga soladi va boshqalar).

Neokeinschilik ta’limoti vakillari bu jarayondagi bozor munosabatlariga davlatning faol ishtirokini ma’qul ko‘radilar.

Mustamlakachilik mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlar bo‘yicha turli nazariyalar mavjud, ularning ko‘pchiligi metropoliya koloniyalari uchun ijobjiy rol o‘ynaganligini himoya qiladi. Bevosita investitsiyalar nazariyasi mustamlakachilikda ham bo‘lib, mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan mamlakatlarda iqtisodiyotni qutqarishdagi asosiy yo‘l deb hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivoji bilan birga bir qancha muammolar mavjud, bu odatda boy va nisbatan qoloq mamlakatlardir. 70-yillarda yangi xalqaro iqtisodiy tartib

qabul qilindi. Mavjud muammolarni hal etish uchun BMT tomonadan «insoniy rivojlanish» konsepsiysi taklif etilgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Mutlaq ustunlik nazariyasini qaysi olim ta'riflagan?
2. Qiyosli ustunlik nazariyasini qaysi olim ta'riflagan?
3. Mutlaq ustunlik nazariyasi va qiyosli ustunlik nazariyasi o'rtasida farq bormi?
4. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi kimlar tomonidan ochilgan?
5. Leontevcha ziddiyat nimada?
6. Mahsulotning hayotiy sikli necha bosqichda?
7. Xalqaro mehnat taqsimotini tadqiq etishning tanqidiy yo'nalishlari kimlar tomonidan ilgari surildi?
8. Raqobat ustunligi nazariyasi nimada ifodalanadi?
9. Valuta kursi nazariyalarini ta'riflang.
10. Tovarning hayotiylik siklini qanday ta'riflashimiz mumkin?

17-bob. O‘TISH DAVRINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

17.1. O‘TISH DAVRINING MAZMUNI. BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH YO‘LLARI

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining umumiyligi mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o‘zgartirishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri – ma’muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o‘zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlarini amalga oshiriluvchi tarixiy davrdir.

1980–1990-yillarga kelib dunyoda ro‘y beragan muhim o‘zgarishlar iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to‘g‘risidagi nazariyalarni qaytadan ko‘rib chiqish va ularga jiddiy o‘zgartirishlar kiritishni zarur qilib qo‘ydi. Chunki, bu vaqtga kelib g‘arb mamlakatlarida uzoq vaqtdan beri (A.Smit davridan boshlab) hukm surib kelgan erkin iqtisodiy tartibga solish, ya’ni iqtisodiyotning o‘zini-o‘zi tartibga solish g‘oyasi ham, iqtisodiyotni markazlashtirilgan tarzda tartibga solish va boshqarish g‘oyasi ham inqirozga uchradi. Bunday sharoitda iqtisodiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo‘llarini qidirib topish zarur bo‘lib qoldi. Bu vaqtga kelib ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarning tajribalari umumlashtirilib, iqtisodiyotning yangi taraqqiyot yo‘li – ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti deb tan olindi va aksariyat davlatlar shu yo‘lni tanladilar. Lekin bunday bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari (modellari) xilma-xil bo‘lib, ularning umumiyligi va xususiy tomonlari farqlanadi.

Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha yo‘llari umumlashtirilib, quyidagi to‘rtta asosiy turga bo‘linadi:

- 1) rivojlangan mamlakatlar yo‘li;
- 2) rivojlanayotgan mamlakatlar yo‘li;
- 3) sobiq sotsialistik mamlakatlar yo‘li;
- 4) sotsializm g‘oyalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mexanizmi bilan qo‘sib olib borish yo‘li.

Bu yo‘llar turli-tuman va har xil bo‘lishiga qaramay ularda umumiylilik mavjuddir. Ularning umumiyligi shundaki, bu yo‘llarning

hammasi bozor iqtisodiyotiga o‘tishni maqsad qilib qo‘yadi va mazkur iqtisodiyotning qonun-qoidalari, amal qilish mexanizmi ko‘p jihatdan umumiy bo‘ladi. Shu bilan birga har bir yo‘lning o‘ziga xos xususiyatlari ham bor, bu esa bozor munosabatlarini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy sharoitlari har xil bo‘lishidan kelib chiqadi. Masalan, bozor munosabatlariga o‘tishning rivojlangan mamlakatlar yo‘lida oddiy tovar xo‘jaligidan erkin raqobatga asoslangan klassik yoki erkin bozor iqtisodiyotiga va undan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o‘tiladi.

Mustamlakachilikdan ozod bo‘lib, mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lining xususiyati – bu qoloq, an’anaviy iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishdir. Nihoyat, sobiq sotsialistik mamlakatlar yo‘lining muhim belgisi markazlashtirilgan, ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o‘tishdan iboratdir. Bu yo‘lning boshqa yo‘llardan farqi shundaki, totalitar iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti bilan umumiyligi yo‘q, ular batamom bir-biriga zid. Shu bilan birga ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o‘tayotgan mamlakatlarning o‘zi o‘tish sharoitlari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllari bilan bir-birlaridan farqlanadi.

Hozirda uzoq davr mobaynida ijtimoiy xo‘jalikni sotsializm qurish g‘oyalari asosida yuritib kelgan, keyinchalik ushbu g‘oyalarning muhim jihatlarini saqlab qolgan holda bozor mexanizmlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘ziga xos o‘tish yo‘lini yaratgan mamlakatlar tajribasini ham alohida ko‘rsatish mumkin. Jumladan, Xitoy, Vietnam kabi ilgari faqat ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar bugungi kunda tub islohotlar orqali samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish borasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Bularning barchasi bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llarining o‘ziga xos xususiyatlaridir.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga **revolyutsion yo‘l** bilan, ya’ni jadal usulda yoki **evolyutsion yo‘l** bilan, ya’ni bosqichma-bosqich o‘tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o‘tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni birdaniga va batamom sindirish talab etilib, «karaxt qilib davolash» usuli («shokovaya terapiya») deb ataladi. Eski iqtisodiy munosabatlarni

bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikastsiz vujudga keltirish mumkin. Islohotlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, evolyutsion yo‘l kamroq ijtimoiy larzalarga olib keladi, ancha izchil va muqarrardir.

Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llarigina emas, balki uning andozalari ham xilma-xildir. Eng avvalo, ular shunday bozor iqtisodiyoti vujudga keltirilayotgan va amal qilib turgan mamlakatlarning milliy xususiyatlari va an’analari bilan farq qiladi. Shu boisdan bozor iqtisodiyotining ma’lum andozalari ularni amalgalashuvchi muayyan mamlakatga mansubligiga qarab ajratiladi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Argentina, Polsha andozalari va hokazo¹⁹³.

Ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o‘tishning zarurligi iqtisodiy o‘sish ekstensiv omillaridan foydalanish imkoniyatlarining tugab borishi bilan notovar iqtisodiyotning amal qilish layoqatining pasayishi orqali ifodalanadi.

Ma’muriy-buyruqbozlik tizimi ikkita ahamiyatli kamchilikka ega:

1) uning moslashuvchan emasligi, ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga juda sekinlik bilan moslashib borishi;

2) xo‘jalik yuritish tashabbuskorligini «yo‘qotib yuborish» oqibatida samaradorlikning o‘ta darajada pasayib ketganligi.

Ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish ko‘plab mamlakatlarda umumi tendensiyaga ega. Bu jarayon iqtisodiyotni erkinlashtirish, chuqur institutsional (eng avvalo, mulkchilik munosabatlarida) o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi, biroq, bir vaqtning o‘zida moliyaviy barqarorlashtirish chora-tadbirlarini amalgalashuvchi taqozo etadi. Ma’muriy-buyruqbozlik tizimini o‘zgartirish mazkur tizim asosining o‘zgarishini hamda uni sifat jihatidan farq qiluvchi bozor tizimiga almashtirilishini anglatar ekan, bunday turdagiligi o‘zgarishlarni tizimiy islohotlar deb atash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish. Erkinlashtirish – bu xo‘jalik hayotining barcha sohalaridagi to‘siq hamda cheklovlarini, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga

¹⁹³ Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. –T.: O‘zbekiston, 1993, 23-bet.

yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. U butun iqtisodiyotga tatbiq etilib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda davlat monopoliyasini bekor qilish;
- resurslarning markazlashgan holdagi taqsimotini tugatish;
- narxlarning asosan, talab va taklif nisbati asosida shakllantirilishiga o‘tish;
- ichki va tashqi bozorlarda transaksion bitimlar ustidan davlat nazoratini pasaytirish.

2. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini yaratish. Bu yo‘nalish quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

- barcha iqtisodiy agentlarning ish faolligi uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilishi;
- bozorga xorijiy raqobatchilarning ham kirishi uchun imkon berilishi;
- kichik biznesning rivojlanishiga halaqit beruvchi ma’muriy to‘siqlarni olib tashlash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo‘llab-quvvatlash va tarmoqqa kirishidagi to‘siqlarni pasaytirish;
- tabiiy monopoliyalarning narx va mahsulot sotish siyosatini tartibga solish va boshqalar.

3. Institutsional o‘zgarishlar. Mazkur o‘zgarishlar quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- mulkchilik munosabatlarini o‘zgartirish, jumladan, xususiy sektorni yaratish;
- bozor infratuzilmasini (tijorat banklari, tovar va fond birjalari, investitsiya fondlari va h.k.) shakllantirish;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tizimini yaratish;
- bozor sharoitlariga mos tushuvchi xo‘jalik qonunchiligini qabul qilish va boshqalar.

4. Tarkibiy o‘zgarishlar. Tarkibiy o‘zgarishlar birinchi navbatda iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari tarkibida oldingi tizimdan qolgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo‘naltirilgan. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishdan asosiy

maqsad – ichki va tashqi bozorlarda to‘lovga qodir talabga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini rivojlanтирishdan iborat.

5. Makroiqtisodiy, asosan, moliyaviy barqarorlashtirish. Aslini olganda bu jarayon tizimiyl islohotlar qatoriga kirmaydi, chunki u bozor iqtisodiyoti barqaror amal qilayotgan mamlakatlarda ham tez-tez o‘tkazilib turadi. Bu yo‘nalishning muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma’muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi eng avvalo va kuchli ravishda moliyaviy sohada, ayniqsa yuqori inflyatsiya shaklida namoyon bo‘ladi. Inflyatsiyaning uzoq vaqt mavjud bo‘lishi bozor munosabatlarining me’yorda qaror topishiga to‘sinqilik qiladi, shuning uchun uni bartaraf etish o‘tish davri iqtisodiyoti uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari tizimiga pul emissiyasini cheklash, davlat budgeti taqchilligini qisqartirish, ijobjiy foiz stavkasini ta’minalash va boshqalar kiradi.

6. Aholini ijtimoiy himoyalashning bozor xo‘jaligiga mos bo‘lgan tizimini shakllantirish. Bu tizim aholining nisbatan muhtoj qatlamini aniq ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga o‘tishga yo‘naltirilgan.

Bozor tizimining ko‘rsatib o‘tilgan asosiy unsurlari shakllanishining yakuniga yetishi o‘tish davri tugaganligidan darak beradi.

17.2. O‘TISH DAVRI IQTISODIYOTI: XUSUSIYATLARI, KO‘RINISHLARI VA FUNKSIYASI

Iqtisodiyotda o‘tish davri iqtisodiyoti degan atama mavjud. O‘tish davri iqtisodiyoti bu biror bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi iqtisodiy tizimga o‘tish holatidir. Ushbu o‘tish jarayoni natijasida o‘tish tizimining yangi xususiyatlari shakllanishi, rivojlanishi va ushbu tizimning tarkibiy asoslarini tubdan o‘zgarishi amalga oshadi.

O‘tish iqtisodiyotining quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud:

1. O‘tish davri iqtisodiyotida yangi iqtisodiy tizim uchun asos yaratishi kerak, bunda uning turli iqtisodiy tarmoqlari ham o‘z navbatida qayta tiklanadi. O‘tish davri iqtisodiyotida "bazaviy" atama muhim hisoblanadi va u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga egalik shaklini;
- iqtisodiy munosabatlarning shakllari;

- iqtisodiy ishtirokchilar o‘rtasidagi faoliyatlarni muvofiq-lashtirish shakli.

Yangi iqtisodiyotning bazasi yaratilgach, iqtisodiy tizimning o‘tish davri tugallanib, yangi sifat bosqichga o‘tadi.

2. O‘tish iqtisodiyotining muhim xususiyati bu uning murakkab tuzilishidir. Bunda iqtisodiy tuzilishi o‘zgarishga uchrab, nafaqat iqtisodiy aloqalar turini o‘zgarishi balki bu mamlakatda bir vaqtning o‘zida turli xil mulkchilik shakllari ham o‘zgarishga uchraydi. Shunday qilib, o‘tish davri iqtisodiyoti eski va yangi asoslarning mavjudligi bilan bir qatorda, iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning turli xil shakllari mavjudligi bilan tavsiflanadi.

3. O‘tish davri iqtisodiyoti nobarqaror rivojlanish holati bilan ajralib turadi, chunki eski munosabatlarning o‘zgarishi yangi institutlar va qoidalar yo‘q bo‘lgan sharoitda amalga oshadi, buning oqibatida esa eski va yangi iqtisodiy manfaatlar to‘qnashishuvi sodir bo‘ladi.

4. O‘tish davri ancha vaqtni talab qiladi, bu esa bir necha omillar bilan izohланади:

- o‘zgarishlarning murakkabligi va mos kelmasligi;
- tabiiy omillar;
- bir vaqtning o‘zida texnologik bazani qayta tiklash, iqtisodiyotni o‘zgartirish, yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish imkoniyati.

Bu o‘rinda aytish lozimki, o‘tish va aralash iqtisodiyotlar umumiy xususiyatga ega:

- ◆ bozorni o‘zini o‘zi tartibga solish va davlat orqali tartibga solish usullarining mavjudligi;
- ◆ kapitalistik shakl va iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy yo‘naltirilganligi birga kelishi va boshqalar.

Biroq, bu turdagи iqtisodlar ham sifat jihatidan farq qiladi. Ulardan ba’zilariga e’tibor beramiz.

Birinchidan, aralash iqtisodiyot – bu bozorni va hukumatni birgalikda tartibga solishni amalga oshishi, iqtisodiyotni bir butun sifatida rivojlantirishni birlashtirgan zamonaviy iqtisodiy tizimdir.

Ikkinchidan, aralash iqtisodiyot dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy tizim sifatida mavjuddir.

O‘tish iqtisodiyotiga kelsak, u:

- ◆ o‘z iqtisodiy asoslarini qayta takomillashtirilmaydi, biroq u bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o‘tish uchun asos rolini o‘taydi;

◆ aralashgan iqtisodiyotdan farqli o'laroq, u beqarorlik bilan tavsiflanadi;

◆ o'tish iqtisodiyoti nisbatan kichik vaqtni qamrab oladi, aralash iqtisodiyot esa iqtisodiy tizimning doimiy holati bilan tavsiflanadi.

O'tish iqtisodiyotining bir necha turi mavjud, ular:

1. Kapitalizmdan sotsializmga o'tish davridagi iqtisod (Sovet ittifoqida u 1917-yil 1930-yillarning Buyuk oktabr sotsialistik inqilobidan tortib 1930-yillarga qadar).

2. Bir xil iqtisodiy tizimga ega davlatlarda muvofiqlashtirish usullari turlicha, har biri o'z asoslari va iqtisodiy siyosatiga qarab amalga oshadi. O'tish davrida iqtisodiyotining bunday turlari eski institutlarni muqarrar o'zgarishi, tartibga solishning yangi uslublarini ishlab chiqilishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi nazariyalarini tanlashni o'z ichiga oladi.

3. Ayrim davlatlarning iqtisodiy tizimi xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimida muayyan mamlakatning o'rnini o'zgartirish orqali kechadi. Ushbu o'zgarishlar sobiq mustamlakachi mamlakatlar iqtisodidagi kamchiliklarni bartaraf etish zarurati bilan bog'liq.

4. Davlatlarning beqaror iqtisodiy holati uzoq vaqt davomida kechadi. Misol uchun, Lotin Amerika davlatlari, ularda 20 yildan ortiq vaqt davomida iqtisodiy o'sishning past darajasi, tashqi qarzdorlikni ortishi, uy xo'jaliklari daromadlarining keskin pasayishi, yuqori infliyatsiya darajasi va boshqalar kuzatilgan.

5. Sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari va boshqa sotsialistik mamlakatlar o'tish iqtisodiyoti. Ushbu o'tish iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati shundaki, sotsialistik iqtisodiy tizimdan kapitalistik iqtisodiy tizimga o'tish, "sof" iqtisodiy tizimdan aralash tizimga o'tish bilan amalga oshgan.

Zamonaviy aralash iqtisodiyotda davlat quyidagi funksiyalarini bajarishi kerak:

1) tadbirkorlik subyektlari faoliyatining institutsional va huquqiy asoslarini ta'minlash (mulk huquqini va mulk shakllarini aniqlash, shartnoma tuzish va bajarish shartlari, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar, tashqi iqtisodiy faoliyatning umumiy prinsiplari va boshqalar);

2) bozor munosabatlardagi salbiy oqibatlarini bartaraf etish yoki bozor amalga oshira olmaydigan jarayonlar – aholini asosiy tovarlarga

ehtiyojlarini qondirish; milliy mudofaa, ekologiya, ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash va boshqa masalalarni hal qilish;

3) iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan yo‘nalishlar:

- bozor mexanizmlarining ishlashini ta’minalash;
- davriy o‘zgarishlarni yumshatish;
- iqtisodiy shoklarning oqibatlarini bartaraf etish;
- uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning shart-sharoitlarini ta’minalash (ayniqsa, moliya, pul va qurilish siyosatida);

4) faol monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish;

5) mavjud daromadlarni qayta taqsimlash orqali jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni saqlab qolish;

6) makroiqtisodiy muvozanatni tiklash va saqlashga qaratilgan (xususan, to‘liq bandlik, barqaror narx darajasi) davlatning barqarorlashtirish siyosatini olib borish. Iqtisodiyotda rasmiy va real barqarorlik mavjud. Rasmiy barqarorlik – makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (inflyatsiya, ishsizlik, yalpi ichki daromadning o‘zgarishi) bo‘yicha barqaror holatga erishishdir. Real barqarorlik nafaqat ishsizlikning pasayishi, balki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni ham mavjudligini anglatadi. Real barqarorlikka o‘tish hukumatning talabini, investitsiyalarini, narx va daromadni qattiq nazorat qilishni bildiradi¹⁹⁴.

17.3. SHOK TERAPIYASI BILAN BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH

Shok terapiyasi – bu bozor iqtisodiyoti nazariyasi va bu nazariyaga asoslanib keskin amalga oshadigan islohotlar majmui tushuniladi. Ushbu islohotlar, “shok terapiyasi” orqali davlat iqtisodiyotini sog‘lomlashtirish va uni inqirozdan chiqarib olishga qaratiladi. Bunday islohotlar birdaniga narxlarni liberallashtirish, pul hajmini qisqartirish va zarar ko‘rayotgan davlat korxonalarini xususiy lashtirishni nazarda tutadi.

Ushbu nazariya urushdan keyingi davrda, ya’ni 1940-yillarning oxirlarida Germaniya tomonidan iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan siyosatda nomoyon bo‘ldi. Germaniyada 1947 va 1948-

¹⁹⁴ Вечканов Г. С.. Экономическая теория: Учебник для вузов. 3-е изд. Стандарт третьего поколения. — СПб.: Питер, 2011. — 512 с.. 2011

yillar mobaynida korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarning narxlari nazorati va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi qisqa vaqt ichida bekor qildi. Ushbu boshlang'ich shok terapiyasi bo'lgan islohotlar o'z samarasini berdi, va natijada nemis iqtisodiy mo'jizasi sodir bo'ldi. Germaniya o'sha davrga qadar chuqur avtoritar va iqtisodiyotga to'liq aralashuvchi hukumat mavjud edi. Demak, bu "ma'muriy to'siqlar" bir kechada yo'q qilinib, Germaniya rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatga aylanishiga asos bo'ldi.

Xalqaro valuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun shok terapiyasi Xitoyda bo'lgani kabi, bosqichma-bosqich, o'n yilliklar davom etadigan o'tishdan farqli o'laroq, bozor iqtisodiyotiga nisbatan tez va universal o'tishni bildiradi.

Nazariyaning asoschisi va asosiy g'oyachisi mashhur iqtisodchi Jeffri Saksdir. U Boliviyyada, Polshada va Rossiyada "shok terapiyasi" siyosatini ishlab chiquvchilaridan biri bo'lgan. 1991-yil kuzidan 1994-yil yanvarigacha Rossiya prezidenti Boris Yelsinning iqtisodiy masalalar maslahatchilar guruhi boshlig'i bo'lib ishladi. 1998-yilda Saks rus islohotchilarining bir qator harakatlarini salbiy baholadi: "Bizni pastga tushirgan eng muhim holat bu islohotchilarning nazariyasi va ularning haqiqiy harakatlari orasida katta bo'shliq bo'lganligida bo'ldi... Menimcha, rus rahbariyati tafakkurida marksistlarning kapitalizm haqida xayoliy g'oyalari o'rashib qolgan: ularningcha kapitalizm – bu imkon qadar ko'proq pul topib, tezroq cho'ntaklarini to'ldirish va kapitalistlarning tor doirasiga xizmat qilishdir. Bu shok terapiyasi emas. Bu zararli, oldindan belgilab qo'yilmagan, chuqur o'ylanmagan harakatdir, uning maqsadi – odamlarning tor doiradagi manfaatlari uchun boylikni keng miqyosda qayta taqsimlashdir"¹⁹⁵. Shu bilan birga, Jefri Saks shaxsan o'zi va Bosh vazir Yegor Gaidar faoliyati haqida ijobjiy fikr bildirdi. 1994–1996-yillarda hokimiyatga kelganlarga qarshi chiqdi.

The American Time jurnali, Jeffri Saksni ikki marta dunyoning eng kuchli 100 lideri sirasiga kirgazdi. The New York Times gazetasi unga "dunyodagi eng muhim iqtisodchisi", "Time" jurnali esa dunyodagi eng taniqli iqtisodchi deb tan oldi. "The economist" jurnaliga ko'ra, uni

¹⁹⁵ Независимая газета, 31 декабря 1998. См. <http://old.russ.ru/politics/articles/99-03-30/kiva.htm>

so‘nggi o‘n yil ichida eng kuchli uchta iqtisodchi orasida turishini aytgan.

Shok terapiyasi tanqidchiları. Naomi Klein, “shok doktrinasi” kitobida “shok terapiyasi” ning salbiy ta’sirlarini, masalan, mehnatga layoqatli aholining 20 foizidan 40 foizigacha ishsizlikka uchrashi, jinoyatchilik va qashshoqlikning kuchayishi, turmush darajasini pasayshi va sinflar o‘rtasida tabaqlanish kuchayishi kabi salbiy ta’sirlarni ko‘rsatdi. Boshqa iqtisodchilar esa bu holatni shok terapiyasi nazariyasini noto‘g‘ri ishlatishning oqibati deb hisoblashdi.

Hech shak-shubhasiz aytish lozimki, iqtisodning tuzilishi va insonlar tafakkuridagi keskin o‘zgarishlar, moliya oqimidagi o‘zgarish, iqtisodning shok zarbasi natijasidir. Albatta bu o‘rinda kompaniyalar shakllanishi va ularni korporativ tuzilishdagi o‘zgarishlarga vaqt kerak; inson resurslari esa mahoratga ega bo‘lishi va yangi kasblarga moslashishi lozim. Tanqidchilar, shuningdek, rivojlangan G‘arb makroiqtisodiyotidan tayyor huquqiy asos, huquqni qo‘llash amaliyoti (jumladan, milliy va xalqaro iqtisodiy munosabatlar nuqtayi nazaridan)ni ko‘chirib olish va uning amaliyotiga asoslanish avtoritar jamiyatda yani qat’iy markazlashgan va bitta mulkdor bo‘lgan davlatda qo‘llash qiyin deb hisoblaydilar. Bu o‘rinda hatto mulk bo‘yicha yangi qonunlarning ishlab chiqish vaqt talab etadi.

Raul Castro¹⁹⁶ ta’kidlaganidek, “shok terapiyasi” ko‘pincha kambag‘al odamlarning zarariga ishlaydi.

Tanqidchilarning bu yerda asosiy dalili bo‘lib:

- yuqori inflyatsiya, giperinflyatsiya;
- ishlab chiqarishdagi pasayishi, asosan, bu yuqori texnologiyali sohalarda;
- yuqori ishsizlik;
- mulk tabaqlanishi va turmush darajasining keskin pasayishi;
- ijtimoiy keskinlikning o‘sishi;
- ijtimoiy soha inqirozi, tug‘ilishning pasayishi va o‘limning keskin o‘sishi;
- jinoyatning keskin o‘sishi va iqtisodiyotni jinoyat deb e’lon qilinishi;

¹⁹⁶ Рауль Кастро исключил применение метода шоковой терапии для оздоровления экономики Кубы - ИА "Финмаркет"

- bunday miqyosdagi islohotlarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar mavjud bo‘lmagan taqdirda davlat qarzining o‘sishi;
- siyosiy beqarorlikning ortishi;
- iqtisodiyotni xorijiy investitsiyalarga yuqori darajada bog‘liqligi yuzaga kelishi;
- tashqi savdo beqarorligi.

O‘tmishdagi muvaffaqiyatli tajribasiga asoslanib, D.Saks o‘tish davri bosqichida (Sharqiy Yevropa, sobiq SSSR va Lotin Amerikasi mamlakatlari) yangi makroiqtisodiyotga barcha narxlar nazoratidan butunlay voz kechish, subsidiyalarni bekor qilish, davlat mulkini sotish va erkin, o‘zgaruvchan kursni joriy etishni tavsiya qildi. Shok terapiyasi bu mamlakatlarda makroiqtisodiyotning tuzilishi va rag‘batlantirilishida keskin o‘zgarishlar shaklini oldi. Natijada, Polsha va boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlari Yevropa Ittifoqiga qo‘shilish talablariga javob beradigan darajada iqtisodiy rivojlanish darajasiga erishdilar. Sobiq Sovet Ittifoq va Lotin Amerikasi makroiqtisodiyoti bu o‘rinda salbiy ta’sirga ega bo‘ldi.

Boliviyada shok terapiyasi. 1985-yilda Boliviyada giperinflyatsiya yuzaga kelib, xalqaro valuta jamg‘armasiga moliyaviy majburiyatlarni bajara olmadi. Boliviya hukumatining iqtisodiy maslahatchisi bo‘lgan D. Saks “shok terapiyasi” deb nomlanuvchi keng ko‘lamli reja tuzib, Boliviya bozorini liberallashtirish, davlat subsidiyalarini bekor qilish, bojxona to‘lovlarini bartaraf etish va Boliviya iqtisodini AQSH dollariga bog‘lash orqali inflyatsiyani sezilarli darajada pasaytirdi. Saks rejasini amalga oshirgandan so‘ng, inflyatsiya 1985-yilda 20.000% dan ortiqroq holatida, 1989-yilda 15% ga tushdi.

Polshada «shok terapiyasi» eng ijobjiy namuna hisoblanadi. Bu markaziy Yevropa mamlakatiga demokratiya kelishi bilan hukumat Jeffri Saks va sobiq IMF iqtisodchisi Devid Liptonning maslahatlaridan foydalanib, davlatni tartibga soladigan choralar bo‘lgan narxlarni nazorat qilish va subsidiyalarni qo‘llashdan darhol voz kechdi.

Biroq, shu bilan birga davlat sektorini xususiylashtirilishi, bosqichma-bosqich o‘zgarishi juda qiyin kechdi. Ishlab chiqarish hajmi oshdi, ammo bir vaqtning o‘zida ishsizlik ham ko‘tarildi. Ko‘plab iqtisodiy tiklanish dasturlari zudlik bilan qo‘llanilgan bo‘lsa-da, davlat

korxonalarini xususiylashtirish jarayoni Rossiyaning "yovvoyi kapitalizm" qaraganda og'riqsiz o'tishi uchun bir muncha uzoq vaqt ketdi.

Bugungi kunda, Polsha post-sovet davlati sifatida Yevropa davlatlariga xos bo'lgan turli xil iqtisodiy muammolarga qaramasdan YaIM eng yuqori o'sish sur'atiga ega va 1993–2004-yillardagi daromad darajasi yuqorilashganini hisobga olgan holda, 2004-yil 1-mayda Yevropa Ittifoqiga kirishga muvaffaq bo'lgan.

Rossiya (1992–1998-yllar) shok terapiyasi. Rossiyada keskin iqtisodiy islohotlar 1992-yil 2-yanvardan boshlangan. Ular E.Gaydar tomonidan klassik "shok terapiyasi" ssenariyasida emas, balki uning asosiy shartlaridan biri bo'lgan - inflyatsiya darajasining keskin pasayshi (1991-yilda Rossiyada o'rtacha yillik inflyatsiya yiliga 301,5%, 1996-yilda esa 21,5 % bo'lgan) va 1992-yilda "shok terapiyasi"ning talablariga zid bo'lgan Rossiya Federatsiyasi budjeti YaIMga nisbatan 40%lik taqchillik bilan amalga oshgan.

Rossiya akademigi A.D. Nekipelovning so'zlariga ko'ra, Rossiyada amalga oshirilgan shok terapiyasi (iqtisodiy faoliyatni maksimal erkinlashtirish, davlat mulkini o'zboshimchalik bilan taqsimlash, yalpi talabdagi jiddiy cheklovleri sababli moliyaviy beqarorlik) kambag'al bozor tizimini yaratishga olib keldi. Uning xususiyatlari sifatida Rossiya akademigi A.D. Nekipelov quyidagilarni ko'rsatdi: "iqtisodiy faoliyatning misli ko'rilmagan darajada pasayishi, real sektorda kapitalning daromadlilik darajasining foiz stavkasi oshishi va bu sharoitda butun iqtisodiyotning muqarrar ravishda moliyaviy va savdo spekulyasiyatsiga yo'naltirilishi, va "yomon barqarorlik" paydo bo'lishidan kelib chiqqan surunkali moliyaviy inqirozga: ya'ni quyidagicha: budget defitsiti – davlat xarajatlarining qisqarishi – ishlab chiqarishning pasayishi va budgetga yo'naltiriladigan soliqlarning qisqarishi".

Rossiyada birinchi nisbiy iqtisodiy yutuqlar 1998–yildan keyin o'zini ko'rsatdi. Ko'pchilik ularni iqtisodiy siyosatning keyingi konservativmi natijasi deb biladi. Shunday qilib, tovarlarning taqchilligi 1992–yil boshida import hisobiga bartaraf etildi, inflyatsiya 1998–yilda 83% ga kamaydi va 1997–yilda birinchi o'sish kuzatildi.

17.4. BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISHNING EVOLYUTSION YO‘L TAVSIFI

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning evolyutsion yo‘li ba’zi adabiyotlarda to‘rt, ba’zi adabiyotlarda olti o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajratib ko‘rsatiladi.

N.A. Mixnenko¹⁹⁷ bozor iqtisodiyotiga o‘tish evolyutsion yo‘lining quyidagi xususiyatlari mavjud deb ko‘rsatgan:

- Davlat uzoq muddatli islohotlar strategiyasi asosida bosqichmabosqich, ma’muriy-buyruqbozlik tizimining mexanizmlarini bozor munosabatlari bilan almashtirish orqali amalga oshiradi;
- islohotlarning boshlanishida iste’mol bozorida dinamik muvozanatni o‘rnatish amalga oshadi;
- bozor munosabatlari dastlab iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish va sotish sohasini qamrab oladi va keyinchalik investitsion sektorlarga murojaat qiladi;
- yuqori inflatsiyani bartaraf etish va hokazolar uchun qattiq moliyaviy siyosat olib boriladi.

A.S.Bulatov¹⁹⁸ bozor iqtisodiyotiga o‘tishning evolyutsion yo‘lini quyidagi umumiy xususiyatlar bilan tavsiflaydi:

1. Davlat uzoq muddatli islohotlar strategiyasini bosqichmabosqich, ma’muriy-buyruqbozlik tizimini bozor munosabatlari mexanizmlari bilan almashtiradi. Bu jarayon Vengriyada 1968-yildan 1990-yilgacha, Xitoyda 1979-yildan hozirgacha davom etmoqda.

2. Islohotlarning boshlanishi iste’mol bozorida dinamik muvozanatni o‘rnatish bilan kechib, unda nafaqat tovar narxining egiluvchanligi orqali, balki birinchi navbatda xususiy sektorida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan jadal rivojlantirilib boriladi. Xitoyda xususiy sanoat korxonalarini tashkil etishga cheklovlar 1980-yillarning o‘rtasida bekor qilindi, va iste’mol bozorini besh-olti yil ichida to‘liq tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish imkonini berdi.

¹⁹⁷<https://konspekts.ru/ekonomika-2/evolyucionnyj-i-revolucionnyj-put-shokovaya-terapiya-kak-osnovnye-varianty-perekoda-k-rynochnoj-ekonomike/#!>

¹⁹⁸Булатов А.С.. Экономика. Учебник. – Москва, 1999. С.35-36.

3. Bozor munosabatlari dastlab iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish va sotish sohasini qamrab oladi va keyin investitsiya sohasiga yo'naltiriladi.

4. Aholi turmush darajasining keskin pasayishiga yo'1 qo'ymaslik uchun narxlarni liberallashtirish islohotning keyingi bosqichlarida, ko'pincha kuchli monopolistik tendensiyalarga ega bo'lgan tarmoqlarda davlat nazorati ostida amalga oshiriladi.

5. Yuqori infliyatsiyani oldini olish uchun qattiq moliyaviy siyosat olib boriladi. Misol uchun Vengriyada chakana savdo narxlari maksimal yillik o'sish 35% (1991), Xitoyda esa 24,1% (1994) ni tashkil etdi.

6. Bozor infratuzilmasi jadal rivojlantiriladi, xususiy tadbirkorlikni, asosan, kichik ishlab chiqarish va xizmatlarda rag'batlantiriladi.

Birlamchi iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish uchun qishloq xo'jaligi va tegishli sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, keyin esa bozor mexanizmlarini yanada kengaytirish va shu bilan birga iste'mol bozorini to'ldirish, islohotlarni yanada chuqurlashtirish o'tish davri ucun qulay asos bo'ladi.

17.5. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI

Yaponiyada Dodj – Shoup “Qaytar kurs” islohoti¹⁹⁹. 2-sentabr 1945-yil Yaponianing urush davridagi harakati tufayli AQSH boshqaruvi ixtiyoriga o'tdi. Uning milliy iqtisodiyoti bu davrda depressiya holatiga tushgan edi. O'zini tiklash dasturlari Yaponiya uchun ishlab chiqilmagan, hamda u tashqi ko'mak ham olmas edi. Yaponiya iqtisodiy inqiroz holatidan chiqishi uchun DJ.Dodj va K.Shoup tomonidan “Qaytar kurs” deb nom olgan va o'z resurslari hisobiga shakllantirilgan islohot dasturi ishlab chiqildi. “Qaytar kurs” rejasiga ko'ra ishlab chiqarishni faol rivojlantirish ichki kapital hisobiga amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Dodj-Shouping “Qaytar kurs” dasturi yo'nalishi quyidagilarni o'z ichiga oldi:

¹⁹⁹ А.Н.Кошилев. Краткий курс по истории мировой экономики: учебное пособие. – М.: издательство “Окей-книга”, 2008, стр. 120-121

- tashqi boshqaruvga ega bo‘lgan AQSH tizimini Yaponiya iqtisodiy islohotga aralashuvini sekin-asta pasaytirish. Iqtisodiyot va savdo bilan bog‘liq barcha boshqaruvni milliy hukumatga topshirish;
- iqtisodiyotda erkin raqobat va kichik tadbirkorlikni faol rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish. Iqtisodiyot boshqaruvi bir qo‘lda to‘planishiga qarshi chora-tadbirlar ko‘rish;
- mavjud korxonalar negizida yangi, samaradorlik darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarini yaratish nazarda tutildi;
- qishloq xo‘jaliginii qayta tiklash, bunda davlat tomonidan yerlarni sotib olishi va mayda agrobiznes bilan shug‘ullanuvchilarga ijara berish masalasi qo‘yildi;
- budget islohotini o‘tkazish, bunda valutani olib-sotish o‘rnatilgan (fiksirlangan) kurs bo‘yicha olib borish, pul emissiyasini o‘tkazish, budget xarajatlarini qayta ko‘rib chiqish, davlat harbiy korxonalarini yopish. Pul emissiyasi asosida aholi qo‘lidagi pulni davlatga musodara qilish jarayoni amalga oshirildi. Yangi soliq tizimi joriy etildi, bunda aholining 65% daromadi budgetga yo‘naltirildi. Davlat narxlarni va oylik maoshni o‘rnatish, tashqi savdoda davlat monopoliyasini o‘rnatish bilan shug‘ullandi.

Islohotlar rejasiga ko‘ra ekvivalent fond tashkil etildi, uning vazifasi Amerika tovarlarini Yaponiyada sotishdan tushgan daromadlarni o‘zlashtirish kirdi. Yaponiyada sanoat ishlab chiqarishning ko‘tarilishi Koreyadagi urush davriga to‘g‘ri kelib, bunda sanoat o‘z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarishni yanada kengaytirildi.

Islohotlarning asosiy maqsadi Yaponiyada mavjud hukumat tizimini yo‘q qilishga qaratildi. Uning katta qismi kichik ishlab chiqaruvchilarga berildi, kapitalning katta hajmi xususiy shaxslar va banklarda to‘plandi. Shu asosda ishlab chiqarishning kuchli ilmiy va texnologik asosi shakllantirildi. Yaponiyaning cheklangan resurslarga egaligini hisobga olgan holda, uning ishlab chiqarishi ilmiy izlanishlarni talab qiluvchi (elektronika, kompyuter, biopreparat) ishlab chiqarishga yo‘naltirildi.

Dodj-Shoup islohotlari natijasida Yaponiya ishlab chiqarish kuchini ko‘tardi, kapitalning katta qismini davlat ichida saqlanib qoldi, xalqaro savdo hajmi bir necha bor ko‘payishiga erishdi. Undan tashqari iqtisodning ilmiy yo‘nalgan turi shakllandi.

Fransiyada Gollizm iqtisodiy siyosati²⁰⁰.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Fransiya iqtisodiyotida quyidagilar kuzatildi:

- aholi turmush darajasining pasayishi;
- mavjud ishlab chiqarishning pasayishi;
- inflyatsiyaning yuqori darajalari.

AQSH tomonidan taklif etilgan dastur bo‘yicha Fransiyaga ko‘p bo‘limgan miqdorda moliyaviy yordam kelardi. Shu sababli Fransiyada o‘z ichki resurslari hisobiga iqtisodiy inqirozdan chiqish choralari ko‘rila boshlandi.

1958-yili Fransiya prezidentligiga Sharl de Goll saylanadi. U xo‘jalik hayotining bir qator islohotlarini ishlab chiqdi va amaliyatga taqdim eta boshladi. Iqtisodiyotni yangilanishga qaratilgan mazkur xatti-harakat “gollizm” nomini olib, u ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni yechishni nazarda tutar edi. Tashqi iqtisodiy siyosatda Fransiya tomonidan Angliya va AQSH ta’sirini kamaytirishga qaratilgan siyosat yurgizildi. Iqtisodiy islohotlarning rejasi asosan milliy xo‘jalikni yangidan qurishga qaratildi.

Gollizm siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanardi:

- iqtisodiyotni indikativ tartibga solish (faqat asosiy yo‘nalishlarni tartibga solish);
- davlatning strategik ahamiyatga ega iqtisodiy sohalarni moliyaviy qo‘llab quvvatlashi;
- kuchli davlat sohasini yaratish va uni ta’sirini mustahkamlash;
- davlatning iqtisodiy faolligini oshirish va uni vazifalarini kengaytirish;
- iqtisodiyotni tartibga solishda administrativ va siyosiy usullarini keng qo‘llash.

Gollizmning iqtisodiy siyosati quyidagicha bo‘ldi:

- asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlardan foydalanish va tasarruf etish davlat qo‘lida to‘planilgan edi. Bu jarayonni davlat turli kuch ishlatish yo‘llari bilan amalgalash oshirdi;
- Fransiya iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotidagi roli kuchaytirildi;

²⁰⁰ А.Н.Кошилев. Краткий курс по истории мировой экономики: учебное пособие. – М.: издательство “Окей-книга”, 2008, стр. 122-123

- davlat qimmatli qog‘ozlarni chiqarish orqali kapitalni mamlakat ichida saqlab qoldi;
- iqtisodiyotning rejali rivojlanishi amalga oshirildi;
- ijtimoiy ta’midot va kafolat tizimi yaratildi;
- sanoatini faol kengaytirish shart-sharoitlari yaratildi;
- iqtisodiyotning ilmsig‘imli tarmoqlari yaratildi;
- hukumatining tarkibiy tuzilishi qayta isloq qilindi.

Gollizm siyosati birinchi mavjud reja asosida amalga oshmadni, chunki mamlakatda siyosiy qarama-qarshiliklar mavjud edi, sotsializm va kapitalizm to‘qnashuvlari muntazam bo‘lib turardi. Lekin, keyinchalik ular o‘rtasida kelishuv amalga oshirilib, sotsializm va kapitalizm vositalari qo‘llaniladigan milliy iqtisodiyot tiklana boshlandi. Mamlakatda siyosiy mexanizmlarni o‘zida mujassam-lashtirgan ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot amalga oshirila boshlandi. Ijtimoiy kafolat va milliy daromadni qayta taqsimoti barqaror rivojlanayotgan davlatning yaratilishiga asos bo‘ldi.

Aerokosmik, raketa, avtomobilsozlik, kemasozlik, kimiyo kabi iqtisodiyotning ilmiy tarmoqlari progressiv rivojlantirildi. Bu tarmoqlar jahon bozoriga yuqori talabga ega tovarlarni etkazib bera boshladni.

Qishloq xo‘jaligi, yangi ko‘rinishni olib, tezlik bilan rivojlandi, meva-sabzavotlarni yetishtirishda yuqori texnologiyali uskunalar ishlatila boshlandi. Fransiya jahon bozoriga sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan chiqdi va hatto AQSHning sut mahsulotlarini, alkogol ichimliklarini surib tashadi.

Iqtisodiyotda gollizm siyosatini qo‘llanilishi Fransiyani iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shdi.

M.Tetcher iqtisodiy islohotlari va Buyuk Britaniyaning iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Urushdan so‘ng Buyuk Britaniya iqtisodiyoti boshqa jahon mamlakatlaridan ancha orqada qoldi. 1960 dan to 1980-yilgacha maqsadli iqtisodiy siyosat yo‘qligi, nobarqaror siyosat umumiyligi iqtisodiyotning sinishiga olib keldi. Xuddi, shuningdek, xalqaro energetik inqiroz ham iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Yaponiya va AQSH kabi raqobatchilarning mavjudligi mamlakatni Yevropa iqtisodiy birlashmasiga kirishiga sababchi bo‘ldi, bu keyinchalik kutilgan natijani berdi. Iqtisodiy rivojlanishdagi depressiya holati jamiyat hayot darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1980-yil iqtisodiy pasayish davrida “temir xotin” nomini olgan M.Tetcher boshchiligidagi neokonservatorlar hukumat tebasiga kelishdi. Ular tub islohotlar dasturini taklif qildilar. Bu dastur o‘z ichiga:

- erkin tadbirkorlik va xo‘jalik faoliyati institutini rivojlantirish;
- kichik tadbirkorlik, ya’ni individual tadbirkorlik rag‘batlantirish;
- iqtisodiy individualizmga yo‘nalganlik, ya’ni davlat ta’minoti darajasi kamaytirish;
- davlat budgeti xarajatlari kamaytirish;
- davlat budgeti mablag‘larini faqat samarali korxona va tarmoqlarni investitsiyalashga qaratish;
- privatizatsiyani amalga oshirish, bunda davlat korxonalarini xususiy shaxslarga sotish jarayoni amalga oshirildi.

Monetarizm yondashuviga asosan pul ayriboshlash islohoti o‘tkazildi. Bu o‘rinda davlat budgeti daromadlari va xarajatlarini o‘zgartirish, kredit-pul institutlari ta’sirini kuchaytirish, soliq stavkalarini pasaytirish kabi choralar ko‘rildi.

Inflyatsiya darajasini pasaytirish maqsadida davlat kredit zaymlari va pul hajmi qisqartirildi, narx va oylik maoshlar ustidan nazorat yo‘q qilindi. To‘g‘ri soliqlarning egri soliqlarga almashtirilishi mamlakatga kapital hajmini ko‘paytirdi.

Yana bir yo‘nalish bu davlat tarmog‘ini xususiylashtirish islohoti bo‘ldi. Xususiy korxona shakli davlat korxona shaklidan ustun qo‘yildi. Davlat korxona shakli samarasiz deb tan olindi. Xususiylashtirish tufayli tushgan pul mablag‘lar davlat budgeti taqchilligi kamayishiga sabab bo‘ldi.

Tashqi iqtisodiy siyosatda iqtisodiy rivojlangan davlatlarga investitsiya qilish, bu davlatlarga kapital kiritish va chiqarish chekllovleri yo‘q qilindi.

Xususiy sektorni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, uni iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish asosiga aylantirdi. Xususiy sektor hisobiga katta hajmdagi ish o‘rni yaratildi.

M.Tetcher islohotlari natijalari bo‘lib:

- barqaror iqtisodiy o‘sishga erishildi;
- milliy iqtisodiyotga investitsiya kirgizilishini o‘sishi amalga oshdi;
- aholining real daromadlari o‘sdi;

- inflyatsiya darajasi pasaytirildi;
- ishchi kuchi samaradorligining o’sishi amalga oshirildi.

M.Tetcher tomonidan amalga oshirilgan islohotlar Dj.Meydjar tomonidan davom ettirildi va ular Maastrix kelishuvida aks etdi. Uning natijasi shunda ko‘rindiki, mamlakat iqtisodiy o‘sishda va xalqaro savdoda lider davlatga aylandi. Damak, M.Tetcher boshchiligida neokonservatorlar siyosati Buyuk Britaniyada yuqori samaradorlikni berdi. Erkin bozor iqtisodiyoti nazariyasi o‘z aksini amaliyotda tasdiqladi²⁰¹.

Xitoyning iqtisodiy islohotlari.

XX asr o‘rtalarigacha Xitoy agrar ishlab chiqarish shaklidagi kam rivojlangan mamlakatlar qatorida turardi. Xitoyni orqada qolgan iqtisodiyotini ko‘tarish uchun turli tarmoqlar islohoti dasturlari ishlab chiqildi. Bu islohotlarning asosiy maqsadi Xitoyni jahon mamlakatlari darajasigacha ko‘tardi. Bu muvaffaqiyatlar Xitoy iqtisodiy mo‘jizasi nomini olgan.

Iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1949-yilda boshlandi, u mulkni to‘la milliylashtirish bilan bog‘liq bo‘ldi. Mamlakatda yagona siyosiy tizimi sifatida sotsializm deb olindi. Bu davrda barcha xo‘jalik shakllari qisqartirildi, hamma mulk davlat qo‘lida to‘plandi. “Katta sakrash” deb nom olgan mazkur dastur barcha xo‘jalik faoliyatini davlatlashtirish va umumlashtirishga qaratildi. Bu siyosat iqtisodiy o‘sish faolligini oshirmadi, balki iqtisodiyotni depressiya holatiga tushirib qo‘ydi.

1960-yili ikkinchi bosqich boshlanib, “katta sakrash” dasturi chetga chiqildi. Bu davrda kimyo, neft, texnika kabi iqtisodiy tarmoqlar yaratilishi amalga oshdi. Buni natijasida ko‘pgina ish o‘rinlari yaratildi, iqtisodiy o‘sish yuz berdi. 1966-yilda esa Xitoy madaniyat inqilobi tufayli esa bir oz to‘xtaldi. Iqtisodda depressiv tendensiyalar kuzatildi va umumiylashtirish kuzatildi.

1980-yilda islohotlarning uchinchi bosqichi boshlandi. Umumiylashtirish kuzatildi. Umumiylashtirish sharoitida davlat iqtisodiyot va siyosatni tubdan qayta islohol qilishga o‘tdi. Islohotlarni mohiyati shunda bo‘ldiki, bunda sotsializm tubdan o‘zgarib, kapitalizm bilan birlashtirish amalga oshirildi. Birinchi o‘rinda qishloq xo‘jaligini qayta tiklashga, yerni qayta ishlashga qaratilgan yangi texnologiyalarni sotib olishga kirishildi. Bu orqali

²⁰¹ А.Н.Кошилев. Краткий курс по истории мировой экономики: учебное пособие. – М.: издательство “Окей-книга”, 2008, стр. 128-130.

qishloq xo‘jaligi taqchilligi muammosi yechildi, jahon iqtisodiyotining agrar qaramligi oldi olindi. 1984-yili iqtisodiy o‘sish dinamikasini asoslovchi sotsial rejalarshirish asoslari qabul qilindi. Iqtisodiy islohotlarning ikki yo‘nalishi aniqlab olindi, ular qishloq xo‘jaligi va sanoatdir. Qishloq xo‘jaligi sohasida Xitoy asosan ichki ehtiyojlarni qondirish maqsadi olindi. Sanoat sohasini tubdan isloh qilish, mahsulotlar bilan jahon bozoriga chiqish yo‘nalishi olindi. Kapitalni sanoatga yo‘naltirilishi va sanoat ishlab chiqarish kuchlarining takomillashtirilishi Xitoyni sanoat tovarlarini ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirdi. Arzon ishchi kuchiga ega bo‘lgan davlat endi jahon bozorida raqobatbardosh mamlakatga aylandi.

Xitoyning oqilona iqtisodiy islohotlari uni bugungi kunda iqtisodiy o‘sishning lider davlatlari qatoriga qo‘shdi. Bugungi kunda Xitoy yanada rivojlanishga qadam qo‘ymoqda. Iqtisodchilar bashoratiga ko‘ra Xitoy AQSHdan o‘zib ketib, jahonda birinchi davlatga aylanishi mumkin²⁰².

Tayanch so‘z va iboralar: sotsializm, ma’muriy-buyruqbozlik tizim, o‘tish davri, shok terapiyasi, evolyutsion yo‘l, aralash iqtisodiyot, yetakchi mamlakatlar, kapitalizm, gollizm, katta sakrash, qaytar kurs.

17-bob YUZASIDAN XULOSALAR

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarini shakllantirishda maxsus o‘tish davri zarur bo‘lib, bu davrning mazmuni va asosiy belgilarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘tish davri o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatları, iqtisodiy taraqqiyotning bosqichlari bilan xosdir. Ushbu bobda o‘tish davri nazariyasi, xususan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari bayon qilinadi. Albatta bu o‘rinda o‘tish davrining tarixiyligi, shu davrdagi dastlabki iqtisodiy holatining ahamiyati muhimdir. Sharq va G‘arbda o‘tish davri qonuniyatlarini turlicha namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi.

1917-yildagi oktyabr to‘ntarilishi va sho‘rolar hokimiyati (1917–1990) davrida sobiq SSSR, xususan O‘zbekistonda ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan imperativ rejali iqtisodiyotga o‘tildi. Nokapitalistik konsepsiya, ya’ni bozor munosabatlarini inkor etuvchi yo‘l tanlab olindi. Buyruqbozlik iqtisodiyoti tufaili erishilgan ayrim yutuqdar vaqtincha Samara berdi. Markaz tomonidan olib borilgan siyosat

²⁰² А.Н.Кошилев. Краткий курс по истории мировой экономики: учебное пособие. – М.: издательство “Окей-книга”, 2008, стр. 130-131.

oqibatida katta potensialga ega bo‘lgan O‘zbekiston iqtisodiyoti bir tomonlama agrar xomashyo yo‘nalishida rivojlandi, sanoat tovarlari ishlab chiqarish cheklangan edi, paxta yakkahokimligi ijtimoiy-ekologik muammolarni keltirib chiqardi, yerlarning sho‘rlanishi, botqoqlashuvi kuchaydi, Orol dengizi quriy boshladi, xalqning moddiy farovonligi keskin ortda qoldi. Ilg‘or mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixi bozor iqtisodiyotini qo‘llash yo‘li bilangina taraqqiyotga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ko‘p yillar davomida imperativ rejali iqtisodiyot yuritgan sobiq SSSR va boshqa «sotsialistax» deb atalgan davlatlar iqtisodiyoti inqirozga uchradi va bu bozor iqtisodiyotiga o‘tishni taqozo etmoqda. O‘zbekistan Respublikasi bozor munosabatlariga o‘z mustaqilligiga erishgandan so‘ng (1991) o‘ta boshladi. Bu bozor iqtisodiyetiga o‘tish konsepsiysi ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejali (planli) iqtisodiy tizimdan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishning qonun-qoidalari va uning O‘zbekistondagi milliy xususiyatlarga xos ilmiy qarashlar majmuidan iboratdir.

Respublikamizning bozor munosabatlariga o‘tish konepsiysi O‘zbekiston Respublikasining Prizidenti, akademik Islom Karimovning asarlari, risola va nutqlarida izohlab berilgan. O‘zbekistonning tarixiy, ilmiy, an’naviy, ekologik va boshqa sohalardagi tajribalariga asoslanib, respublikada ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li maqbul deb topildi. Bu o‘tish yo‘li tadrijiy (evolyutsion) ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshadi. Jamiyat rivoji tarixi shuni aniq ko‘rsatadiki, bir ijtimoiy tizimdan boshqa tizimga ko‘chish uchun ma’lum o‘tish davri obyektiv zaruriyatidir. Bu zarurat eskirgan hayot ukladi o‘rniga yaratiladigan yangi ukladni vujudga keltirishdagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston sharoitida bu o‘tish davri bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi, birinchi bosqich 1991–1994-yillar, ikkinchi bosqich 1994–1999-yillarda amalga oshiriladi, uchinchi bosqich 2000-yildan boshlanadi.

O‘tish davrining davom etish vaqtini va bosqichlari soni o‘tish davrida qo‘llaniladigan qator aniq obyektiv va subyektiv omillar va uslublarga bog‘liqdir. Uni nisbatan tezroq va to‘fonlarsiz amalga oshirish bosh vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston sobiq sho‘ro davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib mustaqillikning o‘n yili davomida muhim yutuqlar qo‘lga kiritiladi. Inqirozlar davri tugab (1996), iqtisodiyotning jadal o‘sish davri boshlanadi. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi, milliy valutamiz bo‘lgan so‘m mustahkamlandi, xususiy lashtirish jarayoni

chuqurlashdi va kengaydi. Yoqilg‘i-energetika va don mustaqilligi ta’minlandi, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar keng quloch yoydi, sanoat tarmoqlari vujudga keldi. Iqtisodiyotida sezilarli siljishlar amalga oshirildi. Bozor infratuzilmasi yaratildi, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘sishi ta’minlandi. Bu tanlab olingan iqtisodiy islohotlar yo‘lining to‘g‘riliqi natijasidir. Mustaqillikning 11 yilligi davomida erishilgan natijalarining eng muhim ko‘rsatkichlari to‘g‘risida Prezident I.Karimovning 2002-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy revojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohatlarning borishini baholash hamda 2003-yilgi vazifalarga bag‘ishlangan Vazifalar Mahkamasining yig‘ilishida so‘zlagan nutqida quyidagilar ta’kidlangan:

O‘tgan yil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar uchun muhim yil bo‘ldi. 2002-yillarda birinchi bor yalpi ichki maxsulotning 1991-yilga nisbatan 103% o‘sishiga erishildi. Barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotni o‘stirish tendensiyalari aniq ko‘zga tashlandi.

Yalpi ichki mahsulot 4,5%, sanoat ishlab chiqarishi 8,1%, qishloq xo‘jaligida mahsulot tayyorlash 4,5% ko‘paydi. Inflyatsiya darajasi oyiga o‘rtacha 2% ni tashkil etdi. Aholining real daromadlari esa 16,9% o‘sdi Tashqi savdo aylanmasida ham o‘sish ta’minlandi, bu borada ijobiy saldoga erishildi.


NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘tish davri deganda nima tushunasiz?
2. O‘tish davrining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
3. O‘tish davrining qonuniyatlari qaysilar?
4. O‘tish davrida qanday siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar yuz beradi?
5. Shok terapiyasi qanday qo‘llaniladi?
6. Shok terapiyasi Rossiyaga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
7. Evolyutsion yo‘l qanday tavsiflarga ega?
8. O‘tish davrining Sharq va G‘arb xususiyatlari qanday?
9. Angliyada bozor iqtisodiyotiga o‘tish qanday kechgan?
10. Xitoy jahon bozoriga qaysi yo‘l bilan chiqdi?

18-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MA'MURIY- BUYRUQBOZLIK TIZIMIDAN BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISH DAVRI KONSEPSIYASI

18.1. O'ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING TAMOYILLARI VA XUSUSIYATLARI

Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda maqsad bir xil bo'lsada, turli mamlakatlar turli yo'llarni tanlashlari mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishning revolyutsion va evolyutsion yo'llari mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyutsion yo'lini, birdaniga katta to'ntarishlar qilish yo'lini tanladilar. O'zbekistonda esa o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarni hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda astasekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li tanlandi. «Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»²⁰³.



I.Karimov (1938–2016)

«O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yay ekanmiz, eng avvalo, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik»²⁰⁴, deb yozadilar mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

²⁰³ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998, 101–102-betlar.

²⁰⁴ Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009, 7-b.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish yo‘li ijtimoiy-yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo‘lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi beshta muhim tamoyil asos qilib olingan:

- iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustunligini ta’minlash;
- o‘tish davrida davlatning bosh islohotchi bo‘lishi;
- butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanishi, qonunlar ustuvorligining ta’minlanishi;
- bozor munosabatlariga o‘tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Bozor munosabatlariga o‘tishda bu tamoyillarning hammasi ham muhim ahamiyatga egadir, lekin ularning ichida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish tamoyili alohida e’tiborga loyiq. Chunki tegishli huquqiy negizni, bozor infratuzilmalarini yaratish, odamlarda bozor ko‘nikmalarini hosil qilish, yangi sharoitlarda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash uchun vaqt kerak bo‘ladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo‘yilganligi ta’kidlanadi:

- totalitar tizimning og‘ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- Respublikaning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish²⁰⁵.

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning quyidagi muhim yo‘nalishlari aniqlab olindi va amalga oshirildi:

- o‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;
- mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo‘jaligida va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta’minlash.

²⁰⁵ Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T.: «O‘zbekiston», 1995, 19-b.

Respublikada bozor munosabatlariga o‘tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o‘zgarishlar uning o‘z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o‘ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo‘nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinci bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o‘sishni ta’minlab, bozor munosabatlarini to‘liq joriy qilish maqsad qilib qo‘yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I.A.Karimov mazkur bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan quyidagi bir qator vazifalarni ko‘rsatib berdi:

- davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;
- ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash;
- milliy valuta – so‘mni yanada mustahkamlash;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, xomashyo etkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish²⁰⁶.

O‘tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta’milangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko‘rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo‘l davom ettirildi.

O‘tish bosqichda «erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir»²⁰⁷. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

- iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o‘tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;
- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo‘naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;

²⁰⁶ Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelejak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998. 332–333-betlar.

²⁰⁷ I.A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. –T.: O‘zbekiston, 2000, 15-b.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o‘rin egallashiga erishish;
- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko‘lamda integratsiyalashuvini ta’minlash;
- iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish.

18.2. O‘ZBEKISTONDA BOZOR ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISH VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga o‘tish, iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy islohotlardan ko‘zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat ko‘rsatishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma’naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashdan iborat.

Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o‘tishning nazariy modeli yaratildi (bu boradagi ma’lumotlar mazkur bobning 2-bandida bayon etildi).

Bu modelda yangi iqtisodiyotga o‘tishning umumiyligi tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo‘nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning **asosiy yo‘nalishlari** quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarning bosh bo‘g‘ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o‘zgartirishdir, chunki shu orqali ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko‘zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiyashtirish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq qishloq xo‘jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo‘ldi:

- Respublikamiz iqtisodiyotida agrar sohaning ustunlikka egaligi, aholining ko‘pchiligi qishloq xo‘jaligida bandligi, iqtisodiy o‘sishning ko‘p jihatdan shu tarmoq ahvoliga bog‘liqligi;

- Respublika butun sanoat potensialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoatning ko‘pgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo‘jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo‘jaligiga bog‘liqligi;

- qishloq xo‘jalik mahsulotlari (asosan paxta) hozirgi vaqtida valuta resurslari, respublika uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chetdan sotib olishni ta’minlayotgan asosiy manba ekanligi;

- mustaqillik sharoitida qishloq xo‘jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi rolining ortib borishi.

Mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor munosabatlariga o‘sib o‘tishida moliya-kredit sohasini isloh qilish alohida o‘rin tutadi. Moliyaviy munosabatlarda davlat budgeti taqchilligini kamaytirib borish, budgetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina budgetdan mablag‘ ajratish, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish islohotlarning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri narxlarni erkinlashtirishdir. Narxlarning erkin shakllanishi uchun narxlar tizimini isloh qilish ham zarurdir. Dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartiriladi va keyin ichki narxlar

jahon narxlariga muvofiqlashtirib boriladi. Shuningdek, narxlarni erkinlashtirishda ayrim turdag'i xomashyo va mahsulot narxlari bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi tenglikka erishishga harakat qilinadi.

Narxlar islohoti boshlangandan 1994-yilgacha hamma turdag'i xomashyo va mahsulotlar bo'yicha erkin narxlarga o'tildi, barcha iste'mol mollari narxi ustidan davlat nazorati bekor qilindi.

Isloh qilishning **dastlabki bosqichida** (1992-yil) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnik vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdag'i xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari va tariflarga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi. Narxlar islohotining **ikkinchchi bosqichida** (1993-yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish umuman to'xtatildi. Narxlarni erkinlashtirishning **uchinchchi bosqichida** (1994-yil oktabr-noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qo'yib yuborildi. Shunday qilib, iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish boshqarishning tegishli tizimini yaratishni talab qiladi. Shunga asosan respublikada butun iqtisodiyotni, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va hozirgi davrga mos bo'lgan tuzilmalari ishlab chiqildi. Ko'plab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi (Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlar qo'mitasi, Davlat agrosanoat qo'mitasi va boshqa qo'mita hamda vazirliklar) yoki ularning faoliyati tubdan qayta qurildi. Faoliyati tugatilgan ma'muriy apparatlar o'rniiga bozor iqtisodiyotiga xos yangi boshqarish bo'g'inlari tuzildi.

Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman, shahar) ijroiya-boshqaruv vazifalarini bajarish uchun hokimliklar joriy qilindi. Quyi bo'g'in boshqaruvida korxona va tashkilotlarga iqtisodiy erkinlik berilib, ular yangicha ish uslubiga o'tdi.

Isloh qilish natijasida tarkib topgan boshqaruv tizimi bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan yanada takomillashib va rivojlanib boradi.

Bozor islohotlari bozor infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bunda moliya, bank-kredit tizimi

muassasalari, sug‘urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish taqozo qilinadi. Respublikada bozor infratuzilmasini yaratish bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha bordi. Birinchi yo‘nalish bo‘yicha tovar-xomashyo birjasi tizimi rivojlandi. Bu, o‘z navbatida, brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo‘lishiga olib keldi. Ikkinchisi yo‘nalishda kapital bozorining ishini ta’minlaydigan tuzilmalar vujudga keltirildi. Kredit resurslari bozori va valuta bozori vujudga keltirildi hamda davlatga qarashli bo‘lmagan sug‘urta kompaniyalari tuzildi. Uchinchi yo‘nalish ishchi kuchi bozorini shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu sohada 240 dan ortiq mehnat birjasini o‘z ichiga oluvchi katta tarmoq tuzildi.

Bozor islohotlari tashqi iqtisodiy aloqalarga ham tegishlidir. Bu sohada islohotlarni amalga oshirish borasida respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy kompleksi mutlaqo yangidan shakllantirildi, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning mohiyat e’tibori bilan yangi mexanizmi vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi zarur bo‘lgan muassasalar (Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati) barpo etildi. Respublikaning barcha vazirliklari va idoralari, korxonalarida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘limlar, tashkilotlar va firmalar tuzildi.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat ko‘rsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish obyektiv zaruratdir.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirildi:

birinchi yo‘nalish – narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirib borish;

ikkinchisi yo‘nalish – Respublikaning ichki iste’mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste’molini muayyan darajada saqlab turish;

uchinchi yo‘nalish – islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash.

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda xalqning uzoq yillar davomida qaror topgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlari hisobga olinadi. Shunday qilib, islohotlarning barcha yo‘nalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga o‘sib o‘tishiga qaratildi. Bu islohotlar O‘zbekistonning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan ta’minlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va xalqaro miqyosda obro‘-e’tiborli mamlakatga aylantirishga xizmat qildi. «Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari ko‘plab nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan munosib baholanmoqda. Misol uchun, har yili dunyoning 162 ta mamlakati bo‘yicha iqtisodiy erkinlik indeksini e’lon qiladigan «Nasledie» fondi xalqaro reyting agentligining bu boradagi xulosasi e’tiborga sazovor. Bu tashkilot 2000–2007-yillarda O‘zbekistonda erkinlashtirish indeksi 18 punktga yaxshilanib, 53 foizni tashkil qilganini e’tirof etadi. Hech shubhasiz, bu ko‘rsatkich milliy iqtisodiyotimizni erkinlashtirish sohasida sezilarli darajada rivojlanishga erishganimizdan dalolat beradi»²⁰⁸.

18.3. O‘ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT BOSQICHLARINING MAZMUNI, VAZIFALARI VA AHAMIYATI

Ma’lumki, har qanday darajadagi islohot mavjud tartib, shart-sharoitlar, vaziyat, tarkib topgan muvozanatning o‘zgarishiga olib keladi. Butun jamiyatning isloh etilishi, ya’ni uning eski – noto‘g‘ri asosga qurilgan, istiqbolsiz tizimidan butunlay yangi – ijtimoiy bozor munosabatlariga asoslangan, demokratik va huquqiy jamiyatga o‘tilishi esa juda murakkab jarayon hisoblanadi. Shunga ko‘ra, jamiyat a’zolari

²⁰⁸ Inson manfaatlari ustunligini ta’minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yonalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2008-yil 9-fevral.

tomonidan mazkur islohotlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetish, ularda faol ishtirok etish uchun ularning «hayot falsafasi» ham o‘zgarishi lozim. Bu esa islohot jarayonlarining sekin-asta, bosqichma-bosqich amalga oshirilishini taqozo etadi. Qolaversa, taraqqiyotning yuqori bosqichlariga erishish uchun islohotlarning ma’lum quyi darajasi navbatdagi yuqori, murakkab darajasi uchun maxsus shart-sharoit, zaminni tayyorlashi lozim. Shunga ko‘ra, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizning o‘ziga xos modelidagi muhim tamoyil – bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o‘tish, ya’ni islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish hisoblanadi. Ana shu modeldagи «bosqichma-bosqich» tamoyilining real hayotdagi ahamiyati shunda bo‘ldiki, uni amaliyatda qo‘llash bir tomondan, o‘tish davri muammolarini hal qilishda mamlakatimizning imkoniyati va xalqimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni yangi yuzaga kelgan shart-sharoitlarga «moslashtirib borish» orqali islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish; ikkinchidan, o‘tish davrida davlat va boshqaruv tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqimizning dunyoqarashi va ijtimoiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga mos ravishda uni demokratik asosda shakllantirish; uchinchidan, «bosqichma-bosqich» tamoyilining qo‘llanilishi mamlakatimizda boshqa bir qator mamlakatlar o‘z boshidan kechirgan ichki sotsial ziddiyatlarning kuchayib ketishining oldini olish; to‘rtinchidan, mamlakatda mavjud bo‘lgan muammolar kompleksi ichidan birinchi navbatda hal qilinishi zarur bo‘lgan asosiylarini belgilab olish, ularni hal qilish uchun barcha kuchlarni yo‘naltirish imkoniyatlarini berdi.²⁰⁹ Umuman olganda, mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning har bir yo‘nalishi ham amalga oshirilgan chora-tadbirlarning bosqichliligi bilan tavsiflanadi. Jumladan, mulkiy munosabatlarni isloh qilishda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari kichik, o‘rtta va yirik korxonalar bo‘yicha bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Agrar sohadagi islohotlar esa ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo‘lib qolgan davlat xo‘jaliklarini dastlab jamoa xo‘jaliklariga, so‘ngra

²⁰⁹ Otamuratov S. Hozirgi bosqichda jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiya qilishning dolzarb vazifalari / «O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiya qilishning dolzarb muammolari» Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. 2005-yil 19-20-may. TQTI. – T., 2005, 9-b.

shirkat xo‘jaliklariga aylantirish, keyinchalik muayyan shart-sharoitlar, zamin tayyorlangandan so‘ng, ularni fermer va dehqon xo‘jaliklariga aylantirishdan iborat bo‘ldi. Narx islohoti ham narxlarni erkinlashtirishning bir necha bosqichlarini o‘z ichiga oldi: dastlab keng doiradagi ishlab chiqarish-texnika vositasi bo‘lgan mahsulotlar, ayrim turdagilari xalq iste’moli mollari narxi erkinlashtirilib, aholining kundalik ehtiyojida muhim o‘rin tutuvchi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi davlat tomonidan belgilab qo‘yildi. Keyinchalik, milliy ishlab chiqarishning o‘sishi va iqtisodiyotning barqarorlashishi bilan deyarli barcha tovarlar narxlari erkinlashtirildi.

Yangi XXI asrning boshlariga kelib, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov mamlakatimizdagi islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari – mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xalq turmush darajasining izchil va barqaror o‘sishi, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash, jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz va davlatimiz hududiy yaxlitligini ta’minlashni belgilab berdi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab olinib, izchil ravishda hayotga tatbiq etildi.

2007-yilning 30-avgustida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida Respublikamizning bosib o‘tgan mustaqil taraqqiyot yo‘li va oldimizda turgan vazifalarning ma’no-mohiyati va ahamiyati haqida so‘z yuritib, bu yo‘lni alohida ikki davrga ajratish to‘g‘ri bo‘lishini ta’kidlab o‘tdi. Bu davrlarning har biri mamlakatimiz tarixida o‘ziga xos va o‘ziga mos muhim o‘rin egallashini bildirdi.

Jumladan, dastlabki bosqich – 1991–2000-yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o‘tish davri tom ma’noda tarixiy ahamiyatga egaligi e’tirof etildi. Bu bosqichda o‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq quyidagi dolzarb va muhim vazifalar belgilanib, amalga oshirildi:

– eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish;

- siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot, davlat va jamiyat qurish strategiyasini barpo etishda xalqimizning tarixan shakllangan milliy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan, mamlakatimizning mavjud tabiiy-iqtisodiy, mineral-xomashyo va insoniy salohiyatini xolisona va jiddiy baholagan holda, jahon xo‘jalik aloqalari tizimida o‘ziga munosib joy egallash maqsadiga erishish;
- Asosiy qomus – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish;
- davlat va iqtisodiyotni boshqarishning mustabid, markazlashgan tizimiga barham berish, mustaqil O‘zbekistonning yangi siyosiy va davlat tuzilishi asoslarini, avvalo qonunchilik tizimini shakllantirish, markazda va joylarda vakolatli hokimiyat organlarining yaxlit tizimini tashkil etish;
- tub ma’muriy islohotlarni amalga oshirish, jumladan: markazlashgan rejalashtirish va taqsimlash tizimining tayanchlari bo‘lgan Davlat reja qo‘mitasi, Davlat ta’minot, Davlat narx, Davlat agrosanoat va ko‘plab tarmoq vazirliklarini tugatish, mahalliy hokimiyat organlarini qayta tashkil qilish – viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik institutini joriy etish. Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organi tizimi – mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlash;
- sudlarni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi organdan qonun ustuvorligi va inson huquqlari himoyasini ta’minlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimini shakllantirish;
- qisqa muddatlarda mamlakatimiz suvereniteti va hududiy yaxlitligi, konstitutsiyaviy tuzumni ishonchli himoya qiladigan, jamoat tartibini ta’minlaydigan, xalqaro terrorchilik, ekstremizm va narkoagressiya kabi kuchayib borayotgan xavf-xatarlarga qarshi kurashadigan milliy xavfsizlik organlari tizimini shakllantirish;
- mamlakatimizda yoqilg‘i-energetika va g‘alla mustaqilligiga erishishdan iborat strategik vazifani hal etish;
- bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratish, bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etish va raqobat muhitini shakllantirish orqali bozor munosabatlari mexanizmini ishga tushirish;

- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan moliya va bank tizimini shakllantirish, milliy valutani muomalaga kiritish;
- kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va aholini himoya qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va muvaffaqiyatli amalga oshirish;
- mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, uning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlarni shakllantirish;
- tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirish va h.k.

Belgilangan vazifalarning izchil va samarali amalga oshirilishi natijasida o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish borasida bir qator salmoqli va ahamiyatli natijalar qo'lga kiritildi (6.1-rasm).

Ikkinci bosqich 2001-yildan 2007-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olib, u Prezidentimiz tomonidan faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri deb nomlandi. Ushbu davrda quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratildi hamda muhim vazifalar amalga oshirildi:

- o'tish davri va milliy davlatchilikni barpo etish sharoitida obyektiv zarurat bo'lgan kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o'tishga erishish;
- mamlakatimizning qonun chiqaruvchi oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatali parlamentga aylantirilishi;
- davlat hokimiyati markaziy organlarining bir qator vakolat va vazifalarini, avvalambor iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etish, budjet tashkilotlarini, kommunal xo'jalik va obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirish, odamlarni ish bilan ta'minlash va aholi manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakolatlarini mahalliy hokimiyat, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahallalarga bosqichma-bosqich o'tkazilishi;
- sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiyaning hayotga tatbiq qilinishi va h.k.

Natijada, faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davrida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-

gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim natijalar qo'lga kiritildi.

Milliy taraqqiyotimiz yo'lida bosib o'tilgan tarixiy dovon mamlakatimizda yangicha fikrلaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillarining hayotga kirib kelishi uchun har tomonlama mustahkam zamin tayyorladi. Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni ortga qaytarib bo'lmasligi, islohotlar muqarrarligining ishonchli kafolatidir²¹⁰. Eng muhimi, hali milliy taraqqiyotimiz ikkinchi davrining o'z mantiqiy yakuniga yetmaganligi, balki mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi bosqichi izchil davom etayotganidir.

18.4. MAMLAKATNI JADAL ISLOH ETISH VA MODERNIZATSİYALASHNING MOHIYATI, TAMOYILLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining 2005-yil 28-yanvardagi qo'shma majlisi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi tarixiy bir davrni boshlab berdi. Unda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash konsepsiysi, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishning asosiy vazifalari to'g'risida ma'ruza qilib, ushbu ma'ruza asosida «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi» qabul qilindi.²¹¹

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Shunga ko'ra, hozirda modernizatsiya jarayonining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq

²¹⁰ O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007-yil 31-avgust.

²¹¹ Saidov A.X. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishda ijtimoiy fanlarning roli // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, №3, 2006, 3-b.

etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Eng avvalo, modernizatsiya atamasining mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug‘atlarda unga quyidagi mazmundagi ta’rif beriladi: «Modernizatsiya – obyektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me’yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko‘rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi»²¹². Fikrimizcha, bu modernizatsiyaga tor ma’nodagi yondashuv bo‘lib, bugungi kunda uning keng ma’nodagi mazmuni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Modernizatsiya – an‘anaviy jamiyatning ilg‘or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta’minlovchi ijtimoiytarixiy jarayon. Klassik sotsiologiyada mazkur atama E.Dyurkgeym tomonidan ijtimoiy mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi ijtimoiy tabaqalanish jarayoni sifatida tushunilgan. Veber esa modernizatsiyani ratsionallashtirish jarayoni sifatida tavsiflab, u orqali xo‘jalik subyektlari o‘z faoliyatlari iqtisodiy samarasini eng yuqori darajada oshirishga intiladilar. Shunday qilib, zamonaviy modernizatsiya jarayoni jahondagi texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarning impulsi bo‘lib xizmat qiluvchi asosiy, «o‘zak» iqtisodiyotlarga nisbatan teng huquqli mavqega erishishni anglatadi²¹³. Modernizatsiyaning keng ma’nodagi mazmunini tushunishda iqtisodchi olim R.Nureev uning neoklassik va keynscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo‘jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o‘zgarishlar sifatida tushuniladi. Dastlabki o‘ringa texnik-iqtisodiy muammolar qo‘yiladi. Xo‘jalikning zamonaviy tarmoqlarining mavjud bo‘lmasligi taraqqiyotning asosiy to‘sinqlik kuchi sifatida qabul qilinadi²¹⁴. Umuman olganda, modernizatsiya an‘anaviy jamiyatdan industriallashgan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga o‘tish jarayonlarini namoyon etadi. Nazariyada modernizatsiya deganda «an‘anaviy tarzdagi yopiq jamiyat»ga qarama-

²¹² <http://ekonomic.doco.ru>.

²¹³ <http://ru.wikipedia.org/wiki>.

²¹⁴ Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. - <http://www.soob.ru>.

qarshi o‘laroq «zamonaviy ochiq tarzdagi jamiyat»ni shakllantirishga olib keluvchi industriyalashtirish, urbanizatsiya, umumiy ta’lim, vakolatli siyosiy hokimiyat tizimlarining qaror topishi, hududiy va ijtimoiy safarbarlikning kuchayishi kabi jarayonlarning majmui tushuniladi.

Modernizatsiya jarayoni doirasida odatda quyidagi o‘zgarishlar ro‘y beradi:

1) ijtimoiy munosabatlar butun tizimining takomillashuvi va turmush tarzining o‘zgarishi – ixtiloflarni tartibga soluvchi hamda ijtimoiy muammolarni hal etuvchi yangi tartib va mexanizmlarning paydo bo‘lishi;

2) alohida individlarning ongliligi va mustaqilligining oshishi;

3) iqtisodiyot sohasida – tovar-pul munosabatlarining eng yuqori darajada yoyilishi, yangi ilg‘or texnologiyalarning paydo bo‘lishi, boshqaruvchilar va yollanma xodimlarning kasbiy ixtisoslashuvining yuqori darajasiga yetishi;

4) ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi – immobil tabaqlashgan jamiyatdan dinamik, yuqori ijtimoiy harakatchanlik va ijtimoiy raqobatga asoslangan jamiyatga o‘tilishi.

Modernizatsiya jarayonining tavsiflari qatorida, shuningdek, uning quyidagi tamoyillarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) uning majmuaviyigli, ya’ni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishi;

2) uning tizimiyligi, ya’ni jamiyat hayoti har qanday tarkibiy qismi yoki yaxlit sohasining o‘zgarishi boshqalarining o‘zgarishiga olib kelishi. Masalan, madaniy va siyosiy o‘zgarishlar iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga olib keladi va aksincha;

3) uning global tavsifi – u dastlab bir necha ilg‘or mamlakatlarda boshlanib, keyinchalik butun dunyoga yoyilmoqda;

4) uning davomiylik tavsifi – modernizatsiya qisqa davrda ro‘y bermaydi, balki u bosqichlarga bo‘linadi (islohotlarni amalgalashuvchi yetakchi guruhning paydo bo‘lishi, o‘zgarishlarni ilgari surish, ular natijalarining tarqalishi va mustahkamlanishi);

5) tabaqlashganlik tavsifi – modernizatsiya turli mamlakatlarda turlicha ro‘y berib, u yoki bu holda milliy madaniyat va axloq an‘analariga tayanadi (masalan, «yapon iqtisodiy mo‘jizasi»), G‘arb va Yevropa qadriyatlari foydasiga ulardan to‘liq voz kechishni taqozo

etmaydi.²¹⁵ Ba’zi manbalarda modernizatsiyaning alohida jihatlariga e’tibor qaratiladi. Masalan, an’anaviy jamiyatdan zamonaviy (modernity) yoki industrial jamiyatga murakkab o’tish jarayonining tarkibiy qismi bo’lgan siyosiy modernizatsiya ajratilib, uning mazmunini umumiy tizimi o’tishning ajralmas tarkibiy qismi sifatidagi siyosiy tizimning o’zgarishi tashkil etishi ta’kidlanadi.

Siyosatshunoslar S.Vebra va L.Pay siyosiy modernizatsiya jarayonining quyidagi asosiy belgi va tarkibiy qismlarini ajratib ko’rsatadilar:

1) siyosiy tizim institutlarining tarkibiy tuzilishi jihatidan tabaqlashuvi – ya’ni, qat’iy ravishda belgilangan vazifalarni bajaruvchi hamda o’zaro bog’liq va o’zaro ta’sir ko’rsatuvchi yangi siyosiy institutlarning qaror topib borishi (masalan, ijro hokimiyati tarkibida yangi yo’naliшdagi vazirlik va idoralarning tashkil etilishi);

2) siyosiy tizimning safarbarlik qobiliyatları, ya’ni uning turlituman (siyosiy, iqtisodiy, axborot, demografik) resurslarni safarbar etish qobiliyatlarini oshirish hamda ularni taraqqiyotning yangi maqsadlariga erishish tomon yo’naltirish;

3) siyosiy tizimning inqirozli holatlarda yashovchanligi hamda kommunikatsiya, sotsializatsiya va mobilizatsiyaning yangi vositalaridan foydalanish hisobiga inqirozlarni bartaraf etish qibiliyatlarini oshirish;

4) siyosiy tenglik tomon sezilarli darajada harakat qilish, ya’ni fuqarolarning siyosatda ishtirok etishidagi barcha (iqtisodiy, ma’muriy, milliy va h.k.) cheklowlarni sekin-asta tugatib borish.²¹⁶

Umuman olganda, modernizatsiya juda keng tushuncha bo’lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o’zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg’or andozalar tomon yo’naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin. Zero, bu holat mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvardagi qo’shma majlisidagi ma’ruzada mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishning ustuvor yo’naliшlari hamda mazkur yo’naliшlar doirasida amalga oshirilishi

²¹⁵ Конкурентоспособность и модернизация российской экономики. - <http://www.moderniz.org.ru>.

²¹⁶ Конкурентоспособность и модернизация российской экономики. - <http://www.moderniz.org.ru>.

lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan:

1. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida:

- mamlakatda ijro hokimiysi rolini oshirish, ayni paytda uning vakolatlari va huquqlarini kengaytirish orqali hukumatning mas’uliyatini yanada oshirish;
- mamlakatning Oliy qonunchilik organi – ikki palatali Parlamentni shakllantirish;
- hokimiyatning asosiy bo‘g‘ini va davlat tayanchi bo‘lgan o‘zini-o‘zi boshqarish organlari – mahalla, mahalla qo‘mitalari va qishloq fuqarolik yig‘inlariga keng imkoniyatlar berish orqali ularning vakolatlarini oshirish va faoliyati hamda rolini amalda kuchaytirish;
- mamlakat istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan hamda davlat ahamiyatiga doir muhim qarorlar qabul qilishda ayni paytda faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining roli, ishtiroki hamda ta’sirini tubdan kuchaytirish va boshqalar.

2. Sud-huquq tizimi islohoti sohasida:

- sud-huquq tizimini isloh qilish va liberallashtirishni davom ettirgan holda uning faoliyatini demokratik tamoyillar asosida yanada takomillashtirib borish;
- prokuratura tizimining ayrim huquq va vakolatlarini sudsarga o‘tkazilishini ta’minalash va boshqalar.

3. Ommaviy axborot vositalari rolini oshirish borasida:

- ommaviy axborot vositalari tizimini yanada rivojlantirish;
- matbuot, radio-televiedenie faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqil faoliyat yuritishlari va erkinligini amalda ta’minalash;
- ommaviy axborot vositalarining nodavlat shakllari yaxlit tizimini yaratish, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minalashga hamda tezkor axborotlarni olish va xalqqa yetkazish masalalarida erkinlikni oshirish;
- jamiyatda ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish orqali fuqarolar sog‘lom fikrlari va g‘oyalarini ayta oladigan «erkin so‘z», «erkin fikr» minbariga aylantirishga erishish va boshqalar.

4. Tashqi siyosat sohasida:

- mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash;
- global muammolardan biriga aylangan xalqaro terrorizmga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish;

- diniy ekstremizm va narkoagressiyaga qarshi keskin kurash olib borish;
- boshqa mamlakatlar bilan tashqi integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish;
- Markaziy Osiyo mintaqasida umumiyl bozorni shakllantirishga alohida ahamiyat berish;
- jahoning yirik, nufuzli xalqaro moliya va iqtisodiy tuzilmalari hamda tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va boshqalar.

5. Iqtisodiyot sohasida:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish;
- iqtisodiyotning turli sohalarini erkinlashtirish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida hozirgacha o‘tmishdan meros sifatida saqlanib qolayotgan ma’muriy-taqsimot tizimi mezonlaridan butunlay voz kechish;
- xususiy sektorning yanada jadal rivojlantirilishini ta’minlash;
- davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada ko‘proq cheklash;
- kichik biznes va fermerlikni rivojlantirishga e’tiborni qaratish;
- xususiy tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug‘ullanuvchilar faoliyat ko‘rsatishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ularni rag‘batlantirib borishni tashkil etish;
- soliq tizimini yanada takomillashtirish;
- soliqqa tortish borasida qo‘srimcha imtiyozlar va pyerefyerensiyalar berilishini ta’minlash va boshqalar.²¹⁷

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, modernizatsiyalash jarayonlari mamlakatimiz hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi. Ayniqsa, mazkur yo‘nalishlar orasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash muhim o‘rin tutadi. Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta’minlash, uni jahoning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, jahon bozori kon‘yunkturasidagi tebranishlar, inqiroz

²¹⁷ Bizning bosh maqsadimiz – jamiatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisdagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, 2005-yil 19-yanvar, №13, 3-b.

holatlariga nisbatan «chidamliligi», mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyotdagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog‘liqdir. Biroq, shu bilan birga iqtisodiyotni modernizatsiyalash ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi o‘zgarishlarga chambarchas bog‘liq. Ya’ni, barcha soha va jabhalar o‘rtasida jadal isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta’minlashga harakat qilish lozim. Shu o‘rinda modernizatsiyalash jarayonining jamiyat har bir a’zosining ongliligi va mustaqilligini oshirishdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, iqtisodiyot hamda mamlakat hayotining boshqa sohalarini modernizatsiyalash eng avvalo ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi, ularni amalga oshiruvchi va doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi jamiyat a’zolari dunyoqarashi, tafakkurining o‘zgarishi, ularning demokratik va tub islohot jarayonlaridagi faolligi oshishiga bevosita bog‘liqdir.

Tayanch tushuncha va iboralar: bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri, bozor islohotlari, iqtisodiy uklad, iqtisodiyotni erkinlashtirish, islohotlar konsepsiysi, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, modernizatsiyalash.

18-bob YUZASIDAN XULOSALAR

Oldingi bobda biz o‘tish davri va uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishdik. G‘arb va Sharq mamlakatlarning o‘tish davrlarini, o‘tish davriga hissa qo‘sghan olimlar faoliyati bilan tanishdik. Mazkur bobda O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos xususiyatlari va tamoyillarini Birinchi Prezidentimiz I.Karimov yo‘li orqali tanishamiz.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo‘llari (modellari)ni ta’riflab bering. Ularning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsating.
2. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘li qanday xususiyatlarga ega? Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?

3. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish tamoyilining mazmunini batafsil tushuntiring. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini to‘laroq bayon qiling.

4. Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirildi? Har bir yo‘nalish bo‘yicha o‘zingizning fikr-mulohazalariningizni bildiring.

5. Bozor munosabatlariga o‘tishda iqtisodiy islohotlar o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘yadi? Bu vazifalarning to‘laroq tavsifini bering.

6. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida davlatning yetakchilik faoliyati nimadan iborat ekanligini tushuntirib bering.

7. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz? Ular bir-biri bilan qanday bog‘langanligini tahlil qiling.

8. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘yadi?


9. Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan milliy taraqqiyotimiz alohida davrlarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Bu davrlarda qanday iqtisodiy chora-tadbilar amalga oshirildi?

10. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etishning asosiy ustuvor vazifalarini so‘zlab bering.

19-bob. ZAMONAVIY IQTISODIY TAFAKKUR YO'LBOSHCHILARI

19.1. SH.MIRZIYOYEV IQTISODIY ISLOHOTLARI VA UNI INSONLAR TAFAKKURIDA AKS ETISHI

Mustaqillikdan so‘ng mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yanada kengaytirish hamda iqtisodiyotimizni barqaror yuksaltirish uchun mustahkam poydevor yaratish maqsadida modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2015–2019-yillarda iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash dasturi orqali amalga oshirila boshlandi. Unda 2015–2019-yillarda “Iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash” bo‘yicha qabul qilingan dastur xususiy mulkni ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotda uning ulushi va ahamiyatini oshirish, zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya iste’moli hajmini kamaytirish hamda energiya tejaydigan texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan strategik dasturiy hujjatni o‘z ichiga olgan.



Sh.Mirziyoyev (1957)

2016-yil dekabr oyidan Prezidentlik lavozimiga Sh.M. Mirziyoyev kirishganlaridan so‘ng O‘zbekistonda inson (jamiat) iqtisodiy tafakkurida yana bir qator o‘zgarishlar bo‘ldi. Yurtboshimiz O‘zbekistonning bugungi kuni uchun iqtisodiyotning innovatsiyalarga asoslangan rivojlanishini ta’minlash vazifasini muhimligini anglagan holda islohotlarni amalga oshirilmoqdalar.

Sh.Mirziyoyev iqtisodiy tafakkurni milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda respublikamizda bir qator islohotlarni o‘tkazishni taklif qilmoqda, ular:

- iqtisodiy tafakkur shakllanishi inson milliy manfaatlari bilan bog‘liq, shuning uchun Sh.Mirziyoyev fuqaroning hayoti, uning

farovonligi bilan bog‘liq harakat qonun bilan kafolatlanishini ta’kidlaydi: “Bugun hayotimizning o‘zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.”²¹⁸;

– mehnat tufayli inson o‘z hayotini yaxshilash, daromadini ko‘paytirishi va bolalarini kelajagini ta’minlashi mumkin. Mehnat o‘zbek xalqining ajralmas qismi, shu sababli Sh.Mirziyoyev ma‘ruzalarida “Aholini ish bilan ta’minlash biz uchun nafaqat iqtisodiy, ayni paytda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Hokimliklar, vazirlik va idoralar, ish beruvchi tashkilotlar bilan bir qatorda bank muassasalari ham bu ishga yanada faol jalg etilishi kerak”²¹⁹ deydi;

– O‘zbekiston iqtisodiyoti doimo qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Shuning uchun Sh.Mirziyoyev ma‘ruzalarida milliy iqtisodiyotimizning asosiy sohalaridan qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlikka alohida e’tibor qaratiladi, jumladan, “Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya’ni harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish – hukumat, davlat boshqarushi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi”²²⁰ deydi yurtboshimiz;

– A.Temur o‘z xalqini boyligini orttirishga, kambag‘allarning hol ahvolini doimo nazoratga olishga qaratgan, xuddi shunday Sh.Mirziyoyev “Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada

²¹⁸ Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi O‘zR Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutq. //Xalq so‘zi. 7-dekabr 2016-yil.

²¹⁹ Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi O‘zR Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutq. //Xalq so‘zi. 7-dekabr 201- yil

²²⁰ Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. 14-b-

oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o‘zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo‘lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya’ni “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”²²¹ deydi. Bu esa davlatimizda azaldan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy g‘oyasidir;

– xalq bilan muloqot yurtimizda oldindan shakllangan tizim, u turli podsholiklar, amirliklar davrida qo‘llanilar edi, uni yanada rivojlantirishni Sh.Mirziyoyev qo‘llab-quvvatlab kelmoqda, jumladan, “Davlat hokimiysi organlari, jumladan, iqtisodiyot, bank-moliya sohasi idoralari, kommunal xizmat, ichki ishlar, tashqi ishlar, ta’limtarbiya, sog‘liqni saqlash, sud-huquq tizimining parlament va mahalliy kengashlarda hisobot va axborot berish tartibi yo‘lga qo‘yilib, xalq nazorati amalda joriy etilmoqda”²²².

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”²²³ PF-4947-sonli farmoni qabul qilindi.

10-jadval

Ustuvor yo‘nalish va iqtisodiy tafakkur

Tamoyilial yo‘nalish	Iqtisodiy tafakkurdagi o‘zgarish
Tamoyilial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash	Yangi mahsulot va texnologiya insonlarning hayotini yengillashtirishi va iqtisodiy tafakkurda miya faoliyati darajasining kengayishiga sabab bo‘ladi
Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan	Insonlarda tejamkorlik hissini uyg‘otadi, turli tarmoqlarni keng rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

²²¹ Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olıyanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. 16 b

²²² Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy pariyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektr yig‘ilishidagi ma’ruzasi. <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/781>

²²³ “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagli PF-4947-sonli Farmoni

texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirish	
Eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish	Aholini o‘z ishlab chiqarayotgan mahsulotini chetga chiqarishni osonlashtiradi va bu bilan aholi iqtisodiy ravnaqi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning talabgirligini, sifatini oshishiga sabab bo‘ladi.

Uning uchinchi ustuvor yo‘nalishi hisoblangan “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”²²⁴da tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi qo‘yilgan. Ushbu masalaning ayrim yo‘nalishlarini va ularni iqtisodiy tafakkurni boyitishga xizmat qiladigan yo‘llarini ko‘rib chiqdik (10-jadval).

Mazkur dasturda, shuningdek, to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”²²⁵ aholi (jamoa, inson)ning iqtisodiy tafakkurida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Ushbu ustuvor yo‘nalishning ayrim tarkibiy qismlari va iqtisodiy tafakkurga ta’sir darajalarini ko‘rib chiqamiz (11-jadval).

²²⁴ “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni.

²²⁵ “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni.

11-jadval

Ustuvor yo‘nalish va iqtisodiy tafakkur

Tamoyilial yo‘nalish	Iqtisodiy tafakkurdagi o‘zgarish
aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;	aholini daromadini ko‘payishi ertangi iqtisodiyotga ishonchini orttiradi
mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish;	mehnat iqtisodiy tafakkurning asosini tashkil qilgani tufayli, uni davlat tomonidan kafolatlanishi sifat darajasini ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi
uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;	mamlakat siyosati ta’lim tizimga e’tiborni kuchaytirilishi, bilimga asoslangan iqtisodning talab darajasini yuqorilishiga bo‘ladi
jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;	jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, mamlakat iqtisodiy barqaror kelajagini ta’minkaydi
yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish.	Uy-joy va inson yashashi uchun zarur texnik vositalar bilan ta’minlanishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yaxshilaydi

Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2017-yil 7-fevralda F-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi dastur o‘z ichiga 2017–2021 yillarni oladi. Bu davrda iqtisodiyotda tubdan o‘zgarish kutilmoqda.


O‘tish davrida amalga oshirilgan xatti-harakatlar islohotning amaliy natijasi bo‘lgan aholi farovonligiga qaratildi. Bu masalaning dolzarbligi birinchi navbatda, albatta, farovonlik tushunchasi va uni aniqlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni tizimli o‘rganish hisoblanadi. Ikkinchidan, farovonlik darajasi davlat maqsadlarini mujassamlashtirib, uning boshqa respublikalarga nisbatan rivojlanish darajasini tasdiqlovchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

19.2. O‘ZBEKISTONLIK IQTISODCHI OLIMLARNING O‘ZBEKISTONDAGI IQTISODIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHDAGI XISSALARI

Ilm-fan rivoji jamiyat ma’naviy-intellektual taraqqiyotining uzviy bir qismi, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlariga yangicha turtki beradigan asosiy omildir. Hozirgi davrning o‘zi jahon miqyosidagi universitetlar, yetakchi institutlar, fanlar akademiyalari hamda ilmiy markazlar bilan mustahkam ilmiy hamkorlikni talab etmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining 2016-yil 30-dekabrda yurtimiz ilm-fanining yetakchi vakillari bilan o‘tkazgan uchrashuvida mamlakatimiz yuksak salohiyatli, dunyoda e‘tirof etilgan olimlar ko‘pligini, ular o‘zlarining ilmiy maktablarini yaratishlari kerakligini alohida ta’kidlandi.

Mustaqillik yillarida Respublikamizda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, uslubiy fanlar majmularini shakllantirish, oliy o‘quv yurtlarida salohiyatli ilmiy maktablarni yaratishda TDIUning xizmatlarini yuqori baholashimiz zarurdir. Respublikamizning bir qator iqtisodchi olimlarini aynan ana shu oliy dargoh talabalari bo‘lganliklari, kelgusida iqtisodiyot fanining turli yo‘nalishlarini rivojlantirishda o‘z hissalarini qo‘sghanliklarini alohida ta’kidlashimiz joizdir. Ushbu bobda ana shunday olimlarimiz ya’ni fan olamining eng yuksak cho‘qqilariga erishgan zahmatkash insonlar bilan yaqindan tanishamiz.

Avvalo Toshkent xalq xo‘jaligi instituti 1930- yilda shakllanib iqtisodchi kadrlarni tayyorlovchi dastlabki oliy o‘quv yurti bo‘lganligini ta’kidlashimiz zarurdir. Ushbu oliy o‘quv yurti Sobiq Ittifoq davrida nafaqat iqtisodichi kadrlarga bo‘lgan talabni bajardi balki, shu sohadagi ilm-fan yangiliklarini yaratgan iqtisodiyotdagi turli tarmoqlar talablarini o‘rganib, yangiliklar kiritgan va ilmiy xulosalar bergen, milliy kadrlarni ham shakllanishiga hissa qo‘shdi.



I.Iskandarov

Iskandarov Ibrohimjon²²⁶ – iqtisod fanlari doktori, professor, O‘zFA akademiyasining akademigi. I.Ibraximov 1932-yil 8-mayda Qozog‘iston Respublikasi Sayram tumani, Qoramurut qishlog‘ida tavallud topdi. U 1953-yilda Toshkent moliya-iqtisod institutini tugatgan. 1962–1963-yillarda O‘zbekiston FA ijtimoiy fanlar bo‘limi kotibi, 1963–1968-yillarda Iqtisodiyot institutida bo‘lim mudiri, 1968–1969-yillarda O‘zbekiston davlat reja qo‘mitasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar institutida ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimlarida ishladi. 1969-yilda iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. 1969–1971-yillarda O‘zFA iqtisodiyot instituti direktori o‘rinbosari, 1971–1975-yillarda mazkur institut direktori lavozimida faoliyat yuritdi. 1973-yilda unga professor ilmiy unvoni berildi. 1974 yilda Beruniy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti laureati bo‘ldi. 1975–1976-yillarda Toshkent Xalq xo‘jaligi instituti rektori lavozimida ishlagach, yana O‘zbekiston FADA faoliyatini davom ettirdi. 1976–1979-yillarda O‘zFA Falsafa, iqtisodiyot va huquq bo‘limi akademik – kotibi lavozimida faoliyat yuritdi. 1979-yilda u O‘zFA akademikligiga saylandi. 1979–1984-yillarda O‘zFA Prezidiumi bosh ilmiy kotibi, 1984–1987-yillarda FA Falsafa, iqtisod va huquq bo‘limi raisi bo‘lib ishladi. 1989–1990-yillarda O‘zbekiston Vazirlar Kengashi raisining o‘rinbosari – Davlat Reja ko‘mitasi raisi lavozimida faoliyat yuritdi. 1990–1996-yillarda O‘zbekiston FA vitse-prezidenti va 1997-yilda O‘zFA Iqtisodiyot institutida iqtisodiy integratsiya muammolari bo‘limi boshlig‘i lavozimida ishladi. Olim ko‘p yillar mobaynida Toshkent shahridagi oliygochlarda iqtisodiy fanlardan talabalarga dars bergen.

²²⁶ Иктиносодчи олимлар. Тўпловчи ва тузувчилар: Х.П.Абулқосимов, Т.Т.Жўраев. –Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2016. 20–21-бетлар.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi Iqtisodiy fanlar kafedrasi mudiri lavozimida ishlagan.

I.Iskandarovning katta ilm-fan dargohiga kirib kelishi, 1976-yildan uni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Prezidiumi a’zosi va 1979-yili akademigi etib saylanishidan boshlandi va unga qariyb 20 yil mobaynida a’zo bo‘lishi davridan qator rahbarlik: O‘zR FA falsafa, iqtisod va huquq fanlari bo‘limining Akademik-sekretari, O‘zR FA bosh ilmiy kotibi va O‘ZR FA Vitse-prezidenti lavozimlarida faoliyat yuritdi va Akademiya tizimida ilmiy-tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish darajasini ko‘tarish hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarni talablari asosida rivojlantirishga o‘zining munosib xissasini qo‘shdi.

Bu davrdagi I.Iskandarovning fundamental-iqtisodiy muammolarni qamrab olgan ishlaridan “Problemq ekonomiceskoy nauki v Sovetskom Uzbekistane” (1979) monografiyası mazmun va mafkuraviy jihatidan alohida e’tiborga molik. Unda iqtisod fanining o‘tmish tarixi, iqtisodiy tafakkurning shakllanishi, uning yirik namoyandalarining jahon iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissalariga munosib baho berilganligi holda, respublikamizda iqtisodiy qoloqlik darjasи va o‘z yechimini kutayotgan bu sohadagi metodologik yondoshishlar va keng qamrovli, yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolar murakkabligicha qolayotganligiga baho berilib, bularning sababchisi “Markaz”ning mustamlakachilariga iqtisodiy siyosati tufayli respublikamizni Sobiq Sovet Ittifoqi “Yagona xalq xo‘jaligi kompleksi”ga qo‘shayotgan tafakkurini shakllantirish asosida unga tobelligini yanada mustahkamlashga qaratilgan faoliyatiga qarshi, uning kuchli iqtisodiy salohiyati hisob-kitoblarda yaqqol ko‘rsatib berilgan.

I.Iskandarovning O‘zR FA Vitse-prezidenti bo‘lib ishlagan davri sobiq Ittifoqning parchalanishi tufayli mamlakatimizning mustaqillikka erishgan yillarining oson bo‘lmagan ilk davriga to‘g‘ri kelishi, ijtimoiy-gumanitar fanlarining mazmunini yangi mafkuraviy andozalar manbayida, ilm ahli salohiyatini istiqlol tafakkuri manfaatlari sari uyg‘unlashtirishni taqozo etar edi.

Bunday sharafli burchni real holatga keltirish O‘zR FA rahbariyati, birinchi navbatda shu sohaga mutasaddi Vitse-prezident I.Iskandarov zimmasiga yuklatilishi bejiz emas edi. Binobarin u davr uchun o‘ta

dolzarb bo‘lgan mustaqil mamlakatimizning istiqlol mafkurasi ilmiy asoslarini yaratishga katta xizmat qildi.

Akademik I.Iskandarov rahbarligida tashkil qilingan bu turkumdagи muhim strategik va ilmiy-amaliy tadbirlardan biri – “O‘zbekiston Suvereniteti va mustaqilligi sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifalari”ni belgilashga bag‘ishlab o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining maxsus sessiyasi alohida o‘rin egallaydi. Qolaversa, mazkur maqsadning tarkibiy qismi sifatida o‘tmishda o‘zbek xalqining boy moddiy-ma’naviy merosiga beqiyos hissa qo‘shgan ajdodlarimizning xotirasini abadiylashtirish va muborak tavalludlariga bag‘ishlangan boshqa qator yirik xalqaro ilmiy konferensiyalarni tashkil qilib, o‘tkazishda I.Iskandarovning ilmiytashkiliy salohiyati muhim rol o‘ynagan. Axmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Mahmud Zamaxshariy, Imam Buxoriy, Buyuk Sarkarda – Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Mashrab, Haziniy, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Zahiriddin Bobur va Fayzulla Xo‘jayev, Sharof Rashidov, Ibrohim Mo‘minov, Xadicha Sulaymanova, G‘o‘fur G‘ulom va boshqalar shular jumlasidandir. Bu buyuk siymolarning har birining merosini tahlil qilish fanning yangi qirralarini ochib bergenligi e’tiborga sazovordir. Bu jihatdan, respublika rahbariyati e’tiborida bo‘lgan Sohibqiron Amir Temurning 660 yillik tavalludiga bag‘ishlangan “Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni” bobiga (1996) bag‘ishlanib o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konfyerensiya o‘zbek xalqining umumjahon tarix sahnasida tutgan mavqeini yanada yuksaltiradi.

I.Iskandarovning ilmiy ishlari sanoat iqtisodiyoti, yalpi milliy mahsulotni hisoblash uslubiyati, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi muammlariga bag‘ishlangan. U O‘zbekistonda ijtimoiy fanlarni va ayniqsa, iqtisodiy fanlarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shgan. U muhim iqtisodiy dasturlarning muallifi bo‘lib, besh yuzdan ortiq ilmiy ishlarini nashr etgan. Uning ilmiy asarlari O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishining nazariy, strategik masalalariga va mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvi jarayonlarining dolzarb muammolarini tahlil etishga bag‘ishlangan.

I.Iskandarovning muhim izlanishlaridan yana biri jahon e’tiborini o‘ziga qaratgan soha – Orol dengizi ekologik fojiasi dasturidir. Bu Orol


dengizini tiklash konsepsiysi – qurib borayotgan Orol dengiziga toshib borayotgan Kaspiy dengizi havzasi atrofini salbiy ekologik holatga mahkum etayotgan ortiqcha kanal qurilishi orqali keltirilishi, bu konsepsiya ikkala qit’ani ekologik fojiasidan halos etishning eng arzon va samarali yo‘li sifatida betakrordir. Izlanishlar natijasi bo‘yicha I.Iskandarov rahbarligida 1995-yil sentabr oyida Nukus shahrida Jahon banki, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi bilan birgalikda o‘tkazgan “Orol bo‘yining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari tadqiqotlari” Xalqaro ilmiy-amaly konferensiyasida keng jamoatchilik bilan muhokama qilinib, tegishli tavsiyalar qabul qilingan.

Akademik I.Iskandarov respublikada ilmiy texnikaviy, iqtisodiy bilimlarini targ‘ibot qilinishiga muhim hissa qo‘shgan. Bunday faoliyat uning O‘zbekiston Respublikasi “Bilim” jamiyati a’zosi va uning eng yuqori organi – Respublika “Bilim” jamiyati boshqaruving Raisi va butunittifoq “Bilim” jamiyati Pruzidiumining a’zosi sifatida namoyon bo‘ldi.

Akademik I.Iskandarovning serqirra ijtimoiy va ilmiy faoliyatining natijalari xalqaro jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan. Unga insoniyat taraqqiyotiga va ijtimoiy rivojlanishga qo‘shgan muhim hissasi uchun Amerika Biografiya Institutining “1998-yil kishisi” faxriy unvoni berilgan hamda mazkur institut tomonidan 1999-yilda “XX asrning buyuk yutuqlari” uchun beriladigan mukofotning sovrindori bo‘lib, jahondagi “500 atoqli liderlar” ro‘yxatiga kiritilgan.

Alqissa, taqdir akademik I.Iskandarovni fan sohasida – kichik bir ilmiy xodimdan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi va uning vitse-prezidenti lavozimigacha, davlat qurilishi yo‘nalishida – oddiy moliya mulozimida, O‘zbekiston Ruspulikasi Ministrlar Soveti raisining o‘rinbosari, ijtimoiy jamoatchilik faoliyati bo‘yicha – respublika “Bilim” jamiyatining oddiy lektorligidan, uning oliy organi hisoblangan – respublika “Bilim” jamiyati boshqaruving raisi darajasigacha bo‘lgan mashaqqatli, olis va keng masofani bosib o‘tishga, mamlakatimizning ma’naviy hayotini mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish ishtiyoqida qalam tebratib, ijod etgan ibratli shaxsdir.

Iqtisod fanlari doktori, professor, akademik **Murod Sharifxo'jayevich Sharifxodjayev**²²⁷ 1932-yil 20-avgustda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1953-yilda Toshkent moliya – iqtisod institutini tugatgan. 1953–1963-yillarda shu institutda aspirant, assiistent, katta o‘qituvchi, 1963–1967-yillarda dotsent, 1967–1979-yillarda xalq xo‘jaligini rejalashtirish kafedrasi mudiri lavozimlarida ishladi. 1976-yildan iqtisod fanlari doktori. 1978-yildan professor. 1975–1976-yillarda O‘zbekiston Davlat Plan ko‘mitasi (Gosplan) qoshidagi iqtisodiy ilmiy tadqiqot instituti direktori, 1976–1986 yillarda Toshkent xalq xo‘jaligi instituti rektori lavozimida faoliyat yuritdi. 1981-yildan unga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi unvoni berilgan. 1986–1990-yillarda Qurilish komplekslari rahbarlari va mutaxassislari malakasini oshirish va qayta tayyorlash isntituti prorektori, 1990–1991-yillarda O‘zbekiston FA bosh ilmiy kotibi lavozimlarida ishladi. 1994–1995-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri o‘rinbosari hamda istiqbolning belgilash va statistika davlat ko‘mitasi raisi. 1995-yil aprel-iyul oylarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi rektori, 1991–2005-yillarda Toshkent moliya instituti rektori lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1992-yilda unga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy faxriy unvoni berilgan. U Ikkinchichaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, 2005–2006- yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senat raisi. 2006-yildan Senat a’zosi.



M.Sharifxo'jayev


M.Sh.Sharifxo'jayevning ilmiy ishlari O‘zbekistonda kapital qurilishi, iqtisodiy nazariya, respublikaning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xalq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgartirishlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, aholini ish bilan ta’minlash va boshqa masalalarga bag‘ishlangan. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari muallifi.

Akademik M.Sharifxodjayev fundamental ilmiy ishlari bilan iqtisodiyot fanini boyitgan, o‘zining ilmiy mifiktabini yaratgan,

²²⁷ Иқтисодчи олимлар. Тўпловчи ва тузувчилар: Х.П.Абулқосимов, Т.Т.Жўраев. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2016. 29–30-бетлар.

ayniqsa, O‘zbekistonning mustaqillikka erishgandan keyingi davrida bozor munosabatlariga o‘tish bo‘yicha qator konsepsiyalarni ishlab chiqishda salmoqli hissa qo‘sghan mashhur olimdir.

Ubaydullayeva Ra’no Axatovna²²⁸ – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi, akademik. U 1936-yilda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. 1958-yilda Toshkent moliya-iqtisod institutini tugatganidan keyin O‘zFAning iqtisodiyot institutida laborant lavozimida ishlagan. 1960-yilda ushbu institutning aspiranturasiga o‘qishga kirgan va i.f.d., professor D.D.Yerlix raxbarligida ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullana boshlagan. 1964-yilda “O‘zbekiston kolxozlarida ayollar mehnati” bobi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ushbu tadqiqot natijalari bo‘yicha R.A.Ubaydullayevaning “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ayollar mehnati” (1969) deb nomlangan birinchi monografiyasi chop etilgan.



R.Ubaydullayeva

1964–1974-yillar davomida O‘zFA Iqtisod institutida kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim va bo‘lim mudiri vazifalarida ishlagan. R.A.Ubaydullayeva O‘zbekistonda aholi sonining qayta tiklanishi va o‘sishi hamda mehnat resurslaridan foydalanish muammolari bilan shug‘ullangan. Ilmiy izlanishlar bo‘yicha hamkasblari bilan hamkorlikda O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlarida mehnat resurslarini ko‘paytirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqqan. Bu yillarda kichik va katta bo‘limgan shaharlardagi mehnat resurslarining balanslarini tuzish metodlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish ichidagi zahiralarni aniqlash, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida mehnat resurslaridan samaraliroq foydalanish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar bajarilgan. Ayniqsa, R.A.Ubaydullayeva rahbarligi ostida O‘zbekistonning 60 ta kichik va katta bo‘limgan shaharlari bo‘yicha bajarilgan ishlanmalar muhim ahamiyat kasb etti. Ushbu ilmiy ishlarga tayangan holda erkaklar va ayollar mehnatidan oqilona

²²⁸ Иқтисодчи олимлар. Тўпловчи ва тузувчилар: Х.П.Абулқосимов, Т.Т.Жўраев. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2016. 24–25-бетлар.

foydalanish bo‘yicha takliflar asoslanib berildi. 445 ta sanoat korxonalarida o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari mehnat samaradorligini oshirish bo‘yicha zaxiralarni aniqlash imkoniyati berdi.

O‘tgan asrning 70–80-yillarida R.A.Ubaydullayeva o‘zining ilmiy tadqiqotlarida mehnat resurslarini qayta tiklash, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi, O‘zbekiston va O‘rta Osiyo mintaqasi sharoitida ayollar mehnatidan foydalanishning optimal imkoniyatlari bilan bog‘liq metodologik masalalarga alohida e’tibor qaratgan. Shu davr ichida uning bevosita rahbarligi ostida viloyatlar, tumanlar, shaharlar, kolxoz va sovxozlarda bir qator sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazilgan.

1974-yilda R.A.Ubaydullayeva “O‘zbekiston SSRda mehnat resurlarini joylashtirish va undan samarali foydalanishning mintaqaviy muammolari” bobsida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Amalga oshirilgan ilmiy ishlanmalarning natijalari asosida “Aholi soni va mehnat resurslari qayta tiklanishi qonuniyatlar va o‘sishi istiqbollari” (MDU talabalari uchun ingliz tilida o‘quv qo‘llanma, 1978); “O‘zbekistondagi mehnat resurslari va ulardan foydalanishning samaradorligi” (1979); “O‘zbekistondagi yoshlar mehnatidan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari” (1982) kabi monografiyalar, bir qator broshyuralar va ilmiy maqolalar chop etilgan.

1993-yilda R.A.Ubaydullayeva O‘zR Mehnat vazirining o‘rinbosari bo‘lib ishlab, ilmiy faoliyatni davom eetirdi. 1998-yilda professor R.A.Ubaydullaevaning ilmiy va mehnat faoliyatida yangi bosqich boshlandi. U “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish ilmiy – tadqiqot Markazining direktori etib tayinlandi va mamlakatimiz uchun yangi ilmiy soha – jamoatchilik fikri sotsiologiyasi yo‘nalishida ish boshladi.

G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich²²⁹ – iqtisod fanlari doktori, akademik. S.S.G‘ulomov 1947-yil 25-iyunda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1969-yilda Toshkent xalq xo‘jaligi institutini tugatgan. 1973-yili G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetida fan nomzodligi hamda 1981-yili M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida iqtisod fanlari doktori ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiyalarini himoya qilgan. 1984-yildan professor va 1995-yili O‘zbekiston FA akademigi etib saylangan. 1991-yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. 1974-yildan boshlab Toshkent xalq xo‘jaligi instituti “Iqtisodiy kibernetika” kafedrasida katta o‘qituvchi, 1974–1978-yillarda dotsent, 1984–1985 yillarda “Iqtisodiy kibernetika” fakulteti dekani, 1986–1988-yillarda institutning o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, 1988–1991-yillarda Toshkent Xalq xo‘jaligi instituti rektori lavozimida ishladi.



G'ulomov S.S.

Akademik S.G‘ulomov yirik tashkilotchi rahbar. Uning bevosita tashkilotchiligi asosida TDIUga qarashli iqtisodiyot kolleji, akademik litsey va gimnaziya, “Xalqaro iqtisodiy munosablar”, “Xalqaro biznes”, “Xalqaro turizm”, “Marketing”, “Xalqaro moliya”, “Bank” va “Xalqaro valuta munosabatlari”, “Bojxona”, “Iqtisodiy informatika va internet” mutaxassisliklari va fakultetlar ochildi. Respublikamizning oliy o‘quv yurtlarining professor o‘qituvchilari, xalq xo‘jaligining turli tarmoq va sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodchi mutaxassislarining iqtisodiy bilimlarini oshirishga mo‘ljallangan Malaka oshirish instituti tashkil etildi. TDIU kutubxonasiiga 50 ming nusxdan ortiq xorijdan kitob olib kelgan.

Ilmiy ishlari yo‘nalishlari: iqtisodiy matematik usullar va modellashtirish, axborotlashtirish, O‘zbekiston mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tizimli modellashtirish hamda ularning tabiiy, ishlab chiqarish va intellektual potensialidan samarali tarzda foydalanishning metodologik va metodik asoslarini ishlab chiqish,

²²⁹ Иқтисодчи олимлар. Тўпловчи ва тузувчилар: Х.П.Абулқосимов, Т.Т.Жўраев. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2016. 6–9-бетлар.

boshqaruvda kompyuter tizimlaridan foydalanishning informatsion ta'minoti muammolari, o'quv jarayonlari va ilmiy tadqiqotlar uchun yangi innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish, innovatsion oila, intellektual salohiyat va intellektual iqtisodiyotni hamkorlikda rivojlantirish omillari masalalariga bag'ishlangan 280 dan ortiq monografiya va muammoli maqolalari va tezislар nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy jurnallarda ham chop etilgan. Shulardan 120 dan ortig'i 2011–2016-yillarda chop etilgan.

S.S. G'ulomov tomonidan iqtisodiyotga kiritgan atamalar:



Q.Abduraxmonov

intellektual ta'lif, intellektual oila, innovatsion mahalla va fuqarolik jamiyati, innovatsion sog'liqni saqlashning intellektual rivojlantirish, inson xotirasi, o'yash tezligi va mantiqiy fikrlashni kuchaytirish, innovatsion yuksak ma'naviyat, sog'lom ona – intellektual bola, intellektual shaxs va jamiyat, modernizatsiya jarayonlarini intellektual-lashtirish, kreativ tadbirkor, intellektual salohiyatni yuksaltirishning mutlaq ustuvorligi

tamoyili, elektron hukumatning fuqarolik jamiyatdagi roli, innovatsion sog'liqni saqlash, ta'lif, fan va iqtisodiyot integratsiyasi va hamkorligi.

Abduraxmonov Qalandar²³⁰ iqisod fanlari doktori, professor, akademik. 1946-yil 2-fevralda Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanining (Go'dako'sh) qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ilgan. O'rta mktabni tugatgach, 1963-yilda Toshkent xalq xo'jaligi institutiga "mehnat iqtisodiyoti" mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kirgan. 1966-yilda bir guruh iqtidorli yoshlар markaziy institutlarga yuborilgan. Shular qatorida u ham G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot akademiyasiga Moskva xalq xo'jaligi instituti o'qishini davom ettirish uchun yuborilgan. 1968-yilda G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot akademiyasini tugatgandan so'ng O'zbekiston oliy ta'lif vazirligining yo'llanmasi bilan Toshkent xalq xo'jaligi institutining "mehnatni ilmiy tashkil etish va boshqarish" kafedrasiga assistentlik vazifasiga

²³⁰ Иктисадчи олимлар. Тўпловчи ва тузувчилар: Х.П.Абулқосимов, Т.Т.Жўраев. –Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2016. 31 – 34 бетлар.

yuborilgan. Ikki yil ishlaganidan so‘ng Moskva shahridagi G.V.Plexanov nomli Rossiya Iqtisodiyot akademiyasiga “maqsadli” aspiranturaga taklif qilingan. 1973-yil noyabr oyida iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun “fan texnika taraqqiyoti sharoitida malakali ishchi kadrlar tayyorlash (O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalari misolida)” bobsida dissertatsiya yoqlagan. 1973–1978-yillarda Toshkent xalq xo‘jaligi institutining “Mehnatni ilmiy tashkil etish va boshqarish” kafedrasida o‘qituvchi, 1978–1986-yillarda mazkur kafedra dotsenti, dekan o‘rinbsari lavozimlarida ishlagan. 1986–1991-yillarda “mehnat iqtisodiyot va sotsiologiyasi” kafedrasining mudiri lavozimida ishlagan. 1989–1990-yillarda ishdan ajramagan holda Plexanov nomli Rossiya akademiyasi doktoranturasida o‘qigan va 1990-yil dekabr oyida “Mintaqalarda mehnat potensialini boshqarish muammolari” bobida iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqlagan.


U 1991–1993-yillarda “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi” kafedrasiga mudir, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining xalqaro aloqalar bo‘yicha rektor muovini vazifalarida ishlagan. 1993–1995-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi qoshidagi Mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy himoya qilish muammolarini o‘rganish Ilmiy Markazi direktori lavozimida faoliyat yuritdi. 1995-yildan boshlab Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi” kafedrasining mudiri va professori vazifasida ishlagan. Ayni bir vaqtda TDIU qoshida G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot akademiyasining O‘quv Ilmiy Markaz direktori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining “Menejment va marketing” kafedrasining professori va shu akademianing Ilmiy Kengash a’zosi sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. K.Abduraxmonov 1995-yildan hozirgacha G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali direktori lavozimida ishlamoqda.

Asosiy ilmiy ishlari iqtisodiyot nazariyasi, menejment, mehnat iqtisodiyoti, turizm menejmenti, inson rivojlanishi bilan bog‘liq o‘quv adabiyotlarni nashr qildirish bo‘ldi.

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich²³¹

— iqtisod fanlari doktori, professor, akademik. 1954-yil 4-sentabrda Toshkent shaxrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. 1971-yil Toshkent xalq xo‘jaligi intisstitutining “Iqtisodiy rejalashtirish” fakultetiga o‘qishga kirdi. 1975-yilda O‘zSSR Davlat rejalashtirish Boshqarmasi qoshidagi Iqtisodiy tadqiqotlar ilmiy institutining “Tarmoqlararo balans” labaratoriyasiga katta laborant bo‘lib ishga kirdi. 1977-yildan boshlab “Mintaqaviy iqtisodiyot” laboratoriysi ilmiy xodimi bo‘lib ishladi. 1977-yilda o‘z ilmiy faoliyatini Rossiyaning G.V. Plexanov nomidagi Moskva Xalq xo‘jaligi instituti “Iqtisodiy kibernetika” kafedrasida davom ettirdi. 1978-yilda S.S. G‘ulyamov “Оптимизация развития агропромышленного района (на примере Бухара-Коганского района Бухарской области)» bobsidagi nomzodlik dissertatsiyasini muddatdan ilgari muvaffaqiyatli himoya qildi, iqtisod fanlari nomzodi darajasini oldi. Uning ushbu ishida birinchi marotaba Buxoro viloyati Buxoro-Kogon tumanining tarmoqlararo balansi ishlab chiqildi, tarmoqlararo balansning natural-baholi tizimini qo‘llash va rivojlantirishning iqtisodiy matematik modellari orqali batafsil yoritilgan. 1984-yil M.V.Lomonosov nomli Moskva Davlat universitetining doktoranti, 1986-yilda “Проблемы моделирования развития региональных аграрно-промышленных комплексов» bobida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning ushbu ishida tarmoqlararo tuman paxtachilik majmuini modellashtirish muammolari chuqur tadqiq etilgan. Bunda paxtachilik ASM vazifalarining tabaqalari hamda ularni maqbullashtirish modellarining mantiqiy-axborot bog‘lanishi, shuningdek tuman ASMni maqbullashtirishning 15 ta modellaridan tashkil topgan iqtisodiy matematik modellar tizimi ishlab chiqilgan.

S.S. Gulyamov ilmiy tadqiqotlari dolzarb va serqirra bo‘lib, chuqur mazmunga ega. Uning ilmiy izlanishlari iqtisod fani imkoniyatlarini oshirishda, respublika ASM rivojida nazariy va amaliy



G‘ulomov S.S.

²³¹ Иктисадчи олимлар. Тўпловчи ва тузувчилар: Х.П.Абулқосимов, Т.Т.Жўраев. –Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2016. 14–20-бетлар.

ahamiyatini kuchaytirish hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda salmoqli hissasi bo‘lib qo‘shildi. Shuningdek, S.S. Gulyamov Respublika qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining ilmiy hamda kadrlar tayyorlash tashkilotchisi va faol ishtirokchisidir.

Qo‘shimcha tizimli ta’sirni inobatga olgan holda, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi oshishini rag‘batlantiruvchi omillarini qo‘llab, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini maqbullashtirish mezonlarini aniqlash ham unga tegishli tadqiqotdir. Bu sarf qilinayotgan resurslar taqchillagini hisobga olgan holda pirovard mahsulotning real bahosini aniqlash, tarmoqlararo va mintaqalararo balans tuzish va o‘zaro samarali hamkorlik asosida viloyatlar, tumanlar o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. S.S.Gulyamov respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish, iste’molchi bozorini, agrobiznesni barqarorlashtirish, qishloq joylarda ijtimoiy va boshqa muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni bayon etgan.

Sherqul Shodmonov²³² 1941-yil 10-mayda Samarqand viloyati Gallaorol tumani, Gulbuloq qishloq kengashiga qarashli Misr qishlog‘ida tug‘ilgan. 1958-yilda o‘rtta mакtabni bitirgan. 1958–1964-yillarda Gulbuloq davlat xo‘jaliklarida oddiy ishchi, statistik vazifalarida ishlagan. 1964-yilda Toshkent xalq xo‘jaligi institutiga kirib, 1968-yilda imtiyozli diplom bilan bitirgan. Institutni tugatgach, “Siyosiy iqtisod” kafedrasida faoliyatini boshladi. Ushbu kafedra bir yillik aspiranturani tamomlab, 1973-yili nomzod dissertatsiyasini himoya qildi. Shundan keyin shu kafedrada assistent, katta o‘qituvchi, dotsent lavozimlarida ishladi, 1986-yilda “Siyosiy iqtisod” kafedrasiga mudirlik lavozimida saylandi. 1987-yil doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1989-yilda professor unvoni berildi.

1992-yilda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi” unvoni bilan taqdirlandi. 2001–2004-yillarda TDIUda Ma’naviyat-ma’rifat ishlari bo‘yicha prorektor lavozimida faoliyat



Sh.Shodmonov

²³² Иктисадчи олимлар. Тўпловчи ва тузувчилар: Х.П.Абулқосимов, Т.Т.Жўраев. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2016. 295–297-бетлар.

yuritdi. 1986–2009-yillarda “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasи mudiri lavozimida ishladi. 2009-yildan buyon shu vaqtgacha kafedra professori lavozimida ishlab kelmoqda.

Sh.Shodmonov 2002-yilda Osiyo oliv yurtlari Xalqaro fanlar akademiyasining akademikligiga saylandi.

1989–2012-yillarda mamlakatimizdagi turli universitetlar va Toshkent moliya instituti huzuridagi iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini berish bo‘yicha birlashgan ixtisoslashgan kengash a’zosi va Olmaota shahri Abay nomidagi Qozog‘iston Milliy pedagogika universiteti qoshidagi doktorlik dissertatsiyalari himoya qilish ilmiy kengashning a’zosi (2005–2011-yillar) sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

2007–2011-yillarda OT-F7-121 sonli “Iqtisodiyotda tejamkorlik va mutanosiblikni ta’minlashning nazariy-uslubiy asoslari” bobidagi hamda 2017–2020-yillarda OT-F1-155. “Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonida xarajatlar miqdorini kamaytirish, tarkibini takomillashtirishning fundamental (nazariy) asoslarini ishlab chiqish” bobsidagi Respublika miqyosidagi ilmiy loyihibalariga rahbarlik qildi va u asosida mazkur davrdlarda bir qator muammolar asosida respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etishda boshchilik qildi.

Sh.Shodmonov o‘z mehnat faoliyati davomida iqtisodiyot nazariyasi va iqtisodiyotni rivojlantirishga bag‘ishlangan 20 tadan ortiq darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa o‘quv adabiyotlari, 200 dan ortiq nomdagagi 400 b.t. hajmdagi ko‘proq ilmiy, o‘quv va o‘quv uslubiy ishlari hamda o‘quv dasturlari chop etilgan bo‘lib, ular asosida Respublikamiz iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashning nazariy jihatlarini yoritishga harakat qilgan.

Sh.Shodmonov tomonidan chop etilgan “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligi 2011-yilda **“Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti muallifi”** respublika tanloving g‘olib sifatida 3-darajali diplom bilan taqdirlangan.

Sh.Shodmonovning bevosita ilmiy rahbarligida 3 nafar fan doktorlari, 18 nafar fan nomzodlari va bir necha o‘nlab magistrlar shogird sifatida tayyorlangan. Hozirgi vaqtda bu kishi 3 nafar fan doktorligi dissertatsiyalariga va bir nechta ilmiy tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilmoqda. Bu kishining rahbarligida himoya qilgan

shogirdlari mamlakatimiz oliv o‘quv yurtlarida va iqtisodiyotimizning turli sohalarida faoliyat olib bormoqda.

Toshkent davlat iqtisodiyot univyerstietida har yili “9-may – Xotira va qadrlash kuni” bayram munosabati bilan “Ustozlarni yod aylab” bobida faxriy ustozlarni taklif etib universitet miqyosida va talabalar turar joylarida tashkil etiladigan tadbirni o‘tkazishda boshchilik qilib kelmoqda.

Razzoqov Abdughalil – 1939-yil 4-oktabrda Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumanida tavallud topgan va 2013-yil 11-dekabrda vafot etgan. O‘rta maktabni tugatgach (1957), O‘rta Osiyo davlat universiteti, hozirgi O‘zMUDA (1957–1962), keyinroq Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika institutida(1983) ta’lim olib, imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 1961–1968-yillarda O‘rta Osiyoda suv muammolarini o‘rganish borasida O‘rta Osiyo gidrometeorologiya ilmiy tekshirish institutida kichik ilmiy xodim aspirant bo‘lgan. 1968–1971-yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida kichik ilmiy xodim bo‘lgan. 1971–2009-yillarda TDIUDA o‘z faoliyatini olib borgan. 1990–2005-yillar sentabrgacha TDIUDA “Iqtisodiy tarix” kafedrasi mudiri. 2005-yil sentabrdan “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi professori lavozimida hayotining so‘nggi yillarigacha faoliyat ko‘rsatgan.

1971-yilda “Mirzacho‘ldagi sug‘oriladigan yerlar melioratsiyasi tarixi” bobsidagi disertatsiya ishiga tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi berilgan.

1991-yilda “O‘zbekistonda melioratsiya tarixi” bobidagi disertatsiya ishi uchun tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olgan.

A.Razzoqovning e’lon qilingan asarlari bibliografiyasi 400 dan ortiq nomda bo‘lib, shulardan 50 tasi monografiya, darslik va risolalar.

A.Razzoqov suv va melioratsiyaga oid bir qancha asarlar muallifidir. Jumladan, “Inson va suv” R.Egamberdiev bilan hammualliflikda, “Melioratsiyaning xalq usullari” (1982), “O‘zbekistonda qo‘riq yerkarni sug‘orish, o‘zlashtirish va



A. Razzoqov

melioratsiyalash tarixidan” (1984), “O‘zbekiston melioratsiyasi” (1988), “Suv va hayot” (1991) kabilar.


A.Razzoqov respublikamizda iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olgan talabalar uchun dastlabki Iqtisodiy ta’limotlar tarixi darsligini yaratilishida mualliflar jamoasiga rahbarlik qilgan. Xusan, SH.Tashmatov va N.O‘rmonov bilan hammualliflikda “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” darsligi 2002-yilda va 2007- yillarda qayta nashrdan chiqarilib, ilmiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan. Darslikda mustaqillik davri islohotlari, o‘tish davrining mohiyati ayniqsa respublikamizning MDH davlatlari ichida o‘ziga xos xususiyatlarini, uning iqtisodiy imkoniyatlarini keng yoritilishida olimning xizmatlari kattadir.

A.Razzoqov qalamiga mansub “O‘rtta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g‘oyalari”, “Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari” va “Nobel mukofoti laureatlari” kitoblariga mutaxassislar va iqtisodchi olimlar tomonidan yuqori baho berilgandir. Olim o‘z asarlarida har bir yangi davr o‘ziga xos bo‘lib unda turli muammolar hal etilishi zarurligini ko‘rsatib, unda albatta o‘tmish tajribalaridan foydalanish va kerakli xulosalarni olish mumkunligini e‘tirof etar edi.

A.Razzoqov Respublikada xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi, oliy va xalq ta’limi a‘lochisi edi.

Sobirov Hikmat Raximovich – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi, iqtisod fanlari doktori, professor. 1923-yil 29-aprelda Toshkent shahrida o‘qituvchilar oilasida tug‘ilgan. 1938-yilda Xikmat Sobirov Toshkent Moliya-iqtisod institutiga o‘qishga kiradi. 1942-yilda institutni tamomlab, dastlab Yuqori Chirchiq, keyinchalik Toshkent qishloq va Yangiyo‘l rayon moliya bo‘limlarida soliq xizmati inspektori va bosh inspektor vazifalarida ishlaydi.

Hikmat Sobirovga 1949-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining iqtisod instituti ilmiy kengashida “Turkiston avtonom respublikasi davlat budjeti” mavzusidagi nomzodlik, 1968-yilda esa “O‘zbekiston Respublikasi umumdavlat moliyasi tarixi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Keyingi yillarda X. Sobirov ilmiy



H.Sobirov

rahbarligida moliya va budjet tizimi yo‘nalishlarida o‘nga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

1970-yilda Xikmat Sobirovga professor unvoni berilgan. U 2002-yilda «O‘zbekiston davlati moliya tarixi» nomli o‘zbek tilida monografiya nashr qilgan. Yarim asrdan ko‘prok davr ichida Hikmat Sobirov O‘zbekistonning moliya tarixi, uning o‘tmishi va istiqbollariga doir 400 ga yaqin monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, maqolalar e’lon qilgan.

Hikmat Sobirov O‘zbekistonda moliya fani asoschilaridan biri hamda moliya ta’limini yirik tashkilotchisi edi. Iqtisod ilmining bilimdoni, moliyachi olimning butun hayoti Toshkent Xalk xo‘jaligi (hozirda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) va moliya instituti tarixi bilan chambarchas bog‘liq.

Ilmiy-pedagogik va jamoatchilik yumushlarida 50 yildan ortiq faoliyat ko‘rsatib, darslik va qo‘llanmalar chop ettirib, shu bilan birga, buyuk mutafakkirlarni iqtisod va moliya bobidagi fikrlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. «O‘rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy qarashlari» nomli bu yo‘nalishdagi ilk maqolalari 6 tomlik «Всемирная история экономической мысли» kitobining birinchi tomida chop etilgan. Bundan tashkari, mazkur izlanishlari mahsuli Xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan Fransiya va O‘zbekistonda 1996-yilda chop etilib «Amir-Temur jahon tarixida» kitobida o‘z aksini topdi.

Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan iqtisodchi kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari uchun unga «**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi**» degan yuksak unvon berilgan, «**Xalqlar Do‘sstligi**» ordeni, 1992-yilda «Mustaqillik» nishoni va ko‘plab medal va faxriy yorliklar, 1998-yilda Xikmat Sobirovga Toshkent moliya institutini «Fahriy professori» unvoni berilgan, 2000-yilda esa «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining sovrindori» bo‘lgan.

Hikmat Sobirov 2004-yil 4-mayda 81 yoshida vafot etgan.

Soatov No'mon Muhammadjonovich – iqtisod fanlari doktori, professor. 1934-yilning 15-yanvarida Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tavallud topgan. 1955-yilda Toshkent moliya-iqtisod institutini tugatgan, so'ngra u shu institutning “Statistika” kafedrasida uzluksiz ravishda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ulangan. No'mon Soatov 1963-yilda nomzodlik, 1977-yilda esa Moskva iqtisodiy statistika institutining ilmiy kengashida doktorlik disertatsiyasini yoqlagan.




N. Soatov

Soatov N.M. 50 yillik ilmiy faoliyati natijalari va tajribalariga tayanib, 2 ta monografiya, statistika fani bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar, respublika va xalqaro nashrlarda esa 100 ga yaqin ilmiy va o'quv uslubiy maqolalarni nashr etgan. Uning ilmiy rahbarligida 5 nafar fan doktori va 30 nafar fan nomzodlari tayyorlangan. Olimning barcha ilmiy ishlari, xususan, sug'orma dehqonchilik statistikasini tashkil etish uslubiga bag'ishlangan monografiya va doktorlik dissertatsiya ilmiy jamoachilik tomonidan yuqori baholangan.

Olimning ilmiy izlanishlari doirasi juda keng va serqirradir. U kishi statistika tarixi va nazariyasi, mikro va makroiqtisodiy statistika, milliy hisoblar tizimi, ayrim tarmoqlar statistikasi yo'nalishlarida samarali ilmiy pedagogik faoliyat olib borgan. Soatov No'mon o'zining faoliyati davomida institut qoshidagi ilmiy laboratoriyaga 23 yil mudrlik qilgan, undan so'ng 27 yil statistika kafedrasini boshqargan va 5 yil davomida institutning ilmiy ishlari bo'yicha prorektor vazifasini bajargan. Uning mehnatlari yuksak qadrlangan: “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi” unvoni bilan va Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining qator mukofotlari bilan taqdirlangan.

Toshkent Xalqaro Westminster universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori Shodiev Tursun. Shodiyev Tursun 1942-yil 15-fevralda Navoiy viloyati Nurota tumani Boraq qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan. 1959-yilda Langar konida o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlagandan so'ng Langar poselka



T.Shodiyev

deputatlar kengashida hisobchi-iqtisodchi lavozimida ish faoliyatini boshlagan. 1960-yili u Toshkent moliya-iqtisod institutining (hozirgi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining) rejalashtirish fakultetiga o‘qishga kiradi. Studentlik davrida barcha fanlardan faqat a’lo baholarga o‘qiganligi tufayli o‘sha davrdagi davlat arbobi (Lenin stipendiati) stipendiati sohibi bo‘lgan. Studentlar ilmiy to‘garaklarining faol ishtirokchisi bo‘lgan Shodiev 1962-yil mart oyida Moskva davlat universitetining talabalari ilmiy anjumanida mulkiy munosabatlarni takomillashtirish bobsida maruza qilgan. 1965-yilda u TXXI institutni imtiyozli diplom bilan tugatgandan so‘ng yosh mutaxassislarni ishga taqsimlash Davlat komissiyasining qaroriga binoan u Toshkent xalq xo‘jaligi institutining (hozirgi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti kafedrasida tadqiqotchi lavozimida ish faoliyatini boshlaydi. 1966-yili sentyabr oyida u Moskva xalq xo‘jaligi instituti (hozirgi Rossiya iqtisodiyot universiteti) ning iqtisodiy kibernetika ixtisosligi bo‘yicha kunduzgi aspiranturaga o‘qishga kiradi. 1969-yili iyun oyida Moskva xalq xo‘jaligi institutining ilmiy kengashida “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini matematik funksiyalar yordamida tahlil etish” bobsida iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqladi va aspiranturani muddatidan oldin tugatib, TXXIga ish faoliyatini davom ettirish uchun Toshkentga qaytib keladi. U 1969-yil avgust oyidan boshlab iqtisodiy kibernetika kafedrasida avval assistent, keyinchalik katta o‘qituvchi va dotsent lavozimlarida to 1978-yilgacha dars berdi. Bundan tashqari 1970-yildan to 1978-yilgacha u o‘rindoshlik asosida TXXI ning o‘quv bo‘limida o‘quv bo‘limi boshlig‘ining muovini va keyinchalik boshlig‘i bo‘lib ishladi va institutning o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etish va takomillashtirishda jonbozlik ko‘rsatadi.

1978–1980-yillari Shodiyev Tursun doktorlik dissertatsiyasini tugatish uchun katta ilmiy xodim lavozimida tadqiqot olib boradi. 1980-yil sentyabr oyida konkurs asosida u iqtisodiy kibernetika kafedrasining mudiri lavozimiga saylanadi va to 2006-yilgacha kafedraga rahbarlik qiladi. U 1988-yili “Qishloq xo‘jaligi taraqqiyotini ekonometrik modellar asosida bashoratlash” bobida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1990-yili Shodievga professor ilmiy unvoni berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: islohot, farmon, strategiya, iqtisodiyot, liberallashtirish, diversifikatsiya, ekonometrika, kibernetika.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sh.Mirziyoyev islohoti nimada?
2. Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga Sh.Mirziyoyev qanday tamoyillarga asoslandi?
3. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi nechta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga oladi? Ularni mazmuni qanday?
4. Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo‘nalishlar belgilandi?
5. Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni liberallashtirishda qanday islohotlar amalga oshirish nazarda tutilgan?
6. Iqtisodiyotni liberallashtirish orqali insonlar ongida qanday o‘zgarishlar bo‘lishi kutiliyapti?
7. O‘zbekistonning ohirgi yillardagi qanday davlat dasturlarini bilasiz? Ular bir-biri bilan qanday bog‘langanligini tahlil qiling.
8. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring.
9. Prezidentimiz tomonidan valutani erkinlashtirish bilan belgilab berilgan vazifalari nimalardan iborat?
10. Iqtisodiyotni isloh qilishda qaysi o‘zbek olimlarini aytib bera olasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR **ASOSIY ADABIYOTLAR**

1.“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olujanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qattiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

5. Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiylar hamda O‘zbekiston ekologik harakati vakillari bilan videoselektr yig‘ilishidagi ma’ruzasi.

6. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T.: «O‘zbekiston», 1995

7. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelejak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998.

8. Karimov I.A.. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. –T.: O‘zbekiston, 2000.

9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yollari va choralar. –T.: O‘zbekiston, 2009.

10. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisdagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, 2005-yil 19-yanvar, №13, 3-b

11. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16

yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2007-yil 31-avgust.

12. Inson manfaatlari ustunligini ta’minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2008-yil 9-fevral.

13. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning BMT Bosh Assambleyasining Mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisdagi nutqi. Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari. –T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2010.

14. Harry Landreth, David C. Colandyer “History of economic Thought”.

15. Sir William Petty, The economic Writings, 2 vols., ed. C. H. Hill (London: Cambridge Univyersity Press, 1899)

16. J. M. Keynes. Economic Journal, 23 (September 1913)

17. John A. Hobson, Work and Wealth (New YOrk: Macmillan, 1914).

18. Edvin Cannan, Ingliz Siyosiy iqtisodda ishlab chiqarish va taqsimlash nazariyasi tarixi. 3 nashr (London: D. S. King va O‘g‘il 1917).

19. J. M. Keynes, The Genyeral Theory of employment, Intyerest, and Money (London: Macmillan, 1936).

20. David Ricardo, On the Principles of Political economy and Taxation, in The Works and Correspondence of David Ricardo, eds. Piyero Sraffa and M. H. Dobb, I (Cambridge: Cambridge Univyersity Press, 1953).

21. Michal Kalecki, “An essay on the Theory of the Business Cycle” [1933], Translated in his Studies in the Theory of Business Cycles: 1933-1939 (London: Basil Blackwell, 1966).

22. W C. Mitchell, Types of economic Theory (New York: Augustus M. Kelley, 1967).

23. Thorstein Veblen, “The Limitations of Marginal Utility,” in The Place of Science in Modyern Civilization.

24. Thorstein Veblen, Theory of Business enterprise.
25. Marks K. Soch. – 2-e izd.-T.26, ch.1.1955.
26. Samuelson, Paul A. Economics, 3rd ed.. — McGraw-Hill, 1955.
27. Kahneman D., Tversky A. (1979) Prospect theory: An analysis of decision undyer risk. *Econometrica*.
28. Arjo Klamer, Conversations with economists (Totowa, N.J.: Rowman and Allanheld, 1984).
29. Engle R., Granger S. Co-integration and yerror-correction: Representation, estimation and Testing. – *econometrica*, 1987.
30. Найт Ф. Х. Риск, неопределенность и прибыль / пер. с англ. – М.: Дело, 2003.
31. Frank Hahn, “The Neo-Ricardians,” *Cambridge journal of economics*, 6 (1982).
32. Temur tuzuklari. –T.: 1991.
33. Nizomulmulk Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk, –T.:, 1997.
34. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani bo‘yicha ma’ruzalar matni. Toshkent kimyo-texnologiyalar instituti. –T.: 2004.
35. Xolmo‘minov Sh.R., Shoyusupova N.T., Xolmurotov S.E. «Mehnat bozori iqtisodiyoti» (O‘quv qo‘llanma) –T.: TDIU, 2006.
36. Razzoqov A., Tashmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik (lotin yozuvida). –T.: “Iqtisod va moliya”, 2007.
37. Razzoqov A., Tashmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Ma’ruzalar matni (lotin yozuvida). –T.: TDIU, 2007.
38. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –T.: “Universitet”, 2007.
39. Razzoqov A. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy g‘oyalari. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2009.
40. Egamov E., Djumanov D. Zamonaviy iqtisodiy ta’limotlar (ma’ruzalar matni) Toshkent-2010.
41. Egamov E., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi . Ma’ruzalar matni. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010.
42. Razzoqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011.
43. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. (2 qism). Ko‘rgazmali va tarqatma materiallar. –T.: «Fan va texnologiya», 2013.

44. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh., Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. (lotin yozuvida) Fan va texnologiyalar, 2017
45. Asatullayev X., Djumonov D., Allaberganov Z., Xusanov D., Mamadiyorov O. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma’ruzalar matni). –Toshkent, 2014
46. Djumanov D., Husanov D., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma’ruzalar matni). –Toshkent, 2015.
47. Djumanov D., Allaberganov Z., Husanov D., Mamadiyorov O., Ro’ziyev B. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi (ma’ruzalar matni). –Toshkent, 2016.
48. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» fani bo‘yicha ishchi daftar. –Т.: «Iqtisodiyot», 2016.
49. Iqtisodchi olimlar. To‘plovchi va tuzuvchilar: X.P.Abulqosimov, T.T.Jo‘raev. – Т.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016.
50. Кидланд Ф., Прескотт Е. Динамика оптимального налогообложения, рационального ожидания и оптимальный контроль (Dynamic Optimal Taxation, Rational expectations and Optimal Control, 1980.
51. Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории: Пер.с англ. / Сост. И науч. ред. Р.И.Капелюшников; Предисл. М.И.Левина. –М.: GU-VSHE, 2003.
52. Абалкин Л.И. Рост потребления и фактор разнобразия Новейшие исследования западных и российских эволюционистов. –М., 2004.
53. Соколова Г.Н. Рыночные отношения в Беларуси: от эволюции к инновациям // Социологические исследования. 2007. № 2. 118.
54. Улыбин К.А. Социалистическая собственность без иллюзий и догм. – М., 1990.
55. П.Хейне. Экономический образ мышления. М.: Новости, 2001.
56. История экономической мысли/ Под ред.В.В.Круглова, Е.В.Балахановой. - СПб.: Питер, 2008.
57. Гукасян Г.М., Нинцева Г.В. История экономической мысли.- СПб.:Питер, 2008.

58. А.Н.Кошелев. Краткий курс по истории экономических учений: учебное пособие. –М.: Издательство «Окей-книга», 2008.
59. Е.Ф.Борисов. Экономическая теория. Курс лекций для студентов высших учебных заведений. –СП.: 2008.
60. Вечканов Г.С. Экономическая теория. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2010.
61. Вечканов Г.С. Экономическая теория: Учебник для вузов. 3-е изд. Стандарт третьего поколения. — СПб.: Питер, 2011.
62. Biznes-ekspert. Ilmiy jurnal №9. 2012.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

- 63.T.Ergashev, R.Ismatov. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. — Т.:Sharq. 2001.
- 64.Do‘sxodjaev T., Mirhamidov M., Hasanov S., O‘zbekistonda fuqorolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. –Т.: “Moliya iqtisod”, 2004.
- 65.Qodirova Z.R. Yangicha iqtisodiy tafakkur va xalqaro munosabatlar//Xalqaro munosabatlar// 2004, №2, 84 b.
- 66.D.Tojiboyeva, N.Xo‘jayev, G.Avalova. Iqtisodiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Т., “Fan va texnologiya”, 2008.
- 67.B.Yu.Xodiyev. “O‘zbekiston iqtisodida tadbirkorlik rivojining ekonometrik modellashtirish” bobsida 08.00.06 Ekonometrika va statistika ixtisosligi bo‘yicha iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Т. 2000.
- 68.Eshmurodova G.X. O‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini shakllantirish mazmuni (VII-IX sinflar misolida).P.f.n.darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2009.
- 69.X.P.Abulqosimov. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo‘llari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilagan dissertatsiya. –Т. 2005.
70. Saidov A.X. O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsuya va isloh etishda ijtimoiy fanlarning roli // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, №3, 2006, 3-b
- 71.Otamuratov S. Hozirgi bosqichda jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiya qilishning dolzarb vazifalari / «O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiya qilishning dolzarb muammolari» Respublika

ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. 2005-yil 19–20-may. TQTI.
– Т., 2005.

72. Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства, –М.: 2005

73. Суделский А.П. Формирование у школьников экономической культуры. Ж. Педагогика. – М.: 1987

74. Независимая газета, 31 декабря 1998

75. А.С. Булатов. Экономика. Учебник. Москва, 1999

76. Internet saytlari:

77. <http://www.modyerniz.org.ru>, <http://www.sooB.ru>,

78. <http://ekonomic.doco.ru>,

79. <http://ru.wikipedia.org/wiki>,

80. <https://konspekts.ru/ekonomika-2/evolyucionnyj-i-revolucionnyj-put-shokovaya-terapiya-kak-osnovne-varianty-perexoda-k-rynochnoj-ekonomike/b>

81. <http://old.russ.ru/politics/articles/99-03-30/kiva.htm>

82. www.nobelprize.org

83. <http://www.ekoslovar.ru/493.html>

TASHMATOV SHUXRATDJAN XAMRAYEVICH

**IQTISODIY
TA'LIMOTLAR TARIXI**

Darslik

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	N. Abdullayeva
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M. Zoyirova

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 09.09.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.

Offset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 32,0. Nashriyot bosma tabog‘i 31,5.
Tiraji: 50. Buyurtma № 243

«INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.



ISBN 978-9943-7663-9-6

A standard linear barcode representing the ISBN 9789943766396, with the numbers printed vertically below it.